

1022
V H 71



O'tkir Hoshimov



Ikki eshik orasi



1 022
Y H71

ASR OSHGAN ASARLAR

O'TKIR
HOSHIMOV

IKKI ESHIK
ORASI

Roman



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT – 2013



UO'K 821.512.133-31
KBK 84(50')
H 71

H 71 **Hoshimov, O'tkir.**
 Ikki eshik orasi: Roman. – T.: «Sharq»,
 2013. – 624 b.

ISBN 978-9943-26-055-9

UO'K 821.512.133-31
KBK 84(50')

ISBN 978-9943-26-055-9

© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati, 2012, 2013.

**QURILISH-MONTAJ BRIGADASINING BOSHLOG'I
MUZAFFAR SHOMURODOV HIKOYASI**

SOVUQ XABAR

Payshanba – maosh kuni edi. Peshindan keyin atrofi taxta devor bilan omonat o'ralgan qurilish hovlisiga chang-to'zon ko'tarib «ZIL» mashinasi kirib keldi. Chekkadagi ko'chma vagoncha oldida voshillab to'xtadi. Kabina eshigi ochilib, qo'ltig'iga qora sumka qistirgan kassir qiz – Faya sakrab tushdi. Vagoncha zinasiga pildirab chiqib, baqirdi:

– Yigitlar, kelig'iz, zarplata olig'iz!

Betonchi Safar aka ayiqdek lapanglab vagoncha tomonga birinchi bo'lib yurdi. Ketidan payvandchimiz Ikrom aka. Uning ketidan Erkin degan takelajchi yigit...

Saraton oftobi ayovsiz qizdirayotgan, oyoq ostida qum, beton qorishmasining kukunlari sochilib yotgan

«Rost bilan yolg'onning o'rtasi – to'rt enlik», degan gap bor. Qiziq, nega endi oz emas, ko'p emas, to'rt enlik? Gap shundaki, ko'z bilan quloqning orasi – to'rt enlik ekan. Eshitganingga emas, ko'rganingga ishon... Maqsad – shu.

Bu kitobdagi ko'p odamlarni o'zim ko'rganman. Ko'plari bilan gaplashganman. Ba'zilarining o'zi bilan, ba'zilarining... ruhi bilan... Ba'zilari nimani gapirgan bo'lsa, shuni qog'ozga tushirdim. Ba'zilari nima gapirganini emas, nima o'ylaganini yozishga majbur bo'ldim. (Nachora, hamma rost gapiravermaydi. Ammo yolg'on gapirayotgan odam ham ichida, baribir rostini o'ylaydi.)

Xullas, bu savdolar ko'p yillar davomida ko'p kishilarning boshidan kechgan. Ular ustidan hukm chiqarish – sizlarga havola...

Tilimning uchida turgan yana bir andishani aytmasam bo'lmaydi. Ehtimol, siz bu kitobda foje ko'payibroq ketmadimikin, degan xayolga borarsiz. Nachora, avvalo hayot – nuqul bayramdan iborat emas. Urush esa o'yin emas. Ikkinchi jahon urushi ellik million odamning uvoliga qoldi. Shundan yigirma millioni bizning odamlar edi. Eng aziz, eng asl kishilarimiz. Qolaversa, urush faqat okopdagi jangchilarning joniga chang solib qolmadi. Minglab chaqirim naridagi odamlarni ham sinovdan o'tkazdi. Mushkul damlarda imonini, insonligini saqlab qolgan ota-onalarimiz, aka-opalarimizning hayoti bugungi zamonda bizga o'mak bo'lsa ne ajab!

Muallif

maydonchadan o'tib, vagoncha soyasiga bordim-u, turib qoldim. Hozir dilsiyohlik bo'lishini bilib, yuragim g'ash tortdi.

Quruvchi xalqi – nozik. Maoshning barakasi uchdimi, darrov «O'z ixtiyori bilan» ariza beradi-da, smetasi «yeb bitirilmagan» boshqa obyektga o'tadi-ketadi. Toshkentda nima ko'p – qurilish ko'p. To'g'ri, bizning yigitlar unaqa emas: o'n uch kishi zilziladan buyon birga ishlaymiz: o'n ikki yil bo'ldi. Hammamiz aka-uka bo'lib ketganmiz. Olti yil avval meni o'zlari brigadir qilib «ko'tarishgan». Shu kungacha naryadni o'rtacha o'n so'mdan kam yopmasdim. Bu safar...

...Hammasiga o'sha «A – 1» armaturali la'nati panel sabab bo'ldi. Yo'q, gap panelda emas, «Kobra»da! «Kobra» deganimiz boshqarmamizning boshlig'i – Shavkat Qudratovich. Shu odam o'z vaqtida uysozlik kombinatidan «A – 1» emas, «A – 2» armaturali panelni yetkazib berganida olam guliston edi. Tag'in do'q urishiga o'laymi?! Uch kun avval «Moskvich»ida kep qoldi... Brigadadagi yigitlar uni «Kobra» deganicha bor. Har «ko'zi» piyoladek oynak taqib yuradi. O'zining yuzi lagandek. Razm solib qarsangiz, oppoq chinni laganning ikki chetiga ikkita piyola to'ntarib qo'yilganga o'xshaydi. Aslida kim qanaqa ko'zoynak taqishi o'zining ishiku-ya! Faqat Shavkat Qudratovichning fe'li g'alati: o'tirgan kreslosini shunaqangi yaxshi ko'radiki, Safar akaning aytishicha, orqasini o'sha kursiga kamida «besh yuz» markali sement bilan yopishtirib olgan: qimirlasa terisi shilinib chiqadi. Unga bitta narsa kerak: qay yo'l bilan bo'lmasin, planni bajarsa, ko'chma Qizil bayroq olsa – bas. Ketidan ishkal chiqsa, prorabnimi, brigadirnimi aybdor qiladi-yu, o'zi bir chekkaga chiqib turaveradi. Qabuliga kirsangiz o'pishib ko'rishadi, chiqishingiz bilan orqangizdan yomonlaydi...

Xullas, uch kun avval «Moskvich»ida kelib qoldi. Yigitlar uchinchi qavatda domino o'ynab o'tirishar, shaqur-shuqur tovushlar pastdan bemalol eshitilib turardi.

Shavkat Qudratovichning rangi o'chib ketdi.

– Bu qanaqa chempionat? – dedi yuqoriga imo qilib.

Indamay turaverdim. Ko'rib qo'ysin! Odamlar bekor o'tiribdi. Kerakli panel yo'q. Prorabga tushuntirdim, uchastka boshlig'iga iltimos qildim, o'zining qabuliga kirdim. Elkamga qoqib chiqarib yubordi.

– Kim u? – Shavkat Qudratovich ko'zoynagini yaltiratib chaqchaydi. – Familiyasi nima?

Aytdim nima-yu, aytmadim nima? Material bo'lmanidan keyin...

Indamay turishimdan hammasini tushundi.

– Dezorganizatorlikka o'zlari bosh-qosh bo'ptilar shekilli, o'rtoq Shomurodov? – dedi labi burilib. – Brigadirlik yuki og'irlik qilib qoldimi?

Yana indamadim. Oxiri uning toqati toq bo'ldi.

– Til-zabon bormi o'zi! – dedi tutoqib. – Kvartal tugayapti. Birinchi iyuldan pardozechilar ishga tushishi kerak. To'rtinchi qavatni kim montaj qiladi? Tomni kim yopadi?

– Pardozechilar hali-veri ishga tushmaydi, – dedim xotirjamlik bilan.

Shavkat Qudratovichning rangi gezarib ketdi.

– O'h-ho'! Ja osmondasiz-ku, yigit!.. Gap bunday: uch kunda to'rtinchi qavatni montaj qilib, tomni yopasiz.

Nima dey? Nima qilay? Zina maydonchasining paneli loyihadagidan roppa-rosa bir qarich kalta bo'lsa, qandoq montaj qilamiz? Mayli, armaturalarni uchma-uch qilib ulasayam bo'ladi. Lekin «A – 1» ingichka armatura.

– Esingizdami, Shavkat aka, zilzilada bittayam panel uy yiqilmagan, ammo zinasi bosib qolgan uylar bo'lgan. Normativdagi panelni berishmasa...

U «voy tentag-ey», degandek qo'l siltadi:

– Zilzila o'n ikki yil avval bo'lgan, yigit. Endi qaytmaydi. «Vannochka» bilan svarka qilsangiz, qilt etmaydi.

Tushundim. «Vannochka» degani shuki, po'lat quvur uzunasiga kesiladi, plitaning armaturasi bilan devor armaturasi o'rtasiga qo'yib, «quyuq» payvand qilib yuboriladi. Keyin ikki chetda qolgan «yoriq»qa beton quyiladi. Tamom – vassalom! Ammo yaqinda «Qora-qamish» dahasidagi bitta uyning zinalari o'zidan-o'zi bosib tushdi. Yer qimirlamadi, hech kim eshigidan

chiqib zinapoyada sakramadi. Bir tonnalik beton plita shunchaki o'z og'irligini ko'tarolmay chokidan uzilib ketdi, bir emas, uch qavatni bosib qoldi. Yaxshiyamki, kechasi bo'lgan. Agar shu falokat ertalab, maktab bolasi o'qishga ketayotganida yoki kechqurun odamlar ishdan qaytayotganida ro'y bersa...

Dadam menga bir gapni ko'p aytgan. «O'zingdan katta odam noto'g'ri gapirsa ham qo'rslik qilma, muloyimlik bilan tushuntir».

Men ham «muloyimlik» bilan tushuntirdim:

– Shavkat Qudratovich, o'zingiz bilasiz. «Vannochka» foyda qilmaydi...

Yo'q! Gapimni eshitgisi ham kelmadi.

– Siz... siz... – dedi labi titrab. – Mayda odamsiz! Davlat manfaatini o'ylamaysiz! Mana shu uyga ko'chib kirishni o'n yildan beri kutayotgan odamlar bor! Onalar, bolalar. Ulug' Vatan urushining invalidlari... Topshiriqni bajaring!

Indamasang «siyosiy tomon»dan oladi!

– Yaxshi! – dedim. – Bitta iltimos, «A – 1» armaturali panelni montaj qilish mumkin, deb yozib bering... O'z qo'lingiz bilan...

«Kobra» seskanib ketdi. Hatto ikki lunji shishib ketgandek bo'ldi.

– Siz... – dedi vishillab. – Ilg'or boshqarmamizning umum maqsadiga ataylab bolta uryapsiz. Ko'ramiz, montajchilaringiz nosvoychining haqini olsa, nima deb sayrab qolarkansiz... Umuman... sizdaqa brigadirdan voz kechish masalasini o'ylab ko'ramiz... faktlarimiz yetarli...

«Moskvich» jo'nab ketanidan keyin ko'p gaplarni aytolmay qolganim o'zimga nash'a qildi. O'z qo'ling bilan yozib berganingda ham begona plitani baribir ishlatmasdim. Osmon qo'lingda bo'lsa tashlab yubor! Qachongacha qalbakilik qilamiz? Qachongacha yolg'on-yashiq plan bajarib, bayroq olamiz? Shu uyda o'zing yasharmiding, noinsof? Nega endi o'zingga ravo ko'rmagan narsani o'zgalarga ravo ko'rasan! Ol, o'sha dardisar brigadirlicingni!

Faqat... Bir jihatdan «Kobra»ning gapi rost: brigadadagi montajchilar «nosvoy puli» olsa, ko'raman tomoshani! Mana, bugun... Hozir...

Ana, beton qorishmasi sachrayverib, shimining pochasi qatirmoch bo'lib ketgan Safar aka ayiqdek lapanglab kelyapti.

– Nima bu? – dedi changalidagi uch so'mlik, besh so'mlik pullarni ko'rsatib.

Hazilga oldim.

– Pul shekilli, Safar aka...

– To'g'ri, pulga o'xshaydi, ammo-lekin pulmas, ma, to'yingga ishlat! – U ko'kimtir pullarni siltab, uloqtirib yubordi. Uch so'mlik, besh so'mliklar pirpirab, oftobda qizib yotgan qum aralash tuproq ustiga sochilib ketdi. – Qirq uch so'm pulmi? – dedi yuzini chir o'girib. – Nima, men senga studentmanmi?

Gapni tag'in hazilga burdim:

– O'n besh kundan olti kunini domino o'ynab o'tkazdik. O'ynab o'tirgan kunimizgayam to'rt so'mdan to'lashdi-ku, Safar aka! Xursand bo'lmaymizmi?

– Men senga o'ynab o'tiraman dedimmi?! – Safar aka qo'lini paxsa qildi. – O'z buvimning chorvog'ida ishladimmi? Topib bergin edi, qiladigan yumushimni!

Ana, Ikrom aka ham kelyapti. Bunisiyam hozir sannaydi, deb tursam, yo'q, yerda sochilib yotgan pullarni xotirjam yig'ishtirib oldi-da, Safar akaning cho'n-tagiga tiqdi.

– «Kobra» matiryal bermasa, Muzaffarda nima gunoh? – dedi to'ng'illab. – Tudovoy-sudovoy gaping bo'lsa bor, xo'jayinning o'ziga ayt!

– Mening xo'jayinim «Kobra»mas, shu! – Safar aka qovog'ini uyib menga imo qildi. Xo'rsinib qo'ydi. Bir nima esiga tushdi shekilli, yana qo'lini paxsa qildi. – Oltita bolam eyman, ichaman deb turibdi. To'rttasi maktabga boradi. Onangni emgurni bolalariga bittadan papka oberishgayam yetmaydi-ku, bu qizitaloq! – u jahl bilan kissasiga shapatiladi. – U yog'ini so'rasang, kichik qayinsinglim boshqa vaqt qurib qolgandek tug'ib berdi yaqinda! Uni beshik to'yisiyam meni gardanimda! Qaysi biriga yetkazay!

– Obbo! Ja, olasan-da, senam. Xotin kishi erga tekkanidan keyin tug'adi-da. Sendan so'rab o'tirarmi-di, – Ikrom aka do'stining elkasiga shapatiladi. – Qo'y endi, tudovoy-sudovoy gaplarni. Kaltai-ko'toh plitani yamab qo'ysak, Xudo ko'rsatmasin, ertaga bir bechorani bosib qolsa, xursand bo'larmiding?

– Bosmaydi! – Safar aka asabiylik bilan yelkasidan Ikrom akaning qo'lini siltab tashladi. – Shu kungacha bosib qolganini eshitganim yo'q. O'zim beton quyib, yamab tashlardim...

O'lganimning kunidan iljaydim.

– Beton quyan bilan ish bitmaydi. Safar aka, axir shu uydayam siz bilan menga o'xshagan odamlar...

– E, bor-e! – u shiddat bilan burildi. – Har kuni o'n martadan qulog'ingni qoqib qo'lingga beradigan xotining bo'lmasa, yo'lingga termulib turgan bolalaring bo'lmasa, gapni kim qo'yibdi senga!

– Hoy xuvori, – Ikrom aka lapanglab ketayotgan o'rtog'ining ketidan yugurdi. Besh-olti qadam narida yetib olib, yana yelkasiga qo'l tashlagan edi, Safar aka tag'in siltab yubordi.

Ikrom aka qaytib keldi.

– Ko'nglingga olma, ukam, – dedi xijolatdan iljayib. – Safarni endi ko'rayotganing yo'q-ku. Hozir tudovoy-sudovoy deydi-da, birpasdan keyin esidan chiqadi... U yog'ini so'rasang, mendayam beshtasi bor. Ko'rgansan-ku. Hammasi churvaqa.

Indamadim. Lekin ko'nglim xufton bo'ldi. Safar aka to'g'ri aytadi. Oltita bolasi bo'lsa. Hammasi yosh bo'lsa. Xotini ishlamasa... Nima zaril edi menga u yoqda «Kobra»ga, bu yoqda Safar akaga shumshuk ko'rinib? Bilaman, «Kobra» orqamdan «material» to'playdi endi. O'zi bir chekkaga chiqib oladi-da, «zam»nimi, bosh injenernimi ishga soladi. Tupurdim o'sha brigadirlikiga! Hayday qolsin. Ammo aldam-qaldam ish qilmayman.

Shuni o'ylab, kechgacha dilim g'ash bo'lib yurdi.

Temir armaturalardan kavsharlab yasalgan darvozadan ko'chaga chiqqanimda quyosh botib borar, havo dim edi. Qurilish maydonidagi kranning qir uchida saraton oftobining so'nggi nurlari yallig'lanadi.

Ufqni qizg'ish tumanlik qoplagan. Kun bo'yi yonayona toliqqan osmon endi yaxlit cho'g'ga aylanib tinchigandek. Safar akaning gapi haliyam xayolimdan ketmasdi. Rost aytadi. Orqa etagimda og'irligim yo'q, xarxasha qiladigan xotinim yo'q. Bersang yeyman, bermasang o'laman, deydigan bolam yo'q... Hozir uyga boraman. Omonning xotini – kelinim, «Mulla aka, yaxshi keldingizmi», deb qo'linga suv quyadi. (Agar ikkinchi smenada bo'lmasa.) Keyin dadam bilan oyimning xonasiga kiranman. Salom beraman. «Mana, dada, oylik teguvdi», deb bugun el qatori olgan qirq yetti so'mni qo'liga tutqazaman. Dadam pulni sanaydi-da, «barakasini bersin», deb o'zimga qaytaradi. Pulni oyimga uzataman. Oyim olmaydian, sanamaydian. Ko'zimga termilib turib, chuqur xo'rsinadi. Ana o'sha xo'rsinishi yoqmaydi. Avvallari maosh olgan kunim albatta «eski gap» qo'zg'alar edi.

«Ukang bir emas ikkita bolali bo'ldi, o'g'lim, ko'chaga chiqolmaydigan bo'lib qoldim-ku! Kimni ko'rsam, Muzaffarni qachon uylantirasiz, deydi. Dadang ikkalamizni bog'lab berganmas, bolam...» Oyim gapini tugatmasdan dadam ilib ketadi. «Qo'y, Robi, ovora bo'lma, o'g'ling osmondagi oyni oladi!»

Dadam bilan oyim gapiraveradi. Men esa Munavvarni eslayveraman. Hayrat bilan tikilib turgan ko'zlarini, katta-katta, qop-qora ko'zlarini... Keyin nimaga institutdan ketganim, nega qurilishga kelganimni o'ylayman. Ular azbaroyi zilzila tufayli o'g'limiz o'qishni tashlab ketdi, deb ishonadi. Men bo'lsa... Zilzila nima bo'pti! O'qishni tashlash nima bo'pti! Munavvar bo'lmaganidan keyin... Axir odam umrbod unutilmaydigan, umrbod o'zini kechiro olmaydigan narsalar ham bo'ladi-ku jahonda?!

«Osmondagi oy» emish... Oyni nima qilaman... Kimman o'zi? Nega odamlarga azob berishim kerak? Nima haqqim bor? Mana, bugun ham brigadamizdagi o'n ikki kishining hammasini xafa qildim. Safar akadan boshqa hech kim gapirmadi. Lekin hammasining oilasi bor, bola-chaqasi bor... Hatto mendan to'qqiz yosh kichik Erkinning ham. Xo'sh, nima qilay! Katta vijdotsizliklar

kichkina nopoklikdan boshlanishini bilsam nima qilay axir?

...Metro stantsiyasi yonidagi do'konchada limon sotishayotgan ekan. Ko'rib ko'nglimning chigili xiyol yozilgandek bo'ldi. Yaxshi, oyimni xursand qilishga bahona topildi. Ertalab, «boshimning orqasi achishib og'riyapti, yana davleniyam ko'tarilganga o'xshaydi», deb noligan edi. Ilgari oyimning buyragi og'rir edi. Biqinini changallab ikki bukchayib qolardi. Endi qon bosimi ham qo'shilgan. Do'xtirlar buyam buyrak kasali bilan bog'liq dermish...

Navbatga turib ikki kilo limon oldim. Buni qarangki, yalpizli saqich ham bor ekan. Ukamning qizi— Nilufar eshikdan kirishim bilan, «nima obkeldiz, katta ada», deb oyog'imga yopishadi. (Omonning o'g'li hali kichkina, endi emaklayapti. Ammo Nilufar pishiq qiz: bijir-bijir qilib odamning boshini qotirib tashlaydi, jinnivoy!)

Ko'chamizga yetib kelganimda hali yorug' edi. Bilasiz, bunaqa paytda bola zoti bog'lab qo'ysangiz ham uyda o'tirmaydi. Hammasi ko'chada shataloq otadi. Qiy-chuv, to'polon... Ko'chadan dam-badam mashina o'tib turganiga qaramay ikkita toshdan «darvoza» yasab olgan bolalar koptok tepyapti. Atlas lozim kiygan qo'shni kelinchak rezinka ichakning bir uchini hovlidagi vodoprovodga ulab, darvoza oldiga suv sepyapti. Dimoqqa qizigan asfalt hidi uriladi.

Arqondan sakrab o'ynayotgan Nilufarni uzoqdan ko'rdim. Bog'chadan kela solib tashqariga otilgan shekilli, oyog'idagi golfiginiyam yechmabdi. Boshi ustidan arqon aylantirib dikir-dikir sakrayapti. O'zidan tikroq o'rtog'i sanab turibdi.

«Nilu!» deyishim bilan yarq etib qaradi-yu, arqonning bandidan sudragancha men tomonga yugurdi.

— Senga minnama obkeldim! — dedim bir qo'limda limon o'ralgan gazetani quchoqlagancha, ikkinchi qo'limni cho'ntagimga tiqib.

— Nima, katta ada, nima? — dedi Nilufar halloslab.

— Avval bitta o'pay, keyin beraman.

— Ho! — Nilufar o'zini orqaga tashladi. — Oldin bering-da!

– Mayli, yarimta o‘paman.

Nilufarning terlab, kir bo‘lib ketgan yuzidan o‘pib, saqichni uzatdim.

– Mana! O‘rtog‘inggayam ber...

– Urre! Katta adam jevachka obkeldila! – Nilufar qo‘limdan saqichni yulqib oldi-yu, kutib turgan o‘rtog‘i tomonga yugurdi. Besh-olti qadam nariga borib to‘xtadida, bir nima esiga tushgandek orqasiga qayrilib qaradi. – Katta ada, buvim o‘ldila... – dedi ko‘zlarini pirliratib.

– Nima? – Etim seskanib ketdi. – Nima deding?

Nilufar chopgancha o‘rtog‘ining oldiga bordi. Ik-kovlashib yugurib ketishdi. Ko‘z oldim qorong‘ilashib, chayqalib ketdim. Allanima yerga do‘pir-do‘pir tushayotganini keyin payqadim. Qarasam, limonlar asfalt yo‘l-kada har yoqqa dumalab ketyapti.

Oyimning ertalab aytgan gapi yana qulog‘imda jarangladi.

«Boshimning orqasi achishib og‘riyapti, o‘g‘lim. Tag‘in davleniyam oshganga o‘xshaydi».

Yuragim sirqirab uyga yugurdim. Hovli kimsasiz, suv sepilmagan, ivirsib yotardi. Etak tomondagi uyning (Omonning uyi) derazalari ochib qo‘yilgan, sarg‘ish darparda osilib turar, ammo ichkarida hech kim yo‘qligi aniq edi. Bundan chiqdi... Bundan chiqdi, hammalari oyimning boshida o‘tiribdi. Demak, oyim... Aynvonga qanday otilib chiqqanimni, oyim bilan dadam turadigan uyga qanday kirganimni bilmayman.

Eng avval devor tagidagi temir karavotga qaradim. Yo‘q, karavot bo‘sh edi. Shundagina deraza yonida, xontaxta oldidagi ko‘rpachada o‘tirgan oyimga ko‘zim tushdi. Eshikka suyangancha bo‘shashib turib qoldim. Oyim xontaxtaga engashgancha guruch tozalar, dera-zadan tushib turgan nurda yuzi rangsiz, dardchil ko‘rin-ar, ingichka, uzun barmoqlari bilan shoshilmay guruch terib, yonidagi sirli tog‘orachaga solar edi. Meni ko‘rdi-yu, yarq etib qaradi.

– Keldingmi, o‘g‘lim? – dedi jilmayishga urinib.

Odamzodning qonida g‘alati adolatsizliklar bo‘ladi. Begonalardagi o‘zgarishni darrov sezasiz-u, yaqin odamingizga e‘tibor bermaysiz. Xuddi ota-onangizni

birov sizga bog'lab berib qo'ygandek. Go'yo ular siz uchun abadiy yashashi shartdek. Oyim keksayib qolganini, sochlari oqarib ketganini, qovoqlari salqib, yuzi yillab to'shakka yopishib yotgan odamdek sarg'imitil-zahil tusga kirganini endi payqadim.

– Oyi... – dedim sekin... – Tuzukmisiz? Nilufar... jinni... – uyog'ini aytmadim. Ko'nglimni quvonch ilitib o'tdi. – Men sizga limon... – Qarasam, gazeta «voronka»ni haliyam qo'ltig'imga qistirib turibman. Tagida ikkita limon qolibdi.

– Limonni qo'yatur, Muzaffar! – Oyim og'ir qo'zg'alib o'rnidan turdi. Sovuq lablari bilan peshonamdan o'pdi. – O'tir, bolam.

Hayron bo'lib, ko'ziga qaradim. Hozirgina ko'nglimni quvontirgan shodlik o'rnini xavotir egalladi.

– Tinchlikmi, oyi?

Ayvon tomondan dadamning yo'talgani eshitildi. Uyga avval tamaki isi, keyin dadam kirib keldi. Salomimga javoban «valey...», deb qo'ydi-yu, oqsoqlanib kelib o'zining joyiga – xontaxta to'riga o'tirdi. «Belo-mor»ini so'rib, xontaxta burchagidagi piyolaga kulini chertdi. Negadir xo'rsinib, yuzini o'girdi. Nima gap o'zi? Oyimga yuzlandim. U chillakdek ingichka, titroq barmoqlari bilan yana guruch terishga tushdi. Go'yo har bitta guruchni sanayotgandek, bir nuqtadan ko'z uzmas, lablari titrardi.

– Nima bo'ldi? – dedim betoqatlanib.

Oyim «siz gapiring», degandek dadamga qaradi. Dadam bo'g'inlarini shiqirlatib o'rnidan turdi. Oqsoqlanib tokcha oldiga bordi. Choynak qopqog'iga qistirib qo'yilgan allaqanday qog'ozni olib, tepamga keldi. Indamay uzatdi. Telegramma ekan. Tepasi ko'k hoshiyali «Molniya» telegramma. «Onang vafot etdi. Juma kuni chiqaramiz». Shu. Imzo ham yo'q, boshqayam.

Endi tushundim. Hali Nilufar, «buvim o'ldila», deb bejiz aytmagani. Bundan chiqdi... Qo'qondagi oyim... Onam... Bechora onam! Tomog'imga iliq, achchiq bir nima tiqilib keldi. Qachon ko'ruvdim oxirgi marta? Qachon boruvdim Qo'qonga? Necha yil bo'ldi? O'n yilmi, o'n besh yil? Bilmadim, esimda yo'q. Faqat qish edi.

Qahraton qish... Tor ko'cha. O'rtasiga qor uyib qo'yilgan katalakdek hovli. Chaqmoq telpakli odam. Sovuq vokzal. Yo'ldoshxon aka. Tog'oradagi osh. Qon yig'lab qolgan onam.

...Bir mahal oyimning piqillab yig'layotganini idrok etib boshimni ko'tardim. Uy ichi qorong'i bo'lib ketgan, dadam bosib-bosib papiros chekar, har tortganida papirosning uchi lovillab, mo'ylovi, o'ychan yuzi, bir nuqtaga qadalgan ko'zlari yorishib ketar, oyim ro'molining uchini yuziga bosgancha hiq-hiq yig'lar edi.

– Bu dunyoga kelib nima ko'rdi bechora, – dedi titroq lablarini tishlab. – Odamzodning holi shu-yu, qadri yo'q.

– Otlanaqol, Muzaffar... – Dadam dag'al barmoqlari bilan papirosini piyolaga botirib o'chirdi. Sekin o'rni-dan turib, cho'loqlanib borgancha chiroq yoqdi. – Samolyotga ishonib bo'lmaydi, – dedi o'ziga-o'zi gapirayotgandek. – Poezdga chiqasan. Hali-zamon Omon keladi. O'zi obchiqib qo'yadi.

Indamadim. Ko'z o'ngimda yana o'sha qor bosgan hovli, chaqmoq telpakli kishi, muzlagan perronda sirg'anib-sirg'anib vagon ketidan yugurgan onam jonlandi.

– Sho'rlikning sendan bo'lak kimi bor! – Oyim yengining uchini ko'ziga bosdi. – Jilla qursa sovuq diydorini ko'rib qol, bolam...

– Avtobusda ketaman. – Bu gap xayolimga to'satdan keldi. Avtostantsiya yaqin. Avtobuslar kechasi qatnaydi...

– Ma'qul! – Dadam oyimga imo qildi. – Qani, bo'laqol, Robiya!

Oyim sandiq ochdi. Tugun tugdi. Dadam qo'limga bir dasta pul totqazdi. «Nima qilaman», desam bir og'iz, «kerak bo'p qoladi», deb qo'ya qoldi. Tugundagi narsa to'n bilan do'ppi ekanini bilib, yuragim ezildi.

...Avtobus ichi dim. Benzin isi ter hidiga aralashib ketgan. Derazadan tashqariga tikilgancha o'y surib ketyapman. Osmonda to'lin oy xomush nur sochadi. Avtobus bilan yonma-yon uchib boradi. Paxtazorlar, yo'l

chetidagi daraxtlar lip-lip o'tadi. Hammasi oymomaning yumshoq belanchagida orom olib tebranadi.

Ehtimol, kecha onam ham shu oymomaga termilib, meni o'ylab yotgandir. Ko'rgisi kelgandir. «O'g'lim qani», deb so'ragandir. Anaviga-ku bir nima deyishga haddi sig'maydi. Nasibaga yalingandir: «Akanгни chaqirtir, ko'rib qolay», degandir...

Onam sho'rlik.... So'nggi niyatiga ham yetolmagan... Bu qandoq bedodlik! Bu qandoq adolatsizlik?! O'zing-chi? Nega yig'lamaysan? Ko'zingda onang uchun to'kadigan bir qatra yoshing yo'qmi?..

Avtobus hamon chayqalib boradi. Ammo endi issiqni ham, motorning gurillashini ham, chekka-chekkadan quloqqa chalinayotgan xurракni ham sezmayman. Xayol ming yoqqa olib ketadi.

Ajab, inson xotirasi – eshigi yopib qo'yilgan omborga o'xsharkan. Ombor oldidan har kuni o'tasiz. O'tasiz-u, o'z yumushingiz bilan ovora bo'lib, qayrilib qaramaysiz. Vaqti kelib tasodifiy shamol omborning eshigini ochib yuboradi-yu, beixtiyor ichkariga mo'ralab qaraysiz. Shunda qiziq holat ro'y beradi. Ombor ichida oltindan aziz narsa ham, ko'zingiz tushishi bilan ta'bingizni xira qiladigan qaqir-quqirlar ham qalashib yotgan bo'ladi. Alam qiladigan joyi shundaki, siz ulardan xohlaganingizni ajratib ololmaysiz. Bunisi kerakli, bunisining keragi yo'q, deb birini olib, ikkinchisini uloqtirib tashlash qo'lingizdan kelmaydi. Hammasi baravariga jon ato qilib, atrofingizni qurshab oladi.

BIRINCHI QISM

Birinchi bob

KICHKINTOY MUZAFFAR HIKOYASI

1. Men, dadam, alvasti ko'prik

Bugun «Qora ammam»nikiga boramiz! Dadam kecha va'da qilgan. Shuning uchun ertalab xarxasha qilmay uyg'ondim. Bir burda arpa non, to'rtta jiyda bilan choy

ichib bo'lgunimcha dadam kavshandozda o'tirib etigini kiydi. Chap poyini darrov kiydi-yu, o'ng poyida ancha qiynaldi. Doim shunaqa bo'ladi: dadamning o'ng oyog'i qiyshiq. Urushda o'q tegib tovonini uchirib ketgan. Paytavani uch marta qaytadan o'radi. Allakimni so'kdi. Keyin qaddini rostlab jigarrang shimining cho'ntagidan tamaki xaltasini oldi. Xaltachaning bog'ichini bir tortgan edi, og'zi o'zidan-o'zi ochilib ketdi. Boshqa cho'ntagidan buklog'lik gazeta chiqardi. Tirnoqlari sarg'ayib ketgan yo'g'on barmoqlarini xaltachaga suqib, bir chimdim tamaki oldi-da, qog'ozga to'kdi. Qog'ozni burab-burab tili bilan bir ho'llagan edi, papiros tayyor bo'ldi-qoldi. Papirosni mo'ylovi tagiga tiqib, gugurt chizdi. Dadam har gal gugurt chizganida mo'ylovi yonib ketmasaydi deb qo'rqaman. Mo'yloviyam yo'g'on-da, o'zi. Xuddi «Qora ammam»ning mushugini dumiga o'xshaydi. Dikkayib turadi, sarg'ayib ketgan. Xayriyat, bu gal ham kuymadi.

– Qani, giroy, ketdikmi? – dedi og'zidan tutun chiqarib.

Otim giroy emas, Muzaffar. Choyxonadagi kishilar meni giroy-giroy deyverib, dadamniyam o'rgatib qo'yishgan. Otimni aytib chaqirmaydi. Mayli, giroy bo'sam bo'pman-da.

– Ketdik.

Ota-bola ko'chaga chiqdik. Eshigimiz oldida bir tup yong'oq bor. Shunaqangi balandki, uchi osmonga tegib turadi. Kuzda, yong'oq pishganda dadam uzun tayoq ko'tarib ustiga chiqadi. Qarsillatib qoqadi. Men terib olaman. Ammo hozir – yoz. Yong'oq hali pishmagan.

Shunday qilib, «Qora ammam»nikiga yo'l oldik. Oldinda dadam cho'loqlanib boryapti. Oyog'ida etik. Egnida ikki cho'ntagi do'ppayib chiqqan jigarrang shim. Eski ko'ylak. Boshida do'ppi. Har qadam bosganida o'ng tomonga yiqilib ketayotganga o'xshaydi. Lekin yiqilmaydi. Faqat tez yurganida o'ng oyog'ining tagidan ayniqsa ko'p chang ko'tariladi. Sudrab bosadi-da.

«Qora ammam»niki rosa uzoq. No'g'ayqo'rg'on degan joyda. Yuraverib-yuraverib, charchab ketasiz.

Ko'chadan ketaversangiz eng avval «Tuya» amakining uyi keladi. «Tuya» amaki – sartarosh. Abduvali degan o'g'li bor. Bo'yi mendan kattarog'u o'zi sap-sariq. Abduvali bilan endi o'ynamayman. Anunda soqqa quvar o'ynagan edik, oltita yong'og'imni yutib qochib ketdi. O'zining eshigi oldida yong'oq yo'qligiga alam qilganda! Ketidan quvlab kirmoqchi edim, Mavluda opasidan qo'rqdim.

Shunday qilib, Abduvalilarning uyidan o'tib guzarga chiqasiz. Yo'q, avval «Tuya» amakining sartaroshxonasi keladi. Fanerdan yasalgan, tomiga qora qog'oz yopilgan. Derazasi siniq. «Tuya» amakini Abduvalidan ham yomon ko'raman. Sochni ustarada oladi. Avval boshingizni rosa ishqalaydi. Keyin sovun suradi-da, «boshingni eg», deb turtaveradi-turtaveradi... Bo'yning og'rib ketgani bilan ishi yo'q. Bo'yning og'riganiyam mayli, burningni tortaverib charchaysan. Nuqul boshingni egaverganingdan keyin burun oqadi-da! «Tuya» amaki bo'lsa, so'kadi: «Nima balo, giroy, burningda bulog'ing bormi, qaynab chiqyaptimi?» deydi. Birpas shunaqa o'tirsin, o'ziniki qaynab chiqmasmikin?!

Yana ozgina yursangiz choyxonaga chiqasiz. Choyxona o'zimizning uy hisob. Ikki tup tol tagida to'rtta so'ri bor. Tollar shunaqangi yo'g'onki, bizning yong'oqdan ham katta... Kechqurun bekinmachoq o'ynaganda kavagiga kirib olsangiz hech kim topolmaydi. So'rilarga namat tashlangan. To'g'ri, choyxo'rlar namatni qayirib, tagiga nosvoy tufalayverib, qatirmoch qilib yuborgan. Ammo baribir namat ustida o'tirish – yaxshi. Tagingdan zax o'tmaydi. Tol shoxiga ilingan bedanalar bir-biriga gal bermay sayrab yotadi. Ayniqsa bittasi zo'r. Bir sayraganda to'xtovsiz yetti marta «bit-biliq», «bit-biliq» deydi. O'zim sanaganman. Dadamning aytilishiga qaraganda Ilhom choyxonachi shu bedanani Xastimom bozoridan bir g'unajinning puliga sotib olgan ekan. Kechalari to'rqovog'i bilan boshiga qo'yib yotarmish.

Qishda dadam meni har kuni choyxonaga olib chiqadi. Tamaki tutuni, samovar bug'i bilan to'lgan pastak choyxonada odam odamni tanimaydi. Shiftdagi

uzun sim – ilgakka ilib qo'yilgan fonus o'zini o'zi arang yoritadi. Ammo bu yerdagi hamma narsani yaxshi bilaman. Qorindor sariq samovar burchakda turadi. Zanglab, chirib ketgan tunuka karnay uchidan tutun ko'tariladi. Devorda Stalinning surati. Shiftning qamishlari osilib qolgan: kuzda chakka o'tgan.

Sovuq tushishi bilan so'rilar ichkariga olib kiriladi. Bir burchakda shaparak ko'rpacha bilan ikkita kir yostiqlik do'mpayib turadi. Lekin ko'rpacha yozilmaydi. Odamlar kigizda chordana qurib o'tirishadi. Hammasi dadamga o'xshagan kishilar (xotinlar yo'q). Biri chopon, biri eski shinel kiygan. Birining boshida kuya yalagan telpak, yana biri qiyiqchasi bilan qulog'ini bog'lab olgan. Dasturxon yo'q. To'g'ridan to'g'ri kigiz ustiga qo'yilgan, eskiligidan guli bilinmay ketgan patnislarda non (ba'zan arpa non, ba'zan zog'ora non), turshak, ikki-uch chaqmoq qand bo'ladi.

Choyxonadagilarning hammasi meni taniydi.

– Qani, giroy, qanddan oling! – deydi «Tuya» amaki iljayib. – Bulbulingiz o'sib qoldimi? Qachon tumshug'idan jichcha kesib sayratma qilamiz endi!

Narigi so'rida o'tirgan silliq yuzli, siyrak soqolli Komil buva patnisidan ikki chaqmoq qand olib, azza-bazza yonimga keladi:

– Mana, azamat yigit! Bizzi qanddanam yeb ko'ring.

Dadamning tizzasida o'tirgan joyimda qandga qo'l cho'zaman. Dadam urishmaydi. Burchakka, samovar tutab yotgan tomonga qarab qichqiradi:

– Ilhom, samovaringni tagiga tosh bog'laganmisan, nima balo?! Bermasning oshi pishmas deb!

– Hozir-da, akam aylanay! – Ilhom choyxonachi tunuka karnayni ko'taraman deb qo'lini kuydirib oladi, karnayni taraqlatib yerga tashlaydi-da, zo'r berib dudburonni puflaydi. Yo'tala-yo'tala nari ketadi. Allaqayerdan bir poy eski mahsi topib, qo'njini samovar dudburoniga kiygizadi. Mahsini g'ayrat bilan pastga bosib, shamol yuboradi. Samovar tagidan cho'g' sachraydi.

– O'tin ho'l-da, aka! – deydi o'zini oqlab. – Yomg'irda qolgan.

– Yomg'irdamas, do'lda! – deydi «Tuya» amaki baqirib.

Qiyqiriq, kulgi quloqni yorgudek bo'ladi. Choyxonachining yuzi cho'tir. Shuni askiya qilishadi. Birov do'lda qolgan tappi deydi, birov chakichlangan patir...

Choyxonachi ham bo'sh kelmaydi.

– Yozda shuncha yalindim, – deydi shang'illab, – jon aka, siz cho'lda ko'p yurasiz, bir aravagina saksovul obkeb bering, desam noz qildingiz. Mana endi ahvol bu: sizga choy yetkazib bo'ladimi? Cho'michda sug'organday...

Boyagidan ham qattiqroq kulgi portlaydi. Choyxo'rlar biri tizzasiga shapatilab, biri qornini ushlab xaholashadi. Dadam tizzasiga urmaydi, tizzasida men borman. Lekin ko'z yoshini artib mazza qilib kuladi. Faqat bitta odam – Komil buva xaholamaydi. Sekin jilmayib qo'yadi. Komil buva – tabib. Uni hamma izzat qiladi. Choyxonachi ham uning patnisiga top-toza, butun choynak keltirib qo'yadi. Oxiri tutun hidi anqib turgan choy bizga ham keladi. Dadam tumshug'iga tunuka ulangan choynakdan avval menga choy quyadi. Keyin o'ziga...

Choyxo'rlar allaqanday Quriya haqida gaplashishadi. Bu yil qor ko'p yoqqanini, bug'doy mo'l bo'lishini aytishadi. Oqsoqol kolxozga yangi traktor olib kelganini, ertangi karamni vaqtliroq ekaylik deganini aytishadi. Odamlarning gap-so'zidan shuni anglaymanki, Oqsoqol buva «gadavoy» maylisda, «men endi keksayib qoldim, bo'shatinglar», degan. Ammo kolxozchilar, «o'zingiz bosh bo'lasiz», deb turib olishgan. Ko'zim o'zidan o'zi yumilib ketaveradi. Dadam chaponiga o'rashi bilan yelkasiga bosh qo'yaman. Chap yelkasiga. Shunga o'rganib qolganman. Dadamning chap yelkasida mushimni tiqsam bemalol sig'adigan chuqurchasi bor. Qizg'ish-ko'kimtir chandiq. Nemis zambarak otganida o'yib ketgan ekan. Doim uxlash oldidan shu chuqurchani o'ynashni yaxshi ko'raman... Dimog'imga tanish tamaki isi uriladi. Dadamning dikkaygan mo'ylovi tomog'imga tegib qitiqlaydi.

– Uxlayqol, – deydi shivirlab. Chandiqni silab-silab, uxlab qolaman... Ertalab ko‘zimni ochsam uyda – pisillab qolgan sovuq tancha chetida yotgan bo‘laman... Kechqurun bo‘lsa dadam meni ko‘tarib, yana choyxonaga olib chiqadi.

Xullas, choyxona – o‘zimizning uy. Lekin hozir choy ichishga vaqtimiz yo‘q. «Qora ammam»nikiga tezroq borish kerak. Ana, dadam tuproq yo‘lda to‘xtab, jahl bilan o‘girildi.

– Bo‘lsang-chi! Hali-zamon kun yoyilib ketadi. Dalaga chiqishim kerak.

Yurib-yurib, yong‘oqzor ichiga kirib qoldik. Bu yerdan avval ham o‘tganmiz. Yong‘oqzor shunaqangi qalinki, bahorda birovning sigiri adashib qolsa, kuzda o‘zi qaytib chiqmaguncha egasi topolmasmish. Mana, hozir ham nimqorong‘i, zax chakalakzordan ketyapmiz. Yuragimni vahima bosadi: «Qora ammam» aytgan: yong‘oqzorda ajina bo‘larkan. Odam adashib qolsa, og‘zini qiyshtaytirib ketarkan. Komil buvaning uyi shu yong‘oqozorning ichida – Bo‘rijarning qoq ustida emish. Komil buva ajinalardan qo‘rqmas ekan. Qaytaga og‘zi qiyshtayib qolganlarni dori berib tuzatarkan. Shuning uchun odamlar tabib buvani yaxshi ko‘rsa kerak-da!

Hammasiyam mayli-ku, hali Alvasti ko‘prikdan o‘talmiz. Shunisi ayniqsa yomon. «Qora ammam»ning aytishiga qaraganda urush paytida Alvasti ko‘prikda jin-ajinalar ko‘payib ketgan ekan. Bir marta Robi opam-gayam daf qibdi. Opam zo‘rg‘a qochib qutulgan emish.

Ana, olisdan Alvasti ko‘prikning ovozi kelyapti. Xuddi kattakon ajdar «kelaqol, seni yeyman», deb vishillayotganday. Dadam bo‘lsa parvo qilmaydi. Besholti qadam oldinda oqsoqlanib ketyapti. Jonholatda ketidan yugurdim.

– Dada, charchadim.

Hecham charchaganim yo‘q-da! Qo‘rqyapman. Lekin dadamga «qo‘rqyapman» deyishdan qo‘rqaman. Bir marta Alvasti ko‘prikda ajina bormish deganimda, dadam so‘kib bergan. «Bekor gap, hech qanaqa ajina-pajina yo‘q, alvasti cho‘pchaklarda bo‘ladi, o‘g‘il bolasan, unaqa qo‘rqoq bo‘lma», degan. Bilaman, dadam yolg‘on

gapirmaydi. Ammo, baribir, Alvasti ko'prikning ovozi kelishi bilan «charchab» qolaman.

Dadam to'xtadi. Orqaga burilib qovog'ini soldi.

– So'loqmonday bola... – dedi to'ng'illab. – Yoshing beshga chiqdi-yu, uyalmayсанmi?

Shunday bo'lsayam baribir opichib oldi. Suv borgan sayin qattiq shovullaydi. Ko'zimni yumib olgan bo'lsam ham sezib turibman. Ishtonim ustidan oyog'imga tikan kiriyapti. Bundan chiqdi, shunday Bo'rijar yoqasidagi tor so'qmoqdan ketyapmiz. Bir tomoni na'mataklar o'sib yotgan chakalakzor, bir tomoni o'pqondek chuqur jarlik.

– Bo'g'ib tashlading-ku, qo'yvor! – dadam jahl bilan boshini chayqadi.

O'zim ham bilaman, dadamni bo'g'ib qo'ydim. Lekin nima qilay, qo'rqaman-da! Alvasti ko'prikka endi keldik. Ana, hech nimani eshitib bo'lmay qoldi. Bo'rijar dod solib voshillayapti.

Nihoyat suvning shovullashi orqa tomondan eshitila boshladi. Dadamning oyog'i tagida shag'al shaqir-shuqur qilayotganini bilib, sekin ko'zimni ochdim. Dadam sirg'ana-sirg'ana temir yo'l ustiga chiqib boryapti. Qo'rqa-pisa orqaga qaradim. Oppoq ko'piklar quturib tor ko'prik ostiga kirib ketayotgan Bo'rijarga ko'zim tushib darrov yuzimni o'girdim.

Dadam, nihoyat, temir yo'l ustiga chiqdi. Dimo-g'imga chuchmal is – qora moy hidi urildi. Olisda tog'lar ortidan quyosh chiqib kelar, dadam hamon cho'loqlangancha shaqir-shuqur shag'al bosib, bir juft temir yo'l orasida meni opichlab borardi. Shundagina qip-qizil bo'yni terlab ketganini, ko'ylagi ho'l bo'lib, chap elkasidagi chuqurchasiga yopishib qolganini ko'rdim. Qo'limni sekin bo'shatdim-u, o'sha zahoti ko'nglimga yana g'ulg'ula tushdi: poyezd kelib qolsa-chi? Bosib ketadi-ku! Husan buvam bilan Oqsoqol buvaga xuddi shu yerda ajina daf qilgan-da. «Qora ammam» aytib bergan. Oqsoqol buva ham, Husan buvam ham polvon bo'lishgan ekan. Ikkalasi yo'lni to'sib qo'ygan alvastini Bo'rijarga uloqtirib yuborishibdi-yu, o'zlari poyezd tagida qolishibdi. Poyezd ichida o'zimizning askarlarimiz bor ekan-da! Alvastini temir

yo'ldan olib tashlashmasa, poyezd ag'darilib ketarkan. O'shanda Oqsoqol buva amallab tirik qopti-yu, Husan buvam o'libdi. Aytmoqchi, o'shanda alvastini jarga tashlashda Robi opam bilan tabib buvaning Olimjon degan o'g'liyam yordam berishgan ekan. Robi opamdan shuni so'rasam, negadir aytmaydi. «Qo'ysangchi, o'sha gaplarni», deb qo'ya qoladi.

Dadam harsillab nafas olib, narigi tomonga – pastga tushdi. Alvasti ko'prik hamon shovullab turar, lekin eng qo'rqinchli joy orqada qolgan, bu tomonda suv yoyilib tinchgina oqar edi. Terak bo'yi qamishlar o'sib yotgan chakalakzorga kirgandan keyin dadam yelkasi osha menga o'girilib qaradi.

– Tushsinlar endi, giroy, izzatingiz bitdi.

Yerga tushishim bilan kalishim suvga to'lib chiqdi. Qamishzor orasidagi so'qmoqni iliq, loyqa suv bosgan edi. Erta sarg'aygan qamishlar ohista chayqalib, shitirlab turar, uchidagi makka supurgidek popiltiriqlari sekin-sekin chayqalardi. Baqalarni aytmaysizmi? Bir-biridan qolsa qulog'ini kesadigandek ovozi boricha vaqillaydi.

– Qamish, – dedim hiqillab. – Varragimga qamish oberasiz.

– Hozir varrak uchiradigan paytmas! – Dadam qo'limdan tutdi. – Yur, chivinga yem bo'lasan.

...Ana, No'g'ayqo'rg'ongayam yetdik. Olisda oq uy ko'rindimi, No'g'ayqo'rg'onga kelganimiz shu! Oq uy – kolxozning idorasi. Biz u tomonga yurmaymiz. Bitta arava zo'rg'a sig'adigan tor ko'chaga kiramiz. Ikki tomonda pastak uylar. Ba'zilarining devori tagiga somon uyib qo'yilibdi. Kuzda tomni somon suvoq qilishadi. Uylar orasida Oqsoqol buvaniki ajralib turibdi: boloxonasi bor. Boloxonador uyga yaqin kelganda dadam yana qo'limni siltadi:

– Tezroq yur!

Oqsoqol buvaning darvozasi oldidan tezlab o'tib, «Qora ammam»ning eshigiga keldik. «Qora ammam»-nikida darvoza yo'q. Eshigiyam shunaqa kichkinaki, dadam engashib kiradi. Ana, eshikdan ancha narida, bahorda kallaklanib, qaytadan shox otgan tol tagida eshak arava turibdi. Aravaning bir g'ildiragi singan.

Shotisi laylak qilib qo'yilibdi. Buvam o'lganidan keyin eshagi ham xafa bo'lib o'lib qolgan ekan. Ammo arava haliyam bor. Har kelganimda ustiga chiqib o'ynayman.

Hozir ham arava tomonga yugurgan edim, dadam jahli chiqib baqirib berdi:

– Borma u yoqqa!

Pastak eshikni g'iyqillatib ochdi-da, ichkariga mo'ralab chaqirdi:

– Opa!

2. «Qora ammam»ning mushugi

Hovliga kirishim bilan ayvondan tushib kelayotgan «Qora ammam»ni ko'rdim. Ammam xuddi koptokka o'xshaydi. Kichkina, dum-dumaloq. Tag'in yozdayam qora nimcha kiyib yuradi.

– «Qora amma!» Bizlar keldik!

– Voy amming aylansin! Voy amming o'rgilsin sendan! – U pildirab kelib meni bag'riga bosdi. Dimog'imga qatiq hidi urildi, yuzimdan o'payotganda oppoq sochining uchiga osib olgan so'lkavoy cho'lpilari bir-biriga urilib jiringlab ketdi.

– «Qora amma», tangangizni o'ynasam maylimi?

– Voy tanga sendan aylansin!

Dadam yelkamga sekin turti.

– Necha marta aytganman: «Qora amma» emas, amma degin, tentak!

– Seni ishing nima! – «Qora ammam» dadamga qarab iljaydi. – Qorani qora deydi-da! Qoraman! To'g'rimi? Yur, bolam!

Ammam qo'limdan tutib, ayvonga sudragan edi, orqadan dadamning ovozi keldi:

– Men ketdim, opa. Kech qolyapman.

– Hoy, qayoqqa? – Ammam meni qo'yib, dadam tomonga talpindi: – Choy-poy ichmaysanmi?

– Kechki kartoshkani chopiq qilamiz. Oqsoqol ko'rsalar xafa bo'ladilar. Kechqurun kelarman.

– Robiya ham saharlab chiqib ketgan. Bir piyola choy ich axir.

Dadam ko'nmadi. Shosha-pisha ketib qoldi. Ammam ikkalamiz ayvondan o'tib, uyga kirdik. Ammamning

uyi biznikiga o'xshagan emas. Hammayoq top-toza. Hatto derazalarda parda ham bor. Tokchalardagi lagan-barkashlar yaraqlaydi. Yettinchi lampaning shishasi hamisha yaltirab turadi. Robi opam har kuni kul bilan yuvadi. O'zim ko'rganman. Devorda ikkita surat bor. Yog'och romga solib qo'yilgan. Ikkalasiyam sarg'ayib ketgan. Bittasi Husan buvamniki. Boshiga kichkinagina salla o'ragan, cho'qqisoqol chol. Negadir doim qovog'ini solib turadi. Bittasi yosh yigit. Boshida do'ppi, egnida to'n. Xiyol jilmayib turibdi. Xuddi, «beri kel, senda gapim bor», deyayotganga o'xshaydi. Qoshining qalinligimi, qirra burnimi – allaqayeri dadamga o'xshab ketadi. Faqat mo'ylovi yo'q. Bu – «Qora ammam»ning o'g'li – Kimsan akam.

«Qora ammam» bir qo'lida supra, bir qo'lida elak bilan kirib keldi. Elakda ancha-muncha turshak bor edi.

– Ma, bolam, turshak yeb tur, hozir senga non yopib beraman. O'zingga o'xshagan shiringina kulcha.

Turshak chaynab «qora ammam»ning ro'parasida o'tiribman. Ammam cho'kkalab o'tirgancha un elayapti. Elak tap-tap etadi. Tagidan supraga un yog'iladi. Xuddi qordek. Ammamning qop-qora bilaklari birpasda unga belandi. U boshini bir yonga tashlagancha elakni tapillatadi. G'ij-g'ij nafas oladi. Qiziq, xuddi ichiga mitti odamchalar kirib olgan-u, hadeb hushtak chalayotgandek. Ba'zan «hushtak» shunaqa kuchayib ketadiki, o'zimning ham nafasim bo'g'ilib qolayotganga o'xshaydi. Mana, hozir ham ammam «g'iyq-g'iyq» nafas olyapti.

– «Qora amma», ichingizda nima bor?

U yarq etib boshini ko'tardi. Ma'yus kuldi.

– Dard bor, bolam, akangni dardi bor...

Yana jimlik cho'kdi. Elak tapillaydi. Tagidan un yog'iladi. Ammamning ichidagi «odamchalar» hushtak chaladi.

Turshagimni yeb bo'ldim. Endi danak chaqish uchun o'rimdan turmoqchi edim, ammamning ovozi chiqib qoldi. Menga gapiryapti, desam, ashula aytayotgan ekan:

*Dukur-dukur ot keldi,
Ot boshida xat keldi.*

*Xatini o'qib ko'rsam,
Voy-voy bilan dod keldi...*

Qiziq, elak ham ammamning ashulasiga mos tapilla-yotganga o'xshab ketdi. «Dukur-dukur ot keldi...»

Ammam yana jimib qoldi. Nafasining g'ijillashi kuchayib ketdi. Devorga – Kimsan akamning suratiga tezgina qarab qo'ydi-da, xo'rsindi, yana ming'illab ashula ayta boshladi:

*Jon bolam, jonim bolam, Olloga topshirdim sani,
Ohimga Ollo yetmadi, tuproqqa topshirdim sani.*

Bu gal elakning tapillashi ham susayib qoldi. Endi u sekinroq, og'irroq chayqala boshladi. Xuddi «jon bo-o-lam, jo-nim bo-o-lam» deyayotganday.

Ammam ikki qo'llab elakni ko'tarib un yopishgan bilagi bilan ko'zini artди.

– «Qora amma», yig'lamang... – dedim yalinib.

– Yig'laganim yo'q, bolam! – Ammam burnini tortib jilmaydi. – Nega yig'lay? Yaqinda Kimsan akang keladi. To'y qilamiz. Sen-chi, Kimsan akang bilan otga mingashib to'yga aytasan... Bor, bolam, danagingni chaqib yegin. Tandir tagida-chi, tesha bor. Hazir bo'l, qo'lingni chaqib olma tag'in.

Qo'limda bir hovuch danak bilan ayvonga chiqdim. Ayvon tokchalari bo'm-bo'sh. Ikkita sopol lagan bilan to'rtta tovoqdan bo'lak narsa yo'q. Devorga qator mix qoqilgan. Bilaman, kuzdami-qishdami kelsangiz, shu mixlarga qator qilib behi ilib qo'yilgan bo'ladi. Ayniqsa, qishda hammayoqni behi hidi tutib ketadi.

«Qora ammam»ning hovlisi biznikidan katta. Bizning hovlimizda ikki tup olmadan boshqa daraxt yo'q. Ammamnikida behiyam bor, gilos ham. Bir oymi-ikki oy avval kelganimda rosa gilos yeganman. Robi opam bostirma tomiga chiqib uzib bergan. Hozir gilos qolmagan. Nok bo'lsa – pishmagan. Tosh nok. Bizning hovlimizni devori past. Ustiga lo'mboz bostirib, qurigan yantoqlar qadab qo'yilgan. O'g'ri oshib tushaman desa, qo'lga tikan kirib, qochib ketadi. «Qora ammam»ning devori baland. Otga minib tirmashsangiz ham bo'yingiz

yetmaydi. Bizning devorga tappi yopilmaydi. Ammamnikiga yopiladi. Ana, kungay tomondagi devorga qator tappi yopib qo'yilibdi. Yuqoridagilari qurib qolgan, pastdagilari hali ho'l. Ustida pashsha aylanyapti. Bizning hovlimizda piyoz yo'q. Ammamnikida bor. Ko'kpiyozlar urug' boylab yotibdi. Pushtasiga kul sepilgan. Undan narida gultojixo'rozlar, rayhonlar...

Guvillab olov yonayotgan tandir tagidan teshani topib, yapasqi g'isht ustida danaklarni chaqib yedim. Oxiri uchdami, to'rtta danak qolgan edi. Yonboshimda bir narsa «miyov» deydi! Qarasam, «Qora ammam»ning mushugi! Juda yuvosh mushuk-da, o'ziyam! Dadamga o'xshaydi! Dadamning mo'ylovini tortsam indamaydi. Mushukni dumidan tortsam ham jim turadi. Sevinib ketdim.

– Ma, Mosh, pish-pish!

Mosh «miyov» deb oyog'imga suykaldi. Bo'ynidan ushlab og'ziga mag'iz tiqdim.

– Ye, Mosh, ye!

Shunaqa shirin mag'izni yemadi! Og'zidan chiqarib tashlab «psi» deb aksirib ham qo'ydi. Mushukni quchoqlagancha hovli etagiga yugurdim. Mushuk shunaqangi chaqqon bo'ladiki, aeroplardan tashlasangiz ham o'lmaydi. Oyog'i bilan tushadi! Abduvali aytgan. Qani ko'raylikchi!

E, «Qora ammam»ning bostirmasi baland ekan-ku! Narvon so'ramoqchi bo'ldim-u qo'rqdim. Bilaman, ammam «mushukka ozor berma», deb koyiydi.

Mushukni quchoqlagancha hovli burchagiga borib qarasam, hojatxona tomi bilan bostirmaniki tutashib ketgan ekan. Avval hojatxonaning tomiga chiqamiz, keyin bir osilsak, bostirmaga chiqib turibmiz-da!

Shunday qildim. To'nkarilib yotgan savat zambilga chiqib hojatxona tomiga tirmashdim. Ikki tirsagim devorga tegib shilini ketse ham parvo qilmadim. Keyin amallab bostirmaga chiqib oldim. Mushuk shunda ham parvo qilmadi. Ko'zini yumib, xurillab yotibdi. Bostirma tomidagi o'tlar qovjirab qolgan ekan. Tovonimga tegib g'ashimni keltirdi. Nima qipti? Hozir tom chetiga yetib olamiz!

Xuddi shu payt «Qora ammam» savat ko'tarib tandir tomonga o'tib qoldi. Mosh ham ammamni ko'rdi shekilli, tipirchilab miyovladi. Ammam ovoq qayoqdan kelganini bilmay alangladi. Lekin har ehtimolga qarshi ogohlantirdi:

– Mushukka ozor berma, Muzaffar! Payg'ambar orqasini silagan jonivor-a!

Hozir ko'ramiz-da! Payg'ambar silagan bo'lsa orqasi bilan tusharmikin, oyog'i bilanmi?

– Mosh-Mosh, bo'ldi... – deb silab-siypaladim-da, tom labiga keldim. Ammamning tandirni kovlashini poylab turib, mushukning to'rttala oyog'idan qisib ushlagancha chalqanchasiga yerga tashlab yubordim. Mushuk o'sha zahoti lip etib o'nglandi. Oyog'i bilan yerga yumshoqqina tushdi. Dumi hurpayib ketdi. Yana bir marta «miyov» deb men tomonga jahl bilan bir qaradi-da, gultojixo'rozlar orasiga kirib g'oyib bo'ldi. Qoyil! Abduvali to'g'ri aytgan ekan!

Tomdan qaytib tushib, gultojixo'rozlar orasini qarasam, mushuk yo'q. Shuncha qidirsam ham topolmadim. Zerikib molxonaga kirdim. Burchakda turgan sigir nimqorong'ida ko'zlari yaltirab pishqirib qo'ydi. Ammamning sigiri ham o'ziga o'xshagan qop-qora. Sigir kavsh qaytararkan, yuvoshgina «mo'-o'» dedi. Bora-bora qorong'ilikka ko'zim o'rgandi. O'rtadagi ustunga isiriq bog'lab qo'yilgan. Isiriq chang bosib qorayib ketgan. Devordagi mixlarga qurigan gultojixo'rozlar, shoda-shoda qizil garmdorilar ilingan. Bir chekkada xaskash, ketmon, panshaxa...

Endi bostirmadan chiqib ketayotsam, qator-qator xumlarga ko'zim tushdi. Har bittasi mendek keladi! Ammam aytgan. Bir vaqtlar – urushdan oldin shu xumlarda don-dun, go'sht-yog' turarkan. Husan buvam hamma narsani qoplab, xumlab olarkan. Hozir ular bo'm-bo'sh. Chertsangiz, «gum-gum» qiladi. Avval bitta xumni chertdim. «Gum» dedi. Bundan chiqdi ichida hech balo yo'q. Keyin ikkinchisini, uchinchisini chertib ko'rdim. Hammasi gumbillaydi. Oxirgisining ichida bir nima shatir-shutir qildi. Iye?! Chertishga toqat qilmay mushtim bilan urib ko'rdim. Allanima xum

ichini timdalagandek bo'ldi. Birdan Mosh esimga tushdi. Tomdan tashlaganimda arazlab xumga kirib olgan bo'lsa-chi?

– Mosh! – Ovozim boricha baqirdim. – Mosh, chiq. Endi unaqa qilmayman.

Hovli tomondan «Qora ammam»ning tovushi keldi.

– Kulchang pishdi, Muzaffar!

Xum ichida yana o'sha shitirlash eshitildi. Oyog'im uchida cho'zilib uvvalo urinsam ham, nima borligini ko'rolmadim. Xumning og'zi peshonam bilan bab-baravar!

«Qora ammam» tag'in chaqirdi.

– Kelaqol, bolam, sovib qoladi!

Oxurda yotgan pachoq chelakni ko'tarib keldim-da, to'ntarib ustiga chiqdim. Xumning bo'ynidan changallab ichiga mo'raladim. Hech narsa ko'rinmaydi-yu, baribir tagida bir nima tipirchilayapti. Nihoyat xumning silliq devoriga sapchiyotgan kattakon ola kalamushni ilg'adim. Hatto bir marta «g'iyq» deb chiyillaganini ham eshitdim. Bo'ldi! Hammasi aniq! Bu kalamush amallab xumga o'rmalab chiqqan. Ichidagi donni yegan! Yeb bo'lib qanaqa qilib chiqib ketishini bilmayapti. Hozir ko'rasan! Moshni obkelaman, ta'ziringni beradi.

To'ntarilgan chelak ustidan sakrab tushib, hovliga otildim.

– Mosh! Pish-pish! – dedim yalinib.

– Voy, Moshing o'lsin! – «Qora ammam» tandirga sho'ng'irgan, savat burchagida turgan jajji kulchaga imo qildi. – Avval o'zing yeb ol.

– Mosh! Pish-pish! – Qo'lim kuyganga qaramay kulchani burdaladim. Dimog'imga non isi urilib og'zim suv ochib ketdi. Biroq hozir non yeyishdan ko'ra qiziqroq ishim bor. Mushukni topsam bo'ldi!

– Ma, Mosh! Mana non!

Mushuk non hidini sezdi.

Miyovlab yaqin keldi. Tizzamga o'tqizib bir burda non yedirdim. «Qora ammam» ikkinchi savatni yopishga kirishganini ko'rib, mushukni sekin ko'targancha bostirmaga yugurdim. Avvaliga indamay kelgan Mosh qorong'i bostirmaga kirganidan keyin dumi hurpayib, tipirchilay boshladi.

– Mosh, Mosh! – deb orqasini siladim-da, kalamush qamalib qolgan xumga yaqin keldim. – Mosh!.. Mana... Hozir...

Mushukning ko'zlari sovuq yonib, junlari tippa-tik bo'lib ketdi.

– Mosh... – Shunday deb mushukning boshini xum og'ziga tiqqanimni bilaman. Yovvoyi tovushda «mav!» dedi-yu orqa oyog'i bilan qo'limni qattiq timdaladi. «Voy-voy»lab qo'yib yubordim. U jonholatda sigir ustiga sapchidi. Sigir pishqirib o'zini chetga tashladi. Dumini xoda qilib mo'rab yubordi. Mushuk ko'zlari yongancha eshikka otildi. O'ng qo'limning kaftida avval to'rtta oppoq, chuqur chiziqcha paydo bo'ldi, o'sha zahoti chiziqchalardan tirqirab qon oqa boshladi. Og'riqdan ko'ra qondan qo'rqib baqirib yubordim.

– Amma! «Qora amma!»

G'ij-g'ij nafas olgancha, qo'rquvdan ko'zlari olayib ketgan ammam yugurib kirdi.

– Nima qildi? – dedi non hidi anqib turgan qo'llari bilan boshimni bag'riga bosib. – Ayt, nima bo'ldi?!

– Yumdaladi! Mushuk yumdaladi! Voy qo'lim!

– Xah qiliqlaring ordona qolsin-a! Otangga nima deyman! – Ammam qo'limdan changallagan ko'yi hovliga olib chiqdi. – Mushuk bilan o'ynama devdimku! – dedi yog'och qoshiqda qozon tagidan qorakuya qirtishlab olarkan.

U yaramga qorakuya bosganida battar achishib ketdi.

– Kalamush! – dedim yig'lab. – Xumda kalamush bor ekan. Mosh bilan urishtirmoqchi edim.

– O'lsin! – Ammam nafasi g'ijillab boshidan ro'molini yulqib oldi. Sochlari yoyilib popuk tangalari jiringlab ketdi. – Kalamush o'la qolsin! Xumni yiqitsanguku o'z yo'liga ketardi. Otangga nima deyman? Erka bola bo'lsang...

Ajab, ammam qorakuya bosib ro'moli bilan bog'laganidan keyin og'riq darrov qoldi. Ammam choy ichirdi, o'zimning kulchamdan qolganini yedirdi. Joy solib berdi.

– Uxla! Otang nima qildi, desa, yiqilib tushdim deyqol. Ukam bechoraning topganiyam, tutganiyam sensan...

Nega uxlarkanman! To‘g‘ri, endi Mosh bilan o‘ynamayman. Yomon mushuk ekan. Ammamnikida o‘yin kammi! Ana, Husan buvamning aravasiga chiqaman. Bir g‘ildiragi singan bo‘lsa nima qipti? Avval ustiga chiqaman. Keyin sekin-sekin shotisiga osilsam «laylak» bo‘lib turgan shoti yerga tushadi. Shotini qo‘yib yuborsam, yana ko‘tarilib ketadi.

«Qora ammam» ovqatga olov yoqishini poylab pastak eshikdan lip etib tashqariga chiqdim. Eshak aravaning butun g‘ildiragiga osilib ustiga minib oldim. Shoti bandiga ko‘ndalang o‘tirib, pastga bosa boshladim.

Oftob botib ketgan. Nimqorong‘ilik cho‘kkan, havoda jo‘xori kabob hidi kelardi. Qayoqdan kelyapti bu hid? Oqsoqol buvanikidan shekilli. Menam ammamga ko‘mma qibering desam bo‘larkan. Jo‘xori ko‘mma zo‘r! Dumbul so‘taning orqasiga cho‘p tiqib, cho‘g‘ga suqsangiz, «pors-purs» etgan ovoz chiqadi. Qarabsizki, birpasda jo‘xori kabob tayyor!

Aravaning shotisini endi pastga tushirgan edim, nimqorong‘ilik ichidan ovoz keldi:

– Muzaffar!

Tanidim! Robi opam!

– Robi opa! – aravani ham unutib chopib bordim. Robi opam baquvvat qo‘llari bilan yerdan dast ko‘tarib quchoqlab oldi. Dimog‘imga lampamoy hidi urildi.

– Arava o‘ynama, bolajon! – dedi yuzimdan o‘pib. – Yur, uyga! Yaxshisi, ertaga o‘zimning otimga mindiraman.

Robi opamning «ot»ini bilaman. G‘ildiraklarining tishi katta-katta, dudburonidan tutun chiqib turadigan traktor! Bahorda kelganimda Robi opam «ot»ida uchirgan. Robi opamni yaxshi ko‘raman. O‘ziyam yaxshi-da! Ammamga o‘xshagan kichkinamas. Bo‘yi novcha, yuzi oppoq, chiroyli. Sochi uzun, yerga tegadi.

Robi opam biznikiga ham borib turadi. Jomashovda mening ishtonlarimni, dadamning ko‘ylak-shimlarini

hafsala bilan yuvadi. Robi opam «Qora ammam»ning ro'moli bilan bog'langan qo'limga ko'zi tushdi-yu, xavotirlanib so'radi:

– Nima bo'ldi, bolajon?

– E, hech nima! – dedim giroylik qilib.

Robi opam lampamoy hidi anqib turgan quchog'idan bo'shatmay meni hovliga olib kirdi. Oshxonada kuymanayotgan «Qora ammam» biz kelganimizni darrov bildi.

– Robiya! – dedi qozon kavlashda davom etib. – Moshxo'rda pishdi. Chiroqni obkirib, sigirni sog'a qol.

Ovqatdan keyin ayvonda, xontaxta atrofida o'tirib choy ichdik. Ammam g'ij-g'ij nafas olib, dasturxonda qolgan non uvoqlarini yig'ishtirdi. Robi opam tizzasiga qiyiqcha tashlab gul sola boshladi. Bostirma tomining orqasidan oy chiqdi. Olis-yaqinda itlar akilladi. Allaqa-yoqda mushuk miyovladi. Qo'limni timdalagan Mosh... Odamni zeriktiradigan jimjit oqshom.

Birdan dadam esimga tushib qoldi. Nimaga haligacha kelmadi?

– «Qora amma!» Ketaman! – dedim yig'lamsirab. – Dadamminan uxlagim kelyapti!

– Hozir bolam, dadang hali-zamon kep qoladi! – ammam yupatib, peshonamdan o'pdi.

– Voy, bolajon, – Robiya opam tikib o'tirgan kashtani yoniga qo'yib boshimni siladi. – Ke, mening yonimda o'tir.

– Kerakmas... – dedim yig'lamsirab. – Dadam qachon keladila?

– Xudoyim-ey! – Ammam meni bag'riga bosdi. – Seni otang tuqqan o'zi! Keladi! Kelmay qayoqqa bordardi!

Bir tomonimdan ammam, bir tomonimdan Robi opam o'rtaga olib yotishdi. «Qora ammam»dan qatiq isi, Robi opamdan lampamoy hidi anqiydi. Men bo'l-sam dadamning tamaki isi anqib turgan mo'ylovini, yelkasidagi chuqur chandiqni o'ynab yotishni qo'msayman...

3. Yomon chumchuq

Tamakingin tanish isi dimog'imga kirishi bilan uyg'onib ketdim. Ko'zimni ochsam, tepamda dadam chekib o'tiribdi.

– Tursinlar, giroy, – dedi kulimsirab.

– Qachon keldiz?

– O'zing uxlab qopsan-ku, qani yuvin tezroq.

Rostdan ham kechasi yonimda dadam yotgani aniq. Yostiqlan papiros hidi kelyapti. O'rnimdan turishim bilan dadam bog'loqliq qo'limga qarab so'radi.

– Nima qildi?

– E, yiqilib tushdim.

Ayvondan tushib borarkanman, dadam ketimdan gapirib qoldi:

– Tinchimagan bolasana-da, suv tegizma endi. Gazak oladi.

Gultojixo'rozlar ochilib yotgan ariqcha bo'yiga cho'nqayib, chap qo'llab yuvindim. Qarasam, nariroqda Mosh ham yuvinyapti. Oldi oyog'ining uchini og'ziga tegizib ho'llaydi-da, yuziga surtadi. O'zining yuzini yumdalamaydi! Kesak bilan tushirib qolgim keldi-yu, dadamdan qo'rqdim.

Ammam oshxonadan ikki tovoq qaymoq olib chiqdi. Robi opam allaqachon dalaga ketgan, vaqtli bormasa, Bashor xola degan boshlig'i urishadi!

Dadam qaymoqqa non to'g'rab, shosha-pisha yedi.

– Bola qolaversin! – «Qora ammam» harsillab nafas olgancha dadamga yuzlandi. – Yuraveradi. Hali jo'xori kabob qilib beraman.

– Ha! – dedim irg'ishlab. – Jo'xori kabob yeyman!

– Yo'q! – Dadam menga qarab qovog'ini soldi. – To'polon qilib, yana bir baloni boshlaysan.

Ammam dadamning qo'liga tuguncha tutqazdi. Bilaman, tugunchada kecha yopilgan non, turshak bor. Pastak eshik oldiga kelganda devor tagida turgan kattakon ketmonga ko'zim tushdi. Dadamning ketmoni! Bandi shamday silliq, yuziyam barkashdek keladi. Dadam ketmonni yelkasiga olib, ammam bergan tugunchani dastaga ildi.

– Tez-tez kepturgin, bolani obke! – deb qoldi ammam ketimizdan.

Ko'chaga chiqqandan keyin yana Alvasti ko'prikdan o'tishni o'ylab yuragim uvishdi.

– «Alvasti ko'prik»ka boramizmi?– dedim hiqillab.

– Yo'q, sakkizinchi brigadaga!

Maza! Idora oldidan o'tarkanmiz!

Idora – kecha o'zim uzoqdan ko'rgan oppoq uy. Oldida Lenin bilan Stalinning haykali. Beriroqda hovuz. Hovuz chetida tollar, bir tup o'rik. Suv yuzida besh-oltita o'rik qalqib turibdi: sap-sariq. Qantak o'rikka o'xshaydi. Hovuz oldi gulzor. Hov ana, idora orqasida katta-katta derazali uzun uy. Bu – «qulup». Tomida radio ashula aytyapti.

Nihoyat kartoshka polizga yetib keldik. Dadam shoshgancha bor ekan. Olisda, paykal ichida erkak-xotinlar yuribdi. Ketmonlar tong oftobida yaraqlaydi. Boshiga dakana tang'igan ayollar, do'ppi kiygan erkaklar paykallarga bo'linib, kartoshka chopiq qilishyapti.

Dadam sharqirab oqib yotgan ariq bo'yida, bir tup sadaqayrag'och tagida to'xtadi. Oyoq uchida cho'zilib, tugunni qayrag'ochning pastki shoxiga ildi. Belidagi qiyiqchani yerga, soyaga yoydi.

– Sho'xlik qilmay, jim o'tir, xo'pmi? – dedi har doimgi gapini qaytarib.

Dadam bilan ko'p joyga borganman. Ariq tozalashga, arpa o'rishga. Dadam dalaga kirib ketganda men poylab o'tiraman. O'rganib qolganman.

Peshingacha «yaxshi bola» bo'lib o'tirsam bas: «Darang-darang, darang-darang», deb zang chalinadi. Dadam daladan chiqib kelib, meni shiyponga – obshi qozonga olib boradi. Oshpaz xola meni taniydi. Alohida tovoqda ovqat suzib beradi. Ko'pincha ichida suyagiyam bo'ladi. Faqat Parcha xolani yomon ko'raman. Parcha xola – devday xotin. Mo'yloviyam bor. Nuqul: «Suyagingni menga ber, men tozalab beray!» deydi.

Suyagimni bermay desam, qo'rqaman, o'zimni yeb qo'yadi!

Yaxshiyam bugun sakkizinchi brigadaga keldik. Parcha xola ko'pincha No'g'ayqo'rg'onda ishlaydi.

«Yaxshi bola» bo'lib, qiyiqcha ustiga o'tirib oldim. Dadam bir hatlab ariqdan o'tdi-da, kartoshka paykalga kirib ketdi.

Dadamning ketmon urishini tomosha qilishni yaxshi ko'raman. Dastasidan ko'tarishi bilan kattakon ketmoni oftobda yaraqlab ketadi. U ketmonini shu qadar zarb bilan uradiki, yer silkinib ketganday bo'ladi. Tag'in har gal ketmon tashlaganda «hah-hah» deb qo'yadi. Xuddi birovga zarba qilgandek! Bilaman, hozir dadam terlay boshlaydi. Avval bo'yni terlaydi, qip-qizarib, yaltirab ketadi. Keyin oq ko'ylagining gardaniga yopishgan joyi ho'l bo'ladi. Undan keyin yelkalari... Chap yelkasidagi chuqurcha o'radek qorayib qoladi.

Qayrag'ochning g'adir-budir tanasiga suyanib o'tirarkanman, muttasil chirqillayotgan chumchuqlar qulog'imni batang qilib yubordi. Boshimni ko'tarib qarasam, sadaqayrag'och atrofiga g'uj-g'uj chumchuq. Biri uchadi, biri qo'nadi. Vo'y, inlarining ko'pligini! Bittasi judayam pastda ekan. Do'ppidek inda uchta bolasining boshi ko'rinyapti. Katta chumchuq uchib kelishi bilan uchala bolasi sap-sariq tumshug'ini katta ochib, baravar chirqillaydi. Ammo dadasi hech adashmaydi. Hamma-siga galma-galdan ovqat beradi. Iye, dadasi ikkita ekan-ku! Bittasi uchib ketishi bilan, ikkinchisi kelyapti, bolalariga navbat bilan ovqat ulashishyapti. Bundan chiqdi, bittasi – dadasi, ikkinchisi – ammasi!

Bolalarini olib tushib uyda boqsam-chi! Qayrag'ochga qanday tirmashganimni o'zim bilmay qoldim. Bir-ikki marta sirg'anib ketib, tizzamning ko'zi achishdi. Baribir amallab qayrag'ochning shoxiga osilib oldim. Chirana-chirana shoxga chiqdim. U yog'i oson ketdi. Shoxlar qalin, xuddi narvondek bir-biriga yaqin turardi. Endi chumchuq ini ham, sap-sariq og'zini ochib chirqillayotgan qushlar ham, hatto in ichidagi oqish tezaklar, tuxum po'choqlariyam aniq ko'rina boshladi. Shoxlarni ushlab sekin-sekin in tomon surildim. Boyadan beri chirqillayotgan qushlar birdan jimib qoldi. Hurpayib, in tagiga yotib olishdi. Nima bo'пти, yana ozgina siljisam, chumchuqlar meniki! Qo'ynimga solib obtushaman-da, uyga olib ketaman. Aksiga olib, in shoxning qir uchida,

ingichka joyda ekan. Qancha surilsam, shox shuncha qattiq lopillaydi. Buning ustiga chang bosgan yaproqlar yuz-ko'zimga uriladi. Hammayog'im qichishadi, oyoqlarim titraydi...

Qo'lim «yarador»ligi paqqos esimdan chiqib ketgan ekan. Tepadagi shoxni qisibroq changallagan edim, o'ng qo'lim qattiq achishdi. Ammam o'ragan ro'mol ustidan shox-pox kirib ketdimi, nima balo? Ko'zimdan yosh chiqib ketay desa ham chidadim. Inga yaqinlashgan sayin oyog'imning qaltirashi kuchayib ketdi. Endi inga qo'l cho'zgan edim, bir chumchuq ovozi boricha chirqillab shundoq tumshug'im oldidan uchib o'tdi. Yuzimga qanoti tegdiyam. Qo'rqqanimdan to'xtab qoldim. Shunda g'alati ish bo'ldi. Son-sanoqsiz chumchuqlar atrofimda charx urib aylana boshladi. Olamni buzgudek bo'lib chirqillaganicha biri uyoqqa, biri buyoqqa uchadi. Ko'zimni o'yib olishga qasd qilgandek, yuzimga qanotini tegizib, chig'ir-chig'ir qiladi. Boshim aylanib ketdi. Sog' qo'lim bilan shoxni changallaganicha «yarador» qo'limni silkitib «kisht-kisht»lab haydadim. Latta yechilib ketdi. Chumchuqlar bo'lsa to'da-to'da bo'lib, battar yopishadi. Qo'rqqanimdan ovozim boricha baqirib yubordim:

— Dada-a!

Oyog'im sirg'anib ketdi. Ikki qo'llab shoxga yopishgan edim, yarador qo'lim shunaqa achishib og'ridiki, shox qo'limdan chiqib, bir zum lapanglab turdim-da, pastga yiqildim. Elkam qandaydir shoxga qattiq urilganini, yerga uchib tushganimni elas-elas bilan...

Bir mahal ko'zimni ochsam, dadam ko'tarib ketyapti. Doim opichlab yurardi, hozir qo'liga ko'tarib olibdi. Avvallari cho'loqlanishi hecham ozor bermasdi. Hozir har oqsoqlanganda jonim chiqib ketay deydi, qo'lim sirqiraydi. Dadamdan muttasil anqib turadigan tamaki hidi hech qachon ko'nglimni aynitmasdi. Endi bo'lsa qusgim kelib, o'qchiy boshladim.

— Dada! — dedim ingrab.

Dadam yuzimga xavotirlanib qaradi.

— Hozir, hozir, — dedi ovozi xirillab. — Birpas chidagin, yigitsan-ku o'zing, giroysan-ku.

U battarroq oqsoqlanib yugurib ketdi. Ko'z o'ngimni sarg'ish tuman qopladi. Yana qusgim keldi. Keyin nima bo'lgani esimda yo'q.

Dahshatli og'riqdan hushimga keldim. Yana o'sha sarg'ish tuman. Bora-bora tuman tarqalib, avval dadamning mo'ylovini, keyin o'zini ko'rdim, qarasam, yonida yana bitta odam bor. Tanidim: dumaloq do'ppisini bostirib kiyib olgan Komil buva muloyim kulib turibdi. Siyrak soqolini selkillatib, boshimni siladi.

– Qo'lni sindirib obsiz-ku, azamat yigit!

Qiziq, tabib buva har doim odamga shunaqa muloyim kulib qaraydi, hech kimga qattiq gapirmaydi.

Qo'rqa-pisa dadamga qaradim. Tabib buvaning oldida urishgisi kelmadi shekilli, qovog'ini solib, yuzini o'girdi.

– Ziyoni yo'q, – dedi tabib buva og'ziga nos tashlab. – Uch haftada san ko'r, man ko'r bo'lib ketadilar. Qani, qo'lni ko'tarib ko'ring-chi, yigit. Unisinimas, chap qo'lni.

Chap qo'lim tayoqdek qotirib bog'lab tashlangan edi. Tabib buva taxtakachlab qo'rganini tushundim. Qo'limni ko'targan edim, og'ridi-ku, ammo boyagidek ko'nglim behuzur bo'lmadi.

Shu payt uzun ko'ylagining etagi yerga tegay deb turgan xotin uyga kirdi. Avval dalada ko'rganman. Tabib buvaning xotini – Lazakat xola. Burni tovuqning tumshug'iga o'xshaydi.

– Shaftoli yeysanmi? – U qo'lidagi kattakon zarg'aldoq shaftolini uzatdi.

Olishga oldim-u, shaftolini qanday archishni bilmay qoldim. O'ng qo'lim «yarador», chap qo'lim singan.

Dadam qoshini chimirib shaftolining po'stini archib berdi. Ammo yegim kelmadi. Negadir ko'nglim aynidi.

Hovliga tushishimiz bilan ko'cha eshikdan yo'l-yo'l ko'ylak kiygan, soch qo'ygan yigit kirib keldi.

– Iye, giroy, qo'lga nima qildi? – dedi kulib.

Tanimasam ham «giroy»ligimni ko'rsatib qo'yish uchun iljaydim:

– Hech nima.

Tabib buva muloyim tovushda yigitga tayinladi:

– Ukangizni uylariga oborib qo'ying, Olimjon...

Bundan chiqdi, Alvasti ko'priksda Husan buvam bilan Oqsoqol buvaga yordam bergan Olimjon aka shu ekan-da! So'ragim keldi-yu, dadam qovog'ini solib turganini ko'rib indamay qo'ya qoldim.

Yigit qo'ltig'im tagidan avaylab olib, meni ko'tardi.

– Yo'q, o'zim... – dedi dadam hamon qovog'ini solib. – Ovora bo'lmang, Olimjon...

– Iye, ovorasi bor ekanmi, o'zimning ukam-ku, – Olimjon aka quchoqlab ko'tararkan, kulimsiradi. – Bu qo'l ham ranen bo'lganmi?

Qo'rqa-pisa yana dadamga mo'raladim. Yo'q, bu gal ham indamadi. Tamakisini tutatib qattiq-qattiq tortdi.

– Bir haftadan keyin tag'in obkelasiz, – deb qoldi ketimizdan chiqqan tabib buva muloyim jilmayib. – Qisilmang, Shomurodjon. Bola-da, bola!

Salqin, zaxkash yong'oqzor orasidan yurib ketdik. Oldinda dadam, orqaroqda meni ko'tarib olgan Olimjon aka... Olimjon akam cho'loqlanmas ekan. Meni yengilgina ko'tarib ketyapti. Sochi yoyilib, peshonasiga tushgan. Olisda Alvasti ko'priksning shovullashi eshitiladi. O'sha tomonga qaramaslikka harakat qildim.

– Kuzda kelsang-chi, senga ancha yong'oq bera-man, – dedi u va'dani katta qilib.

– O'zimizniyam yong'og'imiz bor! – dedim iljayib.

– Iye zo'r ekan-ku! – Olimjon aka kuldi. – Bo'lmasa o'zingni yong'og'ingni olib kelasan. Yong'oq o'ynashni bilasanmi?

– Bilaman, – dedim iljayib. – Soqqa quvar, gan qo'yar...

– Bo'pti, ikkalamiz o'ynaymiz. Ammo yutib oiganni qaytib berish yo'q.

Hovlimizga kirgandan keyin Olimjon akam meni ayvonga o'tqizdi. Negadir yuzimga avaylab shapatiladi-da, ko'z qisib qo'ydi. Dadam bilan xayrlashib, chiqib ketdi.

Ana endi dadam meni rosa urishadi! Qo'limga tag'in og'riq kirsam ham tishimni tishimga qo'yib o'tiraverdim. Dadam uyga kirib sopol lagan olib chiqdi. Oqsoqlanib

bordi-da, hovlidagi xoldastor olmani tepib silkitdi. Allaqancha olma duv etib to'kildi. U olmalarni laganga solib, yuvib keldi. Etigining qo'njidan suyak sopli pichog'ini chiqarib bittasini archdi. Ikki pallaga bo'ldi-da, bir pallasini pichog uchiga ilib uzatdi.

– Ma, ye.

Shundagina dadamning ko'ziga yurak betlab qaradim. Uning rangi o'chgan, terlab ketgan yuzini kafti bilan artgan bo'lsa kerak, barmoq izi qorayib turar, mo'y-
lovi titrar edi.

O'zimga qolsa, olmani jon deb yerdim-u, yana ko'nglim behuzur bo'la boshladi. Qo'limning sirqirashi kuchaydi.

– Og'riyapti, – dedim yig'lamsirab.

Dadam ko'zimga tikilib turib, uf tortdi. Shimining cho'ntagini uzoq titkilab, gazeta-qog'oz, tamaki xalta oldi-da, qo'llari titrab papiros yasadi. Gugurt izlab topolmadi shekilli, tokchalardagi barkash-choynaklarni taraq-turuq qilib ancha timirskilanib yurdi. Keyin «hozir» deb ko'chaga chiqib ketdi. Zum o'tmay bir qo'lida xurmacha, bir qo'lida uzun shisha bilan qaytib keldi. Tokchadan yog'och qoshiq olib, xurmachaga botirdi. Bir qoshiq qatiqni tumshug'imga tiqishtirdi.

– Ich, – dedi bo'g'iq ovozd. – Yog'liq qatiq ekan. Sartarosh amaking berdi.

Battar ko'nglim aynib, yuzimni o'girdim.

– Kerakmas...

To'satdan dadamning ko'zida o't chaqnadi.

– Daraxtda pishirib qo'yganmidi, badbaxt! – dedi hayqirib.

Qo'rqqanimdan g'ujanak bo'lib oldim. Birpasda ko'nglim aynishi ham, og'riq ham esimdan chiqib ketdi. Dadam shaxd bilan o'rnidan turdi-da, cho'loqlanib tokcha yoniga bordi. Kattakon piyolani yulqib olib, xontaxta ustiga taraqlatib qo'ydi. Uzun shishaning tagiga kafti bilan uch-to'rt urgan edi, so'rg'ichlangan po'kak otilib hammayoqni qo'lansa, chuchmal hid tutib ketdi. U vajohat bilan piyolani to'ldirib quydi-da, nafas olmay oxirigacha ichdi. Keyin tag'in to'ldirib quydi, yana ichdi.

Birpasda ko'zlari qizarib, mo'ylovi osilib qoldi. Negadir harsillab nafas olgancha tag'in piyolani to'ldirdi. Yana ichdi. Piyolani hovliga uloqtirib yubordi. Piyola hovli o'rtasiga, olma tagiga borib tushdi. Ammo sinmadi, sakrab ketdi. Dadamning ko'zlarida qo'rqinchli olov chaqnadi.

– O'ldiraman! – dedi baqirib. Og'zidan ko'pik sachrab xontaxta ustida yotgan suyak sopli pichog'ini boshi ustida baland ko'tardi: – O'ldiraman! So'yaman!

Dahshat ichida chinqirib yubordim:

– Dada! Dada-a-a!

– So'ymasam otimni boshqa qo'yaman! – U bor kuchi bilan pichoqni bir urgan edi, sopol lagan chil-chil bo'lib ketdi. Lagandagi olmalar har tomonga sochilib, besh-oltitasi namatga, ikkitasi ayvon labidan dumalab yerga tushdi. Pichoq xontaxtaga sanchilib qoldi.

– Dada! – dedim titrab. – Dadajon! – o'rnimdan sakrab turib ketdim.

– So'yaman! Yerning tagida bo'lsayam topib, so'yaman! – dadam ikki qo'li bilan boshini mushtlay boshladi. – Qanjiq! O'ldiraman! O'ldiraman!

U «o'ldiraman» degan sayin ikki qo'llab boshini mushtlar, ovozi xirillab qolgan, og'zidan ko'pik sachrar edi. Birpasda peshonasi momataloq bo'lib ketdi. Keyin o'zidan-o'zi qo'l-oyoqlari silkina boshladi. Rangi gezarib, ovozi chiqmay qoldi. Shilqillab yonboshga ag'darildi. Dahshat ichida o'zimni dadamning ustiga tashladim.

– Dada, unaqa qilmang, dadajon.

Og'riqni ham unutib, yelkasidan silkitdim.

– Dada, turing! – dedim yolvorib.

U qimir etmay yotar, ko'zlari baqrayib qolgan, ammo meni ko'rmas edi. Yig'lab yubordim.

– Dadajon, turing. Ikkinchi qilmayman, daraxtga chiqmayman. Dadajon...

«Qora ammam» qachon kelganini bilmay qolibman.

– Voy o'lay! Voy sho'rim qursin, – degancha qo'li-dagi tugunni ayvonga uloqtirdi. Tugun yechilib, qo'rga ko'milgan jo'xorilar har tomonga dumalab ketdi.

– «Qora amma», dadamni uyg'oting, – dedim titrab.– Ikkinchi qilmayman.

– Hoy, Shomurod, senga nima bo'ldi? – Ammam dadamning yuzini siladi. Turtinib oshxonaga yugurdi. Bir kosa suv obkelib, dadamning yuziga sepdi. Aylanib-o'rgilib peshonasini, qo'llarini silay boshladi...

Ikkinchi bob

«QORA AMMA» HIKOYASI

Bechora chora istar

Peshindan keyin nuqul o'ng qovog'im uchaverdi. Qurib ketsin! Shu ko'zim uchsa xafa bo'laman. O'zimni chalg'itish uchun tappi qildim, hovlini chalib chiqqan bo'ldim. Dilim o'lgur hech yorishmaydi. Dardimni aytay desam, Robiya ham ishda. Qizim bechoragayam qiyin. Erta ketadi, kech keladi. Qiz bola boshi bilan traktor haydaydi. Bashoratxon o'zi yaxshi juvon-ku, jahli tezroq. Achchig'i chiqsa, eriniyam nari oborib, beri opkeladi. Nima qilsayam brigad-da! Qolaversa, Oqsoqoldek odam yarim kechagacha daladan chiqmaganidan keyin o'zini u yoqqa-bu yoqqa tashlashga uyaladi-da kishi...

Xayolim bo'linarmikin, deb tomorqadagi jo'xorizordan sigirga o't yulayotganimda ertalab Muzaffar «jo'xori kabob yeyman» degani esimga tushdi. Ukam ham juda kajbahs-da! Bolani tashlab ketaqol, desam ko'nmaganini ko'rmaysizmi? Yosh bola kunbo'yi dalama-dala yuradi. Og'ziga bir qoshiq obi-yovg'on tutadigan onasi bo'lmasa! Peshinda obshi qozondan sho'rva ichadi – shu!

Shomurodning fe'li cholimga o'xshaydi. Cholim ham o'z kindigini o'zi kesgan xilidan edi. Kolxoz bo'larmish degan gap chiqqanida Orifxo'ja boyning odamlari kechasi uyimizga bostirib kirgan. «Ichagingni boshingga salla qilib ketamiz», deb qo'rqitgan. Cholimning jussasi kichkina bo'lsayam, yuragi otning kallasidek edi. «Bir boshga bir o'lim, qo'lingdan kelganini qil», deb turavergan.

Bola narsa, sevina qolsin deb jo'xorining sutlirog'idan tanlab, qo'rga ko'mdim. Robiyaning kelishini kutishgayam sabrim chidamay yo'lga tushdim.

Alvasti ko'prikdan o'tayotganimda yuragim yana hovliqdi. O'lsin! Xosiyatsiz joy! Urush paytida Robiyaga ham shu ko'prikda ajina daf qilgan...

Yong'oqzordan o'tib ketayotsam, oldimdan Olimjon chiqib qoldi. Komil tabibning o'g'li. Baraka topgur xo'pam yaxshi bola. Urush paytida Robiyaning traktoriga suv tashib yurardi. Hozir Toshkentdagi katta o'qishda o'qiydi. Oqsoqol bilan cholim poyiz tagida qolganida qandoq chirqillagan edi, bola bechora... Umri uzoq ekan, Oqsoqol tirik qoldi. Ammo cholim...

– Shomurod akamnikiga ketyapsizmi? – dedi salom berib. – Tezroq bora qoling.

Yuragim bir qalqib tushdi.

– Tinchlikmi?

– Tinchlik. Xavotir olmang... – dedi-yu ketaverdi.

Xavotir olmaganim qursin. Eshikdan kirib kelsam, bu hangoma. Qovog'im bekorga uchmagan ekan-da...

Muzaffar bechora qattiq qo'rqqan ekan. Dadasidan bir qarich jilmaydigan bola etagimga osilib yalindi:

– Ammajon, ketmang, sizminan yotaman!

Qiziq, soat necha bo'ldiykin? Oy peshtoqqa kelib qopti.

Chigirtka chirillaydi... Hammayoq suv quygandek jimjit. Bolani bag'rimga bosib o'tiribman. Ichkarida Shomurod xo'rsinadi. O'qtin-o'qtin: «Baribir o'ldiraman!» deb alahlaydi. Muzaffar, qo'li og'riyotgan bo'lsa kerak, ingraydi. Uyqusida cho'chib pinjimga kiradi. Ana, yana seskanib tushdi. Ko'zini ochib, atrofga olazarak qaradi.

– Qo'rqib ketyapman...

– Qo'rqma, bolam, men borman-ku. Uxla...

Juvongina o'lgur noinsof! Bolaning uvoli tutgur imonsiz! Eringni birovdan kam joyi yo'q edi-ku! Cho'loq bo'lsa devor oshib o'g'rilik qilib bo'lmagandir! To'rt yil qon kechib keldi-ku! Eri urushda o'lgan qanchadan qancha gulday juvonlar yuribdi sabr qilib. Aqalli bolangni o'ylasang bo'lmasmidi, imonfurush!

Oy havolab ketdi. Ayvon qop-qorong'i bo'lib qoldi. Uyqu qani? Xayol ming ko'chaga olib kiradi. Kimsanim... Oltitasini yerga qo'yib, bittagina tutgan bolamniyam Xudo ko'p ko'rdi.

*Dukur-dukur ot keldi,
Ot boshida xat keldi.
Xatini o'qib ko'rsam,
Voy-voy bilan dod keldi...*

Qayoqdasan, bolam? Qaysi yurtlarda yuribsan?! Joning sog'mi o'zi? Mayli, oyoq-qo'lsiz bo'lsang ham, birov zambilda ko'tarib kelsayam jon derdim! Kaftimda olib yurardim! Otang yo'lingga termula-turmula o'tdi. Endi aqalli meni o'z qo'ling bilan tuproqqa qo'ysang-chi! Yo'q, yig'layotganim yo'q, bolam! Yig'lamayman. Mabodo yig'lasam ham... Yo'q, o'g'lim. Men yig'lasam, sen bezovta bo'lasan. Robiya kuyadi. Qizimning ikki ko'zi haliyam eshikda. Kutyapti. Seni kutyapti. Boshqa qiz bo'lsa, etagini qoqardi-yu bor-e, deb bittasiga tegardiketardi. Ne-ne joylardan sovchi chiqmadi. Tuqqandanmi-tug'ishgandanmi, deb shuni aytadi-da! Bir qiz bo'lsa shunchalik bo'lar.

Shunaqa deyma-u...

Voy, o'lmasam! Yana o'sha shum xayolga boryapmanmi? Kimsanim, jon bolam, kechir, gunohkor onangni! Bilaman, Xudo ko'rsatmasin, shahid ketgan bo'lsang, arvohing chirqillaydi. Tirik bo'lsang, ertaga kelib yoqamdan olasan. «Nima qilib qo'yding, shum-kampir, senam onamisan, imonsiz», deysan! Nima desang haqqing bor. Qaysi ona o'z yuragini o'zi sug'urib tuproqqa tashlaydi? Qaysi ona o'z bolasiga o'zi xiyonat qiladi?

Qandoq qilay, jonim bolam? O'zing o'yla, axir. Robiyam, sening Robiyang, qovjiragan guldek ko'zimning oldida so'lib boryapti. Yoshi o'ttizga qarab ketyapti, o'g'lim! Sovchilar «qari qiz» deb qadamini uzib qo'yganigayam ancha bo'ldi.

Onangning gunohidan o't, Kimsan! Bu niyat xayolimga kelganiga ancha bo'lgandi. Ammo birovga aytish uyoqda tursin, o'ylashgayam qo'rqib yuruvdim. Bugun

tog'angnikidagi mana bu «tomosha»ni ko'rib... Aqalli shu norasida go'dak hurmati, onangdan o'pkalama, bolajonim!

Xo'roz qichqirdi. Salqin tushdi. Tong bo'zarib, yong'oqning uchidagi shoxlar silkina boshladi. Men bo'l-sam Muzaffarni quchoqlagancha muk tushib, haliyam Kimsanim bilan gaplashyapman. Bilmadim, savob ish qilyapmanmi, gunohmi? Bilmadim...

* * *

Ertalab Shomurodni ishga jo'natib Muzaffarni o'zim bilan uyga olib kelgandim. Bola-da! Qo'lining og'rig'ini unutib chopqillab ketdi. Kechasi bezovta bo'lib chiqqani uchun vaqtlikkina yotib qoldi. Robiya ishdan keladigan payt yaqinlashgan sayin ko'nglim alg'ov-dalg'ov bo'la boshladi. Mayli, Shomurod-ku, qaysarmi, balomi, bir amallab ko'ndiraman. Lekin Robiyaga qay yuz bilan aytaman bu gapni! Nima deyman? Tilginam tanglayimga yopishsa bo'lmaydimi?

...Robiya kech keldi. Ayvon burchagida uxlab yotgan Muzaffarni ko'rib suyundi.

– Iye, yana nima qildi? – dedi bolaning taxtakachlangan qo'liga ko'zi tushib.

– Yiqilib, qo'li sinibdi.

– Voy, bechora! – U Muzaffarning peshonasidan o'payotganda yuragim qalqib ketdi.

Keyin ozroq kir chaydi. Yarim kecha bo'lib ketganiga qaramay boshini yuvdi. Yettinchi lampani xontaxtaga qo'yib ko'k qiyiqchaga gul bosa boshladi. Pilik chirsillaydi, hovlida qurbaqalar qurillaydi. Robiya qizil ipak qatini chaqqon-chaqqon tortib kashta tikyapti. Uzun kipriklari oppoq yuziga to'kilib turibdi.

– Robiya! – dedim sekin. – Bola sho'rlik qo'lini yomon sindiribdi. Chumchuq olaman deb sadaga chiqqan ekan.

U achinib Muzaffar tomonga qaradi.

– Tabib ko'rdimi?

– Ha, Komil tabib taxtakachlab qo'yibdi.

– Joni og'rig'andir.

– Bo'lmasa-chi!

Yana jimlik cho'kdi. Robiya afsuslanib bosh chay-qadi-da, ishini qilaverdi.

– Robiya... – dedim yana. – Shu bolagayam jabr bo'lib ketdi. Ona bo'lmaganidan keyin shu ekan-da!

U qiyiqchani tizzasiga yoygancha boshini ko'tardi.

– Avvalam aytuvdim-ku, oyijon. Adamga tushuntiring, Muzaffar biznikida turaversin.

«Adamga tushuntiring!» Yuragim uvishib, boshim xam bo'lib qoldi. Men noinsof, men yuzi qaro qaysi yuz bilan?.. Kimsanim, jon bolam, kechir gunohkor onangni!

– Robiya, – dedim yig'lagudek iljayib, – sovchi keldi!

U menga qaramay kulimsiradi.

– Muborak bo'lsin!

Doim shunaqa maynavozchilik qiladi. Yig'lab-siq-tasa, «uyingizga sig'may qoldimmi», deb shovqin solsayam go'rga edi. Kuladi.

– Unaqa dema, qizim! – Ovozim titrab ketdi. – Kimsan akang tirik bo'lsa shu kungacha daragi chiqardi.

U ishini xontaxta ustiga qo'yib ko'zimga ta'nali qaradi. Chiroyli ko'zlarida «shu gapni siz aytyapsizmi?» degan ma'no bor edi.

– Men-chi, oyijon? – dedi xotirjam ohangda.

Tushunmadim.

– Nima sen? Senga nima bo'пти, qizim? Hali o'n gulingdan...

Robiya «voy, sodda oyim-a», degandek kulimsiradi.

– Men borman-ku, – dedi sekin. – Men tirikman-ku! Bundan chiqdi Kimsan akam ham tiriklar. – U gap tamom, degandek yana qatim tortishga tushdi.

Damim ichimga tushib ketdi.

– Sovchi kim deb so'ramaysanam, qizim, – dedim ichimdan toshib kelayotgan yig'ini arang bosib.

Robiya ensasi qotib kuldi.

– Kavushini ayamasa kelaversin... Sizga nima?

– O'sha sovchi – menman!

Bu gap qandoq og'zimdan chiqib ketganini bilmayman, Robiyaning qo'lidagi qiyiqcha sirg'alib yerga tushdi. Rangi o'chib, yuzimga hayratlanib qaradi.

– A?!

– Shomurodga...

– Nima?! – U chayon chaqqandek sakrab oʻrnidan turdi. Etagining shamoli tegib lampa oʻchib qoldi.

Jonholatda oyogʻiga yopishib, changallab oldim.

Yoʻq, men yigʻlamayman, deb ahd qilgan edim. Kimsanimning mozorini topmagunimcha, goʻrini oʻz koʻzim bilan koʻrib, tuprogʻini oʻz qoʻlim bilan quchoqlamaguncha bir tomchi ham yosh toʻkmayman deb qoʻygandim. Hozir bolamning azasiga yigʻib yurgan oʻsha yoshlar birdan koʻzimdan tirqirab chiqdi.

– Bolam! Jon bolam, – dedim iltijo qilib. – Kimsanni sen kutsang, men kutmayapmanmi! Oʻz bolamning koʻziga oʻzim choʻp solgandan koʻra oʻlganim yaxshimasmi! Nima qilay, jon qizim, ilojim qancha!

– Axir... axir... – U madori quriganday yonimga choʻkkalab qoldi. Nami ketmagan sochlari yuzimga yoyilib tushdi.

Boshimni koʻtarib qarasam, koʻzlari hayratdan katta-katta ochilgancha hamon choʻkkalab oʻtiribdi. Yuzi oy nurida yanayam oqarib ketgan, entikib nafas olyapti.

– Oyi... – dedi pichirlab. – Axir u kishi... adam-ku...

– Nima qilay, jon qizim... – Nami qurimagani sochlaridan, oppoq, tekis yuzlaridan oʻpa boshladim.

– Kimsan aka... – Uning boʻgʻzidan ojiz nido otilib chiqdi. – Kimsan aka... Oyi jon! Nima deyapsiz? Nima qilmoqchisiz?

IKKINCHI QISM

Uchinchi bob

ROBIYA HIKOYASI

1. Dadamni yoʻqotib qoʻydim

Agar oyim «hozir sen oʻlasan» desa bunchalik vahimaga tushmasdim. Bu qandoq bedodlik? Shomurod togʻani kichkinaligimdan «ada» deb oʻrganib qolganman-ku. Uyam meni «qizim» deydi-ku. Uyga borib, kirini yuvganimda, Muzaffarni choʻmiltirganimda, ovqat pi-

shirib berganimda... Hech qachon menga unaqa ko'z bilan qaragan emasdi-ku.

Yo'q, bobom bo'lsa bunaqa gap chiqmasdi. «Ovozingni o'chir, pakana!» deb bir musht ko'tarsa, oyim pildirpis bo'p qolardi.

Nima deyotganini o'zi biladimi oyim? Axir... Kimsan akam mening qaylig'im bo'lsa, oyimning o'g'li-ku! Kimsan akam hammadan ko'ra oyimga yaqin-ku. Nima jin urdi?

Bilaman. Shomurod tog'amga osonmas. Muzaf-fargayam qiyin. Lekin menga begona odam emas, kelib-kelib o'zimning oyim shu gapni aytsa, qandoq chidayman?! «Oyi» deb shu xotinning etagidan ushlagandim-ku axir!

* * *

...O'z onamni elas-elas xotirlayman. Pastak shift-li uyda, deraza tagida nuqul osmonga qarab yotar edi. Rangi sarg'ayib, ikki chakagi ich-ichidan kirib ketgan. Ko'zlari qop-qora, chiroyli. Uzun-uzun kipriklari qilt etmaydi. Derazadan allaqanday madrasaning kungurador peshtoqi ko'rinib turadi. Peshtoq chekkasida sherlar tasvirlangan. Kiyikni quvib ketayotgan dahshatli sherlar... Onam bir nuqtadan ko'z uzmay yotadi. Ba'zan ko'zi ochiqligicha uxlab qolganga o'xshaydi. Ammo uxlamaydi. Otamning eshikdan kirib kelishini kuta-kuta charchayman. Dadam — o'qituvchi. Men tengi qizlar dadamning maktabiga qatnaydi. Men bormayman, onamga ko'z-quloq bo'lib o'tiraman. Dadam ishdan kelib, oyimga qaraydi. Keyin patnisning orqasiga harf yozib, meni o'qitadi.

— O'qi qizim, o'qi! — deydi tajang bo'lib. — Yoshing to'qqizga chiqdi. Sen tengi bolalar yaqinda uchinchi sinfga ko'chadi, o'qi!

Nima qilay? Kunbo'yi onamga qarasam, qornim och bo'lsa, nima qilay?

— Non... — deyman, yalinib. — Dadajon, non!

Onam yotgan joyida ingraydi.

— Qiynamang bachamni. Payti kelib o'qib olar. — Shu gapni aytguncha ham charchab qoladi. Entikib-entikib

nafas oladi. — Men-ku qiltomoqman. Aqalli, Robiyajonga bir burda non topib bering...

Dadam noilojlikdan battar tajanglashib hovonchada talqon tuyadi. Bir qoshig'ini onamga, bir qoshig'ini menga tutadi. Onamdan talqon o'tmaydi. Ko'zi bilan menga imo qiladi.

— Bachamga bering...

...Bir kuni ertalab uyimizga ancha odam yig'ildi. Olacha to'n kiygan kishilar, oppoq ko'ylak kiyib, boshiga oq ro'mol o'ragan xotinlar... Hamma uvvos soldi. Dadam boshimni ko'ksiga bosgancha xo'rsinib-xo'rsinib yig'ladi.

Keyin onamning to'shagi bo'shab qoldi. Yosh bola emasman-ku, onam o'lganiga allaqachon aqlim yetgan edi. Bir kuni dadam qo'lida katta chamadon ko'tarib, meni vokzalga olib chiqdi. G'ishtin binoga kirib kelaverishda, zinada dumalab yotgan xotinni ko'rib, qo'rqib ketdim.

— Dada! Anavi semiz xotin nimaga zinada uxlab yotibdi?

Dadam boshimni siladi.

— Semiz emas, shishib ketgan. Qarama, Robiyajon. Yur. Poyezdga minib Toshkentga boramiz.

Poyezdning taraqa-turuq ovozi, odamlarning shovqin-suronidan boshim aylanib, uxlab qolibman... Ertalab pastga tushdik. Tramvayga o'tirdik. Tramvayning jiring-jiring qilib yurishi qiziq tuyulsa ham, qornim ochgan, non egim kelardi.

— Dada, non... — dedim yalinib.

— Shoshma, bacham, shoshma.

Dadam tekis qilib dazmollangan oppoq ityoqa ko'ylak kiyib, chuchvaranusxa bo'yinbog' bog'lab yuradigan odam edi. Po'rim ko'ylak kiyadi-yu, noni yo'q...

Bir joyga kelib tramvaydan tushdik. Dadam qimir-lamay o'tir, deb meni chamadon ustiga o'tqizdi-da, o'zi g'ishtin zinalardan ko'tarilib, oynaband eshik ichiga kirib ketdi. Anchadan keyin oppoq, uzun yaktak kiygan, ko'krak cho'ntagida soat zanjiri yaltirab turgan chol bilan boshlashib chiqdi. Cholning soqol-mo'ylovi, ko'zi ustiga

qayrilib tushgan qoshi, hatto quloqlarining ichidan chiqib turgan tuklar ham ko'kimtir oppoq edi. U gavdasini g'oz tutib kelarkan, yo'l-yo'lakay ko'krak cho'ntagidan uzun zanjirli soatini chiqarib, shiq etib qopqog'ini ochdi.

– O'h-ho', vaqt ketib qopti-ku, ma'lim! – dedi bosh chayqab.

Dadam yaqin kelishi bilan yalindim:

– Non. Dada, no-o-on!

Boyagi chol yarq etib menga qaradi. Barkashdek kaftini dadamning iyagi oldida paxsa qilib baqirdi:

– O'v, ma'lim! Ko'chada qizim qoldi, och o'tiribdi, desang o'lasanmi?

Chol dadamni uradi, deb qo'rqib ketdim. Yo'q, dadam choldan cho'chimadi, ma'yus jilmaydi.

– Ko'rib turibsiz, Oqsoqol. Zamon shunaqa: oltin-kumush kul bo'lgan, arpa-bug'doy pul bo'lgan.

– Pul bo'ladimi, kulmi, padariga la'nat, lokin norasta bolani och qoldirma! – Cholning ovozi gumburlab chiqar, unga sayin ko'nglim ozib, boshim aylanar edi. – Shoshma, men hozir! – Chol shunday dedi-da, qaytarma qo'njli etik kiygan oyoqlarini katta-katta tashlab allaqayoqqa ketdi. Dadam yonimga, chamadon zixiga cho'kib boshini quyi soldi. Jingalak sochini changallab, menga qaramay uzoq o'tirdi.

Bir mahal orqa tomondan gumburlagan ovoz keldi:

– Ma, qizim, yeb ol, buvang aylansin!

Qarasam, boyagi chol sedana sepilgan oppoq kulchani ushatyapti. Jonholatda qo'limni cho'zdim. Chol kulchani ikkiga bo'lib, yarmini menga, yarmini dadamga berdi.

– Bundanam og'ir yillarni ko'rganmiz, ma'lim! – dedi yana shang'illab. – Bu kunlaram o'tadi-ketadi. Bu yil – o'ttiz uchinchi yilmi? Esingda bo'lsin, ma'lim, nasib etsa, o'ttiz to'rtinchi yilda, uzog'i bilan o'ttiz beshinchi yilga borib hammasi oppon-soppon bo'p ketadi.

Nonimni birpasda yeb bo'ldim. Qarasam, dadam hali yarmisiniyam yemabdi. Har luqma tomog'iga tiqilib qolayotgandek zo'rg'a yutinadi.

– Non! – dedim qo'limni cho'zib. – Dadajon...

Dadam qo'lidagi nonning qolganini uzatdi. Chol qarab turganini ko'rib, non burdasini qo'rqa-pisa qo'limga oldim.

– Mayli! – Cholning soqoli titrab ketdi. – Nasib etsa, hammasi yaxshi bo'ladi. Qani, ma'lim, ketdikmi? Turaqol, qizim! – U tagimdagi chamadonni yulqib ko'tardi. Nariroqda ot-arava turgan ekan. Nafsim qonib endi suv ichgim kelardi. Lekin dadamning jiddiy ko'zlariga qarab, suv so'rashdan qo'rqdim.

Dadam aravaga o'tirib, meni bag'riga olarkan, cholga qaradi.

– Yo'l olismi, Oqsoqol?

– Olis... No'g'ayqo'rg'onga boramiz!

– Soat necha bo'ldi? – dedi dadam quyosh botib borayotgan ufqqa qarab.

– Soat? – Chol dadamga bir qarab qo'ydi-da, arava ichida yotgan qamchini oldi. – Soatni boshingga urasanmi!

Qarasam, cholning ko'krak cho'ntagida boyagi yaltirab turgan soat zanjiri ko'rinmayapti.

Dadam uning ko'ziga tikilib, sekin xo'rsindi.

– Rahmat... Tirik bo'lsam, shu yaxshiligingizni...

– Chu! – Chol qovurg'asi sanalib qolgan ot ustida qamchi aylantirdi. – Chu, og'ayni! – Keyin dadamga qarab kulimsiradi. – Sani tuppa-tuzuk ma'lim desam, g'irt jinni ekansan-ku! Chu!

Arava tosh bosilgan yo'ldan taraqlab yurib ketdi. Kap-katta qiz dadamga suyangancha yana uxlab qopman.

Gumburlagan ovozdan uyg'onib ketdim.

– Husanboy! Ho, Husanboy!

Ko'zimni ochsam, hamon aravada, dadamga yonboshlab o'tiribman. Qandaydir qishloqqa kelib qolibmiz. Tolzor tor ko'cha, tomsuvoq qilingan uylar... Boyagi chol pastak eshikni taqillatib, birovni chaqiryapti.

Zum o'tmay eshik ochildi. Koptokdek yumaloq, past bo'yli qop-qora xotin chiqdi. Tavoze bilan ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib salom berdi.

– Yumushingiz bormidi, Oqsoqol?

– Chaqir Dumani! – Bizni olib kelgan chol qora xotinni jerkib berdi. – Erkaklarning ishiga aralashishga balo bormi?

Qora xotin hovli ichkarisiga pildirab kirib ketdi.

– O‘v, ma’lim! – Chol dadamga qo‘lini paxsa qildi. – Tushmaysanmi? Nima, senga asobiy taklif kerakmi?!

Dadam jilmayib, meni quchog‘idan bo‘shatdi. Yerga sakrab tushdi.

– Kel, bacham! – dedi pastdan qo‘lini cho‘zib.

– O‘zim... – arava yondoriga osilib yerga tushdim. Dadam aravaga qaytib chiqib, chamadonni olib tushdi.

Bir chekkada yotsirab turar, uyimizga qaytib ketgim kelardi. Pastak eshik tag‘in ochildi. Boyagi qora xotinga o‘xshagan past bo‘yli, ammo baquvvat, ixcham soqolli kishi chiqib keldi. Qo‘li go‘ngga belangan ekan, bizni olib kelgan cholga bilagini tutdi.

– Bahay, Oqsoqol, tinchlikmi?

– Tinchlik! Gap bundoq, Duma! – Oqsoqol dadamga imo qildi. – Samarqanddan mehmon obkeldim.

– Bahay! Mehmon otangdan ulug‘! – pakana kishi pildirab borib dadamga tirsagini tutdi. – Xush kepsiz, mehmon!

Dadam iymanibroq so‘rashayotgan edi, Oqsoqolning azamat ovozi yana guldiradi:

– O‘rtoq Samadov – ma’lim. Bolalarimizni o‘qitishga kelgan, uqdingmi?

Chamasi, pakana kishi hech nimaga tushunmasa ham, iljaydi.

– Ma’qul, Oqsoqol!

– Mulozamatingni yig‘ishtir, Duma! – Oqsoqol ovozi baralla qo‘yib, qo‘lini paxsa qildi. – O‘rtoq Samadovning ma’limligini uqdingmi?

– Uqdim! Mehmon kelsa bosh ustiga, dedim-ku!

– E, mehmon emas, ovsar! – Oqsoqol jahl bilan qo‘l siltadi. – Nosingdan ol!

Pakana kishi yo‘l chetidagi otquloqni yulib olib qo‘lini artdi. Pochasi qayrilgan shimining cho‘ntagini kavlab, nosqovoq chiqardi. «Ma, chek zaharingga», degandek Oqsoqolga zarda bilan uzatdi.

Oqsoqol kaftini to'ldirib nos otdi.

– Mehmon emas; mezbon! – dedi, nosqovoqni egasiga qaytarib. – Ko'rib turibsan: zamon og'ir. Qahatchilik bitib, yurt qaddini ko'tarib olguncha sanikida turadi. Keyin ma'limga shunaqangi uy sobberaylikki, ko'rgan odamning og'zi ochilib qolsin. Tushundingmi?

Pakana kishi «ma'qul» degandek bosh irg'adi. Biroq bizni olib kelgan chol unchalik qanoatlanmadi shekilli, tag'in shang'illadi:

– O'zimiznikiga oborardim-u, xabaring bor – kelinlarimning chillasi chiqqani yo'q. Qani, gapning po'skalasini ayt: nima deysan?!

Pakana kishi sen chekkanda men qolamanmi, degandek nosqovoqning tagiga jahl bilan uch-to'rt urdi-da, Oqsoqoldan ham ko'proq nosni kaftiga to'kib og'ziga otdi.

– Turgan-bitganing vahima-ya, Oqsoqol! – dedi chiyillab. – Shuni oldinroq aytsang o'lasanmi? Bitta uyni bo'shatib qo'yardim.

– Bo'shatasan-a, bo'shatasan! Ko'chada bir tiyin tushib yotgan bo'lsa, keting bilan qisib olasan-ku!

Pakana kishining jahli yomon ekan. Avval dadamga, keyin cholga rangi o'chib qaradi-da, chopib borib, Oqsoqolga xezlandi.

– O'v! – dedi bo'ynini xo'rozdek cho'zib. – Raisman, deb ja o'zingdan ketma! Husan Dumani endi ko'ryapsanmi, ahmoq!

– Bo'ldi, do'stim, bo'ldi! – Oqsoqol ro'parasiga turib olib yoqasiga yopishmoqchi bo'layotgan pakana kishining yelkasiga shapatiladi. – Hazilniyam bilmaysanmi, nima balo, Duma! Ma'lim No'g'ayqo'rg'onda maktab ochmoqchi. Katta maktab. Ishonganimdan senikiga opkeldim-da, o'rtoq!

Pakana kishi yana birpas xezlanib turdi-da, nari ketdi. Pastak eshikni oyog'i bilan tepib, hovli ichkarisiga qarab g'azabnok chinqirdi:

– Chaqqon bo'l. Hoy! Katta uyni bo'shat!

– Ma'lim! – Oqsoqol nosini tupurib kaftining orqasi bilan soqol-mo'ylovini artdi. – Duma – meni qadrdonim. Meni aytdi dersiz: narisi bilan bir yilda quling o'rgilsin

uy qurib beramiz. O'shangacha shu xonadon sizniki. Qani, pajalista!

Oqsoqol «pajalista» deyishga dedi-yu, ko'z qiri bilan pakana kishiga xavotirlanib qarab qo'ydi.

Dadam chamadonni ko'tarayotgan edi, pakana kishi kelib qo'liga yopishdi.

– Siz ko'tarsangiz uyat bo'ladi, ma'lim...

Hovliga kirishimiz bilan bo'yi mendan tikroq, kir ko'ylak kiygan, qop-qora kallaxum bola chopib kelib, boshimdagi do'ppimni olib qochdi.

– Ibi, ber! – dedim chinqirib.

– Oyi. Do'ppi! Zar do'ppi! – dedi kallaxum bola hovli etagiga yugurib.

Ayvondan boyagi qora xotin chopib tushdi.

– Kimsan! Nomusga o'ldirding-ku! Zar do'ppi kiy-sang qiz bola bo'pqolasan!

– Dada, do'ppim... do'ppim! – dedim yig'lamsirab. – Bersin. O'zimning do'ppim...

Dadam negadir xotirjam kuldi. Qora xotin chopib kelib, meni bag'riga bosdi.

– Beradi, jon qizim. Bermasin-chi, naq qulog'ini kesib olaman. Voy, bu qizning shirinligini! Oting nima?

U mening javobimni ham kutmay, shataloq otib tomorqa eshigi tomonga qochib ketayotgan bolaga mush-tini do'laytirdi.

– Kimsan! Uyalmaysanmi, toyloqdek bo'lib qiz bolani yig'latishga! Go'shingni bir burdadan qilmasam, yurgan ekanman!

Dadam meni yupatdi.

– Beradi, yeb qo'ymaydi do'ppingni.

Pakana kishi bir do'q qilgan edi, kallaxum bola dar-rov qaytib keldi. Do'ppimni qo'limga tutqazdi. Avva-liga qora xotin «Kimsan» deganida kallaxum bolaning kimligini bilmagani uchun shunaqa deyapti, degan xayolga borgan edim. Yo'q, oti Kimsan ekan. Qorong'i tushganida atala ichdik. Hech qachon bunaqa shirin ovqat ichmagandim. Atalani ichishdan ko'ra yog'och qoshiqni yalash maza bo'larkan. Buniyam kallaxum bola o'rgatdi.

– Menga qara, ey! – dedi. – Avval qoshiqning orqasini yalaysan. Keyin ichini, bildingmi?

Ertalab uyg'onsam, qora xotinning quchog'ida yotibman.

– Dada! – deb g'ingshigan edim, qora xotin yuzimdan o'pib yupatdi.

– Otang hozir keladi, qizim. Idoraga ketdi. Gap bundoq, Robiyaxon. Endi sen mening qizim bo'lding. Men – oyingman. Husan buvang – buvang. Yoshing to'qqizdami? Akangni yoshi o'n birda. Bundan chiqdi, Kimsan – akang. Akangni «siz» deb gapirgin, xo'pmi, qizim!

Qora xotin choyga zog'ora to'g'rab ichirdi. Nima qilishimni bilmay hovliga tushsam, pushtalarda qip-qizil qalampirlar pishib yotibdi. Kallaxum – Kimsan qalampirlarni uzib olib bemalol eb yuribdi.

– Jinni! – dedim kulib. – Qalampir eyapti.

– O'zing qalampir! – Kimsan qizil qalampirlardan yana ikkitasini uzib og'ziga soldi. – Qulupnay-ku bu! Yeb ko'r!..

Kimsan uzatgan «qalampir»dan bittasini qo'rqa-pisatishlab ko'rdim. Shunaqa shirinki!

– Yana! – dedim yalinib.

– O'zing uzib yeyver! – Kimsan iljaydi. – Qulupnayni bilmaydi-ku!

Ayvon tomondan qora xotin ovoz berdi:

– Kimsan, singlingga qulupnay terib ber, o'g'lim...

– Nima, o'zining qo'li yo'qmi? – Kimsan menga iljayib qaradi-yu, pushtadan chiqib nari ketdi.

* * *

Biz ko'chib kelgan hovli katta edi. Qator qilib solingan ikki uy, bir ayvon. Etak tomonda bostirma, molxona. Hovli sathi keng bo'lgani bilan kaftdek bo'sh joy yo'q. Yarmisiga piyoz sepilgan, yarmi qulupnayzor. Undan narida gultojixo'rozlar ochilib yotibdi. Nok, gilos, behi daraxtlari tartib bilan ekilgan.

Bu xonadonning g'alati udumlari bor ekan: tong otgandan kun botguncha qimirlagan jon borki, bekor turmaydi. Bobom saharlab eshak minib dalaga chiqib

ketadi. Oyim molga qaraydi, non yopadi, kir yuvadi, cho'nqayib o'tirib, hovlidagi piyozlarni o'toq qiladi, qulupnay pushtalarini chopadi, tert qoradi. Ikki hafta ichida ko'p narsalarni bilib oldim. Bu xonadonda hech nima bekor ketmas ekan. Oyim (qora xotinni shunaqa deyishga o'rgandim) piyoz archsa «soqolini» tashlab yubormaydi. Yerga suqadi: shunaqa qilsa yana piyoz o'sib chiqarkan. Kimsan akam (oyim tayinlagani uchun «aka» deb sizlayman) o'rik yesa danagini tashlamaydi. Chaqib mag'zini olib qo'yadi. Tandirdan chiqqan kul piyoz pushtasiga sepiladi. G'unajinning tezagi tappi qilib, devorga yopiladi. Hatto hojatxonadagi kesaklar ham bekorga ketmaydi. Tomorqadagi toklarning tagi kavlanib, ildiziga solinarkan.

Kimsan akam men o'ylagandek yomon bola emas ekan. Ba'zan rahmim keladi unga.

Ertalab bobom dalaga ishga chiqib ketarkan, supada uxlab yotgan Kimsan akamning tepasiga kelib, ustidan ko'rpani uloqtirib tashlaydi.

– Tur o'rningdan! – deydi dag'dag'a bilan. – Mo'ylovi chiqib qolgan bola yalpayib yotishingni qara? Bo'l tez, go'ngni tashib qo'y.

Kimsan akaning mo'ylovi bormikin deb qarab qo'ya-man. Yo'q, ko'rinmaydi. Bechora dik etib o'rnidan turadi-da, ko'zini ishqalab molxonaga kirib ketadi. Birpasdan keyin zambilg'altakka go'ng ortib, chiranib-chiranib g'ildiratgancha tomorqaga olib chiqadi. Kech-gacha tinim bilmaydi. Hamma ish qo'lidan keladi. Tomorqada yer chopadi, molga qaraydi, o'tin yoradi.

Kechqurun endi ovqatga o'tiramiz, deb turganimizda uzoqdan eshak hangragani eshitiladi.

– Turaqol, Kimsanjon! – deydi oyim. – Dadang kelyapti.

Kimsan akam darrov obdastada iliq suv tayyorlaydi. Ko'chadan kirib kelgan bobomga suv quyib turadi. Bobom rahmat deyish o'rniga jerkadi:

– Eshakni sug'ormaysanmi!

Ertalab hammasi qaytadan boshlanadi.... Bora-bora men ham uy yumushlariga kirishib ketdim. Hovli

supuraman, idish-tovoq yuvaman, oyim kepak aralash undan xamir qilsa suv isitaman.

Kuzda – pochtaxona yonida allaqanday eski binoga joylashgan maktabga qatnay boshladik. Men – birinchi sinfga, Kimsan akam to‘rtinchi sinfga.

Bolalar ichida eng kattasi – menman. Bir marta o‘qituvchi opa dadamdan iltimos qilganini eshitib qoldim. «O‘rtoq Samadov, Robiyaxonning savodi allaqachon chiqqan ekan, bermalol uchinchi o‘qiyversa bo‘ladi», degan edi, dadam siltab tashladi: «Hamma qatori qonuniy o‘qisin!» Shunday qilib, kap-katta qiz ukam tengi bolalar bilan dadam allaqachon o‘rgatgan «Alifbe»ni, hisobni qaytadan o‘rganishga tushdim.

...Uzundan-uzun qish kechalari dadam bilan bobom narigi uyga kirib qiroatxonlik qiladigan odat chiqarishdi. Lampa bitta. Oyim, men, Kimsan akam berigi – qorong‘i uyda sandal chetida o‘tiramiz.

Oyim norozi bo‘lib chirqillaydi:

– Lampamoy anqoning urug‘i bo‘lmasa ekan! Ertaga nima qilamiz?

Ammo «ziqna» bobom lampamoyini ayamaydi.

– O‘qing, ma‘lim, – deydi shang‘illab. – Otabekni o‘qing.

Dadamning osoyishta ovozda kitob o‘qishiga quloq solib yotamiz. Berigi uyga bermalol eshilib turadi. Otabek... Kumushbibi... Hasanali...

Bir kuni dadam kitob o‘qishdan to‘xtab, bobomga gapirib qoldi:

– So‘raganning aybi yo‘q, Husan aka, nega sizni Duma deyishadi?

Bobomning kulgani eshitildi.

– E, ma‘lim, o‘zimam anig‘ini bilmayman. Oqposhsho zamoni edi. Bir kuni butun No‘g‘ayqo‘rg‘on dahasi choyxonaga yig‘ilib maylis qildi. Nodirxo‘ja degan ellikboshi bo‘lardi. Insofli odam edi, rahmatli. Quloq bo‘pketdi. O‘sha va‘z aytdi. «Oranglarda ishbilarmon bir odamni dumaga saylamasalar bo‘lmaydi. Oqposhsho hazrati oliylarining farmoni shu», dedi. Odamlar chuvillashib meni ko‘rsatishdi. Saylasa-saylay qolsin, desam ketida bir arava g‘alvasi bor ekan. O‘qtin-o‘qtin

shaharga tushib Dumasiga borish kerak bo'larkan. Bu yoqda ish qolib ketyapti... Duma degani kattakon bir mahkama ekan. Devoriga ko'kragi ochiq xotinlarning surati osilib qo'yilgan hayhotday xona. Lak-lak odam... Chuvir-chuvir qilib allanimalarni gaplashishdi. Qo'l ko'taringlar, dedi. Qarasam, hamma qo'l ko'taryapti. Menam ko'taraverdim... Keyin bormay qo'ydim. Orada inqilob bo'ldi, Duma-pumasiyam suvga urib ketdi.

Dadam kuldi.

– Siz Husan aka, haqiqiy dehqonsiz. Yer ilmini yaxshi bilasiz. Ammo kechirasiz-ku, savodingiz... – dadam andisha qildi shekilli, tutilib qolgan edi, bobomning o'zi aytib qo'ya qoldi:

– Yo'q-da, ma'lim, bizda savod nima qilsin! Esimizni tanibmizki, yer kavlab yotibmiz.

Tag'in dadamning ovozi keldi:

– Shuni aytaman-da! O'shanda sizni saylashga saylashibdi-yu, buyog'ini o'ylashmabdi-da. Duma degan davlat masalalarini hal qilishi kerak. Siz...

– Oqposhshoyam anoyimas! – Bobom xi-xilab kuldi. – Menga o'xshab, qo'l ko'tar desa oyog'iniyam qo'shib ko'taradigan soddalarni tanlagan-da!.. Qo'ying bu gaplarni! Yaxshisi, Kumushbibini o'qing. Ja qiziq joyida to'xtab qoldik.

* * *

Men to'rtinchi, Kimsan akam yettinchi sinfga ko'chganida bir vaqtlar Oqsoqol buva bizni aravada No'g'ayqo'rg'onga olib kelayotganida va'da qilgan to'kinchilik zamon keldi. To'g'ri, bir yilda emas, uch yilda... Endi bayramlarda tong-sahardan nog'oralar taka-tum qiladigan, doshqozonlarda osh damlanadigan bo'ldi. Kech kuzda bobom qo'y so'yib kalla soladi, qolgan go'shtni tuzlab xumga tiqadi...

Bir kuni Oqsoqol dadamga gapirib qoldi:

– Mana, ma'lim, o'lmagan qul, sen je-men je kunlargayam etdik. Endi sizga o'n ikki vassali uy qurib beramiz. Odamlarni hasharga aytib qo'ydim. Belida belbog'i bori kelaveradi.

Dadam xijolat chekibroq bobomga qaradi.

– Agar Husan akani qisib qo'ymagan bo'lsak, hasharchilarni maktab qurishga salsakmikin... Bizga-ku uy topilar, maktab kerak.

– Nega qisilarkanman! – Bobom Oqsoqolga yuzlanib chiyilladi. – Ma'lim to'g'ri aytyaptilar. Eng avval maktab kerak. Raisman deb kerilasan-u shunga aqling yetmaydi.

Shu gap gap bo'ldi. Erta yozdan dadam «katta maktab» qurilishiga sho'ng'ib ketdi. Kolxozchilar uyoqda tursin, yuqori sinf o'quvchilari ham hasharga solindi. Bo'yi cho'zilib, ovozi do'rillab qolgan Kimsan aka ertalabdan razyezdga – maktab qurilayotgan joyga yuguradi.

Kechqurun qorong'i tushganida oyim qo'limga bir tovoq ovqat, to'rtta non tutqazadi.

– Boraqol, qizim, hammasining ichi uzilib ketgan-dir...

Tugunni ko'tarib razyezd tomonga chopqillayman.

Tumonat odam! Har yoqda mash'ala gurillaydi. Daladan to'ppa-to'g'ri hasharga kelgan kolxozchilar biri loy otib, biri lo'mboz bosib, maktab devorini ko'taradi.

Kimsan akam yalangoyoq loy tepadi. Orif oqsoqol ishboshi bo'lib, u yoqdan bu yoqqa yuguradi. Dadam po'rim shimining pochasini qayirib handaq ichida pildirab yuradi. Bobom devorga minib olib chiyillaydi:

– Kuching bormi, hov! Otsang-chi mundoq!

Loy otishda Oqsoqolning ikki norg'ul o'g'li – Shokir aka bilan Zokir akaning oldiga tushadigani yo'q... Oyimning aytishicha, Shokir aka bilan Zokir aka traktor haydarkan. Traktorning omochi shunaqa zo'rmishki, bir yo'la yigirmata qo'ssho'kizning o'rniga yer ag'dararmish. Ikkovlari hasharniyam boplaydi. Paxsakurakka loyni to'ldirib bir otganda bobomning qo'liga borib tushadi. Hech kim charchadim demaydi. Askiya, qiyqiriq... Kuzga borib yangi maktab bitdi hisob.

...Qumsuvoqqa tushishgan kuni ham hasharchilar oldiga borgan edim. Bir kosa qovurdoq uch kishiga nima bo'lardi! Dadam, buvam, Kimsan akam bir qoshiqdan esa – edi, bo'lmasa yo'q. Shundayam nolishmadi. Peshinda Oqsoqol buva qo'y so'yib qaynatma qilib bergan

ekan. Hammalari yana ishga sho'ng'ib ketishdi. Oqsoqol buvaning Zuhra kelini bilan uyga qaytdik...

...Tinch, to'kin zamonning allaqanday osoyishta zavqi bo'ladi. O'shanda bu zavqni tushunmagan ekanman. Boshimizga kulfat yog'ilganidan keyin qadriga etdim. O'sha kecha charchab barvaqt uxlab qopman. Bir mahal yonimda yotgan oyim, «voy o'lmasam, tinchlikmi», deb sapchib turganidan uyg'onib ketdim. O'sha zahoti ko'cha eshikning qattiq taqillagani, ketidan:

– Duma, och! – degan ovoz keldi.

Oyim «kimde-e» deb ayvonga yugurdi.

Negadir yuragimga vahima o'rmaladi. Nimqorong'i burchakda bemalol xurрак otib yotgan Kimsan akamni ilg'ab, ko'nglim joyiga tushdi.

Bundan chiqdi, dadam bilan bobom ham kelishgan.

Eshik yana tiqilladi.

– Duma!

...Oqsoqol buvaning ovozi tanib, tinchlандim. Ish bilan kelgan.

Oyimdan oldin bobom borib eshikni ochdi shekilli, o'sha tomonda erkaklarning g'o'ng'ir-g'o'ng'ir gaplashgani qulog'imga chalindi. Butunlay xotirjam bo'ldim. Endi joyimga yotgan edim, deraza oldidan birov gursillab o'tdi.

Dadam yotgan uy tomonda bobomning chaqirgani eshitildi:

– Ma'lim, turarkansiz.

Narigi uyda dadam yo'taldi.

– Tinchlikmi, Husan aka?

– Sizni so'rashyapti... – Bobomning tovushida xavotir borligini qandaydir ichki tuyg'u bilan sezdim-u tag'in o'rnimdan turib ketdim.

– Kim? – dedi dadam.

– Bilmadim, rais bilan yana ikki kishi.

Dadamning hovliga tushganini bildim. Shap-shup yurib eshik oldiga bordi-yu, o'sha zahoti qaytib keldi.

– Robiya, – dedi ostonada to'xtab.

Qorong'ida ovozi titrab ketganini sezdim.

– Dada! – Yuragim yomon bir narsani his etib, chopib oldiga bordim. – Dada!

– Men ertaga kelaman, qizim. – Dadam shunday dedi-da, ildam yurib narigi uyga kirdi. Bir zumda kiyinib chiqdi. Etigini topolmay kalovlanib turgan edi, bobom oyimga o'shqirib berdi:

– Chiroqni yoqsang-chi, pakana!..

Oyim shosha-pisha chiroq yoqib, piligini ko'tardi. Dadam ayvon burchagida turgan etigini, nihoyat, topdi. Paytava o'rayotganida qo'llari qaltirab ketganini ko'rdim. Battar qo'rqib ketdim.

– Dada, – dedim titrab. – Qayoqqa ketyapsiz?

Dadam rangi quv o'chgancha muzdek labi bilan peshonamdan o'pdi.

– Qo'rqma, qizim, ertaga kelaman, – dedi-yu, bobomga yuzlandi. – Tushunmovchilik bo'lganga o'xshaydi, Husan aka. – Keyin negadir oyimga iltijoli termildi. – Mabodo bir oy, yarim oy kelmay qolsam, Robiyani sizga topshirdim. Onalik qilasiz.

– Voy o'lmasam, ma'lim! – Oyim titrab meni quchoqlab oldi. – Nimaga unaqa deysiz?

Dadam hovliga tushgan joyida qaytib ayvonga chiqdi. Ikki yuzimdan qattiq o'pdi-da, sakrab pastga tushdi. Qaddini g'oz tutib eshik tomonga yo'naldi.

Darvoza tomonda gurillagan mashina ovozi eshitilgandan keyingina hushim o'zimga keldi.

Oyimning quchog'idan chiqdim-u chinqirgancha hovliga otildim.

– Dada! Dadajon!

Ko'cha eshik oldida turgan bobomni turtib o'tib, tuproq yo'ldan yugurib ketdim. Hammayoqni chang-to'zon qoplagan, havodan benzin hidi kelar, olisda allaqanday mashinaning qizil chirog'i uzoqlashib borardi.

– Dada! – Yalangoyoq chopib borarkanman, entikib qichqirdim: – Dadajon!

Mashina chirog'i ko'rinmay ketdi. Men bo'lsam hamon yugurib borardim. Nafasim qisilib qolgan, tomog'im achishar, ammo to'xtamasdim. Oxiri toshgami, kesakkami qoqilib yuztuban yiqilib tushdim. Og'zimga tuproq kirib yig'lab yubordim. Bir mahal kimdir yelkamni siladi.

– Tur, Robiya, turgin. Uyga boraylik.

Kimsan akamning do'rillagan ovozi qulog'imga yoqimsiz eshitildi.

Yerni mushtlagancha qichqirdim:

– Bormayman!

– Shunaqa qilmagi-in. O'zing yaxshisan-ku, Robi, ketaylik.

– Bormayman! – Alam ustida dodlab yubordim. -- Bormayman! Dada! Dadajon!

Kimsan akam yonimga cho'nqayib boshimni siladi.

– Dadang keladilar. Nega yig'laysan, keladilar. Mana meni aytdi dersan, yur, uyga ketamiz.

Dadamning qo'llari qaltiraganicha paytava o'rayotgani, oyimga iltijoli termilgani, «Robiyani ehtiyot qiling», degani ko'z oldimga keldi, yosh bolalardek chinqirib yubordim:

– Yo'qol! Dadam! Dadamga boraman!

...Oyim «hali-zamon dadang keladi» deb harchand yupatgani bilan anchagacha hiqillab yotdim. Narigi uyda hamon chiroq yoniq turar, bobom bilan Oqsoqol buva allanimani maslahatlashishar edi. Tong bo'zarganda uxlab qolibman. Hovli tomondan kelayotgan qattiq-qattiq ovozdan uyg'onib ketdim...

– Tushuntirdingmi axir? Ma'lim – yaxshi odam, Samarqandda o'qigan, bolalarimizga ilm beryapti, kattakon maktab qurdi, dedingmi?

Bobomning ovozini eshitib, kechasi bo'lgan voqea, dadamning: «Robiyani ehtiyot qiling», degani yana esimga tushdi. Ko'zimni ishqalab ayvonga chiqdim.

Vaqt peshinga yaqinlashib qolgan, behi tagida bobom bilan Oqsoqol buva gaplashib turishar, nariroqda Kimsan akam ketmon sopidan tutgan ko'yi talmovsirab turib qolgan, oshxona eshigining ostonasiga o'tirib olgan oyim ikkala choldan ko'z uzmas edi.

– Aytdim! – Oqsoqol buva birovga o'chakishgandek jahl bilan qo'lini paxsa qildi. – Bolsheviklik vijdonimni o'rtaga qo'yib, kafolat beramanki, bitta-yarimta imonsiz ma'limga tuhmat qilgan, dedim!

– Xo'sh, nima deyishdi?

Oqsoqol buva bobomga arazlagandek xo'mrayib qarab qo'ydi.

– Tekshiramiz, dedi.

– Gunohi nima ekan, demaysanmi, ovsar! – Bobom hammasiga Oqsoqol buva aybdordek, shang‘illadi. – Menga Kalinin Oqsoqol o‘z qo‘li bilan ordin bergan, kerak bo‘lsa eng katta Oqsoqolning oldigacha boraman, demadingmi?!

– Dedim! – Oqsoqol buvaning mo‘ylabi titrab ketgandek bo‘ldi. – Aybi shumishki, darsni programma bo‘yicha o‘tmasmish. Hisob ilmini Xorazmiy yaratgan, deb maqtaganmish. Bolalarga Bobur poshshoning she‘rlarini o‘qitganmish. – U qovog‘ini solib xo‘rsindi. – Rayondan beruxsat maktab qurganmish...

– Iye? – dedi bobom hayratdan ovozi ingichkala-shib. – Maktab qursa yomonmi? Maktabni hashar bilan soldik-ku!

– Zamonni ko‘rib turibsan... – Oqsoqol buva ovozini pasaytirdi. – Menimcha, bu ishda Xo‘jaqulovning ham qo‘li bor.

– Kim u Xo‘jaqulip?

Oqsoqol uf tortdi. Anchagacha jim qoldi.

Hamon ayvon ustuniga suyanib turardim. Bobom ham, Kimsan akam bilan oyim ham Oqsoqol buvaning og‘ziga termilishar, hech kim menga e‘tibor bermas edi.

– Ma‘lim senga gapirmaganmidi? – dedi Oqsoqol buva bobomning ko‘ziga qattiq tikilib.

Bobom ingichka yelkalarini uchirdi.

– Nimani?

– Menga bir aytgandek bo‘luvdi, – dedi Oqsoqol o‘ychan ohangda. – Ma‘lim Samarqandda ishlab yurganida Xo‘jaqulov degan tergovchi bilan qattiq to‘qnashadi. Temir yo‘lda katta o‘g‘rilik ochiladi. Tergovchi ishni yopti-yopti qilib yubormoqchi bo‘lganida, stansiyada ishlaydigan qo‘shnisi ma‘limga chiqib arz qiladi. Ma‘lim avval gazetaga, keyin obkomga xat yozadi. Gunohkor jazosini oladi. Tergovchi ariza berib ishdan bo‘shaydi. Farg‘onagami, Qo‘qongami ketadi. Aylanib-aylanib Toshkentga kelib qoladi. Ana o‘sha Xo‘jaqulov hozir prokuror. – Oqsoqol buva uzoq timirskilanib nos otdi. Bobom ikkovlari yerga tikilib, o‘y surib qolishdi. Nazarimda, nima qilishiga ikkovi ham hayron edi.

– Tuhmat balosidan asrasin! – dedi oshxona ostonasida o'tirgan oyim o'kinib. Keyin to'satdan menga ko'zi tushib, ildam o'rnidan turdi. – Voy, uyg'ondingmi, qizim?

Oqsoqol buva yarq etib men tomonga yuzlandi.

– San, qizim, xapa bo'lma! – dedi salmoqlab. – O'qishingga boraver. Ma'limni aybi yo'q. Haq joyida qaror topmaguncha qo'ymayman. Meni kim deb yuribdi Xo'jaqulovlar!

Oyim ayvonga chiqib, yelkamga qoqdi. Ketmon sopidan tutib turgan Kimsan akam goh Oqsoqolga, goh menga qarab iljaydi. Oqsoqol buvaning gapi «ertaga dadangni obkeb beraman» degandek tuyulib, o'zimning ham ko'nglim yorishdi. Ammo indiniga yomon ish bo'ldi. Rangi zahil, qulog'ining orqasida danakdek so'gali bor begona odam kelib, dadamning kitob-daftarlarini rosa titkiladi. Ancha-muncha narsalarni olib ketdi. Bobom o'rta tushmoqchi bo'lgan edi, «yo'qol, unsur!» deb ko'zini ola-kula qildi... Bir haftadan keyin maktabga borsam, o'qituvchi xotin yomon gap aytdi. Bir vaqtlar dadamga: «Robiyaning savodi allaqachon chiqqan ekan, bir yo'la uchinchi sinfga boraversa bo'ladi», degan xuddi o'sha o'qituvchi xotin endi butunlay boshqacha gap qildi. «Otang xalq dushmani ekan. Sen sovet maktabida o'qishni xohlamaganing uchun ataylab o'qishga kechikib kirgansan!» Yig'lagim keldi-yu, yig'lamadim. Hatto oyimga ham dardimni sezdirmadim. To'satdan tushgan g'am yosh bolani bir kunda katta odamga aylantirib qo'yarkan.

2. Yangi rais

Dadamni yana tush ko'rdim. Vokzalmishmi-yey, bozormi-yey. Xullas, odam ko'p emish. Dadam uzoqda, olomon orasida turib, nuqul qo'li bilan «beri kel» deb imlarmish. Oppoq ko'ylak kiyib, bo'yinbog' taqib olganmish. Oldiga boray desam, yo'limni rangi zahil, qulog'ining orqasida so'gali bor odam to'sib turganmish. Negadir ular uchta bo'lib qolibdi. Hammasi bir-biriga o'xsharmish. Dadamni olomon ichida yo'qotib qo'yibman. Nafasim tiqilib nuqul qichqirarmishman:

«Dada! Dadajon!»

O'zimning tovushimdan o'zim uyg'onib ketdim. Uy ichi g'ira-shira qorong'i, yonimda Kimsan akam o'tirardi.

– Nima qildi, Robiya? – dedi do'rillab. – Suv icha-sanmi?

Tushim hamon ko'z oldimdan ketmas, dadamni yo'qotib qo'yganim alam qilardi.

– E! – dedim jerkib. – Suvni nima qilaman?!

Kimsan akam birpas qarab turdi-da, indamay chiqib ketdi. Anchagacha xomush o'tirdim. Bora-bora hushim o'zimga keldi. Kunbo'yi oyimga qarashib yurib, kech-qurun ovqat yemay yotib qolganim esimga tushdi.

Bugun No'g'ayqo'rg'onda noxush gap tarqaldi. «Qulup»da maylis bo'larmish, Orif oqsoqolni olib tashlab, o'rniga boshqa rais saylasharmish... Oyim bilan bobom ham o'shayoqqa ketganicha haliyam qaytishmagan shekilli, ayvonda chiroq yoqilmagan, hovli jimjit edi.

Eshik g'iyqillab ochilib, Kimsan akam mo'raladi.

– Robi, bizayam idoraga bormaymizmi?

...Dilgir kuz oqshomi qishloqni sukunat pardasi bilan o'rab olgan, kunbotar tomonda yarim-yorti oy uvada bulutlar orasida tentirar, butun No'g'ayqo'rg'on huvillab qolgandek edi. Pastak devorlar ustidan tutun ko'tarilmaydi, derazalarda chiroq ko'rinmaydi, allaqayerda echki bo'g'ilib ma'raydi...

Chindan ham butun qishloq idoraga ko'chib kelgan ekan. Katta-katta derazalardan nur tushib turgan uzun bino – «qulup»ga yaqin borib bo'lmaydi. Zinasigacha odam tiqilib ketgan.

Kimsan akam qo'limdan sudrab bino orqasiga olib o'tdi. Nur tushib turgan derazalar ochiq, ichkaridan g'ovur-g'uvur eshitildi. Kimsan akam tarmashib derazaga chiqdi.

– Qo'lingni ber! – dedi qattiq shivirlab. Engashib bilagimdan ushlaganicha bir tortgan edi, qo'lim uzilib ketay dedi.

– Qo'yvoring, – dedim tipirchilab.

– Jim! – U baquvvat qo'llari bilan meni baland deraza tokchasiga tortib chiqardi. (Allaqanday uch oy

ichida shunaqa kuchli bo'lib ketganiga o'zim hayron qoldim.) Lekin hozir buni o'ylaydigan holatda emasdim. Tokchaga ko'ndalang o'tirib, ichkariga qarasam – tumonat odam. Oldingi qatordagilar to'ppa-to'g'ri yerning o'ziga chordana qurib o'tirishibdi.

Chekka-chekkadagi lampalar, fonuslar xira nur sochadi. Hammayoqni lampamoy hidi, tamaki isi tutib ketgan. Birov derazaga chiqqanimizni ko'rsa urishib beradi, deb o'ylagan edim. Yo'q, hech kim qayrilib ham qaramadi. Hamma o'zi bilan o'zi ovora edi.

Kimsan akam «uyoqqa qara» degandek biqinimga turtib imo qildi. Sahna to'rida Stalinning mo'ylovi o'ziga xo'p yarashgan kattakon surati, qizil mato yopilgan uzun stol orqasida olti kishi o'tiribdi. Eng avval Oqsoqol buvaga ko'zim tushdi. Ehtimol, gavdasi hammadan katta bo'lgani uchun birinchi bo'lib uni ko'rgandirman. Yonida – bobom. Qora kamzul kiyib olgan. Boshida jiyagi titilib ketgan do'ppi. Gavdasi yanayam kichrayib qolgandek, stolga muk tushgan. Yonboshida novcha bo'yli ozg'in kishi. Taniyman. Oqsoqol buva bilan biznikiga ko'p kelgan. Ergash selsovet deyishadi. Undan narida o'tirgan kishini tanimadim. Yo'l-yo'l kostyum kiygan. Bo'ynida bo'yinbog'. Sochini silliq taragan. Ingichka mo'yloviyam bor. U nuqul bezovtalanadi. Choy-nak-piyola qo'yilgan minbarda va'z qilayotgan ayvoni katta shapkali kishiga bo'ynini cho'zib qarab-qarab qo'yadi.

Shapka kiygan kishi jon kuydirib gapiryapti.

– O'rtoq kolxozchilar! Tushuning axir! Orif oqsoqolni hammamiz hurmat qilamiz. Uch yil qurg'oqchilik bo'lgandayam kolxozni cho'ktirib qo'ymadi. Planni oshirib bajardi. Mana, endi kolxoz badavlat xo'jalikka aylandi.

Pastdan allaqanday erkak kishining baland ovozi yangradi:

– Bo'pti-da! Tag'in nima deysiz!

Shapkali kishi o'ng qo'lini baland ko'tardi.

– Iltimos, tinchlik saqlansin! Bilamiz, «Qizil dehqon» ilg'or kolxoz. Mana bunaqa klublar hamma xo'jalikdayam bor deyolmaymiz. Kattakon maktab qurding-

lar. Hammasiga Oqsoqol bosh bo'ldilar. Orif aka – tajribali dehqon. Lekin xo'jalikni yangi izga soladigan zamon keldi. Buning uchun ilmi, agronomiyani yaxshi biladigan rais kerak. O'rtoq Xo'jayev...

– Kerakmas! – Pastda o'tirganlar yo'g'on-ingichka ovozda chuvillashdi. – Bizga Oqsoqolning o'ziyam bo'lavuradi.

Shapkali kishi «uf» tortib bosh chayqadi. Ergash selsovetning yonboshida o'tirgan ingichka mo'ylovli odam sapchib o'rnidan turdi. Bir nima demoqchi bo'ldi-yu, shashti pasayib qaytib o'tirdi.

Pastdagilar battar shovqin solishdi:

– Oqsoqolning aybi nima?

– Xajayipingiz shunchalik zo'r bo'lsa, boshqa kol-xozga raislik qilaqolsin!

Shapkali kishi «o'zingiz tinchiting» degandek Oqsoqolga qaradi. Oqsoqol shoshilmay o'rnidan turdi. Qaddini g'oz tutib, minbar oldiga bordi. Shapkali kishi uning yelkasiga do'stona shapatilab qo'ydi.

– Xaloyiq! – dedi Oqsoqol guldiragan tovushda. Sekin-sekin tinchlik cho'kdi. – Kalta o'ylama, xaloyiq! Mana, og'ir yillardan o'tib oldik. To'kinchilik zamon keldi. Lokin bundan keyin dehqonning ishini ketmon emas, moshina qiladi. Ukraina tomonlarda bug'doyni moshina o'ryapti. Yaqin orada olimlar havodan o'g'it oladi.

Pastdan kimdir asabiy luqma tashladi:

– Olsa ja yaxshi-da, o'sha o'g'itni siz bilan birgalashib dalaga solamiz, Oqsoqol!

– O'v, Rahimtoy! – Oqsoqol rapidadek qo'lini paxsa qildi. – Berdisini aytguncha urib o'ldirma-da, odamni! Hali shunaqa kunlar keladiki, suvni hovuzga solib qulflab qo'yishadi. Ana undan keyin rasamadi bilan tarqatishadi. Qani, suvni qulflash qaysi biringni qo'lingdan keladi?

Odamlar jimib qolishdi. Chekka-chekadagi shishasi qorayib ketgan fonuslarning chirsillashi aniq eshitila boshladi. Kimdir nosini tufladi. Qorong'i burchakda o'tirgan allaqanday xotin yig'layotgan bolasini jerkib ovutdi:

– E, qiz bo'lmay ajalning oldida ket!

– Bolani qarg‘ama, Qumri! – dedi Oqsoqol beozor tanbeh berib. Keyin yana o‘sha guldiragan ohangda davom etdi: – Qani, qaysi biring eplaysan havodan o‘g‘it olishni? Ana indamaysan! Uyog‘ini so‘rasang, menam eplolmayman. Xo‘sh, shundoq ekan, nimaga shovqin solasan? Bunaqa ishlar, – u yo‘l-yo‘l kostyumli kishiga yuzlandi, – O‘rtoq Xajayipni qo‘lidan keladi! Nega deganda, ilmi-hikmatni biladi. Raykom o‘rtoq Xajayipni raislikka lozim ko‘ribdimi, bir narsani bilib qilgan. Gapni ko‘paytirishning hojati yo‘q. O‘rtoq Xajayipga mana men birinchi bo‘lib ovoz beraman. Qaysi biring Oqsoqolni hurmat qilsang, qo‘l ko‘taraver!

Oqsoqolning o‘zi birinchi bo‘lib qo‘lini baland ko‘tardi. O‘sha zahoti shapkali kishi ma‘qullab ovoz berdi. Pastdagilar birin-sirin qo‘lini osmonga cho‘za boshladi. Orqa tomondan xotin kishining hiqillab yig‘lagani eshitildi. «Oqsoqolning o‘zi yaxshiydi, ovsin, odamning dardini tushunardi». Qarab tursam, bobom pashsha qo‘rigandek istar-istamas, qo‘lini silkib qo‘ydi.

– Demak, bir ovozdan! – Shapkali kishi o‘rnidan turib Orif oqsoqolning qo‘lini qisdi. – Rahmat, Oqsoqol! Siz – baribir kolxozning otasi bo‘lib qolasiz. Partiya sizga ishonadi. Qani, o‘rtoq Xo‘jayev, so‘z – sizga.

Yo‘l-yo‘l kostyumli kishi ildam turib, minbarga bordi.

– O‘rtoq kolxozchilar! – dedi baland, jarangdor ovozda. – Hurmatingiz uchun rahmat, o‘rtoqlar! To‘g‘ri, mening ham agronomlik diplomim yo‘q. Lekin zakonniy bitta gapni aytib qo‘yay: raz menga xo‘jalikni ishonib topshirdilaringmi, qattiq ishlaymiz. Hurmatli raykomimiz oldida va‘da berib aytamanki, kelasi xo‘jalik yilida sabzavot hosildorligini ikki hissa oshiramiz!

Pastdan kimdir kinoyali baqirdi:

– Balki uch hissa oshirarmiz, rais!

– Kim? – yangi raisning qoshi chimirilib ketdi. – Kim aytdi shu gapni? O‘rnidan tursin-chi!

Sovuq sukunat cho‘kdi. Gapiрган odam birovning or-qasiga yashirindi shekilli, hech kim o‘rnidan turmadi.

– Stalin aytganidek, oramizda yot unsurlar ko‘p! – Yangi rais har so‘zini chertib ta‘kidladi. – Bilib qo‘-

yinglar! Raz men rais ekanman, bunaqa sabotajchilar bilan zakonniy joyda gaplashib qo'yishni o'z vazifam deb bilaman.

Pastda avval shivir-shivir, keyin g'ovur-g'uvur boshlandi:

– Kim o'zi bu?

– Muncha baland ketadi?

– To'qayda chivinga bir talansin, qayoqqa qocharkin!

Hammayoq ari inidek g'uvillab ketdi. Yangi rais esankirab qoldi.

– Jim! – dedi minbarni mushtlab. – Tishe! Podaga o'xshagan...

Pastdagilar tinchish o'rniga battar avjiga chiqdi.

– Biz poda bo'ldikmi endi?

– E, o'rgildik sendaqa podachidan!

Yangi rais, ingichka mo'ylovi uchib, goh shapkali kishiga, goh Oqsoqolga qarardi. Shapkali kishi jahl bilan qo'l siltadi, chamasi, yangi raisni koyidi. Lekin bu bilan shovqin bosilmadi. Shunda Orif oqsoqol yana o'rnidan turdi.

– Xajayip! – dedi Oqsoqol titrab. – Zakonchimisiz, nima balo! Nuqul «zakun-zakun» deysiz! «Qizil dehqon»dagilar zakonni sizchalik bilmasayam, dehqonchilikka aqli yetadi. Sho'x yer qanaqa bo'lishini mendan yaxshi bilsangiz kerak. Hammasi tosh. Ketmon ursangiz, betingizga tosh sachraydi. Yerimiz – shunaqa. Yarmisi – to'qay. Niyatingiz yaxshi-ku, holva degan bilan og'iz chuchimaydi-da, o'rtoq Xajayip!

Pastdagilar ancha tinchib qolgan, lekin chekka-chekkadan hamon norozi xitoblar eshitalardi:

– Kecha keldi yugurib, bugun olar sug'urib...

– Tuppa-tuzuk mol ekanmiz-u, bilmay yurganimizni qara!

– Xaloyiq! – Oqsoqol kaftini boshi ustida baland ko'tardi. – Bas! O'rtoq Xajayip bilmasdan gapirdiqo'ydi-da! Yoshlik qildi. Shungayam ota go'ri qozixonami! Hali ko'rasizlar: rais bilan apoq-chapoq bo'p ketasan hammang... Undan ko'ra bo'ladigan gapni gaplashaylik. Kolxozimizda gastinisa-pastinisa yo'q. O'rtoq Xajayipni o'zimiz rais qilib sayladik. To'g'-

rimi? Endi buyog'iniyam hal qilib qo'yaylik. Rais odam shahardan qatnab yursa yarashmas. O'zimizning xo'jalikning boshlig'iga uy topib bermasak, otimizga or, itimizga nomus! Qani, o'rtoq Xajayipga kim bitta uyini bo'shatib beradi? Doimgamas, vaqtincha.

Hech kimdan sado chiqmadi. Oqsoqol bobomga yuzlandi.

– Duma!.. Gapirsang-chi mundoq!

Bobom o'tirgan joyida bo'ynini cho'zib chiyilladi:

– Yo'q uyni tug'ib beramanmi senga?

Yangi rais bobomga ijirg'anib qaradi. «Uying bilan qo'shmozor bo'l», degandek labini kinoyali qimtididi. Oqsoqol o'ylanib qoldi.

– Bu gapingam to'g'ri, – dedi salmoqlab. Keyin pastdagilarga qarab hayqirdi: – Xaloyiq! Bitta iltimos, mana, daladayam ish qolmadi hisob. Sholg'om bilan turpni yig'ib olsak bo'ldi. Shu... sovuq tushmasdan o'rtoq Xajayipga bitta uy sobersak. Hayhotdek maktabni to'rt oyda qurgan, bitta uy sololmaymizmi! Ammo-lokin shunaqa uy bo'lsaki, «Qizil dehqon» kolxozining raisi qatta turadi, deganda, mana, deb ko'rsatadigan bo'lsa. Endi... gapning po'stkallasi shu: belimda belbog'im bor deganing ertalab hasharga kelaver!

3. Rashid abzining mo'rchasi

Oqsoqol mening dadam tufayli raislikdan tushganiga aqlim yetmagan ekan. Ertasiga bobom ikkovlari hashardan qaytib kechasi alla-pallagacha hangomalashib o'tirishdi. Gap aylanib kechagi majlisga taqaldi.

– Sanam qiziqsan-da, Oqsoqol, – dedi bobom bo'g'ilib. – O'z qo'ling bilan amalingni berib o'tiribsan.

– Amal nima?! – Oqsoqol beparvo qo'l siltadi. – Menga qolsa, raislik uyoqda tursin, ming marta katta amaliyam misoli oyog'ingdagi etikday gap. Seni amalga xalq ko'taradimi, davlat o'tqazib qo'yadimi, baribir «Mana shu etikni kiygin-da, kerak bo'lsa suv kechib, kerak bo'lsa loy kechib, yurtning xizmatini qilgin», deydi. Qilasanam!.. – Oqsoqol bir zum o'ylab turib, nosini tupurdi. – To'g'ri, bir xillar bor: zig'irday amal

tegdimi, bo'ldi, Xudo amal bilan qo'shib aql berdi, deb o'ylaydi. Bunaqalar yonida o'zidan aqlliyoq odam ishlashini xohlamaydi. Nazarida aqlli odam etigini yechib olayotganday bo'laveradi. Bechorani goh tirsagi bilan turtadi, goh dumbasi bilan...

– Bo'pti-da! – Bobom battar tutoqdi. – Shu Zakunching aqlli odamni biylatarmikin? Basharasi aytib turibdi-ku, kimligini. Xalq dod deb yoqlab tursa-yu, bu kishim noz qilsalar! O'rgildim oliftagarchiligidan. Yo xalq bir qadrimni bilib qo'ysin, dedilarmi?

Oqsoqol ko'kimtir qoshlarini uyib yerga qaragancha uzoq jim o'tirdi. Keyin qandaydir past, o'ziga yarashmagan o'ychan ovozda gapirdi:

– Rais o'zgargani bilan xalq joyida turibdi-ku, Duma!.. Qolaversa, odamlar ming dod desin, baribir meni olib tashlashardi. Xalq dushmanini ataylab obkelgansan deb...

– Ma'limda gunoh yo'q! – Bobom Oqsoqolga chaqchayib chiyilladi. – Gunoh yo'q! – dedi arazlagan boladek yuzini o'girib. – Tag'in o'sha Zakunchiga uyimni bo'shatib berarmishman! Ma'lim ertaga qaytib kelsa, qaysi yuz bilan ko'ziga qarayman!

– Bilaman! – Oqsoqol xo'rsindi. – Hammasini bilaman! Ammo zamonni ko'rib turibsan-ku... – U bir zum o'ylanib turdi-da, bobomning yelkasiga qoqdi. – Balki yangi rais rostdan ham ishning ko'zini bilar. Yosh, ilmi bor. Sen bilan biz nima? Olma-o'rik bo'larmidik endi!

Bobom ensasi qotib, qo'l siltadi.

– Ilmi bormish.. O'zi aytdi-ku, qo'limda qog'ozim yo'q deb...

– Qo'ysang-chi, gap qog'ozdami? – dedi Oqsoqol xo'mrayib.

– Qaraylik-chi, nima karomat ko'rsatarkin o'sha Zakunching! – Bobom o'rnidan turib ketdi. – Bor, qizim, choyni yangilab ke...

Yangi rais ko'p o'tmay chindan ham «karomat» ko'rsata boshladi. O'sha majlisda «qattiq ishlaymiz» degancha bor ekan. Tong otmasdan eshik taqillaydi. Jo'n taqillasayam mayli-ya, hammayoq qarsillab ketadi.

Eshikni ochishingiz bilan peshanasiga ko'zmunchoq aralash kumush marjon taqilgan jiyron ot, egarda qiyshiq o'tirgan, chaqmoq telpak kiygan Zakunchiga ko'zingiz tushadi.

– Kun chiqay deb qoldi, yotaverasanlarmi nahs bosib?! – deydi qamchisini tahdidli o'ynatib.

Shu gapni aytmasayam, kolxozchilar tong otmasdan dalaga chiqish kerakligini biladi. Oqsoqol raisligi paytida bunaqa dag'dag'alar yo'q edi. Zaril bo'lib qolganida Oqsoqol: «Xaloyiq, shu ish shundoq bo'pqoldi, belimda belbog'im bor deganing, kelaver», desa, odamlar o'tgayam-suvgayam urib ketaverardi. Zakunchining dag'dag'asi xalqning ixlosini qaytardi. Kaltak yegan ho'kiz yotog'on bo'ladi, degandek, ba'zilar qaysarlik qila boshladi. «Qor yog'ib turibdi-yu, dalada pishirib qo'yibdimi», deb oyoq tiraydiganlar ham topildi. Aslini olganda bu gap to'g'ri. Yerga allaqachon yaxob berib bo'lishgan. Qahraton sovuqda shudgor qilib bo'lmasa, ariq ochib bo'lmasa. Lekin Zakunchi bu tomoniniyam o'ylab qo'rgan ekan. Qish chillasida bir-biridan vahimali gaplar tarqaldi:

«Shaharda Zakunchining suyangan tog'i bor ekan. Xo'jaqulip degan tog'asi kattakon prokuror emish. Qasdlashgan odamni «xalq dushmani» deb qamoqqa tiqarmish», «Do'mbroboddagi oltinchi brigadda Ahmad polvon degan ketmonchi, xotini tug'ib ikki kun dalaga chiqmagan ekan, Zakunchi o'n yilga kestirib yuboribdi», «Bug'altir Soli so'poq Zakunchining xabarkashi bo'pti. Kimning uyida nima gap bo'layotganini yozib yurarmish...» Yil o'tmay, raisdan hamma qo'rqib qoldi. Xotinlar yig'layotgan bolasini: «Jim bo'l, Zakunchi kel-yapti, hozir otiga tepdirib o'ldiradi!» deb ovutadigan bo'lishdi.

Faqat Oqsoqol bilan bobom bu gaplarga parvo qilishmas, biri ketmon ko'tarib, biri eshak aravasini minib saharlab chiqib ketishar edi. Lekin bir jihatdan rais aytganini qildi. Kolxoz ikki yil ketma-ket planni oshirib ado qildi. «Qizil dehqon»ning dong'i Dog'istonga yetdi... Balki Zakunchining qattiqqo'lligi ish bergandir. Balki chindan ham «ilm-u hikmat»ni yaxshi bilar...

...Kimsan akam yettinchini bitirganidan keyin shaharga borib o'qimoqchi edi, bobom yo'l qo'ymadi: ketmonga soldi. Bir kuni Kimsan akam bobom bilan oyimga aytolmagan dardini menga gapirdi:

– Shaharda o'nni bitirib, uchuvchi bo'laman. Istri-bitelda dushmani qiraman.

– Qanaqa dushman?

– Fin urushi bo'lyapti-ku, jinni!

Yuragim uvishib ketdi.

– O'ldirib qo'ysa-chi?

– Kim o'ldiradi?

– Dushman-da!

Kimsan akamning jahli chiqib ketdi.

– Qanaqasiga o'ldiradi. Bizning istri-biteldan o'q o'tmaydi. Chkalovni eshitganmisan?!

...Uning ahdi qat'iy edi. Bir marta shaharga ham borib keldi. Kechqurun ovqatdan keyin bobom Kimsan akamni so'roqqa tutib qoldi:

– Uchuvchi bo'laman, deng, boyvachcha?

Kimsan akam iyagidagi husnbuzarni tirnog'i bilan sitib, o'shshayib o'tiraverdi.

Bu uning: «Ha, qo'lingizdan kelganini qiling», degani edi.

– Menga qarang, boyvachcha! – bobom tajanglik bilan bo'ynini cho'zdi. – Ketmoningiz yengillik qilib qolganga o'xshaydi. Molxonaga kiring, yarim pudli ketmon turibdi! Ana o'shani mining-da, dalaga chiqib ayriplon qilib uching, xo'pmi?

Kimsan akam bobomga bir nima deymadi-yu, meni burchakka imlab orzusini aytdi:

– Baribir! Uchuvchi bo'lmasam, ofitser bo'laman. Armiyaga ketaman.

Yo'q, uning bu orzusi ham ro'yobga chiqmadi. Armiyaga hammaniyam olaverishmas ekan. Hayot esa davom etardi...

Har bayramda doshqozonlarda osh damlangan, staxanovchilarni patefon, samovar, kiyimlik atlaslar bilan siylashgan... Bir marta Kimsan akamni ham etik bilan mukofotlashdi.

Faqat mening dilimdagi armon yechilmay qolaverdi. Oqsoqol «erta-indin» keladi, degan dadam bedarak ketdi. To'g'ri, Oqsoqol bilan bobom ko'p yelib-yugurishdi. «Ma'lim dushman emas», deb tushuntirishga urinishdi. Natija chiqmadi. Bora-bora dadam tushimgayam kirmay qo'ydi.

Bahor oqshomlaridan birida siniq piyolaning orqasiga o'sma ezib, qoshimga qo'yib o'tirsam, daladan qaytgan oyim ko'rib qoldi.

– Mayli, qizim, – dedi kulimsirab. – Yoshing o'n yettiga ketyapti. Erta-indin sovchi keladi. O'zingga qarab yur...

Uyalib ketdim.

– Boring-e! – degancha oshxonaga qarab qochdim. Oyim sovchini gapirishi bilan negadir Kimsan akam lop etib ko'z oldimga keldi. Kimsan akam tog'dek yigit bo'lgan. Bobomga ikkita keladi. Hayronman, keyingi paytda men bilan kam gaplashadi. Hovlidami, molxonadami, duch kelib qolsak, menga g'alati qarayotganga o'xshayveradi. Qo'rqaman. Lekin o'sha zahoti o'zimni o'zim qarg'ayman: «O'l jinni! Akang-ku!»

... Birinchi May bayrami yaqinlashib qolgan edi. Peshindan keyin oyim qo'limga bir kiyimlik atlas tutqazib tayinladi:

– Bor, qizim! Xolposh xolangga obor. «Oyim aytdilar, menga ko'krak burma ko'ylak tikib berarkansiz», degin.

Oyimning odati shu: bayram yaqin kelishi bilan tipirchilab qoladi. «Shundoq ulug' ayyom kunlarida bolalarim ohorliksiz qolmasin», deb menga ko'ylakmi, lozimmi tiktiradi. «Kimsanga shim-pim obering», deb bobomga yalinadi. Bobom «chiqimning beti qursin», deydiqanlardan. Menga-ku, tishini sug'urgandek qilib bo'lsayam ming joyini kavlab pul chiqaradi. Kimsan akamga kelganda peshonasi tirishib ketadi: «Yangi shim kiyimasalar kimning ko'ngli qopti, boyvachchaning! – deydi to'ng'illab. – Hali to'y tashvishi turibdi». Baribir, oyim qo'ymaydi. «Katta yigit bo'pqoldi, – deydi. – Ishlab topganini qo'lingizga obkeb beryapti-ku, jo'ralari bilan o'ynasin», deydi. Xullas, bobomni ko'n-diradi.

...Oqsoqolning kattakon, kungirador darvozasidan kirsam, Zuhra kelin atirgullar g'unchalay boshlagan gulzor chetida ariq bo'yida kir yuvib o'tirgan ekan. Ko'pikli qo'li bilan yelkamga qoqib ko'rishdi.

– Qaniy! Bitta ko'riy! – dedi qo'ltig'imdagi atlasga imo qilib. Atlas qatini ochgan edim, Zuhra kelinning surma tortilgan ko'zlari yonib ketdi.

– Sakkiz tepki ekan! Zokir akamga aytaman, mengayam oberadilar.

Shunday dedi-yu, to'satdan ma'yus tortgandek bo'ldi.

Ozib-to'zib ketganini, ko'ylagining yelkalari osilib qolganini sezdim.

Zuhra kelin – Zokir akaning xotini. Xolposh xola ikkala kelinini birdek ko'radi. To'yga borsa bir yoniga Fotima kelinini, bir yoniga Zuhra kelinini olib cho'g'day yasantirib oboradi.

Birga oborishga oboradi-yu, ko'proq Zuhra kelinini maqtaydi.

– Ayniqsa, shu qizimni yaxshi ko'raman. Potmam-niyam yomon demayman-ku, sal lachapo'shroq. Kir yuvaman, deb suv qaynatsa, tagiga oldirib yuboradi!

Fotima kelin xafa bo'lmaydi. Qaytaga qah-qah urib kuladi.

– Unaqa demang, oyijon, kechagi qilgan shilpil-dog'imni maqtab-maqtab yedingiz-ku!

– Voy, ordona! Shilpildoq qilishni sanga kim qo'yibdi. Yoygan xamiringni ko'rpa qilib yotsa bo'ladi-ku. Zo'rani yo'rig'i boshqa. Lag'mon kessa, kokil qilib tashlaydi. Hovli supursa, yerda aksing ko'rinadi. O'zimga o'xshaydi-da! Qaynona-kelinning tuprog'ini bir joydan olgan!

Xolposh xola to'y-hashamlarda Zuhra kelinni og'zidan bol tomib maqtasa ham biznikiga chiqqanida oyimga hasrat qiladi:

– Kuyib ketdim, ovsinjon! Potmam bir emas, ikkita bolali bo'ldi. Zo'ram yukli bo'lmayapti.

– Farzand bilan davlatning kechi yo'q, – deydi oyim yupatib. – Odamlar o'n yil-yigirma yilda bolali bo'ladi. Zo'raxonga nima qipti. Bor-yo'g'i yetti yil o'tdimi?

– Ko'rsatmagan do'xtirim, boqtirmagan tabibim qolmadi. Qaysi kuni Komil tabibga yana obordim. Keliningiz soppa-sog', deydi.

– Ana, aytmadimmi? Shungayam siqilasizmi?

Xolposh xola dardli bosh chayqaydi.

– Shundoq deysiz-u, Zokirim o'qtin-o'qtin ichadigan odat chiqardi. Otasining fe'lini bilasiz-ku, bilib qolsa tikka so'yadi! Zo'ram ham chakkazarbroq bo'fqoldi. Opasini ko'rib siqiladi-da, sho'rlik.

Hozir Zuhra kelinni ko'rib, o'sha gaplar esimga tushdi. Chindan ham rangi bir holatda, surma tortilgan ko'zlari kirtayib qolgan.

– Kiring, – dedi u yupqa lablari burilibroq. – Oyim uydalar!

Ustunlari sirlangan baland ayvon tomon endi yurgan edim, ichkaridan go'dak yig'isi eshitildi. Eshik ochilib pahlavondek so'lqildoq bolasining og'ziga ko'krak tiqishtirayotgan Fotima kelin ayvonga chiqdi.

– Voy, Robiyaxon! – dedi zinalardan lo'mbillab tusharkan. – Atlasmi? Bizlaram bir ko'raylik!

Avvallari Fotima-Zuhralarni doimo adashtirib yurardim. Hozir ham ikkalasi bir-biriga o'xshaydi. Popukdek qosh-ko'zi, kulcha yuzi... faqat Fotima kelin semirib ketgan. Zuhra kelin bo'lsa tasmadek.

Fotima kelin atlasning bir burchini chimchilab ko'rdi.

– Voy, muncha chiroyli! – U yonbosh tomondagi uyga qarab, o'ktam ovozda qichqirdi: – Oyi, manavini ko'ring! Shokir akamga ayting, bayramga mengayam obersinlar!

Ichkaridan harsillab-gursillab Xolposh xola chiqib keldi. Nima qilsayam, Orif oqsoqolning xotini-da! O'shi oltmishga borib qolgan bo'lsayam, kelinlardek yasanib olibdi. Egnida qora atlas ko'ylak. Bo'ynida – dur. Qulog'ida oltin baldoq, chiroyli, qayrilma qoshiga bilinar-bilinmas o'sma qo'ygan.

Orif oqsoqol bilan dadam qanaqa o'rtoq bo'lsa, Xolposh xola bilan oyim ham shunaqa dugona. Oqsoqolning gavdasi bobomga ikkita kelsa, Xolposh xola oyimga uchta keladi. Oppoq yuzli, qomatdor xotin. Oyim duch kelgan odam bilan apoq-chapoq

bo'lib ketaveradi. Xolposh xola o'z qadrini biladi. Butun No'g'ayqo'rg'onda «osmondagi qushni bejaydigan chevar» nomi bor. Ammo hammaqayam ko'ylak tika-vermaydi. Jiniga yoqmagan odamni: «Ko'zim o'tmay qoldi, chevarlikni tashlaganman, aylanay», deb eshikdan qaytaradi.

U men bilan aylanib-o'rgilib ko'risharkan, bola emizib turgan Fotima kelinni beozor jerkidi:

– Ordona! Sigirday xotinga atlas ko'ylakni kim qo'yibdi! Atlas yetkazib bo'ladimi senga? – U hovliga yuzlandi. – Atlasni Zuhra kiysa yarashadi. Zo'raxon! Buyoqqa qara, qizim!

Zuhra kelin ko'pikli qo'lini sochiqqa arta-arta zinadan ayvonga chiqdi.

– Labbay, oyijon!

– O'tir, mundoq, senam o'tir. – Xolposh xola keyingi gapni menga aytdimi, Fotima kelingami, tushunmadim. Har ehtimolga qarshi xontaxta atrofiga uchalamiz cho'kdik: hamon bola emizayotgan Fotima kelin, qo'lidagi kir sochiqni asabiy g'ijimlayotgan Zuhra kelin, men...

Xontaxtaga quroq dasturxon yozilgan, o'rtada pista, bodom, qand-qurs to'la patnis turardi. (Oqsoqolnikida patnis hamisha tayyor!) Ayvon tokchasida eski «gardim» laganlar. Dasta-dasta qalampirnusxa kosalar. Narigi burchakda Xolposh xolaning dunyoga dong'i ketgan «Zinger» mashinasi turibdi. Beriroqda – suyanchig'i baland kursi. Kursi orqasidagi tokchada yog'och bandli telefon. Bobomning aytishicha, bir vaqtlar bu telefonni Orif oqsoqolga eng katta oqsoqol – Kalinin buva sovg'a qilgan ekan. Telefonning simi yo'q, ammo Orif oqsoqol judayam avaylaydi uni...

Xolposh xola bachkana mahsi kiygan oyog'ini bittabitta bosib, ichkariga kirib ketdi. Ko'rpalarning gurs-gurs qilib yerga tushgani eshitildi. Fotima kelin bolasini quchoqlab o'rnidan turgan edi, Zuhra kelin imladi.

– Kirma! Baloga qolasan!

Anchadan keyin Xolposh xola xuddi menikiga o'xshagan sakkiz tepki atlasni semiz bilagiga tashlab, chiqib keldi.

– Zo‘raxon, qizim! – dedi atlasning qatini ochib.– Robiya ikkalangga bir xilda ko‘krak burma ko‘ylak tikib beraman. Bayramda bir o‘ynanglar!

– Rahmat, oyijon! – Zuhra kelin pipirab turgan yupqa labini tishlab yerga qaradi.

– Menga-chi?! – Fotima kelin astoydil xafa bo‘lganidan lo‘ppi yuzi qizarib ketdi. – Bisotingizda menga bitta ko‘ylak topilmadimi?

– Senam bormiding? – Xolposh xola yasama dashnom bilan qoshini chimirdi. – Quruq qolsang o‘lasan-a. Mayli, sengayam topamiz. Bor, gaping rost bo‘lsa, oshxonadan qiymataxtani obchiqqin-da, ismaloqni maydala, somsa yopamiz. Ha, aytmoqchi, qizing qani, Popuk qani?

Fotima kelin ko‘ylakdan quruq qolmasligiga ko‘zi yetib, mamnun iljaydi:

– Hozir sho‘ttaydi. Yurgandir.

– Man so‘roqlamasam, o‘zingni esinggayam kelmaydi-a! – Xolposh xola boshini ta‘na bilan chayqadi. – Sendaqa onani mushuk yesin!

Fotima kelin o‘g‘ilchasini bag‘riga bosgancha darvozaga yugurdi.

– Oypopug-u! Qayoqdasan, ha sendaqa daydi qizni mushuk yesin!

Xolposh xola Zuhra kelin ikkalamizni ayvon burchagiga turg‘azib qo‘yib, gazi bilan galma-galdan bo‘ybastimizni o‘lchay boshladi.

– Qomating Zo‘ramday bo‘pqopti, Robi! – dedi kulib. – Ikkalangga bir qolipda tiksam bo‘laverarkan.

– Tap-tayyor kelin-da! – Bir qo‘lida o‘g‘ilchasini ko‘targancha, bir qo‘lida saqich chaynayotgan besh yashar qizchasini yetaklagan Fotima kelin ayvonga yaqin kelib qah-qah urib kuldi. – Nasib etsa yaqinda Robiyaxonning holvasini eymiz, oyi! Ochilboy oh desa, o‘pkasidan oy ko‘rinib yuribdi.

«Nima? Ochil?» – seskanib Fotima kelinga qaragan edim, Xolposh xola jerkib berdi:

– E, o‘l, aynamay! Nima qilasan qiz bolani uyaltirib?

– Nega uyalarkan! Shokir akam aytdilar. Ochilboy Robiyaxonga sovchi qo‘ymoqchimish.

Alamimdan yig'lab yuboray dedim. «Kim u, Ochilboy?» Birdan esimga tushdi. Komil tabibning o'g'li. Maktabdayam ko'zoynak taqib yurardi. Qiltiriq! Kimsan akamdan oldinroq o'qigan. Oyim bir-ikki marta bobomga tabibning o'g'li xo'p yigit bo'pti. Toshkentdagi katta o'qishda o'qirmish, ma'lim bo'larkan, degani qulog'imga chalingan edi. Shuni eslab, qo'rqib ketdim. Negadir Kimsan akam ko'z oldimga keldi. Ko'kragimni gaz bilan o'lchab turgan Xolposh xoladan yulqinib chiqib, ayvon zinalaridan sakrab tushdim.

– Qachon esing kiradi, juvon o'lgur! – Xolposh xola gazining ikki chetidan changallagancha qo'lini mushtlab Fotima kelinga dag'dag'a qildi. – Hamma narsani gap deb gapiraveradimi?!

Hovlining yarmisiga borganimda, Fotima kelin o'g'il-chasini quchoqlagancha orqamdan yetib keldi.

– Robiyaxon! Ko'nglingizga kelmasin. Eshitganimni aytdim-da!

– E, qoching! – qulog'imgacha qizarib ketganimni sezib, darvoza tomonga yugurdim.

– Shoshmang, Robiyaxon! – Fotima kelin orqamdan lo'killab chopdi. – Kechqurun Rashid abzining mo'r-chasiga boramiz. Zo'ra ikkalamiz. Sizam yuring! Maza qilib cho'milib kelamiz...

... Hovlimizga kirishim bilan qandaydir yangilik bo'lganini sezdim. Bobom tandir oldida Oqsoqol buva bilan chaqchaqlashib turar, ikkalasining ham chehrasi ochiq edi.

– Qizim! – bobom nosini tupurib iljaydi. – Sigir muborak bo'lsin demaysanmi? Bor, onangga boqish!

Molxona oldidagi gulini to'kkan gilosga bog'lab qo'yilgan kattakon, ola sigirga ko'zim tushdi. Avvalgi g'unajinimiz bir emas, uch yil qisir qolganidan keyin bobom sotib yuborgan, o'shandan beri uyimizda uch-to'rtta qo'ydan bo'lak mol yo'q edi. Yangi sigirni ko'rib quvonganimdan chapak chalib yuboray dedim. Sigirning sutga to'lib ketgan yelini yerga tegay deb tirsillab turardi. Oyim nuqul sigirning bo'yniga chizimcha bog'lashga urinar, bog'log'liq bo'lishiga qaramay, nimaga bo'yniga

qo'shimcha arqon solinayotganini tushunmagan sigir hadeb boshini silkitar, oyim «xo'sh, jonivor, xo'sh», deb qayta-qayta tarmashar, ammo bo'yi yetmay qiynalardi.

– Zotli sigirga o'xshaydi, ko'zikmasin, – u ming mashaqqat bilan sigirning bo'yniga chizimchani ildi. Chizimchaga yarimta kalish osilgan edi.

– Zotli bo'lgandayam qanaqa de? Galanska! – Oqsoqol tantana bilan tushuntirdi. – Bir kunda uch chir-pit sut beradi. Duma o'zi kalta bo'lsayam boshi toshni yoradi. Mol tanlashni biladi.

Bobom bozorga Oqsoqol bilan borganini, ikki o'rtoq bozorning eng oldi molini xarid qilishganini tushundim.

Oyim pildirab oshxonaga kirib ketdi. Qirrasiga danna-dek maska yog' yopishtirilgan chelak olib chiqdi.

– Tuvakday chelaging nima bo'ladi, hoy! – Oqsoqol qo'lini paxsa qildi. – Obchiqmaysanmi kattarog'idan! Yo paqiring ham o'zlaringga o'xshagan pakanami?!

Oyim muloyim jilmaygan ko'yi sigirning tagiga cho'nqaydi.

– Avval bitta chelakka sog'aylik-chi, a, jonivor! – dedi sigirnimi, Oqsoqolnimi erkalab. – Shukur, paqirdan serobi yo'q. Voy jonivor-ey! Tirsillab ketibsan-ku! – U endi yelenga qo'l cho'zgan edi, sigir dumini silkitib, orqa oyog'ini deptsitdi.

– Qashlab tursang-chi! – bobom menga gapirayotganini tushundim. Ildam borib, sigirning yo'g'on tomirlari bo'rtib turgan bo'ynidan silay boshladim.

– Xo'sh, jonivor, xo'sh...

Sigir katta-katta ko'zlarini olaytirib, bir qaradi-da, pishqirib qo'ydi. Ancha tinchlandi. Oyim endi yelenga qo'l tegizgan edi, yana seskanib ketdi.

– O'v, savodsiz! – Oqsoqol astoydil jahl bilan o'shqirdi. – Aytdim-ku, bu sigir galanska deb. O'risdan oldik. Gapirsang-chi, mundaq, Duma! Tiling bormi?

– To'g'ri, – bobom uch-to'rt qadam kelib, tushuntirdi. – Oqsoqol to'g'ri aytyapti. Bu – galanska sigir. O'rischa gapirmasang sut bermaydi.

Oyim chelakni butiga qistirgancha zirillab turgan yelenga yana qo'l cho'zdi.

– Bismillohir rahmonir rahim! – dedi bor ovozda. – Yop poshamat, jonivor. Yop poshamat. O‘zim aylanay govmishimdan, idi cho‘rt.

Qiziq, sigir tinchib qoldi. Chelakka pov-pov sut tusha boshladi.

– Ana, bilarkansan-ku! Yur ketdik, Duma! Karamni ekib bo‘lishgandir.

Oqsoqol bilan bobom uzun-qisqa bo‘lib ko‘cha eshikdan chiqib ketishdi.

Oyim hamon g‘ayrat bilan yelin cho‘zar, galanska sigir uzun, oqish kipriklarini muloyim yumib turardi.

– Robiya qizim, yop poshamat! Jon qizim, yop poshamat! Oshxonada chelak turibdi. Tezroq chayib ke, bolam, idi cho‘rt!

Ikkinchi chelak to‘lguncha oyimning qo‘li yelin cho‘zib, og‘zi «yop poshamat»lab charchab ketdi.

Bir mahal qah-qah kulgidan sigir ham, men ham seskanib tushdik. Sigir uzun, qiyshiq shoxini silkitib yonboshiga – kulgi yangragan tomonga qaradi. Oyim sut to‘la chelakni obqochaman deb, orqasiga o‘tirib qoldi. Qarasam, besh-olti qadam narida Shomurod tog‘am tizzasiga urib, xaxolab kulyapti. Boshdan-oyoq oppoq kiyingan. Oldiga uqa tutilgan shoyi ko‘ylak, kalaminka shim, oq tufl. U egilib-egilib kular, sochi chakkasiga yoyilib tushgan, ko‘zidan yosh chiqib ketgan edi.

– Opa! – dedi entikib. – Nima deyapsiz, opa?

– Nima? – oyim, sigiri chala sog‘ilganidan g‘ashi kelib, tog‘amga chaqchaydi. – Ko‘rmayapsanmi, sigir sog‘ayapman! Pochchang sigir opkeldi. Galanska ekan, og‘zimiz oqarib qoldi.

Shomurod tog‘am kulgidan entikib menga qaradi.

– Oying nima dedilar, hozir?

Indamay yelkani qisdim.

– Aytayotgan gapingiz – yomon gap-ku! – Shomurod tog‘am kula-kula ko‘zini artidi. – Unaqa demang, opa!

– E, qilig‘ing qurmasin! – Oyim sut to‘la chelakni avaylab ko‘tarib o‘rnidan turdi. – Sigir jonivorniyam qo‘rqitvording!

– Yo‘q mayli-ku!.. – Shomurod tog‘am tag‘in kuldi.– Unaqa demang-da, opa! Sigir bechorani so‘kib nima qilasiz?

– Qachon so‘kdim? – oyim hayron bo‘lib, goh Shomurod tog‘amga, goh galanska sigirga qaradi. – Bilmasam, – dedi bo‘shashib. – Toshkentga tushganimda ko‘rganman, ikkitasi bir-birini shunaqa deb chaqirayotgan edi...

Shomurod tog‘am har kelganida uzoq o‘tirardi. Bu safar oyim bilan uyga kirib ketib, chorak soatcha bir nimalarni gaplashdi-da, yo‘lga otlanib qoldi. Oyim ham «o‘tir» deb qistamadi.

Shu kuni oyim oqlikka qo‘ni-qo‘shnining og‘zi tegsin deb yetti eshikka sut ulashdi. Kechki ovqatga ham shirguruch qildik. Ona-bola endi ovqatga o‘tirgan edik (Kimsan akam ertalabdan beri ko‘rinmas, bobom, Oqsoqol buva bilan dalaga ketgancha qaytmagandi), eshik taqillab Fotima kelin, Zuhra kelin kirib qolishdi. Ikkalasi boshiga dakana ro‘mol tang‘igan, Fotima kelin tugun ko‘tarib olgan, Zuhra kelinning qo‘lida tovoq, ismaloq somsa obchiqibdi.

Oyim sutli ovqatdan keyin ko‘ksomsa yema, deb chirqillaganiga qaramay ikkitasini maza qilib yeb oldim. Shirin bo‘pti.

– Borasizmi? – dedi Fotima kelin qistab. – Opoqi, Robiyaxon bilan Rashid Abzining mo‘rchasiga borib kelaylik...

Oyim ikkilanib qoldi.

– Rashid abzi o‘lsin. Qachon qarasa mast. Mo‘rchani kim isitadi?

– O‘zimiz! – Zuhra kelinning qop-qora ko‘zlari ishtiyoq bilan yonib ketdi. – Bir cho‘milaylik!

Rashid abzining uyi – No‘g‘ayqo‘rg‘onning eng chekkasida. Parcha opa degan dumbul-tentak xotin bilan qo‘shni turishadi. Parcha opa-ku, uyida deyarli yashamaydi. Erta bahordan kech kuzgacha daladami, odamlarning uyidami yotib qolaveradi. Ammo Rashid abzini qachon qarasa, uyidan topasiz. Boshqa ilojiyam yo‘q-da! Qishin-yozin Abzinikidan odam arimaydi. Taxta devorning g‘irasidan mo‘ralasangiz, ikki terak

pastlikda oqayotgan Bo'rijarni ko'rib vahmingiz keladi. Ammo Rashid abzi parvo qilmaydi. Do'ppidekkina kulbasida bemalol yashayveradi. Abzi – cho'loq. Yigirma yil oldin bo'lgan urushda bir oyog'idan ayrilgan. Yog'och oyoq taqib yuradi. Moxxov¹ degan bosmachi bechoraning chap oyog'ini qilichda o'z qo'li bilan chopib tashlagan ekan. Bobomning aytishicha, Abzi o'shandayam tishini-tishiga qo'yib turaveribdi. «Sen mening oyog'imni chopding, kun keladi, men sening boshingni chopaman», debdi. Abzi Qozon degan shaharda davolanib yotganida chiroyli bir qiz uni yaxshi ko'rib qopti. Oti Roziya ekan. Ocharchilik yillari non izlab Toshkentga kelishibdi. Rashid abzi xotinini jonidan yaxshi ko'rarkan. Ammo Roziya qorni nonga to'yganidan keyin yomon ish qipti. Bir kechada poezdga o'tiribdi-yu, begona yigit bilan qochib ketibdi. Rashid abzi o'shandan beri so'qqabosh. Qozonda turadigan opasidan bo'lak qarindosh-urug'i yo'q. Pochtachilik qiladi. Ishi ko'pmas. No'g'ayqo'rg'onda kim kimga xat yozardi-yu, kim kimdan xat olardi?

Abzi o'zi yaxshi kishi-ku, ko'p ichadi. Kuzda odamlardan uzum olib, musallas soladi. Ammo eldan ajramaydi. Qishloqda to'y bo'ladimi – ma'rakami, Abzi hammadan oldin yetib keladi, samovar qo'yadi.

Butun No'g'ayqo'rg'onda Rashid abzining mo'r-chasidan o'tadigan hammom yo'q. Kattadan-kichik hamma shu mo'rchada cho'miladi.

... Oldinda ketayotgan Fotima kelin xursand bo'lib shang'illadi:

– Ishimiz o'ngidan keladigan bo'ldi, Zo'ra, Abzining mo'rchasi bo'shga o'xshaydi.

Rostdan ham Bo'rijarning tik sohilida qo'qqayib turgan mo'rchaning mo'risidan tutun chiqmas edi. Demak, mo'rcha bo'sh.

Rashid abzi so'qqabosh bo'lgani bilan uyini guldek qilib qo'yadi. Umuman, butun No'g'ayqo'rg'onda to'rtta oq uy bor. Bittasi – kolxoz idorasi, bittasi – «qulup», yana bittasi – Orif oqsoqolning daldasi bilan kolxozchilar

¹ Maxno demoqchi.

hashar qilib qurib bergan, Umar zakunchining hashamdor uyi, to'rtinchisi Rashid abzining kulbasi. To'g'ri, Abzining uyi Umar zakunchinikiga o'xshagan salobatli emas, Zakunchining tomiga qizil tunuka yopilgan. Abzinikiga qora qog'oz. Umar zakunchi ham so'qqabosh, Abzi ham. Lekin Zakunchining sirlangan darvozasiga «polutorka» mashina bemalol sig'gani bilan unikiga Soli so'poqdan boshqa odam yo'lamaydi. «Apcharka» degan qopog'on iti bor. Abzining eshigi tuynukdek ingichka bo'lsayam, hamma kelaveradi, iti yo'q. Masha degan echkisi Abzining o'zidan ham yuvosh.

Rashid abzi xuddi o'sha yuvosh echkisining arqonidan tortib, tajang bo'lib turgan ekan. Bir shoxi singan, soqoli sarg'ayib ketgan echki oldingi ikki oyog'ini taxta devorga tiragancha nuqul deraza oldidagi olchanning gullagan shoxini uzib yemoqchi bo'ladi. Orqa oyoqlab tik turgani uchunmi, bodringdek elinlari dikkayib ketgan. Abzi yog'och oyog'ini yerga qadab arqonni siltab tortadi.

– Parazit! Chuchqa! – deydi xunobi oshib. Boshida qizil baxmal do'ppi, egnida nimcha. Arqonni chiranib tortaverganidan ingichka bo'ynining tomirlari bo'rtib chiqqan. Echki yuvosh bo'lgani bilan o'ziga yetguncha qaysar ekan. Egasiga bo'y beray demaydi.

– Menga bering, amaki! – Fotima kelin arqonni bir siltagan edi, echki sho'rlik yonboshi bilan ag'darilib tushdi. O'rnidan turib, Fotima kelinga ko'z qiri bilan adovatliroq qarash qildi, norozi ohangda ma'rab qo'ydi.

– Parazit! – Abzi echkining biqiniga yog'och oyog'i bilan o'xshatib tepdi. Echki dikirlab hovliga kirib ketdi. – Murshag'ami! Kirigiz! – dedi Abzi iljayib.

Fotima kelin mo'rchaga o't qalayotganida Abzi kichkina fonus olib keldi.

– Kirig'iz! – dedi yana.

Joningni rohati-da bu mo'rcha! Cho'yan bandli pechkani yoqishingiz bilan qozonda suv isiydi. Pechka yonboshida tosh terib qo'yilgan maxsus joy ham bor. Yog'loqda suv olib sepsangiz, vosh etib bug' ko'tariladi...

...Mo'rcha darrov qizidi. Burchakda fonus sarg'ayib turgan katalakdek hammomda uch kishi siqili-shib

qolarkan. Damim qaytib ketdi. Fotima-Zuhra kelinlar parvo qilmaydi. Bir-birining ustidan suv sepib qiyqirishardi.

Mo'rcha burchagidagi liqildoq kursida shamshod taroq bilan sochimni tarab o'tirsam, Zuhra kelin boshimga egildi.

– Vuy, – dedi yerga tegib turgan ho'l sochimni kaf-tiga olib, – yarmisini bering, Robiyaxon.

– Ola qoling! O'ziam jonimga tegib ketdi, yuvish qiyin.

– Ho, olaqolingmish! – Zuhra kelin qah-qah urib kul-di. – Yigitlar sochingizga ishqiboz-da, opovsi aylansin. Orqangizni ishqalab qo'yiymi! – U makkasochiqqa sovun surkab, kuragimni ishqalashga tushdi. Qo'li kichkina bo'lsayam shunaqangi chayir ekanki, chinqirib yubordim.

– Og'riyapti.

– Voy, shunga shunchalikmi? – Zuhra kelin mo'r-chani jaranglatib kuldi. – Erga tegsangiz...

– E, boring! – dedim uyalib.

Fotima kelin issiqda nafasim qaytib qolganini ko'rib, burchakdagi yog'och bochkadan sovuq suv olib quydi. Hovli tomondan avval garmon tovushi, ketidan Rashid abzining xirildoq ovozda ashula aytgani eshitildi:

*Ayda molay bozarg'a
Pirashkilar osharg'a.
Pirashkilar kikirta
Qizlar qashin sekirta...*

– Voy o'lsin! – Fotima kelin qiqirlab kuldi. – Abzi yana ichib oldi shekilli, zahariga.

Zum o'tmay Rashid abzi yana garmonini cho'zib qoldi.

*Patiyim, Patiyim...
Bir qushaqlab yatiyim...*

– Seni chaqiriyapti, Poti! – Zuhra kelin xandon otib kuldi. – Chiq!

Fotima kelin bo'liq ko'ksini makkasochiq bilan ishqalarkan, iljaydi.

– E, Potiyi bilan qo'shmozor bo'lsin... Ko'kragim iyib ketdi. Tohir yig'layotganga o'xshaydi. Emadigan vaqti bo'ldi...

Uchalamiz shaftolidek qizarib hovliga chiqqanimizda qorong'i quyuqlashib qolgan, hali oy chiqmagan, ammo osmonda faqat bahor oqshomlari bo'ladigan nimtahir, mayin yorug'lik bor edi. Rashid abzi kursida yog'och oyog'ini sog' oyog'i ustiga dikkaytirib ko'ndalang qo'yganicha, ko'zlarini yarim yumib garmon chalar, ashula aytardi.

Ajab, u xushchaqchaq qo'shiq aytardi-yu, ovozi mungli edi. Oqsoqolning kelinlari «rahmat» deganda ham ko'zini ochmadi. Garmon nola qilaverdi: «Mini toshlab qoya kitti...» Rashid abzi yaxshi odam-ku, Roziya nega unaqa qildi! Nimaga birov bilan qochib ketadi? Xayol surib borayotgan ekanman, kallaklangan tol tagidan ajralib chiqqan qop-qora sharpani ko'rib o'takam yorilayozdi.

– Kim u, opa? – dedim Fotima kelinning pinjiga tiqilib. Oqsoqolning kelinlari ham to'xtab qolishdi. Boyagi sharpa sekin-sekin yaqin keldi. Salom berdi.

– Kechirasizlar, kelinoyi, – dedi ovozi titrab. – Robiyaxonda bir og'iz...

Yuragim gursillab urar, uy tomonga yuguray desam, oyog'imda mador yo'q edi. Chamasi, Fotima kelin ham esankirab qolgan, nuqul: «Kim u, Zo'ra, hoy kimsiz?» derdi.

Zuhra kelin shaddod ekan. Lip etib, oldimni to'sdida, sharpaga ro'para bo'ldi.

– Ha, sizmisiz, Ochilboy! – dedi keskin ohangda.

– Men... Kelinoyi... – sharpaning ovozi yana titrab chiqdi. – Kechirasizlar...

– Nima gap, Ochilboy! – Zuhra kelin uning dovdirab qolganidan dadillanib dag'dag'a qildi. – Yetti nomus – bir o'lim! Bu nimasi yarim kechada, qiz bolaning yo'lini to'sib! Ko'rganlar nima deydi?

– Uzr, kelinoyi... – Ochilboy talmovsirab qoldi. Qo'rqa-pisa yanayam yaqin keldi. Ko'zoynagi yiltirab ketganini, iyagi titrayotganini ko'rdim. – Xafa bo'lmaysizlar... – U avval Fotima-Zuhra kelinlarga, keyin menga

yuzlanib qo'lini ko'ksiga qo'ydi. – Robiyaxon, shuni o'qib ko'rsangiz bo'ldi... Men yomon niyatdamas... – Shunday deb shimining cho'ntagiga qo'l suqdi-da, allaqanday qog'oz chiqardi. Xatni endi uzatgan edi, gurs-gurs qadam tovushi eshitildi. Allakim halloslab kelgancha Ochilboyning qo'lidagi xatga chang soldi. Bu shu qadar kutilmaganda bo'ldiki, angrayib qoldim. O'sha zahoti Kimsan akamning ovozi qorong'i osmonni zirillatdi.

– Ho'v, shapko'r! Pishirib qo'yibdimi senga?! – U xatni burda-burda qilib Ochilboyning yuziga uloqtirdi. Bir parcha qog'oz Ochilboyning ko'zoynagiga ilinib qoldi.

– Kimsanjon, ukam... – Ochilboy qo'llari titragancha ko'zoynagini yechdi. – Singlingizga...

– Jon kerak bo'lsa jo'nab qol!

Kimsan akam shunday vajohat bilan ustiga bostirib bordiki, Ochilboy beixtiyor orqaga tisarildi.

– Ukam... – dedi qaltirab.

– Eshitdingmi? – Kimsan akam g'azab bilan pishqirdi. – Jon kerak bo'lsa tuyog'ingni shiqillat!

– Ukam...

– Men sening ukangmasman! – Kimsan akam tishlarini g'ijirlatib ta'kidladi. – Tushundingmi?

– Kimsanjon... – Ochilboy shosha-pisha ko'zoynagini qaytadan taqdi. Qorong'ida ayanchli iljaydi. – Singlingizga...

– Singlimmas! – Kimsan akam hayqirib yubordi.

– Singlingizga yomonligim...

– Yana gapiradi-ya! Ketasanmi-yo'qmi? – Kimsan akam hovonchadek mushtini baland ko'tarib Ochilboyga tashlangan edi, Zuhra kelin bilagiga osildi.

– Qo'ying. Uyat bo'ladi!

– Uzi, – Ochilboy tisarila-tisarila zulmat qo'yniga singib ketdi.

– Vahmangiz qursin, Kimsanjon! – Fotima kelin endi tilga kirdi. – Tuf-tuf... Yaxshiyam qornimda bolam yo'q, naq Shokir akamdan baloga qolardingiz.

Kimsan akam, «bor-e, senga nima kerak» degandek

jahl bilan qo'l siltagan edi, opa-singil kelinlar shoshapisha yo'lga ravona bo'lishdi.

– Qayoqda tentirab yuribsan yarim kechada?! – Kimsan akam yuzimga chaqchayib qaradi. Qorong'ida ko'zlari yonib turardi. Voy-bo'! Qo'ydek yuvosh Kimsan akamning jahli shunaqa yomonligini bilmagan ekanman! Qiziq, uning dag'dag'asi ham g'ashimga tegar, ham yoqar edi.

– O'zim! – dedim bo'sh kelmay. – Rashid abzinging mo'rchasiga borgandik. Oyimga aytganman.

– E, o'sha Rashid abzingni!.. – Kimsan akam yosh bolani yetaklagandek qo'limdan siltab tortgancha besholti qadam yurdi-da, to'satdan to'xtab qoldi.

– Robiya! – dedi ko'zimga tikilib, qo'limdan shunaqa qattiq qisdiki, dodlab yuboray dedim. – Robiya! Agar o'sha shapko'r yana yo'lingni to'ssa...

– Qo'yvoring! – dedim qo'limni siltab. – Qoching!

– Tilib tashlayman! – Uning ovozi titrab ketdi. – Eshitib qo'y. Ikkalangniyam! – Birdan qo'llari bo'shashib boshini quyi soldi. – Robiya! Tushunsang-chi axir, jinni! Menga keraksan! Bildingmi, judayam keraksan!

Yuragim gursillab urgancha uyga yugurib ketdim. Sevinishniyam, xafa bo'lishimniyam bilmasdim. Orqa tomonda Kimsan akamning hayqirig'i yangradi:

– Robiya!

Hovliga uchib kirdim. Yaxshiyam bobom yo'q, oyim molxonada sigirga qarayotgan ekan. Anchagacha hovlining qorong'i burchagiga borib hurpayib turdim. Nazarimda yuragimning urishini butun dunyo eshitayotgandek edi. Oyim qo'lida fonus bilan molxonadan chiqdi.

– Keldingmi, qizim... Qayoqdasan? – dedi alanglab. – Sutli ovqat ustidan ko'k somsa yemagin devdim-ku.

Birpasdan keyin Kimsan akam kirib keldi. Ayvon oldida ro'para bo'ldik. Qip-qizarib terlab ketibdi.

– Ovqat eysizmi? – dedim ko'ziga qaramay. – Shirguruch qiluvdik. Yangi sigirning sutidan.

Kimsan akam galanska sigirni ko'rgan shekilli, eng katta yangilikka uncha e'tibor bermadi. Yarq etib ko'zimga qaradi-da, iljaydi:

– Obke, tosh bo'lsayam eyman!

– Suyunchi beringlar, bolalarim! – dedi oyim fonusni tokchaga qo'ya turib. – Tog'angni to'yi yurishib qoldi. Nasib etsa, mayram kuni – nikoh! – Azza-baza xontaxta ro'parasiga o'tirib qo'l ochdi. – Iloyo qo'shgani bilan qo'sha qarisin, o'zidan ko'paysin. Senlargayam yaxshi joylardan ato qilsin! Avval singlingni to'yini qilamiz-da, o'g'lim?

Zimdan razm solsam, Kimsan akam menga qarab o'tiribdi.

– Taomilda qiz bola oldin uzatiladi, bolam, – dedi oyim bilag'onlik bilan. – Singlingni to'yiga sen bosh bo'lasan, sening to'yingga Robiya bosh bo'ladi.

Ko'nglim g'ash tortdi. Laganni ko'tarib oshxona tomonga yurayotganimda oyim maqtandi:

– Tog'ang balo ekan, Kimsan. Kelin bo'lmish Ra'noxon ikki jahonning biri! Uch marta sovchi bo'lib bordim-u, baribir pishmaydigan savdo deb o'ylagandim. Shundoq qiz Shomurodga tegishiga aqlim etmovdi. Yo'q, tekstilda birga ishlab, yulduzi-yulduziga to'g'ri kelgan ekan. Quda tomon oxiri ko'ndi. To'yga bormasalarim bo'lmaydi, bolalarim!

– Ikkalasi bir-biriga ko'ngil qo'ygan bo'lsa bo'ptida, – dedi Kimsan akam katta odamlardek salmoqlab. Zimdan menga qarab qo'ydi. – Hamma gap shunda, oyi!

...Ajab, shu kecha dadam yana tushimga kirdi. Kimsan akam ikkalasi qulupnay terib yurishganmish... Dadam qulupnay terib nuqul Kimsan akamga uzatarmish. Yuzini aniq ko'rmasmishman-u, yakkash kularmish...

4. Toshkentdagi tomosha

Shomurod tog'amning to'yiga uch kun qolganda Kimsan akam g'alati gap topib keldi:

– Tog'amning to'yiga bormaysan!

Hayron qoldim.

– Voy, nega? Xafa bo'lmaydilarmi?

– Juda borimg kelsa challarga borasan. – Kimsan akam quvlik bilan ko'zini qisdi. – Nima qilsang qil, to'y kuni bir bahona top. Boshim og'riyapti, deysanmi,

kasalman, deysanmi, xullas, uyog'ini o'zing kelish-tirasan.

– Siz-chi? – dedim o'smoqchilab. Kimsan akam bir nima o'ylab topganini ko'nglim sezib turardi.

– Meni qo'yaver! Bir kun oldin borib, qozon qurar bormi, bazm bormi hammasini boplayman. Lekin sen nikohga bormaysan! Menam bormayman!

Ichimda Kimsan akamning gapiga ko'nib tursam ham, qaysarlik qildim:

– Nega bormas ekanman, boraman!

U buyruq qilib «oshirib yuborganini» sezdi.

– Robiya... – dedi yalinib. – Xo'p degin, keyin xursand bo'lasan.

«Xo'p» demadim-u baribir aytganini qildim. Ertaga nikoh degan kuni daladan barvaqt qaytdim. (Hamma qatori ketmonchilik qilayotganimga uch yil bo'ldi. Avval oyimga ko'maklashib yurdim. Keyin o'zimga ham mehnat kuni yozadigan bo'lishdi.) «Boshim og'riyotganini» bahona qilib, azza-bazza yotib oldim.

To'y tashvishi chiqqanidan buyon Ko'tarmaga – Shomurod tog'amnikiga kuniga uch martadan qatnayotgan oyim ahvolimni ko'rib qo'rqib ketdi.

– Voy, mengina o'lay, bu tashvish ham bor ekanmi, – deb boshimda parvona bo'lib qoldi. «Qizg'aldoq oftob urgan», deb qatiq ichirdi, «ko'zikkansan», deb isiriq soldi. Ertalabgacha baribir «tuzalmadim».

Tong otganda bobom bilan oyim maslahat qilishdi.

– Robiya kasal, yolg'iz tashlab ketib bo'lmaydi, – dedi bobom. – To'y nima, g'at-g'ut etadi, bir kunda o'tib ketadi. Qizingni sog'ligini o'yla.

– Sho'rim qursin! Bitta-yu bitta ukamni to'yiga bormasam, qandoq bo'ladi?

– Birov senga borma deyaptimi! – bobom jahl bilan to'ng'illadi. – O'takang yorilmasin. Boramiz. Senam, menam! Singlisidan Kimsan xabar olib turadi. Bazmga bordi – bo'ldi-da! Xotin-xalaj ichida nima bor ho'kizday yigitga!

Bobom bilan oyim yasanib chiqib ketgan zahoti Kimsan akam iljayib kirib keldi.

– Aytmadimmi, zo'r bo'ladi, deb. Tur, otlan!

– Qayoqqa?

– Shaharga boramiz. Bugun bayram. Teatrga tushamiz.

– Oyim kelib qolsalar-chi? – dedim xavotirlanib.

– Challarni o'tkazmaguncha kelmaydilar. Atlas ko'y-lagingni kiy.

Shu bugun o'zimning ham rosa «poson» bo'lgim kelardi. Xolposh xola tikib bergan atlas ko'ylagimni kiydim. Sochimni ikkita qilib o'rib, chamandagul do'p-pini boshimga ildim. Faqat o'sma qo'yishga ulgur-madim. Ayvonda Kimsan akamning nuqul ma'noli yo'talayotganini eshitib chiqsam, allaqachon otlanib bo'pti. Soqoli qirtishlab olingan, egnida oq jujun ko'ylak, oyog'ida xirom etik. Ko'zlari muloyim kulib turibdi. Ko'nglim bir qalqib ketdi. Kimsan akam shunchalik kelishgan yigitligini endi payqaganimga o'zim hayron qoldim.

– Robiya... – dedi u yalinib... – Iltimos, sochingni chambarak qilib olgin.

– Voy, nimaga? – Qaysi kuni Rashid abzining hammomida Zuhra kelin: «Yigitlar sochi uzun qizni yaxshi ko'radi», degani esimga tushdi. Yerga tegay deb turgan ikki o'rim sochimga qaradim. – Yomonmi?

– Yaxshi-ku... Menga chambarak qilganing yoqadi...

Nachora, aytganini qildim.

... Tuproq ko'chalardan uzoq yurdik. Kimsan akamning xirom etigi, mening g'archli «lodochkam» changga belandi. Biroq ikkalamiz ham bunaqa «maydachuyda»larga parvo qiladigan ahvolda emasdik. Osmonda bahor quyoshi erkalani b jilmayadi. Ko'chaning ikki betidagi bargak chiqargan tollar hozirgina sochini yuvib, oftobda quritayotgan qizdek tamanno qiladi. Qushlar oshiyon qurish tashvishida chug'urlaydi. Yo'l chetida qip-qizil qizg'aldoqlar gilamdek tovlanadi. Ko'klam shabadasida mastona bosh chayqaydi. Qizg'aldoqlar orasida onda-sonda ko'zga chalinib qolayotgan chuchmomalar olamga munis mo'ralab qaraydi. Ajab, shu ko'chalardan avval ham o'tganmidim? Ilgari ham ko'klam bo'lganmidi? Nimaga shu gullarni avval ko'r-

magan ekanman? Bu dunyo shunaqa chiroylimi? Oftob shunaqa mayinmi? Qizg'aldoqlar shunaqa ko'pmi?

Kimsan akam uch-to'rt qadam oldinda boryapti. Bilaman, uyam ikkalamiz yonma-yon yurishimizni xohlayaptiku, uyaladi. Odamlar yomon-da! Darrov gap qiladi. «Kap-katta aka-singil qo'l ushlab yuribdi», deydi. «Aka-singil?» Bir hafta avval Kimsan akam Ochil akaga nima dedi? O'ziyam kapalagi uchib ketdi Ochil sho'rlikning! Kimsan akam ajab qildi! Ikkinchi yo'limni to'smaydigan bo'ldi.

Nihoyat tramvay aylanadigan joyga keldik. Odam birdan ko'payib ketdi. Xo'rozqand shimgan bolalar, gaz-suv do'koni oldida navbat kutib turgan shlyapali kishilar, pista chaqqan olifta xotinlar.

G'ishtin devor orqasida osmon baravar mo'ridan tutun chiqib yotibdi.

– Tekstil shu! – dedi Kimsan akam tushuntirib.

– Ertalab soat beshda gudok chaladiganmi?

– Ha-a, topding! – Kimsan akam mo'riga imo qildi. – Shomurod tog'am shu yerda ishlaydi! Master!

Hayron bo'ldim.

– Voy-bo'! Ko'tarmadan shu yoqqa qatnaydilarmi?

– Nima qipti! Dachni poyezdga o'tirib kelaveradi! Iye, ana tramvay! Chopdik! – Kimsan akam qo'limdan ushlab, sudrab ketdi.

Tramvay tiqilinch edi. Yasan-tusan qilgan yigitlar xaxolab kuladi, qizlarga gap otadi. Kimsan akam qovog'ini solib, bilagimdan ushlab oldi. Kafti qaynoq edi.

Jangoh degani ajabtovur bog' ekan. Muzika tinimsiz gumburlaydi. Temir panjara tepasiga «Yashasin 1-May!» degan shior, Stalinning surati ilingan.

Patta olib, ichkariga kirdik. Yo'lkalarga qizg'ish qum sepilgan. Karnay-surnay, nog'ora sadolari quloqni qomatga keltiradi. Dorbozlar osmon-falakda langar cho'pini salanglatib o'yin ko'rsatadi. Polvonlar kurash tushadi. Nayzangul o'ynayotgan lo'ttibozlar tomoshabinlarni chorlaydi: «Kep qoling! Tomoshaning zo'riga kep qoling!» Bir tomonda doshqozon to'la osh. Bir

tomonda kabob. Kimsan akam ikkalamiz kabob yeb, «zildirskiy» suv ichdik.

Teatrda kirganimizda oqshom tushib qolgan edi. Eh-he! Shuncha duxobani qayoqdan olishdi ekan. Oyoq ostiga cho'g'dek gilam tashlashgan. Kursilarga qizil baxmal sirilgan. Kattakon sahnani ham qip-qizil baxmal to'sib turibdi. Bo'yi ellik quloch, eni qirq quloch kelar.

Tomoshaning oxirida Ofeliya jinni bo'lib qolganini ko'rib, qo'rqib ketdim. Ikki qo'llab Kimsan akamning bilagidan changallab oldim.

– Nega? – dedim titrab. – Bechoraning aybi yo'q-ku!

Kimsan akam sekin yelkamdanda quchdi.

– Gamletniyam aybi yo'q...

Teatrdan yig'lab chiqdim. Tramvayda tekstilgacha keldik. Uyog'iga piyoda ketdik. Kimsan akam tuproq ko'chada tap-tap qadam tashlab oldinroqda boryapti. Ertalab-ku, birov ko'rib qolmasin deb qo'rqqan edi. Hozir qorong'i-ku! Nega yonma-yon yurmaydi! Qo'r-qoq! Dimog'imga olma gulining hidi uriladi. Chigirtkalar qo'ng'iroq chaladi. To'qay tomonda bedana pitpildiq otadi. Kunbotar ufqda tillaqoshdek nozik oy yaltirab turibdi. Yangi oy... Oyim qiziq: har gal yangi oy chiqqanida niyat qiladi: «Iloyo yanagi shu kun, shu oylarga omon-eson yetaylik!» Kelasi oy chiqquncha nimalar bo'larkin? Biz ham omon-eson yetib olaylik. Bobom, oyim, men... Kimsan akam. Birgalashib yetaylik. Anavi kuni oyim nega unaqa dedi? «Avval singlingni to'yini qilamiz, keyin senikini...» Nimaga endi? Axir Kimsan akam o'sha kuni aytdi-ku! «Sen menga keraksan, jinni», dedi-ku!..

Bargak chiqargan tol panasiga yetganda Kimsan akam taqqa to'xtab qoldi. Xayol surib kelayotgan ekanman, tog'dek elkasiga urilib ketdim.

U shaxt bilan o'girildi.

– Robiya, – dedi qo'limdan tutib. Kaftining qaynoq taftidan bilagim yonib ketgandek bo'ldi. Qo'limni tortib olmadim, tortib olgim kelmasdi. Lekin darrov gapni boshqa yoqqa burdim:

– Nega unaqa? Ofeliyaning aybi yo'q edi-ku.

– Ofeliyangni qo‘ya tur! – Kimsan akam ko‘zimga diqqat bilan tikildi. Uning yosh bola emas, katta, og‘ir-bosiq odam bo‘lib qolganini yana bir marta his etdim. – Anuv kuni oyim nima degani esingdami?

O‘zimni go‘llikka soldim.

– Nima dedilar?

– Ra‘no opa bilan Shomurod tog‘amning yulduzi yulduziga to‘g‘ri kelgan ekan. Quda tomon ro‘yxushlik bermasayam bugun to‘y bo‘lyapti. To‘g‘rimi?

Bundan chiqdi, Kimsan akam ham mening xayolimdagini o‘ylab kelayotgan ekan! Qiziq, yoningdagi odam ko‘nglingdan o‘tganini aniq bilsa g‘alati bo‘larkan. Kimsan akamning baquvvat qo‘li bilagimni qisib turishi yoqar edi.

– Robiya! – u bilagimni battar qisdi. – Rostini ayt. Ochil aka nega xat berdi senga? Yo o‘zing ham...

Ha, gap buyoqda ekan-da! Men nima dardda-yu, bu kishim... Alam qilib ketdi.

– Qo‘yvoring! – dedim yulqinib. – Men qattan bilaman!

– Robiya! – Kimsan akam yuzi yuzimga tekkudek yaqin keldi. Ham shiddat, ham o‘tinch ohangida so‘radi. – To‘g‘risini gapir...

Tentak! Ahmoq! Kuchim boricha qo‘limni silkitib depsindim.

– Qo‘yvoring! Tushini suvga aytsin o‘sha shapko‘r! Kerakmas! O‘ziyam boshida qolsin, xatiyam!

Kimsan akamning qo‘llari bo‘shashdi.

– Rost-a, shu gaping rost-a, Robiya!

«Rost bo‘lmasa sen bilan kelarmidim, oyimni aldab «kasal» bo‘larmidim!»

Ichimda shu xitob yangradi-yu, sirtimga chiqarishga yuzim chidamadi. Chopib ketdim. Orqamdan Kimsan akamning yugurib kelayotganini, halloslab nafas olishini sezib turardim. Xuddi bir vaqtlar dadamni olib ketgan mashina ketidan yugurganimda orqamdan chopgandek... Bilmadim, ehtimol o‘shanda, zarang yerni mushtlab yig‘laganimda, «unaqa qilmagin, Robi...» deb yalinganda suyanib qolgandirman unga... To‘g‘ri, u paytlarda yosh bola edik. Shundoq bo‘lsayam...

Oxiri u menga yetib oldi. Yelkamga kaftini avaylab bosdi.

– Robiya! – dedi o‘tinib. – Tushungin axir... Sen menga judayam keraksan...

Uyog‘iga sekin ketdik. Yangi oy nozik qoshini chimirib ma‘noli jilmayib turar, chigirtkalar mastona nag‘ma chalar, faqat oldinda «Alvasti ko‘prik» tahdidli guvillab, ko‘ngilga g‘ashlik solar edi.

Uyga kelsak hech kim yo‘q. Oyim-ku, challarni o‘tkazmay kelmaydi. Bobom ham to‘ydan qaytmabdi.

– Ovqat qilaymi? – dedim Kimsan akamning ko‘ziga qarashga uyalib.

Kimsan akam jilmaydi.

– Dam olsang-chi, jinnivoy.

U ayvon o‘rtasida ikkilanib turib qoldi. Yana nimadir deyishini xohlardim. Ayni paytda gapirishidan qo‘rqar, andisha qilardim.

– Mayli, bo‘lmasa... – U etigini yechib uyga kirib ketdi. Etigini chetga olib qo‘yaturib, paytavasi terlab ketganini bildim. Qarasam, ayvon burchagida qizil belbog‘iyam turibdi.

Oshxonaga kirib suv isitdim. Avval qiyiqchani, keyin paytavalarni yuvdim. Hammasidan yoqimli bir is – Kimsan akamning hidi kelardi.

Kirlarni dorga ila turib xayolimga g‘alati o‘y keldi. Nimaga bunaqa bo‘lganini o‘zim bilmayman. Nami qurimagan qiyiqchani yulqib oldim-u yugurib uyga kirdim. Narigi xonadan Kimsan akamning xo‘rsingani eshitildi. Hozir kirib keladigandek eshigimni zanjirlab oldim. Yettinchi lampani tokchaga qo‘yib, qutini titkilay-titkilay zangori ipak topdim. Tizzamga muzdek unnayotgan qiyiqcha burchagiga lotincha «K», «R» degan harflarni tika boshladim. Mendan kashtachi chiqmas ekan. Harflar qing‘ir-qiyshiq bo‘lib ketdi. Shu arzimagan ishni bitirguncha tong bo‘zardi. Nam qiyiqchani tizzamga qo‘ygancha uxlab qopman.

Ertalab eshikning taqillashidan uyg‘onib ketdim.

– Robiya! – dedi Kimsan akam eshik orqasida turib. – Men ketdim.

Tentak! Derazadan kelsa-ku, ochiq turibdi!

– Shoshmang! – Qo‘limda qiyiqcha bilan uchib borib eshikni ochdim. – Choy ichmaysizmi?

– E, kech qoldim. Dalada icharman.

– To‘xtang bo‘lmasa! – Ayvon burchagida turgan qutidan ikkita non olib qiyiqchaga o‘ray boshladim. Shoshilgim kelmas, Kimsan akam qiyiqcha chetidagi yozuvni ko‘rishini xohlardim. Nihoyat u qizil qiyiqcha burchagidagi zangori harflarga ko‘zi tushib yaqin keldi.

– Nima bu? – dedi boshimga egilib.

– Qiyiqchangiz! – hech nimadan bexabar odamdek tugunni uzatdim. – Mang. Kir bo‘pketgan ekan yuvdim. Aytmoqchi, paytavangiz dorda turibdi. Qurigandir.

– Robiya!.. – Kimsan akamning ovozi titrab ketdi.

– E, – qo‘lini yelkamdan olib tashladim. – Qoching. Sigir sog‘ishim kerak. Sutini tortib qo‘ysa, oyim urishadilar.

5. Urush

Bizning tomorqadagi chillaki hammanikidan oldin chumak uradi. Boshqalarniki endi sho‘ra chiqarganida bizniki rang oladi. Boshqalarnikiga endi rang kirganida bizniki g‘arq pishadi. Bu yil ham shunaqa bo‘ldi. Oyim Kimsan akam ikkalamizga buyurdi:

– Uzunning pishgan-pishganidan teringlar. To‘g‘angga olib boraman. Kelinimning og‘zi tegsin.

Oyim «kelinim-kelinim» degancha bor. Challar kuni Shomurod tog‘amnikiga borganda Ra‘no kelin-oyimni ko‘rib og‘zim ochilib qoldi. Oppoq g‘ijim ro‘mol o‘rab, uch marta salom qildi-yu, shundoq ro‘molini ochsa... Tavba! Bunaqa chiroyli qizni umrim bino bo‘lib ko‘rmaganman! Qalamda tortilgandek qoshlari, yonib turgan qop-qora xumor ko‘zlar, sutday oppoq yuz, ingichka iyagidagi mitti xoli, angishvonadek og‘zi – hammasi ataylab chizib qo‘yilgan suratga o‘xshaydi. Rostini aytsam, qiz bola bo‘la turib o‘zimning havasim keldi. Ra‘no yangamni bir ko‘rishda yaxshi ko‘rib qoldim. Shuning uchun oyim «kelinimning og‘zi tegsin» deganida Kimsan akam ikkalamiz shosha-pisha tomorqaga yugurdik. Endi uzum uzmoqchi bo‘lib turgan

edik, bobom bilan Oqsoqol buva kelib qolishdi. Oqsoqol uzumlarni ko'rib boshini sarak-sarak qildi.

– Nima balo, Duma! Uzumingni tagiga kechasi bilan olov yoqib chiqasanmi?

– Tuf de, ko'zing tegadi! – Bobom pakana gavdasini g'oz tutib, ko'ksiga mushtladi. – Kim deb o'ylayapsan bizni! Yo'lini bilish kerak, yo'lini.

– Bilsang ayt mundoq, pajalista!

– Yana «pajalista» deydi-ya! – Bobom Oqsoqolning yuziga sapchigudek chaqchaydi. – Ming marta aytganman shu gapingni tashla deb.

– Iye, kechirasan, Duma, og'zimdan chiqib ketdi, – dedi Oqsoqol iljayib.

– E, og'zing o'lsin!

Oqsoqol «pajalista» desa bo'ldi, bobomning jini qo'ziydi.

Buning o'z tarixi bor: oyim aytib bergan.

Oqsoqol kolxozga endi rais bo'lgan paytlari bobom kechasi makkaga suv tarab yurib, uxlab qopti. Suv toshib ketibdi. Makkaning ildiziday mo'rt narsa bo'lmaydi. Birpasda allaqancha makka tappa-tappa yiqilib tushibdi. Shu ishning ustiga Oqsoqol kepqopti-yu, bobomni siquvga opti. «Nima balo, xotiningni qo'yniga kirib ketdingmi, undoq-bundoq», debdi. Bobomning ham jahli yomon emasmi, «ole suvchiligingni, shu ishni qilmasam ochimdan o'lamanni», debdi. «Suvchilik qilmasang – pajalista!» debdi Oqsoqol o'dag'aylab.

Bobom o'sha kundan ishga chiqmay qo'yibdi. Oradan uch kun o'tibdi, to'rt kun o'tibdi. Bir haftadan keyin Oqsoqol yalinib kepti. «Hoy, Duma, esingni yedingmi, dalada shuncha ish turibdi, chillali xotinday yalpayib yotishga uyalmaysanmi», desa, bobom chiyilab beribdi: «Bor, ishingni qil, sen rais bo'lgan kolxozda ishlamayman!» Oqsoqol qarasa ish chatoq. Eng zo'r dehqon uyiga kirib yotib olgan. Oxiri raykomni boshlab kepti. Raykom ham yalinibdi. «Siz eng tajribali dehqonsiz, Duma, – debdi. – Bunaqa arazlab yotish sizga yarashmaydi. Ertadan ishga chiqing».

«Chiqmayman! – debdi bobom alamdan tutoqib, – xizmatini qilib-qilib endi otim «pajalista» bo'ldimi?»

Raykom negadir iljayib qo'yibdi-da, Oqsoqolga siyosat qila ketibdi. «O'zingiz pajalista, Oqsoqol, otabuvangiz pajalista! Aka-ukalaringiz pajalista! Qo'ying, Duma, xafa bo'lmang, siz pajalistamassiz!» Bobom darrov hovuridan tushibdi. «Unaqa demang, o'rtoq raykom, – debdi murosaga kelib. – Ota-buvasiga til tegizmang. Otasi, rahmatli yaxshi odam edi. Akasiyam «pajalista» bo'lganmas».

«Mayli, o'zim pajalistaman, – debdi Oqsoqol. – Bo'ldimi, qutuldimmi endi, ovsar?» «Senam pajalistamassan, o'sha gapingni qaytib olsang bo'ldi». Bobom shunday debdi-da, ketmonni ko'tarib dalaga chiqib ketibdi. O'shandan beri Oqsoqol «pajalista» degan gapni kam ishlatadi. Ayniqsa bobomga.

Hozir ham Oqsoqol bobomning jini tutib ketganini bilib, darrov oldini oldi.

– Bilmasdan aytdim-da, o'rtoq, – dedi iljayib. – Ammo uzuming zo'r bo'пти. Barakasini bersin! Mengayam o'rgat yo'lini!

– Talash degan narsani bilasanmi? – Bobom Oqsoqolga g'olibona qaradi. – Har qandoq meva bo'lmasin, o'rikmi, uzummi, nishona berganda norasta bolalarga talash qildirish kerak. O'shalar to'yganidan qolgani barakali bo'ladi. Menam bu uzumning birinchi hosilini bolalarga talash qildirganman. O'n sakkiz yil bo'ldi, Kimsanim endi tug'ilgan edi.

– Sen-a? – Oqsoqol belkurakday kafti bilan tizzasiga urib, maza qilib kuldi. – Tomorqangni ustidan chug'urchuq uchib o'tishga qo'rqadi-ku, ziqna. Boshqa siring bor, aytaver!

– Aytaymi! – Bobom Oqsoqolga qo'lini cho'zdi. – Nosdan ol!

– O'l-a! Nokas! – Oqsoqol inqillab-sinqillab shi-mining cho'ntagiga qo'l suqdi. Nos to'la atir shishani bobomga uzatdi. – Ma! Bitta gapniyam tekinga aytmagin!

– Kerakmas! O'zirniki bor! – Bobom uzun kam-zulining cho'ntagidan qizg'ish nosqovog'ini chiqardi. – Mendan tilanmagin deb ataylab so'radim. – U ko'zini qisibroq iljayganicha nos otdi. – Hech qanaqa

sir-pir yo'q. – Birpas o'ylab turdi-da, to'satdan so'rab qoldi:– Xonadoningda necha kishi bor? – Javob kutmay kaltabaqay barmoqlarini bukib sanab ketdi. – Seni o'zing – bir. Chevar xotining – ikki. Ikki o'g'il-ikki kelin, to'rtta, hammasi oltita bo'ldimi? Yana ikki nevarang bormi? Bo'pti-da! Har bittasi ho'kizday keladigan Shokiring bor, Zokiring bor, Potma-Zo'ra keling bor. Qish chillasida o'shalarni ishga sol. Hojatxonaning kesagini tashitasan... Tokning tagini odam bo'yi kav-laysan.

– E, shuning uchun qachon qarasa, kesak titkilab yurarkansan-da, – Oqsoqol bir g'ujum uzumni og'ziga solib kulimsiradi. – Bo'ldi, tushundim!

– Senga nima! Yeding-ku, qalay, mazzasi shirin ekanmi? – Bobom xixilab kuldi. – Kesakni quvvati ja zo'r bo'ladi, Oqsoqol. Senga o'rgatavurib o'zimga qolmadi.

– Qo'ysang-chi! – Oqsoqol qo'l siltadi. – Bunaqa ishlarni o'zimam bilaman. Lokin hayronman, bu yil mening uzumimga kul tushdi.

– Hovlining devorini baland, tomorqanikini past ol degan hikmat bor. Eshitganmisan? Eshitmagansan! – Bobom bilag'onlik bilan tomog'ini taqillatgan edi, ichiga nos ketdi shekilli, ko'zi ola-kula bo'lib o'qchidi. – E, o'la, – dedi tupurib. – Ishkomingdan shamol o'tib tursin, kallavaram. Bo'lmasa kul tushaveradi.

Ikki o'rtoq hangamalashib pastak eshikdan hovliga kirib ketishdi.

– Yuring, – dedim Kimsan akamni qistab. – Tezroq uzaylik. Oyim kech qolmasinlar.

Ishkom oralab ketdik. Quyosh qizdiradi, tok yap-roqlari unsiz tebranadi. Oftob nurini emib, qizargan uzum boshlari sollarib turibdi. Allaqayerda g'urrak g'u-rillaydi.

Kimsan akam qoraygan uzum boshlari g'uj bo'lib turgan tok oldiga kelib to'xtadi. Osilib, bag'azga chiqdi. Zalvaridan ishkomning narigi boshigacha lopillab ketdi.

– Buyursinlar! – dedi bir oyoqda bag'azga osilib. – Qaysi birini uzay? Mana shunimi? – U tuzuk-quruq qizarmagan uzum boshiga qo'l cho'zdi.

– E, xom-ku, unisi! Tepasidagisini uzing! – dedim savatni biqinimga tiragancha yaqin kelib.

– Bunimi? – Kimsan akam undan ham xomroq boshini ko'rsatdi. – Shunisinimi?

– Yo'q, ana, tagida turibdi-ku?

– Ha, mana bunimi? – U yana «jinnilik» qilishga tushdi. – Hozir uzamiz-da!

Kula-kula dashnom berdim.

– Yo'q, ana-ku, peshonangizga tegib turibdi!

– E, mana bunimi? – U butunlay ko'm-ko'k uzum boshiga qo'l cho'zdi. – Mana shuni-ya!

– Iye, jinnimisiz! Unimas, qorayib turgani bor-ku! Nima balo, xom uzumni pishganidan ajratolmay-sizmi?

Kimsan akam nihoyat g'arq pishgan chillakini «top-di». Bir donasini uzib, og'ziga soldi.

– Oh-oh-oh, shunaqangi shirinki, yesang labing labingga yopishib qoladi, Robiya!

– Bo'ling! – Turgan joyimda oyoq depsib qistadim. – Oyim shoshyaptilar.

Kimsan akam tezroq ishlash o'rniiga battar tegajaklik qila boshladi:

– Voy-bo'! Bunaqa shirin uzumni umrimda yemaganman. Asal-a, asal! Ishonmasang yalab ko'r... Labing yopishib qolsa, o'zim ajratib olaman.

– E-e! Oyim urishib beradilar, inson! Qorong'ida «Alvasti ko'prik»dan qandoq o'tadilar? O'zingiz oborib qo'yasizmi?

– Senam borsang, oborib qo'yaman! – Kimsan akam iljayib chillakini uzatdi. – Qani, och savatingni!

Savat yarimlab qolganida tomorqaning pastak eshigi g'iyqilladi. Bobomning yo'talgani eshitildi. Kimsan akam ikkalamiz darrov sipo bo'lib qoldik.

Sekin qarasam, bobomga ergashib oyim ham pil-dirab kelyapti. Bobom ishimizni bir zum tomosha qilib turdi-da, Kimsan akamga buyurdi:

– Tush...

– Nega, bobojon? – dedim qo'limdagi savatga imo qilib. – Hali to'lgani yo'q-ku!

Kimsan akam dorbozlardek bir oyoqlab bag'azga osilgan ko'yi biz tomonga yuzlandi. Oyim teskari qarab, kafti bilan yuzini to'sgancha hiqillab yig'lab yubordi.

– Urush boshlanibdi! – dedi bobom siniq ohangda. – Yurtimizga nemis bostirib kiribdi.

Hiqillab yig'layotgan oyim to'satdan ovozi baralla qo'yib yubordi.

– Voy sho're-em! Bu balo qayoqda turgan ekan. Sho'rginam qursin!

– Sannama-ye! – bobom o'shqirib berdi. – O'chir!

Hayron bo'lib oyimga qaradim. Nega yig'laydi? Urush boshlansa nima bo'пти? O'zi anchadan buyon «urush-urush» degan gaplar yurardi-ku!

Kimsan akam yerga sakrab tushdi. Qurigan kesakka qoqilib, munkib ketdi. Rangi quv o'chib, entikib nafas olayotganini sezdim. U avval menga, keyin oyim bilan bobomga qaradi. Yuziga qon tepib, bo'g'riqdi. Ko'ylagining qayrilgan yengini tushirib indamay ketayotgan edi, oyim ko'zlari olayib yo'lini to'sdi.

– Qayoqqa?

– Oyi! – Kimsan akam najot kutgandek bobomga qaradi. – Bormasam bo'lmaydi.

– Nima?! – Oyim qop-qora, qalin lablari titrab, Kimsan akamni quchoqlab oldi. – Bormaysan! Tilab-tilab olgan bolamni ajalning og'ziga yubormayman! – Keyingi so'zlar uning ko'ksidan nido bo'lib chiqdi.

Shundagina ro'y bergan voqeaning dahshatini birdan his etdim-u etim seskanib ketdi.

– Yo'q! Yo'-o'q! – Oyim cho'kkalab qoldi. Kimsan akamning oyog'ini qo'shqo'llab changalladi. – Ketmaysan!

– Dada! – Kimsan akam oyimning qo'llaridan oyog'ini tortib olishga urinarkan, bobomga qaradi.

– O'chirsang-chi, ahmoq xotin! – Bobom olmadek mushtini do'laytirib dashnom berdi. – Birov bolangni oborib to'pining og'ziga tiqyaptimi!

Oyim baribir Kimsan akamni qo'yib yubormadi.

– Yo'q! – dedi yosh to'la ko'zlarida iltijo bilan. – Borma, jon bolam!

Bir chekkada karaxt bo'lib turardim. Nimadir biqinimga qattiq botayotganini endi sezdim. Qarasam, yarim savat uzum. Nima keragi bor? Kimsan akam ketsa... Uzum yegandan ko'ra zahar yeganimiz yaxshimasmi? Behush bir alpozda savatni yerga qo'ydim.

Zor qaqshab yig'lashidan eridi shekilli, bobom Kimsan akamning oyog'idan quchoqlab muk tushib o'tirgan oyimning boshiga egildi.

– Onasi, – dedi sekin. – Yurtga kelgan to'y... Hamma urushga borsa-yu, Kimsan toshbaqadek boshini ichiga tortib o'tirsa yarashadimi? O'z qulog'im bilan eshitdimku, urush nari borsa, bir-ikki oyda bitarkan. Uyog'ini so'rasang, hech kim o'g'lingni oldiga solib obketaman deytgani yo'q.

Kimsan akam oyimning qo'lidan sirg'alib chiqqida, eshik tomon g'izilladi... Shu ketganicha ertasiga peshindan keyin qaytdi. Bobom dalada, men supa oldida o'tirib, kir yuvayotgan edim. Ikki ko'zi eshikka termilib o'tirgan oyim chopib borib, Kimsan akamni quchoqladi.

– Nima bo'ldi? – dedi chirqillab. – Tezroq gapirsang-chi?

Kimsan akam negadir ko'zini oyimdan olib qochdi.

– Kerak bo'lsa o'zimiz chaqiramiz deyishdi.

– Voy Xudoga shukur-a! – Oyim palakati arigan odamdek yuzi yorishib ketdi. – Mayli, bolam, shoshma. Aytibdi-ku, kerak bo'lsa o'zlari chaqiradi. Ajabmas, ungacha urush bitib qolsa...

Bir piyola choydan keyin oyim yo'lga otlanib qoldi. Kechagi savatga boshqatdan uzum uzdirdi.

– Tog'angdan xabar olay endi, – dedi kuymanib. – Kim bilsin, hali uyam urushga otlanib qoldimikin, guldek xotinini qon-qaqshatib...

Hovlida Kimsan akam ikkovimiz qoldik. Nuqul ro'parasida so'ppayib turishdan uyalib, kir yoyish bahonasida supa tomonga ketayotgan edim, Kimsan akam qo'li bilan imo qildi:

– O'tir, Robiya... Gap bor.

So'z ohangidanoq hammasini tushundim. Yuragim shuv etib ketdi. U mendan oldin ayvon peshiga borib

o'tirdi. Ko'zlarida chuqur, o'ychan ma'no bor edi. Oftobda qoraygan yuziga ter tepchib chiqqan, lablari qimtilgan. Bir kunda yanayam ulg'ayib qolgandek...

– Nima bo'ldi? – dedim yuragim zirillab.

U indamadi. Negadir jilmayib qo'ydi. Oraga yurakni sirqiraturvchi sukunat cho'kdi. Allaqayerda qovog'ari g'o'ng'illadi. Molxonada galanska sigir xomush pishqirib qo'ydi. Kunbo'yi olamni qizdiraverib o'zi ham hansirab qolgan quyoshning lohas nurlari etakdagi terak shoxlari uchida lovullab o'chdi.

Kimsan akam ilkis bosh ko'tarib, ko'zimga qattiq tikildi.

– Kutasan-a! – Shunday dedi-yu, hamisha yuvosh, o'ychan boqadigan ko'zlarida olov yarq etdi. – Sen kutsang, men tezroq kelaman. Jang qilishim oson bo'ladi. Robiya...

– Ketadigan bo'ldingizmi? – dedim ovozim titrab.

– Yo'q, avval sen ayt. Kutasanmi? Rostingni ayt.

O'krab yig'lab yubordim.

– Nega kutmas ekanman? Sizdan boshqa kimim bor! – dedim kaftim bilan yuzimni to'sib. – Kimsan aka. Axir men... siz...

O'pkamni bosib ololmas, bir yoqlarga qochib ketgim kelardi. Shu topda Kimsan akam meni erkalashini, yuzlarimni silashini xohlardim.

Bir mahal u sekin qo'limni siladi. Kaftimni tushirib yuzini yuzimga tekkizgudek yaqin keldi. Undan oftob hidi, yer isi, keyin... odamning yuragini o'ynatib yuboradigan allaqanday yoqimli bo'y taralar, ko'zlari ma'yus kulib turardi.

– Nima qilay, – dedim jiqqa yosh to'la ko'zlarimni ko'ziga qadab. – Ont ichaymi! Non ursin! Kutmasam, non ko'r qilsin, Kimsan aka!

U titrab ketdi. Boshimni ohista siladi. «Nega o'p-maysan, tentak! O'psang-chi, bag'ringga bossang-chi!» Bilmadim, qo'rqdimi, uyaldimi, qadoq bosgan yo'g'on boshmaldog'i bilan yuzimga oqib tushgan yoshni artidi.

– Ont ichma, Robiya! – dedi ovozi qaltirab. – Bilaman-ku, seni! Bir og'iz gaping kifoya.

U yana jimib qoldi. Men bo'lsam, Kimsan akamning baquvvat, qadoq bosgan qaynoq kaftiga yuzimni umrbod bosib o'tirishni, uning to'xtovsiz gapirishini, allaqanday sirli narsalarni aytishini xohlardim. Ko'zimni yumib oldim.

– Robiya! – dedi u bir mahal. – Menga qiyiqcha tikib qo'yasan-a?

Boshimni ko'tarib qarasam, kulib turibdi.

– Hov anavindagiga o'xshab, chetiga otimizni yozib qo'yasan-a! Ikkalamizning otimizni...

Yana yig'lab yubordim.

– Yig'loq! – dedi u yosh bolani ovutgandek, bur-nimni beozor chimchilab. Shimining cho'ntagiga qo'l suqib yarim varaq qog'ozni xontaxtaga, chala yeyilgan uzum g'ujumlari yoniga tashladi. – Bir haftadan keyin jo'naydigan bo'ldim. Voenkomatdagilar hozircha O'zbekistondan urushga olish boshlangani yo'q, deyishuvdi, zo'rg'a ko'ndirdim. Oyimga aytmay qo'ya qol. O'zim tushuntiraman.

«Voenkomatni zo'rg'a ko'ndirganmish». Nimaga shuncha shoshilinch? Kerak paytida o'zlari chaqiri-shardi-ku!

Kimsan akam ko'nglimdan o'tayotganini sezdi.

– Robiya! – dedi menga emas, paxsadevor tagida patirlashib cho'qishayotgan musichalarga qarab. – Shunaqa qilish kerak, Robiya! Urush ketyapti.

Oyim qorong'i tushganda keldi. Tog'am ham voen-komatga yugurmoqchi ekan, Ra'no yangam qo'ymabdi. Oyim tog'amni uzib-uzib olibdi. «Podadan oldin chang ko'tarma, g'unchaday xotiningni tashlab urush qilish-ni kim qo'yibdi senga, – debdi. – Mana jiyaning ham hovliqib borib, bo'shashib qaytdi, kerak paytida o'zlari topib olarmish», debdi.

Oyim gapiryapti-yu, mening ko'zlarim Kimsan akamda...

Yig'laganimni sezdirmaslik uchun molxonaga kirib ketdim.

Yakshanba kuni hovlimiz odamga to'ldi.

Uncha-muncha kolxozchi charlab chaqirsa bor-maydigan, do'ppisi yerga tushib ketsa, birovga pul berib oldiradigan Umar zakunchi ham peshonasiga munchoq taqilgan jiyron otini gijinglatib keldi. Bobom qo'y so'ydi... Rashid abzi odatdagi yumushini qilib, samovar qaynatishga tushdi. Mahalla qozonida osh damlandi...

Oyim dod solib, olamni buzib yuborsa kerak, deb qo'rqan edim. Qiziq, yig'lamadi ham, aql-hushini yo'qotmadiyam. Ikkalamiz Kimsan akamga atab patir yopdik, bo'g'irsoq pishirdik. Boshiga yangi do'ppi, egniga jujun kuylak, shim kiyib olgan Kimsan akam ikki yuzi qip-qizarib dam-badam yonimizga keladi. (Hali ulfatlari bilan uyga kirib bobomdan bekitiqcha Rashid abzining musallasidan ichayotganini ko'ruvdim.) Nuqul hazil qiladi. «Oyi, to'y yuboryapsizmi, noningiz buncha ko'p? Ie, Robiyaning pazanda bo'pketganini qarang, oyi! Shundoq qizni qo'ldan chiqarib bo'ladimi?»

Oyim uning qochirig'ini tushunmaydi.

– Sening singling bo'ladi-yu, pazanda bo'lmaydimi? – deydi kulib.

Ajab, odam yig'lab yuborishdan qo'rqib kulsa g'alati bo'larkan. Xizmat qilib yuribman-u, nuqul Kimsan akamga termilib qarayman. Ana, jo'ralari bilan ayvonda chordana qurib o'tirib osh yeyapti.

– Robiya! – Shundoq yonboshimda do'rillagan ovozdan cho'chib tushdim. Qarasam, har yelkasiga ikkitadan yigit o'tirsa bemalol ko'taradigan, kesilgan jigardek qalin labida mo'ylov o'sgan Parcha opa devor tagida g'oladek oyoqlarini cho'zib bir lagan oshni tizzasiga qo'yib uryapti.

– Robi! Bir qoshiq suvminan yutadigan okang bor-de! – dedi oshni guvaladek dumaloqlab og'ziga tiqarkan. – Sovchi qo'ysa tegardim!

«Voy ko'nglingga qo'tir jomashov. Kimsan akam o'zimgayam kerak!..»

Ensam qotib burilib ketayotsam, sholcha tashlangan supada bug'altir Soli so'poq bilan o'tirgan Umar zakunchi o'rnidan turib, qo'lini baland ko'tardi.

– Hurmatli kolxozchilar! – dedi jarangdor ovozda. – Bir minut diqqat...

Hovlida g'ovur-g'ovur qilayotganlar sekin-asta tinchib qolishdi.

– O'rtoqlar! – «Qovun so'ysa bo'ladigan» darajada silliq dazmollangan shim kiygan Zakunchi o'rtaga chiqdi.

– O'rtoq kolxozchilar! Vatanimiz boshiga og'ir sinov tushdi. Qahramon jangchilar nemis-fashist bosqinchilariga qarshi shiddatli jang olib bormoqda! – U ko'rsatkich barmog'i bilan ingichka, chiroyli mo'ylovini silab qo'ydi. Hayajonlanib davom etdi. – Frontga dobrovolniy otlanganlar orasida bizning kolxoz a'zosi, staxanovchi ketmonchimiz Kimsan Husanov ham borligidan faxrlanamiz! Buyoqqa kel, ukam!

Kimsan akam qo'lini sochiqqa artib, ayvondan tushdi. Xijolatdan yuzlari lovullab supa oldiga keldi.

– Rahmat, ukam! – Zakunchi uning yelkasiga qoqdi. – Dushmanga omonlik berma! – Oxirgi gapini ayniqsa jarangdor ovozda aytdi. – Fashist bosqinchilariga o'lim! Yashasin o'rtoq Stalin!

Gardishi keng shlyapa, oq kitel kiygan Soli so'poq do'mboq qo'llari bilan qarsak chaldi. Chekka-chekkadan ma'qullovchi xitoblar eshitildi.

Umar zakunchi joyiga o'tirgandan keyin Kimsan akam nima qilishini bilmay esankirab turdi-da, odamlar orasidan o'tib, ayvonga yo'naldi. Shu payt gulzor tomondan Oqsoqolning yo'g'on ovozi eshitildi.

– Shoshma, bolam! – U katta-katta qadamlar bilan yaqin kelib Kimsan akamning yelkasiga kaftini qo'ydi. – Bir narsani aytib qo'yay. Urush degan palakat – o'yin emas. Buni hech kim bilmasa ham Duma bilan men bilamiz. Dushmanni ayama, ammo o'zingniyam ehtiyot qil. – Oqsoqol Kimsan akamning peshonasidan o'pdi. – Barakalla, bolam! Haqiqiy ota o'g'il ekansan. Belida belbog'i bor yigit ekansan! Qani, xaloyiq! – U odamlarga yuzlanib hayqirdi. – Yurtimizga qasd qilganlar past bo'lsin, yer bilan yakson bo'lsin! Kimsanboy oy borib – omon kelsin!

Hovlini to'ldirgan odamlar baravar oyoqqa qalqdi.

Kimsan akam bir yo'la shuncha maqto'vni umrida endi eshitayotgani uchunmi, o'zini qayoqqa qo'yishini bilmas, sholg'omdek qizarib, goh yerga qarar, goh daraxtlarning uchini tomosha qilar, nuqul shiminig cho'ntagiga qo'lini suqib atrofga alanglar, chamasi, bunaqa «azob»dan tezroq qutulishni o'ylar edi.

– Husanboy! – Oqsoqol kaftini og'ziga karnay qilib baqirdi. – Qayoqdasan, Duma?!

Odamlar to'dasidan bobom chiqib keldi.

– Obke! – dedi Oqsoqol.

Allaqayoqdan oyim paydo bo'ldi.

– Chop, qizim! – dedi shivirlab. – Patirni obchiq!

Oyog'imni qo'lga olib bostirmaga yugurdim. Hali tandirdan uzayotganimizda oyim singgib pishgan, yuziga sedana sepilgan kattakon patirni qo'limga tutqazib, buyurgan edi: «Tayinli joyga bekitib qo'y, so'raganimda obkelasani!»

Bostirmaga uchib kirdim.-u eski sandiq ustidagi dasturxonga o'ralgan patirni oldim. Patir hali issiq edi... Dasturxon qatini ochishim bilan dimog'imga oftob, bug'doy, yer hidi urildi. Xuddi Kimsan akamning yuzidan anqib turadigan isga o'xshash bo'y... Odamlar orasidan o'tib kelib, nonni bobomga berdim. Bobom xuddi chaqaloq bolani avaylab ko'targandek ikki qo'l-lab ko'ksiga bosgancha supa oldiga olib bordi-da, Oqsoqolga uzatdi.

Oqsoqol patirni boshi ustida baland ko'tardi.

– Xaloyiq! – dedi ovozi titrab. – Dunyoda nondan tabarruk narsa yo'q! Nondan yuz o'g'irgan imondan yuz o'giradi. Ke, o'g'lim, tishla! – U patirning ikki chetidan tutib turdi. Kimsan akam xiyol egilib bir chekkasini tishladi. – Barakalla, – dedi Oqsoqol. – Tuz-nasibang uzilmasin! Ilohi omin!

U bir chekkasi tishlangan patirni bobomga uzatdi, bobom oyimga, oyim menga... Men shosha-pisha uyga kirdim-da, patirni taxmondagi ko'rpa-to'shaklar orasiga yashirdim.

Tong qorong'isida yo'lga tushdik. Bobom Umar zakunchining ulov jo'natishini kutmasdan o'zining eshak aravasini taxt qildi. Aravada Kimsan akamning qopi, qopning bog'ichidan ushlab oyim o'tiribdi. Aravaning bir tomonida Oqsoqol, ikkinchi tomonida bobom tuproq kechib ketyapti. Kimsan akam ikkalamiz orqaroqda boryapmiz. Bobom xalacho'p bilan eshakning biqiniga nuqib «xix-xix»laydi. Eshak dik-dik qadam bosadi. Sahar salqinida sovugan tuproq hidi yoqadi shekilli, «xirq-xirq» qilib qo'yadi. G'ildiraklar ovozsiz shirillaydi. Chang ko'tariladi. Shom yegan oy g'arib mo'ltiraydi. Goh Kimsan akamga, goh oyimga qarayman. G'ira-shirada Kimsan akamning yuzini aniq ko'rmayman. Lekin atrofni tomosha qilib borayotganini payqayman. Nazarimda u negadir jilmayayotganga o'xshaydi. Oyim ikki bukilib olgan. Xuddi qop-qora toshdan yasalgan haykaldek...

Alvasti ko'prikdan o'tayotganimizda qorong'i o'p-qonda ilondek vishillayotgan suvga qarab, vahmim keldi. Nazarimda butun dunyoning falokati shu yerga to'planib «bazzm» qurayotgandek, atigi bir hafta oldin o'ynab-kulib yurgan odamlar bugun ma'yus tortib qolganidan shodlanib mazax qilayotgandek bo'lib ketdi.

Oqsoqolning yuragi siqildi shekilli, Alvasti ko'prik shovqinini bosib shang'illadi:

– Kecha Xirmontepa tomonga o'tgandim. Bug'doy jonivor boshog'ini to'kaman deb turibdi. Zakunchiga aytsam hali vaqt bor, rahbarlarning ishiga aralashmang deb so'kib berdi.

– E, rahbar bo'lgan otasini go'riga! – bobom xunob bo'lib hayqirdi. – Bu yil yoz erta keldi, o'roqqa tushmasak bo'lmaydi.

Boyadan beri indamay ketayotgan Kimsan akam birdan jonlanib ketdi.

– Tushaveringlar, dada! U-bu deb zakunchilik qilsa aytinglar, hech kim uyiga ortib ketayotgani yo'q-ku, denglar. Harna vaqtiliq yig'ishtirib olganlaring.

Shu bahona gap gapga ulandi. Hosilni tezroq yig'ib olish, kechki makkani vaqtida ekish... Xullas, gangir-gungur suhbat boshlandi.

Eshak qadamiga qarab, manzilga yetib borgunimizcha kun yoyildi.

Ancha yil ilgari dadam bilan Toshkentga kelganimizda ko'rgan vokzalim g'ira-shira yodimda edi. O'sha g'ishtin bino. O'sha zinalar. Ammo unda odam bunaqa qalin emasdi. Hozir hamma yoq bozorga o'xshab ketibdi. Qop orqalaganlar, chamadon ko'targanlar, yoqasiga belgi taqilgan harbiylar... Odamdan ot-ulov ko'p. Qopqora «emka» mashinalari, «polutorka»lar, ot arava, eshak arava. Hatto og'zidan ko'pigi osilib, pastki jag'ini uyoq-buyoqqa qiyshaytirgancha kavsh qaytarayotgan tuyagacha bor.

Kimsan akam «men hozir» dedi-yu, qizg'ish g'ishtin bino eshigi oldida turgan odamlarni turtib-surtib ichkari sho'ng'idi. Bir soatchadan keyin qaytib chiqdi.

Qop orqalagan bobom, uning ketidan tugunni mahkam ushlagancha men, bilagimga yopishgan oyim. Eng oxirida qaddini g'oz tutgan Oqsoqol «po'sht-po'sht»lab perron tomon yuridik. Kimsan akam bu erda ham «hozir kelaman» degancha uzoq yo'q bo'lib ketdi.

Havo ertalabdan qizib ketgan. Vokzal binosi oldida poyezd to'xtab turibdi. Askarlarni tashiydigan «qizil shalon» shu ekanini tushundim. Taxta vagonlar darvozadek keng eshigini ochib turibdi. Deraza yo'q. O'mida patnisdek tuynuk. Muzika yangraydi, ora-chora «gum-gum», «vosh-vosh» degan tovush eshitiladi. Alla-qayoqdan garmon ovozi quloqqa chalinadi. Uzoqroqda childirma baka-bang qiladi. Kimdir yig'laydi, kimdir kuladi. Kattakon osma soatning millari o'ndan yigirma minut o'tganini ko'rsatib turibdi.

Shundoq soat tagida sochi kalta qirqilgan, labini qizilga bo'yagan rus ayol papiros chekayotgan mo'ylovli kishini qayta-qayta o'padi.

– Sasha, Sashenka, – deydi. Dam-badam sumkchasini ochib ro'molcha chiqaradi, ko'z yoshini artadi.

Erkak negadir kuladi.

– Jdi, – deydi, qizil bo'yoq yuqqan yuzini artib. – Do pobedi!

Bir mahal Kimsan akam halloslab kelib qoldi. Xuddi shu payt «Po-vago-nam!» degan asabiy qichqiriq

yangradi. Yig'i-sig'i, kuy, kulgi – hammasi aralashib ketdi.

Kimsan akam avval oyimni quchoqladi. Qiziq, oyim shundayam yig'lamadi. Faqat entikib nafas olayotganini sezdim.

– Bolam, jon bolam, o'zingni ehtiyot qil... Xo'pmi, jon bolam. Tushunding-a! Olloga topshirdim...

Kimsan akam uning quchog'idan chiqishga urinar, ammo oyim qo'yib yuborgisi kelmas edi.

– Xavotir olmang, oyi! – dedi u shosha-pisha. – Narisi bilan uch oyda kelaman. Mana ko'rarsiz. Girmonni boshini yanchib kelamiz!

– Issiqroq kiyinib yur, bolam! – Oyim Kimsan akamning u yuzidan-bu yuzidan o'parkan tayinladi. – Qopda achchiqtosh bor, tomog'ing og'risa g'arg'ara qilgin, xo'pmi?

Qarasam, Kimsan akam oyimga yuzini tutib beryapti-yu ikki ko'zi menda. Kulmoqchi bo'ladi, ammo lablari ayanchli titraydi. Amallab oyimning quchog'idan chiqishi bilan dadam ikki elkasiga osilib peshonasidan o'pdi.

– Oy borib, omon kel, o'g'lim! – dedi bo'g'iq ovozd.

Yana o'sha asabiy hayqiriq yangradi:

– Po vago-o-o-nam!

Kimsan akam bobom bilan xayrlashayotganida ham ikki ko'zini mendan uzmadi, shu topda Oqsoqolniyam yomon ko'rib ketdim. Kimsan akamni quchoqlab oldi. Hadeganda bo'shata qolmaydi.

Asabiy hayqiriq bu safar tahdidli jarangladi:

– Po vago-o-o-nam!

Kimsan akam nihoyat yonimga keldi. Terlab ketgan, entikib nafas olyapti. Ko'zi kulib turibdi-yu, lablari titraydi.

Besh-olti qadam narida turgan bobom bilan oyim tomonga o'g'rincha qarab oldi-da, qo'lini cho'zdi. Kaf-timni mahkam qisib shivirladi:

– Kutasan-a?

– Kimsan aka... Kimsan aka! – Ko'zimdan tirqirab yosh chiqib ketdi.

Vagonlar shiddatli taraqladi. Bir mahal o'zimga kelsam, Kimsan akam yelkasida qop, bir qo'lida tugun oilan poyezd yonida chopib ketyapti. Vagonlardan birining ochiq eshigidan besh-olti qo'l baravar cho'zilib Kimsan akamni qop-mopi bilan ichkariga tortib oldi.

Hammayoq qiy-chuv bo'lib ketdi.

– Xudoga topshirdim, bolam!

– Tezroq keling, dadasi.

– Xayr, adajon!

– Begim, xat yozing, begim!

– Tug'sam otini nima qo'yay?

– Xudo panohida asrasin, o'g'lim! Boshing toshdan bo'lsin!

Bu – bobomning xitobi ekanini keyin payqadim. Nihoyat oxirgi vagon ham taraq-turuq qilib o'tib ketdi. So'nggi vagon, shapka kiygan, nayzali miltiq ko'targan harbiy kishi... Olislab borayotgan parovoz nola chek-kandek cho'zib gudok chaldi. Yig'i-sig'i bir avjiga chiq-di-yu, keyin sukunat cho'kdi.

Muzika tindi. Childirmaning baka-bangi o'chdi. Garmon ham nola chekmay qo'ydi. Qizigan temir isi, mashina moyining hidi gupillab ketdi. Qarasam soat tagida turgan boyagi rus xotin temir simyog'ochga behol suyangancha hiqillab yig'layapti.

– Sasha! Sashenka!

– Suv! Suv opke!

Bobomning xavotirli xitobidan seskanib tushdim. Oyim shundoq yerga o'tirib qolgan, rangi quv o'chib, ro'moli yelkasiga sirg'alib tushgan, ko'zi yumuq edi. Ikki chakkasidagi sochi oqarib ketganini endi sezdim. Nahotki, bir kechada?..

Bobom oyimning bilagidan tutganча nuqul bir gapni qaytarib, yalinar edi:

– Ko'zingni och, onasi, ko'zingni och...

Oqsoqol belbog'ini shosha-pisha yechib, oyimni yelpishga tushdi. Menga qarab o'shqirdi:

– Suv obkelsang-chi, Robiya!

Duch kelgan tomonga yugurdim. G'adir-budur g'isht qoplangan maydondan o'tib borarkanman, qoqilib o'mbaloq oshib ketdim. Chap tirsagim sirqirab, ko'nglim

behuzur bo'ldi. Ammo sakrab turib yana yugurdim. Ro'paramdan chiqib qolgan qora shapkali odamdan so'radim.

– Suv? Suv bormi?

Shapkali kishi qo'li bilan poyezd ketgan tomonga imo qildi.

Ellik qadamcha narida tumshug'i egik quvurdan sharillab suv oqib yotardi. Hovuchimga suv to'ldirib, orqaga qarab chopdim. Yetib kelgunimcha kaftlarim orasidan oqib, narisi bilan ikki qultum qoldi. Bobom hamon tipirchilar, oyim rangi bo'zday oqargancha ko'zi yumuq, boshini bir tomonga tashlab o'tirar, bobom elkasidan tutib turmasa, gursillab yiqilishi aniq edi.

Hovuchimdagi suvni oyimning yuziga sepdim.

Oyim bir seskandi, ammo ko'zini ochmadi.

– O'g'li-im! – dedi ojiz ingrab. Ko'zlaridan ikki tomchi zahardek achchiq yosh sizib chiqdi-da, ko'karib ketgan yuzidan oqib, labining chetida turib qoldi. Kechadan buyon butun bardoshini to'plab, Kimsan akamning oldida yig'lamagani haqqi ichida ummon bo'lib yotgan alam endi shu ikki tomchiga aylanib toshib chiqqanini his etdim-u yuragim sanchib ketdi.

– Oyijon! – dedim boshiga egilib.

Kimdir yelkamga turti.

O'girilib qarasam, hozirgina simyog'ochga suyanib «Sashenka» deb yig'layotgan xotin. Labining bo'yog'i surkalib ketgan, og'zi qiyshayib qolganga o'xshardi.

– Aksakal... – U bobomni ham nari surdi.

Ildam harakat bilan sumkasini ochdi-da, qandaydir uzunchoq shishacha chiqardi. Po'kagini ochishi bilan dimoqni yorib yuborgudek hid anqib ketdi. Ko'z yoshidan jiqqa ho'l bo'lib ketgan ro'molchasiga boyagi doridan tomizdi. Ro'molcha uchini oyimning burniga tutgan edi, oyim yuzini burishtirib, teskari qaradi. Ko'kimtir yuziga bilinar-bilinmas qon yugurdi.

– Mama ploxa, – dedim bilganimcha o'rischa gapirib. – Mama umer budit.

– Nichego! – Xotin ma'yus jilmaydi. – Ya vrach, pomogu. Prinesi pit.

Xotinning keyingi gapini tushunmadim.

– Suv, suv bar, kizimka? – dedi xotin achchiqlanib.

Oqsoqol o'rischani yaxshi bilishi endi esiga tushgandek tarjima qildi.

– Do'xtir marja suv opke deyapti, nega tushunmaysan? – U qozondek do'ppisini boshidan yechib tutqazdi. – Ma! Yugur.

Do'ppiga suv to'ldirib qaytib kelsam, oyim ko'zini ochgan, qiynalib, nafas olar, bobom bilan Oqsoqol tepasida turishar, o'ris xotin esa go'yo oyim tushundigandek tasalli berar edi:

– Ne goryuy, apa! Tvoy malchik pridet geroem...

Oyim do'ppidagi suvdan ozgina ichib tag'in ingradi.

– Jon bolam, yolg'izim...

– Men borman-ku, oyijon, – dedim yig'idan labim titrab. – Nima, men sizning bolangiz emasmanmi?

O'ris do'xtir o'zbekchani tushunarkan.

– Nu vot, apa! – dedi boshini ma'yus irg'ab. – U tebya i kizimka est. A u menya teper – nikogo.

Gapini yaxshi tushunmasam ham oyimni yupatayotganini angladim.

Ayol sekin-sekin nari ketayotgan edi, Oqsoqol qulluq qildi.

– Ispasiba, marja! Go'st paydo'm.

Ayol mungli kulimsirab qo'ydi.

– Rahmat, – dedi o'zbekchalab, – rahmat, aksakal.

Dimog'imga mashina moyining chuchmal isi, qu-log'imga vagonlarning sharaq-shuruq urilishi, g'ildirak sadolari, parovozning vidolashgandek nolon gudok chalishi mahkam o'rtnashib qoldi.

Keyin ham yoz kechalari oyim bilan ayvonda yotganimda Alvasti ko'prik tomondan g'ildiraklar taraqlagani, parovozning nola qilgandek cho'zib gudok chalishini eshitib qolsam, vokzaldagi o'sha manzara ko'z oldimga kelar, yuragim orziqib-orziqib ketar edi.

* * *

... Mayli, o'shanda-ku, oyimning o'z dardi o'ziga yetib ortardi. Ustiga-ustak Kimsan akam ikkalamiz bir-birimizga ko'ngil qo'yganimizni bilmas edi. Keyin... keyin bildi-ku. Bilib o'ziyam suyundi-ku, axir!

Nimaga endi bunaqa deyapti?! Nimaga meni «qizim» deb chaqiradigan Shomurod tog'amga ravo ko'ryapti? To'g'ri, urush bitganiga besh yildan oshdi. Ammo besh yil nima bo'пти? Kerak bo'lsa o'n yil, yigirma yil kutaman! Umrim boricha kutaman! Mabodo Kimsan akam yo'q bo'lganida ham («o'lgan» deyishga tilim bormaydi) men borman-ku. Bundan chiqdi, Kimsan akam ham bor-da! Nahotki oyim umidini uzgan bo'lsa! Nahotki o'z o'g'liga atagan qizni o'zgaga ravo ko'rsa?!

Oyim ikkalamiz bir-birimizning bag'rimizga kirib o'tirar ekanmiz, shularni o'ylab ezilardim. Allaqayerda haqqush nola qiladi, shamol behi barglarini shitirlatadi. Oyim havo yetishmayotgandek xirillab nafas oladi... Ayvon burchagida Muzaffar yotibdi. Ora-chora ingraydi. Singan qo'li og'riyotgan bo'lsa kerak...

– Jilla qursa shu bolaga rahming kelsa-chi, qizim. – Oyim bo'g'inlari shiqirlab o'midan turdi. Muzaffarning tepasiga borib, kaftini peshonasiga bosdi. – Mengayam oson tutma, jon bolam! Senga yomonlikni ravo ko'rsam, imonimdan judo bo'lay!

Bu gapni shunaqa osoyishta ishonch bilan aytdiki, ichimda bir nima uzilib ketgandek bo'ldi. Avvallari ham shunga o'xshagan ahvolga tushganman. Hov, o'shanda Kimsan akamni kuzatganimizdan keyin ikki oycha o'tib Ochil akadan sovchilar kelganda. Yig'lab-yig'lab Kimsan akamga xat yozganimda... Kimsan akamdan xat kelmay qo'yganida... Umar zakunchi butun uy ichimizni qora yer bilan bitta qilganida... Bobom o'lganida... Urush bitib, uyga yana sovchilar qatnab qolganida... Har gal ichimdagi o'sha ip tarang tortilib, chidab bo'lmas azob berar, o'zimni qo'yishga joy topolmay qolardim. Lekin o'sha ipning borligi yaxshi ekan. Azob bersa ham, jonimni sug'urib olsa ham...

Hozir... ip uzilib ketdi. Uzildi-yu, ajab... og'riq ham sezmadim, alam ham... Vujudim bo'm-bo'sh bo'lib qoldi. Bo'm-bo'sh. Jimjit...

Odam qimmatbaho narsasini yo'qotsa achinadi. Tuhmatga qolsa boshini tog'-toshga uradi. Qadri yerga urilsa, isyon ko'taradi. Yaqin kishilaridan ayrilsa dod soladi... Lekin umidingdan ayrilsang g'alati bo'larkan.

Hech nimaga, hech kimga, hatto o'z qadringga ham
achinmaysan. Dod solmaysan. Isyon ko'tarmaysan...
Go'yo sen o'lgansan. O'zing o'lib, quruq surating
qolgan...

U CH I N C H I Q I S M

To'rtinchi bob

KICHKINTOY MUZAFFAR HIKOYASI

To'y

Qo'lim singani bahona, uch haftacha ammamnikida
qolib ketdim. Avvaliga dadam har kuni kelib turardi.
Keyin to'satdan bittayam kelmay qo'ydi. Dadamni qo'm-
sab yig'lagan edim, ammam yupatdi:

– Shoshma, bolam! Dadangni ishi ko'payib ketdi.
Bitsin, borasan. Robi opang ham boradi.

Dadamning ishi bilan nima ishim bor! Menga dadam
kerak! Nega kelmaydi? Mayli, urishsayam, so'ksayam.
Baribir dadam bilan yotgim kelyapti!

«Qora ammam» har kecha qo'limga sho'rpaxta
bog'laydi. Sho'rpaxta yaxshi-yu, hidini yomon ko'raman.
Tag'in o'zimmikini bog'lasa mayliydi, ammam paxtani
o'zi «ho'llaydi». Dadam o'shandayam kelmadi. Sog'inib
ketdim! O'zim qochib ketay, desam, Alvasti ko'prikdan
qo'rqaman... Robi opam ham o'zgarib qoldi. Avvallari
har kuni qurutmi, pistami olib kelardi, meni o'ynatardi.
Endi o'ynatmay qo'ydi. Hech kim bilan gaplashmaydi.
Ammam yo'g'ida burchak-burchakka borib yig'laydi.

Nihoyat «Qora ammam» uyimga olib bordi. Dadam
ham meni sog'inib qolgan ekan. Ko'rib suyunib ketdi.
Oqsoqlanib kelgancha yerdan dast ko'tarib yuzimdan
o'pdi. Qiziq, dadamdan tamaki emas, ohak hidi kelardi.
Qarasam, uyimiz boshqacha bo'lib ketibdi; devorlar
oqlangan, uyning singan derazasiga yangi ko'z solingan.
Hovli top-toza... Dadamning o'ziyam o'zgarib qopti.
Mo'ylovi tekislangan, ko'zlari yonib turibdi. Yosharib
ketganga o'xshaydi.

Shu kecha dadamning yelkasidagi chandig'ini silab, mo'ylovidan anqib turgan tamaki isini hidlab, maza qilib uxladim.

Ammam biznikiga serqatnov bo'lib qoldi. Bir kun tugun ko'tarib keladi, bir kun savat... Hatto bir marta ikki bukilib, o'zidan katta qopni orqalab kelib qoldi. Dadamga ergashib arpa o'roqqa borganimda chumolilarni tomosha qilishni yaxshi ko'rardim. Bir gal yarimta boshqni sudrab ketayotgan chumolini ko'rganman. Ammamniyam allaqayeri o'sha chumoliga o'xshab ketardi. O'zi mushtday keladi-yu orqasida tanderdek qop. Eshigimiz kichkina emasmi, qop sig'may qoldi. Bostirma soyasida jo'xori uqalab o'tirgan dadam yugurib bormasa ammam bechora eshikka tiqilib tura-vergan bo'lardi. Ikkovlashib qopni tortqilab ichkari olib kirishdi. Paxta ekan.

– Shuncha joydan ko'tarib keldingizmi, opa, nima zaril! – dedi dadam achinib.

Ammam yanayam qorayib, terdan yaltirab ketgan peshonasini ro'molining uchiga artib, tushuntirdi.

– Yangi ko'rpa qavimasa bo'larkanmi? Do'st bor, dushman bor. – U har safargidan qattiqroq harsillar, ichidagi «odamchalar» ovozi boricha hushtak chalar edi.

Ertasidan oftobro'ya ayvonga o'tirib olib, ko'rpa qavishga tushdi. Men bo'lsam hali bitmagan ko'rpa ustida dumalab o'ynadim. Maza! Ammam urishmadi-yu, sal dashnom berdi:

– Tur, baraka topkur, paxtasi yig'ilib qoladi...

Bir oycha turib, Robi opamga o'rganib qolgan ekanman.

– Amma, Robi opam qachon keladila?

– Keladi, girgitton, keladi, – dedi ammam yelkamga qoqib. – Yaqinda butunlay keladi.

– Menga qurut obkeladilami?

– Qurut nima bo'пти, ishkalat obkeladi. Yaxshi ko'rasanmi opangni?

– Judayam.

Ammam juvoldiz tutgan qo'lini muallaq ko'targancha uzoq jimib qoldi. Keyin negadir teskari qarab, ro'molining uchini ko'ziga bosdi...

Yong' oq pishgan kezlari uyimizda to'y bo'ldi. Abduvalining dadasi – «Tuya» sartaresh bostirma panasida qo'y so'yib, oyog'idan olma shoxiga osib qo'ydi. Hovlining o'rtasidan chuqur qazidi. Besh-oltita erkak «ha-bo'l, ha-bo'l» qilgancha eshikdan qiyalatib doshqozon olib kirishdi. Boyagi chuqurga o'rnatishdi. Biz ham yasanib olganmiz. Dadam ataylab Toshkentga tushib, menga yangi kostyum-shim, oyog'imga botinka olib kelgan. Boshimda yap-yangi baxmal do'ppi. Choyxonada meni ko'rib «qadrdon bo'lib qolgan» erkaklar eshikdan kirishi bilan ko'z qisishadi.

– Muborak bo'sin, giroy!

– Iya, poson bo'pketibsiz-ku! Do'ppingizni bizga soting, giroy!

– Ho! Dadangiz obersin!

Qorong'i tushar-tushmas tumonat odam to'plandi. Bashang kiyingan erkaklar, yasan-tusan qilgan xotinlar. Ko'tarmada shuncha ko'p bola borligini bilmagan ekanman. Balki doim dadamga ergashib yurib bolalarga qo'shilmaganim uchun shu kungacha Abduvalidan boshqasini ko'rmagandirman.

Tomorqadagi jo'xorizor ichida bekinmachoq o'ynab yursak, ko'cha tomonda shovqin-suron eshitildi.

– Yur, – dedi Abduvali qo'limdan tutib. – Kuyov kelyapti!

Hech baloga tushunmadim.

– Qanaqa kuyov?

– Voy, bilmaysanmi, dadang xotin olyapti-ku! Kuyov-da!

Pastak eshikdan hovliga chopib kirdik. Qarasam hovli o'rtasida lovillab gulxan yonyapti. Kattakon to'n-kadan charsillab olov sachrayapti. Doshqozon boshida kuymamayotgan sariq xotin – Abduvalining oyisi gulxan atrofida irg'ishlayotgan bolalarga qo'lidagi cho'michni o'q'talib baqiryapti:

– Yonib ketasan, tinmagur taka! Yonib ketasan!

Dadamni tanimay qolibman. Vuy! Shu – o'zimning dadammi? Egnida havorang kostyum, boshida yap-yangi chust do'ppi. Mo'ylovi tekis tarashlangan. Iye, dadamning shuncha ordeni bor ekanmi? Bitta... Ikkita... Uchta...

Dadamning yonida kelayotgan Ilhom choyxonachi qo'ltig'iga qistirib olgan to'n qatini ochdi.

– Kiyib oling, kuyovbola!

Dadam iljayib, qo'lini orqasiga qilib turdi. Beqasam to'nni kiygizishdi-da, yetaklab gulxan yoniga olib kelishdi. Dadam qaddini g'oz tutib boryapti. Cho'loqlanishiyam sezilmaydi. Ko'zi tushib qolarmikin, degan umidda yaqin borgan edim, qandaydir notanish xotin yelkamga turti.

– Qoch, o'ralashma!

Dadamni alanga atrofidan uch marta aylantirishdi. Kimdir eski kursi keltirib gulxan yaqiniga qo'ydi. Yana bir odam do'ppisiga ukpar qadalgan kichkina bolani dadamning tizzasiga o'tqizdi. O'sha zahoti quloqni yorgudek bo'lib childirma baka-banglab ketdi. Ko'ylagining oldini yoqavayron qilib yechgan doirakash bir tomonga kift tashlab g'ayrat bilan childirmani savalay boshladi.

Mehmonlar (deyarli hammasi erkaklar) hovliga to'rtburchak qilib yoyilgan sholcha, bo'yralar ustiga qator-qator bo'lib chordana qurib o'tirishdi. Shundoq yerning o'ziga yoyilgan dasturxonlarga non, nisholda, turshak, jiya, popukqandlar qo'yildi. Ilhom choyxonachi dadamning pinjiga kirib, ayvonga olib chiqdi. Men tanimaydigan yana uch-to'rt kishi dadamning yoniga o'tirib olishdi. O'sha zahoti ayvonga patnislar tashib kelishdi. Patnisda qovurma chuchvara, qatlama bor edi.

Mehmonlarga sho'rva tortilgandan keyin Ilhom choyxonachi o'rta, gulxan yoniga chiqdi. Yuzlari qizarib, cho'tiri ham bilinmay ketibdi.

– Katta ashula! – dedi o'zidan o'zi baqirib. Popukqand solingan likopchani yulqib oldi. Popukqand dasturxonga sochilib ketdi.

U likopchani og'ziga ro'para keltirib chinqiriq ovozda ashula boshlab yubordi:

– Bog' aro-o-o qo'ysam qadam...

Yuza battar qizarib, bo'yin tomirlari o'qlovday bo'rtib chiqdi.

Gulxan shu'lasidan uzoqda, qorong'ida o'tirgan allakim, zavqi toshib ketdi shekilli, ovozi boricha «do'st» tortdi:

– Ha-do‘o‘-o‘st, baraka top! Oydek yuzingdan akang! Sendan boshqa o‘lmasin!

Mazza qilib ashula eshitayotsam, birov yelkamga turti: qarasam, Abduvalining oyisi. Qo‘lida cho‘mich.

– Yur! – dedi imlab. Bostirmaga olib kirdi. Shiftiga shishasi siniq fonus osilgan bostirmada son-sanoqsiz tugun-tersaklar orasida «Qora ammam» o‘tirgan ekan. Negadir o‘pkasi to‘lib yuzimdan o‘pdi. Anchagacha bag‘riga bosib turti.

– Sho‘rva ichdingmi, bolam?

– Qo‘yvoring, – dedim tipirchilab, – ashula eshitaman.

– Qo‘ying, opa, bola o‘ynasin.

Nimqorong‘i burchakda cho‘kkalab o‘tirgancha tugunlarga non, turshak solayotgan, qarg‘ashoyi ko‘ylak kiygan xotinni endi ko‘rdim.

– To‘y degan bolalarniki bo‘ladi. – U biz tomonga yarq etib qaradi-da, ishini davom ettirarkan, qo‘shib qo‘ydi: – O‘ynayver, o‘g‘lim.

Qiziq, qarg‘ashoyi ko‘ylakli xotinning ovozi ham, o‘ziyam dag‘al edi. Lekin negadir oldiga borgim keldi. Nimaga unaqa bo‘lganini bilmayman.

– O‘zidan tinib-tinchib ketsa koshkiydi, Bashoratxon! – dedi «Qora ammam» burchakka qarab. – Bilmadim, savob ish qildimmi, gunohmi. Shu norasta deb... – U birdan dami ichiga tushib, g‘ijillab nafas ola boshladi.

– Ma, bolam, o‘rtoqlaring bilan ye. Kelsang yana beraman! – Ammam tugunlarni apil-tapil titkilab, cho‘ntaklarimni qovurma chuchvara, popukqand, yana allani-malarga to‘ldirib tashladi.

Hovliga otilib chiqdim.

O‘yin-kulgi hamon davom etardi. Childirma taraklaydi. Ilhom choyxonachi likopchani yutib yuborgudek og‘zini katta ochib ashula aytadi. Avjiga chiqqanda nuqul likopchani likillatadi. Isib ketganidan yuzini yelpiyapti, bechora! Dadam ayvonda beqasam ko‘rpachada o‘tiribdi. Oldida bezatilgan patnis. Ikki yonida o‘rtoqlari.

Sopol tovoqqa to'latib sut quyishadi-da, «oling-oling» deb bir-biriga uzatishadi. Hayronman, dadam sutni yomon ko'rardi-ku.

– Sutmas, bo'za! – Abduvali bilag'onlik bilan tushuntirdi. – Odamni mast qiladi!

Bir mahal Ilhom choyxonachi kuchanaverib charchadi shekilli, likopchani yerga tashlab, ko'ylagining yengiga peshonasini artdi.

– Endi navbat o'zimizning Ko'tarmada nom chiqargan artis – «Tuya»ga! – dedi tantana bilan. – Qani, bitta duxovoy orkestr chalib ber, xumpar!

Abduvalining dadasi iljaygancha lapanglab gulxan oldiga bordi. Yo'l-yo'l ko'ylagining yoqa tugmalarini yechdi. O'ng qo'lining kaftiga tufladi-da, chap qo'ltig'iga tiqib, chap qo'lini bir siltagan edi «vort» etgan tovush chiqdi. «Tuya» amaki nihoyatda jiddiy qiyofada terakday gavdasini g'oz tutib hovlidagi odamlarga murojaat qildi:

– Hurmatli mehmonlar! Ukamiz Shomurodjonning bazmida sizlarga zo'r mujdika chalib beraman! Eshitganlar boy bo'lsin! – U chap qo'lini tayoqday osiltirib tag'in siltadi. Yana «vort» etgan ovoz chiqdi. «Tuya» amaki do'rdoq lablaridan tupuk sachratib og'zi bilan jo'r bo'ldi. «Umpo-umpo! Umpo-umpo!» Har gal «umpo-umpo» deganda qo'ltig'i «vort-vort» qiladi. «Mujdika» shunaqa tantanali jaranglaydiki, xuddi idora tepasidagi radiokarnaydek. «Umpo-umpo, vort-vort! Umpo-umpo, vort-vort!»

Birov qornini ushlab, birov boshini changallab xaxo-laydi. Qarasam, dadam ham tizzasiga urib kulyapti.

Nihoyat, «Tuya» amaki «mujdika» chalishdan charchadi. Xalqqa ta'zim qilib, so'lagini arta-artanari ketdi.

Xuddi shu payt kimdir: «Oqsoqol keldilar», deb qoldi. To'yxonaga birdan jimlik cho'kdi. Qarasam, ayvonda – jo'ralari orasida o'tirgan dadam ham sipo bo'lib qopti. Ilhom choyxonachi bo'za quyilayotgan kosani olib, imi-jimida uyga kirib ketdi. Dadam dik etib o'rnidan turdi.

Ko'cha eshikdan kirib kelgan tabib buvani darrov tanidim. Yasanib olibdi: boshidagi qozonnusxa do'p-

pisi yap-yangi. U chetga chiqib, ikki qo'lini ko'ksiga qo'ydi:

– Qadamlariga hasanot, Oqsoqol...

Oq yaktak kiygan Oqsoqol buva qaddini g'oz tutib, ayvon tomon yurdi. «Qora ammam» aytgan Oqsoqol shu! Avval ham ko'rganman: dalaga, obshi qozonga borganimda. Ammo oldiga yaqin borishga uyalganman. Dadam uyoqda tursin, tabib buva ham Oqsoqolni shunchalik izzat qilishadiki, uzoqdan ko'rishi bilan ta'zim qilib turishadi. Hovlining to'rt tarafida chordana qurib o'tirganlar gur etib o'rnidan turdi. Dadam ayvondan ildam tushdi. Oqsoqol buvaning kaftini qo'shqo'llab qisdi.

– Qani, marhamat, – dedi ayvonga imo qilib.

Oqsoqol dadamning yelkasiga qoqdi.

– Qo'shganing bilan qo'sha qari, bolam, – dedi-yu tik turgan odamlarga o'girildi. – Bolalarim... – dedi salmoqlab. Hovli o'rtasidagi to'nka yonib bo'lib yaxlit cho'g'ga aylanib qolgan, Oqsoqol buvaning uzun, quyuq soqoli, qotma yuzi, ko'zlarida qizg'ish nur shu'lalanar edi. – Mana shu xonadondan qut-baraka arimasin. Umid bilan bir yostiqa bosh qo'ygan ikki yosh uvali-juvali bo'lsin... – U bir zum cho'g'ga aylangan to'nkaga jim tikilib qoldi. – Xaloyiq, – dedi yana. – Shu xonadonda yana bir odam bor: bola, norasta! Shomurod shu bolani opichlab katta qilyapti. Iloyo shu yigitchaniyam umri uzoq bo'lsin. Baxti bezavol bo'lsin!

Odamlar baravar fotiha tortishdi. Kimdir qo'ltig'imdand olib dast ko'tardi. Bir zumda o'zimni Olimjon akamning yelkasida ko'rdim. U poson kiyingan, boshida ixcham ayvonli shapka bor edi.

– Qalaysan? – dedi shivirlab.

Iljaydim.

– Yaxshi!

Oqsoqol buvaning gapi hali tugamagan ekan.

– Bilasizlar... – dedi u cho'g'dan ko'z uzmay. – Shomurodning opasini taniysizlar. Shu mushtipar xotinning umri boqiy bo'lsin. Kimsanjon eson-omon kelsin, yaxshi to'ylar qilib, Dumaning ruhini shod etaylik.

Odamlar «Omi-i-n» deb guvilladi.

– Ammang yaxshilar-a? – dedi Olimjon aka hamon yelkasida ko‘tarib turarkan jilmayib.

– «Qora ammam»mi?

Olimjon akam kulib yubordi.

– Ertaga-chi, kelin kelganda sochqi sochishadi. Senam tergin, xo‘pmi?..

... Bu safar Abduvalining oyisi sho‘rva emas, moxora pishirdi. Erkaklardan ko‘ra xotinlar ko‘proq yig‘ildi.

Abduvali sochqi sochiladigan paytni yaxshi bilarkan. Ko‘chadan surnay tovushi kelishi bilan baqirdi:

– Chop!

Eshikka yopirilgan xotinlar orasidan «kalla» qilib o‘tib, tashqari chiqdim. Ancha narida, qorong‘i ko‘chada arava kelyapti. Abduvaliga ergashib, yugurib bordim. Qo‘qon arava ustida besh-olti xotin o‘tiribdi. Nimqorong‘ida qo‘qon aravada o‘tirgan Olimjon akamni payqab o‘sha tomonga chopmoqchi edim, Abduvali qo‘limdan tortdi.

– Unisigamas, aptakashkaga osilamiz!

Nariroqda yana bitta arava kelayotgan ekan. Qo‘shaloq otli «aptakashka». Bunisida xotinlar ko‘p. Bolalar qiy-chuv qilib «aptashka» orqasiga osildik. Otlar pishqirdi, g‘ildiraklar taraqlab, chang-to‘zon ko‘tarildi. Childirma kechagidan ham balandroq baka-banglab ketdi. Surnay cho‘zib nag‘ma qildi. Aravani to‘ldirib o‘tirgan xotinlar yor-yor aytishdi:

Tog‘da toychoq kishnaydi, ot bo‘ldim deb, yor-yor.

Uyda kelin yig‘laydi, yot bo‘ldim deb, yor-yor.

Yig‘lama qiz, yig‘lama, to‘y seniki, yor-yor.

Ostonasi tillodan uy seniki, yor-yor.

Hovlimizga yaqin qolganda besh-olti xotin oldinda borayotgan qo‘qon aravaga peshvoz chiqdi. Ikkinchi arava ham to‘xtadi. Xotinlar bir nimani gaplashishdi. Parcha xolaning do‘rillagan ovozi qulog‘imga chalingi.

– Ho-o! Qudaposhsha! Gulday qizimizning bahosi shu bo‘ldimi? Cho‘zing-da mundoq beli sinmaganidan!

Childirma battar avjiga chiqdi. Surnay entikib-entikib nola qildi. Kelinni aravadan tushirishgan zahoti

hammayoq do'pir-do'pir bo'lib ketdi. Bir to'da xotin palakning to'rt burchidan ushlagancha kelinning boshi ustida tutib hovlimiz tomon yurdi. Biri ingichka, biri yo'g'on ovozda tag'in yor-yor aytishdi:

*Dukur-dukur ot keldi-yu, ot keldi,
Chiqib qarang, kim keldi-yo, kim keldi?
Sallasi katta yor keldi-yo, yor keldi,
Shop mo'ylovli er keldi-yu, er keldi...*

Xotinlar qiyqirib kuldi. O'rtaroqda ketayotgan Parcha xola yana do'rilladi:

– Koshkiydi-ya, mangayam sallasi kotta erdan ato qilsa!

Kelinlar to'dasi yor-yor aytgancha eshikka yaqinlashdi. Hovlidagi fonuslarning nuri g'ira-shira yoritib turgan eshik oldida «Qora ammam»ni ko'rib qoldim. Qo'lida bog'ichi yechilgan qiyiqcha. Boshidan ro'moli sirg'alib yelkasiga tushgan. Negadir titraydi. Oppoq sochlari uchidagi so'lkavoy cho'lpilarining jiringlashi childirma shovqini, surnay ovozida eshitilmasa ham bir-biriga urilib ketayotganini sezdim.

Boshiga palak yopingan kelin yaqin kelishi bilan ammam to'da ustiga sochqi sochdi. Popukqandlar yerga tushib sakrab ketdi. Tanga-chaqalar jiringladi. O'zimni yerga otdim. Mahsi kiygan semiz-oriq oyoqlar orasidan emaklab o'tib, popukqandlar, tangalarga yopishdim. Bitta oq tanga yaltiroq amirkon mahsi-kavush kiygan xotinning oyog'i orasiga kirib ketganini aniq ko'rdim. Aksiga olib yaltiroq kavush tangani bosdi-yu, to'xtadi-qoldi. Alam ustida oyog'iga tushirmoqchi bo'lib turgan edim, yuzimga allanima tegib g'ashimni keltirdi. Boshimni ko'tarib qarasam – soch. Ikki o'rim uzun soch yuzimga tegib turibdi. Muncha uzun! Xuddi Robi opamnika o'xshaydi.

Surnay sho'x-sho'x kuy chaldi. Isiriq hidi keldi. Oyoqlar orasida adashib, dimiqib ketdim. Emaklab bir chekkaga chiqib oldim. Shimimning changini qoqayotganimda yonimga Abduvali chopib keldi.

– Yursang-chi, tortishmachoq ko'ramiz!

Xotinlar kelinni o'rta olgancha boshiga palak tutib, uyga kirib ketishayotgan ekan. Ikkalamiz to'daga qo'shilib ayvonga chiqdik. Tiqilishib uyga kirdik.

Uy ichi yop-yorug'. Shiftga ilingan o'ttizinchi fonusning piligi balandlatib qo'yilgan, tokchalardagi choynak, piyolalar, mis barkashlar yaltiraydi. Taxmonda yangi ko'rpa-to'shaklar, burchakda eskiroq palak osig'liq...

Kelinni o'rab kelgan xotinlar bir burchakka o'tib, poylab turishdi. O'sha zahoti uy ichi xotin-xalajga to'lib ketdi.

– Qani, qudaposhshalar! – Abduvalining oyisi kurash tushadigan polvondek gerdayib o'rta chiqdi. – Kuyov tomon bilan bellashaman deganlar bormi? – U kattakon chorsi qiyiqchaning bir uchidan tutib silkitdi. Besh-olti xotin Abduvalining oyisidan keyin safga tizildi. Xuddi poyezdga o'xshab, bir-birining belidan quchoqlab olishdi.

Kelin tomondan ko'krak burma ko'ylak kiygan gavdali xotin o'rta chiqdi. Abduvalining oyisi tutib turgan qiyiqchaning narigi chetidan ushladi.

– Biz-da, o'sha bellashadigan!

– Manga bering, o'zim epliyman! – Parcha xolaning do'rillagan ovozidan tokchadagi barkashlar zirillab ketgandek bo'ldi. U lapanglab kelib, ko'krak burma ko'ylakli xotinning qo'lidagi qiyiqchaga talpindi. – Siz nari turavuring!

– Voy, Parcha o'lgur! Senga bas kelib bo'ladimi, ho'kizday kuching bor! – Abduvalining oyisi qiyiqchaning berigi burchagidan tortib qo'ltig'i tagiga tiqmoqchi edi, Parcha xola chit ko'ylagining yengini shimarib gurziday bilagini namoyish qilgancha, qiyiqchaga chang soldi. Xotinlar qiy-chuv qilib safga tizilishdi.

Kuyov tarafda Abduvalining oyisi, yana beshta xotin. Kelin tarafda Parcha xola, Oqsoqol buvaning menga kamzul tikib beradigan kelini Potima xola...

– Ovora bo'mayla! – Parcha xola orqasida turgan xotinlarga yelkasi osha qarab, xo'-xo'-lab kuldi, – o'zim bopliyman hammasini!

Rost aytgan ekan. Qiyiqchanning burchagidan ushlab sal tortgan edi, Abduvalining oyisi, uning orqasida turgan beshta xotin xuddi parovoz bir siltanganda taraq-turuq qilib ketgan poyezddek baravar munkib tushdi. Chiranib o'zlarini orqaga tashlashdi.

Ayniqsa, Abduvalining oyisiga jabr bo'ldi. Ikki qo'llab qiyiqchaga yopishgancha, orqadagi xotinlarga dalda berdi:

– Ha, egachilar! Bo'sh kelmanglar!

«Egachilar» ming uringani bilan qani nafi tegsa? Parcha xola qiyiqchani bir qo'llab ushlab turibdi. Tortayotganiyam yo'q. Qop-qora, qalin labini osiltirib nuqul iljayadi.

– Parcha o'lgur! – Abduvalining oyisi astoydil yalindi. – Yon bersang-chi, kuyov tomon degan nomimiz bor.

Parcha xola do'rillab kuldi.

– Kuyovni o'qi o'zganmi? Bizzi kelinni nimasi kam kuyovizdan?

– Yursang-chi! – Abduvali oyisining terlab ketganiga rahmi keldi shekilli, qattiq shivirladi. – Biz ham kuyov tomon-ku!

Chopqillab borib ha-halashayotgan «kuyov tomon»ga qo'shildik. Parcha xola qilt etmaydi.

Oxiri Parcha xolaning orqasida turgan ko'krak burma ko'ylakli xotin bir nima deb qulog'iga pichirlagan edi, Parcha xola insofga keldi.

– Shunaqami, ha, mayli, – dedi-da, qiyiqchani sal bo'shatdi. Bizlar rosa chiranib orqaga tortayotgan ekanmiz, ostin-ustin tog'ora bo'lib namatga dumalab tushdik.

O'sha zahoti xotinlar ikki tomonga tarqalib, yo'l ochishdi. Uy burchagidagi eski palak lopilladi-da, dadam chiqib keldi. Yuzlari qizargan, boshidagi do'ppisi qiyshayibroq qolgan, oq shoyi ko'ylakda, oyog'ida xirom etik. U iljaygan ko'yi, oqsoqlanmaslikka harakat qilib, kelin tomon yurdi. Yaqin kelib, kelinning boshidan paranjisini oldi.

Voy, o'zimning Robi opam-ku! Boya «sochqi» terayotganimda yuzimga tekkan soch rostdanam Robi opamniki ekan-da!

– Robi opa!

Notanish bir xotin qulog‘imni og‘ritib chimchiladi.

– Jim!

Robi opam yarq etib menga qaradi. O‘zgarib ketibdi. Qoshiga o‘sma tortilgan. Ko‘zlari ma‘yus...

Hushimni to‘plab olgunimcha dadam Robi opamni belidan quchoqlab dast ko‘tardi. Robi opamning boshidagi g‘ijim ro‘mol sirg‘alib, yelkasiga tushdi. Ikki o‘rim sochi to‘lg‘onib ketdi. Dadamning oqsoqlanishi endi bilindi. Xotinlardan biri tala-to‘pda oyog‘ini bosdi shekilli, dadam bir chayqaldi-yu, ammo yiqilmadi. Robi opamni ko‘targancha palak orqasiga o‘tib g‘oyib bo‘ldi.

Xotinlar uyning to‘rt tomoniga tizilishib o‘tirdi. Moxora keldi. Abduvali ikkalamiz hovliga tushdik.

Xotinlarning to‘yida yugur-yugur ayniqsa ko‘p bo‘larkan. Hamma o‘zi bilan o‘zi ovora. Birov moxora tashiydi. Birov «to‘qqiz-to‘qqiz»ga qaysi mevadan solish kerakligini surishtiradi. Tala-to‘pda Abduvalini yo‘qotib qo‘ydim. Balki qovurma chuchvaradan umid qilib tavanxonaga kirgandir? Mo‘ralab qarasam, u yerdayam yo‘q. Aksiga olib, «Qora ammam» ham ko‘rinmaydi.

Kalovlanib qozon boshiga bordim. Ayvonga chiqdim. Uyqum kelardi. Kechayam yaxshi uxlamaganman. Qaytib, yana uyga kirdim. Xotinlar to‘rt tomonda tizilishib o‘tirar, har kim o‘ziga tekkan «to‘qqiz-to‘qqiz»ni tugish bilan ovora edi. Biri sevinib iljayadi, biri «voy savil» deb labini buradi...

Ko‘krak burma ko‘ylakli xotin tugun bog‘lashdan to‘xtab, atrofga chimirilib qaradi. Birdan afti burihib ketdi. Bir qo‘li bilan burnini chimchilab, ikkinchi qo‘li bilan yonida o‘tirgan Parcha xolaning gumbazday yelkasiga musht tushirdi.

– E, oting o‘chsin, Parcha! Ichingda it o‘lganmi, nima balo?

Parcha xola yelkalarini silkitib «xo‘-xo‘»lab kuldi.

– Moxora yegandan keyin shunaqa bo‘ladi-de, opa!

– E, moxora yemay nafsingga kuydirgi chiqsin! Bor, hovliga chiq!

Uy o'rtasida garangsib turib qoldim. Shu payt go'shanga ichidan dadamning yo'talgani eshitildi. O'sha tomonga chopdim.

– Dada!

Ko'krak burma ko'ylakli xotin Parcha xolani ham unutib, meni quchoqlab oldi.

– Qayoqqa, Muzaffar? Uyat bo'ladi, o'g'lim!

Nega endi uning o'g'li bo'larkanman, men dadamning o'g'liman! Quchog'idan chiqish uchun yulqinib turganimda allaqayerdan «Qora ammam» paydo bo'ldi.

– Yur, jon bolam, – dedi qulog'imga shivirlab, – chimildiqqa kirib bo'lmaydi, girgitton! O'zing yaxshi bolasan-ku! Yur, qovoq somsa beraman!

– Dadamminam yotaman! – dedim qaysarligim tutib. – Dadamni oldiga boraman!

... Yana uch kun «Qora ammam»ning ichidagi «odamchalar» chalayotgan «hushtak»ni eshitib yotishga majbur bo'ldim. Kelinsalom, challar, balo-battar... Uyimizdan odam arimaydi. Dadam bilan Robi opam kunduzi meni erkalashadi-yu, kechasi oldiga kirgizishmaydi.

Oxiri hammayoq tinchib qoldi. «Qora ammam» ayvonda o'tirib tugunini yig'ishtirdi. Mahsisini kiydi. Robi opamning peshonasidan o'pdi.

– Rahmat, qizim! Yuzimni yorug' qilding, – dedi ovozi titrab. – Qo'sha qarigin, o'zingdan ko'paygin, bolam...

Keyin mening peshonamdan o'pdi.

– Mana, bolam, Robi opang ko'chib keldi. Endi hecham ketmaydi. Robi opangni yaxshi ko'rasan-ku!

Ammamni eshikkacha kuzatib borgan Robi opam ko'zlari qizarib qaytib keldi...

Kechqurun Robi opam shavla qildi. Garmdorini ezib-ezib shavla yeyotgan dadamga erkalik qildim.

– Siz bilan yotaman!

Dadam Robi opamga bir qarab oldi-da, yelkamga qoqdi.

– Xo'p, o'g'lim, men seni achom-achom qilib yotaman.

– Robi opam bilan yotmaysiz, – dedim hiqillab.

Robi opam kuldi.

– Dadangni nima qilaman, Muzaffar, albatta sen bilan yotadilar-da!

Negadir dadamning qoshi chimirildi. Qo‘lini eski sochiqqa artdi-da, cho‘ntagini kavlab, gazeta, tamaki xalta chiqardi.

– Yemaysizmi? – dedi Robi opam. – Toliqib ketgandirsiz.

– Bo‘ldim! – dadam to‘ng‘illab papiros tutatdi.

Baribir aytganimni qildim. Robi opam uyning o‘rtasiga katta o‘rin soldi. Hatto to‘shak ustiga choyshab ham yozdi. Dadamni quchoqlab oldim-u tanish tamaki isini tuyib, yelkasidagi chandig‘ini o‘ynagancha uxlab qoldim.

Ertalab tamaki isi emas, allaqanday atir hidi dimog‘imga urilib, uyg‘onib ketdim. Dadamning yelkasini timirskilasam, qo‘limga soch ilashdi. Qarasam, yonimda Robi opam yotibdi. Men uning sochini changallapman.

– Dada! – alam bilan o‘rnimdan turib cho‘kkalab oldim. Kechasi dadamni quchoqlab yotganim esimda bor. Endi bo‘lsa dadam u chekkada, men bu chekkada, o‘rtada Robi opam yotibdi. Tag‘in menga teskari qarab olgan...

Robi opam darrov o‘rnidan turdi. Shosha-pisha kiynib, tashqariga chiqib ketdi. Dadam meni quchog‘iga olmoqchi edi, arazladim.

– Robi opam sizminan yotmasin! – dedim injiqlik qilib. – Men bilan yotasiz. Men bilan!

Dadam negadir xo‘rsindi.

– O‘g‘lim, Robi opangni Robi opa demagin, uyat bo‘ladi, – dedi bosiqlik bilan. – Hammaning oyisi bo‘lishi kerak. Robi opang – sening oying, bildingmi? Yaxshi bola bo‘lib yurmasang, arazlab ketib qoladi. Keyin nima qilamiz, o‘g‘lim? Oyisiz turish qiyin. Yana mushuk yumdalaydi, daraxtdan yiqilib qo‘ling sinadi... Maylimi?

Dadam choy ichib chiqib ketganidan keyin Robi opam dasturxonni yig‘ishtirarkan, g‘alati gap aytib qoldi:

– Endi seniham to‘y qilamiz, chirmanda chalinadi, bolamast bo‘ladi...

Darrov Abduvalining «dadang xotin olyapti» degani esimga tushdi. Bundan chiqdi, yana dadamminam yotolmas ekanman-da!

– Nima, menam xotin olamanmi? – dedim o‘shshayib.

Robi opam shu qadar qah-qah urib kuldiki, surma tortilgan chiroyli ko‘zlaridan yosh chiqib ketdi.

– Jinnivoy! – dedi kulgidan entikib. – Seniki boshqacha to‘y bo‘ladi.

U bir nima esiga tushgandek taxmon tomonga yurdi.

– Shoshma, Muzaffar! Qani, bisotimizni ko‘raylikchi, sening to‘yingga atalgan nimalar bor ekan?

U, «hozir bir narsa ko‘rsataman» degandek ko‘zini qisib qo‘ydi-da, tuya sandiq ustiga taxlangan ko‘rpachalarni tushira boshladi. Har bir ko‘rpachani kigiz ustiga tashlash uchun egilganda sochi yelkasidan oshib tushadi, uchi yerga tegib ketadi. Xinadan sarg‘aygan barmog‘ini labiga bosib sirli jilmayadi: «Hozir ko‘ramiz».

Nihoyat o‘rinni ag‘darib bo‘lgach, cho‘kkallab o‘tirib, sandiqni ochdi. Qurib sarg‘ayib ketgan besh-oltita yong‘oq bargini bir chekkaga olib qo‘ydi. Keyin har xil latta-puttalar, bir juft kalish chiqdi. Oxiri yap-yangi amirkon etikchani sandiqdan olib uzatdi.

– Mana! – dedi ko‘z-ko‘z qilib. – Qani, kiyib ko‘rchi?

Kigiz ustiga o‘tirib, etikchani kiysam, lop-loyiq keldi. Shunaqa chiroyli! Qo‘njida qizil ipak bilan tikilgan guliya bor!

– Yurib ko‘rchi, oyog‘ingni qismayaptimi?

Yumshoq namat ustida yurib ko‘rgan edim, etikcham bo‘g‘iq g‘irchilladi.

– Voy, Robi opa, g‘archiyam bor ekan! – dedim sevinib.

– Shoshma, hali undanam yaxshi narsalar bor. – Robi opam sandiqni titkilab, beqasam to‘ncha chiqardi.

– Buniyam kiy-chi?

To‘n ham loyiq keldi.

– Mana endi to‘y bolaning o‘zi bo‘lding! – Robi opam o‘tirgan joyida meni quchoqladi.

Mazaxo‘rak bo‘lib qoldim.

– Qarang, yana qarang! – dedim yalinib.

– Hozir-da! – Robi opam jilmayib, tag'in sandiqqa qo'l tiqdi. Burchagiga gul solingan qizil qiyiqcha ilashib chiqdi. Robi opam qiyiqchani tizzasiga yoyib uzoq qarab qoldi. Qiyiqchani sekin-sekin siladi. Avval rangi o'chdi. Keyin lablari pirpiray boshladi. Qiyiqchani yuziga bosdi-yu, yelkalari titrab-titrab, birdan o'zini namat to'shalgan yerga otdi.

– Nochorman! – dedi o'krab. – Sho'rim qursin!

Qaddini rostlab, qiyiqchani bag'riga bosgancha yana muk tushdi.

– Kechiring meni! – dedi qiyiqchani yuziga bosib. – Rozi bo'ling!

Surma aralash ko'z yoshidan qiyiqcha bir zumda qopqora bo'lib ketdi. U qiyiqchani labiga bosgancha bo'g'iq ovozda ayanchli chinqirdi.

– Boshimni qayoqqa olib ketay! – Ikki qo'lini qiyiqcha aralash baland ko'tarib sochini changalladi. – Urush qilmay, uying kuygurlar! Bolang o'lgurlar! – U ilon chaqqan odamdek butun gavdasi bilan betoqat to'lg'onar, sochi to'zg'ib, ko'zlari olayib ketgan edi.

Qo'rqib ketdim. Dadamning: «Yaxshi bola bo'lmasang, Robi opang ketib qoladi», degani esimga tushdi.

– Yig'lamang! – dedim quchoqlab. – Robi opa, yig'lamang, oyi... Mayli, dadamminam yotmayman, sizminan yotaman...

U o'tirgan joyida meni bag'riga bosdi. Ko'z yoshidan jiqqa ho'l bo'lib ketgan yuzini yuzimga bosib, ingradi:

– Bolajon! Sho'rginam qursin, bolajo-o-on!

Beshinchi bob

ROBIYA HIKOYASI

1. Uyda kelin yig'laydi, yot bo'ldim deb, yor-yor...

Odatda, har qanday qiz ham ota-onasining bag'ridan chiqib ketayotganida yig'laydi. Lekin ming yig'lagani bilan yuragining tub-tubini yoritib, ilitib turadigan nur bo'ladi. Yangi hayot, hali o'zi ko'rmagan, ammo orzu

qilgan, bo'yga yetishi bilan g'ira-shira tasavvur qilib yurgan yangi, sehrli olam kelinning ko'z yoshini shirin qilib yuboradi... Meniki unaqa yig'i emas...

Biz chiqqan arava No'g'ayqo'rg'ondan Ko'tarmaga yetguncha qorong'i tushdi. Oyim irim qilib aravani Alvasti ko'prikdan yurgizmadi. Idora tomondan aylanib keldik. Arava ichiga qalin qilib to'shalgan ko'rpachada paranji yopinib o'tiribman. Bir tomonda oyim, bir tomonimda Fotima kelin. Xotinlar to'xtovsiz yor-yor aytadi:

*Tog'da toychoq kishnaydi, ot bo'ldim, deb yor-yor,
Uyda kelin yig'laydi, yot bo'ldim deb, yor-yor...*

Arava peshtaxasiga o'tirib olgan Olimjon baqirib-chaqirib otni niqtaydi. Dam o'tmay, «drrr» deb to'xtatadi. Arqon tortib yo'lni kesib chiqqan yigit-yalanglar shovqin soladi:

– Ko'rmanani tashlab ketmaysizmi, xola?!

Oyim harsillab nafas olgancha qorong'ida tugunchani titkilaydi.

– Ko'rmana sendan aylansin, bolam! – deb biriga chorsi, biriga odmi do'ppi ulashadi. Arava g'iyqillab yana yo'lga tushadi. Orqada kelayotgan «aptakashka»dagi xotinlar avjiga chiqadi:

*Osmonda yulduz ko'rdim: Oltin Qoziq, yor-yor.
Tushayotgan kelinning ko'ngli nozik, yor-yor.*

Ikki bukilib o'tirgan ko'yi unsiz yig'layman. Oyim yelkamdan quchoqlab nafasi g'ijillagancha qulog'imga shivirlaydi:

– Aqalli shu bugun chiroyingni ochib o'tirgin, jon bolam. Kuydirmagin meni...

Arava burchagida supadek joyni egallab o'tirgan Parcha opa do'rillaydi:

– Qo'yvuring, xola! So'yinganidan yig'lavotti. Hali go'shangaga kirganida ko'rasiz, hiringlab bezor qiladi. – U o'z gapi o'ziga nash'a qilib, he-helab kula-di. – Mangayam er topsayiz-chi, xola!

Qulog'imda nuqul bir xil ohang jaranglaydi:

«Uyda kelin yig'laydi, yot bo'ldim deb, yor-yor...»

Chindan ham yot bo'ldim! Kimsan akamga, orzu-umidlarimga, o'zimga! Qiziq, o'zimga o'zim yotman endi... Aravada chayqalib-chayqalib ovoz chiqarmay yig'lab boryapman-u, xayolimga g'alati o'ylar keladi. Shu xonadonga – Kimsan akamlarning uyiga kelgan kunlarimiz, oshxonaga kirsam, bir tovoq shakar turibdi. Qahatchilik yillari emasmi, ko'rib o'zimni tutib turolmadim. Kaftimga siqqancha olib, og'zimga sol-dim-u alamimdan yig'lab yubordim. Shakar deb o'ylaganim – tuz ekan. Unda-ku, bola edim: tuz bilan shakarni ajratolmasdim. Endi-chi! Hovuchimni to'latib tuz eyishim kerak-da, shakar shimgan odamdek iljayib turishim kerak. Nega? Nima uchun?! Inson bolasiga bundan ortiq jazo bormi?

...Xotinlar tortishmachoq qilayotganda, Muzaffarga ko'zim tushib qoldi. Uyam meni ko'rib: «Robi opa!» deb baqirib yubordi. Karaxt bo'lib turgan odam bir seskanib tushdim. Shu bola endi mening o'g'lim. Alla aytmasdan, beshik tebratmasdan turib besh yashar bolaga ona bo'lib qoldim. Ajab, Muzaffarning ovozida ham hayrat, ham quvonch bor edi. Nimaga shunaqa bo'lganini bilmayman. Lekin ko'nglimda avval o'zim sezmagani mehrmi, iliqlikmi uyg'ondi.

...Hozir ham shu bolani sevintirmoqchi edim. Oyim Muzaffarga qilgan sarpolarni ko'rsatib, bolaning quvonishini tomosha qilsam, o'zimning ham ko'nglim yorisharmikin, degandim... Qayoqdan bilay! Qo'limga qiyiqcha ilashib chiqishini tush ko'ribmanmi? Axir bu – Kimsan akamga atab tikkan gullarim-ku! Axir bu qiyiqchalar Shomurod akaga emas, Kimsan akamga nasib qilishi kerak edi-ku! O'sha kuni qiyomat-qoyim bo'lib ketgan vokzalda xayrlasha turib: «Kutasan-a, menga qiyiqcha tikib qo'yasan-a», degan edi-ku! Kimsan akamga bergan va'damni nahot unutsam! Ana o'sha qiyiqchalar! Yarim sandiq! Hammasining chetiga «K», «R» degan harf bosilgan. Atirgulning rasmi solingan. Faqat bu gullarning egasi yo'q endi. Egasi boshqa...

2. Suymaganga suykalma!

Bo'yi yetgan qizning orzusi osmondagi yulduzga o'xshaydi. Uzoqdan yaraqlab ko'rinadi-yu, na yetasan, na tutasan. Yulduz esa olisda sirli-sirli miltirab turaveradi. Talpinasan, hech kimga bildirmay xayol surasan. Yulduzing yoningga tushishini orziqib kutasan. Kim bilsin, «yulduzi yulduziga to'g'ri kepti», degan gap balki shundan chiqqandir. Mening yulduzim – Kimsan akam edi. U oldimga keldi. Kaftimga qo'ndi. Rashid abzining mo'rchasidan Fotima-Zuhra kelin bilan qaytayotganimizda, Kimsan akam Ochil akani urmoqchi bo'lganida, Shomurod tog'amning (endi mening erim bo'lib qolgan Shomurod akaning) nikoh to'yi kuni ikkalamiz Toshkentga tomoshaga borganimizda... yulduzim yonimda edi. Qo'limdan yulib olishdi. To'satdan, hech kimdan so'ramasdan...

... Urush boshlanganiga ancha bo'lib qolganiga qaramay turmush uncha o'zgarmagan edi. Faqat tuz bilan sovun kamayib qoldi. Nonni kartochka bilan oladigan qilib qo'yishdi. Pochtaxonaga chiqsam, non do'koni oldida turnaqator navbat kutib turgan odamlarni ko'rib yuragim eziladi...

Urushgacha mo'rchasidan bo'lak hech vaqosi bilan tanilmagan Rashid abzi to'satdan eng mashhur odamga aylanib qoldi. Yog'och oyog'ini dikillatib kelayotgan Abzini odamlar orziqib kutadigan, uzoqdan ko'rinishi bilan oldiga chopib boradigan bo'lishdi. Kunora yo oyim, yo men Abzining kelishiga sabr qilmay, pochtaxonaga yuguramiz.

Dalada ish ko'payib ketdi. Bug'doyni o'rib bo'ldigu ketidan karam uzishga tushdik. Bobom bilan Oqsoqol tong qorong'isida eshak aravaga o'tirib jo'nab qolishadi. Fotima-Zuhra kelinlarga qo'shilib men ham dalaga chopaman. Fotima kelin tushlikkacha amallab chidaydi, biroq kun og'ishi bilan betoqat bo'la boshlaydi:

– Ko'kragim yorilib ketay deyapti, Zo'ra! Bolam yig'layapti, Tohirim och qoldi.

– E, jinnimisan! – Zuhra kelin opasini yupatadi. – Ja vahmaning uyasidan-da! Oyim borlar-ku!

Fotima kelin yig'lamoqdan beri bo'lib hasrat qiladi:

– Shunaqayam ota bo'ladimi, Robiyaxon! Ikki o'g'lini o'z qo'li bilan urushga jo'natib kelsa-ya!

Fotima kelin noliganicha bor. Kimsan akamni kuzatganimizdan keyin ikki hafta o'tmay Xolposh xola oyimning oldiga yig'lab chiqib qoldi.

– O'rgilay, ovsinjon! Cholim o'lgur yomon ish qildi. Shokirim bilan Zokirim urushga ketamiz, degan ekan, hovliqma deb yo'lga solish o'rniga o'zi yetaklab voyenkomatga oboribdi. Hech kimga aytmay jo'natib keldi. Bolalarim bilan rozi-rizolik ham tilasholmay qoldim, ovsinjon!

Oyim uni yupatishga urindi:

– Nafasingizni issiq qiling, aylanay. Yurtga kelgan to'y. Mana, Kimsanim ham ketdi-ku! O'tiribman yaratganga topshirib...

– Sizniki izzat-ikrom bilan ketdi. Bir kun bo'lsayam diydoriga to'yib qoldingiz. Mening cholim aqalli xayrlashganiyam qo'ymadi! «Yov quvdimi, muncha hovliqdingiz», desam, «men belida belbog'i bor o'g'il o'stirganman!» deb keriladi.

... Chamasi, Fotima kelin ham erining to'satdan urushga jo'naganiga chidolmaydi. Zuhra kelin opasini yupatadi:

– Noshukurchilik qilma, Poti. Xat keldi-ku! Ikkalovi sog'-salomat ekan. Tank haydashni o'rganyapmiz, deb yozibdi-ku!

– Senga nima? – Fotima kelin singlisiga adovat bilan o'qrayadi. – Ikki orada menga jabr bo'ldi...

Sezaman. Fotima kelin, «seni orqa etagingda og'ir-linging yo'q, bola tug'ib azobini tortmagansan, meniki ikkita...» demoqchi bo'ladi. Zuhra kelin ham opasining ta'nasini tushunadi. Yupqa lablari titrab nari ketadi. Baribir Zuhra kelin rost aytyapti. Bular noshukurchilik qilmasa bo'ladi. Shokir aka bilan Zokir aka bir joyga tushibdi. Joni sog' ekan. Kimsan akamdan bo'lsa na xat bor, na xabar.

O'sha kuni ham odatdagidek yarim kechada uyga qaytdim. Molxonada sigir mo'rar, xira chiroq lipillab

turgan oshxonada ivirsib yurgan oyimning qorasi ko'zga chalinardi.

Hovliga kirganimni qandaydir ichki sezgi bilan his qildi. Yettinchi lampani ko'tarib zipillab ayvonga chiqdi. Qo'lida tutib kelayotgan chiroq yog'dusida yuzi mamnun yorishib ketganini, nuqul kulimsirayotganini ko'rdim-u chopib oldiga bordim.

– Keldimi? – dedim yuragim o'ynab.

– Suyunchi bersang aytaman! – Oyim lampani xontaxtaga qo'ydi-da, «suyunchi»ni ham unutib, tokcha oldiga bordi. Uchburchak xatni qo'linga tutqazdi. – Abzi obkeldi. Umridan baraka topsin! O'qi, qizim, ovozingni chiqarib o'qi!

Xatni yulqib oldim. Qo'llarim titrar, qalamda yozilgan so'zlar chiroq shu'lasida sakrab-sakrab ketayotganga o'xshar edi.

«Ushbu maktubim tezda yetib ma'lum bo'lsinkim, go'zal Toshkentning No'g'ayqo'rg'on qishlog'ida o'ynab-kulib yurgan dadamga, oyimga, Robiyaga («Robiyaga» degan so'zning tagiga chizib qo'yilganini ko'rib yuragim gupillab ketdi), Kimsaningizdan sog'inchli salom. Men sog'-salomatman. Chimkent yaqinida mashq qilyapmiz. Qachon frontga ketishimiz ma'lum emas. Yana xat yozaman...»

– Bo'ldimi? – dedi oyim ko'zimga qarab.

– Shu...

– To'g'ri... – oyim bosh silkib tasdiqladi. – Abzi o'qiganidayam shunaqa edi. Adresi bor ekanmi?

Xatning orqasiga qarasam, «Polevaya pochta» deb nomerini yozibdi.

– Xat yoz, darrov yoz! – Oyim tipirchilab qoldi. – Shoshma, oldin qorningni to'yg'azib ol... Shukur, bolaginamning joni sog' ekan.

... Chiroqni uyga olib kirib, endi xat yozishga o'tirgan edim, molxonada tag'in sigir mo'radi. O'sha tomondan oyimning kuyunchaklik bilan javragani eshitildi:

– Sutini tortib qo'ydi. Kuyukkanga o'xshaydi joni-vor! Bobong tushmagur ham dumini tutqazmaydi. Dalada yotib qolishga balo bormi?.. Buyoqda o'zimning mazam yo'q. Ikki oyog'imning qaqshab og'riganiga

chidolmayman. Komil tabibdan bo'rsiq yog'i olib sursammikin...

Qiziq, shu paytgacha oyimning oyog'i hech og'rimagandi-ku... Komil tabibning nomini eshitishim bilan ko'zoynagini yaltiratib qorong'ida qo'limga xat tutqazgan Ochilboy xayolimga keldi. Butun No'g'ayqo'rg'on huvillab qoldi-yu, bu olifta yuribdi ko'zoynagini taqib. Hech bo'lmasa dalaga chiqsa o'ladimi? Jimitdek ukasi Olimjon ertadan kechgacha tinim bilmaydi. Kattalar bilan baravar ishlaydi...

Zum o'tmay eshikdan oyim mo'raladi.

– Yozyapsanmi?! Yozgin, urushga kirmaganingiz yaxshi bo'пти degin. Hammamiz duoyi-joningizni qilib yuribmiz, siz mashq qilib bo'lguncha urush ham bitib qolarmish degin. Hali tog'amni chaqirishgani yo'q. Zohid qora o'g'lini uylantirdi, kelin shaharlik ekan, Chaqichmon mahallasidan ekan, deb yozgin, xo'pmi? Bitta qo'chqorni boqib yotibmiz, siz kelishingizga oyog'ingizning tagiga so'ymoqchimiz, deyish esingdan chiqmasin.

Oyim bidir-bidir qilib, hamma gapni bir yo'la aytdi-da, yana hovliga tushib ketdi.

«Ushbu xatim...» deb endi yoza boshlagan edim ko'cha tomondan eshak hangradi. Bobomning «ishsh» degan ovozi keldi. Oyim molxonada turib baqirdi:

– Suyunchi bering, dadasi, xat keldi! Umriginasidan baraka topkur Abzi o'z qo'li bilan obkeb berdi.

– Iye, qani, Robi, o'qi! – dedi bobom qorong'i ayvonga turtinib chiqarkan.

Xatim yana chala qoldi.

Bir qo'limda chiroq, bir qo'limda uchburchak xatni ko'tarib, ayvonga chiqishga majbur bo'ldim. Kimsan akamning xatini o'qib bo'lgunimcha bobom dasturxondagi ovqatga qo'l urmadi. Hammasini eshitganidan keyin ro'paramda o'tirgan oyimga yuzlandi.

– Aytmovdimmi! Avval o'qitadi. Pashistni yer tishlatish yo'lini o'rgatadi. Kimsan qayoqqa tashlasa, olchisi bilan tushadigan bola! Ko'rasan. Bir oy-ikki oy o'tsin, «Kimsan Husanov giroy bo'ldi», degan xabar keladi. Bugun Zakunchi aytdi: dobrovollar tez giroy bo'larkan.

– Giroy bo'lmasayam go'rga! Tezroq kelsa bo'l-gani, – dedi oyim orzumandlik bilan.

Bobom: «E, sen nimani tushunarding», degandek qo'l siltadi. Shoshilmay sho'rva icharkan, menga qaradi.

– Chiroq kerakmas! Obkirib xatingni yozavur.

Qaytib uyga kirdim. Bobomning: «Yaratgan ne'ma-tingga shukr», deb kekirgani eshitildi.

– Ertadan Ko'tarmaga boramiz. Sabzi kavlaymiz.

Keyin oyim ikkovlari negadir ovozi pasaytirib, pichir-pichir qila boshladi. Avvaliga xat yozish bilan andarmon bo'lib, parvo qilmadim-u, bobomning: «Hovliqma, pakana, bu umr savdosi», degani qulog'imga chalinib, sergak tortdim.

– Nima qipti, gulday yigit. – Bu oyimning ovozi edi. – Ular ham to'y ko'rib qolsak, deydi-da! Unchamuncha odammas, ma'lim bo'ladi-ya!

– Baribir xotinsan-da! – Bobom jahli chiqib ketdi shekilli, ovozi baralla qo'yib, chiyilladi. – Xotin kishi-ning sochi uzun, aqli qisqa bo'ladi. Seni bo'ying ham, soching ham, aqling ham kalta! Xo'sh, ma'lim bo'lsa nima qipti! Shoxi bormi? Qizingni oldidan o'tdingmi?

Oyim ovozi pasaytirib bir nima dedi. To'satdan ko'nglinga g'ulg'ula tushdi. Xatni chala tashlab, chiroq ko'targancha ayvonga chiqdim.

– Voy, yozib bo'ldingmi? – dedi oyim xijolatimiz jilmayib. – Baraka top, qizim, bitta choy damlab kel.

Chiroqni xontaxtaga qo'yib, oshxonaga ketdim. Sovib qolgan samovarga tarasha tashlab qaynatgunimcha ancha vaqt o'tdi. Choynak ko'tarib kelsam, chol-kampir haliyam bir nimaning maslahatini qilishyapti.

– Barakalla, qizim! – dedi bobom uzatgan piyolamni olib. – Iloyo baxting ochilsin!

Ikkovlari bir-biriga zimdan qarab olishdi. Tashqarida eshak hangradi, molxonada sigir mo'radi...

Oyim bemavrid iljaydi.

– Bobojonisi, anavi... tabibning o'g'li bor-ku, hah oti nimaydi-ya? Ochilboy! Onasi bechora deng, eshigimiz-ning turmini buzyapti. Olti marta tugun ko'tarib kelsa-ya! Qizim hali yosh, to'yga tayyorgarligimiz yo'q, desam

qo'ymaydi. Zamon qalqib turibdi, to'y ko'rib qolganimiz g'animat, deydi.

Oyimning og'ziga qarab angrayib qoldim.

– Nimaga tayyorgarligimiz bo'lmas ekan. Bitta-yu bitta qizimizdan, molimiz emas, jonimizniyam ayamaymiz. Taqdir qo'shgan bo'lsa. – Bobom ko'z qiri bilan menga qaradi. – Albatta, Kimsan akasi bo'lganda-ku, to'yga o'zi bosh bo'lardi-ya!

Kimsan akamning nomini eshitishim bilan seskanib tushdim. Sakrab o'rnimdan turdim. Choynak xontaxtaga ag'anab, oyog'imga to'kildi. Tizzam jazillab achishdi. O'qdek uchib, qorong'i uyga kirdim-u o'zimni yerga otdim. O'sha zahoti boshimda oyim paydo bo'ldi.

– Voy o'lmasam! Voy sho'rim, – dedi titrab. – Yomon kuydingmi? Qani, ko'rsat!

Namatni mushtlagancha chinqirib yubordim.

– Kerakmas! Kerakmas! Keting.

Oyim yuzlarimni silab, boshimni tizzasiga oldi.

– Yomon kuydimi? Qayoqda turgan ekan bu palakat!

– Kerakmas, – dedim yana. – Boshimga uramanmi?

Oyim esankirab qoldi.

– Unaqa dema, qizim, – dedi yolvorib. – Nima qilay, bolam! Qiz bola borki bir kunmas bir kun boshiga shu savdo tushadi-da! Onang bo'lganimdan keyin baxtingni o'ylayman-da, jon bolam.

Oxirgi gapi hukmnomadek eshitildi-yu, yulqinib quchog'idan chiqdim.

– Boqqaningizni ta'na qilyapsizmi? – dedim chaqchayib. – Bo'pti, ketaman! Ketaman, uyingizdan!

Oyim hayron bo'lgandek ko'zimga uzoq termilib qoldi. Qorong'ida chuqur xo'rsindi.

– Bolam, – dedi bosh chayqab. – Bu dunyoga kelib topgan baxtim Kimsan bilan sen-ku! Menam to'yingni ko'rsam deymen...

Tag'in gapiradi-ya! Kaftlarim bilan yuzimni to'sib oldim.

– Qoching! – dedim chinqirib. – Ko'rgani ko'zim yo'q, o'shani!

Eshikdan bobomning asabiy tovushi keldi:

– Padaringga ming la'nat sendaqa pakanani! Nima qilasan bolani qiynab!

Oyim meni qaytadan quchoqladi.

– Voy, man oyoq-qo'ldan bog'layotganim yo'q-ku, bobosi!

– E, o'! – bobom yana o'shqirdi. – Otang Orif-xo'jaboyning o'g'liga unashaman deganida o'laman sattor tegmayman deb yig'laganing esingdan chiqdimi? Tomorqaning tuynugidan emaklab chiqib bo'yninga osilib yalingan kim edi?

– Voy o'lay, men nima qildim? – dedi oyim yig'lam-sirab. – Yo'q desang satqai sar!

– Komilni javobini berib yubor! – Bobom «gap shu» degandek keskin burilib, eshikdan nari ketdi.

... Anchadan keyin hammayoq tinchib qoldi. Faqat molxonada sigir mo'raydi. Xontaxtada turgan chiroq atrofida parvona unsiz charx uradi. Deraza oldiga keldim. Osmonda kemtik oy muallaq osilib turar, xira nur sochar edi. Bilmayman, negadir shu topda Kimsan akam ham yarimta oyga termilib, meni o'ylayotgandek bo'lib ketdi. Xuddi oy – siniq toshoyna-yu, bir tomonda u, bir tomonda men ko'zguga qarab bir-birimizga termilib turibmiz.

Kimsan akam nimaga unaqa qildi? Nimaga oyimga aytmadi? Robiyaga ko'nglim bor desa shuncha gap-so'z yo'q edi... Qaytaga oyimniyam xafa qilib qo'ydim...

Yozaman, hammasini yozaman! Ochil aka sovchi yuborganiniyam, bobom oyimni so'kib berganiniyam...

3. «Yaxshi ko'rish – ayb emas!»

Kuz erta tushdi. Kartoshka kavlash yomg'irga qolib ketdi. Ehtimol kuz ham, yog'ingarchilik ham vaqtida boshlangandir-u, kolxozda erkak zoti qolmagani uchun o'zimiz ishni cho'zib yuborgandirmiz.

Uch kundan beri tinimsiz yomg'ir yog'adi. Dala botqoqqa aylanib ketgan. Paykalga kirsangiz, etikka loy chippa yopishib, oyog'ingiz bilan qo'shib sug'urib olaman, deydi. Bobom ishning ko'zini biladi. Xuddi sariyog' kesgandek, ketmonni avaylab tashlaydi. Bit-tayam kartoshkaga shikast yetkazmaydi. Kartoshkani

kavlash bir hissa azob bo'lsa, terish o'n chandon azob. Palakni tortsangiz kartoshka bilan qo'shilib bir botmon loy chiqadi. Xayriyat, hosil mo'l. Ammo loydan kartoshkani ajratib olguncha qo'lingiz akashak bo'lib qoladi. Paxtalik yoqasidan yomg'ir ichingizga sizib tushib, g'ashingizni keltiradi. Terlab ketasiz. Paxtalikni yechsangiz – sovuq, kiysangiz – issiq...

Kechga yaqin paykal boshida Umar zakunchining jiyroni ko'rindi. Odamlar darrov yerga egildi. Burnidan bug' chiqib turgan ot sho'lt-sho'lt loy bosib, yaqin keldi. Jiyron etagiga gard yuqtirmaslikka uringan tannozlardek nuqul dumini gajak qiladi. Aksiga olib har qadam bosganida dumiga loy sachraydi. Zakunchi ertalabdan beri choptirib yurgan shekilli, jiyronning chovlari oppoq ko'pirib ketgan. Avvalgidek gijinglamaydi. Zakunchining o'zi ham burnidan tortsa yiqilgudek alpozda, ko'zlari kirtaygan. Boshidagi chaqmoq telpak ho'l bo'lib, mushukning terisiga o'xshab qolgan...

– Hormanglar-ov! – dedi u otning jilovini tortib. Ot og'zi ko'pirib, pishqirdi. Loyga botgan oyoqlarini horg'in depsidi.

Xotin-xalaj chekka-chekkadan «salomat» deb ishini davom ettiraverdi.

– Bo'sh kelmanglar, azamatlar! Ko'rib turasizlar, bizing kartoshka dushman ustiga snaryad bo'lib yog'ildi. – Umar zakunchi ot jilovini siltab, bobom tomonga yurdi. Jiyronning ham, o'zining ham shashti avvalgiday baland emas. Shu bechoragayam qiyin. Xotini bo'lmasa, bola-chaqasi bo'lmasa... To'g'ri, avvallari men ham Zakunchini yomon ko'rardim. Odam o'zi qo'rqqan kishisini hech qachon yaxshi ko'rolmaydi. Qo'rqdingmi – ishonmaysan. Ishonmadingmi, yomon ko'rasan.

Urush boshlanganidan beri Umar zakunchi o'zgarib qolgan. To'g'ri, haliyam tong bo'zarmasdan eshikni qamchi dastasi bilan taqillatib keladi. Ammo endi «...nahs bosib yotibsan» demaydi. «O'rtoqlar, urush ketyapti axir», deb tushuntiradi. Qiziq, bitta gapni ikki xil qilib aytsa, ta'siri ikki xil bo'larkan. Hozir odamlar Zakunchiga ancha ko'nikib qolishdi. Bo'lmasa rais zug'um o'tkazib yurgan kezlari ne-ne g'iybatlar

tarqamagan edi. «Zakunchi prokuror ekan, pora olib qamalay deb turganida qishloqqa qochib kepti», «Xotini qiz chiqmagani uchun alamidan Qo'qondagi hovli-joyini tashlab kelgan ekan».

Yo'q! Orif oqsoqolning gapi to'g'ri chiqdi. Zakunchi ishning ko'zini bilarkan. Keyingi uch-to'rt oy ichida juda o'zgarib ketdi: odamlarga ancha mehribon bo'lib qoldi.

Hozir ham hech kimga dag'dag'a qilmadi. Bobomning oldiga borib jiyrondan sakrab tushdi. Xirom etigi loyga botib ketdi.

– Hormang, Husan aka! – dedi qamchi tasmasini bilagiga ilib, bobom bilan qo'shqo'llab ko'risharkan. – Ko'z-quloq bo'lib turing. Danakdek kartoshkani lippasiga qistirgan odamni tribunalga beraman.

– Xotirjam bo'ling! – Bobom loy yopishaverib sirpanchiq bo'lib qolgan ketmon dastasini qaytadan changalladi. – Odamlarimiz unaqa diyonatsiz emas.

– Siz shunaqa deysiz-da! – Umar zakunchi shimining cho'ntagidan yaltiroq quti chiqardi. Qulog'ini chimirib hadeb loy tepayotgan otning jilovidan bir qo'llab tutgancha, amallab gugurt chizdi. – Diyonat nima qiladi hozirgi odamlarda! Oltinchi brigadada bir xotin yarim qop sholg'om o'marib ketayotganida ushlab oldim. Nega o'g'irlading, desam sigirim och, deydi. Frontda yigitlarimiz jon olib, jon berib yotibdi-yu bu xonim sigirini o'ylab joni halak! – U jahl bilan jiyronga min-di. – Ehtiyot bo'ling.

Loydan og'irlashib ketgan paqirdagi kartoshkani savat zambilga ag'dardim. Zambil yonida Olimjon diydirda turibdi. Ertalabdan buyon loy changallab muzlab ketdi, bechora. Nuqul ikki qo'lini choponining qo'ltig'iga tiqib, loyini artgan bo'ladi. «Kuh-kuh»lab kaftini isitadi. Boshidagi chamandagul do'ppisidan yuziga kir bo'yoq sizib tushyapti.

Nari borsa, endi o'n yoshga chiqqan bu bolaning chayirligiga hayron qolaman. Kattalar bilan baravar ishlaydi. Kartoshka teradi. Zildek zambilni chiranib ko'tarib aravaga tashiydi. Ikkita aravamiz bor. Bittasi kolxozning rizvon aravasi, bittasi bobomning eshak

aravasi. Biri yuk ortib omborga ketsa, ikkinchisi kelib turadi.

– Sovuq yedingmi, Olimjon? – dedim achinib. – Mayli, hech nima qilmaydi.

– Sovuqmas, opa! – Olimjon loy yuqi kafti bilan yomg'irdan ho'l bo'lgan yuzini artib yaqin keldi. – Oldik!– dedi qiz bolanikiga o'xshagan ingichka ovozda. Lekin o'sha zahoti quvonch bilan qichqirib yubordi: – Aka!

Zambilning orqa bandini shoshilib ko'targan ekanman, besh-oltita kartoshka yerga to'kildi. Jahl bilan qaddimni rostlab qarasam, Olimjonning yonida Ochil aka turibdi. Boshida ayvoni keng shapka, egnida plash. Oyog'ida brezent tufli. Loy kechib kelgani uchun tuf-lisining rangini ajratib bo'lmaydi. Lekin qachondir oq bo'lgani ko'rinib turibdi. Trinkka shimi tizzasigacha loy-ga botib ketgan.

– Hormanglar! – U bu gapni xushchaqchaqlik bilan aytgisi keldi-yu ovozi qandaydir yasama, ishonchsiz chiqdi. Yomg'irdan namlangan ko'zoynagini yechib, plashining yoqasiga artdi. Qulog'iga ilgan edi, ko'z-oynagi ho'l bo'lib battar xiralashdi shekilli, shoshapisha yana yechdida, plashining astariga arta boshladi. Mitti ko'zlarini pirpiratib iljaydi.

– Charchamayapsizmi?

– Rahmat, siz so'ragandan beri! – dedim ensam qotib. Loyga to'kilgan kartoshkalarni qo'shqo'llab zambilga tashladim. – Ko'tar, Olimjon!

Ochil hovliqqancha ko'zoynagini taqdi.

– Yo'q, – dedi bosh chayqab. – Menam qarashgani keldim, Robiyaxon, xo'p deng, ko'tarishay!

Olimjon qutulganiga shukr qilgandek iljayib turar, ko'zlarida, «ko'rib qo'ying, opa, bizning akamiz shunaqa», deganga o'xshash ifoda bor edi. Sovchi yuborib menga shuncha azob berganining alami haliyam ko'nglimda turgan ekan. Jahlim chiqib ketdi.

Men Kimsan akamning xatini kutib, kechalari tikanakka ag'anab chiqay-da, bu kishi sovchi yuborsin?! Erkakman deganlarning hammasi urushda yursin-da, bu kishi to'y qilgilari kelsin!

– Nima? – dedim kaftimni qulog‘imga tutib. – Kechirasiz, bir nima dedingizmi?

U battar xijolat chekib iljaydi. Yomg‘irda ko‘zoynagi xira yiltirab ketdi.

– Qarashgani keldim, – dedi yupqa labi titrab.

– Yo‘g‘-e! Biz bechoralarga yordam bermoqchi bo‘psiz-da. Shoshmang, hozir...

Shunday degancha eski paqirni ko‘tarib, pushtaga qarab chopdim. Qo‘llarim muzlab qolganiga parvo qilmadim. Chelak to‘lishi bilan olib kelib zambilga to‘kdim. O‘sha zahoti yana pushtaga yugurdim. Olimjon hayron. Nuqul choponining yengiga burnini artadi. Aka-si bo‘lsa tomoshaxonaga kirib qolgan odamdek anqayib turibdi. Zambil to‘lib ketdi. Oxirgi paqirdagi kartoshka xirmondek uyulib ketgan zambilga sig‘may toshib tushdi. To‘kilgan kartoshkalarni bitta-bittalab zambilga joyladim-da, orqa tomondagi tutqichni ushlab buyurdim:

– Qani, oldik!

Zambilni ko‘tarishim bilan ko‘z oldim jimirlashib ketdi. Belim qirs etdi.

Butun kuchimni to‘plab, ovozim boricha hayqirdim:

– Ketdik!

Aravagacha bir yuz o‘ttiz qadam! Aniq bilaman. Narigi pushtadan bir yuz o‘n qadam edi. U pushta bilan bunisining orasi yigirma qadam bo‘lsa, bundan chiqdi, bir yuz o‘ttiz qadam! Bu – Olimjonning qadami bilan. Hozir tezroq yursak yuz qadamda yetamiz! E xudo, sharmanda qilma! O‘zing quvvat ber! Kimsan akamning etigi katta, to‘piqlarimni urib, yara qilib yuborgan. Mayli, chidayman! Faqat yiqilib tushmasam bo‘ldi! Qo‘llarim uzilib ketay deyapti. Nima qildim, zambilga olti pud yuk ortdim shekilli? Zarilmidi. Mayli! Ajab qildim. Men chidayman, o‘lsam ham chidayman. Uyam chidasin! Jonidan suygan odami qon kechib yurgan qizga sovchi yuborish qanaqa bo‘lishini bilib qo‘ysin.

O‘zimga qoyilman! Ochil aka gandiraklagan sayin kuchimga kuch qo‘shilyapti. Ko‘rib turibman. Ayvoni keng shapkasining orqasidan suv sizib gardanidan oqib tushyapti. Ana, chillakdek qo‘llari qaltiray boshladi.

Plashining yelkalari jiqqa ho'l bo'lib ketdi. Oyoqlari chalishib ketyapti!

Bir mahal u to'xtab qoldi. O'zim oyoqda zo'rg'a turibman-u, zarda bilan zambilni itardim.

– Qani?! Ha!

U yelkasi osha orqaga o'girilib qaradi, xijolatli jilmaydi.

– Tuffim... – dedi sekin. – Tushib qoldi.

Qarasam, rostdan ham chap oyog'ida tufli yo'q, paypog'i loyga botib boryapti.

– Etigingiz yo'qmidi? – dedim yuk zalvoridan chiranib. – Mayli, yanagi safar etik kiyib kelasiz.

Olimjon loyga botib qolgan bir poy tuflini ko'tarib, zambil yoniga kelgan edi, Ochil aka jerkib berdi:

– Bor, ishingni qil!

Nihoyat, yomg'irda mudrab turgan ho'kizlar, yarmigacha kartoshka bilan to'lgan aravaga yetdik.

Zambilni yerga qo'yishimiz bilan yengil tortib, qadimni rosladim. Shunda ham bo'sh kelishni xohlamasdim.

– Ag'darmaysizmi zambilni?... Yergamas, aravaga!

– Hozir! – U zambil to'la kartoshka ustiga tappa o'tirib qoldi! Hansirab nafas oldi. Rangida rang qolmagan, og'zini baliqdek kappa-kappa ochar, gunoh ish qilib qo'yib, dakki eshitishdan cho'chigan boladek ayanchli iljayar edi. Olimjon keltirib bergan bir poy tuflini u qo'lidan bu qo'lga olgancha men tomon burildi.

– Robiyaxon, – dedi hansirab, – sovchilarni qaytaribsiz?..

– Nima? – hech baloga tushunmagandek qarab turdim-da, xaxolab kuldim. – E, sovchimi? Kimsan akam nima degandi sizga? Esingizdami? Bahorda... xat berganingizda.

– Robiyaxon... – U ko'zoynagi ortidan ko'zimga iltijoli mo'ltirab qaragan edi, baqirib berdim:

– E, turing-e! Kartishkani odamlar yeydi!

U sapchib o'rnidan turdi. Shu bilan toza bo'lib qoladigandek, zambildagi kartoshkalarni silab qo'ydi.

– Kechirasiz, Robiyaxon, – dedi. Ko'zoynagini cho'ntagiga soldi. Yomg'ir tagida shumshayib turganicha,

shapkasini yechdi. Boshidan bug' ko'tarilardi. Kiprik-larini pipiriraganicha, mitti ko'zlarini yuzimga tikdi.

– Robiya, – dedi sekin, – meni kechiring. Menam ma'limga o'xshab adabiyotchi bo'lmoqchi edim. Men... ma'limni yaxshi ko'rardim... Bizniyam o'qitganlar...

«Qanaqa ma'lim? Kimni aytyapti? Ha-a! Dadam!»

Yuragim bir qalqib tushdi. Dadam! Qayoqda ekan hozir?! Balki jangga kirgandir? Qaniydi, shunaqa bo'lsa!..

Qaniydi dadam ham Kimsan akamdek «dobrovol» bo'lsa-yu, odamlar oldida boshimni baland ko'tarib yursam! O'sha prokuror Xo'jaqulovga, anavi so'galli, so'xtasi sovuqlarga, maktabda menga ta'na qilgan o'qituvchi xotinga aytsam: «Senlar tufayli begunoh dadam qamaldi. Senlar tufayli maktabdan ketib qolgan edim, ana, ko'rib qo'y, otam dushman emas ekan-ku, qahramon bo'pti-ku», desam...

Ochil aka, ko'zi yaxshi ko'rmasa ham, mung'ayib qolganimni sezdi.

– Robiya, – dedi iltijo bilan... – Men... men... – dedi yupqa labi titrab. – Sizni sevaman... Anchadan beri...

Men nima dardda-yu bu nima deydi! Indamay yuzimni o'girdim.

– Yo'q, men rost aytyapman, Robiyaxon! – U ketib qolishimdan qo'rqqandek, shosha-pisha davom etdi. – Yaxshi ko'rish ayb emas-ku, to'g'rimi?

To'nchasiga o'ralib, diydurab turgan Olimjon hech nimaga tushunmay goh akasiga, goh menga qarab, iljayib qo'ydi. Burnini tortdi.

– Mendan rozi bo'ling! – dedi Ochil aka to'satdan. Ovozida vazmin xotirjamlik bor edi. – Ertaga jo'napman, – shunday dedi-da, ko'zoynagini taqib, yuzimga bir qarab qo'ydi. Ohista burilib, ukasining yelkasiga qo'l tashlagancha, bir oyog'ida tufli, bir oyog'ida paypoq bilan sirg'anib-sirg'anib, oqshom qorong'iligiga singib ketdi.

Angrayib qoldim. Hamon simillab yomg'ir yog'ar, belim sirqillab, ikki kaftim achishar, allaqachon kun botganiga qaramay tahdidli qizarib turgan osmondan qor isi kelar edi.

4. «Yo maniyam olib keting, yo o'ldiring»

Ko'nglim bo'm-bo'sh bo'lib qoldi. Hech kimni ko'rgim kelmas, birov savalab tashlagandek, a'zoyi badanim sirqirab og'rirdi. Uyga kelsam, aksiga hovli zimiston. Oyim Xolposh xolanikiga chiqqanga o'xshaydi.

Tokchadagi lampani yoqib, ko'rpachaga cho'kkanча bir zum o'tirib qoldim. Piligi so'xta chiroq chirs-chirs qiladi, tashqarida yomg'ir shitirlaydi. Badanim uvi-shib ketyapti. Butun olam, hatto ichim ham zax bosib ketgandek. Hech nimani o'ylagim kelmas, loyga qorilgan son-sanoqsiz kartoshkalar, qiltillab zambil ko'tarib borayotgan Ochil aka, burnini tortib turgan Olimjon ko'z o'ngimdan birma-bir o'tardi. Keyin Kimsan akam paydo bo'ldi: kulib turibdi. Xat yozganimga ikki oydan oshdi. Qiziq, qayerdaykin hozir? Balki xuddi shunaqa zax bosgan yerda, loyga belanib yotib, miltiq otayotgandir? Balki u tomonlarda allaqachon qor tushgandir. Loydan qor yaxshi. Sovuq bo'lsayam baribir, balchiqqa botmaydi...

Ertaga kartoshkani qazib bo'lsak, indindan kechki karamga tushamiz. Armiyada karam sho'rva beradi, deyishadi. Balki xuddi o'sha men uzgan karamdan Kimsan akamga sho'rva pishirishar.

Ovqatni o'ylashim bilan qornim ochgani yodimga tushdi. Hali peshinda kartoshka qaynatib yegan edik... Endi tushlikka bir vaqtlardagidek qo'y so'yib sho'rva solishlar, osh damlashlar yo'q. Mayli, ustimiz yupun bo'lsayam, chalaqursoq yursak ham go'rga! Ishqilib, urush tezroq bitsin. Kimsan akam tezroq kelsin!

Hali Parcha opa hovliqib, gapirib qoldi: «Do'm-birobodlik Rahim sassiqning o'g'lidan «qoraxat» kepti. Sassiq bechora shumxabar olib borgan Abzini rosa duoi-bad qipti. Keyin bitta-yu bitta bolasiga aza ochibdi...»

«Qoraxat»... Keyingi paytda shu sovuq so'z ko'-payib qoldi. Qiziq, Kimsan akamdan nega xabar yo'q? Xat kelgan bo'lsa Rashid abzi mastlikda tushirib qoldirdimikin? Yo'q, bobom aytdi-ku, urush boshlangandan beri ichmay qo'yganmish. O'libdimi, xat bo'lsa o'zi olib kelardi.

Belimga bir balo bo'ldimi? Nima zaril edi, Ochil akaga achchiq qilib, shuncha yuk ko'tarib... Nima dedi?

«Rozi bo'ling, ertaga jo'nayman», dedimi? O'zim ham o'lguday zaharman-da! Bechorani bekordan bekorga shuncha kalaka qildim. To'g'ri aytdi, yaxshi ko'rish ayb emas-ku! Yana nima dedi? Dadamni gapirdi, chin yurakdan gapirdi... Dadam ham urushga kirgan bo'lsa... Kimsan akam bilan ko'rishib qolishsa... Bir-birini tanisharmikin? Hayronman, oyimdan nimaga darak yo'q? Daladan qaytmadimikin? Yo'g'-e, to'qaydagi brigadaga ketishgandi-ku. Orasi yaqin. Allaqachon kelgan. Xolposh xolanikiga chiqqan. Ovsinlarning shunaqa odati bor: ikkalasi bir-biriga dalda berib gaplashib o'tirishadi. Turish kerak. Hozir ko'zim ilinsa – tamom! Qotib uxlab qolaman... Muncha sovuq? Qor yog'adi, shekilli... Tancha ochsakmi?.. Shoshma, sigir sog'ildimikin?

Yo'q, turmasam bo'lmaydi! Halizamon bobom keladi. Ovqat isitmasam jahli chiqadi.

Sirqirab ketayotgan belimni arang ko'tarib, o'rnimdan turdim. Ayvon tokchalaridagi xurmachalarni qarasam, ikkalasi ham sutga to'la. Bundan chiqdi, oyim sigirni sog'ibdi. Qiziq, nega mo'ramaydi? Arqonga o'ralashib bo'g'ilib-netib qolmaganmikin?

Chiroq shishasini ro'molim bilan pana qilib hovliga tushdim. Yomg'ir hamon ezmalanib yog'ar, qor isi kuchaygan edi. Molxona burchagida yotgan sigir chiroqni ko'rib pishillab o'rnidan turdi. Ko'zlari yaltirab shu tomonga qaradi. Beliga loy chaplab qo'yilibdi...

Chiroqni avaylab tutganча oshxonaga kirdim. Tuvoqni ochsam, qozon bo'm-bo'sh. Iye, har kuni bobom ikkalamizning nasibamiz qozonda turardi-ku! O'choqqa olov yoqilmaganini endi ko'rdim. Ko'nglimga g'ulg'ula tushdi. Bir gap bo'lgan! Oyim jillaqursa, bir qoshiq obiyovg'on pishirardi. Ovqat qilmagan, chiroq yoqmagan, o'ziyam yo'q! Yo Kimsan akamdan...

Xayolimga kelgan dahshatli fikrdan etim uvushib ketdi. Chiroqni o'choq boshiga qo'ydim-u hovliga otildim. Tezroq Oqsoqol buvanikiga chiqish kerak.

Yuragim qinidan chiqqudek bo'lib, ko'cha eshik tomonga yugurdim. Sochlarim jiqqa suv bo'lib ketgan, nimcham yelkamga yopishib qolgan, oyog'imdagi kavush loyga botib, shaloplab g'ashimni keltirar, lekin xayolimda faqat bitta fikr bor edi: «Ishqilib tinchlik bo'lsin!»

Loy ko'chadan sirg'anib borayotsam boshiga qora guppi chopon yopinib kelayotgan odam ko'rindi. Erkakmi-xotinmi bilib bo'lmaydi. Bo'yi bir qarich, qop-qora sharpa. Xuddi to'ntarib qo'yilgan xumchaga o'xshaydi. O'n qadamcha qolganda sharpa to'xtadi.

– Yobiyapa! – dedi ingichka ovozd.

Tovushidan tanib, ko'nglimga iliqlik yoyildi. Fotima kelinning qizi.

– Senmisan, Popuk? – dedim yaqin borib. – Oyim sizlarnikiga chiqmadilarmi?

– Chiqdila, – dedi qizaloq, chopon yoqasidan mo'ralab. – Buvimla ettilaki, ovsinlayi ukalayinikiga ketib-dila. Ukalayi uyushga ketaykan. Buvamla Ko'taymaga boyaykanla.

Qizaloq aytgan yangilikni idrok etgunimcha xiyla vaqt o'tdi. Bundan chiqdi Shomurod tog'am urushga jo'nayapti. Oyim Ko'tarmaga ketgan.

Esimni yig'ib olgunimcha qizaloq uzoqlab ketdi.

– To'xta, Oypopuk! – dedim qichqirib. – Uyingga oborib qo'yaman. Qorong'ida qo'rqib yurmagin.

Qizaloq to'xtadi. Teskari to'nkarib qo'yilgan xumchadek gavdasini o'girib burildi.

– Qo'yiqliyman, hayiy, Yobiyapa! – dedi ingichka ovozd.

Yomg'ir ostida bir zum turib qoldim. Yuragim ancha taskin topdi. Nimaga shunaqa bo'lganini keyin angladim. Demak, tinchlik ekan. Kimsan akamdan yomon xabar kelmabdi. Lekin o'sha zahoti Ra'no kelinoyim ko'z o'ngimda paydo bo'ldi. O'zimni yomon ko'rib ketdim. Ra'no yangam! Olti yarim oylik kelin... Holi nima kechadi endi? Yolg'iz o'zi nima qiladi?

Hovliga kirib, talmovsirab tursam, ko'chadan eshak hangragani eshitildi. Bobomning eshagi ilgari boshqacha edi. Ko'cha boshiga yetishi bilan, «eshitib

qo'yinglar, biz kelyapmiz» degandek, ovozi baralla qo'yib hangillardi. Hozir unaqa emas. Nola chekkandek qisqagina hangraydi-yu ovozi o'chadi.

Choponi ho'l bo'lib ketgan bobomning qo'liga suv quyarkanman, u menga qaramasdan surishtirdi:

– Oying qani?

Hozir Oypopukdan eshitgan gapimni aytgan edim, bobom xo'rsindi.

– Bitta o'zing qo'rqmaysanmi? Oqsoqol buvangnikiga chiqib yotaqol.

Bu – «men ketdim» degani edi.

Shundoq mushkul paytda Ra'no yangamning yonida bo'lgim kelardi. Qon yig'lab o'tirgandir sho'rlik!

– Menam boray, – dedim bobomga yalinib. – Ertalab o'shanaqasi dalaga chiqa qolaman.

Ikkovlashib yo'lga tushdik.

Bobom bo'yi kalta bo'lganiga zarda qilgandek katta-katta qadam tashlab loy kechib ketyapti. Jussasi kichkina bo'lsa ham baquvvat, chayir. Xuddi yerga chuqur qoqilgan qoziqqa o'xshaydi. Odatda uzun qoziqni u yoq-bu yoqqa likillatib bir tortsangiz sug'urilib chiqadi. Lekin kalta qoziq yerga bir yopishdimi, siljimaydi.

Bobom ham shunaqa. Qorong'ida pishillab tez yurib boryapti, sirpanmaydiyam. Alvasti ko'prikdan o'tib olsak bo'ldi. Uyog'i uzoqmas. Faqat ko'prikdan o'tishga toqatim yo'q. Yaqin kelishimiz bilan tubsiz chuqurlikda, zulmat qo'ynida quloqni qomatga keltirib voshillab yotgan jarga qaramaslik uchun qadamimni tezlatdim. Bobomning tovonini bosib olishimga oz qoldi.

Bobom yomg'irdan tayg'anoq bo'lib ketgan shag'allardan sirg'anib temir yo'l ustiga chiqarkan, norozilik bilan to'ng'illadi:

– Obbo! Shu yetmay turuvdi! Qor yog'yapti. Yerdan qancha narsa yotibdi hali.

Alvasti ko'prik vahimasi bilan sezmagani ekanman.

Yuzimga sovuq uchqunlar urilayotganini endi payqadim. Temir yo'l izlari xira yiltirab yotar, olisda razyezd chiroqlari qizg'ish lipillab turardi. Chiroqqa qaragan edim, qor uchqunlari quyuqlashib borayotganini ko'rdim. Pastda esa Bo'rijar hamon sharillaydi...

Sirli shivirlab turgan yong'oqzor orasidan chiqib, Ko'tarmaga yetgunimizcha yer bilinar-bilinmas oqardi. Ko'cha chetidagi daraxtlar tabiatning ayovsiz qahri oldida taslim bo'lgandek xomush bosh egdi. Somonsuvoq qilingan tomlarni qirovdek yupqa qor bosdi. Hammayoq jimjit bo'lib qoldi.

Ko'tarmadagi hovlilar bizning qishloqdagiga o'xshagan zich emas. Biri bu yerda, boshqasi u yerda. Shomurod tog'amniki eng chekkada. Ikki paxsa pastak devor bilan o'ralgan hovli. Tashqari tomonda deraza yo'qligi uchun uy ham hovli devori bilan tutashib ketgan. Faqat balandroq – uch paxsa. Somon suvoq qilingan tomning u yer-bu yerida yog'och tarnovlar dikkayib turibdi.

Ota-bola pastak eshikka yaqinlashgan edik, yong'oqqa bog'lab qo'yilgan ot pishqirib, suvlig'ini shaqirlatdi. Umar zakunchining oti. Demak, tog'amni kuzatishga uyam kepti. Shomurod tog'am tekstilda ishlasa ham baribir shu kolxozning kishisi-da! Yaxshi, rais odamgarchilik qipti! Bobom bilan oldinma-ketin hovliga kirdik. Oshxonaning ochiq eshigidan lang'il-lab yonayotgan olov ko'rinadi. O'choqboshida kuyma-nayotgan oyimning qorasini uzoqdan tanidim. Yog'och cho'michda hadeb qozon kavlayapti.

Bobom erkaklarning g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozi ke-layotgan uyga yo'naldi. Men oshxonaga kirishim bilan qurum bosgan ustunga suyanib, yupqa lablari titragan-cha yig'layotgan Ra'no kelinoyimga ko'zim tushdi. Oppoq ko'ylak ustidan kiygan baxmal nimchasi ko'ksiga chippa yopishib, qomatini ko'z-ko'z qilayotgandek. Jun ro'mol tagidan chiqib turgan parishon sochlarida qor uchqunlari yiltiraydi.

– Unaqa qilmang, kelinposhsha! – Oyim cho'michni aylantirar ekan, yupatdi. – Irimi yomon bo'ladi, Ra'no-xon! Yurtga kelgan to'y...

– Kerakmas bunaqa to'y, kerakmas! – Ra'no kelin-oyim ko'zi to'la yosh bilan oyimga yuzlandi. – Men nima qilaman?! Bir o'zim nima qilaman bu hovlida!

Oyim cho'michni qozon qulog'iga ilib, Ra'no kelin-oyimni quchoqladi:

— Noshukurlik qilmang, jon bolam. El bor, yurt bor. Mana bizlar bormiz.

Oyim birdan menga ko'zi tushib, quvonib ketdi.

— Iye, ana singlingiz! — dedi shu bilan Ra'no kelin-oyimning dardi yengillashib qoladigandek dadillanib. — Mana, Robiya bor! Kelib turadi. Har kuni kelasana, qizim!

Kelinoyim menga o'girildi. O'choqdan olov shu'lasini tushib turar, yangamning yig'idan qizargan yuzi yanayam chiroyli bo'lib ketganga o'xshardi.

— Yig'lamang, — dedim quchoqlab. Dimog'imga g'alati, shirin atir isi urildi.

— Peshonam qursin! — dedi u lablari titrab.

— Qo'ying, kelinoyi! Ko'rasiz, hademay urush bitadi. Oy borib — omon keladilar.

Oyim oshxona eshigidan ayvonga mo'raladi.

— Bo'ldi, bolam, bo'ldi, — dedi ovozi pasaytirib. — Eringiz ko'rsa ko'ngli buziladi. Ana o'zi!

Ayvon tomondan Shomurod tog'amning yo'talgani eshitildi. Avval oyim, ketidan men o'sha tomonga yurdik. Tog'am tokchasida fonus yonib turgan ayvon o'rtasida to'xtab, shu tomonga qaradi. U yelkasiga kuyovligida kiygan beqasam to'nini tashlab olgan, negadir jilmayib turar edi. Yaqin borishim bilan ayvon peshtoqiga keldi-da, egilib peshonamdan o'pdi.

— Voy-bo'! Katta qiz bo'pqopsan-ku, — dedi kulib. — Asli to'yingni o'tkazib ketsam bo'larkan-da!

Bo'za ichgan shekilli, dimog'imga achimsiqroq hid urildi. Uyalib teskari qaradim.

— To'yingni mensiz o'tkazib qo'ymagin tag'in! — u kulib turib barmog'i bilan po'pisa qildi. — Kelib o'zim uzataman, xo'pmi?

— Sensiz to'y qilarmidik, uka! — Oyim pildirab ayvonga chiqdi-da, tokchada turgan allaqanday tugunchani tog'amga uzatdi. — Ma, qopingga solib qo'y. Tayinli joyga qo'y, esingdan chiqmasin.

— Nima bu? — Tog'am hamon kulimsirab oyimga qaradi.

— Qurut! — dedi oyim tantana bilan. — Galanska sigir-

ning qatig'idan. Yarmini o'zing ye, yarmini Kimsanga ber, xo'pmi? Kimsanim qurutni yaxshi ko'rardi. Sog'inib qolgandir.

– Xo'p, opa, Kimsanning ulushini albatta oborib beraman! – Tog'am oyimni yupatdi. – Xavotir olmang. O'z qo'liga topshiraman.

U oyimga ham, menga ham emas, oshxona tomonga qarab turganini payqadim. Ko'cha eshikda tugun ko'targan xotinlar ko'rindi. Oyim, qorong'ida kimligini tanimasa ham yo'l-yo'lakay gapirib, o'sha yoqqa yugurdi:

– Voy, aylanaylar! Kelinglar, ovora bo'psizlar-da...

Nima qilishimni bilmay oshxonaga qaytib kirdim. Ra'no kelinoyimga dalda bergim, bir nimalar deb ovutgim kelardi. Yo'q, kelinoyim oshxonada ko'rinmasdi. Kattakon qozon qaynab ko'pirib ketibdi. Sho'r-
vaning ko'pigini sidirib, endi hovliga chiqmoqchi bo'lib turgan edim, tashqarida, oshxona devorining narigi tomonida Ra'no kelinoyimning ovozi eshitildi.

– O'zingiz xohlagansiz. Bilaman. Urushga borgingiz kelib qolgan.

– Qo'y endi, yig'lamagin, jonim. Nima qilay, hajibizga o'xshab, odamlarga shumshuk ko'rinib yuraymi! Erkaklarning hammasi urushda, tushundingmi, urushda...

Ra'no kelinoyimning hiqillab yig'lagani qulog'imga chalindi.

– Nima, bu yerda kerakmasmisiz? Hech kimga kerak bo'lmasangiz menga keraksiz, bildingizmi?

– Bilaman, Ra'no, bilaman! Bilanim uchun shunaqa qilyapman-da. Urush qancha tez bitsa, shuncha yaxshi. Sengayam yaxshi, mengayam.

Sukunat cho'kdi. Ularni cho'chitib yuborishdan qo'rqar, cho'michni changallagancha o'choq boshida cho'nqayib qilt etmay o'tirardim.

– Menga qara, Ra'no, – dedi Shomurod tog'am ovozini pasaytirib. – Rostini ayt, mabodo ko'ngling achchiq narsa tusayotgani yo'qmi?

– E, boring!

– Yo‘q, rostini ayt. Agar shunaqa bo‘lsa, – tog‘am ovozi tag‘in ham pasaytirdi. – O‘g‘il bo‘lsa otini Muzaffar qo‘ygin, xo‘pmi, Muzaffar nima degani, bilasanmi? G‘olib degani. G‘alaba degani, tushundingmi?

Yana jimib qolishdi. Qozon qattiqroq biqiray boshladi. Tog‘am bilan kelinoyimning ovozi eshitalayotgan devor tuynugidan qor uchqunlari oshxonaga uchib kirib, o‘choq taftida yerga tushmay erib ketdi.

– E, qoching! Doim shunaqa yoqmay turganida shilqimlik qilasiz. – Endi Ra‘no kelinoyimning ovozida alam emas, erkalik bor edi.

– Rostdan ham ko‘ngling...

– Yo‘q! – Ra‘no kelinoyim ovozi baland qo‘yib yubordi. – Yo‘q, dedim-ku!

Nimadir shapir-shupur qildi, tog‘am entikdi.

– Ra‘no!

– Yopishmang... Shilqim!

Zum o‘tmay Ra‘no kelinoyimning o‘ksib-o‘ksib yig‘lagani eshitildi.

– Chidolmayman, eshityapsizmi, chidolmayman, sizsiz! – U dod solib yubormaslik uchun o‘z kafti bilan og‘zini to‘sdi shekilli, dami qaytib ingradi.

Shomurod tog‘am tag‘in uf tortdi.

– Ra‘no, – dedi sekin, – jonim!

– Obketing! – Ra‘no kelinoyimning bo‘g‘zidan bo‘g‘iq nido otilib chiqdi. – Obketing! Askarlarning kirchirini yuvaman. Ovqat pishiraman! Yarasini bog‘layman! Obketing. Jon Shomurod aka! Obketing!

– Ra‘no! – Asabiylashganidan tog‘amning ovozi baland, keskin chiqdi. – Qo‘ysang-chi endi.

– Obketi-ing! – Ra‘no kelinoyim yalinib iltijo qildi.

– Ra‘no, jinnimisan? Tursang-chi! Ana, hamma-yog‘ing shallabo bo‘ldi.

– Bo‘la qolsin! – Ra‘no kelinoyimning ovozi tahdidli yangradi. – Obketing! Obketing. Yo obketasiz, yo o‘l-dirib ketasiz!

Ayvonda biron tomoq qirdi. Umar zakunchining yangroq ovozi jarangladi:

– Qayoqqa ketdi bizning soldat?

– Tur, Ra’no, turgin, jonim! Meni chaqirishyapti.

Tuynuk orqasida Ra’no kelinoyim past, ammo g’azab to’la ohangda pichirladi:

– Basharang qursin! Qayoqdan keldi bu so’xtasi sovuq! Shu kuniyam xoli qo’yishmaydi.

Tog’am oshxona eshigi oldidan o’tib ayvonga chiqdi. Yana jimlik cho’kdi. O’choqdagi olov pasayib qoldi. O’tin tashlay desam, o’rnimdan turishga qo’rqaman. Bir mahal erkaklar o’tirgan uy tomondan qiyqiriq kulgi keldi. Chamasi, Shomurod tog’am qaytib kirishi bilan Umar zakunchi askiya qildi shekilli, tog’amning fabrikada ishlaydigan hamkasblari baravar qahqaha otishdi. Ra’no kelinoyim bir dasta kosani biqiniga tirab, oshxonaga kirdi. Chehrasi ma’yus, ro’mol tagidan chiqib turgan sochiga, nimchasining yelkasiga qor qo’ngan, oppoq ko’ylagining etagiga qor aralash loy yopishib qolgan edi. Parishon tarzda kosalarini o’choqbo-shiga qo’yib to’nka ustiga o’tirdi. Bir nuqtaga tikilib qoldi. Shu o’tirishda farishtaga, oppoq farishtaga o’xshar edi...

Oyim tog’amnikida yotib qoldi. Tongotarga yaqin bobom ikkalamiz yo’lga tushdik. Somon suvoq qilingan tomlar ustini bir qarich qor bosgan, yorishib kelayotgan osmonda uchqunlar g’ujg’on o’ynar edi. Negadir birinchi qor yog’ishini uzoq kasal bo’lib yotgan odamning jon taslim qilishiga o’xshataman. Bemor to’shagiga yopishib inqillab yota-yota oxiri omonatini topshiradi-yu, bu dunyoning azoblaridan qutulganiga shukr qilgandek tinchib chehrasi yorishadi.

Bir haftadan beri yomg’ir azobidan ezilib ketgan yer, nihoyat oppoq kafanga o’ralib, tinchidi. Hammayoq jimjit. Faqat Bo’rijar yaqinida yong’oqzor ustida qarg’alar shodon qag’illaydi. Qilichini qayrab kelayotgan qishga peshvoz chiqib, qahraton sovuq boshlanishidan darak beradi, tantana qiladi.

...Quzg’unlarning omadi chopib qoldi.

Oltinchi bob

«QORA AMMA» HIKOYASI

Yulduzi yulduziga to'g'ri kepti...

Ra'noxon kelinim Shomurodga yalakat danakdek yopishib qolgan ekan. Vokzalga borganda bo'yniga chirmashib oldi. Qani qo'yib yuborsa. Yakkash «meniyam obketing», deb chirqillaydi. O'zim-ku, Kimsanim bilan xuddi shu yerda xayrlashganim esimga tushib yuragim ob bo'lib ketyapti. Ilojim qancha? Kelinimni yuptdim.

– Safarga ketayotgan eringizni yig'lab kuzatmang, yomon bo'ladi, – dedim. Koshki ko'nsa!

Erta kuzdan beri istiqo bo'lib, oyoq-qo'li shishib yotgan qudam ham kuyovimni ko'rib qolay deb vokzalga chiqibdi. Kasal xotin tramvayga o'tirib, shundan shunga kepti. Ikki o'rtada uyam yurakni siqadi.

– Shomurodjon, o'g'lim, yaxshi-yomon gapirgan bo'lsam rozi bo'ling, o'zim sezib turibman, siz kelguningizcha yo'qman... – deydi.

Yaxshiyam Umar zakunchi bor ekan. Sahar-mardonlab arava chaqirtirgan ham o'zi, bosh bo'lib vokzalga olib chiqqan ham shu bo'ldi. Qudam hadeb noliyvergan edi, jahli chiqib ketdi.

– Sovet jangchisining qaynonasi bunaqa bo'lmaydi, – deb urishib berdi.

Ra'noxon bo'lsa hech kim bilan ishi yo'q. Eridan ajralgisi kelmaydi. Etni tirnoqdan ajratmay to'ng'iz qo'pgur girmon bo'lmasa, shu azoblar yo'q edi!

Poyezd jo'nay deb turganida olomon orasida Komil tabib bilan xotiniga ko'zim tushib qoldi. Lazakat bechora yig'layverib shishib ketibdi. Ochilboyini jo'natishyapti ekan. O'z tashvishim bilan bo'lib bexabar qolibman. Sovchilikdan qaytarganimga arazlagan bo'lsa kerak, degan edim. Yo'q, Lazakat meni quchoqlab yig'ladi.

– Bolaginam yaqindagi narsani yaxshi ko'rmasdi! Holi nima kechadi endi!

– Unaqa demang, onasi, – Komil tabib xotinini yupatdi. – Ochilboy – pok bola. Pok odam xor bo‘lmaydi, adolat degan narsa bor. Xudo bor.

Lazakat sho‘rlik battar chirqilladi:

– Urush adolatni biladimi?

– Baribir. Haq degan narsa bor, onasi...

Poyezd ketganidan keyin razm solsam, Ra‘noxon adoyi tamom bo‘pti.

– Uch-to‘rt kun onangizni bag‘rida tura qoling, – dedim.

To‘g‘ri-da, harna ko‘ngli yozilgani! Qolaversa, kasal onasiga madad bo‘ladi. Rais ham Ra‘noxonning ahvolini sezdi shekilli, haytovur, yo‘q demadi. Ona-bolani aravaga o‘tqizib qudamnikiga – Yangi mahallaga olib ketdi.

Komil tabib, Lazakat – uchovlashib, qor kechib yo‘lga tushdik.

Lazakat o‘qtin-o‘qtin, «bolamning ko‘zi yaxshi ko‘rmasdi-ku, endi nima bo‘ladi», deb nolir, Komil tabib esa vazminlik bilan indamay borar, qor yog‘ib turgan osmonga qarab-qarab qo‘yar edi.

No‘g‘ayqo‘rg‘onga yetib kelgunimizcha kun og‘di.

Ertalab «ha-bo‘l, ha-bo‘l» bilan mahsimni paytavasiz kiygan ekanman, zax o‘tib oyog‘im akashak bo‘lib qoldi.

Uyga kelsam hech kim yo‘q. Cholim bilan Robiya dalaga chiqib ketgan shekilli, sigir mo‘rab molxonani boshiga ko‘taryapti. Hovliqib tomorqaga chiqdim. Uzunzor etagidagi jo‘xorilarning so‘tasini terib olgan bo‘lsak ham, poyasini yig‘ishga qo‘limiz tegmagan edi. Qorga botib ikki quchoq jo‘xoripoya yulib chiqdim. Sigirga, qo‘yga berdim.

Bir ko‘nglim non yopgim keldi-yu, o‘sha zahoti niyatimdan qaytdim. Nari borsa, bir qopcha unimiz, uch xum jo‘xori qolgan. Cholim qattiq tayinlagan: «Unni ehtiyot qilmasang bo‘lmaydi, hali bundan ham og‘ir kunlar keladi», degan.

To‘g‘ri, qora kunga asrab qo‘ygan bug‘doyimiz ham, jo‘xori ham ko‘p edi. Ergash selsovet bilan Umar zakunchi «urushga yordam kerak» deb kelganida cholim ikki qop bug‘doy, bir qop jo‘xori, bir qop turshak,

yong'oq aralash quruq mevani eshak aravaga ortib idoraga obchiqib berdi. Urush bo'layotgan joylarga sovuq erta tusharkan shekilli, bisotimizdagi hamma issiq kiyimlarni topshirdik. Kimsanimning etigi, telpagi, cholimning ohorli paxtalik choponi – hammasini...

«Urushga yordam» degan gapni eshitsa, o'zini orqaga tashlaydigan odam yo'q. Ammo zayomdan qochadigan, nalogchi kelsa bekinadiganlar ham bor. Shunda selsovet bilan Zakunchi qilolmagan ishni Orif oqsoqol epladi. Hammaning uyiga birma-bir kirib chiqdi.

– Hoy, belingda belbog'ing bormi o'zi, yigitlarimiz uyoqda qorga botib yuribdi. Sen bu yerda ketingni tanchaga tiqib yotibsan, endi bir juft etikniyam ayaydigan bo'ldingmi, nodon, – deb bir baqirgan edi, o'shannaqa qilg'iliq qilganlar ham topgan-tutganini olib chiqdi.

Oqsoqol bo'lsa oyog'iga kiyib yurgan etigini ham yechib berdi.

– Men yalangoyoq yursam ham o'lmayman! Toshkanni qishi sovuqmas!

Shunaga deyishga dedi-yu, yomg'irda uch kun kalish kiyib kartoshka qazigan edi, eski dardi qo'zib belining bodi tutib qoldi. Cholim har kuni kechasi chiqib o'rtog'idan xabar oladi...

Shunday qilib, non yopgim keldi-yu, cholimning gapi esimga tushib shashtimdan qaytdim. Yaxshisi, go'ja pishiraman! Yarim o'g'ir jo'xori tuysam bir qozon ovqat bo'ladi!

Oshxonaga kirib, jo'xori yanchayotgan edim, ko'cha eshik taqillagandek bo'ldi. Chopib chiqdim. Yo'q, hech kim ko'rinmaydi... Qorda tangadek izni ko'rib yuragim bir qalqib tushdi. Yog'och oyoqning izi! Rashid abzi-ning oyog'i-ku! Hovliqib ko'cha boshiga yugurdim. Hech kim yo'q...

Bundan chiqdi Abzi eshigimizga kelgan. Bundan chiqdi Kimsandan xabar bor! Qachon keldiykin! Hozirmi? Oldinroqmi? Agar Rashid abzi endi kelgan bo'lsa, nimaga uydan chiqishimga sabr qilmay ketib qoldi? To'satdan xayolimga yomon o'y keldi. Avvallari Rashid abzini ko'rsa, yugurib boradigan odamlar endi undan qo'rqib qolgan. Abzi taqillatgan ikki eshikning

bittasida bayram bo'lsa, bittasida aza ochiladi. Odamlar uni orqavarotdan «shumqadam» deydi.

Yo'q! Boraman! Hozir pochtaga boraman!

Qor kechib yugurib ketdim.

Rashid abzining pochtagasi – razyezda – selsovetning yonboshida. Halloslab borsam, pochtaxona qulf. O'zimizning darvoza tagidagiga o'xshagan tangadek iz pochtaxona zinasiga ham tushib qolibdi. Bundan chiqdi, Abzi hali qaytmagan. Xat ulashib yuribdi. Kutaman! Kelguncha kutib o'tiraman!

Zinaning qorini kavushim bilan sidirib tashlab omonat cho'nqaygancha atrofga razm soldim. Qor tingan, ammo havoda haliyam zahardek achchiq uchqunlar uchib yurardi.

Ko'chaning narigi betidagi non do'koni oldida allaqancha odam turnaqator tizilishib do'kon darchasiga talpinyapti. Ro'mol o'ragan xotinlar, shapka kiygan razyezd rabochiylari, oyog'idagi yirtiq etigi qorga botgan yosh-yosh bolalar. Hammasi rangpar, badqovoq...

Qiyin! Shu bechoralarga judayam qiyin. Bizlar-ku o'lmagan qul, tirikchiligimizni o'tkazib turibmiz. Bir kaft bo'lsa ham unimiz bor, jo'xori bor. Jilla qursa lavlagi qaynatib yesak ham ochdan o'lmaymiz. Bularchi! Zaborniy kartochkasidan bo'lak nimasi bor? Don-duni bo'lmasa, sigiri bo'lmasa! Ha, aytmoqchi, sigirni qochirib olganimiz yaxshi bo'ldi. Mayli sut nalug, jun nalug, yog' nalug – hammasini to'lasak ham go'rga! Ishqilib, shu jonivorning dumiga osilib qishdan omon-eson chiqib olsak bo'ldi.

Xayol surib o'tirgan ekanman, non do'koni oldida navbat kutib turganlar orasida to'satdan qiyomat qo'pgandek bo'ldi.

Allakim ovozi boricha ayyuhannos soldi:

– Ushla! Ushla o'g'rini!

O'sha zahoti xotin kishining dunyoni buzgudek chin-qiriq tovushi olamni tutdi:

– Voydod! Nonim! Nonimni obqochdi!

Qo'rqib ketdim. Qarasam, to'qqiz-o'n yoshlardagi bola olomon orasidan otilib chiqib, shu tomonga yugurib kelyapti. Qo'lida yarim buxanka non. Boshidagi

yirtiq telpagi qiyshayib ketgan. Sarpoychan botinka kiygan oyog'i sovuqdan qip-qizil go'shtga aylangan. Joni boricha chopyapti-yu ikki qo'llab nonni og'ziga tiqadi. Paxtalik kiygan rangpar xotin bolaning ketidan yetib kelib, yelkasiga chang soldi.

– Nonim! Yetimlarimning nasibasini o'g'irladi! – dedi chinqirib.

Bolaning yelkasidan tortib, quloq-chakkasiga tarsaki tushirgan edi, bola bukchayib qoldi. Xotin jonholatda nonga chang soldi. Bola nonni qo'yib yubormadi. Chalachulpa chaynab ochko'zlik bilan yuta boshladi. Besh-olti kishi yordamga yetib keldi. Gavdaliroq erkak bir musht tushirgan edi, bolaning telpagi boshidan uchib qorga tushdi. Bolapaqirni birpasda olomon qilib yuborishdi. Shuncha odam savalab yotibdi-yu, bola parvo qilmaydi. Qorga muk tushganicha non kavshaydi. Qarasam, o'ldirib qo'yishadigan. Dod solib olomonga otildim.

– Hoy, insofinglar bormi, o'ldirib qo'yanlar-ku, bechorani!

Rangpar xotin bola uyoqda qolib, mening yoqamga yopishdi.

– Boyvachcha bo'lsang uyningga oborib boq, jodugar kampir! – dedi chirqillab. – Ikkita yetimchamga nimani yediraman? Erimdan qoraxat kelgan!

Xotinni siltab tashlab, olomon ichiga kirdim. Bola kuragiga tushayotgan tepki zarbidan munkib-munkib ketyapti, ammo nonni ikki qo'llab changallagan ko'yi yutoqib og'ziga tiqadi. Non burnidan oqqan qondan qizarib ketgan. Sho'rlikni pana qilmoqchi edim, yelkamga tushgan musht zarbidan sirg'anib yiqildim, og'zimga qor kirib ketdi.

Hushtak churilladi. Ismoil melisaning ovozi eshitildi:

– Tarqal! Hammang tarqal!

Hushtak tag'in bir marta churillagan edi, g'azabdan es-hushini yo'qotgan olomon sekin-sekin nari keta boshladi. Bola oxirgi luqma nonni yeb bo'lib boshini ko'tardi. Yuzidan qon aralash ko'z yoshi oqib tushar, nariroqda yirtiq telpagi qorga ko'milib yotar edi. Kallolanib o'rnimdan turdim.

– Yetimlarning nasibasi edi-ku! – dedi rangpar xotin chirqillab. – Endi nima qilaman? Bolalarimga nima beraman?

Shopmo'ylovli Ismoil melisa chang solib, bolaning yelkasidan ko'tardi.

– Tur! Kimning o'g'lisan?

Bola kaftining orqasi bilan qonagan burnini art-di. Yana kaltak tushishidan qo'rqib, ko'zini pirpiratdi. Ammo javob bermadi.

– Urmang! – dedim melisaning qo'liga yopishib. – Baraka toping, urmang. Meni taniysiz-a, Husan dumaning oilasi bo'laman. Gunohidan o'ta qoling!

Ismoil melisa qovog'ini solib menga bir qarab qo'ydi. Ammo bolani qo'yib yubormadi.

– E, opa, bunaqalar ko'payib ketgan, – dedi xo'm-rayib. Ovozida jahldan ko'ra afsus-nadomat ko'p edi. – Ota-onang bormi? – deb so'radi bolaning yelkasidan siltab. Bola yulqinmadi. Ammo javob ham bermadi.

– Menga qara, vey! – Ismoil melisa uning qulog'idan changalab qattiq buradi. Bolaning yuzi og'riqdan burishib ketdi. Baribir indamay turaverdi. – Karmisan! – Melisa uning boshi ustida musht do'laytirdi.

– Jon ukam! – dedim yalinib. – Urmang! Martabangiz bundan ham ulug' bo'lsin! Och qolgan... Bo'lmasa shu ishni qilarmidi!

Xayolimga yarq etib bir o'y keldi. «Shu norastani uyga olib ketsam-chi? Kimsanim urushda! Bitta o'g'lim ikkita bo'lar! Robiyaga uka bo'lib yurar... Och bo'lsak och, to'q bo'lsak to'q yuraveradi». Ammo o'sha zahoti boshqa bir andishani o'ylab qoldim. O'zimiz-ku qoq-qanda qoziq, osganda xurmachasiz o'tiribmiz. Cholinga nima deyman? Erta-indin bolaning ota-onasi daraklab kelib, o'g'limni nega egallab olding, desa nima qilaman?

– Qani, yur-chi buyoqqa!

Nazarimda Ismoil melisa bola bechorani hozir obo-rib qamab qo'yadigandek bo'ldi, tag'in yalindim:

– Unaqa qilmang. Jon ukam...

Ismoil melisa to'xtab orqasiga o'girildi-da, tushuntirdi:

– Qo‘rqmang, opa, urmayman. Hech kimi yo‘q bo‘lsa nima qilardik, detdom-petdomga joylaymiz-da!

Rangpar xotin melisaning ketidan yugurdi.

– Men-chi, men nima qilaman? Nonim nima bo‘ladi endi?!

– Dard bo‘ladi! Balo bo‘ladi! – Ismoil melisa bir qo‘llab bolani ushlab turgancha, ikkinchi qo‘lini paxsa qildi. – Ko‘zingga qarasang o‘lasanmi, ho‘kizday xotin!..

... Bo‘rijar bo‘yidagi yolg‘izoyoq yo‘ldan qor kechib kelarkanman, burnining qoni tegib qizargan nonni chala chaynab yutayotgan bola ko‘z oldimdan ketmas edi. Iloyo urush ochganning uyi kuysin! Bolaning uvoli tutsin!

O‘choqqa olov yoqqan edimki, ko‘cha eshigi tag‘in taqillab qoldi. Ketma-ket ovoz keldi:

– Husan abzi! Ay, Husan abzi!

Rashid abzining ovozi! U hammaning otiga «abzi» qo‘shib gapiradi. Balki shuning uchun o‘ziniyam «abzi» deb chaqirishar. Cho‘michni o‘choq boshiga tashlab yugurdim. Abzi eshikni lang ochib, iljayib turibdi.

Boshida qizil no‘g‘ay do‘ppi, yonboshida taqiri chiqib ketgan sumka. Yog‘och oyog‘ining pochasini shimarib olgan, sog‘ oyog‘idagi etik qorga belangan...

– Suyunshi berig‘iz, opay! – dedi iljayib. Ingichka, sariq mo‘ylovini uchirib qo‘ydi.

– Voy, og‘zingizdan aylanay! – Abzining muzlab ketgan ozg‘in yuzidan o‘pib oldim. – Kimsandan xat bormi?

– Vot, kurib quyig‘iz! – U uchburchak xatni boshi ustida baland ko‘tardi.

Xatni qo‘lidan qanday yulqib olganimni bilmayman. Uyog‘ini aylantiraman, buyog‘ini aylantiraman. Qani savodim bo‘lsa-yu, sharillatib o‘qiy qolsam. Bir mahal o‘zimga kelsam, Abzi yog‘och oyog‘ini qorga chuqur-chuqur botirib ketib qolyapti. Chopib borib qo‘lidan ushladim.

– Shoshmang, suyunchi olmaysizmi? – Shunaqa dedim-u nima suyunchi berishni o‘zim bilmasdim.

– Yuq, kirakmi!

Hol-joniga qo'ymay hovliga sudradim, Rashid abzi ayvon oldida tik turganicha bir piyola choy ichdi.

– O'qib bersangiz-chi, baraka topgur! – dedim yalinib. – Savodingiz bor-ku, axir.

Rashid abzi negadir xatni ovoz chiqarmay o'qidi.

– O'g'lig'iz molodets! – dedi bosh barmog'ini mix qilib. – Tulada sug'ishg'a qirg'an. Pexotada. Lichno Jukov o'g'lig'izni xvalit qilg'an, – u negadir iljaydi. – Oxo! Tuy bula tigish.

– Hoy, mundoq ovoz chiqarib o'qisangiz-chi, o'rgilay, – dedim ichim qurib. – Nima debdi? Qanaqa Jukip? Qanaqa to'y?..

– Kilin kurasiz, opay, kilin!

Rashid abzi xatni o'qigani bilan Kimsanning gaplarini tuzuk-quruq tushunmadi.

Xatni changallab Oqsoqolnikiga yugurdim. Ovsinim tancha chetida yotgan cholineg beliga Komil tabib tayyorlab bergan «turkana» dorini surayotgan ekan. Ayvonda kutib turdim. Nihoyat ichkaridan ovsinim chaqirgani eshitildi. Kirishim bilan Oqsoqol inqillab, yostiqa suyanib o'tirdi.

– Kimsandanmi? – dedi qo'lini cho'zib. – Qani berchi!

Shosha-pisha xatni qo'shqo'llab uzatdim.

– Ovozingizni chiqarib o'qing, baraka topkur.

Oqsoqol xatga diqqat bilan tikilib qoldi. Ko'ziga qayrilib tushgan quyuq ko'kimtir qoshlari chimirildi. Sandal ustidagi patnisda yotgan jiyya-turshaklarga tikilgancha, Kimsanning xatini eshitishga shaylanib, hali o'tiribman, hali o'tiribman. Oqsoqoldan sado chiqmaydi.

– Nima debdi Kimsanjon? – Ovsinimning ham toqati toq bo'ldi shekilli, choliga qaradi. – Sog'-salomat yurgan ekanmi?

– Sog' bo'lmasa xat yozarmidi! – Oqsoqol jerki berdi. – Xati mayda ekan, ko'zim o'tmayapti.

Shu payt quv-quv yo'talayotgan o'g'ilchasini ko'tarib Potma kelin kirib qoldi.

– Voy aylanay, yaxshiyam uyda ekansiz, o'qing, siz o'qing! – dedim suyunib.

Potma kelin, o'g'ilchasini qaynonasiga uzatarkan, Oqsoqolga qarab kulib yubordi.

– Voy otajon, xatni teskari o'qiyapsiz-ku, albatta ko'zingiz o'tmaydi-da.

– O'zing teskari! – Oqsoqol mo'ylovini burab, xatni uzatdi. – Arabcha imloda xat o'ngdan chapga o'qiladi, hozirgi imloda chapdan o'ngga! Sendan yaxshi bilaman.

Potma kelin xatni qo'liga olib, yana kuldi:

– To'g'ri-ku, o'tgan kuni Shokir akamning xatigayam ko'zingiz o'tmovdi.

– Gaping rost bo'lsa o'qi! – dedi Oqsoqol to'ng'il-lab. – Kimsanboy nima deb yozibdiykin?

Bolaginam dono-da! Dadasi bilan mendan tashqari Oqsoqolga, Xolposh xolasiga, Potma-Zo'ra kelinoyi-lariga nomma-nom duoyi salom aytibdi. Shokir akam, Zokir akamdan xabar bormi, deb so'rabdi. Hujumga o'tishgani, nemisga sichqonning ini ming tanga bo'lib qolganini, o'zi xizmat qilayotgan joyga Jukov degan katta komandir kelganini yozibdi. Shundoq katta odam Kimsanimning qo'lini qisib «malades» deganmish...

– Ana! Nima degandim, senga! – Oqsoqol xat o'qiyotgan Potma kelinning gapini kesib menga qaradi. – O'g'ling geroy bo'ladi desam ishonmaganding. Jukovni bilasanmi o'zi? Oliy Bosh Qo'mondonning o'ng qo'li! Shundoq odam, Kimsanni «malades» debdimi, bundan chiqdi o'g'lingni belida belbog'i bor ekan. Jukovni o'ziyam belida belbog'i bor sarkarda! Ko'rasan, Shokirim bilan Zokirim ham geroy bo'ladi. Aka-uka bitta tankda, pashistni qurvaqadek ezg'ilayotgan emish! Nemis Maskovni olishiga ko'zi yetmay dumini qisib qoldi endi. Gitler G'udryon¹ degan generaliga «qor tushguncha Maskovni olaman deganding, ololmadingmi, endi onangni uchqo'rg'ondan ko'rasan», debdi. Battar bo'lsin! Ertamas, indin o'ziyam qiya bo'b ketadi. O'qi, bolam, o'qiyvur!

Potma kelin o'qiyapti-yu, Kimsanim shundoq yonim-da o'tirib gapirayotgandek. O'zim o'rgilay, aqlli o'g'-

¹ Guderian demoqchi.

limdan! «Dadajon», «oyijon» degan tillaringdan onang aylansin!

– «Dadajon, oyijon... – Potma kelin shoshilmasdan xatning davomini o'qiy boshladi. – Eshitishimga qaraganda Robiyaga sovchilar kelayotganmish. O'shanda bir gapni aytishga uyalgandim. Endi aytib qo'yay: Robiyani uzatib yubormanglar. Agar shunday qilsanglar Toshkentning suvi menga harom. Qizingiz bilan ahd-u paymon qilib qo'rganmiz. Meni o'g'lim desangiz Robiyaning boshini bog'lab qo'yinglar, borgan kunim to'y qilamiz...»

Angrayib qoldim. Men Oqsoqolga qarayman. Oqsoqol – ovsinimga, ovsinim – menga.

Boyadan beri xatni bulbuligo'yodek o'qiyotgan Potma kelin ham to'xtab qoldi.

– Nima? – dedim garangsib.

Qarasam Potma kelin xatning o'sha joyini pichirlab qaytadan o'qiyapti.

– Voy o'lay... – dedim bo'shashib. – Axir, Kimsan... Robiya...

Oqsoqol ko'rpa tagini ochib nosini sandalga tupladi.

– Xo'sh, nima bo'пти? – dedi qo'lini paxsa qilib. – Ikki yoshning yulduzi yulduziga to'g'ri kelgan bo'lsa, sen nimaga obidiyda qilasan, ahmoq xotin? O'qi, o'sha joyini yana o'qi, qizim!

Potma kelin o'sha gaplarni qaytadan o'qidi.

– Ana! – Oqsoqol shaxt bilan qaddini rostlagan edi, belining bodi tutib qoldi shekilli, oh chekib yostiqa yonboshladi. Birpasda peshanasi terlab ketdi. – Padaringga la'nat, qayoqdan yopishdi bu dard! – dedi ingrab. Belining og'rishiga men aybdordek yonboshlab yotgan joyida o'dag'ayladi.

– O'g'ling Robiyani yaxshi ko'radi. Endi tushundingmi? Yo haliyam aqling yetmayaptimi? Robiya suqsurdek qiz bo'lsa, sinashta bo'lsa, tag'in nima deysan, xumgazak? Buyoqqa ber! – Oqsoqol xatni Potma kelinni qo'lidan yulib oldi-da, buklab-buklab yostig'ining tagiga tiqdi. – O'rtoq Jukovdek odam o'g'lining qo'lini qissa-yu bu noz qilib o'tirsa! – U birdan ovsinimga

qarab dag'dag'a qildi: – Nega mulla mingan eshakdek angrayasan. Tur o'ringdan!

Muttasil yo'talayotgan nevarasining burnini pay-darpay etagiga artayotgan ovsinim talmovsirab choliga qaradi.

– Nima deysiz?

– Nima derdim! Umringda to'y ko'rmaganmisan? Payshanba kuni ma'lum oshi qilamiz, uqdingmi? Non yop, balobattar qil! Kimsanboyga men vakil ota bo'la-man. Ertaga ikkovimiz sovchi bo'lib Dumanikiga chiqamiz.

Ovsinim cholidan eshitgan do'qning alamini kelinidan oldi.

– Tug'ishni bilgan, bola boqishniyam eplagin-da, sigirdek xotin! – dedi nevarasini Potma kelinga uzatib. – Ma, gultojixo'roz damlab ichir! Tomog'iga tepki kepti!

Potma kelin yig'layotgan o'g'ilchasini ko'tarib, chiqib ketdi. Boyadan beri xayolimda o'ralashayotgan gap endi tilimga keldi:

– Menga qarang, Oqsoqol... El-yurt nima deydi? Bular kelin tushirishning xarajatidan qochib, asrab olgan qizini o'g'liga suv tekin olib beryapti, demaydimi?

– E, yana gapiradi-ya! – Oqsoqol beli og'riganiga qaramay, qaddini rostladi. Afti burishib ketdi. Sandal ustiga yozilgan quroq dasturxonni jahl bilan mushtladi. Turshak-jiydalar har yoqqa sachrab ketdi. – Ikki yosh bir-biriga ko'ngil qo'yganmi, axir! Og'ziga kuchi yetmaganlar bilan nima ishing bor? Aytdim-ku, qizingga men sovchi bo'p chiqaman. Anovi mumsik cholingga aytib qo'y: shu paytgacha Orif oqsoqol sovchi bo'lib borgan xonadonda qilichi sinib qaytganmas. Gap shu: qiz – Dumaniki, o'g'il maniki. Tushundingmi?

Oqsoqol haliyam o'zimga kelolmay o'tirganimni ang-ladi. Ko'zimga birpas qarab turdi-da, ancha past tushib nasihat qildi.

– Sen, kelin, esli-hushli xotinsan. Xayrli ishni ke-chiktirib bo'lmaydi.

Ming xayol bilan chiqib ketayotgan edim, o'tirgan joyida o'qrayib qaradi.

– Duma kelsa, darrov buyoqqa g'irillat!

Kalishimni kiyayotganimda yana bir gap esiga tushib qoldi shekilli, qo'li bilan imlab chaqirdi.

– Shoshma, o'v! Robiyani oldidanam o'tib qo'y. Nima qilsayam ko'ngli yarim. Ammo Kimsanning xatidan bilinib turibdi, qizing jon-jon deb rozi bo'ladi!

Yettinchi bob

ROBIYA HIKOYASI

Oppoq tong

Qor tushgani bilan hali yer muzlamagan edi. Kartoshkaning qolganini shu bugun qazib olmasak – tamom. Kechasi yer yaxlaydi-yu, shuncha narsa nobud bo'ladi. Haliyam qor uchqunlab turar, ammo havo iliq edi. Bobom kafti bilan qorni surib tashlab palakni topadida, ketmon uradi. Xotin-xalaj shosha-pisha kartoshkani terib, zambilga yuklaydi. Olimjon ikkalamiz paykal chetida turgan ho'kiz aravaga tashiyimiz. Nimadir deb ko'nglini ko'targim keladi.

– Akang ketdilarimi?

– Bugun kuzatib kelishdi! – Bola og'zidan bug' chiqarib entikib-entikib nafas oladi. – Akam yaxshilar-a, opa?

– Yaxshilar! Ko'rasan, yaqinda orden taqib keladilar.

Ko'zoynagini yiltiratib, «yaxshi ko'rish ayb emas-ku», deb iltijo qilgan Ochil aka, tog'amning bo'yniga osilib, «meniyam obketing», deb yalingan Ra'no kelinoyim, oppoq qor bosgan dala, qo'lga olsangiz chayondek chaqayotgan muzdek kartoshkalar – hammasi aralash-quralash bo'lib ko'z o'ngimdan o'tadi, boshim aylanadi...

Xayriyat, kun botmasidan oxirgi egatdagi kartoshkani ham terib oldik. Qorga botib qolgan ho'kiz aravani hay-haylab katta yo'lga olib chiqquncha terlab ketdik.

Bobom quruq aravani tortishga ham madori qolmagan eshagini «xix-xix»lab yo'lga tushdi. Uyga yetgunimizcha qorong'i quyuqlashib ketdi.

Oyimning ovqati haliyam pishmabdi.

Bobomning jahli chiqib ketdi.

– Padaringga la'nat, pakana! – dedi to'ng'illab. – Bir qoshiq obiyovg'onni pishirib qo'yolmasang!

Oyimga achinib endi oshxonaga yugurmoqchi edim, bobom jerkib berdi.

– Baqqa ke, seni boshqa ishing bor. Jo'xoripoya tashiysan.

Oyim xafa bo'lmadi, dasturxonga bir choynak choy, to'rtta turshak qo'yar ekan, negadir jilmaydi.

– Sabr qiling, dadajonisi! Hozir pishadi, biram shirin go'ja qaynatib qo'ydimki, og'zingizda erib ketadi.

– E, go'jangniyam... – Bobom piyolaga choy to'ldirib jahl bilan bir ko'targan edi, og'zi kuyib, ko'zidan yosh chiqib ketdi. Choyni tupurib tashlab, chiyilladi. – Qaynoq desang o'lasanmi, pakana?! Yoshi oltmishga chiqibdi-yu, choy qaynatishni bilmaydi!

Oyim bu safar ham xafa bo'lmadi.

– Ehtiyot bo'ling-da, dadajonisi, – negadir yana iljaydi. – Shomurodni kuzatgunimcha kech bo'lib ketdi-da... Aytgancha, Komil tabib ham o'g'lini jo'natdi.

Bobom hadeganda jahlidan tushadiganga o'xshamasdi. Dasturxondagi turshaklarni kaftining orqasi bilan turtib menga imo qildi:

– Yur!

Endi o'rnimizdan turgan edik, oyim bobomga yalinchoqlik bilan qaradi.

– Dadasi-i-i! – dedi cho'zib. (Zaril gapi bo'lsa shunaqa qiladi.) – Oqsoqol tayinlab-tayinlab aytuvdilar. Kelishi bilan chiqsin degandilar.

Bobom battar tutaqdi.

– Nima qilay, belini silab qo'yaymi? – dedi chiyillab. – Xotiniga silatsin! – U menga qarab to'ng'illadi. – Yur anqaymasdan!

Ota-bola hovliga tushdik. Qorong'i quyuqlashib ketgan bo'lsa ham hovli sathini qorning ko'kimtir nuri yoritar, gultojxo'rozlar ko'chada qolgan yetim boladek qor ostida boshini o'ksik egib turardi. Tokzor etagidagi jo'xorizor orasiga kirishimiz bilan ustimga shuvillab qor yog'ila boshladi.

Bobom to'g'ri qilyapti. Jo'xoripoyalarni shu bugun o'rib olmasak bo'lmaydi. Hozircha yer yumshoq. Ertaga

muzlab qolsa, ish yanayam og'irlashadi. Bobom zich o'sgan poyalarning besh-oltitasini kaftiga juftlab bir tortsa, ildiz-pildizi bilan sug'rilib chiqadi. Lekin tashish borib turgan azob. Qor tagida qolgan poyalar zil-zambil bo'lib ketgan. Har bittasining ildiziga qor aralash bir botmon loy ilashib chiqadi. Avval ildizga ilingan loyni oyog'im bilan sidirib tozalayman. Keyin bir quchoq qilib ko'taraman. Ho'l bo'lib ketgan yaproqlar yuzimga tegib, g'ashimni keltiradi. Bostirmaga tashib kirgandan keyin hammasini alohida-alohida yoyib qo'yish kerak. Jo'xoripoyani ustma-ust tashlasa bo'lmaydi. Mog'or bosib, chirib ketadi. Ko'klamda, ilik uzildi kunlarida mol yemsiz qoladi. Bostirma tuynugidan kirgan sovuq shamol tinimsiz izillaydi.

Oyim tomorqa eshigidan kirishimni poylab turadi. Qo'limdagi jo'xoripoyalarga yopishib, bostirmaga tashishga ko'maklashadi. Ko'rib turibman, bobomning oldiga borishga qo'rqyapti. Ko'ziga ko'rinsa, so'kish eshitadi.

Qish – misoli yomon kasal. Kelishi oson, ketishi qiyin. Biz birinchi qor yog'ishi bilan shunchalik qiynalib qoldik. Kimsan akam nima qilyapti ekan?.. Uyoqlarda tuf desa, tufuk yaxlarmish...

Nihoyat hamma jo'xoripoyani tashib bo'ldik. Havo sovuqligiga qaramay, terlab, bo'kib ketgan bobom, ochiqqan ekan shekilli, qoshiq solishga sabri chidamay, oldidagi go'jani kosasi bilan ko'tarib, xo'rillatib ichib qo'ya qoldi.

– Yana suzib kelaymi? – dedi oyim uning ko'ziga tikilib.

– Ertalabga qolsin! – Bobom tovoq tagini yalarkan, tushuntirdi: – Go'janing sovug'i ja ichishli bo'ladi.

– Chiqasizmi?

Charchoqdan ko'zlari yumilib ketayotgan bobom norozi g'o'ldiradi.

– Qayoqqa?

– Oqsoqolnikiga? Zaril ishi bor ekan.

– Obbo! – Badaniga endi issiq o'tgan bobom rohati buzilganidan g'ashi kelib ijirg'andi. – Shu Oqsoqolam g'irt ahmoq odam-da! Nima ishi bor ekan, yarim

kechada! – Shunday dedi-yu baribir sandaldan sug'irilib chiqdi.

– Idishlarni yuvaqol, bolam! – dedi oyim menga qaramay.

Chiqib ketayotganimda chol-kampir pichir-pichir qilayotganini sezdim. Bobomning «a?» degani qulog'imga chalindi.

Tag'in nima gap? Mendan yashiradigan nima sirlari chiqib qoldi yana?

Xayol bilan nimqorong'i oshxonaga kirganimni bilaman, sarpoychan oyog'imga allaqanday nam, qitiqlovchi junli narsa urildi. O'takam yorilib, qo'limdagi tovoqlarni tashlab yuboray dedim.

– Pish-te! – Oyog'imga suykalgan mushuk lip etib hovliga chiqib ketdi. Zum o'tmay o'sha tomondan bobomning tovushi keldi:

– Qani, maslahatlashib ko'raylik-chi!

Yana qanaqa maslahat! Ko'nglim xijil tortib, lip-lip chiroq yog'dusida tovoqlarni shosha-pisha yuvdim, uyga kirdim. Burchakdagi sandiqni ochib atrofiga Kimsan akamning yakka-yu yagona ohorlik to'ni, do'ppilari, latta-puttallarni uyib tashlagan oyim, o'tirgan joyida yelkasi osha qaradi. Yettinchi lampa yorug'ida yuzi shodon qizarib ketgan edi...

– Senam o'zingga yetguncha pishiqsan, – dedi negadir kulib. – Qiz bola shayton bo'ladi degani shu-da!

Hayron bo'ldim.

– Nega unaqa deysiz?

Oyim o'rnidan dik etib turdi.

– Voy-voy-voy, sodda mug'ombir-ey! – Ikki qo'llab yuzimdan ushlab ko'zlarimga tikildi. Ko'zlarida quvnoq tabassum aralash mehr bor edi. – Shuning uchun sovchi kelsa bir sapchib tushayotgan ekansan-da!

Bundan chiqdi Kimsan akamdan xat kelgan! Bundan chiqdi u xatimni olgan! Bundan chiqdi... «Rostdanmi?» deb yuborishdan o'zimni arang tutib qoldim.

Ikki yuzim lovillab yonib ketayotganini sezib turar, ko'zimni qayoqqa yashirishni bilmasdim.

– Shu gapni o'zinga aytsang bo'lmasmidi, shayton qiz?! – dedi oyim erkalab.

Baribir tilimni shuncha tishlasam ham yuragimni yorishtirgan savol og'zimdanda chiqib ketdi:

– Ulardan xat keldimi? (Qiziq, oyim bobomning ketidan «ular» deb gapirardi. Hozir o'zim ham shunaqa deb yuborganimni bilib battar uyalib ketdim.)

– Keldi-keldi! – Oyim tag'in kuldi. – Sen o'qiydigan xatmas. Qiz bolaga uyat bo'ladi.

Butun vujudimda shirin bir titroq turdi. Beixtiyor oyimning qo'lidan yulqinib chiqib berigi uyga kirdim. Derazaning bug'lanib qolgan oynasini artib hovliga qaradim. Vaqt yarim kechadan oshgan bo'lsa ham tashqari yorug' edi. Boyagina yetimchalardek diydirdab turgan gultojxo'rozlar ham, molxonaning qor bosgan tomi ham ko'zimga olamjahon bo'lib ko'rinar, qor degan narsa shunaqa pokiza bo'lishini, qish degan narsa shunaqa issiq bo'lishini birinchi marta ko'rib turganimga o'zim hayron edim. Oyog'imga suykalgan mushukning ho'l yelkasini siladim. Muncha yumshoq! Qor muncha tiniq! Ana, hammayoq yop-yorug'! Shunaqangi yorug'ki, kashta tiksa bo'ladi! Xayolimga shu o'y ilinishi bilan taxmondagi qutini titkilashga tushdim. Mana, qiyiqcha! Kimsan akamniki! Yo'q, bunisimas. Bunisiga gul tikib bo'lganman. Hov o'shanda! Ikkalamiz Toshkentga tomoshaga borgan kunimiz, oyimdan bекitib! Yana allaqancha qiyiqchani g'amlab qo'yganman. Mana! Shunisiga tikaman!

Ninadan ip o'tkazishga ancha qiynaldim-u parvo qilmadim. Zarari yo'q. Ipak qalin bo'ladi-da, o'zi. Ana, bo'ldi! Deraza yorug'! Chiroq kerakmas. Qorning o'zi yoritib turibdi.

Deraza tagiga o'tirgancha zangori qiyiqchaga qizil ipak bilan «K», «R» degan harflarni bosishga kirishdim. Oyim, meni uxlab qoldi deb o'yladimi, uyaltirgisi kelmadimi, haytovur buyoqqa kirmadi. Sezib turibman: narigi uyda chiroq yoniq. Oyim bobomni kut-yapti. Nimqorong'ida kashtam qing'ir-qiyshiq chiqdi. Nima bo'пти? Kimsan akam kelsa aytaman. «Qor yorug'ida tikkanman», deyman. Kimsan akam hayron qoladi.

Nihoyat hovli tomondan qorning g'irchillagani, bomning ayvonga chiqib gursillatib yer tepgani eshildi.

– Onasi! Payshanbaga xabar qilaver!

Hozir oyim kirib kelishini bilib, qiyiqchani qutiga yashirdim-da, sovib qolgan sandalga oyog'imni tiqqan-cha o'zimni uxlaganga solib yotib oldim. Tashqarida, deraza ortida oppoq, tip-tiniq tong otib kelar edi.

Sakkizinchi bob

«QORA AMMA» HIKOYASI

Qizimga ona, o'g'limga qaynonaman

Robiyani tong otmasdan ishga jo'natdim. O'lar endi, qiz bola o'zining «ma'lum oshi»da o'zi o'ralashib yursa. Qo'ni-qo'shni «uchib-qo'nib» turgan ekan, demaydimi?

Kimsanimni kuzatgan o'sha saraton kunidan beri bunaqa chiroyli patir yopmagan edim. Qopda qolgan bug'doy unning hammasini qordim. Cholimning o'zi aytdi. Ertalab otamdan qolgan eng katta bisotim – pat gilamni eshak aravaga ortib bozorga olib ketarkan, tayinladi:

– Yog' solib patir yop, onasi! Hammasi risoladagidek bo'lsin!

Nonni uzyapman-u nuqul Kimsan bilan gaplashaman. Mana, bolam, hammasi taomildagidek bo'lyapti. Voy, bola-ya, ko'paygur-a! Ko'nglingda-ku shu niyat bor ekan, ketayotganingda bir og'iz aytmay-sanmi? «Shunaqa, shunaqa, oyi, meni ko'nglim Robiyada», demaysanmi? Allaqachon boshini bog'lab qo'ymaymizmi? Robiyayam qiziq. Begona emas-ku! «Oyijon, Kimsan akam bilan ahd-u paymonimiz bor», desa-ku, olam guliston!

Peshinga yaqin Oqsoqolnikidan to'y keldi. Yarim qop guruch, bir chirpit yog', bir qop un. Sedana sepilgan holva, mayiz, kallaqand... Gilam puliga kelgan yog' bilan guruchni Oqsoqolnikiga cholimni o'zi olib borib beruvdi. Holva, mayizlar qayoqdan paydo bo'ldi? Oqsoqol bilan ovsinimning ishi-da!

Cholim Kimsan kelsa oyog'iga so'ymoqchi bo'lib yurgan qo'chqorni bo'g'izladi. O'z qo'li bilan osh damladi. Birpasda ancha odam to'plandi. Bayramlarda kiyadigan movut kamzuli ustidan ovsinimning issiq ro'molini beliga bog'lab olgan Oqsoqol ayvonda o'tirib hammaga buyruq beryapti.

– Magizni mo'lroq solaver, pakana! Eringga o'xshab qurumsoqlik qilma. Holvadan tashla, holvadan!

– Nega angrayasan, abzi? Samovaringni suvi qurib ketdi-ku. Eritib qo'ysang, naqd o'zingni tutantiriq qilib tashlayman!

Patnislarga holva tashlayotib, razm solib qarasam, abzi g'alatiroq ko'ringandek bo'ldi ko'zimga, Oqsoqol hazillashib dashnom bersa, nuqul ta'zim qiladi. Sariq kipriklarini pipirratib, iljaymoqchi bo'ladi-yu labi titraydi. Ichib olganmi...

Oqsoqol patnis tashib yurgan Xolposh ovsinimga tegishadi.

– Hoy semiz, ko'zingga qara! Yiqilib-netib yurma tag'in. Seni ko'tarib olishning o'zi bo'ladimi?

Lo'mbillab xizmat qilib yurgan ovsinim sharaqlab kuladi.

– Hamma ko'tarmasayam siz borsiz-ku, chol! Menga joningiz kuymasin-da, o'zingizga qarang. Belingizga shamol tegmasin!

– Ishing bo'lmasin, tegsa menikiga tegadi, senikigamas!

Hazil-huzul bilan mehmonlarga patnis tarqatildi. Oshxonada sopol laganlarni yuvib o'tirsam ayvon tomondan Oqsoqolning suyunib hayqirgani eshitildi.

– Iye, ana kelin bolayam kep qoldi.

Yo'g'-e! Nahotki Robiya odamlarni ko'ziga ko'rinsa? Hayron bo'lib hovliga chiqdim-u Ra'noxonni ko'rib quvonib ketdim. Kelinim haliyam onasining uyida bo'lsa kerak deb o'ylagandim. Qarang, o'zi kepti! Bundan chiqdi Ko'tarmaga qaytibdi-da.

Yugurib borib ikki yuzidan o'pdim.

– Bilgandek kelganingizni qarang! Shomuroddan xat-xabar bormi?

Kelinim chiroyli qunduz yoqali palto kiyib olgan, ko'hli ko'zlari ma'yus kulib turardi. O'payotganimda dimog'imga gunafsha hidi urildi.

– Hozircha yo'q, – dedi sekin. – To'yingning ustidan chiqib qopman shekilli!

Ichimdan zil ketib tushuntirdim.

– Jon kelin, shoshib qoldik. Ukangiz xat yozibdi. Robiyaning boshini bog'lab qo'yinglar, debdi. Oqsoqolning maslahati bilan shu ishni bugun qila qoldik. Xabar bermoqchi edik, pochchangiz bozorga ketdi. Qaysi kuni Robiya Ko'tarmaga borsa yo'q ekansiz. Qudam tuzukmilar?

– Shukr... – Ra'noxon mayin jilmaydi. – Kecha qaytdim.

Juda dilbar-da, kelinim. Arazlab ham o'tirmadi. Qunduz yoqali paltosini yechib tashlab darrov lagan yuvishga tushib ketdi.

– Menga tabelchilik qilasiz deyishyapti, – dedi laganni quruq sochiqqa arta turib: – Maylimi?

Qarasam ko'zlari javdirab, javob kutyapti.

– Kim aytdi?

– Rais, Umar aka...

– Yaxshi-da! – dedim chin dildan suyunib. – Loyga belanib ketmon chopgandan ko'ra tabelchi bo'lsangiz yomonmi, Ra'noxon! Savodingiz bor, hisob-kitobni bilasiz...

Osh endi damlangan edi, pocha-po'stin kiygan Umar zakunchi ham kelib qoldi. Yonida Soli so'poq... Bug'altir so'poq bo'lsayam, yaxshi, bechora! Ketmonchigami, suvchigami haq tegmay qolsa, nimaga tegmaganini erinmasdan tushuntiradi. Kolxoz MTSdan qarzdor bo'lib qolganini, traktorga kerosin yetmaganini, hosil yaxshi unmaganini... Xullas, insofli odam. Ikkovlari oldinmay keyin kirib kelishlari bilan odamlar yanayam jonlanib ketdi.

– To'ylar muborak bo'lsin! – dedi Zakunchi chehrasi yorishib. Boshidan chaqmoq telpagini olgan edi, qopqora sochlari chakkasiga yoyilib tushdi. – Tabriklaymiz! – U avval ayvonda o'tirgan Oqsoqol bilan, keyin cholim bilan qo'l olishib ko'rishdi. – Aka! – dedi qor bosgan

behi tagida turgan Komil tabibga qamchi bilan imo qilib.
– Tashqariga chiqing, gap bor!

Komil tabib eshikka yo‘l oldi. Bir ozdan keyin ikki bukchayib qop orqalab kirayotgan edi. Oqsoqolning ko‘zi tushib, zardasi qaynab ketdi.

– Hoy so‘poq! – dedi qo‘lini paxsa qilib. – Akang tengi odamga qop orqalatgani uyalmaisanmi? Xirsdan kuching bor. Ol o‘zing!

Oqsoqol Komil tabibni qattiq izzat qiladi. Luqmoni hakimning nafasi tekkan deydi. Butun No‘g‘ayqo‘r-g‘onda faqat shu odamni sizlab gapiradi. Tabibning o‘ziyam chaqaloq bolagacha «sizlaydi». Cholimning aytishicha, tabib sigirini ham sizlab chaqirarkan. «Chu» demay, «chuing» derkan...

Soli so‘poq «xo‘p bo‘ladi» deb o‘sha tomonga pildiradi. Pak-pakana, semiz gavdasini lapanglatib tabibning yoniga bordi. Qo‘yarda-qo‘ymay yelkasidan qopni oldi.

– Mana bu boshqa gap! – Oqsoqol xijolat chekibroq turib qolgan tabibni chaqirdi. – Baqqa keling, Komilboy. Joyingizni bilib o‘tiring.

Shlyapasi qiyshayib ketgan Soli so‘poq qopni ayvon tagiga tirab qo‘ydi-da, terlab-pishib yana bir qop narsa orqalab kirdi.

– Sovet jangchisining to‘yiga kolxozdan sovg‘a! – dedi Umar zakunchi tantana bilan. – Vatanimiz uchun jon fido qilayotgan askardan biz ham hech nima ayamaymiz. – U cholimga qarab kulib qo‘ydi. – Bir qop un, bir qop guruch! Pravlenie nomidan.

Cholim shoshib qoldi.

– O‘tiring, rais, o‘tiring, – dedi ikki qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib. – Hozir osh suzimiz.

Umar zakunchi Oqsoqol bilan Komil tabibning yoniga ayvonga chiqdi. Qozon ochilishi bilan hovlini osh isi tutib ketdi. Cholim yaxlit go‘shlarni kapgir uchiga ilib olib, tog‘oraga solayotgan edi. Oqsoqol o‘tirgan joyidan mo‘ylovini burab qo‘ydi.

– Bugun qo‘shaloq bayram, Duma! Eshitdingmi, askarlarimiz nemisni Volga – Maskov kanalining narigi betiga uloqtirib tashlashibdi.

Umar zakunchi Oqsoqolning yelkasiga qo'l tashladi.

– Oqsoqol – malades! Hamma narsadan xabardorsiz-a!

Oqsoqol unga qaramay, cholimga buyurdi.

– Oshning oldini tog'oraga bos! Sergo'shtroq bo'lsin. Ustiga patir qo'y. Holva bilan magizdan tugunga o'raginda, omborda piyoz tozalayotganlarga yubor!

Cholim tog'oraga osh bosdi. Patir, holvalarni alohida tugunlarga o'rab, qo'liga berdim. Eshak arava qorda chuqur-chuqur iz qoldirib yo'lga tushganidan keyin hovliga kirsam, Komil tabib laganlarga osh suzib tarqatyapti.

Ko'p o'tmay Oqsoqolning asabiy ovozi guldiradi.

– Choy! Uxlab qoldingmi, abzi! Mehmonlarga choy bermaysanmi?

Ra'noxon oshxonadan chiqib, yugurib oldimga keldi.

– Oqsoqol choy so'rayaptilar.

– Voy o'lsin, abzi qayoqqa ketdi?

Behi tagida qaynab turgan samovar oldiga borsam Rashid abzi yo'q. Kattakon mis samovar ustida oltita choynak tumshug'ini tumshug'iga tirab, terib qo'yilibdi. Jo'mrakni buragan edim, suv jildirab tushdi. Shoshapisha choynaklarni xontaxta ustiga qo'yib, samovar qopqog'ini ochsam, tagida ikki qultum suv qolibdi. Yaxshiyam erib ketmagani! Abzining bunaqa odati yo'q edi-ku! Ichib yiqilib qoldimi, nima balo!

To'qqizinchi bob

ROBIYA HIKOYASI

«Shumqadam» abzi

Iz tushmagan qordan yurishning gashti g'alati bo'ladi. Hammayoq jimjit. Yo'l chetidagi qor bosgan tollar turmushning baland-pastini ko'raverib, har qanday mushkulotni xotirjamlik bilan kutib olishga o'rganib ketgan qariyalardek oppoq boshini quyi solgancha o'yga cho'mgan. Xo'roz qichqirmaydi, qushlar chirqilamaydi. Faqat idora yaqinidagi MTS tomonidan yakka traktorning o'qtin-o'qtin gupillagani eshitaladi.

Pastak devor ortidagi tandirdan zog'ora non hidi anqiydi.

Bugun biznikida zog'ora emas, patir yopilyapti... Birpasdan keyin uyimizga odamlar yig'iladi. Oyim aytgandek, «irim-sirimi»ni qilishadi-da, butun qishloqqa xabar tarqaladi: «Robiyaning boshi bog'landi». Qiziq, «boshi bog'landi»... G'alati gap-a!

Qaniydi hozir Kimsan akam ham, dadam ham yonimda bo'lsa! Dadam rosa suyunardi. (Bilaman, dadam Kimsan akamni yaxshi ko'rardi, doim o'g'lim derdi.) Keyin Kimsan akam ikkalamiz hammalarining ko'zini shamg'alat qilib, shaharga borib, suratga tushib kelardik. Zo'r kelsa quda xolani – Ra'no kelinoyimning onasini ko'rgani bordik, deb bahona qilardik. Aytmoqchi, Ra'no kelinoyim qaytganmikin, shahardan! Dushanba kuni Ko'tarmaga o'tganimda uyiga borgan edim, eshigi taqa-taq berk, kelmagan ekan. Bugungi marosimda Ra'no yangam ham qatnashsa yaxshi bo'lardi...

Omborga yetib kelganimda kun hali yorishmagan, ammo olisdagi tog'lar qirrasi havo ochiq bo'lishidan darak berib gunafsharang tusda tovlanib ko'rinardi. Kolxoz ombori – tomi somon suvoq qilingan pastak, uzun bostirma. Qamish bosilgan tom har yili qayta-qayta suvalaverganidan qalin tortib ketgan: yarim gaz keladi. Buning ustiga qor yog'ib, tomni yanayam qalin qilib yuborgan. Birov paxsadevorga hazillashib turtib yuborsa, azza-bazza bosib qoladigandek. Arava sig'adigan darvozasi bor. Deraza o'rniga qing'ir-qiyshiq taxtalar qoqib qo'yilgan. Nariroqda tunuka tomli idora. Idora ro'parasida choyxona. Hovuz atrofidagi qor bosgan tollar ustida qarg'alar charx urib qag'illaydi. Undan narida Umar zakunchining tunuka tomli uyi. Beriroqda atrofi paxsa-devor bilan o'ralgan MTS hovlisi. Boyagi traktor yo'tal tutgan odamdek ora-chora gup-gup qilib qo'yadi, ammo muttasil tarillamaydi. O'sha tomondan osmonga o'qtin-o'qtin ko'kimtir tutun ko'tariladi. Ombor darvozasi yuziga yopib qo'yilgan ekan. Top tashlab qolgan darvozaning bir tavaqasini ochguncha harsillab ketdim. Tagini qor bosib qolibdi. Endi ichkari kirmoqchi edim, idora peshtoqidagi to'rtburchak qora

karnay qitir-qitir qildi. Hammaga tanish bo'lib qolgan yo'g'on, salobatli ovoz eshitildi. Informbyuroning qirq birinchi yil yigirma to'qqizinchi noyabr axboroti e'lon qilindi. Demak, kechagi axborot. Diktor dushman tank qismlari Yaxroma degan joydan Volga-Moskva kanali ko'prigidan o'tishgani, ammo bizning qo'shinlarimiz fashistlarni kanalning narigi betiga uloqtirib tashlab, qarshi hujum boshlashganini aytdi. Negadir nayzali miltiq ko'tarib, qor bosgan dalada dushmanlarni quvib ketayotgan Kimsan akam ko'z o'ngimga keldi. Biznikilar hujumga o'tgan bo'lsa, bundan chiqdi bir-ikki oyda, uzog'i bilan bahorda urush bitadi. Kimsan akam keladi-da, keyin...

Yuragim shirin orziqib ketdi. Mayli, oyim uyaltir-sayam mayli, bugun Kimsan akamning xatini baribir so'rab olaman. Adresini bilaman-da, yana xat yozaman.

Sovuq, zax omborga kirishim bilan piyoz isi dimog'imga urildi. Ombor ichi nimqorong'i. Ro'paradagi deraza o'rniga qoqilgan taxtalar orasidan taram-taram ingichka nur tushib turar, ammo omborni yoritishga ojizlik qilardi.

Bir muddat turib qoldim, ko'zim qorong'ilikka o'rgangandan keyin omborning bir burchagida tog'dek uyulib yotgan piyoz, narigi burchagidagi karamlarni ilg'adim. Piyoz to'dasi yonida qanor qoplar taxlab qo'yilgan edi. Bugun piyoz saralaymiz. Yirigini qopga solib tayyorlab qo'yamiz, frontga jo'natishadi, danakdek maydalarini urug'likka ajratamiz.

Qoplardan birini tagimga yozib endi piyoz saralay boshlagan edim, darvozadan tushib turgan nur xiralashdi.

– Qaysi biringsan, hoy? – degan keskin tovush eshitildi.

Tanidim. Bashor opa! Darvoza oldida qo'lini beliga tirab turibdi.

– Men! – dedim o'zimni tanitib.

– Qolganlar qani? Erini tush ko'rib yotibdimi?

U chapanicha katta-katta qadam tashlab, tepamga keldi. Dimog'imga lampamoy hidi urildi.

– O'lsin, motor o't olmayapti! – dedi yonimga cho'nqayib. – MTSda o'zimdan boshqa hech zog'

qolmadi. Nima balo, bular meni erkak deb o'ylaydi, shekilli!

U qoramoy bosgan qo'lini etigining qo'njiga artib tozaladi-da, bekor o'tirgandan, bekor ishla qabilida to'dadagi piyozlarning dumini yulib, qanorga tashlashga tushdi.

Bashor opa – shaddod xotin. Uncha-muncha erkakni bir cho'qishda qochiradi. No'g'ayqo'rg'onda birinchi bo'lib traktor haydagan ayol ham, Yo'ldosh otaning qo'lidan maqtov qog'oz olgan ham shu.

Oyimning aytishiga qaraganda, u yoshi o'ttizni qoralab qolguncha ham erga tegmabdi. Bir marta sovchilarni oldiga solib quvlagandan keyin qaynonasini tokchaga chiqarib qo'yadigan bunaqa kelinni hech kim havas qilmay qo'yibdi. So'finamo otasi, musichadek beozor onasi, «qiz ko'rgandan tuz ko'rsam bo'larkan», deb kuyovdan umidini uzganida Bashor opa Toshkentga serqatnov bo'lib qolibdi. Bir kuni qosh-ko'zi qop-qora, suqsurday yigitni boshlab kepti.

– Shu yigit sizning kuyovingiz bo'ladi. Ko'nsangiz uzating, ko'nmasangiz hozir kuyovingiz bilan qochib ketaman, – debdi. So'finamo ota «el-yurt o'rtasida sharmanda qilding» deb, soqolini yulibdi. Ona bechora, «oq sutimni oqqa, ko'k sutimni ko'kka sovurdim», deb yig'labdi. Bashor opa pinagini buzmay sabzi to'g'rayotganmish (kuyovni payg'ambarlar ham siylagan. Osh damlash kerak-da, axir). Ota-ona taqdirga tan berib, raisni maslahatga chaqiribdi. (O'shanda Oqsoqol rais ekan.) Oqsoqol indamay chiqib ketibdi-da, juma kuni falonchinikiga to'y deb hammaga xabar qilibdi.

Bashor opa urushgacha Pochcha bilan inoq yashar edi. (Ichkuyovning otini hech kim bilmas, katta-yu kichik hamma Pochcha deb chaqirardi.) Pochchani men ham ko'rganman. Kolxozda duch kelgan ishni qilib ketaverar, uyatchan, yuvosh kishi edi. Bashor opa yuvosh bo'lmaganiga qo'yarmidi! Oyim aytgan: bir kuni Bashor opa shovlani qaynatib o'zi traktorga andarmon bo'lib ketibdi. Xullas, erining oldiga bir lagan qirmoch obkeb qo'yibdi. Erkak bari bir erkak-da! Pochchaning achchig'i chiqib bo'ralab so'kinibdi. Shunda Bashor opa

senmisan onamni so'kadigan deb, shavlani lagan-pagani bilan Pochchaning yuziga otibdi. Pochcha sho'rlik ikki yuzi shilinib tushib, bir oygacha odamlarning ko'ziga ko'rinolmay yuribdi... Har kimning o'ziga yarasha tashvishi bor. Bashor opa o'n yil turmush qurib bola ko'rmagan. Ikki oycha burun Pochcha ham urushga ketdi. Odamlarning gapiga qaraganda, Bashor opa erini vagonga chiqara turib tayinlaganmish:

– Gitlerni o'zini o'ldirib xotinini bandi qilib obke-masangiz, sizdaqa erni uch taloq qo'ydim. Gitlerning xotinini cho'ri qilib ishlatmasam, xumordan chiqmay-man! – deganmish.

Ombor endi sal yorishganda Fotima-Zuhra kelinlar boshlashib kelib qolishdi. Fotima kelin yelkamga qoqib ko'risharkan, sirli jilmaydi.

– Moro bo'lsin, poshsha qiz!

Zuhra kelin qop-qora ko'zini qisib qo'ydi.

Uyalib Bashor opaga qaradim. Hozir askiya qiladi. Zuhra kelin «gapirma» deb opasiga imladi shekilli, Fotima kelin jiddiy tortib yonimga cho'kdi.

– Traktor yurmay qoldimi? – dedi Bashor opaga yuzlanib.

– Senlar qarashmaganingga yurmayapti!

– Voy-voy-voy! – Fotima kelin hurkib orqaga tashlandi. – Men traktorning yoniga bora olarkanmanmi?

– O'lmaysan! Ering haydagan traktorni sen haydolmaysanmi? Sen Shokir akang mingan traktorni olasan, sen... – u Zuhra kelinga yuzlandi. – Zokir akang-nikini. Harna ikkita yordamchi bo'ladi.

– Yo'g'-e, – dedi Zuhra kelin bosh chayqab. – Traktorchilik erkaklarning ishi.

Darvozaning ochiq tavaqasida tag'in bir soya paydo bo'ldi. Gap uzilib qoldi. O'sha tomondan Parcha opaning do'rillagan ovozi keldi:

– Assalom alaykum! Hormayla!

– Qoch, xira qilma! – Bashor opa chaqqonlik bilan piyoz dumini yularkan, dashnom berdi. – Senga necha marta aytaman, hoy Parcha o'lgur, eringni qo'ynida yalpayi-ib yotmasdan, tezroq qimilla. Qachon qarasa itning keyingi oyog'i bo'lib yurasan.

Parcha yoyilib kuldi. Kulishi g'alati. Erkakcha ovoza «ho'-ho'-ho'» deydi. Do'ngdek yelkalari silkinib, og'zidan tufuk sachrab ketadi.

– Erim yo'q-ku, opa! – dedi do'rillab. – Bo'sa topib bering!

– Voy, haliyam tegmadingmi? – Bashor opa chinakamiga hayron bo'lgandek, Parchaga qaradi. – Shundoq qiz ersiz yursa, bu qandoq noinsoflik-a, nima dedinglar, qizlar?

Fotima-Zuhra kelin qah-qah urib kulishdi. Parcha ham ularga qo'shilishib do'rilladi. Rostmi-yolg'onmi, bilmadim-u bir vaqtlar Parchani erga berishgan deyishadi. Kuyov chimildiqqa kirib, shundoq Parchaning yuzini ochibdi-yu, dod solib qochib chiqib ketibdi. O'sha-o'sha bu yurtlardan bosh olib ketganmish.

– O'tir! – Bashor opa unga burchakroqdan joy ko'rsatdi. – Voy, joningni qadrini bilmay o'l! Yerga o'tirsang ham hech balo qilmaydi. Yog'ing ko'p sani!

Hazil-huzul bilan birpasda allaqancha piyozni qanorlarga joyladik. Ish qiyin emas, ammo ombor zax, buning ustiga achigan karam, piyoz isi dimoqni yoradi. Havo iliq bo'lsayam, baribir qorning zahri bor. Qimir-lamay o'tirganimiz uchun tizzalarimiz uvishib qolgan... Oxiri hammamiz jimib qoldik. Chamasi har kim o'zicha xayol surar, har kim olislarda yurgan o'zining odamini o'ylar edi.

Bashor opaning yuragi siqilib ketdi shekilli, ataylab shang'illadi:

– To'yni qachon qilamiz endi, Parcha?

– Kimni to'yini etvossiz, opa?

– Voy, o'zingni soddalikka solmay... – Bashor opa mug'ambirona kulimsiradi. – Rashid abzi sovchi qo'yibdi-ku, senga!

Parcha astoydil ajablandi. Keyin qo'lidagi mushtdek piyozni qopga tashlab qo'l siltadi.

– E, bo'miydi opa!

– Nimasi bo'lmas ekan! Tuppa-tuzuk erkak. Insofli, diyonatli. Uyi ham yaqin. Shundoq devor oshasan-u kelin bo'lib tushasan. Har kuni mo'rchasida mazza qilib cho'milasan.

– Bo‘miydi! – Parcha yuzini o‘girdi. – Mino ichadi. Mino ichib, garmon chaladi.

Bir zum sukutdan keyin Bashor opa yangi taklifni aytdi:

– Unaqa bo‘lsa, Zakunchiga aytaman, ertaga sovchi yuboradi.

– Kim? – dedi Parcha baqrayib.

– Kolxozda nechta Zakunchi bor! – Bashor opa shu niyam bilmaysanmi, degandek chimirilib qaradi. – Raisni aytyapman! Umar zakunchini!

– E, uyam bo‘miydi! – Parcha piyoz dumini shaxt bilan yulib, chetga otdi. – Qo‘rqaman, ko‘zi yomon!

Bashor opa astoydil jahli chiqqanday xitob qildi.

– Voy, ko‘nglingni ko‘chasidan o‘rgildim! Shundoq raisga oberaman desam, siz noz qilasizmi?

Ajab, hech arazlamaydigan Parcha opa birdan to‘rsayib oldi.

– Kerakmas! – dedi yig‘lamsirab. – Ko‘zi yomon!

Gap yana uzildi, piyozning shitir-shitiri avjiga chiqdi. Achigan karam isi dimoqqa urildi. Tashqarida kun yoyilib ketganiga qaramay, sovuq zabtiga olib, oyog‘imga so‘zak kira boshladi.

– Adasini tush ko‘ribman, – dedi bir mahal Fotima kelin. Ovozi negadir g‘amgin edi.

Bashor opa gapga mavzu topilganidan sevinib shodon kuldi.

– To‘g‘risini ayt: nima qilayotganmish ering?

Fotima kelin yerga qaradi. Lo‘ppi yuzi qizardi.

– Sizga shunaqa gap bo‘lsa!

Bashor opa qah-qah urib kuldi.

– Rost-da, erini sog‘ingan xotinning tushiga nima kirardi!

– Yo‘q, – dedi Fotima kelin mahzun tovushda. Tushimda Oypopukni beshikka belayotganmishman. Voy, kap-katta bolani beshikka belab esimni yedimmi deb mundoq qarasam, beshikda yotgan qizim emas, Shokir akam emish.

O‘rtaga etni junjituvchi xatarli sukunat cho‘kdi. Xotin kishining tushiga beshik kirsam, o‘ngida tobut ko‘radi, degan gap qulog‘imga chalingan edi. Hozir shu esimga

tushib, ichim seskanib ketdi. Sekin boshimni ko'tarib qarasam, Fotima kelin o'rtacharoq piyozni changallab, bir nuqtaga termilib o'tiribdi. Yaxshiyam, Bashor opaning shaddodligi bor ekan.

– Voy, og'zingga shakar! – dedi suyunchi oladigan alpozda quvonib. – Unaqa bo'lsa yana tug'arkansan. Hech nimani sezmayapsanmi?

Fotima kelin battar qizardi.

– Qiziqmisiz, – dedi sekin. – Ketganlariga yarim yil bo'lyapti-ku.

Bashor opa esankirab qoldi, dami ichiga tushib ketdi. Ammo Fotima kelinning ko'nglini ko'targisi keldi shekilli, Zuhra kelinga tegishdi.

– Sen-chi, qo'shaloq kelinning kichkinasi! Sening tushing buzilmadimi?

– Buzildi, – dedi Zuhra kelin bijir-bijir qilib. – Pochchani tush ko'ribman. U kishi dod solib qochib ketayotgan emishlar, siz shavla yuqi kapkir ko'tarib quvib yurganmishsiz.

Omborning qamishlar osilib yotgan shiftini ko'tarib yuborguday kulgi yangradi. Boyadan beri angrayib turgan Parcha yo'g'on tizzalarini mushtlab shunaqangi do'rillab kuldiki, quloqni teshib yuboray dedi. Mung'ayib o'tirgan Fotima kelin ham xandon otdi. Bashor opa kula-kula ko'zlarini artdi-da, to'satdan jiddiy tortib qoldi.

– Qaniydi-ya, pochchang yonimda bo'lsa, – dedi xo'rsinib. – Har kuni o'n marta desa, o'n marta, yuz marta desa, yuz marta shavla qilib berardim. O'z qo'lim bilan yedirib qo'yardim. Suv isitib, oyoqlarini yuvarдим. – U boshini xam qilib uh tortdi. – Qaniydi oldimda bo'lsa...

Tashqarida ot kishnadi. Darvozadan Umar zakunchi kirib keldi. Boshida chaqmoq telpak, egnida ixcham pocha-po'stin, qo'lida qamchi.

– Hormanglar-ov! – dedi tetik ohangda. – Nastrayena zo'r-ku! Demak ish besh!

Raisning hurmati uchun o'rnimizdan turdik. Parcha, Bashor opaning boyagi niyati esidan chiqmagan ekan shekilli, qaylig'idan uyalgan kelinchakdek ombor bur-

chagiga lapanglab qochdi. Bashor opa o'rnidan turmasa ham bir qo'zg'alib qo'ydi.

– Iye, siz ham hasharga keldingizmi? – dedi Zakunchi unga qarab, – MTS nima qiladi sizsiz?

– Men-ku, hasharga doim kelaman! – Bashor opa uning ko'ziga tik qarab ta'kidladi. – Sizlar ham hashar qilmasanglar bo'lmaydi. Menga ikkita yordamchi kerak.

– Bilmadim! – Umar zakunchi yuzini o'girdi. – Zakun bo'yicha MTS mustaqil tashkilot.

– Mustaqil bo'lgani bilan traktor kolxozning yerini haydaydimi? – dedi Bashor opa keskinlik bilan.

– Bilmadim! – Zakunchi tez-tez yurib nari ketdi. – Tezroq qimirlanglar! – dedi darvoza oldida to'xtab. – Ertaga frontga bir vagon piyoz jo'natamiz.

Tashqarida ot tuyoqlarining qorga bo'g'iq urilib dukillashi eshitildi.

– E, o'l, zakun-pakuning bilan! – dedi Bashor opa ensasi qotib. – Traktorni tomorqamga oborib ishlat-yapmanmi, olifta-quruq!

Qiziq, Zakunchi kelib ketishi bilan oraga g'ashlik tushdi. Bashor opa Parcha opaga hazil qilib, bir-ikki gap otdi-yu, suhbat ilimadi.

Anchadan keyin darvoza tomondan ovoz keldi.

– Hoy kim bor!

Bobomning tovushini tanib, bir sapchib tushdim. Fotima-Zuhra kelinlar menga yarq etib qarashdi. Bashor opa o'rnidan turguncha darvozada eski quloqchin kiygan bobom ko'rindi. Qo'ltig'ida kattagina tog'ora. Bir qo'lida tugun.

Dimoqqa osh isi urildi. Bashor opa so'ramasa ham bobom tushuntirdi.

– To'y, Bashoratxon, to'yni boshlab qo'ydik! Ro-biyaga to'y keldi, Kimsanga unashtirdik.

Nima qilishimni bilmay qoldim. Tashqariga qochib chiqay desam, darvoza oldida bobom turibdi. Boya Parcha qochib borgan burchakka o'zimni urdim. Bashor opa bir zumda shunday yerning o'ziga dasturxon yozdi. Bobom ketib bo'lganini bilib, endi qochib qolmoqchi edim, Bashor opa qo'limdan mahkam tutdi.

– Erga tegishga uyalmagan, oshini yeyishga noz qilasanmi, qiz tushmagur, o'tir bundoq!

Lagan to'la zarchavali sap-sariq oshga Parcha shosha-pisha qo'l cho'zgan edi, Bashor opa bilagiga qarsillatib tushirdi.

– Shoshma, nafsing qurgur, avval patirdan ye, holvadan og'zingga sol. Keyin hamma osh seniki!

Qornim ochib ketgan bo'lsayam, oshdan bir-ikki cho'qib, qo'limni artdim.

Bashor opa piyoz hidi anqib turgan lablari bilan ikki yuzimdan qattiq o'pdi.

– Baxtli bo'l, jon singlim. Qaylig'ing omon-eson kelsin!

Qorong'i tushib, odam odamni ajratolmaydigan bo'lib qolguncha piyoz tozalab, qanor qoplarga joyladik. Chamamda hammamizning kayfimiz chog' edi. Bashor opa uvishib qolgan oyoqlarini uqalab o'rnidan turayotganda Parchaga dashnom berdi:

– Noz qilmasdan Zakunchiga tega qolsang-ku, se-niyam oshingni yerdik.

Parcha qorong'ida do'rilladi:

– Osh yemasamam mayli, ko'zi xunuk!

Bo'shagan tog'orani dasturxonga o'rab ko'tarayotgan edim, Fotima kelin qo'ymadi.

– O'zim, kelinposhsha, – dedi kulib. – Sizni ayash kerak. Nima qilsayam kelinsiz.

Uchalamiz tizilishib yo'lga tushdik. Kechki izg'irin turgan, sovuq edi. Qor darrov muzlabdi. Oyoq osti g'ichir-g'ichir qiladi. Osmon tip-tiniq, yirik-yirik yulduzlar sovuqdan titrab yiltiraydi. Qishloq jimjit. Olishda – razyezd tomonda poyezdning taraq-turuq ovozi keladi. Qani o'sha poyezdga osilib olsam-u Kimsan akamning oldiga oborib qo'ysa. «Aytganingiz bo'ldi, Kimsan aka, ko'nglingizni tinch qiling, endi menga sovchi kelmaydi», desam.

Qorong'i bo'lsa ham Oqsoqolning qo'shqanot darvozasi oldida turgan otni uzoqdan tanidim: Umar zakunchining oti! Parvo qilmadim. Nima qipti. Umar zakunchi Oqsoqolnikiga kelgandir-da!

Ammo Fotima kelin tog'orani biqiniga bosgancha negadir xavotirlanib singlisidan so'radi:

– Tinchlikmikan, Zo'ra?

– Bilmasam, – dedi Zuhra kelin ham ovozi titrab. – Bunaqa paytda keladigan odati yo'q edi-ku!

Muzlagan qorni g'arch-g'urch bosgancha qadami-mizni tezlashtirdik. Darvozaga yaqin kelishim bilan dilni o'rtab yuboradigan faryod qulog'imga o'qdek kirdi.

– Voy, bole-em! Qo'shmozor bo'lgan bolam!

Fotima kelin tog'orani qorga uloqtirib ichkariga otildi. Ketidan Zuhra kelin, undan keyin men hovliga chopib kirdim. Ayvon tokchasida fonus xira yonib turardi. Xolposh xola sochlarini yoygancha, ayvonda oyog'ini uzatib o'tirar, tizzasiga mushtlab dodlar edi.

– Qo'shmozor bo'lgan bol-e-em!

Bir tomondan Fotima kelin, bir tomondan Zuhra kelin qaynonasini quchoqlab olishdi.

– Oyijon, nima bo'ldi?! – dedi ikkalasi baravar.

Xolposh xola goh u keliniga, goh bu keliniga talmovsirab qaradi. Ammo ikkalasini ham tanimadi shekilli, yana tizzasiga shapatiladi.

– Uying kuygur Rashid abzi! Bolang o'lgur Rashid abzi!

Fotima kelin «a!» deb qisqa xitob qildi-da shilq etib ayvon tagiga, qori kuralgan yerga yiqildi. Zuhra kelin qaynonasini yoqasiga yopishib, kuchi boricha silkita boshladi.

– Nima bo'ldi, ayting! – dedi chinqirib. – Nima qildi?

Busiz ham chayqalib o'tirgan Xolposh xola ko'zi olayib, yonboshiga ag'darildi.

– Qandoq chidayman! – dedi entikib.

Zum o'tmay xirillab nafas ola boshladi, Zuhra kelin to'satdan boshidagi ro'molini yulqib tashladi. Ikki qo'llab sochini yulgancha yovvoyi ovozda chinqirib yubordi.

– Zokir aka-a!

Hushim joyiga kelganda Fotima kelinning boshida «oyi, turing, oyijon», deb chirqillayotgan Oypopukka ko'zim tushdi. Endi yo'lga kirgan Tohir esa ishtonchan, ayvon burchagida sovuqdan diydirab turardi.

Yerparchin bo'lib yotgan Fotima kelinni ko'tarishga kuchim yetmadi. Yuziga qor ishqalagan edim, amallab ko'zini ochdi.

– Tush ko'rmay, men o'lay, – dedi ingrab. – Beshik ko'rmay men o'lay!

Qor obkelib avval Xolposh xolaga, keyin Zuhra kelinga surdim. Xolposh xola ingradi:

– Shokir! Zokir! Bolajonlarim!

Narigi uydan avval yoqavayron Orif oqsoqol, ketidan rangi o'chgan tabib bilan Umar zakunchi chiqib kelishdi.

– Podadan burun chang ko'tarma! – Oqsoqol xotiniga dag'dag'a qildi. – Aniqlaymiz! Hammasini aniqlaymiz! Kerak bo'lsa Kalinning o'zigacha boraman! – U so'zini tasdiqlatib olmoqchi bo'lgandek tabibga qaradi. – Abzi xato qilgan. Adashib boshqa xatni olib kelgan. Meni o'g'illarim bekorga o'lib ketadigan bolalaras.

Xolposh xola tag'in faryod chekdi:

– Bir emas, ikkitasidan baravar ayrilsam-a!

Ikkala kelin ikki yoqda dod solishar, Oypopuk Fotima kelinni quchoqlab, «oyi, dadamga nima qildi?» deb chinqirar, dahshatdan o'zini yo'qotib qo'ygan kichkintoy Tohir esa sovuqdan diydinib angrayib turar edi.

Nima qilishimni, kimni ovutishimniyam bilmasdim. Allaqayerdan oyim paydo bo'ldi. Yugurib kelib Xolposh xolani quchoqladi.

– O'zingizni bosing, ovsinjon! – dedi o'ziyam yig'lab. – Adashgan, ovsin, pochtachi adashgan.

«Pochtachi» degan so'z qulog'iga chalinishi bilan Xolposh xola battar chinqirdi.

– Uyda yo'g'imizda Popukka tashlab ketibdi. Siznikida yurganimda tashlab ketibdi!.. Haligina qandoq xursand edim-a! Ovsinim to'y ko'rdi, deb qandoq suyingan edim-a, ovsinjon! Qo'sh bolamdan ayrilib qolavermanmi?

Fonus yonib turgan tokchadagi yarim varaq kulrang qog'ozga endi ko'zim tushdi. Xuddi qo'limni chaqib oladigandek, qog'ozni qo'rqa-pisa ushlab, fonusga tutdim. Qiziq, ruschani yaxshi bilmasam ham mazmunini darrov tushundim.

Yosh quyilib kelayotgan ko'zlarimni artib-artib bosma harfda yozgan xatni o'qidim... «Tank mexanigi serjant Zokir Oripov Moskva ostonalarida «Medinsk» rayonida bo'lgan shiddatli janglarda harbiy qasamyodiga sodiq qolib qahramonlarcha halok bo'ldi. Vatan qahramon jangchi Oripov xizmatlarini unutmaydi. Kapitan Maksimov».

Xatning hammasi bosma harfda, faqat Zokir Oripov degan so'zlar qo'lda yozilgan edi.

Bundan chiqdi Zokir aka halok bo'lgan. Bundan chiqdi Shokir aka tirik. Xayriyat...

Endi shuni aytib, Xolposh xolani «suyuntirmoqchi» edim, tokchada yotgan xuddi shunaqa ikkinchi qog'ozni ko'rdim.

Qo'llarim titragancha ikkinchi xatni ham o'qib chiqdim. Bunisiyam xuddi birinchisiga o'xshagan. Bunisiga ham kapitan Maksimov qo'l qo'ygan, faqat «tank mexanigi serjant Zokir Oripov» degan so'zlar o'rniga «strellok, oddiy soldat Shokir Oripov» deb yozilgan edi.

Orif oqsoqol, «bizning azamatlar bitta tankda xizmat qiladi», deb gapirib yurgani esimga tushdi-yu, hammasini angladim.

Bundan chiqdi...

Ayvonning bir tomonida Fotima kelin, Shokir aka deb dod solar, ikkinchi tomonida Zuhra kelin, Zokir aka deb oh chekar, Xolposh xola esa oyimning quchog'ida tebrangancha hamon nola qilar edi.

– Uyginang kuygur, Rashid abzi! Shumqadam abzi!

– Abzida nima gunoh! – Oqsoqol shunday hayqirdiki, tokchadagi fonusning piligi lipillab ketdi. Doim Oqsoqoldan zirillab turadigan Xolposh xola ham, kelinlari ham bu safar e'tibor berishmadi. Har kim o'z dardi bilan ovora edi.

Birinchi bo'lib Umar zakunchi hushiga keldi. Yo'q, u hushini yo'qotmagan, ammo bir yo'la shuncha odamning g'am-anduhi oldida nima deyishini bilmay turgani uchun gapirmagan bo'lsa kerak. Endi o'zini o'nglab oldi. Fonusning piligini ko'targan edi, ayvon yorishib ketdi.

– Yaxshimas, o'rtoqlar... – dedi yupatuvchi ohangda...– Bunaqa dod-faryod qilish yaxshimas. – U bir

zum jimib qoldi-da, boshidan chaqmoq telpagini oldi. – Nachora, bu – hayot-mamot jangi. Undan ko'ra Shokirjon bilan Zokirjonning xotirasini...

Birdan Oqsoqolning ko'zida o't chaqnadi. Nazarimda mo'ylovi ham dikkayib ketgandek bo'ldi. Tokchadagi telefon tutqichini yulqib Zakunchiga o'qtaldi.

– Yo'qol, xotira-potirang bilan! – dedi xirillab. – Yo'qol!

Umar zakunchi, «mana bu ovsarni qaranglar», degandek yelka qisib chaqmoq telpagini boshiga kiydi. Ayvon zinasidan tushib ketayotganda Oqsoqol uning ketidan g'azab bilan hayqirdi:

– Meni o'g'illarim o'lmaydi! Orif Oqsoqolning o'ladigan bolasi yo'q!

Oqsoqolning ovozi ham – qo'llari ham, soqoli ham muttasil titrardi.

Uning «yo'qol» degani og'ir botdi shekilli, Umar zakunchi hovliga tushib burilib qaradi.

– Nima qilaylik, Oqsoqol, – dedi labini buribroq, – urush qurbonsiz bo'lmaydi, – chirt etib tupurdi-yu, darvoza tomon ketdi.

Bobom butun vujudi qaltirayotgan Oqsoqolni quchoqladi.

– Qo'y, o'rtoq! – dedi yalinib. – Xatolik o'tgan. Meni aytdi deysan, komandiri bilmasdan yozgan.

Oqsoqol og'zini kappa-kappa ochib hansirab turdi-da, kesilgan daraxtdek shilq etib yerga o'tirib qoldi. Tabib tiz cho'kkancha uning qo'lini uqalay boshladi.

Bu qanday gap! Bu qanday adolatsizlik! Haligina biznikida «ma'lum oshi» berib quvongan odamlar uyga kirishi bilan boshiga tog'dek kulfat tushsa! Hamisha o'zgalarning ko'z yoshini artib yurgan Oqsoqol bugun o'zining dardiga davo topolmasa! Qanday bedodlik!

* * *

Hali boshimga bundan og'ir kunlar tushishini, bundan battar bedodliklar ko'rishimni, Kimsan akam ikkalamizning o'rtamizda sindirilgan non uvol ketib, ushatilgan holva bekor bo'lishini bilmagan ekanman.

Shu topda birov: Behuda ovora bo'lyapsan, suyganing qaytib kelmaydi, bir yil emas, besh yil emas, o'n yil kutasan-da, oxiri Kimsan akang uyoqda qolib, yaxshi ko'rgan yangang — Ra'no kelinoyingning eriga xotin bo'lasan, sevasanmi-sevmaysanmi, vaqt-soati yetib shu odamdan o'g'il tug'asan, desa o'sha zahoti yuragim yorilib, o'lgan bo'lardim.

T O ' R T I N C H I Q I S M

O'ninchi bob

KICHKINTOY MUZAFFAR HIKOYASI

1. Suyunchi bering, oyim o'g'il tug'dilar!

Oyim ikki oydan beri kasal edi. Qorni o'zidan-o'zi katta bo'lib ketaverdi. Kir yuvsa, hovli supursa, darrov beli og'riydi. Esimda, jiyda gullagan kunlari dadam unga qattiq tayinladi. «Endi ishga chiqma. Shu ahvolda traktor haydashni kim qo'yibdi senga!»

Oyim ishga chiqmagani menga maza bo'ldi. Kun bo'yi yonida o'ralashib yuraman. Abduvali ikkalamiz hovlida rosa to'polon qilib o'ynaymiz. «Qora ammam» biznikiga deyarli har kuni keladi. «Shovqin solmanglar, oyingni qulog'iga yoqmaydi», deb chirqillaydi.

Kechqururlari ayvonda o'tirib olib, jajji ko'rpachalar tikadi.

— Kimga? — desam, g'ij-g'ij nafas olib, kuladi.

— Ukangga! Nasib etsa yaqinda ukalik bo'lasan, bolam. O'g'il ukani yaxshi ko'rasanmi, qiz ukanimi?

— O'g'il, — deyman iljayib. Albatta-da! Abduvalining o'g'il ukasi borligi uchun maqtanadi. Mengayam o'g'il uka kerak. Qiz bo'lsa, ko'tarmayman!

Bugun oyim juda qiynaldi. Hovlida bostirma soya-sida o'rik yeb o'tirgan edim, uydan oyimning chinqirgani eshitildi. Qo'rqib ketdim. Chopib uyga kirsam, «Qora ammam» oyimni quchoqlab olibdi. Oyim ko'rpachada o'tirgan yerida butun gavdasi bilan tebranib o'zini

uyoqdan-buyoqqa tashlayapti. Ko'zlari yumuq, labini tishlab ingraydi, peshonasi terlab ketgan... Chopib borib bo'yniga osildim. Peshonasi muzdek edi.

– Oyi! – dedim qo'rqib. – Oyi, nima qildi?

Oyim ko'zlarini yarim ochib iltijoli termildi.

– Jon bolam, chiqib ket! – dedi yalinib. – Jon bolam, oh! Oyijon!

«Qora ammam» meni oyimdan nari surdi.

– Bor! – dedi nafasi battar g'ijillab. – Dadangni chaqir. Ayt, Lazakat xolangni topib kelsin. Darrov!

Uy o'rtasida gangib turgan edim, ammamning jahli chiqib ketdi.

– Borsang-chi, tezroq! Tabib buvangni xotinini aytib kelsin!

Qo'rquv ichida ko'chaga otildim. Dadamni qayoqdan topaman! Nima ko'p, dala ko'p. Qaysi biriga boraman? Birdan esimga choyxonachi tushdi, Ilhom amaki hamma narsani biladi. O'shanga boraman. Dadamni topib bersin! Oyim kasal bo'pqoldilar, yig'layaptilar, deyman.

Halloslab chopgancha choyxonaga yaqinlashib qolgan edim, birov otimni aytib chaqirdi. Qarasam – dadam! Yelkasida ketmon, ko'chaning narigi betida kelayotgan ekan! Jonholatda baqirib yubordim:

– Dada! Oyim kasal bo'p qoldilar! Lazakat xolani chaqirarkansiz!

– Nima? – Dadam qattiq oqsoqlangancha yaqin keldi. Rangi quv o'chib ketdi.

– Ma, – dedi ketmonni menga uzatib. – Chop uyga!

Keskin burildi-da, yiqilib ketgudek oqsoqlangancha katta yo'lga yugurdi.

– Hoy! – dedi ancha nariga borganda to'xtab, – oying kasal bo'lganini birov bilmasin.

Hech baloga tushunmadim. Ketmonni yelkamga olmoqchi edim, kuchim yetmadi, zil-zambil ekan. Ingrab yotgan oyim ko'z o'ngimga keldi. Ketmon bandidan ikki qo'llab changallagancha sudrab ketdim. Yuguray desam, ketmonning yaraqlab yotgan o'tkir yuzi oyog'imni kesib ketadi, deb qo'rqaman. Yugurmay desam, oyimning oldiga tezroq borgim keladi.

Hovlimizning eshigiga yetguncha terlab ketdim. O'sha zahoti orqa tomondan dadamning yalingan ovozdagi gapirgani eshitildi:

– Jon opa, baraka toping, tezroq!

Qarasam, dadam oqsoqlangancha shu tomonga chopyapti. O'n qadamcha narida doka ro'moli yelkasiga tushib ketgan Lazakat xola kelyapti. Dadam, qo'yib bersa Lazakat xolani qo'lidan sudrab choptirib ketadigandek vajohatda.

– Tezroq! – dedi ham jerkib, ham yalinib.

– Voy ukam, vahima qilmang. Bu savdo har xotining boshida bor.

Bilaman. Lazakat xola yaxshi xotin. Olimjon akamning oyisi-da! Tabib buvaning xotini, o'ziga o'xshagan yumshoqqina...

U pildirab eshikdan kirib borarkan, dadamga tayinladi:

– Kirmanglar! Erkakni ko'rsa to'lg'oq qochadi.

Dadam eshik oldida serrayib turib qoldi. Hansirab nafas olar, ko'zlari bejo, ammo hovliga kirishga jur'at etolmasdi.

– Lazakat xola oyimni tuzatadi-a? – dedim dadamning ko'ziga tikilib. – Oyim yig'layaptilar.

Dadam javob bermadi. Ketmonni qo'limdan olib yerga tippa-tik qilib qo'ydi. Trinkashimning cho'ntagiga qo'l suqib tamaki xaltasini oldi. Titroq qo'llari bilan tamaki o'radi. Labiga qistirdi-da, u cho'ntagiga, bu cho'ntagiga qo'l tiqdi.

– Ming la'nat! – dedi achchig'lanib. – Bor, gugurt obchiq!

Yugurib ketayotgan edim, ketimdan baqirdi:

– Muzaffar, uyga kirma! Oshxonada gugurt bor!

Oshxonaga chopib borayotganimda oyimning chinqirgan tovushini eshitdim.

«Qora ammam» bilan Lazakat xola bir nima deb yupatishdi shekilli, oyim jimib qoldi. Nimqorong'i o'choqboshida yotgan gugurtni paypaslab topdim. Hovliga otilib chiqishim bilan oyimning chinqirig'i qulog'imni teshib yuboray dedi.

– Oyijon! Rozi bo'ling!

Yig'lagim keldi-yu, yig'lay olmadim. Dahshat ichida tashqariga yugurdim. Chiqsam, dadam yong'oq tagida o'tiribdi. Ketmonni tik qilib, bandini ikki soni orasiga qisib olgan. Yong'oq ostidagi xarsangtoshga ketmonni qo'yib, qo'lidagi yana bitta tosh bilan ketmon yuzini taraqlatib uryapti.

Ichkaridan oyimning chinqirgani eshitildi. Dadam ketmonni battaroq ura boshladi.

– Mana! – dedim gugurtni uzatib. Ammo u qayrilib qaramadi.

Yanayam yaqin bordim.

– Mang!

Dadam parvo qilmadi. Tosh bilan kuchi boricha ketmonni uraverdi.

Ketmon yuzi birpasda cho'tir bo'lib ketdi. Ichkarida oyim chinqirgan sayin dadam ketmonni qattiqroq sava-laydi. «Jang-jang», «jang-jang» degan tovush quloqni teshib yuborgudek bo'ladi.

– Dada, mana! – dedim yelkasiga turtib.

Baribir eshitmadi. Tosh bilan ketmonni qarsillata-verdi.

Bir mahal ichkaridan «inga-inga» degan ingichka, ojiz ovoz keldi. Qiziq, dadam hech nimani sezmayapti, hech nimani eshitmayapti, deb o'ylagan edim. Yo'q, hammasini bilib turgan ekan. Birdan qo'lidan tosh tushib ketdi. Ketmonni uloqtirib, qaddini rostladi. Terlab ketgan, mo'ylovi titrab turardi.

– Yugur! – dedi baqirib. – E, to'xta!

Shimining cho'ntagiga qo'l solib, shalvirab ketgan hamyonini oldi, titroq qo'llari bilan ko'kish qog'oz pul chiqardi.

– Ma! Doya xolangga ber!

– Kimga? – dedim angrayib.

– Lazakat xolangga, o'g'lim, – u boyadan beri bi-rinchi marta jilmaydi. Pulni olib hovliga yugurgan edim, eshik oldida ammamga urilib ketdim.

– O'g'il! – dedi «qora ammam» meni nari surib, dadam tomonga yugurarkan. – Bitta o'g'ling ikkita bo'ldi, ukam! Muborak bo'lsin!

Dadam shu tomonga talpingan edi, oyog'i pand berdi shekilli, qalqib ketdi. Ammam mushtdekkina bo'lsa ham baquvvat ekan, dadamni ushlab qoldi.

– Shukr! Eson-omon qutuldi, – dedi hansirab. – Pahlavondek o'g'il tug'di!

Dadam negadir kafti bilan yuzini to'sdi.

– Otini Omon qo'yamiz! – dedi ovozi titrab. – Omon bo'lsin, opa. Umri uzoq bo'lsin.

2. «Pahlavon»ning beshigi

«Qora ammam»ning maslahati bilan o'sha zahoti ko'chaga yugurdim.

– Suyunchi beringlar! Oyim o'g'il tug'dilar!

Eng avval Abduvalilarnikiga kirdim. Bilib qo'ysin, endi bizning ham ukamiz bor. O'g'il ukamiz! Otini Omon qo'yamiz!

Abduvalining o'ziga o'xshagan sariq oyisi do'ppimga o'rik to'ldirib berdi.

– Xayriyat-ey! – dedi suyunib. – Omon-eson qutulibdi, bechora!

O'rik to'la do'ppimni mahkam ushlagancha choyxona tomonga chopib ketayotsam, ketimdan Abduvali ham yetib oldi. Uning oyisi tug'magan-u bari bir suyunchiga sherik bo'lmoqchi. Mayli, shu qilganiga dadasining sataroshxonasiga kirib, suyunchi so'rayman.

«Tuya» amaki ikkalamizga bittadan yigirma tiyinlik berdi. Ilhom choyxonachi bo'lsa judayam saxiylik qilib yubordi.

– Iye, giroy, siz ukalik bo'lasiz-u bizni suyunchidan qochirasizmi? – deb menga ko'k, Abduvaliga sariq qog'oz pul tutqazdi.

Ukalik bo'lish yaxshi ekan! Birpasda ancha-muncha narsalik bo'pqoldim. Chaqa pul, tanga pul, qog'oz pul... Qo'ynim turshak bilan yong'oqqa to'lib ketdi.

Bunisi yaxshi-ku, ukang bo'lishining yomon tomoniyam bor ekan.

Yomonligi shuki, kechasi uxlab yotganimda chaqaloq «inga-inga» deb uyg'otib yuboradi. Oyim ko'krak tutmaguncha ovunmaydi. Bundan tashqari kunduz

kunlariyam oyim hovlida yumush qilib yurganida yig'lab qoladi.

– Ukangga qara! – deydi oyim qo'lini yuvish uchun oshxonaga yugurgilab.

Ukamga qaraganim shu bo'ladiki, beshikni tebrataman. Baribir ming tebratganim bilan ukam ovunmaydi. Oqarib ketgan eski gavrapo'shni ko'tarib yuzini ochaman.

O'sha kuni «qora ammam» chaqaloqni «pahlavondek» deb maqtaganida ukam kamida dadamdek bo'lsa kerak, deb o'ylagan edim. Yo'q, kichkinagina. O'zi kichkina-yu ovozi baland. Bittayam qoshi yo'q. Gavrapo'shni ko'tarishim bilan, mitti ko'zlarini ochib, meni ko'radi-yu, ovunish o'rniga battar yig'laydi. Og'zida tishiyam yo'q. Oyim kelishi bilan ovunib qoladi. Kichkina bo'lib oyimni tanigan-chi!

Oyim beshikni sekin-sekin tebratadi. Beshik muttasil g'irchillaydi.

Oyimning aytishiga qaraganda bu – mening beshigim ekan. Eski bo'lgani uchun g'irchillarmish. Bugun «qora ammam» ukamga yangi beshik olib kelarkan.

Yangi beshikni olib kelish qiziq bo'larkan. «Qora ammam», Parcha xola, yana uch-to'rt xotin bezatilgan beshikni ko'tarib, eshikdan alla aytib kirishdi.

Alla, bolam, allayo alla!

Shirin qo'zim, allayo alla!

Bag'rimdagi toychog'im, alla!

Beshikdagi munchog'im, alla!

O'ziyam, beshikmisan, beshik! Ustiga cho'g'dek qizil gavrapo'sh yopilgan, gavrapo'sh chetlariga chaqaloqning ko'ylakchalari, ishtonchalari, ukpar qadalgan do'ppisi chatib qo'yilgan... Xotinlar alla aytib, uyga yo'l olishdi. Abduvali ikkimiz ergashib kirdik. Birpasda mehmondorchilik boshlandi.

Hamma-hamma bilan, Parcha xola shinniga non botirib urayapti. Taxmon oldida Lazakat xola yangi beshikka boshqatdan joy sola boshladi.

Avval tuvak-sumaklarni qo'ydi. Keyin shildir-shildir qilayotgan qovusni (bilaman, chaqaloqning to'shakchasi,

ichida tariq po'sti bor) yozdi. Ustidan oppoq yo'rgak tashladi.

Ammam xokandozda tutab turgan isiriq ko'tarib kirdi. Harsillab nafas olgancha allanimalar deb pichirladi, beshik atrofida xokandozni aylantirdi. Lazakat xola piyolaning og'zicha keladigan kulchani beshik boshiga qo'ydi-da, ustiga yostiqlashladi.

– Hoy, Robiyaxon-u?! – dedi ayvon tomonga qarab. – Obkeling!

Qarg'ashoyi ko'ylak kiyib, yasanib olgan oyim yo'rgaklangan ukamni ko'tarib kirdi.

Ammam ukamni oyimning qo'lidan olib o'sha tomonga o'tayotgan edi, Parcha xola o'tirgan joyida qo'lini cho'zdi.

– Manga bering! – dedi do'rillab. – Uzatvoraman!

– Yo'q-yo'q, xudo xayringni bersin! – dedi Lazakat xola shosha-pisha qo'l siltab. – Chaqaloq bechora qo'rqib, shaytonlab-netib yurmasin! Shinningni yeayver!

Bir uy xotin kulib yuborishdi. Ayniqsa Parcha xolaning o'zi kulganda uy ichi guldirab ketgandek bo'ldi.

– Bu gapizam to'g'ri, opa! – dedi kattakon kafti bilan qalin labiga yopishgan shinni yuqini artib. – Mani qorong'ida ko'rsa, kotta odam qo'rqadi-ku!

Tag'in qahqaha yangradi. Ammam ukamni Lazakat xolaga avaylab uzatdi. Lazakat xola chaqaloqni ko'rpachaga yotqizib, yo'rgagini yechdi. Ukamning chap oyog'ini avaylab bukib, tizzasini o'ng qo'lining uchiga tegizdi.

– Yetdimi? – degan edi, uy to'la xotinlar qiy-chuv qilib yuborishdi.

– Yetdi! Yetdi!

Lazakat xola endi ukamning o'ng oyog'ini bukib, chap qo'lining uchiga tegizdi.

– Yetdimi?

– Yetdi! Yetdi!

Boyadan beri indamay yotgan ukamga bunaqa qiliq yoqmadi shekilli, yig'lab yubordi. Ammo xotinlar bermalol kulishar, ostonada turgan oyim ham mamnun jilmayar edi.

– Voy, manov bolani shirinligini! – Parcha xola do‘rillab, xitob qildi. – Voy, jujuqlaringdan aynoniy!

Tag‘in kulgi ko‘tarildi.

– Tuf de, ko‘zing tegadi! – Lazakat xola ukamni asta ko‘tarib, negadir beshikka ko‘ndalang yotqizmoqchi bo‘ldi.

– Qayoqqa yotqizay! – deb so‘radi baland ovozda. – Shu yoqqami?

Xotinlar chuvillashib ketishdi.

– Yo‘q! Yo‘q!

Lazakat xola endi ukamning oyog‘ini yostiq tomonga aylantirib yotqizmoqchi bo‘ldi.

– Buyoqqami!

Xotinlar kula-kula battar chuvillashdi.

– Yo‘q! Yo‘q!

Iye, Lazakat xola qanaqa o‘zi! Yostiq qayoqdaligini bilmaydimi? Ukam yig‘lab yotibdi-ku, bular kuladi-ya! Endi jahlim chiqib turgan edi, Lazakat xola nihoyat chaqaloqni qanaqa yotqizish kerakligini «tushundi». Ukamni to‘g‘ri yotqizdi.

– Buyoqqami?

– Ha! Ha! – Xotinlar qiy-chuv bilan tasdiqlashdi. – Shu yoqqa!

Lazakat xola oyoq-qo‘llarini pitirlatib yig‘layotgan ukamni chaqqonlik bilan beshikka bog‘ladi-da, duo qildi.

– Iloyo umring uzoq bo‘lsin. Baxtli bo‘lgin! Insoflitovfiqli bo‘l. Mehnatkash bo‘l.

Qiziq, ukam birpasda ovunib qoldi.

– Hoy, kim bor? – dedi Lazakat xola yonboshida turgan tugunni yechib.

Abduvali shuni kutib turgan ekanmi, o‘sha tomonga birinchi bo‘lib otildi. Lazakat xolaning tugunidan qip-qizil, chiroyli patir chiqdi. Abduvali patirni tishlagancha tashqariga qochdi.

– Ushla! Ushlanglar! – xotinlar kula-kula Abduvalini tutib olmoqchi bo‘lgandek qo‘l uzatdi. Nima qilishimni bilmay Abduvalining ketidan men ham hovliga otildim.

Olma tagida tamaki tutatib o'tirgan dadam Abduvali ikkalamizni imlab chaqirdi.

– O'rtoqlaring bilan bo'lashib yenglar! – dedi tayinlab. – Omon ham senlarga o'xshab chopqillab yursin.

...Patirni o'rtoqlarimiz bilan bo'lashib yegandan keyin o'yinga berilib ketibmiz. Kunbotar pallada uyga kirsam, xotinlar tarqab bo'pti. Burchakda cho'g'dek gavrapo'sh yopilgan yangi beshik oldida cho'kkalagan oyim ukamga ko'krak tutyapti. Ammam kavshandozda o'tirib mahsisini kiyyapti.

«Qora ammam»ning odatini bilaman. Mahsi kiydimi, bo'ldi, uyiga ketadi.

– Ketmang! – dedim yalinib. – «Qora amma», ketmang.

Oyim yarq etib biz tomonga qaradi. Ammamning yo'lga otlanib qolgani unga ham yoqmagan shekilli, zardaliroq ohangda gapirdi:

– Hech bo'lmasa shu bugun qoling, oyi! Borasiz-da, o'sha uyingizga.

– Qo'y, jon bolam! – Ammam oyimga qarab gapirarkan, o'tirgan joyida cho'zilib, mening yelkamga qoqdi. – Bir oydan beri shu yoqqa qatnayverib, cholimniyam chirog'ini o'chirib qo'ydim.

Oyim arazlab yuzini o'girdi. Qaddini rostlamoqchi edi, ukam hali emib bo'lmagan ekan shekilli, g'ingshib yig'ladi. Ammam shosha-pisha yaqin bordi.

– Qimirlama! – dedi oyimning yelkasiga qoqib.

– Shu bugun qoling axir, – oyim astoydil yalindi.

Ammam xo'rsindi:

– Bilasanmi, – dedi ma'yus ohangda. – Shu kecha Kimsanni tush ko'ribman. Bezovta bo'lib yuribdi. Bora qolay.

Negadir oyim seskanib ketgandek bo'ldi. Ukam chirillab yig'layotganiga qaramay, gavrapo'sh ustini yopib, dik etib o'rnidan turdi.

– Yo'q-yo'q! – dedi ammam bosh chayqab. – O'tiraver, bolani emiz.

Oyim quloq solmadi. «Qora ammam»ning tugunini ko'tarib eshikka yo'naldi.

O'n birinchi bob

«QORA AMMA» HIKOYASI

Eng begunoh odam

Bilaman, shu ishni yaxshi qilmadim. Nima bo'lgandayam bugun qizimning oldida yotib qolishim kerak edi. Yoshim yetmishga kirib, nevarali bo'ldim, beshik to'y ko'rdim. Shukr qilsam bo'lmaydimi? Bu kunlarga kim yetdi-yu kim yetmadi!

Bilaman, Robiyaning dili og'ridi. Muzaffarni ayt-maysizmi? Bola bechora «amma, ketmang» deb oyo-g'imga yopishdi. Yaxshiyam Shomurod yo'q ekan. Duch kelib qolsa, qo'limdan sudrab uyga obkirardi-yu, qaytib chiqarmasdi. Hammasiyam mayli-ku, bir ishim noto'g'ri bo'ldi. Kimsanni gapirmasam bo'lardi. Qizim sho'rlik Kimsan akasining otini eshitishi bilan g'alati bo'lib ketdi: bolasiyam ko'ziga ko'rinmay qoldi. Men — esini yegan kampir nima qilardim, bechoraning yarasini yagilab.

Nima qilay axir! Rostdan ham tush ko'rdim-da! Kecha kechasi bir chimdim uxladimmi-yo'qmi, bil-mayman. Beshik tayyorlash, sarpa-surug'ni joylash bilan tongotar ovora bo'ldim. Oxiri, yostiqqa shunday yonboshlabman-u ko'zim ilinibdi. Kimsanimni aniq-taniq ko'rdim. Ketmon dastasidan ushlab turibdi. Bo-shidagi do'ppisiga loy sachraganmish. «Bolam, do'p-pingni qoqib tashla, loy tegibdi», desam qovog'ini solib turganmish. Birdan urushga ketgani esimga tushib, yig'lab yuboribman.

«Voy, bolam, keldingmi! Urushdan keldingmi!» desam arazlab, yuzini o'giribdi. «Nega xat yozmadinglar, ja bo'lmasa, Robiya yozsa bo'lardi-ku», debdi-da, ketmonni yelkasiga olib burilib ketibdi... «Shoshma», degancha yig'lab qolaverdim.

...Beshik to'yi ham tatimadi. Nuqul do'ppisiga loy yopishgan o'g'lim ko'z oldimdan ketmaydi. Qaniydi, Kimsanim urushdan omon qaytganda, shu bola o'g'limniki bo'lardi. Beshik to'yi o'zimizning uyimizda o'tardi...

Qiziq... Nega xat yozmaysizlar dedimi? Axir o'shanda, Robiyaning boshini bog'lagan kunimiz qizim o'z qo'li bilan xat yozgan edi-ku, Kimsanga! Yo'q, u kunimas, ertasimi-indinimi?! O'sha kuni Oqsoqolning uyida qiyomat-qoyim bo'lib, Robiya xat yozadigan ahvolda emasdi. Ammo keyin yozdi. Aniq bilaman, yozdi. Faqat... Pochtachisiz qolganimiz yomon bo'ldi. Kim biladi, balki keyinroq rostdan ham Kimsandan xat kelgandir-u qo'limizga tegmagandir...

* * *

Hech bandaning boshiga farzand dog'ini solmasin ekan. Yursa yer titraydigan shunday Xolposh ovsinim uch kunda shiliniib tushdi. Oppoq lo'ppi yuzini, ko'ziga surma tortib yurishini ko'rgan odam yoshi oltmishga borgan, nevara ko'rgan xotin demasdi. Kelinlardek yasanib, ko'chaga chiqsa, hammayoqni atir isi tutib ketardi. Uch kunda adoyi tamom bo'ldi. «Bolam»lab yig'layverib, ko'zida yosh, tanida mador qolmadi. Qo'shaloq o'g'lining yettisi kuni butunlay ovozi chiqmay qoldi. Sochini yulib yig'laganiyam baharnov ekan. Sandalga tiqilib oladi-da, bir burchakka termilib o'tiraveradi, o'tiraveradi. Birov chaqirsa, angrayadi. Potma-Zo'ra kelinlar ertalab turib, uvvos tortganiniyam eshitmaydi.

Dunyoning ishlarini qarangki, o'sha kuniyoq Oqsoqol oyoqqa turib ketdi. Belining og'rig'i ham qoldi. Avval selsovetga chiqib keldi. Keyin tizzadan qor kechib Toshkentga – voenkomatga jo'nadi. Ikki gapning birida: «Yo'q, Orif oqsoqolning o'g'illari bekorga o'lib ketadigan bolalar», deydi.

Yangi yil qanday kirganini bilmayman. Ketma-ket qor yog'ib, qahraton sovuq tushdi. Mahallaning hovuzida suv pasayib ketgan, Robiya sho'rlik har kuni yelkasiga obkash ilib, Bo'rijardan suv tashiydi. Yolg'iz o'zimizgamas, Oqsoqollargayam. Boshiga tog'dek g'am tushib turgan Potma-Zo'ra kelinlarga shunaqa paytda yordam bermasa, qachon beradi!

«Dard ustiga chipqon» degandek, Kimsandan na xat bor, na xabar.

Oqsoqolning qo'shaloq o'g'lidan «qoraxat» kelgan kundan boshlab, Rashid abzi hech kimning eshigini taqillatmay qo'ygan. Har kuni goh Robiya, goh men pochtaga qatnaymiz... Qaysi kuni cholim pochtaga chiqsa, abzi ichib, razizdagi qor bosgan skameykada yonboshlab o'tirgan ekan. Cholim, «unaqa qilmang, sovuqda qotib qolasiz», desa ko'nabdi. «O'z holimga qo'ying, Husan abzi», deb yig'labdi.

... Lavlagi qaynatgan edim. O'choqdagi cho'g'ni tanchaga solib, endi lavlagini suzib kelsam Oqsoqol bilan ovsinim boshlashib chiqib qolishdi. Oqsoqol qulog'ini qiyiqcha bilan tang'ib olgan. Ovsinim qalin ro'mol o'ragan. Nuqul harsillaydi. Rangi bir holatda.

Ayniqsa ovsinim chiqqaniga xursand bo'ldim. Harna dardi bo'linadi. Sandal to'riga cholim bilan Oqsoqol, beriroqqa ovsinim, men, Robiya o'tirdik. Shuncha qistasam ham ovsinim tuz totmadi. Mushuk o'lgur tokchada yurgan sichqonni quvaman deb, lampaning shishasini sindirib qo'yanidan beri lip-lip chiroqqa kuni-miz qolgan. Lip-lip chiroq sasib, yurakni siqib yuboradi.

Oqsoqol xunob bo'lib ketdi shekilli, rapidadek qo'li bilan kattakon lavlagi bo'lagini changallab puflarkan, tirsagi bilan cholimni turti.

– Ziqna bo'lmay o'l! Bitta lampashisha sotib olsang, davlating kamayib qoladimi?

Cholim lavlagi chaynab turib, to'ng'illadi:

– Boyvachcha bo'lsang, ber bitta fonusingni!

– Xo'p! – Oqsoqol lavlagini og'ziga tiqdi. – Qizing chiqsin-da, ko'ngli tusagan fonusni obkelsin. Lokin ko'rsichqonga o'xshab o'tirma! – U goh kampiriga, goh menga qarab, xo'rsindi.

– Ovsining qirq qilaman deyapti.

Ovsinim dasturxon popugini o'ynagancha jim o'tirardi.

– Durimni sotib keldim, – dedi xasta, bo'g'iq ohang-da. – Ikki bolaga ikki jonliq so'ymasam bo'lmaydi. – Uning tomog'ini yig'i bo'g'ib keldi-yu, yig'lashga kuchi yetmadi. Lablari titrab, kafti bilan yuzini yashirdi.

Oqsoqol qo'lidagi lavlagi bo'lagini dasturxonga qo'ydi.

– Duma! – dedi cholimga yuzlanib. – Mayli, ma'raka qilgisi kelsa, qilsin-u, lokin... – Uning gap ohangi o'zgarib, ovozi dadillashdi... – Qaysi kuni Toshkanga borsam, voyenkomatda qiziq gap aytishdi. «Qoraxat» yozishda adashuvlar bo'lib turarkan. Guliston mahallalik bir leytenantdan ham «qoraxat» kelgan ekan. Voyenkomatdagilar pochtaga jo'natibdi, pochtagilar yigitning uyiga oborib beribdi. U bechoralaram nima qilsin, vazifasi-da! Yigitning ota-onasi aza ochibdi. Bolaning qirqi o'tgan kuni nima bo'пти de?– Oqsoqol avval cholimga, keyin ovsinimga qarab jilmaydi. Ovozi tantanali tus oldi: – Leytenantdan xat kepqopti! Gospitaldan!

Ichimda chiroq yongandek bo'ldi. Yarq etib ovsinimga qarasam, haliyam dasturxon popugini o'ynab o'tiribdi. Cholidan bu gapni ilgariyam eshitgan bo'lsa kerak, parvo qilmadi.

Oqsoqol ovozini yanayam baland qo'yib, shang'il-ladi.

– Bomba tushganda leytenant qorga ko'milib qolgan ekan. O'rtoqlari o'ldi, deb komandirga xabar beribdi. Komandir hovliqib xat yozibdi. Yigit bo'lsa bir joyiyam tirmalmay qor tagida yotgan ekan. Hushiga kelib, qorni kavlab chiqibdi. Kantuz bo'lgan ekan! – Oqsoqol o'zining gapidan o'zi yengil tortib, kulimsiradi. Barmog'ini bigiz qilib tushuntirdi. – Eshitdingmi, onasi! Sen bo'lsang qirq qilaman, deb yotibsan.

Ovsinim indamay yuzini o'girdi. Cholim lavlagini qo'lida muallaq tutgancha so'radi:

– Kantuz? Nima u?

– Kantuzmi? – Oqsoqol «shuniyam bilmaysanmi, savodsiz», degandek achchig'i chiqibroq tushuntirdi. – Kantuz degani shuki, ya'ni masalan, birov qulog'ingni tagida varanglatib miltiq otdi. Garang bo'lib qolasanmi? Ana o'shanaqa-da! Mening o'g'illarim ham ja nari borsa, kantuz bo'lgan.

– Xayriyat-ey! – dedim yengil tortib. – Iloyo Shokirjon bilan Zokirjon kantuz bo'lgani rost bo'lsin!

– Ko'rasan! Kantuz bo'lgan! – Oqsoqol ishonch bilan gapini qaytardi. – Kantuz bo'lgan! Bugun Zokir tushimga

kiribdi. Karamga suv bog'lab yurganmish. Akang qani, desam, bilasiz-ku, akam Ko'tarmada bug'doy o'ryapti, deydi. Suv yorug'lik, bug'doy – nasiba. Bundan chiqdi, ikkalasiniyam nasibasi uzilmagan.

Ovsinim suyunish o'rniqda alam bilan xo'rsindi.

– Men turay... – dedi titrab ketayotgan labini tishlab.

«O'tiring», deb qistashimga qaramay, og'ir qo'zg'alib o'rnidan turdi.

– Qizim, bor, xolangni kuzatib ke! – Oqsoqol Ro-biyaga buyurdi. – Bitta fonus obchiq. – U eshik oldiga borgan ovsinimga tayinladi... – Zo'raga aytsang, oshxo-nadagi fonusni beradi.

Ovsinim hovli eshigida sovuqdan diyyirab xayrla-sharkan, yelkamga qoqdi.

– Indinga vaqtlitiroq chiqing, qirq – xotinlarning ma'rakasi.

Uyga qaytib kirsam, Oqsoqol cholimning qulog'iga egilib bir nimalarni gapiryapti.

– Baqqa ke! – deb barmog'i bilan meni ham imladi. – Hammasini aniqladim, – dedi pichirlab. – Tank yonib ketibdi! Ikkalasiyam... – Uning soqoli titrab ketdi. – Ovsiningga ayt! Oqsoqol bilib keptilar, kantuz bo'lgan ekan de! Bir yilda ikkalasiyam oyoqqa turib ketar-mish de! Uqdingmi! – U lip-lip chiroqqa uzoq tikilib qoldi. Chiroqning ojiz nurida ko'zlari o'ychan, g'amgin ko'rinardi. Yig'lab yubormaslik uchun teskari qara-dim. Sovuq, dilgir jimjitlikda cholimning xo'rsingani eshitildi. Hech birimizdan sado chiqmas edi. Shu alpozda qancha o'tirganimizni bilmayman. Bir mahal kimdir deraza oldidan gursillab yugurib o'tdi. O'sha zahoti eshik ochilib, allakimning kattakon gavgasi ko'rindi. Avvaliga tanimabman: qaragam – Parcha! Boshidagi yirtiq ro'moli, gungursdek yelkalari qorga belangan. U tap etib ostonaga o'tirib qoldi.

– Sho'rim qurib qoldi, Husan tog'a! – dedi-yu, ho'ngrab yig'lab yubordi. Hammamiz sapchib o'rni-mizdan turib ketdik.

– Nima gap? – Cholim bilan Oqsoqol baravar so'-rashdi.

Parcha Oqsoqolni endi ko'rdi shekilli, boshidan ro'molini yulqib olib, yuzini artidi.

– Voy, yaxshiyam sho'tta ekansiz, Oqsoqol, – dedi do'rillab. – Sho'rginam qurib qoldi!

– Tushuntirib gapirsang-chi, mundoq! – Oqsoqol jahl bilan qo'lini do'lg'adi.

– Uyimni o'g'ri bosdi! – Parcha ro'molini yuziga bosib battar ho'ngillab yig'lashga tushdi.

Oqsoqol bilan cholim shosha-pisha to'n kiyishdi.

– Qachon? Qanaqa o'g'ri!

– Voy, man qattan bilaman? – Parcha alam bilan do'rilladi.

– Nimangni opti? – dedi cholim hovliqib kalishini kiyarkan.

– Osa go'rgaydi-ya! Bitimni oladimi? – Parcha yirtiq ro'molining uchiga po'ng'illatib burnini qoqdi. – Tashab ketibdi.

– Nimani? – Oqsoqol bilan cholim baravar hay-qirishdi.

– Mangina o'liy! – dedi Parcha do'rillab. – Peshinda tabibnikiga boruvdim. Atala qilishgan ekan, ikki kosa-gina ichdim... Undan Bashor opamnikiga o'tdim... Oshqovoq suviga qorib zog'ora yopayotgan ekan.... To'rttagina yedim... G'ira-shirada uyimga kesam, ayvo-nimda bir narsa turibdi. Insmi-jinsmi, deb yaqinroq borsam, echki! Naq tuyadek keladi!

– Nima! – Oqsoqol tajanglanib o'shqirdi. – Qanaqa echki?

– Voy man qattan bilaman! – Parcha mung'ayib qovog'ini soldi. – Oldiga borishga qo'rqdim.

– E, o'la! – Cholim ensasi qotib chiyilladi. – Birovning echkisi adashib kirib qolgan...

– Adashib kirsam, boyloq turadimi? – Parcha yana hiqillab yig'lashga tushdi. – Ayvonimni ustuniga boylab qo'yibdi-ku.

– Qani yur-chi... – Cholim bilan Oqsoqol Parchani oldiga solib chiqib ketishdi.

Xah g'alvalaring qursin-a! Bitta echki deb shuncha vahima ko'tarasanmi, esi past! Alla-pallagacha dilim o'ynab, o'zimga kelolmasam-a!..

Robiya fonus olib chiqqanidan keyin ko'p o'tmay cholim bilan Oqsoqol qaytib kelishdi.

– Nima bo'пти? – deb so'ragan edim, Oqsoqol kaftidagi g'ijimlanib ketgan qog'ozni Robiyaga uzatdi.

– O'qib ko'r-chi, – dedi qovog'ini solib. – Abzinikidan topdik, eshigiga qistirib qo'ygan ekan.

Robiya qog'ozni fonus yorug'iga tutib, hijjalabroq o'qidi.

– «Mini shumqadam dimag'iz. Min shumqadam imasman... – Robiya birpas tutilib qoldi-da, davom etdi. – Pochtada, stolda ikki poxoronka yota. Biri-si – Do'mbirobodg'a – Sulaymon abzig'a... Birisi Xirmontepag'a – Xadicha oting'a. Min Qazang'a kitam. Ni bulsa bula! Mindan rozi bulig'iz. Xayringiz...»

Robiya xatni o'qib bo'lib, Oqsoqolga uzatdi. Ammo Oqsoqol qayrilib ham qaramadi. Hammamiz karaxt bo'lib qolgan edik. Jimlik cho'kdi.

– Bo'lsa kambag'alga bo'lsin debdi-da, – dedi cholim o'ychan alpozda. – Echkisini Parchaga tashlab ketibdi... Bir odamda diyonat bo'lsa shunchalik bo'lar-da, o'rtoq!

– Qaytarish kerak! – Oqsoqol Robiyaning qo'lidan xatni oldi.

– To'g'ri! – dedi cholim. – Qishli-qirovli kunda Qozonga qandoq yetib boradi. O'zi yarimta odam bo'lsa... Bir g'aribni sarson qilib qo'yamizmi? Selsovetga aytsak, Ismoil melisa...

– E! – Oqsoqol achchiqlanib uning gapini kesdi. – Nima, abzi dezertirmi, melisaning oldiga tushib keldigan! O'zimiz boramiz.

Ikkala o'rtoq issiqroq kiyinib, tag'in chiqib ketishdi.

...Cholim kun yoyilganida burnidan tortsa yiqilgudek bo'lib qaytib keldi. Robiya ikkovimiz «nima bo'ldi» deb baravar qaragan edik, cholim muzlab ketgan qo'lini tanchaga tiqib, og'ir bosh chayqadi.

– Yo'q, – dedi soqoli titrab. – Toshkanning vokzaliga borib keldik. Pattani oldindan obqo'ygan shekilli. – U bir nuqtaga tikilib uzoq o'tirdi-da, ohista qo'shib qo'ydi. – Diyonatli odam edi. Oqsoqol juda xafa. Kelakelguncha ovsiningni so'kib keldi. «Qarg'amay tiling kesilgur, hammasini shu qildi», deydi.

– Ovsinimda nima ayb? – dedim sekin.
Cholim nosqovoqni silab yana ancha jim qoldi.
– To‘g‘ri, – dedi o‘ylanib. – Ammo abzi imonli odam edi. Qayerga borsayam, joni sog‘ bo‘lsin...
...Rashid abzi ketdi-yu, Kimsanimdan xat kelmay qo‘ydi...

O‘n ikkinchi bob

MEHR BILAN QAHR – ORASI BIR QADAM

Oddiy askar Kimsan Husanovning Robiyaga yozmoqchi bo‘lgan, ammo yoza olmagan xati

«Ushbu xatim go‘zal Toshkentning No‘g‘ayqo‘rg‘on qishlog‘ida sog‘-salomat o‘ynab-kulib yurgan dadamlarga, oyimlarga, Robiyaxonga tezda yetib, ma‘lum bo‘lsinki, o‘g‘lingiz Kimsandan deb bilursiz. Dada, oyi, sog‘-salomat yuribsizlarmi? Oqsoqol, Xolposh xolam, Fotima-Zuhra kelinoyilarim, uyoqda Ra‘no kelinoyim, hammangiz sog‘-salomatmisizlar!

Robiya! Birato‘la to‘rtta xatingni oldim. «Ma‘lum oshi» qilishganini eshitib, juda xursand bo‘ldim. Bilib qo‘y, sen endi boshi bog‘liq qizsan. O‘zimnikisan! Oldingda bo‘lganimda qulog‘ingga aytadigan gaplarim bor edi. Mayli, ko‘pi ketib ozi qoldi. Shu ketishimiz bo‘lsa, bahorda fritslarni quvib joyiga oborib qo‘yamiz, shekilli. Hozir dushmanning shashti pasayib qolgan.

Robiya, rostini aytsam, Oqsoqol, urush – o‘yin emas, deganida bilib gapirgan ekan. Men urushni o‘yinchoq deb o‘ylabman. Qo‘lingga avtomat olasan-u duch kelgan dushmanni otib tashlayverasan. O‘qing hecham ado bo‘lmaydi. Yo‘q, ajalga ro‘para kelganingda joning ko‘zingga shirin ko‘rinib ketarkan. Osmonda uchib ketayotgan «Fokke-Vulf»ning qornidan ajralib chiqib uvvos solib tushayotgan qo‘sha-qo‘sha bombalarni aniq ko‘rib turasan. O‘sha bomba boshqa hech kimning emas, xuddi sening boshingga tushayotgandek bo‘laveradi. Qor bosgan dalada mo‘ri malahdek o‘rmalab kelayotgan tanklar xuddi sen turgan okopga bostirib kelayotganga

o'xshaydi. O'zingni qayoqqa urishni bilmay qolasan. Nima qilaylik, biz ketmondan bo'lak nimaniyam ko'ribmiz! Esimda bor: birinchi kunlari nemis bizga o'xshagan soddalarni tutdek to'kdi. Farg'onalik Ergashali aka degan hazilkash kishi bor edi. Afandi aytib hammani kuldirib yurardi. Bir kuni transheyadan boshini chiqarishi bilan qars etgan ovoz eshitildi-yu, bechora shilq etib yiqildi-qoldi. Nemis snayperi poylab turgan ekan. Ergashali aka yiqilishi bilan o'n chog'li hamyurtlari «voy jigarim»lab o'sha tomonga otilishdi. Men ham chopib borayotgan edim, Masha degan saninstruktor qiz qo'limdan tortib qoldi. Mashaning hayhaylashiga qaramay, Ergashali akaning boshiga to'dalashib borgan do'stlari ustiga gumburlab mina tushdi-yu, o'n kishini parcha-parcha qilib tashladi.

Yo'q, Robiya! Endi biz ham jang qilishni o'rganib oldik. Mo'ylovi xuddi Oqsoqolnikiga o'xshab osilib tushgan «dyadya Vasya» degan serjantimiz bor. Og'zidan moxorka tushmaydi. Men o'z ulushimga tushgan tamakini unga beraman, u o'z ulushiga tushgan qandni menga beradi. Dyadya Vasya o'n to'rtinchi yilda ham Germaniyaga qarshi urushgan ekan. Urush nimaligini mana shu kishi o'rgatdi.

Dyadya Vasya qaysi bomba qayerga tushishini oldindan biladi. Bir chaqirim narida uchib kelayotgan «Fokke-Vulf»ning qornidan ajralib chiqqan bombalarni ko'rib, boshimni ichimga tortsam, yelkamga shapatilaydi.

– Eto ne nash!

Chindan ham bombalar uch yuz-to'rt yuz qadam oldinga tushib yoriladi. Nemis aeroplani shundoq boshimiz ustidan varanglab o'tib, bomba tashlaganida, yerga yopishib olsam dyadya Vasya tag'in yelkamga qoqadi.

– Ne boysya, eto toje ne nash!

Chindan ham bomba ancha orqaga – o'rmonzorga borib tushadi. Nemis samolyoti uch yuz-to'rt yuz qadamcha joyga kelganida bomba tashlasa, dyadya Vasya hayqiradi.

– Beregis, – eto nash! – deydi-yu, meni okop ostiga bosadi. Chindan ham zum o'tmay hammayoqni zulmat bosib, gumbur-gumburdan qulog'im chippa bitib qoladi.

Nimaga bu kishi hadeb meni avaylashiga hayron qolaman. Bir kuni so'rasam, mo'ylovini burab, kuldi:

– Sen yoshsan! Men starik. Urush bitsa uyingga oborasan. To'yingda barashkadan shashlik qilib berasan!

Urush bitsa dyadya Vasyani albatta uyga olib boraman. Dadamning uzumiga bir to'ydiray.

Robiya! Urush boshlangan kuni ikkalamiz tokzorda chillaki uzganimiz esingdami? Qani hozir o'sha zamonlar qaytib kelsa. Qani, ikkalamiz ishkonga kirib uzum uzsak-da, dyadya Vasyani mehmon qilsak! Esingdami, meni kuzatishdan bir kun oldin uyimizga mehmonlar to'plandi. Dadam qo'y so'ydi. Olma tagidan ketmon bilan chuqurcha qazidi-da, qo'yni yetaklab kelib yotqizdi. Uchta oyog'ini juftlab bog'ladi. Pichoqni qinidan sug'urishi bilan qo'y jonivor iltijoli ma'rab yubordi. Boshini dast ko'tarib o'rnidan turishga talpindi. Nazarimda ko'zimga yalinib qaragandek bo'ldi. Dadam pichoq tortganida yana ma'radi. Bo'g'zidan tizillab qon otilib ketdi. Ko'zimni chirt yumib tomorqaga chiqib ketdim.

Qo'y so'yilganida shunchalik seskangan odam, birovni o'ldirishga qurbim yetarmidi! Axir odam – inson bolasi-ku! Fashistmi, balomi, bari bir uyam odam-ku! Uni tuqqan ona ham o'g'lim birovning qo'lida qo'ydek so'yilsin, demagandir! Xuddi o'zingga o'xshagan tirik odamni, uyida onasi, otasi, senga o'xshagan suyгани kutib o'tirgan odam bolasini o'ldirishga qanday qo'ling boradi?

Robiya! Men avvaliga shunaqa deb o'ylardim. Ammo urushning bir kuni bir yilga tatir ekan. Har qadamda o'lim bilan ro'para bo'lavergandan keyin diydang qotib ketarkan. Robiya, men endi avvalgi rahmdil Kimsan emasman. Jangga kirganimga yuz ellik kun bo'ldi. Yuz ellik yil yashadim desam yolg'on bo'lmaydi. Urushning o'z qoidalari bo'larkan. Bunaqa paytda mehr bilan qahrning orasi bir qadam bo'lib qolarkan. Yo sen o'ldirasan, yo seni o'ldirishadi. Boshqa yo'li yo'q.

Yaqin kishilaringga, yurtingga mehring bormi, dushmanga shafqat qilma! Tamom!

Bu qoidani farg'onalik Ergashali akaning ustiga dod solib borgan o'n nafar yurtdoshim bitta fashist minasi bilan qiyma-qiyma bo'lganida tushungan edim. Yangi yil arafasida dyadya Vasyadan ayrilib qolganimda bu gapga tag'in bir marta imon keltirdim. Meni shuncha o'limdan asrab qolgan odam shundoq ko'z o'ngimda olamdan o'tdi. Birpasda, bir lahzada...

O'sha kuni transheyada karam sho'rva ichib o'tirgan edik. Tip-tiniq osmonda oftob charaqlab turar, ammo havo shunaqangi sovuq ediki, og'zingdan chiqqan hovur ham yaxlab qolayotgandek. Telpagingning quloqchinini tushirib olgan, soqol-mo'ylovini qirov bosgan dyadya Vasya kotelokni tizzasiga qo'yganicha transheyaning muz bosgan devoriga suyanib o'tirib, karam sho'rva ichar, ora-chora menga dashnom berar edi.

– Menga bari bir-ku, cho'chqa yog'ini yeyishni o'rganmasang o'zingga jabr bo'ladi. Sovuq kunda cho'chqa yog'idan yaxshisi bormi! Jonning rohati-ku!

Kayfimiz chog' edi. Chog' bo'lmay-chi! Mixaylov rayonidagi askarlarimiz o'n kun ichida nemisni quvib Suxinichi degan joyga tiriqtirib borganini bilardik. Endi biz hujum qilishga shaylanib turgandik. Orqa tomonda ko'kimtir qor bosgan archalar qilt etmay turar, hammayoq jimjit edi. Xuddi hech qanaqa urush bo'lmayotgandek. Xuddi dyadya Vasya bilan o'rmon sayliga chiqib, dam olib o'tirgandek.

Shu payt osmonda samolyotlar g'o'ng'illadi. Nemis aeroplanlarining ovozi bilaman. Qaysi biri «Messersmidt», qaysinisi «Fokke-Vulf»... Tip-tiniq osmonda bombardimonchi «Fokke-Vulf» ko'rindi. Nayzadek saf tortib, uchta-uchta bo'lib kelyapti.

Endi ulardan qo'rqmaydigan bo'lib qolganman. Xotirjam sanab chiqdim. To'qqizta ekan. Oldingi qatorda kelayotgan samolyotlardan bombalar ajrab chiqib boshladi.

– Oxo! Nash! – dyadya Vasya kotelokni changalaganicha osmonga qaradi. – Beregis! – dedi baqirib. Keyin nima bo'lganini bilmayman. Bomba uvillagani,

loy aralash qor osmonga sachrab ketganini g'ira-shira ko'rdim. Quloqni qomatga keltirgan portlashdan garang bo'lib mukka tushdim. Keyin hammayoq jimjit bo'lib qoldi.

Qachon hushimga kelganim esimda yo'q. Og'zimga loy aralash qor to'lib ketibdi. O'rnimdan turay desam, ustimda dyadya Vasya yotibdi. Avvallari atrof tinchishi bilan fritsni bo'ralab so'kib, turib ketardi. Bu gal hadeganda qimirlamadi. Amallab o'ngarilib oldim. Osmoq qontalash tus olgan, oftob ko'rinmasdi.

Belimda ko'ndalang bo'lib yotgan dyadya Vasyaning etikli oyog'ini nari surdim.

– Dyadya Vasya!

Qaddimni rostlab qarasam, uning oyog'i ustimda-yu, gavdasi qorga ko'milib qopti. Faqat qor orasidan kotelok tutgan qo'li chiqib turibdi. Kotelokdagi sho'rva to'kilib, ichiga kir qor to'lib qolibdi.

Kotelokni ushlab tortdim.

– Dyadya Vasya! Jivoy?!

Qiziq, u kotelokni mahkam changallab olgan, qo'yib yuborgisi kelmasdi. Kotelokni qattiqroq tortgan edim, qor orasida ko'milib yotgan qo'li uzilib chiqdi. Vahimaga tushib, baqirib yubordim.

– Dyadya Vasya!

Qo'l tirsakdan uzilib ketgan, qoni qorayib qotib qolgan, sarg'ish go'sht orasidan oppoq suyak turtib chiqib turardi. Ajab, odamning go'shti sarg'imtir bo'larkan.

Esim og'ib, jinni bo'lib qolmaganimga o'zim hayronman. Palaxsa-palaxsa qorga qo'shilgan loy bo'laklarini oyoq-qo'llarim bilan baravar tirmalar ekanman, bo'g'zimga yig'i tiqilib qichqirardim.

– Dyadya Vasya! Dyadya Vasya!

Robiya! Qorni yorilib, ichak-chavag'i loyga aralashib ketgan odamni ko'rish juda dahshatli bo'larkan! Yaqin odamingni shu alpozda ko'rgandan ko'ra o'limingga ming marta rozi bo'lib ketarkansan, Robiya! Qadrdoq bo'lib qolgan kishing ichak-chavag'i isqirt qorga aralashib, cho'zilib yotsa, shuni ko'rib turib yordam berish qo'lingdan kelmasa, bundan ortiq azob bo'lmas ekan!

O'zing ayt-chi, shundoq narsani ko'rgan odam dushmani ayaydimi? Dyadya Vasya Germaniyaga nima yomonlik qildi! Gitlarning nima qasdi bor edi unda! Farg'onalik Ergashali aka-chi? Hamyurtlari-chi? Gunohi nima ularning?

Yangi yil kechasi – nemislar mast-alast bo'lib rojdestvo bayrami qilayotganida hujumga o'tdik! Robiya! Men ishonaman, bu dunyoda adolat degan narsa bor! Bor! Nuqul bostirib kelib bizni qo'rqitadigan fashistning chiyillab qochishini ko'radigan kun ham kelarkan! Yolg'on gapirib nima qildim! Qor urib turgan zim-ziyo kechada miltiqdan otgan o'qim jilla qursa bitta dushmani yiqitdimi-yo'qmi, bilmayman. Lekin aqalli bitta fashistni yer tishlatishni, qorga dumalab dod solib chinqirayotgan, hov o'shanda olma tagida dadam so'yan qo'ydek xirillab jon taslim qilayotgan bitta nemisni o'z ko'zim bilan ko'rishni, bilib qo'y, seni men o'ldirdim deb boshida kulib turishni judayam xohlar edim.

Qochmas ekansan-a! Chekinish azobi qanaqa bo'lishini senlaram bir ko'rib qo'y!

Yeru ko'k gumbur-gumburga to'lgan, pulemyotlardan otilayotgan o'qlarning olovli tasmasi ko'kimtir lovullab ko'rinar, dushman askarlari okoplardan chiqib, to'rt tomonga zir yugurar edi. Yo'q, bironta fritsni o'z qo'lim bilan yoqasidan bo'g'ib aft-basharasini aniq ko'rmadim, lekin joni boricha qochib, ayyuhannos solayotganini eshitib turardim!

Sen bilmaysan, Robiya! Qopqonga tushgan bo'ridek o'zini qay teshikka urishni bilmay qolgan dushmani oldingga solib quvishning zavqi qanaqa bo'lishini bilmaysan! Bitta yurtdoshi shahid ketganida ustida o'ntasi «voy jigarim»lab yig'layotganida, bir mina bilan hammasini qiymalab tashlagan, «ahmoq osiyolik»larning soddaligidan huzur qilib kulgan «aqlli yevropalik» tozaqon fashistni tirqiratib haydash qanchalik lazmatli bo'lishini bilmaysan! Bomba tagida parchalanib ketgan odamning ichak-chavag'ini qor orasidan yig'ishtirib olganida, shu bombani tashlagan dushmandan qasos olishga qasd qilgan kishi uchun nemisni dodlatib quvish qanchalik zavqli bo'lishini bilmaysan!

Robiya! Jonim! Bizda g'alati udumlar bor. Chaqaloq tug'ilganida tanglayini ko'tarishadi. Shunda doya xola nima deyishini bilasanmi?! «Insofli bo'l, mo'min-qobil bo'l!» deydi. Endi tushunsam, insofli bo'lish degani mo'min-qobil bo'lish degani emas ekan. «Mo'min-qobil» bo'lish nima o'zi? Birov o'ng yuzingga ursa, chap yuzingni tutib ber, deganimi?! Dushman bitta mina otib, o'n bitta o'zbekni qiyma-qiyma qilsin, bomba tashlab, dyadya Vasyaning ichagini boshiga salla qilib qo'ysinda, men qo'ydek yuvosh, musichadek beozor bo'lib turaveraymi! Yo'q! Qonga – qon! Jonga – jon! Insof degani shu!

Kecha yana bir voqea bo'ldi. Tongotar payti Krasnogorsk degan qishloqqa kirib bordik. O'rischasiga «Qizil tog'» degani ekan. Bu yerda tog'ning o'zi yo'q. Tepalikni tog' deyishadi. Krasnogorsk ham pastakkina tepalik ekan. O'zimizning Xirmontepadek keladi.

Hali tong otmagan bo'lsa ham, atrof bir zumda yorishib ketdi. Shoxlari qor zalvoridan egilib ketgan archazor orasidan chiqib «ur-xo-ur!» bilan oldinga yugurdik. Qishloq nega to'satdan yorishib ketganini keyin bildim. Ko'chani ikki tomonidagi uylar gurillab yonayapti.

Robiya, sen ko'rmagansan. Bu yerdagi uylar biznikiga o'xshamaydi. Devori paxsa, tomi loysuvoq emas. Nuvul xarilardan devor tiklab, ustiga poxol yopiladi. Bitta o't ketsa, tamom lop etib yonadi-yu, kulga aylanadi.

Dushmanning zonder komandasi qishloqdan chiqayotib uylarga o't qo'ygan ekan. Fashistning ognemyot degan quroli bor. Uzun rezinka ichakdan benzin sepadi-da, uylarni yoqib yuboradi.

Chopib ketyapman-u ko'rib turibman. Olisda, yaxlit gulxanga aylangan qishloq ko'chasining boshida nemisning oxirgi yuk mashinasi qorda sudralib, sirg'anib borardi. O'rmon yalangligidan bizning tank chiqib keldida, yonboshidan turib, zambaragidan bir o'q uzgan edi, mashina parcha-parcha bo'lib, ustidagi nemislar qorga tariqdek sochilib ketdi. Quvonganimdan baqirgancha o'sha tomonga chopdim.

Shu payt lovullab yonayotgan uy derazasidan birov sakrab ko'chaga tushdi. Qorda gandraklab ketdi,

ammo yiqilmadi. Besh-olti qadam yugurib bordi-yu, o'zidan o'zi gugurt cho'pidek lop etib yona boshladi. Kiyimiga benzin tekkan ekan shekilli... U vahima ichida quloqchinini qorga uloqtirib, ikki qo'llab boshini tatalashga tushdi. Ammo og'riqdan esini yo'qotib kuchi boricha yugura ketdi. Qancha tez chopsa, shuncha qattiq yonar, goh yuziga, goh boshiga shapatilab chinqirar edi.

– A-a-a-a!

Ketidan yugurdim.

Yaqin borganimda uning a'zoyi badani alangaga aylanib ketgan edi. Besh-olti qadam qolganida gan-diraklab qorga yiqildi. Ustiga o'zimni tashlab, qorda dumalata boshladim. Dimog'imga kuygan go'sht isi urildi: odam go'shtining hidi.

Oxiri qo'llarim kuya-kuya tirik gulxanni qorga bosib o'chirdim. Qishloq hamon lovullab yonardi. Razm solib qarasam, jajjigina bola ekan. Uzog'i bilan yetti-sakkiz yoshlarda, egniga qo'pol paxtalik kiyib olgani uchun ko'zimga katta odamdek ko'ringan ekan. Egnidan tutab turgan paxtaligini yechib olmoqchi edim, eplolmadim, allaqachon qorakuyaga aylanib badaniga yopishib qolibdi.

Bolaning yuzidan silasam, barmog'imga yumshoq, issiq narsa unnadi. Jonholatda qo'limni tortdim. Ammo barmoqlarimga rezinkadek narsa yopishib qolgan edi. Qo'limni tortgan sayin bolaning yuzi cho'zilib ketyapti. Vahima ichida qo'limni siltab ajratib oldim. Cho'nqayib o'tirgancha bolaga termildim.

Lovullab yonayotgan uylar gulxanida bolakayning azobdan qiyshayib ketgan chehrasi aniq ko'rinardi. Ikki yuzi, qosh-kipriklari kuyib, qorayib ketgan, ko'zlari vahima bilan bir nuqtaga baqrayib qotib qolgan, faqat lablari, jajji lablari yarim ochiq; hamon «a-a-a» deb chinqirayotganga o'xshar, kemshik tishlari orasidan g'archcha tishlab olgan tilining uchi chiqib turardi...

Sen xatingda yozibsan, Robiya! Bizni unashtirishdi, «ma'lum oshi bo'ldi», debsan. Endi o'zing o'ylab ko'r. Vaqti kelib, to'ylar qilsak-da, dushman bostirib kelib, bizning bolalarni yondirib yuborsa! Qanaqa bo'ladi! Tiriklayin kabob bo'lgan mana shu begunoh bolani

ko'rgan odam dushmandan qasos olmasa gunohga botmaydimi? Shu bolani ko'rgan odam dushmanga shafqat qiladimi? Bilmadim, balki shafqatsiz odam – diyonatsiz bo'lar. Lekin diyonatli bo'lish uchun ham shafqatsiz bo'lish kerak. Men shunga ishondim. Urush meni shunga majbur qildi, Robiya!

Robiya! Ko'nglim sezib turibdi. Yaqinda katta hujumga o'tamiz. Endi men qanaqa jang qilishni bilaman.

Robiya! Menga atab kashta tikayotganingni o'qib juda suyundim. Endi ikkita bo'ldimi? Yarim yilda ikkitadan tikib tursang, narisi bilan kashtang to'rtta bo'lguncha boraman. Ko'pi ketib, ozi qoldi.

Mendan Oqsoqolga, Xolposh xolaga, Ra'no kelin -oyimga, Fotima-Zuhra kelinoyimlarga ko'pdan-ko'p sog'inchli salom ayt. Ha, aytgandek, oyim Shomurod tog'angdan qurut berib yubordim deganlarini o'qib rosa kuldim. Tog'amni ko'rganim yo'q. Mendan dadamga, oyimga salom ayt. Sog'inchli salom bilan seni jonidan yaxshi ko'radigan Kimsan akang.

1942 yil... Yanvar»

O'n uchinchi bob

«QORA AMMA» HIKOYASI

Yaxshi kelsa – hut, yomon kelsa – yut

Ikki hafta bo'ldiki, bo'g'ot orqasida mov mushuk kechasi bilan miyovlab chiqadi. Avvaliga o'lmagan qul, hut kelgan bo'lsa, bahorga ham omon-eson chiqdik, deb suyungan edim. Qayoqda! Tom qamishidan sariq sumalak osilib, endi eruvgarchilik boshlanadi, deb turganimizda, sovuq avjiga chiqib qish qaytib keldi.

O'tin-cho'pning tayini yo'q. Ertalab derazalarni qirov bosib qoladi. Robiya ikkalamiz pisillagan sandalga tiqilib kechasi bilan sovqotib chiqamiz. Cholim bilan Oqsoqol qish surilib ketayotganidan tajang. Go'ngni-ku, qahraton qish demay dalaga olib chiqishgan. Ammo hali qancha yumush bor! Ariq tozalash, yer haydash. Eh-he!

Ovsinim yotiqli kasal bo'lib qolganidan beri Oqsoqol uyiga sig'maydi. Kallai saharlab cholimning oldiga chiqadi. Bugun ham tong otmasidan choponiga o'ralib kirib keldi. Robiya molxonada sigirga qarar, men endi choy damlab kelgan edim.

– Padariga la'nat! – Oqsoqol sandal to'rida o'tirib, choy ho'plarkan, bo'ralab so'kindi. – Kecha kechqurun yangi oy chiqdi. Qarasam, o'rog'i yana bemalol yon-boshlab yotibdi. Oy o'ziga tinch bo'lsa, yer notinch bo'ladi. Haliveri qishning keti ko'rinmaydi, shekilli.

– Kuzgi bug'doy chirib ketmasa go'rgaydi, – dedi cholim bosh chayqab. – Hayronman, havoning bu ketishi bo'lsa...

Ko'cha eshik zardali taqilladi-yu, og'zidagi og'zida, bo'g'zidagi bo'g'zida qoldi.

Uchovlashib, oldinma-keyin darvozaga chiqsak. Umar zakunchi otini gijinglatib turibdi. Boshida chaqmoq telpak, egnida pocha-po'stin, qo'lida qamchi.

– Yiling uyqu, muchaling yostiqmi? – dedi tuyog'i bilan qor titkilayotgan otining jilovini siltab.

Oqsoqolni ko'rdi-yu, Zakunchining ko'zlari qisilib ketdi.

– Sen nima qilyapsan bu yerda? – dedi ingichka mo'ylovi titrab. – Ikkita kelinigini so'qimga boqib qo'yibsanmi?!

Hayratdan og'zim ochilib qoldi. Shu gapni Oqsoqolga aytyaptimi? Butun No'g'ayqo'rg'onda cholimdan bo'lak bironta odam shu paytgacha sansiramagan Oqsoqolga-ya?!

Hozir katta janjal chiqishini sezib, yuragim uvi-shib ketdi. Qo'rquv ichida burilib qarasam, Oqsoqol qovog'ini uyib, Zakunchiga chaqchayib turibdi. Entikib nafas olayotgani uchunmi, havo sovuqligidanmi, oppoq mo'ylovi tagidan quyuq hovur ko'tariyapti.

Oqsoqol bir hatlab, yaqin bordi.

– Menga qara, – dedi jilovga qo'l cho'zib. Ot hurkib, boshini ko'tardi. Suvlig'i shiqirlab ketdi. – Beshigimni tebratganmisan?!

Zakunchi labining bir burchi bilan iljaydi, lekin o'sha zahoti jiddiy tortdi.

– Chiqish kerak-da, dalaga! – dedi murosaga chiqirgan ohangda. – Sizgayam qoyilmasman, Duma! – U cholimga yuzlandi. – Shuncha ish turibdi-yu. Hayronman, ikkovlaringni gaping hech ado bo'lmaydi.

– Yo'q, shoshma, beshigimni tebratganmisan?! – Oqsoqol ot jiloviga qaytadan chang solayotgan edi, cholim oldini to'sdi.

– Nima ish qilaylik, rais? – dedi ot bilan Oqsoqolning o'rtasiga turib. – Ariq qazib bo'lmasa, yer chopib bo'lmasa... O'zimizniyam patagimizga qurt tushib turibdi...

– Chiqaveringlar-chi, ish topiladi! – Zakunchi ot jilovini burdi.

– Yo'q, shoshma! – Oqsoqol qorda sirg'anib o'sha tomonga otildi. Bu safar bir talpinib jilovdan ushlab qoldi. – Agar yana bir marta sansirasang...

Oqsoqol uyog'ini aytmadi. Ammo Zakunchining rangi gezarib ketganini payqadim.

– Qo'yvoring! – dedi jilovini tortib. – To'g'ri gap tuqqaningga yoqmaydi.

Cholim amallab Oqsoqolning qo'lidan ot jilovini ayirdi. Jiyron keskin burilgan edi, tuyog'idan otilgan qor Oqsoqolning yuziga sachradi.

– Gap shu! – Zakunchi otini qichab nariroqqa bordi-da, egar ustida burilib qaradi. – Hozircha kolxozning xo'jayini menman. G'ing deganni rabochiy batalonga jo'natib, uy ichini ko'chirma qilib yuboraman!

Ot dumini gajak qilganicha qor sachratib chopib ketdi. Hammamiz orqasidan qarab qoldik. Oqsoqol hamon o'ziga kelolmas, soqoli titrab, pishqirib nafas olardi.

– Qo'y, o'rtoq... – Cholim uni yupatdi. – Shu ahmoqqa teng kelib o'tirasanmi? – Birpas o'ylab turib, yelkasini qisdi. – Tuppa-tuzuk odam siyohiga kirib qoluvdi-ku, bu xotintaloq. Nimaga yana zakunchilikka o'tdi?

– Gap zakunchiliqdamas! – Oqsoqol ijirg'anib yuzini o'girdi. – «Qoraxat» kelgan kuni so'kkanimning alamini olyapti.

– Voy ablah-ey! – Cholim do'stining yelkasiga qoqdi. – Qo'yaver, it akilladi qo'ydi-da...

– Maraz!.. – Oqsoqol mushtini tugdi. – Bolalari o‘ldi, endi qo‘lidan hech nima kelmaydi, demoqchi. – U ovozi titrab alam bilan bosh chayqadi. – Odamzod ham shunchalik palid bo‘ladimi!

– Yur, borsak boraylik, dalaga! – Cholim o‘rtog‘ini sudradi. – Qani ko‘raylik-chi, nima yumush bor ekan.

...Robiya ikkalamiz endi bir piyola choy ichgan edik, darvoza tag‘in taqilladi. Bo‘ying lahatda chirigur Zakunchi yana keldi, shekilli!

Robiya dik etib tanchadan turgan edi, eshik g‘iyqillab ochildi. Uyga avval lampamoy hidi, ketidan yenglari dog‘-dug‘ bo‘lib ketgan paxtalik kiygan, qalin jun ro‘mol o‘ragan Bashorat kirib keldi. Kesakiga suyanganча tik turib qor bosgan etigini yechdi, salom berdi. Ko‘nglim yorishdi.

– Voy, sizmidingiz, men anavi go‘rso‘xta deb...

Bashorat shosha-pisha sandal chetiga o‘tirdi. Moy yuqqan, sovuqdan tors-tors yorilgan qo‘lini tanchaga suqdi.

– O‘lsin, muncha sovuq! – dedi hansirab. – Ih, tanchangizdanam muz chiqyapti-ku, xola.

Robiya choynak ko‘tarib, chiqib ketayotgan edi, imo bilan to‘xtatdi.

– O‘tir! Choyga balo bormi, sovuq kunda... Odam qatnayverib bezor bo‘ladi.

Robiya iymanibroq sandal chetiga qaytib o‘tirdi. Bashorat bekordan-bekorga uyma-uy sanqimaydi. Gapi bor. Shuni bilib, yuziga termildim. Jimlik cho‘kdi. Tashqarida mushuk miyovladi. Bashorat kulimsirab qo‘ydi.

– Mushugingizni erga bersangiz bo‘lmaydimi, xola. Zora-mora kunlar isib ketarmidi!

Robiya uyalib, yuzini o‘girdi. Juda shaddod-da, Bashorat tushmagur! Oldimda qiz bola o‘tiribdiyam demaydi.

– Qishning bir kuni qolsayam qo‘rq degani, shu-da. Hali ayamajiz bor, axmon-daxmon...

– Qirilib ketsin axmoniyam, daxmoniyam!.. – Bashorat jahl bilan so‘zimni kesdi. Boshidagi ro‘molini yulqib olib yoniga tashladi. – Ish qolib ketyapti, xola!

Yuziga qarab turib, rahmim keldi. Sovuqdan qorayib ketgan, yoshi qirqning nari-berisida-yu chakka sochlari oqaribdi.

– Pochchadan xat bormi? – dedim sekin (gapim qursin! Ukam tengi odamni «pochcha» desam! Nima qilay, No‘g‘ayqo‘rg‘onning hammasi Bashoratning erini «pochcha» deb o‘rgangan).

– Keldi! – U jo‘n gap aytgandek xotirjam bosh silkidi. – Pulemyotchi ekan.

Boyadan beri jim o‘tirgan Robiya xo‘rsindi.

– Kimsan akamdan anchadan beri xabar yo‘q.

– Hech nima qilmaydi! – Bashorat avval Robiyaga, keyin menga yupatuvchan alpozda qarab qo‘ydi. – Urushda yurgan odam har kuni xat yozolmaydi.

Yana jimlik cho‘kdi. Tashqarida tag‘in mushuk miyovladi.

– Xola! – Bashorat ilkis bosh ko‘tarib, ko‘zimga qattiq tikildi. – Robiyani menga berasiz!

Tomdan tarasha tushgandek gapirishi g‘alati eshitildi.

– Voy, bu nima deganingiz?!

U o‘ktamlik bilan kulib yubordi.

– Qo‘rqmang, qizingizni obqochib ketmayman, xolajon! Kelin qilib oberadigan ukam yo‘q.

Qarasam, Robiya ham hayron qolib, alang-jalang bo‘lyapti.

– Shogirdlikka berasiz! – Bashorat Robiyaga yuzlandi. – Menga shogird bo‘lasan, traktor haydaysan!

Robiyani bilmadim-u men bir sapchib tushdim.

– Qanaqasiga? Urushdan oldin Kimsan traktor haydayman deganida bunaqa ishni mexaniklar qiladi, deyishgandi.

– U boshqa zamon edi, xola! – dedi Bashorat yalinib emas, jahli chiqib. – Hozir urush...

– Qiz bola boshi bilan... – Sen ham gapirsang-chi, degandek Robiyaga qaradim.

– Rost, opa, – dedi Robiya sochining uchini o‘ynab. – Qanaqa bo‘larkin!

– Nima, men erkakmanmi? – Bashoratning ovozi qat‘iy jaranglab ketdi. – Yo sendan ortiq yerim bormi?!

– Axir u yerda erkaklar ishlasha... – degan edim, Bashorat battar achchiqlandi.

– MTSda bitta erkak bor. O'sha erkak – menman!– dedi alam bilan. – Ko'chaga chiqsam erkakman, uyga kirsam xotinman. Nima qilaylik! Qish surilib ketyapti. Ertaga yilt etib oftob chiqsa, shuncha joyni kim haydaydi?

– To'g'ri-ku, lekin Robiya... Bobosi...

– Xotirjam bo'ling! – Bashorat yana og'zimga urdi. – Cholingiz bilan allaqachon gapni pishitib qo'yanman.

– Shunaqa-ku, u yoqda Kimsan bor...

– To'g'ri, – dedi Robiya jonlanib. – Kimsan akamdan beruxsat...

– Dard! – Bashorat sovuqdan tors-tors yorilgan qo'lini sandalga mushtladi. – Traktor haydash – aeroplan uchirish emas! Kimsan akangga o'zim xat yozaman. Qallig'ing traktor haydayapti, desam xursand bo'ladi. Sen traktor haydashni qancha tez o'rgansang, Kimsan akang shuncha tez keladi.

Robiya goh menga, goh Bashoratga qarab talmovsi-rab turgan edi, Bashorat baqirib berdi:

– O'takang yorilmasin! Oqsoqolning qo'shaloq kelinlariyam boradi. Hech bo'lmasa bittasi erining o'rniga traktor haydaydi. Qani otlan! Sochingni chambarak qilib ol! Kelinko'rarga ketayotganing yo'q!

Shundoq dedi-yu, Robiyaning qo'lidan sudragudek bo'lib yetaklab chiqdi-ketdi. Hayhaylaganimcha qola-verdim.

O'n to'rtinchi bob

ROBIYA HIKOYASI

1. Ot o'rnini toy bosar

Bashorat opa rost aytgan ekan. Traktor haydash – aeroplan minish emas. To'g'ri, avvaliga traktor g'il-diragining har bittasi omochdek keladigan tishlarini ko'rib, qo'rqdim. Dudburonidan ko'kimtir tutun chiqib patillayotganida bosib ketmasaydi, deb yuragimga

vahima tushdi, lampamoy isidan necha kungacha ko'nglim aynib yurdi. Ammo odam qilgan ishni odam qila olar ekan.

Bugun egarga birinchi marta o'tirdim. Bashor opa bilan emas, bir o'zim. Motor gurillaydi. Dudburondan tutun ko'tariladi. Po'stak tashlangan temir egarga minib olib, MTSning qor bosgan hovlisida traktor haydab ketyapman. Devdek mashina uyoqqa bursam, uyoqqa buriladi, buyoqqa bursam – buyoqqa! Xuddi dostonidagi tulpor mingan Barchinoydek! Ko'klam nafasi sezilib qolgan tip-tiniq osmon, erta-indin erib bitishini bilib, muloyim tortgan qor, MTS devori orqasida kurtak chiqarishga shaylanib turgan tollar, qish uyqusidan uyg'onib, xo'rsinib-xo'rsinib nafas olayotgan yer-hammasi menga hayron bo'lib qarayapti. Qaniydi, hozir Kimsan akam shu yerda bo'lsa! Qarang, Kimsan aka! Ko'ryapsizmi, men traktor haydayapman! Endi mening qo'limdan hamma ish keladi. Ko'ryapsizmi, traktor mening izmimga bo'ysunib, xohlagan tomonimga yur-yapti. Eshityapsizmi, Kimsan aka, traktorimning ovozi eshityapsizmi?

Iye, anavilar kim? Oqsoqol-ku! Yonida Zuhra kelin. MTS darvozasidan kirib kelishyapti. Oqsoqolning kelinlari traktorchilarni bo'lishni xohlamagan edi-ku! Endi Oqsoqolning o'zi boshlab kelyapti Zuhra kelinni?! O'zim yaxshi ko'radigan Zuhra kelinni!

Bir mahal qarasam, traktorni to'ppa-to'g'ri o'sha tomonga haydab boryapman. Zuhra kelin qo'rqib ketganidan Oqsoqolning orqasiga berkinib oldi. Voy, kelinoyim tushmagur-ey! Mana, hozir, to'xtataman! Traktor haydash – aeroplan minish emas! Bir mahal Bashor opa bostirmadan yugurib chiqdi. Ergan qorda sirg'ana-sirg'ana chopib kelib, traktor oldini to'sdi.

– O'chir-e! – dedi baqirib.

Yumshoq qor ustiga sakrab tushdim. Zuhra kelin Oqsoqolning orqasidan sekin mo'raladi. Egnida uniqqan baxmal kamzul, oyog'ida eski etik, yupqa lablari titragancha jilmayib turibdi.

– Ko'rdingmi? – dedi Oqsoqol unga o'girilib. – Buyam omoch haydashdek bir gap.

– Bosib ketsa-chi!! – dedi Zuhra kelin chiroyli ko‘zlarini pիրpiratib.

– Bosib ketmaydi! – Bashor opa meni ko‘rsatib jilmaydi. – Ana, Robiya tuppa-tuzuk o‘rganib oldi-ku!

– Shuni aytgin! – Oqsoqol mo‘ylovini burab shan-g‘illadi. – Qiz bolachalik yo‘qmisan!

Haliyam hurkib turgan Zuhra kelinni quchoqlab oldim.

– Qo‘rqmang, o‘zim o‘rgataman, – dedim kulib.

– Ana, o‘zi o‘rgatadi. – Oqsoqol uzun to‘ning barini qayirib, shimining cho‘ntagidan nosshishasini chiqardi. Nos otib, atrofga qaradi. – Ko‘klam kirib qoldi, – dedi havoni iskab, – sezyapsanmi, Bashor, tuproq hidi kelyapti. Yer uyg‘ondi!

U kattakon kafti bilan yoshlangan ko‘zlarini artidi.

– Bashor! – dedi to‘satdan. – Zokirimning traktori qaysi?

– Remont qilyapmiz, – Bashor opa MTS bostirmasiga imo qildi. – Tuzatish kerak.

– Tuzatasan! Zo‘ra qarashadi, – Oqsoqol keliniga yuzlandi. – O‘shani sen minasan, uqdingmi!

Zuhra kelin indamay bosh irg‘adi.

– Bunisi Shokirimnikimi? – Oqsoqol men mangan traktor g‘ildiragining qor yuqib, yaltirab turgan tishini siladi. – Mayli, bunisini senga berdim. Senam o‘zimning qizimsan-da.

– Ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin, Oqsoqol! – Bashor opa Zuhra kelinning qo‘lidan tutdi. – O‘g‘lingizning traktorini uch kunda otdek qilib beraman!

– Shoshma, o‘v! – Oqsoqol Zuhra kelinni bostirmaga yetaklab ketayotgan Bashor opani to‘xtatdi. – Baqqa ke, – dedi barmog‘ini ilgak qilib.

Bashor opa kulimsirab qaytib keldi.

– Kelinlaringizdan aqalli bittasi traktorchi bo‘lsin degan sensan, to‘g‘rimi? Zo‘rani obkegan menman, rostmi?

Bashor opa «to‘g‘ri» degandek bosh silkidi.

– Shu gapim qulog‘ingda bo‘lsin! – Oqsoqol no-sini qorga tupurib etigi bilan ezg‘iladi. – Agar Zo‘ra aytganingni qilmasa, terisiga somon tiqaman.

– Yo‘q, Oqsoqol, Zuhraxon unaqa juvonmas-ku...
– Shoshma! – Oqsoqol Bashor opaning gapini kesdi. – Agar Zo‘ra erining o‘rnini bosolmasa, nima qilishni o‘zim bilaman. Lekin Zo‘raning boshidan bir tola soch haddorat to‘kilsa, seni so‘yaman! Uqdingmi!

– Xo‘p, Oqsoqol, xo‘p! – Bashor opa, «voy choli tushmagur-ey», degandek kula-kula Zuhra kelinni bostirmaga yetakladi.

– Yur, eringni traktorini ko‘rsataman.

Havo ilib qolgan bo‘lsa ham MTS ombori zax, nimqorong‘i edi. Qishi bilan qimirlamay turib, zanglab ketgan traktorning qayeriga qo‘l tegizsangiz, muzdek temir kaftingizni jizillatib kuydirgandek bo‘ladi. Zuhra kelin avvaliga traktordan hurkib turdi-yu, birpasda o‘ziyam qiziqib ketdi. Goh Bashor opadan, goh mendan «manavi nima, bunisi-chi?» deb surishtirishga tushdi.

Peshinga yaqin bostirmaga Umar zakunchi kirib keldi. Qiziq, Zakunchi qayerga borsa, avval otining kishnashi eshitilardi. Yo‘q, bu safar piyoda keldi. Ammo qo‘lida qamchi bor edi. Bundan chiqdi, otini MTS darvozasida qoldirgan.

– Barakalla, azamatlar! – dedi xushchaqchaq ovoza. Ko‘zlarida tabassum porlab jilmaydi. – Yashanglar!

Qiziq, bu odamning qanaqaligini hech bilib bo‘lmaydi. Bir qarasang yuzidan zahar tomadi. Qo‘yib bersa, hammani qamchi bilan savalagudek bo‘ladi. Bir qarasang – bundan mehribon odam yo‘q.

– Kim? – Traktor tagida yotib, g‘ildirak o‘qini bolg‘a bilan urayotgan Bashor opa zarda bilan so‘radi. – Yana nima gap?

– Menman! – Zakunchi yerga cho‘nqayib, traktor tagiga mo‘raladi. – Ishni tezlashtirib yuboribsiz-ku. – U yelkasi osha menga imo qildi. – Shogirdingiz uquvli chiqib qoldi, shekilli?

Bashor opa moy aralash zang yuqqan qo‘lini kir lattaga arta-arta traktor tagidan chiqdi.

– Uquvsiz shogirdni boshimga uramanmi! – dedi kaftining orqasi bilan sochini tuzatib. – Erta-indin unisiyam binoyidek o‘rganib oladi.

Zakunchi traktor orqasida turgan Zuhra kelinni endi ko'rdi.

– Iye, yana bitta kolxozchimizni tortib oldingizmi? – dedi o'rnidan ildam turib.

– Yomonmi?! – Bashor opa qoshini chimirdi. – Bit-ta traktorchi yigirmata odamning ishini qiladi, o'rtoq Xo'jayev!

Zakunchi labini qimtigancha yerdan ko'z uzmay turgan Zuhra kelinga tezgina qarab oldi.

– Mayli, – dedi rozi bo'lib. – Ishni tezlat-sanglar bo'ldi. – Qamchisi bilan qor yuqqan etigining qo'njiga qarsillatib urdi. – Iltimos, – dedi yarim rasmiy, yarim tantanali ohangda. – Bir soatdan keyin klubga chiqinglar.

U keskin burilib, bostirma eshigiga yurgan edi, Bashor opa so'radi:

– Tinchlikmi, ishqilib?

Zakunchi to'xtab, burildi:

– Tinchlik! Yaxshi gap bor!

2. Osmon yulduzsiz emas

Urush boshlanganidan beri klub eshigiga shuncha odam to'planmagan edi. Havo iliq, oyoq ostida ataladek sarg'imtil qor pilchillar, yupun kiyingan bolalar u yoq-bu yoqqa yugurar, chollar, xotin-xalaj – hammaning ko'zida qandaydir sirli hayajon bor edi.

Choyxona yonidagi hovuz bo'yida bobomning eshak aravasiyam turibdi. Eshak horg'in ko'zlari bilan atrofga befarq qarab qo'yadi, ko'kimtir kulrang labini cho'chchaytirib, havoni iskaydi.

Klub zinasida turgan Oqsoqol to'y egasidek hammani ichkariga taklif qilyapti.

– Kiringlar, pajalista, ichkari kiraveringlar!

Odamlar hayron, xuddi yonida turgan kishi hammasidan xabardor-u o'zi eshitmay qolgandek sherigidan so'raydi:

– Nima gap o'zi? Nima bo'пти?

Xayolimga yarq etib g'alati o'y keldi: urush bitgan bo'lsa-ya? Har kuni radioda biznikilar qarshi hujumga o'tib, ko'p qishloqlarni ozod qilishayotganini gapiradi-

ku. To'g'ri, hali dushman Moskvadan uzoqda emas. Lekin biznikilar nuqul bosib boraverganidan keyin nemis taslim bo'lsa, ajabmas! Hali Zakunchiyam yaxshi gap bor, dedi-ku! Oqsoqolning ham chehrasi ochiq. Koshkiydi, urush tugagan bo'lsa!

Paxtali choponidan, jun ro'molidan zax aralash ter hidi anqib turgan xotin-xalajni tirsagim bilan nari-beri surib Oqsoqolga yaqinroq borishga urindim.

Orif oqsoqol vaqti chog' paytida mo'ylovini ikki qo'llab silaydigan odati bor. Hozir ham ho'l bo'lib ketgan mo'ylovini burab, olomonga jilmayib qarayapti.

– Ichkari kirsalaring-chi, baraka topkurlar!

Mening xayolimga kelgan o'y boshqalarniyam miyasida aylanayotgan ekan. To'da orasidan ayol kishining hayajonli hitobi eshitildi:

– Urush tamom bo'ptimi?!

Birpasda hammayoq qiy-chuv bo'lib ketdi. Hassaga suyangan chollar, ko'zida umid yongan xotinlar Oqsoqolning atrofini halqadek o'rab olishdi.

Siyrak soqolli chol chuvalgan sallasini qayta o'rar ekan, xasta ovozda so'radi:

– Tushuntirib gapirsangiz-chi, Oqsoqol, Gitler to'ng'iz qo'ptimi?!

– Berdisini aytguncha urib o'ldirasanlarmi, baraka topkurlar! – Oqsoqol yana hayqirdi. – Ichkari kirsalaring-chi!

Olomon orasidan boyagi ayolning asabiyroq tovushi keldi:

– Hech kim yo'q-ku, uyoqda. O'zingiz aytib qo'ya qoling, urush tamom bo'ptimi, ishqilib! Bolalarim otasini sog'inib ketdi-ku!

O'sha tomonda Bashor opaning o'ktam ovozi yangradi:

– Bolalarni bahona qilmay, o'zim sog'indim deb qo'ya qol!

Gurra kulgi ko'tarildi. Oqsoqol ham iljaydi.

– Bashor to'g'ri aytadi, Qumri! Jalol maxsumni sog'ingan bo'lsang, tez-tez xat yozib tur. Erta-indin o'ziyam kepqoladi. Dushman besh yuz ming askaridan

ayrilib, Maskovdan yuz chaqirim nariga qochdi. Eshitdingmi! Qani, kiraveringlar.

U klubning ochiq turgan qo'sh tavaqali eshigidan ichkari kirib ketdi. O'sha zahoti hamma ur-sur bilan zinaga yopirildi. O'rtaga tushib qolgan ekanman, olo-monning o'zi oyog'imni yerga tegizmay klubga obkirib qo'ydi. Hamma qiy-chuv solib, duch kelgan joyga o'tirdi. Oldingi qatorni bolalar egallab olishdi. Ular orasida jiya-gi sitilib ketgan do'ppi kiygan Olimjonni ko'rib qoldim. Zalda erkaklar yo'q hisob, deyarli hammasi xotinlar, chollar edi. Hamma g'ovur-g'uvur qilar, umid bilan sahnaga tikilar, lekin sahnadagi qizil movut yopilgan stol bo'sh edi. Stol orqasida besh-oltita suyanchig'i baland kursi qator tizib qo'yilibdi. To'rda Stalinning surati...

Klubga yaqin orada odam kirmagani uchun zax bosib ketgan, katta-katta derazalarning siniq oynasidan shamol g'urillaydi. Kuzda chakka o'tgan shekilli, bir vaqtlar gul solingan devorlar nam bosib, bo'yog'i ko'chib tushibdi. Urushdan ilgari sahna tepasida «Mehnatdan kelsa boylik – turmushing ham chiroylik!» degan shior bo'lardi. Hozir «Hamma narsa front uchun!» degan yozuv ilib qo'yilibdi.

Sahnaga eng avval Umar zakunchi kirib keldi. U kulrang kostyum-shim kiygan, bo'yniga bo'yinbog' taqib, yasanib olgan edi. To'rt-besh qadam yurib to'xtadi-da, sahna burchagiga qarab chapak chala boshladi. Pastdagilar indamay o'tirganidan g'ashi keldi shekilli, «senlar ham chal» degandek g'ayrat bilan qarsak ura ketdi. Zalda o'tirganlar nima gapligini bilmasa ham jo'r bo'ldi. Sahna burchagidan boshyalang, sochiga oq oralagan, to'la gavdali kishi chiqib keldi. Movut kostyumining o'ng engi shalvirab yotar, og'ir-og'ir qadam bosar edi. Mehmon yaqin kelgan zahoti Zakunchi baland suyanchikli kursilardan birini chaqqonlik bilan surib ro'para qildi. Shosha-pisha cho'ntagidan ro'molcha chiqarib, kursini artidi-da, mehmonni avaylab o'tqizdi. Yanayam qattiqroq qarsak chala boshladi.

Pastdagilar unga baravar jo'r bo'lishdi. Oxiri «besh-qarsak»ka aylanib ketgan surondan klub tomi ko'chib

tushgudek bo'lganida mehmon yagona chap qo'lini silkitib, «bo'ldi, bas», degandek imo qildi.

Umar zakunchi esa turgan joyida muloyim jilmayib hamon qarsak chalar, kolxozchilarni ham shunga undayotgandek bo'lar edi. Mehmonning vaqti tig'iz ekanmi yo shovqin-surondan qulog'i bitdimi, o'rnidan turib ketdi.

– O'rtoqlar! – dedi baqirib. – O'rtoq kolxozchilar... Iltimos...

Umar zakunchi jilmaygan ko'yi tinchiy boshlagan zaldan ko'z uzmay, mehmonning qulog'iga bir nimani shivirladi. Mehmon joyiga qaytib o'tirganidan keyin jarangdor ovozda, dona-dona qilib gap boshladi:

– Hurmatli kolxozchilar! Bugun bizning kolxozda qo'shaloq bayram! Birinchi, eng muhim bayram shuki, sizlar bilan gaplashib olish uchun raykomning birinchi sekretari – yangi kotibi, hammamiz uchun hurmatli o'rtoq Abdurahmonov tashrif buyurdilar!

Umar zakunchi oxirgi so'zlarini tantana bilan e'lon qilib, shu qadar qattiq chapak chaldiki, zal tag'in junbushga keldi.

– Hurmatli o'rtoq Abdurahmonov! – Umar zakunchining jarangdor ovozi shovqinni bosib ketdi. – Bizning xo'jalik a'zolari sizni – Ulug' Vatan urushining qahramoni, jonajon vatanimiz uchun qon kechgan jasoratli jangchini, rayonimizning otasini chin yurakdan tabriklaydilar. Xush kelibsiz kolxozimizga, o'rtoq Abdurahmonov!

Olomon qaytadan g'ayratga tushib qarsak chala boshladi.

Shunda kutilmagan ish bo'ldi. Abdurahmonov og'ir gavdasiga yarashmagan chaqqonlik bilan o'rnidan sapchib turdi. Negadir salqigan qovoqlari uchib-uchib, shishinqiragan yuzlari qizarib ketdi. Yagona qo'lini cho'zib, hamon g'ayrat bilan qarsak urayotgan Zakunchining bilagidan ushlab, shaxd bilan tortdi.

Zalga qarab bir nima degan edi, shovqindan hech narsa eshitilmadi. Ammo zum o'tmay chapak tindi, odamlar xarraklarni g'irchillatib, joyiga o'tirishdi.

– O‘rtoqlar! – dedi u titroq, xasta ovozda. Yonida jilmayib turgan Zakunchini zo‘rlagudek bo‘lib joyiga o‘tqizdi. – Do‘stlar! Yurtimizning boshiga og‘ir kun tushganida kechani kecha, kunduzni kunduz demay halol mehnat qilayotganingiz uchun hammangizga rayon partiya komiteti nomidan ming rahmat! Raykom hammasini biladi. «Qizil dehqon»chilar frontga plandan tashqari o‘n tonna quruq meva yuborganini, yuz ming so‘mlik zayom olganini, jangchilarimizga issiq kiyim jo‘natganini – hammasini bilamiz. Dushman Moskva ostonalarida yengildi. Sharmandasi chiqib qochyapti. Bunda sizlarning ham ulushinglar bor.

Endi Zakunchi undamasa ham odamlarning o‘zi guvillab qarsak ura boshladi. Abdurahmonov yagona qo‘lini ko‘tarib shovqinni to‘xtatdi.

– Men rayonda yangi odamman! – dedi toliqqan ovozda. – Frontdan yaqinda qaytdim... Ammo bu kolxozga urushdan avval ham kelganman. To‘g‘rimi, Oqsoqol!

Zalning o‘rtarog‘idan Orif oqsoqolning baland ovozi eshitildi:

– Barakalla! Kelgansiz.

– Duma qayoqdalar, Duma?

Hamma alang-jalang bo‘lib qoldi.

Bobom oxirgi qatorda o‘tirgan ekan. O‘rnidan turgani bilan birov ko‘rib, birov ko‘rmadi.

– Buyoqdaman! – dedi chiyillab. – Gapiravering, eshityapman.

– Bu joy, – mehmon bo‘sh kursilarga imo qildi, – sizlarniki. Kolxozni yo‘rgaklab, beshigini tebratganlarniki. Qani, marhamat, joylaringni bilib o‘tiringlar.

Umar zakunchi dik etib o‘rnidan turdi.

– Shularga asrab qo‘yibmiz-da joyni! Qani, Oqsoqol, Husan aka, prezidiumga marhamat.

Oqsoqol bilan bobom sahna burchagidagi zinadan uzun-qisqa bo‘lib chiqib borishayotganida tag‘in qar-sakbozlik bo‘lib ketdi.

– Men bugun juda xursandman! – Mehmon zalga qarab jilmaydi. – «Qizil dehqon»dan chiqqan qahramon

jangchini qutlashga keldim. – U yagona qo‘lini movut kostyumining cho‘ntagiga suqib gazeta chiqardi.

– Ra‘noxon, chiqing! – dedi Umar zakunchi o‘r-taroqdagi qatorga imo qilib.

Sochini chambarak qilib o‘ragan, qunduz yoqali palto kiygan Ra‘no kelinoyim odamlar orasidan o‘tib, sahnaga chiqdi. Qarasam, ikki yuzi qizarib, chiroyli ko‘zlari yonib turibdi.

– O‘qing! – Zakunchi mehmonning qo‘lidan gazetani olib, Ra‘no kelinoyimga uzatdi.

Ra‘no kelinoyim gazeta qatini yozayotganda, «Qizil O‘zbekiston» ekanini payqadam. U goh sahnada o‘tirganlarga, goh pastdagilarga qarab shirin jilmaygan ko‘yi sharillatib o‘qib ketdi.

«Toshkentlik pahlavon. Markaziy frontning oddiy askari, artilleriyachi Ochil Komilov urushdan avval eng tinch kasb – o‘qituvchilikni orzu qilgandi, Toshkentdagi Nizomiy nomli pedagogika institutida o‘qir edi. Uning maqsadi yosh avlodni tarbiyalash edi. Nemis-fashist bosqinchilari yurtimizga bostirib kirgach, qo‘liga qurol oldi...»

Zal yana suv quygandek jimjit bo‘lib qolgan, hatto birinchi qatorga o‘tirib olgan bolalar ham churq etmas, ora-chora odamlarning yo‘talgani, tarnovdan erib tushayotgan qorning shildirashi eshitilib turardi.

Bir mahal eshikka yaqinroq joyda xotin kishi hi-qilladi:

– Ochilim, bolaginam...

Bashor opaning zardali tovushi jimjit zalda qattiq yangradi:

– O‘g‘lingiz ish ko‘rsatganiga suyunish o‘rniga obidiyda qilasz-a, Lazakat xola!

Ra‘no kelinoyim hamon gazeta o‘qir, ovozi tiniq, hayajonli jaranglar edi.

Kelinoyimning bunchalik ravon, bunchalik dona-dona o‘qishini endi bilishim. O‘zini tutishi ham, ovoziyam, muloyim jilmayib turishiyam – hamma-hammasi odamlarni sehrlab qo‘ygan edi. Rostini aytsam, oyim kunora «kelinoyingdan xabar ol, bitta o‘zi qon bo‘p

ketadi», deb chirqillashiga qaramay anchadan beri uyiga borolmaganimdan uyalib ketdim. O'sha zahoti bir zambil kartoshkani ko'tarolmay, qo'llari qaltirab turgan Ochil aka ko'z o'ngimga keldi.

Nahotki o'sha Ochil aka shunchalik ish ko'rsatgan bo'lsa! Bundan chiqdi yuragida o't bor ekan-da! Men bo'lsam, bechorani kalaka qilib yuribman.

Ra'no kelinoyim to'pchi Ochil Komilovning Vyazma degan joyda bir jangda o'n bitta nemis tankini pachaqlagani, Oliy Bosh qo'mondonning buyrug'iga binoan Jangovar Qizil Bayroq ordeni bilan mukofotlanganini o'qiyotganida ovozi tantanali tus oldi.

Gazetani o'qib bo'lib mehmonga uzatgan edi, Umar zakunchi chaqqonlik qilib tortib oldi. Kelinoyimga bir nima dedi-yu, qaytadan yangragan qarsaklar ovozidan eshitib bo'lmadi, Ra'no kelinoyim mamnun jilmayib zinadan tushib ketdi.

Umar zakunchi pastga qarab qichqirdi:

– Komil aka! O'rtoq Komil aka!

Komil amaki deraza oldida o'tirgan ekan. Shoshilmay o'rnidan turdi. Boshida eskiroq yumaloq do'ppi, egnida chopon. Siyrak soqoli har doimgidek tekis taroshlangan. Yangi kotib Komil amakini tanir ekan.

– Iye, o'zimizni tabib-ku! – dedi kulimsirab.

– Shu-da! – Zakunchi darrov gapni ilib ketdi. – Tabib bo'lgani bilan ketmonni hammadan yaxshi uradi. Staxanovchi. Ammo qo'liyam yengil. Lyuboy kasalni uch kunda tuzatadi.

– Qani, chiqavering, Komilboy! – Orif oqsoqol mo'ylovini hafsala bilan buradi. – Geroyini otasiyam geroy bo'ladi-da.

Tabib odamlar orasidan sekin-sekin o'tib, bur-chakdagi zinadan sahnaga chiqdi. Abdurahmonov o'rnidan og'ir qo'zg'alib, Komil amakining ro'parasiga bordi. Tabib uning uzatgan chap qo'lini qo'shqo'llab qisdi.

Umar zakunchi sahna burchagiga bir imo qilgan edi, bug'altir Soli so'poq pildirab chiqib keldi. Chamasi, boyadan beri kutib turgan bo'lsa kerak, qo'lida tugun bor edi.

– O'rtoq Komil aka! – dedi Zakunchi tantana bilan. – Shundoq qahramon o'g'ilni o'stirib tarbiyalaganingiz uchun ming rahmat sizga. Mana bu – kolxoz pravleniesi nomidan sovg'a!

Shunday dedi-yu tugunni echdi. Ichidan yap-yangi beqasam to'n chiqdi. Tabib xijolat chekib turar, goh sahnadagilarga, goh zalga qarar, chamasi, nima qilishini bilmasdi.

Soli so'poq tugun orasidagi buklog'liq do'ppini stolga tashladi-da, shosha-pisha Komil amakining egnidagi choponni echib oldi. Zakunchi yangi choponni o'z qo'li bilan kiygizdi. Qizil qiyiqchani chaqqon aylantirib, tabibning beliga bog'ladi.

Soli so'poq do'ppining qatini ochib, kaftiga qarsillatib urayotgan edi. Oqsoqol ildam o'midan turdi.

– Buyoqqa ol! – dedi qo'l cho'zib. – Kaling yuqib qoladi. Shu qo'ling bilan boshingni qashigansan, bilaman.

Qiyqiriq, kulgi bo'lib ketdi. Oqsoqol tabibning boshidagi yumaloq do'ppini avaylab yechib, qo'lga tutqazdi-da, yangisini kiygazdi.

– Barakalla, Komilboy! – dedi tabibning peshonasidan o'pib. – Belida belbog'i bor o'g'il o'stiribsiz.

Oqsoqol joyiga borib o'tirayotganida tag'in qarsak-bozlik boshlandi.

Qiziq, hali o'zining sha'niga qarsak chalinganida g'ashi kelgan Abdurahmonov endi quvonib ketdi. Bir qo'llab chapak chalolmagani uchunmi, nuqul chap qo'lini «barakalla» degandek havoda silkitar, ko'zlarida quvonch porlar edi.

Umar zakunchi tabibga yuzlanib, tantanavor ohangda so'radi:

– So'z beraylikmi?

Tabib yelkasini qisdi.

– Men nima deyman... – Zalga qarab oldi-da, past vazmin tovushda qo'shib qo'ydi. – Urush tezroq bitsin. Jumla mo'min qatori Ochilim ham eson-omon kelsin! Yaxshi to'ylar qilaylik!

Komil amaki sahnadan tushib ketayotganida Zakunchi tag'in minnatdorchilik bildirdi.

– Rahmat sizga! Qishlog‘imizdan chiqqan qahramon Ochil Komilovning ukasi Olimjon Komilovni bilasizlar-a?

Orqa tomondan Parcha opaning do‘rillagani eshitildi:

– Bilovuz! Yaxshi bola!

– Olimjon, chiq buyoqqa! – dedi Zakunchi zalga alanglab.

Birinchi qatorda o‘tirgan Olimjon sahna tomonga yugurdi.

– Malades yigit! – Umar zakunchi Olimjonning qo‘lini qisdi. – Zakonniy bola! – dedi raykom kotibiga qarab. – Darsdan bo‘sh paytida kolxozga yordam beradi.

Sahna burchagidan yana Soli so‘poq chiqib keldi. Umar zakunchi patnusxa yog‘och ruchka bilan qog‘ozga o‘ralgan allanimani Olimjonga tutqazdi.

– Mana bu oyingga! – dedi qog‘ozga o‘rog‘liq narsaga imo qilib. – Ro‘mol. Bunisi senga. Ruchka bilan «moskovskiy» pero! Yaxshi o‘qi, xo‘pmi? Hozir nechanchi klassdasan?

Olimjon nimadir degan edi, eshitilmadi.

– Nima? – dedi Zakunchi qulog‘ini Olimjonning og‘ziga tutib. – Qattiqroq gapir! Odamlar eshitsin.

– To‘rtinchi! – Olimjon bir qo‘lida ruchka, bir qo‘lida qog‘ozga o‘rog‘liq ro‘molni changallab jilmaydi.

– Malades! – Zakunchi uning yelkasiga qoqdi. – Bilib qo‘y, sening vazifang – o‘qish. Kelajakda olim bo‘lmasang, hisobmas. Dohiymiz Stalin shundoq qiyin paytdayam sizlarni o‘qityapti. Boshqalarga yo‘q nonni maktabga beryapti. Shundoq ekan, senlar olim bo‘lishing shart, to‘g‘rimi?

...Bobomning eshak aravasida uyga qaytarkanmiz, bugungi tantanalar ko‘z o‘ngimdan ketmas, nam bosgan ko‘zoynak ortidan termilib turgan Ochil akaning mitti ko‘zlari xayolimda jonlanar, «yaxshi ko‘rish ayb emas-ku» degan, yalingan ovozi qulog‘imda jaranglar edi. Bilmadim, negadir o‘sha zahoti xayolimga Kimsan akam keldi. Qaniydi Kimsan akam ham orden olsa! Klubda shunaqa majlis bo‘lsa! Hamma Kimsan akamni maqtasa!

Bobom quloqchini qiyshayib ketgan telpagini bos-tirganicha eshak jilovidan tutib borar, arava g'ildiragi ostida kechki sovuqda qaytadan muzlagan qor qisirlar, havo ochilib ketgan, qop-qora, chuqur osmonda bodroqdek yulduzlar porlar edi.

3. «Oq ilon, oppoq ilon, oydinda yotgoning qani!»

Yer selgir-selgimas, traktorni dalaga soldik. Kutib o'tirishga vaqt yo'q. Bashor opa yoniga Zuhra kelinni olib, Bo'rijar etagidagi birinchi brigadani shudgor qilishga tushib ketdi. Mening zimmamga Ko'tarmadagi oltinchi brigada tushgan. Yordamchim – Olimjon.

Ertahorda tuproq hidi boshqacha bo'ladi. Qish bo'yi qor ostida uxlab yotgan yer ko'klamning iliq-issiq oftobidan uyg'onadi-yu, huzur qilib kerishayotganga o'xshaydi. Hali selgib ulgurmagan tuproqdan nam aralash quyosh hidi anqiydi. Traktor olamni buzgudek tarillaydi. Tutun isi kerosin hidiga qo'shilib ketadi. Ammo bu islar yerning yoqimli bo'yi oldida uncha sezilmaydi ham. Traktor omochi palaxsa-palaxsa qilib ag'dargan joy qop-qorayib qoladi. Sovuq joylarga qaytib ketishga ulgurmagan qarg'alar traktor ustida g'ujg'on o'ynab, pastga, qazilgan yerga sho'ng'iydi. Ammo qarg'alarning chag'-chug' qilishi endi g'ashga tegmaydi. Baribir erta-indin behi gullasa – tamom! Quzg'unlar uchib ketadi.

Olimjon xursand. Idorada bo'lgan o'sha majlis, Umar zakunchi o'z qo'li bilan ruchka sovg'a qilgani bolani judayam sevintirib yuborgan. Bilaman, maktabga yolchitib bormayapti. Tushlik bo'lmasidan jildini ko'tarib kelib qoladi. «Ikkita o'qidik, uchta o'qidik», deb bahona qiladi. Suv tashiydi, yonimga o'tirib olib traktor haydagisi keladi. Qo'li rulga arang yetadi-yu, kattalardek jiddiy bo'lib, bulturgi marzalar do'ppayib turgan daladan ko'z uzmay boradi...

Bugun ham shunaqa bo'ldi. Paykal chetidagi bir tup jiyda tagida tushlik qilib o'tirardim. Oftob muloyim jilmayib, yelkani qizitadi. Osmonda erinchoq bulutlar vazmin suzib boradi. Ariq bo'yidagi maysalar orasida

ochilgan jimitdek zangori gullar ustida boyqizi sarg'ish qanotini pirpiratib uchadi.

Endi bir burda zog'ora yegan edim, dala boshida Olimjon ko'rindi. Jildini boshi ustida pirpirak qilib aylantirib chopib keldi.

– Suv opkelaymi? – dedi jildini jiyda shoxiga ilib. Hansirab nafas olar, terlab ketgan edi.

– Shoshma, avval qorningni to'yg'azib ol.

Bitta zog'orani bo'lashib yedik. Zog'ora yaxshi-ku, darrov tiqilishi yomon. Choy yo'q.

Olimjon zog'orani chala-chulpa chaynagan ko'yi pachoq chelakni ko'tarib, paykalning narigi boshiga yugurib ketdi. Tol tagida buloq bor. Suvi toza, muzdek.

Kerosin hidi anqib turgan chelakdan suv ichib tushlikni tugatdik.

– Akam yaxshilar-a? – Olimjon burnining uchida ilinib turgan suv tomchisini artib mamnun jilmaydi.

Kuldim.

– Aytmovmidim, akang orden oladilar, deb.

– Sizam yaxshisiz! – Olimjon yoyilib iljaydi. – Traktorga suv oboraymi?

– Mayli, ketdik.

Olimjon chelakni ko'targancha haydalgan shudgordan tizzasigacha tuproq kechib traktor tomonga yugurdi. Mendan oldin yetib borib, motorga suv quya boshladi.

Har qanday ishning ham oxiri qiyin bo'ladi. Paykalni qo'ldan chiqarib qo'ya qolaylik, deb harchand urinsam ham, bir parcha haydalmagan yer qoldi. Dalaning u boshidan bu boshiga ikki marta borib kelsak, tamom. Kechasi traktorni beshinchi brigadaga olib o'tamiz-da, ertalabdan yangi joyda ish boshlaymiz.

Ikkalamiz ham charchagan edik. Olisda, xo'mraygan to'da-to'da bulutlar orasida quyosh qontalash nur sachratib bir zum osilib turdi-yu, ufq ortiga dumalab ketdi. Shamol kuchaydi. Kun bo'yi erinchoq kezib yurgan bulutlar oftob botganidan keyin qahrli tus oldi. Shiddat bilan bostirib kela boshladi. Traktor ustida bezovia charx urayotgan qarg'alarning chag'-chug'i kuchaydi. Ko'nglimga g'ashlik cho'kdi. Yomg'ir yog'masa go'rga edi. Bu yoqda qorong'i tushib ketyapti.

Bir mahal traktor tumshug'idan bug' ko'tarilib, hech nima ko'rinmay qoldi.

– Hozir suv obkelaman! – Yonimda o'tirgan Olimjon sakrab yerga tushdi. Imillab borayotgan traktor biqinidagi paqirni yulqib oldi-da, qorong'ilik cho'ka boshlagan shudgordan yugurib ketdi.

– Qo'rqmaysanmi? – dedim baqirib.

Olimjon traktor shovqinidan gapimni eshitmadi shekilli, qayrilib qaramadi. Birpasda nimqorong'i zulmatga singib ketdi. Traktorni to'xtatishim bilan motor o'chib qoldi. E, o'la! Eng yomoni mana shu – o'chib qolishi! Motorni qaytadan o't oldirish oson bo'lsa ekan.

Yerga tushishim bilan etik qo'njidan loy aralash tuproq oyog'imga to'kildi. Traktor tumshug'ida osilib yotgan kattakon temir tutqichni buray boshladim. Uvvalo urinaman, qani aylansa! Pastga bossam, qo'limni yuqoriga itarib tashlaydi, yuqoriga ko'tarsam, o'chakishgandek pastga siltaydi. Bir zumda terlab ketdim. Shamol kuchaygan, kunbotar tomonda chaqmoq yaltirar, zulmat qoplagan osmonda qarg'alar shamol arg'imchog'ida uchib, bor ovozda shovqin solar edi.

Olimjon ketgan tomonga qarab qo'limni karnay qilganча chaqirdim:

– Olim-jo-on!

Shamol ovozimni teskari yoqqa olib ketdi. O'zimning ojizligim o'zimga alam qildi. Olimjon nima qilib berardi! Men burolmagan tutqichni aylantirishga yosh bolaning kuchi yetarmidi! Bashor opa bo'lsa boshqa gap! Bunaqa qaysar traktorning «esini joyiga kirgizib» qo'yishni biladi.

Bashor opani o'ylashim bilan yaraq etib xayolimga keldi: bir safar MTS hovlisida traktorning tutqichini aylantirolmay xunob bo'lib turganimda Bashor opa osongina yurgizib bergandi. Tutqichni qiyaroq solib, butun gavdasi bilan bir bosganida motor pat-pat qilib ishlab ketgan.

Men ham shunday qildim. Tutqichni sug'urib olib, boshqatdan, yonboshlatibroq tiqdim-da, bandidan qo'shqo'llab ushlagancha biqinimga tirab, butun gavdam bilan bosdim. Tutqich zo'riqib aylandi. Traktor «pop» etdi.

«Ovozing chiqarkan-u yer yutgur!» Tutqichni sug'urib qaytadan soldim. Bu safar motor ikki marta potilladi. Dudburondan tutun aralash chiqqan cho'g' qorong'ida aniq ko'rindi. Haqqisi uch gal! Endi yurib ketadi. Bu safar butun gavdam bilan yonboshlab bir siltagan edim, tutqich bandi sal pastladi-yu, shunaqangi kuchli zarb bilan biqinimga urildiki, ko'zimdan olov chiqib ketdi. O'ng biqinimda chidab bo'lmas og'riq sezdim-u nafasim chiqmay qoldi. Keyin nima bo'lganini bilmayman. Qorong'ida soyadek so'ppayib turgan traktor, muttasil chag'-chug' qilayotgan qarg'alar, osmonda zangori qilichdek yalt-yult qilib o'chayotgan chaqmoq – hammasi g'oyib bo'ldi.

Yuzimga sachragan yomg'irdan hushimga keldim. Oxiri yog'ibdi-da, degan o'y g'ira-shira miyamga urildi. Hali ko'zimni ochmasimdanoq biqinim uvishib qolganini, uvishgan bo'lsayam jonimni sug'urib olgudek achishib og'riyotganini idrok etdim.

– Opa, turing, opa?

Yuzimga yana yomg'ir sachradi. Qiziq, yomg'irdan kerosin hidi kelyapti.

Ko'zimni ochib, qop-qora, dumaloq narsani ko'rdim.

Olimjonning yig'lamsiragan ovozi qulog'imga kirdi:

– Turing, opa, turing...

Sinchiklab qarasam, boyagi dumaloq narsa – chelak ekan.

Olimjon ko'zimni ochganimni ko'rib sevinib ketdi shekilli, chelakdagi suvni yana boshimdan quydi.

Kerosin hidi anqib turgan suv og'zimga kirib, ko'nglim ag'darilib ketdi.

– Kerakmas! – dedim qo'l siltab. – Bo'ldi.

Olimjon chelakni yerga qo'yib, yonimga o'tirdi. Kichkina, ammo dag'al qo'li bilan yuzimni siladi. Ho'l, muzday qo'li yuzimga tegishi bilan tag'in lampamoy hidi keldi. Entikib, yuzimni o'girgan edim, bola qo'rqa-pisa qo'lini tortib oldi.

– Tepdimi? – dedi boshimga egilib. Endi yig'lamas, ammo ovozi vahima bor edi.

Traktor tutqichi tepganini endi esladim.

– Hech nima qilmaydi!

Bolani tinchitish uchun qaddimni rostlamoqchi edim, birov biqinimga pichoq sanchgandek lovullab achishdi. Harchand o'zimni tutay desam ham bo'lmadi. O'ng yonboshimni changallagancha yiqilib tushdim. Yuzim nam tuproqqa urildi. Dimog'imga yer isi kirdi. Qiziq, guvillab turgan shamol shovqiniga qaramay tuproqning ojiz shivirlashini aniq eshitgandek bo'ldim. Ichim yonib borardi. Ingrab yubordim:

– Suv!

Olimjon boshimga egildi.

– Mana, – dedi jiyaklaridan chakillab suv tomayotgan do'ppini qo'shqo'llab tutib. – Yaxshi suv, opa. O'zimam ichdim.

Boshimni ko'tarib uch-to'rt qultum ichdim. Do'ppi yelimi, kerosin hidi anqib turgan suv muzdekkina edi. Tag'in ko'nglim ag'darildi. Yuzimni o'girdim. Olimjon shunday qilsa men darrov tuzalib qoladigandek, do'ppi-dagi suvning hammasini ichib bitirdi.

– Qarang, top-toza! – dedi ovozi titrab. – Yuring, ketaylik, opa! Tura qoling.

Ancha o'zimga keldim. Amallab qaddimni rostladim. Ro'paramda qop-qora soyadek traktor so'ppayib turar, tumshug'idagi temir tutqich qorong'ida xira yiltirar, boshimiz ustidagi qarg'alar siyraklashib qolgan, ammo chaqmoq borgan sayin ko'proq yaltirar, osmondan qisqa-qisqa bo'g'iq gumbirlagan sado eshitalardi.

– Turing, opajon! – dedi Olimjon qo'limdan tortib. – Ketamiz, hozir jala quyadi.

O'rnimdan turayotganimda biqinim yana lovullab yondi. Tomog'im qurib borar, suv ichgim kelar, lekin ko'nglim aynardi.

Olimjon o'rnimdan turganimga quvonib ketdi. Daddillanib yelkasini tutdi.

– Bizanikiga boramiz-a? – dedi meni suyab yurishga urinib. – Dadamlarda-chi, kiyik o'ti bor. Uch marta ichsangiz tuzalib ketasiz!

Har qadam qo'yganimda biqinimga yangidan pichoq sanchilar, ko'z o'ngim qorong'ilashib, a'zoyi badanimdan sovuq ter chiqib ketayotganini o'zim sezib

turardim. O'ng qo'lim ham sirqillab og'riyotganini endi bildim. Bundan chiqdi, tutqich tepganida biqinim aralash qo'limga ham urilgan-u qiziq ustida sezmaganiman.

– Akam kelsalar siz bilan traktor haydaganimni aytaman! – Olimjon qo'ltig'imga kirib harsillab borarkan, to'xtovsiz gapirardi. – Akamga aytaman, Robiya opam ham sizga o'xshagan qahramonlar, deymen. Menga traktor haydashni o'rgatdilar, traktor tepsayam yig'lamadilar, deymen.

U oyog'im tagida o'ralashgan sayin yurishga qiynalar, tishimni tishimga qo'yib borardim. Olimjon terlab ketgan, qo'ltig'imga tegib turgan ingichka yelkasi jiqqa ho'l bo'lib, battar g'ashimni keltirar, menimi – o'zinimi yupatib, to'xtovsiz gapirib borardi:

– Dadamlarda-chi, opa, mo'miyo bor. Bir marta ichsangiz bo'ldi!

Paykal chetiga amallab chiqdigu uyog'iga qadam bosishga madorim qolmadi.

– Shoshma, Olimjon... – Bolani qo'rqitmaslik uchun dadilroq gapirishga shuncha urinsam ham ovozim ingrab chiqdi. – Dam olaylik.

Hali ikkalamiz zog'ora yeb tushlik qilgan jiyda tagiga o'tirib qoldim. Olimjon ro'paramga cho'kkalab ko'zimga tikildi.

– Yomon og'riyaptimi?

– Yo'q. Hozir bosilib qoladi.

Shundoq boshimiz ustida chaqmoq chaqdi. Bu safar shu qadar shiddatli yaltiradiki, osmonni ikki bo'lakka tilimlab tashlagandek bo'ldi. Ko'kimtir nurda Olimjonning qo'rquvdan dum-dumaloq bo'lib ketgan ko'zlarini, jiyda shoxida ilinib turgan jildini ko'rdim. O'sha zahoti yeru ko'kni titratib, momaqaldiraq gumburladi. Yuzimga iliq, yirik tomchi tushdi. O'tirgan joyimda qo'l cho'zib, Olimjonning boshini siladim.

– Do'pping qani? – dedim og'rib ketayotgan biqinimni changallab.

– E, qo'yvuring! – Olimjon qo'l siltadi. – Chelak ichida qop ketibdi. Ertaga olaman. Yuring, – u tag'in qo'l cho'zdi, – biznikiga boramiz. Dadamga aytsam...

– Yo‘q, – dedim uning gapini kesib. – Sen ketaver, xo‘pmi! Ertalab maktabga borishing kerak. Bor, jildingni ol. Daftaring ho‘l bo‘lib qoladi.

– Opa! – Olimjon meni quchoqlab oldi. Yelkalari silkinib o‘ksib-o‘ksib yig‘lab yubordi. – Ketmayman! – dedi baqirib. – Ketmayman! Kerakmas maktabi, opa!

Yomg‘ir kuchayib ketdi. Bolani bag‘rimga bosib yomg‘irdan ho‘l bo‘lib ketgan yuzidan o‘pdim.

– Xo‘p, Olimjon, bo‘pti, – dedim ko‘z yoshimni arang yutib.

– Yuring! – U loyda sirg‘anib o‘rnidan turdi. Qo‘lini cho‘zdi. – Yuring, opa!

O‘nimdan qo‘zg‘alishim bilan biqinim tag‘in san-chib ketdi.

– Yaxshi, – gandiraklab oyoqqa qalqdim. – Ketamiz. Lekin sizlarnikigamas. Yetib borgunimizcha tong otadi. Bilasanmi... – Iloji boricha dadilroq qadam bosishga urinib, yelkasidan ushladim. – Men Ko‘tarmada qola-man, Ra‘no kelinoyimnikida. Xo‘pmi? Traktor dalada qolganini aytmam bo‘lmaydi.

Tag‘in chaqmoq charsilladi. Ust-boshi jiqqa suv bo‘lib ketgan Olimjonning yig‘idan titrab turgan lablarini aniq ko‘rdim. Momaqalldiroq suron soldi.

– Yur! – dedim yo‘l boshlab.

...Ko‘cha chetidagi kurtak chiqargan tollar shamol qahridan titrab ora-chora chaqmoq chaqqanida seskanib ketar, hammayoqni yer yutib yuborgandek, vahimali jimlik cho‘kkandi.

Vaqtivaqti bilan momaqalldiroq gumburlab, sukunatni portlatar, ammo o‘sha zahoti hammayoqni avvalgidan ham chuqur sukunat bosar, yomg‘irning shovul-lashi bu xatarli jimjitlikni yanayam chuqurlashtirib yuborayotgandek bo‘lar edi.

Ra‘no kelinoyimning eshigi orqasidan tambalangan ekan. Tirqishidan mo‘ralasam, hovli yonboshidagi uyda xira nur ko‘rindi. Xayriyat! Boshim g‘uvillagancha eshik kesakisiga suyanib, temir halqani qoqdim. Ko‘nglim behuzur bo‘lib borar, hozir yiqilib tushishimni his qilib turardim. Halqani durustroq taqillatishga madorim yetmadi.

– Menga bering, opa! – Olimjon halqani qo'shqo'llab ushladi-da, kuchi boricha eshikka ura boshladi.

– Kennoyi! – dedi baqirib. – Oching!

Uy tomondan qandaydir sharpa ko'ringandek bo'ldi. Olimjon halqani yanayam qattiqroq urdi. Tag'in momaqaldiroq gumburladi. Bir mahal ko'zimni ochsam ichkarida chiroq yo'q. Hozir yonib turuvdi-ku.

Olimjonga yalindim.

– Qattiqroq taqillat. Momaqaldiroqda eshitmayaptilar.

Olimjon ikki qo'llab eshikni mushtlashga tushdi.

– Kennoyi! Ra'no kennoyi!

Yo'q! Kelinoyim eshitmadi. Bundan chiqdi, charchagan. Ertaroq yotib, dam olgisi kelgan. Yomg'ir kuchayib ketdi. Eshik kesakisidan somon suvoq isi anqib, ko'nglim battar behuzur bo'ldi.

Bir mahal hushimni to'plab qarasam, Olimjon pastak devorga tirmashyapti. Zum o'tmay, devorga minib oldi.

– Ix, tikan bor ekan! – dedi g'ijinib.

Keyingi lahzada uning hovli tomonga gup etib tushgani, shap-shup loy bosib uy tomonga borgani, «kennoyi» deb chaqirgani eshitildi. Uy eshigi g'iyqilab ochildi. Darvozaning tirqishidan yana mo'ralab, qorong'ida hech nimani ko'rolmadim. Bola tushmagur kelinoyimni qo'rqitib yubormasaydi!

Shu payt allaqanday erkak kishining «...bormi senga haromi!» – deb so'kingani, Olimjonning «qo'yvoring» deb yalingani eshitildi.

Eshikni kuchim boricha mushtladim.

– Oching, kennoyi, menman! – dedim baqirib.

Kimdir og'ir, shaxdam qadamlar bilan eshikka yaqinlashdi.

– Qo'yvoring! – Bu safar Olimjonning ovozi bo'g'ilib chiqdi.

Tamba surildi. Eshikning bir tavaqasi ochildi-da, kimdir Olimjonni yoqasidan mushuk boladek changallab uloqtirib yubordi. U gandiraklab kelgancha kuch bilan menga urildi. Biqinim battar sanchib, ko'z oldim qorong'ilashib ketdi. Olimjon menga ozor berganini bilib

tipirchilab qaddini rostladi. Shu payt chaqmoq yarq etdiyu, ro'paramda vajohat bilan turgan boshyalang Umar zakunchini ko'rdim.

– Iye, oyimqiz, sizam shu yerdamisiz? – dedi g'azabdan ko'zlari yonib. – Bemahalda pishirib qo'yibdimi birovnikida!

– Birovmas, o'zimni yangam, – og'zimga kelgan gap shu bo'ldi.

– Traktorni katta xolangnikiga tashlab keldingmi?

Umar zakunchi ko'zimga shunchalik dag'dag'a bilan chaqchaydiki, tilim aylanmay qoldi.

U boshini egib eshikdan chiqib borarkan, nafrat bilan so'kindi:

– Padaringga la'nat. Hammangni qamoqda chiritish kerak!

Ichkariga kirishni ham, kirmaslikni ham bilmay turgan edim, Olimjon hansirab nafas olayotganini, o'qtin-o'qtin bo'ynini silayotganini ko'rib qo'rqib ketdim.

– Nima qildi? – dedim o'zimning dardimni ham unuttib. – Nima bo'ldi?

– Hech nima... – Olimjon yig'lamsirab burnini tortdi. – Yoqamdan bo'g'di. Yuring, opa, ketamiz...

Ayvon tomonda Ra'no kelinoyimning sharpasi ko'rindi, chaqmoq chaqdi. Kelinoyim ayvondan sakrab tushib shu tomonga yugurdi. Boshida oppoq shohi ro'mol, egnida baxmal nimcha, oppoq shohi ko'ylak.

– Voy, Robiyaxon, sizmisiz! O'takamni o'n bo'lib yubordinglar-a! – U meni quchoqlab oldi. Yuzimdan o'payotganida dimog'img'a gunafsha hidi urildi. – Kim bu? – dedi Olimjonga qarab.

Kelinoyim bilan ko'risharkanman, hech nimaga tushunolmasdim. Olimjon esa hamon tomog'ini silab-silab qo'yar, yomg'irda bo'kib ketgan mushtdekkina gavdasini bukchaytirib chuqur-chuqur nafas olardi. Ra'no kelinoyim mehribonlik bilan bolaning yelkasiga qoqdi.

– Rais amaking tanimay qolibdilar-da, – dedi yupattib. – Seni o'g'ri deb gumon qilganlar. Hozir yomon ko'p. Qani, ichkariga kiringlar.

Ayvonga chiqib borarkan, o'girilib qaradi.

– Qaysi shamol uchirdi, Robiyaxon? Uy ichlaringiz tinchmi, Kimsanboydan xat bormi?

Beixtiyor ketidan ergashdim. Olimjonni silab-siypab ovutdim:

– Bilmagan-da, bo'g'ib qo'ymadimi ishqilib?

– Yo'q... Bo'ynim og'riyapti...

Negadir Ra'no kelinoyim tinimsiz gapirardi.

– Umar akam bilan shudgor qilingan gektarlarning hisob-kitobini yozayotuvdik. Lampamoy o'lgur tamom bo'pqoldi. Kimsanboydan xat-xabar bormi axir? Duma pochcham, egachimlar yaxshi yurishibdimi? Turmush ham o'lsin, vaqt topib xabar ololmayman.

Olimjonning yelkasidan quchgancha uy ostonasiga endi qadam qo'ygan edim, tag'in momaqaldiroq gumburladi. Bu safar shunaqangi qattiq suron soldiki, nazarimda osmon chil-chil bo'lib ketdi. Ketma-ket chaqmoq chaqib, pastak derazalardan, eshikdan otilib kirgan nur uy ichini sutdek yoritib yubordi. Yerga yozilgan-u nari-beri yumaloq-yastiq qilib qo'yilgan to'shak, ikkita yostiq, burchakdagi xontaxta ustida turgan yarimlagan vino shisha, popukqandlar, xontaxta burchagida do'ppayib turgan Umar zakunchining chaqmoq telpagi ko'rindi.

Birdan oyoq-qo'limdan mador ketib, Olimjonga suyanib qoldim.

– Opa! – Olimjon bag'rimga kirib hiqilladi. – Ketamiz, opa!

Ra'no kelinoyim xavotirlanib, yonimga keldi.

– Robiyaxon! Kiringlar...

Ajab, bir zumda boyadan beri azob berayotgan og'riq unutildi. Boshimning aylanishi tinib qoldi. Yana chaqmoq chaqib, uy ichini yoritdi. Kelinoyimning oppoq ro'molini, oppoq ko'ylagini tag'in bir marta ko'rdim. Birinchi qor yog'ib turgan o'sha kechada, kelinoyim oshxona orqasiga o'tib «sizsiz o'lib qolaman», deb Shomurod tog'amning bo'yniga osilganida ham shu kiyimda edi. Faqat boshiga jun ro'mol o'rab olgandi.

– Yur, Olimjon!

Birov yoqamdan bo'g'ib olayotganday, Olimjonni sudrab hovliga otildim. O'sha zahoti Ra'no kelinoyim yo'limni to'sdi.

– Bu nimasi, ozib-yozib bir kelganda... Shundoq yomg'irda qayoqqa borasizlar! – U Olimjonning yelkasi qo'l cho'zgan edi, bolani siltab tortdim.

– Tegmang! Norasta bolani harom qilmang.

Qorong'i bo'lsa ham Ra'no kelinoyim bir seskanib tushganini payqadim.

– Voy, bu nima deganingiz?

– Ketdik! – Olimjonni ko'chaga sudradim.

Ra'no kelinoyim yugurib kelib ko'ndalang bo'ldi.

– Yo'q, Robiyaxon! – dedi asabiy titrab. – Ochiqroq gapiring. Nima demoqchisiz?

U bilagimdan tutmoqchi edi, qo'limga ilon chirmashayotgandek etim seskanib ketdi. O'zimni orqaga tashladim. Olimjonni yetaklagancha ko'chaga otildim. Hovli tomondan Ra'no kelinoyimning o'krab yig'lagani eshitildi:

– Qandoq kunlarga qoldim!

Yomg'irda vahimali shovullab turgan yong'oqzor ichiga kirgandagina o'zimga keldim. Ora-chora chaqmoq chaqar, ammo qalin daraxtlar orasini avvalgidek yoritolmas, momaqaldiroq esa yanayam vahimaliroq guldirdi edi.

– Opa, biznikiga boraylik! – dedi Olimjon yalinib. U o'qtin-o'qtin bo'ynini silar, lekin endi hiqillamasdi. Biqinimning og'rig'i zo'rayib, nafas olsam sanchib og'rir, butunlay holdan toygan edim.

– Yo'q, Olimjon, – dedim ingrab. – Sen uyga boraver. Qo'rqmaysanmi? Uyinglar yaqin-ku. Meni qo'yaver, o'zim ketaman.

Qiziq, Olimjon kattalardek xotirjam bosh chayqadi.

– Oborib qo'yaman.

Bir tomonida na'mataklar o'sib yotgan, bir tomonida tubsiz jarlik shovullayotgan tor so'qmoqdan o'tguncha adoyi tamom bo'ldim. Ojiz maysalar nish chiqargan, loy bo'lib ketgan do'nglikka o'tirib qoldim. Tagimdan shovullab yomg'ir suvi oqib o'tar, vujudim muzlab borayotganini sezib turardim. Hali payqamagan ekanman.

Tagi ko'chgan etigimdan suv sizib kirib, paytavam ho'l bo'lib ketganini endi bildim. Olimjon yomg'irda diydirab, tepamda turar, ora-chora bo'ynini silab qo'yar edi.

– Alvasti ko'prik... – dedi sekin.

Indamadim. Xayolimda boshqa o'ylar charx urar edi. Qiziq, bultur bayram arafasida Xolposh xolaga ko'krak burma ko'ylak tiktirganim esimga tushdi. O'shanda Rashid abzi mo'rchasida cho'milib kelgan kunimning ertasiga Oqsoqolnikiga yana chiqsam, Xolposh xola «Zinger» mashinasida chok bosib g'alati ashula aytyapti:

Oq ilon, oppoq ilon, oydinga yotgoning qani,

Men yomondan ayrilib, yaxshini topgoning qani?

Eshitib, hayron bo'lgandim: ilonniyam ashula qilib ayta dimi odam? Yo'q, o'shanda bu ashulani tushunmagan ekanman. Inson bolasi ilonga aylanib qolishi hech gap emas ekan.

Nahotki? Shunday ko'hli, shunday dono Ra'no kelinoyim nahotki ilon bo'lsa? Shomurod tog'amni urushga kuzatayotgan kuni oshxona devorining orqasida o'ksib-o'ksib yig'laganini o'zim eshitgandim-ku! Erining oyog'iga tiz cho'kib iltijo qilganida oppoq ko'ylagining etagi loy bo'lib ketganini o'zim ko'rgan edim-ku! O'shanda ko'zimga oppoq farishta bo'lib ko'ringan Ra'no yangam shu emasmidi! Bugun xuddi o'sha ko'ylagini kiyib olib, Umar zakunchi bilan... Farishtaning ilonga aylanishi shunchalik oson ekan-da! Axir tog'am o'lgani yo'q-ku! Kecha uning oyog'iga tiz cho'kib «sensiz o'lib qolaman» desa-da, bugun... Tog'am u yoqda qon kechib yursa-yu, kelinoyim bu yoqda... Odamlar muncha yomon! Muncha noinsof?! Balki Kimsan akam meni ham shunaqa deb o'ylar?.. Yo'q! Bu kunidan ko'ra o'lgani yaxshi odamning!

Shoshma! Ra'no kelinoyim nima dedi? «Umar akam bilan haydalgan gektarlarni hisoblab o'tirgandik, chiroq o'chib qoldi» dedimi? Nimaga rais demaydi? Umar aka demaydi? Umar akam deydi? Ikki tug'ib bir qolganimi?

Mayli, chiroq o'chsa o'chgandir. Zakunchi Olimjonni o'g'ri gumon qilsa qilgandir. Ammo chala-chulpa yig'ishtirilgan to'shak-chi? Xontaxtadagi vino shishasi-

chi! Ra'no yangamning dovdirib qolgani, eshikka chiqqanimizda «qanday kunlarga qoldim» deb yig'lagani-chi! Sho'rlik tog'am!.. Aqalli tog'am olib bergan ko'ylakni, erining oyog'iga tiz cho'kib yolborganida kiygan ko'ylagini harom qilishga uyalmaydimi! Sadoqat bilan xiyonatning orasi shunchalik yaqinmi?

– Opa, poyezd!

Olimjonning tovushidan hushimga keldim.

– Qarang, poyezd, – dedi u temir yo'l tomonga qo'li bilan imo qilib.

Chindan ham Alvasti ko'prik shiddatli taraqlar, o'tib borayotgan yuk poyezdi bo'lsa kerak, chiroqlari ko'rinmas, biroq shovullab turgan yomg'irni ham, momaqaldiroq ovozini ham bosib ketgudek shodon shovqin solar, oldinga – urush bo'layotgan tomonlarga yelar edi.

– Akamga pushka olib ketyapti! – Olimjon bo'ynini silab qorong'ida jilmaydi.

– Og'riyaptimi? – dedim xo'rsinib.

– Yo'q, – Olimjon tag'in bo'ynini siladi, – qizib ketyapti.

Uyatsizlar! Senlarning haroming uchun bola aybdor emas-ku, imonsiz! Nega bolani urasan, vijdonsiz! Bu kunlar ham o'tar-ketar! Ertaga tog'am kirib kelsa, ko'ziga qaysi yuz bilan qaraysan, benomus! Hech nima bo'lmagandek yana tiz cho'kib yig'laysanmi!

– Yur, Olimjon. Yur, ukam! – Chidab bo'lmas og'riqqa qaramay o'rnimdan turdim. Loyda sirg'anib-sirg'anib yurib ketdik.

Ko'prikka yaqinlashganda to'xtab qoldik.

– Olimjon, – dedim yalinib, – rais amakini Ra'no kelinoyingnikida ko'rganingni hech kimga aytmay qo'ya qol. Seni tanimabdi-da. Kelinoying aytdi-ku...

Bu gap xayolimga to'satdan keldi. Ra'no yangam-ku, mayli... Har kimning gunoh-savobi o'ziga. Urushda yurgan tog'amda nima gunoh! Nima keragi bor malomatga qoldirib.

Olimjon, Alvasti ko'prik vahimasini o'ylab turgan bo'lsa kerak, darrov ko'ndi.

– Aytmayman, opa. Hozir ko'prikdan o'tamiz-a?

– O‘tamiz, Olimjon, o‘tamiz, qo‘rqma.

Qiziq, bu safar Alvasti ko‘prikdan o‘tayotganimda zarracha cho‘chimadim. Qaytaga Olimjonni yupatib yelkasiga qoqdim.

– Yaxshiyam shu ko‘prik bor ekan! Ko‘rdingmi, poyezd Ochil akangga zambarak olib ketdi. Akang yana orden oladilar.

Mening dadilligim Olimjonga ta‘sir qildi. Temir yo‘l ko‘tarmasidan chiqib borayotganimizda qo‘ltig‘imga kirib ko‘maklashdi. Hozirgina o‘tib ketgan poyezdning orqasidagi bir juft chiroq olisda ikkita qizg‘ish nuqtadek uzoqlashib borar, yomg‘ir ancha siyraklashgan edi.

– Opa! – dedi Olimjon meni suyak narigi tomonga olib tusharkan. – Katta bo‘lsam, menam urushga boraman-a?

Bir qo‘lim bilan lovullayotgan biqinimni changalagan ko‘yi, ikkinchi qo‘lim bilan uning yomg‘irda bo‘kib ketgan sochlarini siladim.

– Yo‘q, Olimjon! Sen katta bo‘lguningcha urush bitadi. Keyin hecham urush bo‘lmaydi. Hecham!

Qamishzor botqoqqa aylanib ketgan ekan. O‘zimizning hovli eshigiga yetguncha allamahol bo‘ldi. Yomg‘ir tinib qolgan, faqat holdan toygan so‘nggi tomchilar oxirgi aladini olgisi kelgandek, yakkam-dukkam tomib turar, shamol qop-qora bulutlarni tog‘ tomonga surib ketgan edi. O‘sha yoqlarda momaqal-diroq bo‘g‘iq gumburlaydi, chaqmoq olovli qamchisini endi boshqalarning boshida o‘ynatadi. Qoq tepamizda yarim palla oy ko‘rindi. O‘z qilmishidan o‘zi uyalgandek paytavadek uvada, isqirt bulutlar orqasiga yashirindi.

Olimjon ko‘cha eshikni ochib, hovliga otildi. Sillam qurib, zax ostonaga o‘tirib qoldim. Zum o‘tmay bobom tepamga keldi.

– Iye, nima bo‘ldi, qizim? Buni qara, oying ovsinining oldiga chiquvdi.

Bir qo‘ltig‘imga bobom, bir qo‘ltig‘imga Olimjon kirib, uyga sudrashdi.

– Bobojon, – dedim ingrab. – Bashor opaga ayting: traktor dalada qoldi.

– Aytaman, jon qizim, tashvish qilma. – Bobom bilan Olimjon tokchada chiroq xira nur taratib turgan uyga suyak olib kirishdi. Chakka o'tgan shekilli, kavshandozda, taxmon oldida jom, eski tog'oracha turar, ikkalasida ham sarg'ish, kir suv yarimlab qolgan edi.

Bobom shosha-pisha etigimni sug'urdi. Ho'l bo'lib ketgan paytavamni yechib oldi. Sandal chetiga muk tushibman-u ustimga ko'rpa tortgancha, hamon «pichoq sanchilayotgan» biqinimni changallab yotib qolibman.

Bir mahal oyimning xavotirli xitobidan ko'zimni ochdim.

– Voy o'lmasam! Nima qildi? Nima bo'ldi, jon bolam?!

Tokchadagi chiroq hamon ojiz lipillar, tepamda oyim, bobom, Komil tabib engashib turishardi.

– Traktor tepdi. Yomon tepdi! – Olimjonning ovozi tanidim. Yotgan joyimda boshimni burib, ostonada mo'ltirab turgan bolani ko'rdim. Ming azob bilan jilmaydim.

– Ziyoni yo'q, o'tib ketadi.

– Dada! – Olimjon tepamda turgan Komil amakining oldiga yugurib keldi. – Dada! – dedi yalinib, – opamni tuzating. Dori bering.

– Vahima qilmang, o'g'lim! – Komil amaki qo'lining orqasi bilan uning ko'krigidan ohista itardi. – Bu dunyoda bedavo dard yo'q! – Shunday dedi-da, siyrak soqolini selkillatib kuldi. – Opangizni shunchalik yaxshi ko'rasizmi? Qani, qizim... – Tabibning ingichka barmoqlari biqinimga tegishi bilan sapchib ketdim. Negadir, «yaxshi ko'rish ayb emas-ku», deb iltijo qilib turgan Ochil aka ko'z o'ngimga keldi.

– Ahmoq! – Bobom shu qadar vajohat bilan chiyiladiki, qo'rqqanimdan og'riqni ham unutib yotib qoldim. – Tabib otang-ku, axir! – dedi bobom dashnom ohangida.

– Qo'y, jon bolam! – Oyim peshonamni siladi. – Bunaqada oyoqqa turib ketolmaysan, qizim!

Komil amaki darrov qo'lini tortdi.

– Baxtingiz bor ekan, qizim, – dedi jilmayib. – Jigar-ga shikast yetmabdi. – Oʻrnidan ildam turib bobomga yuzlandi: – Xudo xohlasa, ikki-uch haftada hech nima koʻrmagandek boʻlib ketadilar.

Oʻn beshinchi bob

RA'NO HIKOYASI

Ogʻish burchagi

Dunyoda hadiksirab yashashdan ortiq azob yoʻq ekan. Goʻyo boshingda birov qilich koʻtarib turgandek, sen boʻlsang har lahzada oʻsha qilich boʻyningga tushishini kutayotgandek. Bora-bora shunaqangi joningdan toʻyib ketasanki, qilich taningni boshingdan tezroq judo qilishiga orzumand boʻlib qolasan. Nima boʻlgandayam hadik azobidan qutulsam, bir choʻqib, atrofga ming alanglagan qargʻadek ayanchli ahvoldan xalos boʻlsam deysan.

Ertalab Shomurod akamdan xat keldi. Toʻgʻrirogʻi, xat keldi emas, xatni olib keldi: oʻsha Umar aka. Hayronman, odamlar: «Erimdan xat yoʻq, oʻgʻlimdan xabar yoʻq», deb chirqillaydi. Shomurod akamdan boʻlsa oyiga kamida ikkitadan xat keladi.

Endi choy ichib boʻlgan edim, eshik taqillab qoldi. Umar akening taqillatishini taniyman. Boshqalarning darvozasini qamchi dastasi bilan savalasa, mening eshigimni avaylab uch marta sekin-sekin qoqadi. Yugurib chiqsam, egarda jilmayib oʻtiribdi. Qamchi dastasi bilan chaqmoq telpagini sal koʻtardi-da, choʻntagidan uchburchak xat chiqarib indamay uzatdi. Turgan joyimda shosha-pisha oʻqib chiqdim. Xat qisqa edi. Salom-alikdan keyin haliyam sapyorlar rotasida xizmat qilayotganini aytibdi. Oxirida: «Raʼno, negadir koʻnglim gʻash, oʻzingni ehtiyot qil, bilasan-ku, seni jonimdan yaxshi koʻraman», debdi.

Oʻgʻrilik ustida qoʻlga tushgan odamdek etim jimirlashib ketdi.

– Nima debdi, bizning oʻrtoq?

Umar aka haliyam ketmaganini endi bildim, yaroq etib qarasam, egarda qiyshiq o'tirgancha, ko'zlarini quvlik bilan qisib kulimsirayapti. Nazarimda, Shomurod akamni ham, meni ham masxara qilayotganga o'xshab ketdi. Xo'rlikim keldi.

— Voy-bo', jahlingiz burningizning uchida tura-di-ya! — U ot jilovini tortib, uzr ohangida qo'shib qo'ydi: — Men Do'mbirobodga boraman. Siz birinchi brigadaga o'tmasangiz bo'lmaydi. Shudgor cho'zilib ketyapti. Tepasida turmasang, qimirlamaydi, ho'kizga o'xshaganlar! — Shunday dedi-yu, otini choptirib ketdi.

To'qayda yer haydayotganlar oldiga boryapman-u, Shomurod akamning xatidagi oxirgi gap xayolimdan ketmaydi. «Ko'nglim g'ash, o'zingni ehtiyot qil...» Xotin kishining ko'ngli sezgir bo'ladi, deyishardi. Bundan chiqdi, erkaklarning yuragiyam yomon narsani darrov sezarkan-da!

«Yomon narsa!» O'sha yomon narsaga kim aybdor? Bu azoblardan qutulishning iloji bormi! Bor bo'lsa nima o'sha choraning oti? Charchab ketdim, axir! Yangi yil kechasidan buyon uch oy o'tgan bo'lsa, shu kunlar ichida ich-etimni yeb o'zimni abgor qildim-ku! Ikkita odam ovozi pasaytiribroq gaplashsa, meni g'iybat qilmayaptimi, deb ichimdan qirindi o'tadi...

...Birinchi brigadada ish sekin ketardi. To'qayga traktor kirsam botib qoladi. Yer zaxkash. Orif oqsoqol ho'kizda, xotin-xalaj ketmonda yer chopib yotibdi. Yaxshiyam Duma pochcham ko'rinmadi. Umuman, keyingi paytlarda egachimni, Robiyani, Duma pochchani ko'rsam tizzam qaltiraydigan bo'lib qolgan...

Tushlikka atala qilishgan ekan. Orif oqsoqol katta-kon sopol tovoqni ko'tarib, sarg'ish navdalari yaproq yozgan sambittol tagiga, qishdan arang chiqib olgan, bahorning erinchoq oftobida mudrab turgan qo'ssho'kiz yoniga ketdi. Xotin-xalaj qoqigullar ochilib yotgan o'tloq maydonchaga o'tirib atala ichayotganimizda Parcha opa do'rillab qoldi:

— Vuy, Ra'noxonni ochilib ketganini qarayla! Eri urushda yurgan xotingayam o'xshamilla-ya!

Birov yuzimga tarsakilab yuborgandek bo'ldi. Ilkis bosh ko'tarib qarasam, Parcha opa tors-tors yorilib ketgan barmog'i bilan tovoqdagi atala yuqini yalab iljayib turibdi. Qo'llarim titrab ketayotganini sezdirmaslik uchun tovoqni o't ustiga qo'ydim.

– Bu nima deganingiz? – dedim qaltirab, rangim o'chib ketganini o'zim sezib turar, hamma xotinlar meni mazax qilayotgandek, ko'zimni qayoqqa yashirishni bilmas edim.

Kosani tizzasiga qo'yib o'tirgan Lazakat xola Parcha opani jerkib berdi:

– E, o'l odam bo'lmay! Yomonning bir qilig'i ortiq deb shuni aytadi-da! O'zingni-ku, chalpakka o'rab tashlasa it iskamaydi! Ra'noxonning husniga g'ayirliging keldimi!

– Voy, nimaga g'ayirlik qiliy, opa? – Parcha atrofga hayron alangladi. – Ochilib ketibsiz disamam yomonmi?!

Lazakat xola o'g'lining orden olganiga bag'ishlangan majlisda kolxoz pravleniesi sovg'a qilgan qalampir-nusxa shohi ro'molni yechib, qayta bog'ladi. (O'sha kuni Umar akaning maslahati bilan shu ro'molni koooperativ do'kondan men olib kelgandim).

– Ochilib ketsa, ketguyligi senga tushdimi? Nima qilasan, ko'nglini o'ksitib!

– Voy, man nima didim? – Parcha opa kosani yerga tashlab o'rmidan turdi. Lapanglab tepamga keldi. – Manginani yer yutsin, Ra'noxon, ko'nglingizga olmang!– U atala yuqi yopishgan lablari bilan o'pmoqchi edi, dimog'imga achimsiq ter hidi urildi. Ijirg'anib, yuzimni o'girdim.

Ot pishqirdi. Boshqa xotinlar allaqachon o'rmidan turib ketganini endi ko'rdim. Uch qadamcha narida Umar aka jiyronni jilovidan tutib turardi. Qachon kelib, qachon otdan tushganini bilmay qolibman. Uning qoshi chimirilib ketgan, ingichka, chiroyli mo'ylovi uchib, labini tishlagancha Parchaga o'qdek qadalib turar, rangi o'chib ketgan edi.

– Nega provakatsiya qilyapsan? – dedi tahdid bilan. Parcha opa unga angrayib qaradi.

– Qanaqa pira... pira... – U yog‘iga tili kelishmadi. – Mana qivotganim yo‘q, – dedi labi osilib.

Umar aka bir zum ikkalamizga qarab turdi-yu, jahlidan tushdi.

– Eshakdek kuching bor! Gap sotgandan ko‘ra omoch tortsang-ku, ho‘kiz jonivorlar ozgina dam oladi.

– Tortsam tortavuraman! – Parcha opa «to‘g‘rimi» degandek atrofdagi xotinlarga alangladi.

– Oqsoqol! – Umar aka tol tagida ho‘kizlarning bo‘yinchasini tekshirayotgan Orif oqsoqolga qarab hayqirdi. – Ho‘kizlaram abed qildimi?

Oqsoqol shoshilmasdan cho‘ntagidan nosshishasini chiqardi. Tagiga kafti bilan uch-to‘rt qoqdi. Imillab nos otdi. Nosshishani qaytib cho‘ntagiga suqdi.

– Qildi, – dedi to‘nglik bilan, – oldiga poxol tashlovdim, talashib yedi! Ishonmasangiz o‘zidan so‘rang!

Shu Oqsoqol ham yaxshi odam-ku, o‘lguday qo‘rsda! Nima qiladi, kolxozchilar oldida Umar akaning obro‘cini to‘kib! Shoshma! Oldiga poxol tashladim, dedimi? Nimaga shama qilyapti bu?

Umar akaning rangi bir o‘zgardi-yu, Oqsoqolga javob qilishni lozim topmadi shekilli, alamini mendan oldi:

– Barakalla, o‘rtoq tabelchi! O‘zim bosh bo‘lib, ikki soat abed qildik, deng. Qani, marsh, hammang – dalaga!

Xotinlar pildir-pis bo‘lib, ketmonini yelkasiga tashlaganicha shudgorga yo‘rg‘aladi. Orif oqsoqol omochni qo‘ltiqlab tol xivichi bilan ho‘kizlarning qoqsuyak gardaniga beozor ura-ura dala tomon yo‘l oldi. Endi o‘sha yoqqa yurmoqchi edim, Umar aka chaqqon sakrab egarga mindi.

– Ra‘no, – dedi ovozini pasaytirib. – Uyingga ertaroq bor, tushundingmi! – Qamchini sekin siltagan edi, jiyron sapchib ketdi. Dala tomon yo‘nalgan xotinlar chekka-chekkaga chiqib yo‘l bo‘shatishdi. Umar aka jilovni kuch bilan tortib orqasiga o‘girildi: – Bilib qo‘ying o‘rtoq tabelchi! – U hammaga eshittirib qichqirdi: – Haydalgan maydonni chorak sotix oshirib yozsangiz ham, zakun oldida javob berasiz!

Tuyoqlar umid bilan endi ko‘z ochib, ko‘klam quyoshiga talpingan chechaklarni osongina yanchgancha

g'olibona gursilladi. Jiyrón bir zumda uzoqlab ketdi. Men bo'lsam, omochni qo'ltiqlagancha qo'shho'kizni oldiga solib haydab ketayotgan Orif oqsoqol, yelkasidagi ketmoni oftobda yaraqlayotgan xotinlarga qarab uzoq turib qoldim.

Qiziq, men kimman o'zi? Umar zakunchi – Umar aka kim deb sanaydi meni! Odamlar oldida «o'rtoq tabelchi», ish yuzasidan gaplashganda «Ra'noxon», o'zining «ishi tushib», mehri tovlanib ketganida – «Ra'no». Goh otimga «o'rtoq» qo'shib, goh qo'shmay «sizlay»di. Yolg'iz qolganda «sen»laydi... Yomon odamning nomi «ikki yuzlamachi» bo'lguvchi edi. Men-chi? Men qanaqaman? Ikki emas, uch yuzlamachimanmi?!

...Odam bolasining fe'li qiziq. Avvalo, umid bilan qurgan imorating og'masin ekan. Bir og'dimi – bo'ldi, baribir yiqilarkan. To'sib qolaman desang, bosib tushib o'zingni ham parcha-parcha qilib tashlashidan qo'rqr ekansan. Negaki, o'sha imoratning poydevori qo'porilishiga bir chekkasi o'zing ham sababchi ekanligingni bilarkansan. Bo'lmasa Shomurod akam bilan ne umidlarda bir yostiqa bosh qo'ygandik. Tekstil kombinatida erkaklar oz emasdi. Orqamdan yelib-yugurganlar ham ko'p edi. Men Shomurod akani tanladim. Birovni yaxshi ko'rgan odam nimasini yaxshi ko'rasan, degan so'roqqa javob berolmaydi. Yaxshi ko'radi, tamom-vassalom! Men ham Shomurod akamning allaqaysi jihatini emas, o'zini yaxshi ko'rardim. Onam qancha yolbordi. Boshingda otang bo'lmasa, ot tepkisi otga o'tmaydi, tog'angning o'g'liga uzataman, deb uvvalo yalindi, ko'nmadim. Shomurod akamdan ajralsam o'lib qolaman, deb o'ylardim. Erimni urushga kuzatayotganimda ham baribir chidolmayman, adoyi-tamom bo'laman deb ishongan edim. Shomurod akamsiz qanaqa yashayotganimga haliyam aqlim bovar qilmaydi. Lekin...

...Hayronman, Zakunchining domiga qanday ilindim? To'g'risi, birinchi ko'rganda undan qo'rqqan edim... Yuragim uvishib ketgandi. Keyin bilsam yuragim uvishmagan, jiz etgan ekan. Qo'rqqanim ham shundan ekan. Bu odamga ro'para kelsam nima qilishimni bilmay

qolishimni sezgan ekanman. Ehtimol, Shomurod akam yonimda bo'lganida Zakunchidan qo'rqan chog'-dayam yaqinimga yo'latmasdim... Kim bilsin tag'in... Bilmadim, dunyoda shunaqa narsalar bo'ladiki, birovga tushuntirish u yoqda tursin, o'zing ham tushunmaysan...

Begona ko'chaga kirib qolgan odam qo'rqib ketadi. Qo'rqadi-yu, o'sha zahoti qaytib keta qolmaydi. Nimaga shunaqa qilganini o'zi bilmaydi. Ehtimol, ma'nosini tushunib yetmagan sirli bir narsa – notanish manzaralar, g'alati manzillar aldab-suldab uni ichkariga olib kirib ketar. Bo'lmasa, Shomurod akamni kuzatayotgan kunim tiz cho'kib yalinganimda chin dildan yig'laganim rost edi. Askarlarning ovqatini pishirishga, kirini yuvishga rozi bo'lganim rost edi. Ishqilib sevgan kishimning yonida bo'lsam, derdim. Bunaqa savdoni boshiga tushgan odam biladi. Kim nima desa desin, ammo haliyam Shomurod aka xayolimdan ketmaydi. Shomurod akamni o'ylagan sayin o'zimning terimni o'zim shilib tashlagim keladi.

Erkak kishi begona ayolning ko'nglini ovlayotganida o'zining yaqin odamlari xayolidan ko'tariladimi-yo'qmi unisini bilmayman-u, lekin ayol kishi begona odam bilan... (Qanday sharmandalik!..) Ayol kishi bunaqa paytda hamma narsani unutadi! Yonidagi odamdan bo'lak hech kimni o'ylamaydi. Ammo hushi o'ziga kelganidan keyin shunaqangi afsus chekadiki...

Men ahmoq, men uyatsiz nima qilib qo'ydim o'zi? Hamma qo'rqadigan, bir qarashda hammani zir titratib yuboradigan Umar zakunchi menga shunchalik mehribonligini, lozim bo'lsa, oyog'imga tiz cho'kib yalinishini ko'rib qo'yinglar, degim keldimi! Senlar Zakunchini ko'rganda titraysan. Zakunchi esa mening oldimda qaltirab qoladi, demoqchi bo'ldimmi! Bilmadim! Balki men haliyam yosh boladirman. Onasi qo'liga urgan sayin shirinlikka battarroq talpinadigan go'dakdan farqim yo'qdir. Biroq bilaman, bu shirinlik – harom! Ichida zahar bor! Shunaqangi achchiq zaharki, Umar aka bilan meni o'ldirsa mayli, ikki orada Shomurod akani ham juvonmarg qiladi. Eng avval eng begunoh odamni o'ldiradi – Shomurod akamni!

Odamlar eridan xat olsa bir hafta bayram qiladi, keyingi xati kelguncha ko'ksiga bosib, qayta-qayta o'qib yuradi. Bitta xatiga o'nta javob yozadi. Men bo'lsam... Erimdan xat kelsa, burchak jinnisidek hammadan bekitib o'qiyman! Javob yozsam, birov tepamga kelib, «iye, muborak bo'lsin, eringiz esingizdan chiqmagan ekan-ku», deyotgandek bo'laveradi.

Nahotki men shunchalik benomus bo'lsam! Ana, Orif oqsoqolning navjuvon kelinlariyam yuribdi-ku! Ikkalasiyam eridan «qoraxat» kelganiga qaramay sabr qilib o'tiribdi. Chillasi chiqmay kuyovidan judo bo'lgan qanchadan-qancha yosh-yosh kelinchaklar bor. Boshi tuynukdan chiqib ketayotgani yo'q-ku! Men shunchalik yomonmanmi! Qanday kirib qoldim boshi berk bu ko'chaga? Zakunchi yetaklasa, indamay kirib ketaverdimmi? Nimaga? Bilmayman. O'zim bilmayman!

O'sha – birinchi qor tushgan kecha, Shomurod akamning ulfatlari to'plangan pallada Umar zakunchini hammadan ko'ra men yomon ko'rgan edim. Oshxona orqasiga o'tib er-xotin xayrlashayotganimizda ham bir lahza xoli qo'ymadi. Ayvonga chiqib Shomurod akamni chaqirdi. Ertalab nima uchun ataylab arava chaqirganiyu, nimaga Shomurod akamni o'zi bosh bo'lib vokzalga olib chiqqanini ham tushunmadim. Bunaqa narsalarni o'ylab o'tirishga vaqtim ham, toqatim ham yo'q edi.

Poyezd tez jo'nadi. Shomurod akam bilan tuzuk-quruq xayrlasholmadik. Faqat u meni bag'riga bosib shivirlagani esimda qoldi:

– O'zingni ehtiyot qil, Ra'no. Xat yozaman.

Hushimga kelsam, poyezd allaqachon ketib bo'lgan, qor bosgan vokzal huvillab qolgan, oyim egachimga suyangancha unsiz yig'lar edi.

– Ketdikmi? – dedi Umar zakunchi qor yuqqan piymasining qo'njiga qamchi urib. – Ish ko'p. Hali allaqancha kartoshka qazilmay yotibdi.

Oyim goh egachimga, goh Zakunchiga qarab yalindi:

– Iloyo umrlaringdan baraka topinglar. Qizim bag'rimda uch-to'rt kun tursin. Harna dardini unutadi.

Egachim darrov rozi bo'ldi-yu, Umar zakunchi ikkilanib qoldi.

– Ish ko‘p-da, xola, – dedi qoshini chimirib. Lekin har tomonni o‘ylab, insofga keldi shekilli, piymasi bilan g‘arch-g‘urch qor bosib, vokzal eshigi tomon yurdi. – Bo‘pti! – dedi qat‘iyat bilan. – O‘zim oborib qo‘yaman.

Komil tabib bilan Lazakat xola ham o‘g‘lini kuza-tishga kelgan ekan. Endi ko‘rdim. Egachim, adashib qoladigandek tabibning qo‘lidan tutgan Lazakat xola bizga ergashgan edi, Zakunchi jerkib berdi:

– Sizlar boraveringlar!

Arava yumshoq qorda chuqur iz qoldirib yurib ketdi. Onamning pinjiga tiqilib o‘tirarkanman, sovuqni ham, yog‘ib turgan qorni ham sezmasdim. Bir mahal arava haydab ketayotgan Zakunchi papiros chekdi. Burilib orqasiga qaradi.

– Tashvish qilmang, xola! – dedi yupatib. – Kolxoz Ra‘noxonga otalik qiladi.

Sovuqda diydirab o‘tirgan oyim birdan jonlandi.

– Ukam! Shu... Ra‘noxon tekstilda ishlayversa. O‘zi-ning o‘rgangan joyi. – U rejasini avvaldan pishitib qo‘ygan shekilli, ovozi tetiklashdi. – Hayhotdek hovlida bitta o‘zi nima qiladi? Yonida qaynota-qaynonasi bo‘l-masa...

Zakunchi indamadi. Otga qamchi urdi. Arava qor qoplagan tosh yo‘lda ildam yurib ketdi.

– Baraka toping, ukam! – dedi oyim Zakunchining indamaganidan dadillanib. – Harna yonimda bo‘ladi-ku!

Zakunchi qordan oqarib ketgan chaqmoq telpagini kafti bilan yuqori ko‘tarib orqaga o‘girildi.

– O‘ylang, xola! – dedi vazminlik bilan. – Birlamchi gap shuki, Ra‘noxonning qaynona-qaynotasi yo‘q deyish insofdan emas. Duma – yaxshi odam. Ikkilamchi, mahalla-ko‘y nima deydi? Falonchi kuyovi urushga ketishini kutib turgan ekan, qizini chiqarib kebd, deb g‘iybat qilmaydimi? – U oyimning ko‘ziga tikilib, ta‘kidladi. – Qolaversa, qizingiz qarovsiz qolmaydi.

Shuursiz bir tarzda o‘tirar, uyog‘i menga baribir edi. Tekstilda ishlaymanmi – kolxozdami, oyimning oldida turamanmi – Ko‘tarmadami, nima farqi bor?! Shomurod akam yonimda bo‘lmagandan keyin hammasi bir go‘r emasmi?

– Bizdayam har bitta odam hisoblog‘liq! – dedi Zakunchi qat‘iy ohangda. – Tem bolee Ra‘noxondek savodli odam!

G‘alati bir yangilikni uyimga borgandan keyin bil-dim. Qiziq, oyim shu paytgacha aytmaganiga hayron qoldim. Rostov degan shahardan ko‘chirilgan rangsiz, ko‘m-ko‘k ko‘zlari katta-katta o‘ris xotin biznikiga joylashgan ekan.

– Marjaxon opang (oyim unga shunaqa ot qo‘yib olibdi), ja mehribon chiqib qoldi, qizim, – dedi oyim meni tinchlantirib. – Issiq-sovug‘imdan xabar olib turib-di, buyam o‘zimning qizim-da!

«Marja opa» (aslida oti Marusya ekan) oyimning gapiga ancha tushunadigan bo‘lib qolgan ekan. Katta-katta ma‘yus ko‘zlari bilan jilmaydi.

– Yakshi apa! – dedi kulimsirab.

Tekstilda o‘ris xotinlar bilan tillashganim uchun ruschani binoyidek bilib olgandim. Yarim kechagacha «Marja opa» – Marusya bilan dardlashib o‘tirdim. Men uni oyim tengi kampir deb o‘ylagan edim. Sochlari oqara boshlagan, ko‘zining ikki burchini ajin bosgan... Yo‘q, o‘ttiz uchga chiqqan ekan. Eri ofitser ekan. G‘arbiy chegarada xizmat qilarkan. O‘lik-tirigini o‘zi ham bil-masmish. O‘zi «Rostselmash» zavodida ishlarkan. Ros-tovga dushman yaqin kelganida hammani ko‘chirma qilishibdi. Marja opa to‘rt yashar Vova degan o‘g‘li bilan poyezdga o‘tirib endi yo‘lga chiqqanida nemis oldin poyezdni o‘qqa tutibdi. Keyin bomba tashlab, yon-dirib yuboribdi. Marja opa lovullab turgan vagondan o‘g‘lini ko‘tarib omon-eson olib chiqibdi. Ammo ellik qadamcha naridagi o‘rmonga yetib borganidan keyin «Vovochka»ni (u xuddi shunaqa «Vovochka» dedi) yerga qo‘ysa, shilq etib yiqilibdi. Qiziq, bolaning hech joyidan qon oqmas emish. Marja opa hayron bo‘pti. Qarasa, bolaning chakkasida no‘xotdek joyi qorayib turgan emish. Vagon tomini teshib o‘tgan o‘q Vovochkaning chakkasiga tekkan ekan.

Marja opa o‘z qo‘li bilan go‘r kavlab, o‘g‘lini qayin tagiga ko‘mganini aytib berayotganida yum-yum yig‘ladi. Toshkentda qurilayotgan yangi zavodda

ishlayotganini, oyimni yaxshi ko'rib qolganini aytdi... Achindim, yupatdim, «uyimizning to'ri sizniki, nasib etsa, eringiz sizni topib oladi», deb dalda berdim.

...Bir haftadan keyin yarim kechada Yangi mahalladagi tor ko'chamizga Umar zakunchining o'zi arava haydab kelganida, «tashvish chekmang, xola, qizingizga o'zim otalik qilaman, Ra'noxonni tabelchi qilib tayinladim», deganida oyim noiloj rozi bo'ldi. Ustiga-ustak Marja opa ham dalda berdi:

– Boraver, Ra'no! Sening onang – mening onam. Xavotirlanma.

...Onamning bag'ridan olib chiqquncha muloyim iljayib turgan Zakunchi Ko'tarmaga kelishi bilan o'zgaradi-qoldi. Har kuni idoraga chaqirib, dag'dag'a qiladi.

– Savod bormi o'zi? Hisobni bilasizmi? Kim aytadi sizni rabochiy klassdan chiqqan deb, o'rtoq tabelchi?

Kun bo'yi goh dalaga, goh omborga yuguraman. Qancha kartoshka, qancha sholg'om kavlangani, qancha piyoz tozalanib, himoya fondiga ajratilgani, omborga qancha jo'xori topshirilgani – hammasini hisob-kitob qilishga vaqtim ham, aqlim ham yetmaydi. Unga sayin, Zakunchining kulrang ko'zlarida sovuq o't chaqnaydi.

– Vey, qanaqa odamsiz o'zi? Zakunni bilasizmi? Bunaqa chalakam-chatti hisoblashda o'n yilni shilq etib bo'yingizga ilib qo'yishadi-ku!

Do'q qiladi-yu, xatoim nimadaligini aytmaydi. O'zimdan o'zim qo'rqaman. Balki rostdan ham hisobda adashayotgandirman. Shundan ko'ra qor changallab karam uzganim, sassiq omborga kirib, piyoz tozalaganim ming marta yaxshimasmi! Oxiri bo'lmadi. Ega-chim xabar olgani kelganida hammasini aytib berdim.

– Voy, o'lsin! – dedi egachim labini burib. – Yurt nima bo'lsa sizam shusiz-da, kelin! Cholimga aytaman, ertaga Zakunchiga tushuntiradi.

Duma pochcham «tushuntirdi» shekilli, indiniga idoraga kirsam Umar zakunchi butunlay boshqa odamga aylanib qopti.

– Ra'noxon! – dedi astoydil kuyunib. – Nega tushunmaysiz? Axir siz kolxozning rahbar sostaviga kirasiz. Rahbarlarning o'zaro gapi bo'ladi. Uydagi sirni

ko'chaga obchiqishning nima keragi bor? Savodsiz pochchangiz nimani tushunardi?

«Tabelchilik qilmayman», deb oyoq tirab olgan edim, azza-bazza yalindi:

– Ra'noxon! Jon singlim! Sizdan boshqa kim eplaydi bu ishni! Men kolxozning otasiman, to'g'rimi! Bundan chiqdi sizning ham otangizman! Ota degan shunaqa bo'ladi-da! Bolasini yaxshi ko'rganda erkalaydi, jahli chiqqanda koyiydi. Shungayam xafa bo'lasizmi? Boring! Ertaga omborda karam tozalaydiganlarga ko'z-quloq bo'lib turing...

Endi chiqib ketayotsam, yana to'xtatdi:

– Ha, aytganday, bizning soldatdan xat kelyaptimi? Malades! Xat yozsangiz mendan salom ayting...

* * *

Yangi yilni oyimning oldida kutib olgim kelardi. Onam kasalmand bo'lsa... Sovuq tushishi bilan oyoq-qo'li shishib ketadi. Nongayam chiqolmayotgandir. Qachondan beri xabar ololmadim...

Bilaman, Marja opa onamni qarovsiz qoldirmaydi. Lekin nima qilsin! Uning ham tashvishi boshidan oshib yotibdi. Zavodda ishlash osonmi? Avvalgi safar borganimda aytgan edi. Zavod snaryad chiqarayotgan emish-u, hali imorati bitib, tomi yopilmaganmish. Odamlar yonib turgan pechka taftida ishlarkan. Kun bo'yi stanok oldida turgan odamga kechqurun kelib yetti yot begona xotinning boshida parvona bo'lish yoqadimi? Otam ham istiqodan o'lgan edi. Rost, unda juda kichkina edim. Lekin oyoq-qo'llari shishib ketgan otamga oyim tuvak tutgani esimda. Endi, kasalmand onamga men turib, Marja opa tuvak tutadimi? Uyat emasmi? Boraman! Kerak bo'lsa, xohlagancha yonida o'tiraman!

Aksiga yurib xuddi o'sha kuni tong otmasdan Umar zakunchi eshikni zarda bilan savalab uyg'otdi.

– Marsh omborga! Bugun bir vagon kartoshka jo'natamiz. Frontga yangi yil sovg'amiz shu bo'ladi!

Izg'irin g'izillab yotgan omborda kechgacha o'tirib, adoyi tamom bo'ldim. Shuncha odam ishlab turganida

tepasida har bitta kartishkani sanab g'o'dayib turish insofdan emas. Men ham xotin-xalajga qo'shilib kartishka saraladim... Onamdan xabar olgim kelar, lekin endi kech bo'lganini, bir o'zim yetib borishim qiyinligini ham bilardim.

Uyimga kelganimda vaqt allamahol bo'lib qolgan edi. Tanchani kul bosib, tagida to'rttagina cho'g' qopti. Qorong'i oshxonadan ko'mir olib chiqib, soldim. Aqalli Robiya ham kelmaganidan ko'nglim o'ksidi. Yolg'izligimni-ku biladi, jilla qursa shunaqa kunda xabar olishsa bo'lmaydimi? Shomurod akam borligida egachim tez-tez kelib turardi. Keyingi paytlarda kam-qatnov bo'lib qolishdi. O'zi yo'qning ko'zi yo'q ekan-da! Bilaman, ulargayam qiyin. Hammasi tong bo'zarmasidan ishga chiqib ketadi. Qorong'i tushganida oyog'ini arang sudrab qaytadi. Shunaqa-ku, baribir-da! Odamzod o'limdan qanaqa qo'rqa, ayol kishi yolg'iz qolishdan shunaqa qo'rqadi. Kechalari bir o'zi qop-qorong'i, sovuq shiftga tikilib yotish azobini hech bir xotinning boshiga solmasin.

Bir o'zimga qozon osgim kelmadi. Choy damladim. Ikkita zog'ora bilan to'rtta turshakni dasturxonga qo'yib tamaddi qilgan bo'ldim.

Qor yog'ayapti. Hammayoq jimjit. Xontaxta ustidagi lampa pop-pop qiladi. Kerosinga suv aralashganmi, nima balo? O'tirgan joyimda ko'zim ilinibdi. Bir mahal ko'cha eshik taqillagandek bo'ldi. Cho'chib ko'zimni ochdim. Bu safar aniq eshitdim. Birov eshikni sekin-sekin taqillatyapti.

Yuragim dukillagancha hovliga tushdim-u ko'nglim yorishib ketdi. Robiya kelgan! Bayramda kelinoying yolg'iz qolmasin, deb yuborishgan. Shosha-pisha eshikka yaqin bordim.

– Robiyaxon!

– Men! – Erkak ovozini eshitib, qo'rqib ketdim.

– Kimsiz? – dedim titrab.

– Nega qo'rqasiz, Ra'noxon! Bayram bilan tabriklagani keldim. Mumkinmi, bir minutga?

Umar zakunchining ovozini eshitib, beixtiyor zanjirni tushirdim.

U qo'lida kattagina tugun bilan lip etib ichkari kirdi.

– Tishsh! – dedi barmog'ini labiga bosib. – Bir minutga kirdim. Eshikni berkiting! Bu zamonning odamlarini bilasiz-ku, og'zi bilan yuradi.

Taklif qilmasam ham, ayvondan o'tib, uyga kirdi. Kavshandozda turib tugunni uzatdi.

– Olsangiz-chi, qo'lim uzilib ketdi!

Nima qilishimni bilmay tugunni oldim. Chindan ham zil-zambil ekan.

– Ehtiyot bo'ling, – dedi kulimsirab, – yog'i oqib ketadi.

Zakunchi kavshandozga cho'nqayib etigini yecha boshlaganidan keyingina hushim o'zimga keldi.

– Nima bu? – dedim tuguniga imo qilib.

– Muncha sovuq! – U kalta po'stinini yechib bir chekkaga tashladi. Boshidan qor bosgan chaqmoq telpagini olgan edi, sochi yoyilib peshonasiga tushdi.

– Mehmonniyam shunaqa kutadimi, Ra'noxon? – dedi ta'naomuz bosh chayqab. – Bugun bayram. Odamlar bir-birini yo'qlaydigan kun... – Taklif kutib o'tirmay sandal chetiga cho'kdi. Qo'lini tanchaga tiqdi. – Ehtiyot bo'ling, ko'mirning hidi bor ekan.

Ko'zlari muloyim suzilib turganini ko'rib, ko'nglimga shubha o'rmaladi. Kayfi bor shekilli?

Uy o'rtasida serryib turib qolgandim. Yuragim gursillab urgancha, oyoq-qo'lim bo'shashib ketayotganini sezib turar, nima deyishni, nima qilishni bilmasdim.

– Nima o'zi? – Xayolimga birinchi kelgan gap shu bo'ldi. Ehtimol, «nima qilib yuribsan bu yerda?» demoqchi bo'lgandirman, qo'rqqanimdan aytolmagandirman. – Nima bu? – dedim qo'limdagi tugunni silkitib.

– Qo'ying mundoq! – Umar zakunchi tugunni sandal ustiga qo'yishga imo qildi. – O'tiring avval, – dedi jilmayib.

Kulib qarashi g'ashimni keltirdi. Nega kuydirgan kalladek ishshayadi! Niyati nima o'zi? Rangim o'chib ketgan bo'lsa kerak, vajohatimni ko'rib, birdan jiddiy tortdi.

– O‘tirsangiz-chi! – dedi qovog‘ini solib. – Yangi yilda kolxozchilarni tabriklash vazifamga kiradimi axir! Muncha qovoq-dimog‘ qilasiz, o‘rtoq tabelchi?!

Endi u rasmana raisga – Umar zakunchiga aylangan edi. Ko‘nglim joyiga tushdi, tugunni sandalga qo‘yib, tanchaning etak tomoniga o‘tirdim. U qo‘lini ilitib oldi, tugunni echdi. Ustiga ikkita jizzali patir bosilgan bir lagan palov ko‘rindi. O‘sha zahoti uyni osh isi tutib ketdi. Chinakam qovurma palov! Shomurod akamni urushga jo‘natgan kunimizdan beri osh yemagan edim. Beixtiyor teskari qaradim.

– Shahardan mehmonlar kelishgandi, – dedi u tushuntirib. – Sizga ilindim.

Osh bosilgan lagan yonboshiga bir shisha aroq, bir shisha shampan qo‘shib tugilganini endi ko‘rdim. Yuragimga yana g‘ulg‘ula tushdi. U aroq shishasining orqasiga kafti bilan uch-to‘rt urgan edi, po‘kak otilib ketdi. Aroq tomchilari sachrab, lampaning shishasi chirsillab darz yedi. Boyadan beri sehrlanib qolgandek jim o‘tirgan odam, hushimni to‘plab, dik etib o‘rnimdan turdim. Xayolimga kelgan bahonadan o‘zim suyunib ketdim.

– Duma pochchamnikiga borishim kerak. Hozir Robiyaxon kelib ketdi. Bormasam bo‘lmaydi.

– Borasiz! – Umar zakunchi ko‘zimga xotirjam tikildi. – Meniyam ishim boshimdan oshib yotibdi. O‘tir-ring! – U gap orasida shampan shishasining zarini ko‘chira boshladi. – O‘tirsangiz-chi! – dedi jerkibroq. – Urushdan alamzada bo‘lgan qancha oila bor! Hammasiga kirib chiqmasam bo‘lmaydi! Bir minut o‘tirish mumkinmi axir? – U ko‘zimga jiddiyat bilan tikildi. – Vaqtim ziq deyaрман-ku!

Bu gapni shunchalik samimiy aytdiki, beixtiyor sandal chetiga cho‘kdim.

– Ushlang! – dedi shampan to‘la piyolani uzatib. – Bilaman, ichmagansiz. Ammo bugun boshqacha kun... Bugun ichsa bo‘ladi. Shuning uchun ichaylikki, kirib kelayotgan yangi yil – qirq ikkinchi yil urushning oxirgi yili bo‘lsin! Jangchilarimiz Berlingacha borib, fashistlarni yanchib tashlasin! Urushga ketganlar sog‘-

salomat, qahramon bo'lib qaytishsin! Eng muhimi... – U jilmayib ta'kidladi. – Eringiz omon-eson kelsin.

Beixtiyor piyolani labimga olib bordim-u vishillab turgan notanish isdan ijirg'anib, dasturxonga qo'ydim. Rostini aytsam, osh yegim kelardi.

– Meni xafa qilyapsiz, Ra'noxon! – dedi Umar zakunchi hamon aroq to'la piyolani qo'lida tutib turarkan. – Onangizga bergan va'damni shu kungacha bajarolmadim. Raz men kolxozning otasi ekanmanmi, sizdan xabar olib turishim kerak. Faqat ishda emas, mana bunaqa ulug' ayyom kunlarida ham. Iltimos, sazanmi o'ldirmang.

Yarim piyola shampan ichimga olov bo'lib kirdi. Boshim aylanib ketdi.

Uch-to'rt cho'qim osh olishim bilan u tag'in piyolamni to'ldirdi.

– Yo'q! – dedim qat'iy bosh chayqab. – Bo'ldi.

– Shunaqa tilak aytamanki, ichmasangiz bo'lmaydi! – Zakunchi piyolasini piyolamga cho'qishtirdi. Ko'kish ko'zlarida yana o'sha samimiy olov porladi. – Shomurod ukamiz tezroq kelsin-u, yanagi yil, shu kunlarda uyingizda chaqaloq yig'isi eshitilsin!

Uyalib ketdim. Piyolani dasturxonga qo'ymoqchi edim, u qo'limga yopishdi.

– I-i-i! Nima, qarshimisiz shu niyatga? Shomurod akangizdan shunchalik bezganmisiz?.. Agar u kishini chindanam yaxshi ko'rsangiz, oppoq qilib olasiz!

Ichim lovullab ketayotganiga qaramay qasdma-qasdlikka ichib yubordim. Lekin xato qilganimni, bema'ni ish qilganimni tushunib yetganimda ko'z o'ngim jimirlashib borar, xontaxta ustidagi lampa xiralashib qolganga o'xshar, negadir o'zimdan-o'zim kulgim qistar edi. Qiziq, hamma qo'rqadigan, hamma yomon ko'radigan Umar zakunchi shumi? Tavba! Tuppa-tuzuk odamgarchiligi bor ekan-ku!

U qachon yonimga o'tib olgani esimda yo'q. Bir mahal yelkamga qo'l tashlagani, «Ra'no, jonim!» deb entikkani, yuzimga qaynoq nafasi urilganini elas-elas payqadim-u qo'rqib ketdim.

– Keting, – dedim yulqinib. – Keting! Dodlayman! Hozir dodlayman! Qoch!..

– Ra’no! – u yanayam qattiqroq tarmashdi. – Tushunsang-chi, tentak!

– Kerakmas! – Bo’g’zimdan yig’i aralash iltijo otilib chiqdi. – Shomurod aka!

Gandiraklab o’rnimdan turdim. Ko’chaga otilmoqchi edim, u tiz cho’kib oyog’imdan ushlab oldi. Sochlari yoyilib ketgan ko’zlarida yig’lagudek yalinch ifoda bor edi.

– Ra’no! – dedi yolborib. – Tushunsang-chi! Ketimdan ergashib yurganlar son-mingta! Qizlar... juvonlar...

– Boraver o’shalarga! – Qanchalik qattiq tipirchilasam, u oyog’imga shunchalik qattiq yopishardi.

– Yaxshi ko’raman, tentak! – dedi yupqa lablari, ingicha mo’ylovi titrab. – Boshimga uramanmi ularni! Sen keraksan menga! Bilaman, senga munosib emasman! Nima qilay, sevaman seni! Birinchi ko’rgan kunimdan beri oromim yo’q, Ra’no!

– Kerakmas, qoching! Shomurod aka! – Kuchim boricha siltangan edim, yerga o’tirib qoldim.

– Ra’no! Jonim! Go’zalim! Nima qilay? Hech kimning oldida egilmagan boshim... – To’satdan uning ko’zlarida yosh ko’rindi. – O’ldirib qo’ya qol meni... Sen... sen... boshqachasan. Qanaqaligingni o’zing bilmaysan, Ra’no!

Birinchi marta ko’rganimda yuragim seskanib ketgani, vahimaga tushganim lop etib xayolimga keldi.

– Iltimos, – dedim yalinib. – Kerakmas... Umar aka...

...Bilmadim, ehtimol, xotin kishini shon-u shuhrat ham, ilm-u amal ham, erkakning kuchi ham zabt etolmas. Ammo shirin so’z oldida, maqto’v oldida erimaydigan ayol yo’q. Balki men shunaqadirman...

O’sha kuni tong otguncha yig’lab chiqdim. Benomus! Sharmanda! Kim degan odam bo’lding! Senam insonmisan!.. O’zimni o’ldirgim kelardi. Go’yo ertaga ko’chaga chiqqishim bilan sirim olamga oshkor bo’ladigandek! Hamma menga qo’lini bigiz qilib, «mana, erining ko’ziga cho’p solgan buzuq mana shu!» deydigandek! Undan ko’ra o’la qolganim yaxshimasmi!

Qiziq, hech nima bo'lmadi! Hech nima! Hech kim menga shubhalanib qaramadi. Birov ta'nayam qilmadi. Shundayam, avvaliga har kimga bir termilib, hurkib yurdim. Keyin g'alati ahvolga tushdim. Har qadamida mingta qiz ko'z tikib turganiga qaramay meni, yolg'iz meni yaxshi ko'rgan Umar aka, hammani zir qaqqshatadigan Umar zakunchi o'sha kuni shunchalik yalingani, oyog'imga yiqilgudek iltijo qilgani uchun sevinishga o'xshash his paydo bo'ldi. Ajab, bu odamni birinchi ko'rganimdayoq yuragim jiz etgani bejiz emas ekan-da, bundan chiqdi, uyam meni yaxshi ko'rarkan-da!

Shuni o'ylashim bilan lop etib Shomurod akam esimga tushardi. Shunda o'zimni o'zim oqlashga urinayotganimni, xato qilganimni, iflos odamga aylanib qolganimni o'ylardim-u, o'sha zahoti tag'in o'zimga yupanch topardim. «Bo'ldi! Ikkinchi bunaqa nobakorlik qilmayman. Zakunchi bo'lmoq tugul avliyo bo'lmaydimi! Endiyam eshigimdan kirib kelsin-chi, kosov olib haydayman!»

Ajab! Ikkinchi marta tag'in yarim kechada eshik taqillatganida haydash uyoqda tursin, oyoq-qo'lim bo'shashib, eshikni o'zim ochdim. Bo'lmasa, o'sha kuniyam Shomurod akamdan xat kelgan edi... Hamon tushunolmayman. Nima bu? Men kimman o'zi!

Bora-bora Umar akamni uch kun ko'rmasam sog'inadigan bo'lib qoldim. Yo'q, unaqa... kelishi uchunmas. Uzoqdan bo'lsayam ko'rsam bas. Sog'inib-sog'inib Umar aka bilan ko'rishganimizdan keyin esa Shomurod akam lop etib yana xayolimga keladi. Kechasi bilan yum-yum yig'lab chiqaman. Go'yo men ikkita Ra'noman. Bittasi – Shomurod akamniki, bittasi – Umar akaniki!

Endi faqat bir narsadan – odamlarning malomatidan qo'rqadigan bo'lib qoldim. Bir kunmas-bir kun sir ochiladi-yu, el o'rtasida rasvoi jahon bo'laman.

Salkam uch oydan beri boshimda osilib turgan qilich shu edi. Mana bugun o'sha qilich bo'yninga tushdi.

Umar akam hali tushlik qilayotganimizda dalaga borib, avval odamlar ko'zi uchun «o'rtoq tabelchi»

deb dag'dag'a qilib, keyin «uyingga ertaroq bor», deb shivirlaganida dastlab g'ashim kelgan edi. Ertalab erimdan kelgan xatni o'z qo'li bilan obkelsa-yu, kech-qurun... Yo'q! Chuchvarani xom sanabsan! Shu qilganing uchun ataylab Duma pochchamnikiga boraman! Robiya bilan gaplashib yotaman. Nima, qo'g'irchoqmanmi senga! Xohlasang – kelasan, xohlasang – ketasan! Bir qarasa do'q urasan, bir qarasa – yalinasan! Yerdan chiqqan qo'ziqorinmanmi? Erim bor! Oilam bor!

Kechgacha shu o'yda yurdim. Orif oqsoqol bilan No'g'ayqo'rg'onga borishga ahd qilib qo'ydim. Lekin kech kirgan sayin uyga qaytgim kelaverdi. Negaligini bilmayman, o'lay agar, bilmayman! Umar akamning «uyingga ertaroq qayt» degani qulog'im ostida sirli jaranglayverdi. Asli No'g'ayqo'rg'onga ketaversam bo'larkan. Shunday jalada, yarim kechada Robiya kelishini tush ko'ribmanmi?

Eshik taqillaganida tuz-puz so'rab chiqqan qo'shni bo'lsa kerak, deb chiroqni o'chirdim. Umar akam ishini puxta qiladi. Shu kungacha bu yerga qatnashini hech kim bilmaydi. Ataylab otini kolxoz molxonasiga tashlab, piyoda keladi. Qo'shni bo'lsa taqillatib-taqillatib qaytib ketar deb umid qilib tursam, ayvon tagida birov «kennoyi» deb baqirdi-yu, yuragim qinidan chiqib ketay dedi. Umar akamning jahli yomon. «Chiqmang», deb qo'liga yopishganimga qaramay ayvonga otildi. Devordan oshib tushgan «o'g'ri»ni bir nima qildi shekilli, yosh bolaning «qo'yvoring» deb yalinganini eshitib taxta bo'lib qoldim. Bola – Komil tabibning o'g'li ekanini keyin bildim. Xayriyat. Bola ekan, aldab-suldab jo'natsa bo'ladi. Lekin eshik orqasida Robiya poylab turganini kim bilibdi! Shunchalik jonkuyar ekansan, Duma buvang bilan qora tappi oying shunchalik mehribon ekan, Yangi yil kechasida, Umar zakunchi uyimga bostirib kirganida qayoqda edilaring! O'shanda shu mushtipar yolg'iz qoldi-ku, holi nima kechdiykin, deb xabar olishga yaramadilaring-ku! Erimning urug'i – tezagamning qurug'i, deb shunga aytadi-da! Endi uyimga bostirib keldingmi! Nima haqqing bor? Umar aka chiqishga

chiqib ketdi-yu, Robiyaning oldida sir berib qo'ydim. Nima deganimni, qanday bahona ro'kach qilganimni bilmayman. Faqat Robiyaning har so'zidan zahar tomib aytgan gapi qulog'imga o'qdek kirdi. «Bolani harom qilmang!» Xuddi shunaqa dedi.

Bildi! Hammasini bildi! Robiya ahmoq emas! Umar akamdayam ayb bor. Ko'rib turibdiki, devordan oshib tushgan o'g'ri emas. Nima qilardi, bolani yoqasidan bo'g'ib, ko'chaga ulotirib! Yaxshi gap bilan Robiyani uyga boshlab kirsam, kunlik ishning hisob-kitobini qilib o'tiruvdik, desa-ku, olam guliston edi. Yo'q, hamma ayb anavi Robiyada!

Naqdlab qo'yibdimi yarim kechada? Poylab kelgan! Ataylab poylab kelib, tabibning o'g'lini devordan oshirib tushirgan! Voy ilon-ey! Tag'in sening fotiha to'yingda xizmat qilib yuribman-a, niyatingga yetmagur! Shunchalik dushmanmiding? Nima yomonlik qildim senga!

Shoshma! Qo'lidan nima kelardi? Men – tabelchiman! Umar akam – rais! Kundalik hisobotni ko'rib o'tirgan edik, lampamoy tugab, chiroq o'chib qoldi. Robiya shpiondek payt poylab eshik taqillatdi. Tamomvassalom! Faqat bitta xato qildim. Robiya bolani yetaklab chiqib ketayotganda o'zimni tutolmay qoldim. «Qandoq kunlarga qoldim» dedimmi? Yaxshi! Qanday tuhmatlarga qoldim deganim shu-da! Robiya tuhmat qilib ko'rsinchi, kunini ko'rsataman. Umar akam bor, hech kimdan qo'rqmayman!

O'zingma-o'zim taskin berib, uyga kirdim. Ora-chora chaqmoq chaqib, uy ichi yorishib ketardi. Yarimlagan vino shishasi, Umar akam unutib qoldirgan telpagi, yarim-yorti yig'ishtirilgan to'shakka ko'zim tushdi-yu, bo'shashib o'tirib qoldim! Tamom! Hammasi tamom bo'ldi! Robiya ko'rdi. Hammasini ko'rdi. Vino shishasi, Umar akamning telpagi, qo'shaloq yostiqli to'shak... hammasini! Sho'rim qursin! Hoziroq borib oqizmaytomizmay Duma cholg'a, qora mo'ndi onasiga chaqib beradi. Ertaga uzun-qisqa bo'lib boshimga kelishadi. Sharmanda bo'ldim! Urushda jon olib-jon berib yurgan Shomurodning xotini buzuq ekan, rais bilan tutib

olishibdi, undoq-bundoq, degan gap No'g'ayqo'rg'on-dan tortib Ko'tarmagacha tarqaladi. Onamning qulog'iga yetsa nima deydi? El-yurt, mahalla-ko'y o'rtasida qanday bosh ko'tarib yuradi, bechora!

Qiziq, zum o'tmay, xayolimga butunlay boshqa o'ylar keldi. Xo'p, shu bilan nima bo'пти! Umar aka meni yaxshi ko'radimi? Ko'radi! Uylanadimi? Uylanadi! Kimning nima ishi bor? Gapirganlar bir oy gapirar, ikki oy gapirar... Boringki, bir yil vaysar!.. Shomurod akam ham taqdirga tan berar... Axir bu – ko'ngil ishi-ku! Birovning ko'ngliga birov buyruq beroladimi? Xudoga shukr, biz feodalizm jamiyatida yashayotganimiz yo'q! Qaytaga yaxshi bo'ldi. Uch oydan beri boshimda osilib turgan qilich bo'ynimga tushdi. Endi hadiksirab yashashdan qutulaman. Bo'lar ish bo'ldi, bo'yog'i sindi! Endi qo'rqadigan joyim yo'q!

Shu xayol dalda berdi-yu, Umar akamning telpagini qo'ltig'imga qistirib yo'lga tushdim. Ko'chalar kimsasiz, hamon jala quyar edi. Chaqmoq chaqib, yo'ldagi halqoblarni oynadek yoritadi. Momaqaldiraq yengil tortib guldiraydi.

Choyxona berk, klubda chiroq yo'q. Faqat Umar akamning tunuka tomli uyidagi temir panjarali baland derazasidan xira nur tushib turardi. Xayriyat, uxlamagan ekan. Eshikni mushtim bilan taqillatgan edim, ochilib ketdi, zanjiri ilinmagan ekan. Hovli etagida yotgan buzoqdek ovcharka vahshatli akillab darvozaga yugurdi.

– Qoplon! – dedim itning yomg'irdan ho'l bo'lib ketgan boshini silab. – Tanimadingmi?

It tanidi: dumini likillatib g'ingshib qo'ydi. Oynaband ayvon zinasidan yelkasiga to'n tashlagan Umar akam tushib keldi.

– Kim? – dedi baqirib.

Itning boshini silagancha yaqin bordim.

– Iye, Ra'noxon!– Umar akam imo qildi.– Marhamat!

O'ninchi lampa yoritib turgan uyga ketma-ket kirdik. Bu xonadonda hamma narsa menga tanish. Kavshandozdagi Umar akamning piymasi bilan qaytarma qo'njli etigidan tortib, yerdagi qip-qizil gilamgacha,

burchakdagi sim karavotdan tortib, karavot tepasida, devordagi mixga ilib qo'yiladigan qamchigacha, taxmondagi ko'rpalar-u, ular orasiga qistirilgan choy-shablargacha...

– Qadamlariga hasanot! – dedi u to'nini karavot ustiga tashlab. – Xush kepsiz!

Yana o'sha mulozamat!

Odati shu. Ishi bitguncha «sen»laydi-da, keyin rasmiy odamga aylanib, «siz»lashga o'tadi.

– Keldim! – dedim iloji boricha xotirjam gapirishga urinib. – Yarashmabdimi? O'z uyimga keldim. Endi hech qayoqqa ketmayman!

Ko'ziga qarab turibman. Niyati yaxshi bo'lsa, sevinadi, niyati buzuq bo'lsa, qo'rqadi.

Suyunmadiyam, qo'rqmadiyam! Deraza tokchasida yotgan qutidan papiros olib tutatdi.

– Ra'no, – dedi sekin, xotirjam ohangda. – Bolani qo'rqitganim chatoq bo'ldi.

– To'g'ri, bolada nima gunoh? – dedim men ham o'sha alpozda. – Komil tabibning o'g'li ekan.

– E! – U jahl bilan qo'l siltadi. – Tabib kim bo'пти o'zi! Gap bundamas. – U bir zum jimib qoldi-da, kafti bilan papiros tutunini haydadi. – Qayoqdan bilanman! O'g'ri deb o'yladim! Yarim kechada birovnikida pishirib qo'yibdimi! To'g'rimi?

Uning jon kuydirib o'zini himoya qilishga urinishi g'ashimni keltirdi.

– Yosh bola o'g'rilik qilmaydi, – dedim sekin.

– Bo'lmasa nega devordan oshib tushadi? – Uning ko'zi g'azabdan qisilib ketdi. Derazani sharaqlatib ochib, yomg'ir shovullab turgan hovliga papirosni uloqtirdi. – Anavi-chi, anavi nimaga kepti? Tushuntiringmi? Hisob-kitob qilib o'tirgandik, dedingmi?

– Aytsam-aytmasam o'zi tushundi. – Qo'ltig'im-da turgan chaqmoq telpakni uzatdim. – Hammasini ko'rdi.

– A? – Umar akamning rangi quv o'chib ketdi. Tashqarida chaqmoq chaqib, yuzi yanayam oqarib ketgandek bo'ldi. – Nimani tushunadi? Nima dedi?! Gapirmadingmi axir. Biz ish bilan...

U shu qadar esankirab qolgan, shu qadar bidir-bidir qilib gapirardiki, ko'nglimdagi umid chirog'i o'chib qolayotgandek tiz cho'kib, yalang oyoqlarini quchoqlagancha yig'lab yubordim.

– Umar aka! Jon Umar aka! Meni nikohingizga oling! – dedim yolborib. – Jonimdan to'yib ketdim. Ajalidan besh kun burun o'lmasin desangiz, nikohingizga oling! Qiynalib ketdim, Umar aka!

Tashqarida ketma-ket chaqmoq chaqar, lampaning nuri yashin yolqinida xiralashgandek, uy ichi oppoq yorishib ketar, men bo'lsam, hamon uning sarpoychan oyog'ini qo'yib yubormasdim.

– Oling meni, Umar aka, halollab oling! Axir yaxshi ko'rasiz-ku meni, o'zingiz aytgansiz-ku!

Bir mahal u titroq qo'llari bilan boshimni siladi.

– Jonim! – dedi ovozi qaltirab. – Bilasan, sen mening xotinimsan. To'g'rimi? – u cho'kkalab o'tirgancha yuzimdan o'pdi. Negadir lablari sovuq edi. – Sen menikisan! – dedi ko'zimga tikilib. – Aql bilan ish qilaylik. Sen aqlli xotinsan-ku, Ra'no!

U qo'ltig'imdanda ko'tarib, yoniga o'tqazdi. Yelkamdan quchoqlagancha uzoq jim o'tirdi-da, o'ksik xo'rsindi.

– O'zing o'yla, Ra'no. O'rtamizda bir kosa suv qo'yib, nikoh o'qitish hech gapmas. Xohlasang ertagayoq shu ishni qilamiz.

– Xudo xayringizni bersin! – dedim hiqillab. – Jonimdan to'yib ketdim!

– Shoshma! – u yana boshimni siladi. – Xo'p, sen aytgandek bo'ldi deylik... Keyin nima bo'lishini bilasanmi? Buyog'ini o'yladingmi hech?

U yog'i bilan nima ishim bor? Nari borsa odamlar g'iybat qilar. Qilsa qilavermaydimi? Qayrilib qaragan edim, yoshli ko'zimdan o'pdi.

– Tentak! – dedi jilmayib. – Agar shu ish ovoza bo'lsa sovet jangchisining xotiniga ko'z olaytirgan rahbar sifatida meni nima qilishlarini bilasanmi?

U o'rnidan sapchib turdi. Deraza tokchasida yotgan kumush portsigardan papiros olib chekdi.

– Ertaga senga uylanaman, indinga shtrafnoy batalyonga jo'natishadi: Abdurahmonov otishga o'q

topolmay yuribdi o'zi. – U tepamga kelib, har so'zini ta'kidlab hayqirdi: – Oyoq-qo'limni bog'lab shtrafnoy batalyonga jo'natadi. Tushundingmi? Oldingi liniyaga, dushmanning o'qiga! Rozimisan! O'n kundan keyin mendan «qoraxat» kelsa xursand bo'lasanmi?

Tag'in yig'lab yubordim.

– Nima qilay axir, Umar aka! Nima qilay! El-yurt o'rtasida qay yuz bilan bosh ko'tarib yuraman! Sho'rim qursin!

– Xotirjam bo'ling! – Umar aka tag'in sizlashga o'tdi. Tishlarini g'ijirlatib, qat'iy ovozda ta'kidladi. – Sizning obro'yingizga putur yetmaydi, o'rtoq tabelchi! Komilning o'g'lini tinchitish oson. Anavi... Robiyan-gizga kelsak, o'sha unsurvachchaniyam tilini qisiq qilib qo'yish qo'limizdan keladi. – U tag'in yonimga o'tirib yelkamdan quchdi. – Asalim, baribir sen menikisan-ku, jonim. Menga ishonmaysanmi? Bo'ldi! Yig'laganingda-chi, yanayam chiroyli bo'lib ketasan!

O'n oltinchi bob

UMAR ZAKUNCHI HIKOYASI

Tagingda oting bormi, uzangi uzilguncha surib qol!

Yomon ish bo'ldi! Qo'ymijoz Komil tabibning mi-shiqi bolasini sariq chaqaga olmayman. Qo'rqadigan joyim yo'q! Hamma gap tabibning urushda yurgan to'pchi o'g'lida. Hayronman, ko'zoynak taqmasa ovqat yeyishga og'zini topolmaydigan bu shapko'r, qandoq qilib shundoq ordenni oldiykin! Jangovar Qizil Bayroq ordeni-ya! Salkam Qahramonlik unvoniday gap. Raykom sekretari o'rtoq Abdurahmonovning shaxsan o'zi kol-xozga kelib majlis o'tkazgan bo'lmasayam mayliydi. Kambag'alni izzat qilsang, chorig'i bilan to'rga chiqadi! O'sha majlisdan keyin tilini bir qarich qilib, kaltak yegan bolasini yetaklab, raykomga borsa nima bo'ladi? Avvalgi rahbarlar bilan oramiz yaxshi edi. Bunisi yangi odam, o'lgudek nonyemas ko'rinadi. O'sha kuniyam So'poq damlab qo'ygan oshga turmay ketdi-qoldi. Bunisiyam

mayli. Anavi ikkala cholni prezidiumga chaqirgani-chi? «Kolxozni opichlab katta qilgansizlar» dedimi? Komil tabibni ko'rib: «Iye, sizmisiz», deb quvonib ketdimi? Bundan chiqdi, hammasini taniydi. Hammasining tili bir. Ertaga raykomga borib arz qilsa... O'sha kuni Abdurahmonov keta turib nima dedi? «Qarsakbozlikka o'chroq ko'rinasizmi, rais!» Qarsak chalsam sening hurmatingga chaldim-ku, noshukur banda! Xursand bo'lish o'rniga... Ana, dohiymizning o'ziga soatlab qarsak chalishadi-ku! Indamaydi-ku! Sen kim bo'psan?!

Yo'q, eng avval tabibni tinchitish kerak. Ko'nadi! Ko'nmay qayoqqa borardi. Boringki, bolamni qo'rqi-tibsan, deb zakun talashgan chog'idayam o'ziga jabr qiladi. Qo'lidan nima kelardi? Men tabelchi bilan kundalik hisobotni ko'rayotgan edim. Birov devordan tappa oshib tushdi. Kolxoz rahbarimanmi, axir! Hozir yaxshidan yomon ko'p, qorong'ida qayoqdan bilaman, tabibning o'g'limi, urushdan qochgan dezertirmi! Tutib olmoqchi bo'ldim, vassalom!

Boringki, o'rtoq Abdurahmonov so'rab qoldi: ot-chyotlarni nega idorada emas, eri frontda yurgan ayol-ning uyida ko'rasiz, dedi. Nima qipti! Tabelchi idoraga kelmadi. Betob bo'lib, uyiga ertaroq qaytgan ekan. Bugungi hisob-kitob ertaga qolib ketmasin deb o'zim bordim. Rais degani xo'jalikning otasi bo'ladimi axir! Nima, ota o'z qizining uyiga borishga haqqi yo'qmi! Shundan gap chiqarishning o'zi uyat emasmi!

Ana shunaqa, o'rtoq Abdurahmonov! Front orqasida jon olib-jon berib yotgan bir zahmatkashga tuhmat qilish, bolshevikka yarashmaydigan ish deb o'ylayman! Ayniqsa, frontovikning xotinini chalplashga hech kimning haqqi yo'q.

Boringki, tabib raykomga bormadi. Bormaydiyam bu qo'ymijoz! Lekin chopqillab borib, Oqsoqolga maslahat soladi. O'zi kolxozda ikkita g'alamis bor. Bittasi Oqsoqol, bittasi – Duma! Elni shular buzib yuradi. Ammo ikkalasiyam allaqachon o'yindan chiqqan! Hayot ham qarta o'yindek gap. Tuzmi, kuzurmi – baribir – o'yindan chiqdimi, tamom. Sariq chaqalik qimmatini qolmaydi. Bir chekkada qalashib yotaveradi. Oqsoqol

bilan Husan duma ham shunaqa – o'yindan chiqqan qartalar! Biri raislikdan, biri brigadirlikdan tushganiga olti yil bo'lyapti. Bilaman, ikkalasiyam alamzada. Lekin olti yildan beri hech baloni eplolmagan chollarning qo'lidan endi nima kelardi! Shunaqa-ku, ammo o'sha oxirgi majlisda Abdurahmonov bularni nega muncha laganga soldi? Niyati nima?!

Qiziq, yangi kelgan kunim kolxoz a'zolari meni rais qilib saylashga qarshi bo'lganida Orif oqsoqol nimaga yonimni oldi? Nega birinchi bo'lib o'zi ovoz berdi? Buyam yetmagandek, hashar boshlab, mana shu uyni qurib berishga nima uchun bosh-qosh bo'ldi? Qo'rqqanidan qildimi? Yo'q, Oqsoqol ilonning yog'ini yalagan odam! Qani, ko'raylik-chi, qayoqqacha borarkin bu bola, deb o'yladi. Chuchvarani xom sanabsan, Oqsoqol! Sen shoxida yursang, men bargida yuraman! Sen o'ylagandan ko'ra uzoqqa, juda uzoqqa ketaman hali! Mana, oltinchi yil ketyaptiki, «Qizil dehqon» rayonda eng ilg'or xo'jalik. Buni Abdurahmonovning o'zi ham tan oldi. Xo'sh, shu ishlarni savodsiz Oqsoqol qildimi, menmi? To'g'ri, Oqsoqol otdan tushsayam egardan tushgisi kelmaydi. Bolalaridan «qoravat» kelgan kuni meni haqorat qildi. Bilaman, buyam alamidan. Kim o'zi u? Men kimman-u, u kim? Filga akillagan laychadek gap! Savodi bo'lmasa, ilmi bo'lmasa, avvallari bir emas, ikki o'g'lim tankist deb ko'kragiga urib yurardi, endi ular ham yo'q. Uzatgan qo'li qayoqqa yetardi! O'ziyam keyingi paytda kaltaklangan itday dumini qisib qoldi-ku!

Duma-chi? Duma kim bo'пти?! Xohlasam, ertagayoq rabochiy batalyonga jo'nataman! Yoshi oltmishga yetmagan, ataylab pasportini o'zgartirib olgan deyman, tamom! Qo'limda shunaqa dalil borki, xohlasam Dumaning xonumonini kuydirib yuboraman. Uyida anavi xalq dushmanini saqlaganmi – saqlagan! U yog'ini so'raganda, Duma ilondan qolgan ilonvachchani – Robiyani boqib katta qildimi – qildi! Tog'am – tajribali yurist. Samadovning bir vaqtlar tog'amga tish qayragan, davlatga qarshi tashviqot olib borgan o'sha Samadovning xalq dushmani ekanini yaxshi biladi. Oqsoqol bilan

Duma o'sha jinoyatchi domlaga hamtovoq bo'lganmi – bo'lgan. Kim bilsin, balki ikkala chol maslahatni bir yerga qo'yib qizini ataylabdan izimdan yuborgandir! Juda yaxshi-da! Izimdan yurish qanaqa bo'lishini ko'rsatib qo'yaman! Aslida bu ham Sovet davlatiga qarshi qo'poruvchilik!

Charchadim. O'lay agar charchadim. Ming la'nat urushigayam, raisligigayam! Bilmaganlar amaldor odamga oson tutadi. Yegani oldida, yemagani ketida, nima desa og'zining yeli deb o'ylaydi! Bo'lmagan gap! Amal kursisiga mindingmi, boshingga temir qalpoq, oyog'ingga temir paypoq kiyib olishing kerak. Ana shundagina o'zingdan yuqoriroqda turganlar boshingga tepsa, joning huzur qilganday iljayasan. Yo'q, faqat iljayishning o'zi kamlik qiladi. Oyog'ini yalaysan. Qancha qattiq tepsa, shuncha ishtaha bilan yalaysan. Yalamay ko'r-chi! Bir tepadi, ikki tepadi... Uchinchisida chiqqan joyingga tiqib yuboradi! Shunaqa! Amaldorlikniyam chidaganga chiqargan, azobiga chidaysan. Lekin amaldor bo'lishning yaxshi tomoniyam bor-da! O'zingdan pastroq turganlarni temir paypoq kiygan oyog'ing bilan tepasan! O'shanda joning haqiqatdanam rohat qiladi. Odamlar sendan qo'rqsa, ko'zingga qarab mo'ltirab tursa, bundan ortiq rohat bormi? Bo'lmasa, uyam odam. Boshi dumaloq, choti ayri. Lekin to'g'ri gapirasanni, noto'g'rimi, baribir ta'zim qilib turadi! Qandoq yaxshi! Rahmdil odamdan rahbar chiqmaydi. Xalq nima? Podaday gap! Savalab tursang yo'lingga yuradi. Bo'lmasa har bitta ahmoq demokratiya deb ayyuhannos solishdan toymaydi... O'rtoq Stalin to'g'ri aytadi: rahbar qahrli bo'lishi kerak. Yo'q, raislik kursisini osonlikcha topshiradigan ahmoq yo'q! Men senlarga Orif oqsoqol emasman...

Tong yorishib qoldi. Tashqarida jala tindi shekilli, tunuka tomning bo'g'iq guvillashi to'xtadi. Yonimda Ra'no yotibdi. Sochlari parishon yoyilgan, tarang ko'kragi ochiq, g'ira-shira tong nurida oppoq yuzi yanayam tiniqroq ko'rinadi. Iyagidagi jimitdek xoli qop-qora, o'pgisi keladi odamning! Dumba yegan chaqaloqdek shirin tamshanib uxlashini-chi?!

Nimagayam ilakishib qoldim shu xotinga? Qurmagur o'ziyam boshqacha-da! Qoyilman! Birovning qo'ynida yotgan suyukli xotinini yulib olish osonmi? Bunaqa ishni qarchig'aydek chaqqon, sherdek dovyurak odam eplaydi. Hali oyog'imga yiqilib yig'ladimi! Voy tentag-ey! Dunyoning ishlari shu ekan-da! Avval sen uning oyog'iga yiqilasan, keyin u senikiga yiqiladi. Asli hayotning turgan-bitgani oldi-berdi ekan-da!

Qo'qonda uylanganim, xotinimga ko'nglim ilimay ajrashganimni biladimi bu – yo'qmi? Biladi! Odamlar qo'yga o'xshaydi! Suruvda bitta qo'y ma'rasa hammasi jo'r bo'lganday, bitta odam «g'ing» etib gap chiqardimi, bas! Boshqalari qo'shilishib vaysayveradi. Rais bo'lgan kunimdanoq kolxozchilar mening o'tmishimni titkilagani aniq. Xo'sh, nima bo'пти? Qo'rqadigan joyim bormi! Hammasini zakonniy qilganman. O'shanda akam norozi bo'lib uydан haydashgacha borgan edi. Ahmoq! O'zing kimsan! Nari borsa bitta bo'zfurushsan-da! Xotinimni sen emas, men quchoqlab yotaman-ku, ovsar! Men bilan nima ishing bor? To'g'ri, akam obi-diyda qilganicha bor. Nima bo'lganida ham xotinining oldida yuzi shuvit: qayinsinglisi ko'nglimga o'tirishmay qoldi. Sovuqmi-yey, nima balo? Yaqiniga borsam atir o'rniga achimsiq ter hidi keladi.

Yaxshiyam tog'am Toshkentga ishga kelgan ekan. Jonimga ora kirdi. Chor-atrofdа prokuror tog'amning nomini eshitganda tizzasi qaltiramaydigan odam yo'q edi. Shu kishi bo'lmasа yuridik texnikumni bitirgan o'rta mutaxassis sifatida bironта gadoy topmas advokaturada yurardim-da, ivirsib. Qolaversa, avvalgi raykom – Alixon aka tog'amning qil o'tmas o'rtog'i edi. Xo'p zamonlar ekan-da, o'shanda! Raislikka saylashayotganida agronomiyani yaxshi biladi deb maqtashgani-chi! Nima, noto'g'rimi? Rayonda sabzavot planini birinchi bo'lib bajarib kelayotgan kim? Xo'jayev! Frontga eng ko'p mahsulot yuborayotgan kim? Xo'jayev! Mudofaa fondiga eng ko'p mablag' ajratayotgan kim? Xo'jayev! Bitta rais bo'lsa menchalik bo'ladi-da! Mana, kolxozni ipidan-ignasigacha bilib oldim. Dehqon bolasi yer ilmini bilmaydimi? Uyog'ini so'ra-

sa – yuristman! G'iring degan noshukur bilan zakun tilida gaplashib qo'yish qo'limizdan keladi...

...Nega cho'chiydi bu? Tushiga eri kirdimi, nima balo?! Qurib ketmagur, ofatijon-da, o'ziyam. Olov-da, olov! Birinchi marta ko'rganimdayoq yuragim jiz etgani bejiz emas ekan. Aslida-ku, Shomurodni kolxozdan ko'chirib yuborish niyatim bor edi. Tekstilda ishlaydi. O'zi kolxoz yerida tursa, tomorqasi bo'lsa-yu, dalaga chiqib, ketmon chopmasa! Borsin o'sha fabrikasiga!

To'yi bo'lgan kuni kimxob parangi yopingan kelinni uzoqdan ko'rganimda unchalik e'tibor bermagan edim. Raz kolxozning otasi ekanman, hammasining to'yiga borishim kerak. Ammo bir haftadan keyin Shomurodning uyi oldidan o'tib keta turib, kelinni ko'rdim-u... Tong-saharda kolxozchilarning eshigini taqillatib yurgan edim. Qishloq odamlari mug'ambir bo'ladi. Kun chiqmasdan xotini uyg'onadi-yu, dalaga borish o'rniga sigir sog'adi, non yopadi. Erlari yalpayib yotadi. O'zining tomorqasida baloday ishlaydi, kolxozga beli qayishgisi kelmaydi. Qamchilab turmasang kolxozning ishi o'lda-jo'lda qolib ketaveradi.

Raz Shomurod kolxozda yashaydimi, tomorqasi bormi, xo'jalikdan hech bo'lmasa bir kishi dalaga chiqsin! Avval bo'ydoq edi, endi xotini bor. O'sma-surma qilib o'tirmay ketmon chopsin!

Shuni aytib qo'yish uchun otni niqtab, eshigiga borsam... yong'oq tagida atlas ko'ylak-lozim kiygan kelin yer supuryapti. Qirqkokil sochining yarmisi yelkasidan oshib yerga tegay-tegay deb turibdi. Yuzini aniq ko'rmasam ham yuragim gupillab ketdi. Boldirini siqqan jiyakli lozim, ko'ylagini turtib chiqqan ko'ksi, xipcha beli shunaqangi ofatijonki...

Jilovdan tortishim bilan ot kishnab yubordi. Kelinchak xayol surib turgan ekanmi, hurkovich kiyikdek sapchib tushdi. «Voy» dedi-yu bir qo'llab yuzini yashirdi. Qo'lidan supurgisi tushib ketdi.

– Qo'rqmang, kelin, – dedim-u ovozim titrab ketganini sezdim.

Kelin yelkasi osha yoyilib tushgan sochini orqasiga olib tashladi. Salom berib, kaftini yuzidan olgan edi,

tomog'im quruqshab ketdi. Nuqul yutingim keladi. Yo, tavba, shunaqayam go'zal qiz bo'larkan jahonda! Hozir yig'lab yuborishga tayyordek pirpirab turgan uzun kipriklari, ham hayrat, ham hadiksirash bilan boquvchi qop-qora ko'zlari, o'sma qo'yilgan qayrilma qoshi-yu, xina surilgan qo'llari, bilaguzuk taqqan oppoq bilaklari...

– Kuyov ishga ketdilmarmi? – dedim boshqa gap topolmay.

– Ha... – Kelin cho'chib tushganidan xijolat chekdi shekilli, jilmaydi. Oppoq yuzi qizarib, yorishib ketganday bo'ldi. – Bugun birinchi smenadalar, – dedi sekin. Noz qilgandek chiroyli qoshini chimirib kulimsiradi. Shu turishida, «ko'rdingizmi, noinsof kuyovni, mendek parini tashlab, ishiga ketib qoldi», deganga o'xshash ma'no bor edi. Bilmadim, balki men shunaqa deb o'ylagandirman.

O'zimni bosib, jilovni tortdim.

– Kelin, – dedim iloji boricha sovuqqon ohangda. – Men Shomurodni yaxshi bilaman. O'zimizning yigit. Mayli, xohlagan smenada ishlayversin. Ammo kolxozda yashagandan keyin hech bo'lmasa bittangiz dala yumushlariga qarashib turganingiz ma'qulmikin?..

– Voy! – Kelin ko'zimga hayrat aralash istig'no bilan qaradi. – Menam fabrikada ishlayman-ku!

Bu gapni shunaqa shirin ishonch bilan aytdiki, tag'in esankirab qoldim.

– Mayli, chillangiz chiqsin, keyin bir gap bo'lar, – dedim-da, otimga qamchi urib choptirib ketdim. O'zimni shuncha zo'rlasam ham, kuchim yetmadi: ellik qadamcha borgandan keyin orqaga burilib qaradim. Kelin bir qo'lida supurgi bilan nim tabassum qilib qarab turganini ko'rdim-u yuragimga o't tushganday bo'ldi. Ajab, yursam ham, tursam ham ko'z o'ngimdan ketmaydigan bo'lib qoldi. Ertalablari ataylab eshigining oldidan o'taman. Ba'zan yong'oq tagida shakarob qilib suv sepayotgan bo'ladi, ba'zan sochi yelkasiga yoyilib ko'cha supurayotganining ustiga kelib qolaman. «Hormang, kelin», deyman-u, to'xtashga qo'rqib, o'tib ketaman.

Urush boshlanib, hammaning tashvishi ko'paydi. Mening-ku, bronim bor. Shomurod nimaga ketmaydi? Kolxozchi bo'lsa-ku, voyenkomat bilan gaplashib,

zing'illatib urushga jo'natardim! Tekstilga kuchim yetmaydi-da! Xayriyat, uniyam gali keldi. Hech kimni kuzatishga bormasam ham Shomurodnikiga bordim. Yuragim laxcha cho'g'dek yonib ketyapti-yu, Ra'noga qayrilib qaramayman.

Rosti, o'sha kuni Ra'noning keksa onasiga rahmim keldi. Rais sifatida unga otalik qilaman, degan gapniyam chin yurakdan aytdim. O'lay agar, Ra'noni kolxozga olib kelib, tabelchi qilib tayinlaganimda ham shaytonga hayf berib yurardim. Ammo Yangi yil kechasida So'poqning uyida o'tirish qilganimizda, tog'am hamiyatimga tegadigan og'ir gap qildi.

– Seniyam oyog'ingni to'rtta qilaylik, mundoq, nima balo yo mijozing sustmi? – Bu gapni kulib aytdi. Dasturxon atrofidagi yurist o'rtoqlari hazilga olib, kulgiga qo'shilgan bo'lishdi. Ammo mening yuragim shing'illab ketdi. Mastlik – rostlik! Tog'am shu gapni So'poqning oldida aytib chatoq qildi. Hozir-ku, So'poq egasining suyak tashlashini kutgan itday dumini likillatib yuribdi. Ammo bir kuni oradan gap qochsa-yu dushmanga aylanib qolsa, har nima kutish mumkin undan.

– Hayronman, oka, – dedi So'poq tog'amga qarab. – Hozir daraxtni bir tepsang mingta qiz yog'iladi. Rais yolg'ondan og'iz solsalar, rostdan ostonalariga kelib yotib oladiganlar son-mingta! Mundoq ko'z ostiga olganlarini aytсинlar, o'zimiz sovchi bo'laylik. Biz ham to'yning oshini yeylik bundoq, a labbay?! Uyog'ini so'rasangiz, shundoq kuyovga o'zimiz ham...

So'poq iljayib ko'zimga qaradi-yu g'azabdan titrab ketganimni ko'rib ovozi o'chdi. «Ahmoq! Hozir o'z huzurini o'ylaydigan zamonmi! Urush ketyapti, xunasa!» Vajohatimni ko'rib, itday dumini qisib qoldi. Choyni yangilash bahonasida uydan chiqib ketdi.

Gap boshqa yoqqa aylandi-yu xayolimga lop etib Ra'no keldi. Qo'lidan supurgi tushgancha, hurkovich tabassum bilan jilmayib turgan Ra'no! Er ko'rgan xotin erkakni qo'msamaydimi? Kechalari yostiq quchoqlab yotish joniga tekkandir axir... Shunaqa-ku, men jo'n odam emas, rahbarman. Raisman! Kattakon xo'jalikning otasiman. Qaysi ota o'z qiziga... E, otalikka balo bormi!

Nari borsa eridan uch-to'rt yosh kattadirman. Nima qipti? Ungayam yaxshi, mengayam! Shunaqa-ku, dunyo-da bundan nozik masala yo'q. Agar o'zi jon deb turgan bo'lsa hech kimga churq etib og'iz ochmay-di-ya! Bordi-yu eshikdan kirishim bilan dod solib, olamni boshiga ko'tarsa-chi! Ana, sharmandalik! Ham-mayoqqa do'mbira qiladiganlar ozmi?

Tugun ko'tarib, Ra'noning ostonasiga borganimda oyog'im qaltirab turardi. Eshikni qars etib, yuzimga yopadi, deb o'ylagandim. Yo'q, yopmadi. To'g'ri, avvaliga qo'rqib ketdi, ammo haydamadi. O'zi uyiga kirgizganidan keyin, birga o'tirib, birga ichganidan keyin... Bo'ldi-da. To'g'ri! Hammasi to'g'ri! Lekin o'shanda ish bunchalik chuqurlashib ketishini bilmagan ekanman. Bu noma'qulchilikni bir marta qildim, ikkinchi qilmayman, deb ont ichdim. Qayoqda? Uch kun ko'rmasam sog'inib qolaman. Yarim kechada borsam, uxlamay kutib o'tirgan bo'ladi.

Tog'am, donishmand tog'am bir gapni ko'p qaytarardi. «Bu dunyoning jannati ham xotin, do'zaxi ham. Xotin kishiga jilovingni berib qo'ydingmi, tamom! Jannatda yuribman deb, do'zaxga tushib qolganingni o'zing bilmaysan». To'g'ri aytgan ekan. Mana, do'zaxga tushdim. Bugun do'zaxning naqd o'ziga tushdim-qoldim!

Qayrilma kipriklarini pipirratib bemalol uxlashini qarangi! Erining uyida yotgandek! Ertaga meni urushga yuborishadimi, peredovoyda nemis o'qidan o'lib ketamanmi, bunga nima? Eri urushdan kelgan kuni uning to'shagidayam shunaqa – oydek bo'lib yotaveradi-da! Kechasi nimaga haydab yubormadim?!

– Turing! Tong yorishib ketdi-ku!

Seskanib uyg'onishiga o'laymi! Xuddi qayerda yotganini bilmaydigandek. Xuddi bu yerga birinchi marta kelib, birinchi marta yotib qolgandek! Qayrilma kipriklarini pipirratib, shirin jilmayadi tag'in! O'rgildim shirin kerishishingdan!

– Shunaqa uxlabmanki!

– Qolganini uyingizda uxlaysiz!

Darrov sergak tortasan-a! Sochini yoyilib ketgani-chi!

– Choy qo'yaymi?

Xotin kishi tovuq miya bo'ladi-da! Shu topda choy o'tadimi tomoqdan! Nachora, aldab-suldab yo'lga solmasam, yana gapni aylantiradi.

– Bo'la qoling endi! Tong otib ketdi-ku.

Shu-da, mushuk-da, bular! Asabing qo'zib turganda suykaladi. Xuddi ataylab qilgandek.

– Endi nima bo'ladi?

Iltijoli termulishini qara!

– Kechasi nima dedim sizga? Ishingizga borsangiz-chi!

Ana, qo'yib bersang yig'lab olamni buzadi. Kiprigida yosh ilinib turibdi. Bir yig'lashga tushdimi, tamom, kamida yarim soat cho'zadi, bu.

– Iltimos, Ra'no! Sen boravergin. Buyog'ini o'zim to'g'rileyman. Xavotir olma. Xo'pmi, jonim!

«Jonim» emish! Murodi hosil bo'lgan erkakka borib turgan huriliqo ham alvasti bo'lib ko'rinadi. Qizig'i shundaki, sog'inganingda alvasti tag'in hurliqoga aylanadi. Yana «jonim» deysan, «azizim» deysan. Ming la'nat bu yolg'onchi dunyoga!

Bo'ldi-bo'ldi, yosh boladek mung'ayib nima qilasan? Ket degandan keyin ketish kerak-da. Ha, malades! Sendan boshqa g'am-tashvishim yo'qmi!

Xayriyat-ey, qutuldim!

Kechasi nima dedi? Nikohimga olamnishman? Qo'yib bersang hech qayoqqa chiqmayman, deb o'tirib olishdan ham toymaydi. Bu kishim erlik to'kis bo'lib olsinlar-da, azobini men tortay! Xotin kishining mushukdan farqi yo'q, dedim-ku! Orqasini silasang bas, darrov tizzangga chiqadi. Esi bor erkak o'sha zahoti silashni bas qiladi. Yana siladingmi, tomom, o'rmalab yelkangga minadi. Yuzingni yalab-yalab boshingga chiqib olganini o'zing bilmay qolasan. Boshingga chiqdimi, tamom! Ikki dunyoda qaytib tushmaydi. Xohlasa yong'oq chaqadi, xohlasa – tosh. Bu kishiyam muloyim bo'lib boshimga chiqmoqchi! Chuchvarani xom sanabsan! Tizzamda o'tirish yoqadimi, marhamat, o'tiraver, ammo boshimga chiqarmayman. Yoqmasa – pisht! To'rt tomoning qibla!

...Gung otboqar jiyronimga yem berib turgan ekan. Darrov egarlab, jilovini qo'limga tutqazdi. Olisdagi tog'lar qizg'ishtob tusda tovlanib ko'rinar, hali quyosh chiqmagan, ammo kun yorishib ketgan edi. Choyxona oldidan o'tayotganda ot hovuzga talpindi, chanqabdi. Padaringga qusur soqov! Jonivorni sug'orishgayam eringan! Kolxozda narisi bilan oltita ot qolgan o'zi. Oltita otni parvarish qilganiga bir ish kuni yoziladi-yu, shu arzimas yumushniyam yolchitmaydi. Hali shunaqangi savalayki, joni og'riganidan tili chiqib ketsin!

Otning jilovini bo'sh qo'ygan edim, ildamlab, hovuz bo'yiga bordi.

Gulsafsarlar nish chiqarib yotgan yumshoq sohilga avaylab tuyoq bosgancha suvga tumshuq soldi. Loyqa suv chetida halqob bo'lib to'dalanib qolgan o'rik gullari parokanda qalqib ketdi. Iye, o'rik gullabdi-da! Qiziq, kecha guli ochilmagan edi shekilli. Bilmadim, esimda yo'q. Har qalay hovuzning to'rt tomonida zich saf tortib turgan, har yili kallaklanaverib tanasi yo'g'onlashib ketgan tollar orasida bir tup o'rik chaman bo'lib gullabdi. Kechagi shamol aralash yomg'irda to'kilgan nimpushti gullar hovuz yuzini qoplab olibdi. Ana, ot tumshug'ini tiqqanda qalqib ketgan gulbarglar sekin-sekin suzib borib, hovuz o'rtasiga to'planib qoldi.

Qiziq, anavi yoqlarda – urush bo'layotgan joylarda haliyam qor belga ursa kerak! Bu yerda bahor, u yoqlarda qahraton qish. Ertaga lop etib Abdurahmonov chaqirib: «O'rtoq Xo'jayev, raislikni topshirasiz, ma'naviy buzuq ekansiz», deb qolsa-ya! Abdurahmonov anoyimas. Xohlasa bitta-yu bitta qo'li bilan giribonimdan oladi-da, uloqtirib yuboradi. Do'zaxning kudasiga – peredovoyga borib tushaman. Zakonniy tushaman! Tog'am ham jonimga ora kirolmaydi. Endi u prokuror-mas, mabodo, prokuror bo'lgandayam nima qila olardi. O'zining huzurini o'ylaydi! Shu xotinga ilakishib nima qilardim. Tinchgina yursam o'larmidim!

Yo'q, bir ofatijonni deb begona yurtlarda o'lib ketadigan ahmoq yo'q! Tezroq, tezroq borish kerak. Tabibning tilini bog'lash kerak!

Kecha anovi itvachchasini yoqasidan bo'g'ganimda xirillab qoluvdi. O'lib-netib qolmadimikin ishqilib? Yo'g'-e, anavi jinqarchaning oyog'iga urilib qaddini rostlaganini o'zim ko'rdim-ku. Baribir-da, odam xolis... Har qalay ordenli qahramonning ukasi...

Muncha tixirlik qiladi bu! Ichiga o't tushganmi? Chu-e! Harom o'lgur!

Quruqdan-quruq boraveramanmi? Aqalli o'sha itvachchaga... Shoshma, uyda Qo'qondan yangam berib yuborgan uch-to'rt do'ppi bor edi shekilli. Orasida kichikrog'iyam topilib qolar... Shu-da, bu teskari dunyoning ishlari! Payti kelsa eshakni tog'a deysan! Mayli, ovozi o'chsa bo'ldi. Chu, jonivor!

...Muncha befayz bu tabibning uyi! Yong'oqzor orasigayam joy soladimi odam! Tag'in shundoq jar bo'yida!

Pildirab chiqmas ekansan-a! Eshigingni rais qoqanini bilasan-da! Iye, xotini-ku! Tabib qay go'rda qoldiykin?

– Kun yoyilib ketdi-ku!

– Kechirasiz, rais, dadasi hozir... shaftoli gulidan...

Uzr so'ramay o'li!

– Qanaqa shaftoli guli?

– Dadasi shaftoli gulidan dori tayyorlayotgan edilar. Robiyaxon bechora yerdek yotganmish...

Nega yotadi?... E, menga desa o'lib ketmaydimi, o'sha ayg'oqchi Robiyasi.

– Ustiga ustak qo'y jonivor tug'ib qolsa deng, rais...

Yaxshi! Demak, uydan hech kim hech yoqqa chiqmagan. Tabib anavi Robiyaga shaftoli gulidan dori tayyorlayapti. Xotini yangi tuqqan qo'yi bilan andarmon! Hammasi joyida!

– Iye, muborak bo'lsin! Nechta tug'di?

– Ikkita, rais, ikkita.

– Uni qarang. Qo'zichoqlarni semirtiravering. O'g'lingiz kelganida so'yasiz. Ko'rasiz, Ochilboy albatta qahramon bo'ladi!

– Aytganingiz kelsin, rais! Martabangiz bundan ham ulug' bo'lsin!

– Chaqiring bir minutga xo'jayinni!

Ana, kelyapti, salmoqlab. Qo'lida hovoncha, kiyimi top-toza. Qari bo'lsayam ikki yuzi chiyqondek! O'rgildim oliftagarchiligingdan! Tabiblik qilguncha daladagi ishni epla, Luqmoni hakim!

– Hormang, Komil aka! A, bu kun yoyilib ketdi-ku!

– Hozir, ukam... Husan dumaning qizini traktor tepib, buyragi shikastlanibdi. Shunga... ozgina... Qani, uyga, ukam... Bir piyola choyimiz bor.

Voy qurug'-ey! Kelib-kelib senga uka bo'lib qoldimmi! Choying bilan qo'shmozor bo'l! Orden olgan shapko'r o'g'ling bo'lmasa-ku... Nima dedi? Husan dumaning qizini traktor tepibdi deydimi? Demak, kecha shuning uchun... Mayli, aniqlaymiz... Anavi shay-tonbachchasi qayoqdaykin?

– Rahmat, aka. Boshqa safar... Anavi majlisda... kichik o'g'lingizga atalgan do'ppi qolib ketgan ekan. Olimjonmidi? O'shanga...

Nega iljayadi bu? «Shartmas» emish... Kamtarlik qilyaptimi, tullaklikmi?

– Chaqiring-da, aka, kichkina qahramonni!

...Baloyam urmabdi-ku, itvachchasiga. Ana kelyapti! Bo'z ko'ylagining yengini shimarib olibdi. Qo'llari qonkush... Tezak yuqi... Men bo'lsam, qo'rqqan oldin musht ko'tarar deb...

– Salom qani, o'g'lim! O'zidan katta odamga salom berish farz!

Voy intelligent-ey! Mishiqi bolangni salomiga zor-manmi? Nachora, kelishga keldim, bu yog'iga...

– Qo'ying tug'dimi, Olimjon?

– Hm...

Qovog'ini solishini qarang. Voy xumpar-ey! Bo'riga o'xshab qaraydi odamga.

– Erkakmi, urg'ochi?

– Ikkita. Bittasi erkak, bittasi...

– Malades! Ma, kiyib ol!

Sochining o'sib ketganini qarang. Qulog'ining kirinichi! Hayf senga do'ppi. Ammo nailoj?!

– Kiyaver, seniki shu!

– Men... Hozir, ukam... Onasi, sizam bo'la qoling. Rais to'g'ri aytyaptilar. Dalada ish ko'p...

Ana, tabib hovonchani ko'tarib uyga, xotini etagini lippasiga qistirib, molxonaga zipilladi.

– Menga qara, Olimjon. Sen katta yigitsan-a?

Haliyam qovog'ini ochmaydi. O'rgildim dimoq-firog'ingdan.

– Kecha seni bilmasdan xafa qilib qo'ydim. O'g'ri deb o'ylabman. Bundan keyin birovning devoridan oshib tushmagin, xo'pmi?

– O'g'rilik qilganim yo'q... Men...

Tilini bermaydi, tirrancha!

– Bo'pti! Gapni ko'paytirma! Yana bir marta shunaqa qilsang, seniyam, dadangniyam qamatib yuboraman...

...Yo'li oson ekan-ku! Musichaga ozor bermaydigan mana shu tabib ustingdan shikoyat qiladi deb qo'rqib yuribsanmi?! Kim aytadi seni Zakunchi deb. Yo'lbarsdek vajohating bilan shulardan cho'chidingmi? Shulardan-a?! Hayf-e, sendek raisga!

Endi anavi – Robiya qoldimi? Qo'rqadigan joyim yo'q! Shunaqangi tilini qisiq qilib qo'yamanki, ketimdan o'zi ergashib yuradigan bo'ladi, unsurvachcha. Chu, jonivor! Muncha uchasan? Qamchi yeb o'rganmagan-san-da! Havo muncha tiniq! Olam muncha chiroyli. Muncha tez uchadi bu? Qanoti bormi? Qayoqqa ket-yapman o'zi? Baribir emasmi? Olam yam-yashil bo'lsa, ostingda arg'umoq bo'lsa, uchasan-da! Yangi yil kechasidagi o'tirishda Soli so'poq talinka chertib, nima deb xirgoyi qilgandi?

Arg'umoq ostingdadir, tog'larni kez, bog'larni kez,

Nogahon bu arg'umoq ostingda bo'lgay-bo'lmagay!

Xotintaloq So'pog'-ey! Bilib aytgan ekan! Ostingda oting bormi, uzangi uzilguncha surib qol. Ertaga otingni boshqa odam minmaydi deb kim kafolat bera oladi? Bekor gap! Ostimdagi arg'umoqni birovga berib qo'yadigan anoyi emasman!

Charchadingmi, Qorako'z? Voy-bo'! Terlab ketibsan-ku! Bo'ldi, birodar, bo'ldi. Qaytamiz. Shoshma, sekin... Ha, barakalla, ish boshimizdan oshib yotibdi. Bilasan-ku, odamlarni. Senga-ku, bir qamchi ham ortiqcha... Ammo odamlar arg'umoq emas-da, qaysar eshakdan farqi yo'q. Yuki yengillashdimi, yotib oladi.

B E S H I N C H I Q I S M

O'n yettinchi bob

**BIRINCHI SINF O'QUVCHISI MUZAFFAR
SHOMURODOV HIKOYASI**

Abduvalidan zo'r chiqdim!

Ukamni ko'tarib kelyapman. Hali o'zi yurolmaydi-da! Yurolmaydi-ku, hecham bir joyda o'tirmaydi. O'tqazib qo'ysangiz orqasi bilan surilib, birpasda ancha yerga borib qoladi. Oyimning aytishiga qaraganda erta-indin chopqillab yo'lga kirib ketarmish. O'shanda «Qora ammam» ukamning oyog'i orasidan kulcha yumalatarkan, o'zi aytgan. Juda shirin bola-da, Omon! Hozirgina yig'layotgan edi, darrov ovunib qoldi. Ko'tarib boryapman-u nuqul qulog'imni cho'zg'ilab o'ynaydi. Shu deymen, chap qulog'im osilib, shalpangquloq bo'p qolaman-ov! Qo'limga oldim deguncha shu qulog'imga yopishadi. Hayronman, nimasini yaxshi ko'radi? Qaysi kuni oynaga qarasam, chap qulog'im o'ng qulog'imdan kattaroq ko'rindi. Ana, yana cho'zg'ilayapti.

– Qo'yvorsang-chi!

Qo'yib bo'pti! Yakkam-dukkam tishini ko'rsatib, kuladi tag'in!

Shunday qilib, bugun Abduvalidan zo'r chiqdim. Burnini mo'ljallab turib bir urgan edim, «oyi», deb yig'lab yubordi. Qarasam, burni qonayapti. O'ziyam, mushtimni tugayotganimda o'rta barmog'imni chiqaribroq urdim-da. Voy, qo'lim! O'rta barmog'im sirqillab og'riyapti. Abduvalining tishiga tegdimikin? Nega o'zi g'irromlik qiladi. Buyam mayli, ukamni yig'latgani ayniqsa alam qilib ketdi. Bo'lmasa urmasdim.

Ertaga maktabga borganda baribir Abduvali bilan bitta partada o'tiraman-da. Yana urishamiz shekilli... Ma'suda opaning jahli yomon. Urishsak, ikkalamizniyam darsdan haydab yuboradi... Boshida shu Abduvali bilan bitta partaga o'tirib qolganim chatoq bo'lgan-da! Nima qilay, Ma'suda opa o'tqazib qo'ygan-da! Oyim ham birinchi kun maktabga borayotganimda tayinlagan.

«Abduvali bilan birga borib, birga kelgin, bitta partada o'tirgin», degan. O'shanda dadam menga yap-yangi ko'ylak-shim olib bergan. Oyim ataylabdan jild tikkan. Jildim Abduvalinikidan yaxshi. Yangi-da! Abduvaliniki eski: Mavluda opasidan qolgan jildi. Bandi uch joyida yamalgan, siyoh to'kilgan... Opasi Ko'tarmadagi maktabda – sakkizinchida o'qiydi. Bizning maktabimiz yetti yillik. Sakkizinchi sinfga o'tganlar Ko'tarmaga qatnaydi, o'n yillik maktab bor.

Anavi kuni Mavluda opa nima deydi, deng? «Jildingni o'rtog'ingga bera qol, oying senga boshqasini tikib beradi», deydi. Indamadim. Mavluda opa baqiroq qiz. Sariq-da! Bir nima desang darrov jahli chiqib ketadi. Gapini qarang. Oyim ataylabdan tikib bergan jildni u kishining ukasiga berarmishman. Berib bo'pman!

Oyimning odati qiziq: har kuni jildimga bitta non solib qo'yadi. «O'rtog'ing bilan bo'lashib yegin», deydi. «Qora ammam» kelsa, jildimga jiyda, mayiz to'ldirib tashlaydi. Jildim eshakning xurjuniga o'xshab qoladi. «Alifbe» bilan daftar solishgayam joy yetmaydi. «Kerakmas», desam, jahli chiqadi. «O'qib shahar oberarmiding, bir kun kechroq olim bo'lsang bo'larsan, qorningni to'yg'azib yur», deydi. Nima ko'p – «Qora ammam»ning kelishi ko'p! Nima ko'p – maktabga jildimni qappaytirib borishim ko'p! Orqadagi partada o'tirganimiz uchun Ma'suda opa Abduvali ikkalamizni ko'rmaydi. Darsda yong'oq yeb o'tiramiz. Faqat omon-eson chaqib olsak bo'ldi. Yong'oqni chaqsangiz ovozi chiqadi-da! Doskaga dars yozayotgan Ma'suda opa eshitmaydi deysizmi? Judayam eshitadi-da! Bir-ikki marta dakki yeganimizdan keyin Abduvali bilan buniyam yo'lini topdik. Tanaffusda yong'oqni chaqib oladigan bo'ldik. G'alvirak yong'oqning ikkitasini partaga ustma-ust qo'yib bir ursangiz, ikkalasiyam chaqilib ketadi. Tosh'yong'oqni chaqishniyam iloji bor. G'isht qidirib o'tirmaymiz. Hamma tanaffusga chiqib ketganida men sinf eshigining oshiq-moshig'i yoniga yong'oqni qistirib turaman. Abduvali eshikni sekin yopadi. Tamom! Chaqilgan yong'oq cho'ntakda turibdi-da!

Bir kuni yomon bo'ldi. Tanaffusda chaqib, g'amlab olingan yong'oqlarni yeb o'tirgan edik, Ma'suda opa birdan:

– Shomurodov? – deb chaqirib qoldi.

O'rnimdan sakrab turib:

– Men! – degan edim, og'zim to'la yong'oq mag'zining yarmisi otilib ketdi.

Bolalar xoxolab kulib yuborishdi. Qarasam, Abduvaliyam ikki qo'li bilan og'zini to'sib maza qilib kul-yapti.

Parta ostidan oyog'iga yaxshilab tepgan edim, kulgisi to'xtab, afti burishib ketdi.

Faqat o'qituvchi opamiz kulmadi.

– Nima balo, Muzaffar! Yettita qorning bormi, qachon qarasa jag'ing qimirlaydi-ya?! – dedi.

Tanaffusda ikkinchi sinf bolalari bizni masxara qilishadi. Hammasi baravar qarsak chalib ashula aytadi:

«Birinchi chol, otga beda sol,

Oting yemasa, chaynab sol».

Avvaliga alam qilib yurdi-yu Ma'suda opa bizni yupatdi:

– O'zlariyam bultur birinchi chol edi, qo'yavering-lar!

O'shandan buyon tanaffusda ikkinchilar bilan o'y-namaymiz. O'zimizning o'yinimiz bor. «Mushuk – sich-qon» – qizlarning o'yini. Biz «Qushim boshi...», «Kim urganini top...» o'ynaymiz.

«Kim urganini top...» – zo'r o'yin. Siz yo'lak bur-chagiga borasiz-da, o'ng qo'lingiz bilan qulog'ingizni bekitib, chap qo'lingizning kaftini o'ng qo'ltig'ingizga tiqib, ochib turasiz. Bolalardan bittasi qo'ltig'ingiz tagidagi kaftingizga shapatilaydi. Qayrilib qarasangiz, kamida o'nta bola bosh barmog'ini dikkaytirib turgan bo'ladi. Urgan bolani topib, barmog'ini ushlasangiz, o'rningizga o'zi turib, kaltak yeydi. Topolmasangiz, o'zingizdan ko'ring!

Abduvali ko'pincha g'irromlik qiladi. To'g'ri top-sangiz ham, «men urmadim», deb turaveradi. Bolalar undan qo'rqadi. Birinchidan, hammamizdan kattaroq.

Yig'layotgan Omonni ko'tarib olarkanman, baland keldim.

– Nega o'zi ukamni uradi?

– Shu sening ukangmi, og'zingdan qoning kelgur! – Mavluda dag'dag'a bilan ustimga bostirib keldi. – O'gay ukangga joning shunchalik achidimi, yetimcha – yetti kulcha! Tur yo'qol!

Omonni ko'targancha ko'chaga yugurdim. Mavluda burnidan qon oqib yig'layotgan Abduvalining boshiga bordi.

– Shu shumqadamdan boshqa o'rtoq qurib qolganmi, juvonmarg! – deb ukasining boshiga mushtlaganini uzoqdan ko'rib qoldim.

Uyga kelgunimcha Omon ovunib qoldi. Qulog'imni cho'zg'ilagancha og'zidan so'lak sachratib «dzz» deb o'zicha «ashula» aytishga tushdi. Meni ot, qulog'imni jilov deb o'ylasa kerak-da.

Mavluda opa meni nimaga «yetimcha» dedi? E, gapiravermaydimi? Ukasini urganim alam qilgan-da? Yaxshi bo'ldi. Abduvali endi g'irromlik qilmaydi. Faqat lankam qolib ketgani chatoq bo'ldi-da. Qo'lim achishib og'riyapti. Baribir oyimga aytmayman. Urishganimni eshitsa xafa bo'ladi.

Uyga kirsam, oyim azza-bazza ko'rpa-to'shak qilib yotib olibdi. Avvallari biqini og'riganida bir-ikki kun inqillab yurardi-yu, bunaqa o'ralib yotmasdi.

Qo'rqib ketdim. Yoniga Omonni qo'yishim bilan oyimga tarmashdi.

– Jim, – dedim qo'lidan tortib. – Uyg'otib yuborasan! Omon gapga tushunarmidi? Yig'lab yubordi.

Oyim darrov ko'zini ochdi. Terlab ketibdi. Ko'rpadan qo'lini chiqarib, Omonni bag'riga bosdi. Bir qo'li bilan boshimni silagan edi, peshonamga cho'g' tekkandek bo'ldi.

– Nima qildi? – dedim yuragim uvishib.

– Hech nima qilmaydi, bolam! – U jilmayishga urindi. – Buyragim og'riyapti. Hozir... – dedi-da, qaddini rostlamoqchi edi, og'riqdan yuzi burishib ketdi. – Mayli, – dedi ingrab. – Hozir o'tib ketadi.

O'n sakkizinchi bob

ROBIYA HIKOYASI

Alvasti

Juda mehribon-da, shu bolam! Omon-ku, hali kichkina. Endi yo'lga kiray deyapti, nimaniam bilardi. Muzaffarim boshqacha! Ix desam boshimdan ketmay, o'tirib oladi. Mana, hozir ham yig'lab yuboray deyapti. Nima qilaman, bolani qo'rqitib? Oyim kelib qolsa yaxshi bo'lardi. Hayronman, anchadan beri daragi yo'q. Hali dadasi kelsa No'g'ayqo'rg'onga jo'natmasam bo'l-maydi, shekilli. Turish kerak. Cho'zilib yotgandan nima foyda? Endi og'riyotgani yo'q-ku, buyragim! Eski dard. Qancha bo'ldi o'zi? O'n yildan oshdimi? Tuzalib ketgan edi-ku, nima balo! Omon tug'ilganidan beri qaytadan yopishdi. O'shanda traktor tutqichi tepgani bahona shunaqa og'ir kasalga chalinib qolishimni bilmagan edim. Bo'lmasa Komil tabib qancha urindi.

* * *

Jala quyib turgan, Ra'no kelinoyimning uyidan Olimjon ikkalamiz chiqib ketgan o'sha kechada Komil tabib «ziyoni yo'q, ikki-uch haftada san ko'r-man ko'r bo'lib ketadilar», deganida adashgan ekan. Ikki hafta emas, bir oydan ortiq yotib qoldim.

Kunlar ilib, dalada ish qizib ketgan, uyda yotishga iymanardim. Bashor opa besh-olti marta kelib xabar oldi. «Obdan tuzalmaguncha yota tur, ish bo'lsa, o'zimizdan ortmas», deb tayinladi.

Qiziq, so'fi azon aytmasdan odamlarning eshigini qamchi bilan savalaydigan Umar zakunchi bizning darvozaga kelmay qo'ydi. Buni hatto oyim ham sezdi.

– Nechuk Zakunchining qadami uzildi, Xudo yuzini teskari qilgani rost bo'lsin.

Aybi bo'ynida bo'lganidan keyin kelmaydi-da! Oyim Zakunchini gapirishi bilan Ra'no kelinoyim ko'z o'ngimga keldi. Qandoq yaxshi ko'rardim. Kelinoyimga o'xshashni qanday havas qilardim. Nahotki shundoq juvon... Qanday sharmandalik! Zakunchiyam, yangam

ham Robiya g'iybat qiladi, deb cho'chib yurgani aniq! Satqai gapim ketsin! Olimjonga qoyilman. Komil tabib dori-darmon olib shuncha marta kelganida bir og'iz gap ochmadi. Bundan chiqdi, Olimjon hech nima demagan!

Biqinimni changallab bir oy to'shakda yotganimda ikkita voqea bo'ldi. Bittasi quvonchli, bittasi qayg'uli.

Quvonchlisi shu bo'ldiki, bir kuni Xolposh xola tovoqda sumalak ko'tarib chiqib qoldi. Bobom bilan oyim dalada edi. Qish bo'yi yerdek yotgan xolaning rangi joyiga kelib qolganini ko'rib, sevinib ketdim. Oyim ikki gapning birida «ovsinimning ahvoli og'ir, bolalarining g'amida adoyi tamom bo'ldi», deb yurganidan xavotirda edim. Yo'q, binoyidek tuzalib qopti.

– O'z qo'lim bilan qildim, qizim! – dedi sumalakni yostig'im oldiga qo'yib. – Azbaroyi shifo, deb yeb ol! Davo bo'ladi.

U sumalak yalashimni birpas tomosha qilib o'tirdida, ko'zlarida umid yonib, xo'rsindi.

– Og'acha folbinga boruvdim «yo'l ko'rdim» deydi. Qaysi biriligini bilmayman-u, ammo bitta o'g'lingiz tirik, erta-indin yo o'zi keladi, yo xabari deydi. – U bir zum jimib qoldi-da, qo'shib qo'ydi. – Shunisigayam shukur. Zora cholim aytganday kantuz bo'lgani rost bo'lsa.

– Ikkalalarियam tirik, – dedim yupatib. – Shokir akam ham, Zokir akam ham...

– Bittasi kelsayam mayliydi...

Xolposh xola gapiryapti-yu, Kimsan akamni o'ylayman.

Uch oydan oshdi. Na xat bor, na xabar.

Kasal bo'lgan kunimning uchinchi haftalari shekilli... Peshinda oyim eshikdan quti o'chib kirib keldi.

– Quda xolang omonatini topshiribdi, – dedi yig'lamsirab. – Kelinim bechoraga jabr bo'ldi.

Rostini aytsam, Ra'no kelinoyimga yuragim achidi. Hol i nima kechadi endi? Battar qiynalmaydimi? Balki yangamda ayb yo'qdir. Balki anavi Zakunchi qo'rqitib shu yo'lga solgandir. Bunaqa odamdan har narsani kutsa bo'ladi. Sho'rlik kelinoyim!

... Ertalab bobom ishga ketayotib, tayinladi:

– Kechqurun tabibnikiga bor. Yangi dori tayyorlab qo‘yganmish. Yo oying oborsinmi?

Yo‘g‘e, o‘lar endi, oyimniyam ovora qilsam. Tuppatuzuk yuradigan bo‘lib qoldim-ku! Bitta-bitta yurib, o‘zim boraveraman.

Ko‘chaga birinchi chiqishim edi. Ajab, bir oy ichida hammayoq shunchalik o‘zgarib ketibdi!

Ko‘chaning ikki chetidagi mirzateraklar yam-yashil yaproq chiqaribdi. Yotib qolmasimdan ilgari u yer-bu yerda bitta-yarimta o‘riklar endi g‘unchalagan edi. Hozir bo‘lsa pastak devorlar ortidan mo‘ralab turgan olmalar qiyg‘os gulga kiribdi. Biri oq, biri naparmon ro‘mol yopingan kelinchaklardek shodumon suziladi. Hatto Bo‘rijar bo‘yidagi ko‘hna qamishzor ham ko‘klamning yashil bo‘yog‘idan benasib qolmabdi.

Alvasti ko‘prikka yaqin kelganimda charchaganim bilindi. O‘ng biqinimda yana sanchiq turib, terlab ketdim. Nimchamni yechib qo‘limga olgancha, bitta-bitta yurib, ko‘prik ustiga chiqdim. Temir yo‘l quyoshning so‘nggi nurlarida yaltirab yotar, olisda, Ko‘tarma tomonda mollarning ma‘rashi eshitilar, yong‘oqzor ortidan nimtatir tutun ko‘tarilar edi.

Tag‘in jar bo‘yiga tushdim-u yolg‘izoyoq so‘qmoqdan yurib ketdim. Toqqa jala quygan bo‘lsa kerak. Bo‘rijar loyqalanib avvalgidan ham dahshatliroq guvillar, tor ko‘prik ostiga kirib ketar edi.

Ajab! Avvallari Alvasti ko‘prikdan o‘tish desa yuragim bezillardi. Hozir qo‘rqish xayolimga ham kelmadi. O‘sha kuni Ra‘no yangamnikida ko‘rgan dahshat oldida Alvasti ko‘prik nima bo‘pti? Bo‘ldi! Endi men yosh bola emasman. Dunyoda shunaqa vahimalar borki, qarshisida mingta alvasti ip esholmaydi! Ke, qo‘y! Har kim qilsa o‘ziga qiladi. Baribir, qiyin bo‘lgandan Ra‘no kelinoyimga jabr bo‘ldi. U yoqda onasi o‘lgan bo‘lsa, bu yoqda anavi Zakunchi tinch qo‘ymasa! Bular-ku mayli, Shomurod tog‘amda nima gunoh? Eshitsa ajalidan besh kun burun o‘lmaydimi?

Ana, na‘matak ham gullabdi. So‘qmoq chetida, shundoq jar bo‘yida suvga mo‘ralab turgan och-pushti gullar orasida bulturidan qolgan yirik-yirik na‘matak

donlari ko'zga chalinadi. Hech kim terib olmagan uchun ko'plari yerga to'kilgan, shoxda saqlanib qolganlari esa qish bo'yi qor ostida yotgani uchun qorayib jigarrang tusga kirgan. Lekin bulturgi mevasidan ko'ra bu yilgi gul ko'proq.

O'sha kuni Olimjon bilan o'tirib dam olgan do'nglikka yetguncha nafasim og'zimga tiqilib qoldi. Ichimda tag'in olov yona boshladi.

Do'nglikka tikilib uzoq turib qoldim. O'shanda bu yerda yakkam-dukkan maysalardan bo'lak narsa yo'q edi. Hozirchi? Do'nglikni tizza bo'yi o't qoplabdi. Yovvoyi sarimsoqlar bosh chiqaribdi. Atrofda qizg'aldoqlar lovullab yotibdi. Xuddi birov yoqut parchalarini sochib tashlagandek. Bir oyda shuncha o'zgarish! Bu – qadim dunyoning odamlar bilan nima ishi bor! Bahor kelaveradi, qizg'aldoqlar ochilaveradi, Bo'rijar shovullayveradi. Odamlar esa keladi-yu ketadi. Dunyo o'tkinchi deymiz. Yo'q, dunyo emas, biz o'tkinchimiz. Bahor bir aylanib kelguncha birov tug'iladi, birov o'ladi. Birov-birovni yaxshi ko'radi. Birov-birovning ko'ziga cho'p soladi...

Ertalab oyim dalaga chiqib ketayotganida tayinlagan edi:

– Jon bolam, tabibnikiga borsang, Ko'tarmaga o'tib, Ra'no kelinoyingdan xabar olib kel. Qon yig'lab o'tirgandir kelinim bechora. So'rab ko'r, tog'angdan xat bormikin? O'zim boray desam, daladan beri kelmayman.

Sho'rlik oyim! Ukasining boshiga ne kunlar tushganini bilsa edi! Mabodo tog'am urushdan to'rt muchasi sog' qaytganida ham turmushi turmush bo'ladimi endi?

Bormayman yangamnikiga! Onangiz qazo qilib, boshingizga kulfat tushibdi, kechirasiz, o'sha kungi gapimni qaytib oldim, deymanmi! Qaytib olamanmi-yo'qmi, tog'amga nima daxli bor? Baribir, ko'nglim qolgan odamning oldida iljayib turish qo'limdan kelmaydi!

Komil amakinikiga kirib borganimda namozshom bo'lib qolgan edi. Do'ppidek tor hovli, bir uy, bir ayvon. Burchakda yana bir pastak hujra. Katalak derazalarining singan ko'ziga xitoy qog'oz yopishtirib qo'yilibdi.

Hovli o'rtasida, gulini to'ka boshlagan bir tup gilosga o'ralashib ketgan aymoqi tok ostida taxtalari lopillab turgan eski so'ri. So'ri yonida temirlari zanglagan sim karavot. Karavot ustiga echki po'stagi yozib qo'yilibdi.

Qushburun Lazakat xola aylanib-o'rgilib ko'rishdi. Uyga sudragan edi, ko'nmadim. U so'ri ustidagi qirq-yamoq bo'lib ketgan, ammo ozoda ko'rpachani shoshapisha qoqib, o'girdi-da, teskarisini yozdi.

Qo'y ma'radi. Qarasam ikkita qo'zichoq molxona-ning pastak eshigidan hovliga mo'ralab turibdi.

– Bizniyam yarlaqaydigan kun bor ekan, Robiya-xon!– dedi Lazakat xola dasturxonga bir choynak choy, zog'ora keltirib qo'yarkan. – Sovliq jonivor ikkita tug'di! Hov o'sha siz kasal bo'lib qolgan kechangiz... Dadasi aytdilar. Qo'chqorni semirtirib turadigan bo'ldik. Ochilboy yana bitta orden olsa, komandiri otpuska berarkan. Kelishi bilan to'y qilamiz. Silani sigir ham erta-indin...

– Qaydam, – dedim kiyik o't solingan choydan ho'plab. – Hali bor shekilli.

– Ajabmas, og'zinglar oqarib qolsa. – U yonimga cho'kkaladi. – Oling, aylanay, zog'oradan oling. Ertalab yopuvdim. Kimsanboydan xabar bormi?

Indamay bosh chayqadim.

– Kimsanboy kelishi bilan to'yni boshlab yuboraveringlar. Bizlar ham unashib qo'ydik. Qa'ni tomonda yaxshi qiz bor ekan. Ochilboy otpuskaga kelsa darrov to'y qilamiz. Bir hafta tursayam mayli. Harna to'y ko'rib qolganimiz, o'rgilay.

Nahotki u biznikiga sovchilikka borib, quruq qaytganini unutgan bo'lsa? Axir shundoq qahramon o'g'lining «shoxini sindirgan» men edim-ku! Nimaga bu xotin shunchalik yuragini ochib gapiryapti? O', «ko'rib qo'y, sen bo'lmasang boshqalar bor, qiz zotining urug'iga qiron kelganmas», demoqchimi?

Yo'q, uning gap ohangida istehzo yo'q edi.

– Olimjon qani? – dedim gapni burib.

– Voy, u daladan beri kelarmidi! Zo'raxonga qarash-yapti. Kechasi bilan qolib ketadi. Zo'raxon tuppa-tuzuk traktirchi bo'p qoldi, aylanay. Ammo Olimjon sizni

juda sog'ingan. Qaysi kuni bir kecha yotib ketdi. Nuqul dadasiga xarxasha qiladi. «Opamni tezroq tuzating, opam bilan ishlagim kelyapti», deydi.

– Menam sog'indim!

– Shukur, mana, oyoqqa turib ketibsiz-ku. Iye, ana dadasi keldilar, – Lazakat xola shoshilib so'ridan tushdi. Eshikdan kirib kelayotgan tabib tomonga yugurdi. Xuddi bir oy ko'rishmagandek, eri bilan quyuq so'rashdi.

– Assalom alaykum, dadasi, yaxshi keldingizmi? Charchamadingizmi?

Tabib Lazakat xola suv quyayotgan obdastaga qo'l tutarkan, mening salomimga alik oldi. Shoshilmasdan yuz-qo'lini, quloqlarining orqasini ishqalab yuvdi. Haf-sala bilan artindi.

– Tuzukmisiz, qizim? – dedi ko'zimga tikilib. – Qani, yuring-chi. Chiroq obkeling, onasi!

Ketma-ket yurib nimqorong'i hujraga kirdik. Lazakat xola zum o'tmay mushtdekkina beshinchi lampani yoqib keldi, deraza tokchasiga qo'ydi. Hujra vassajuft-lariga gultojixo'roz-u isiriq, shoda-shoda garmdori, jo-xori so'talari, sariq «boshog'rig'i» o'tlar, yana alla-qanday men bilmaydigan qovjirab qolgan ko'katlar ilib qo'yilgan, xona ichi zax, havosi og'ir, yerga eski, ammo toza namat tashlangan edi.

Tabib xitoy qog'oz yopishtirilgan deraza oldida uzoq turib qoldi. U nimqorong'i hovlidan ko'zi bilan bir nima izlagandek qilt etmas, chamasi, bu yerga nima uchun kirganini unutib qo'yganga o'xshar edi. Chiroq-ning xira yog'dusida siyrak soqolli yuzi o'ychan, xomush ko'rinardi.

Turaverishimni ham, chiqib ketishni ham bilmay, sekin yo'talib qo'ydim. Tabib cho'chib uyg'ongan odamdek yarq etib menga qaradi.

– A? – dedi parishonlik bilan. – Tuzukmisiz endi, qizim? – Yerga cho'kkalagancha og'zi bo'g'iq xaltalarni bir-bir ushlab chiqdi. – Og'riq qoldimi? – dedi menga qaramay.

– Rahmat, doringiz yaxshi ekan.

– Buyrak sal shikastlangan. Jigarni shishgani beziyon – nasib etsa hech nima ko'rmagandek bo'lib

ketasiz. — U xaltachalarni ochib, turli-tuman dorilardan bir chimdim-bir chimdim chimchilab oldi-da, sarg'ayib ketgan qog'ozlarga alohida-alohida o'radi. — Shulardan kuniga uch mahal ichib turasiz. Tag'in bir hafta, — dedi yerga qarab. — Bilaman, uyingizda tovuq yo'q, iloji bo'lsa, Oqsoqoldan bitta tovuq olib, sho'rvasini iching. Nimada olib ketasiz buni?

Dorilarni olib ketishga hech nima obkelmaganim esimga tushib, xijolat bo'ldim.

— Ziyoni yo'q! — U kashnich urug'iga o'xshash allaqanday sarg'ish donalarni qog'ozga to'kib, xaltachasini bo'shatdi-da, qog'ozga o'rog'liq dorilarni o'sha xaltachaga soldi.

— Mana! — dedi ko'zimga qaramay.

Hujra eshigi g'iyqilib ochildi.

— Lavlagi sovub qoladi. — dedi Lazakat xola kuymanib. — Issig'ida yeb ola qolinglar.

— Odamni o'z holiga qo'yanmi-yo'qmi, a?

Umrida hech kimni sensiramagan tabibning shu qadar jahl bilan hayqirishidan cho'chib tushdim. Chamasi, Lazakat xola ham cholidan hech qachon bunday muomala eshitmagan bo'lsa kerak, hayratdan og'zi ochilib qoldi.

— Voy, sizga nima bo'ldi? — dedi ovozi titrab.

Tabib «chiqib ket» degandek yuzini o'girdi. Eshik g'iyqillab yopilishi bilan xaltachani menga uzatdi.

— Bog'ichini bilagingizdan o'tkazib olsangiz, to'kilmaydi.

Beixtiyor tabib aytganini qildim. Bog'ichni bilagimga ilishim bilan xaltachaning og'zi qisilib, yopilib qoldi. Eshik bandiga endi qo'l cho'zgan edim, xo'rsindi.

— Shoshmang, — dedi yuzimga qaramay.

Turgan joyimda to'xtab qoldim.

— Ochilboyni tanirdingiz-a? — dedi u to'satdan.

Indamadim. Nima dey? Ha, tanirdim. Sovchi yuborgan. Yo'q, deganman. Shu bilan nima bo'pti! Shoshma! Nimaga «taniysiz» emas, «tanirdingiz» deyapti?!

— Qizim! — U o'tirgan joyida sekin boshini ko'tardi. Siyrak soqoli titrar, xira chiroq nurida jiqqa yoshga to'lgan ko'zlari yaltirardi. — Jon qizim, — dedi ingrab. —

O'g'limni sizga ko'ngli bor edi... Ayrib qoldim! – U o'kirib yubormaslik uchun kafti bilan og'zini to'sdi. – Besh kun bo'ldi, – dedi yig'idan nafasi qaytib. – Selsovetga chiqib «qoraxat»ini olib keldim. Onasi bo'lsa o'g'lim otpuskaga kelarkan, deb xursand bo'lib yuribdi. Kelsa to'y qilaman deydi. – U titroq qo'llari bilan ko'z yoshini artdi. Kalovlanib o'rnidan turdi. – Onasi eshitmasin! – dedi ovozi pasaytirib. – Erta-indin yotig'i bilan o'zim tushuntiraman. – Shunday dedi-yu, ich-ichidan yana yig'i bo'g'ib keldi shekilli, kafti bilan yuzini changalladi. – Olimjon, akam kelsa ordenini taqaman deb suyunib yuribdi.

Hamon eshik oldida haykaldek qotib turar, nima qilishni, nima deyishni bilmasdim.

– Qizim! – U titrab ketayotgan barmoqlari bilan o'zining og'zini to'sdi. – Shundoq dono bolamdan judo bo'ldim, qizim!

U gandraklab, hujra burchagiga, chakka sizib uzun-uzun iz qoldirgan devor tagidagi eski quti oldiga borib cho'kkaladi. Qutining qulfi yo'q, ammo temir ilgagi zanglab yopishib qolgan ekan. Tabib ingichka barmoqlarini ilgak ostiga tiqib, chiranib siltagan edi, halqa taraqlab ochildi. U quti qopqog'ini ko'tardi-da, uzoq timirskilandi. Oxiri izlagan narsasini topdi shekilli, qopqoqni yopdi. Cho'kkalab o'tirgancha burilib qaradi. Endi u yig'lamas, lekin siniqib ketgan yuzida ikki tomchi yosh miltirab turardi.

– Mana, – dedi maktab bolalarining ko'kishtob muqovali daftarini uzatib. – Olavering! Shu – sizniki! O'g'lim aytgandiki, – u ovozi titrab, yuzini o'girdi, – aytgandiki, agar o'lsam, shuni Robiyaga berib qo'yasiz, degandi. Nima yozilganini bilmayman. Bolamning to'yini ko'rmadim. Aqalli, vasiyatini bajo keltiray...

Tabibning titrab turgan qo'lidan daftarni qanday olganim, qanday qilib tashqariga otilganim esimda yo'q.

* * *

Bir qo'limda maktab bolalarining daftari, bir qo'limning bilagiga ilingan dori xaltacha bilan yong'oqzor orasiga kirganimda qorong'i quyuqlashib ketgan,

hammayoq jimjit edi. Faqat pastda Bo'rijar bo'g'iq shovullaydi, Ko'tarma tomonda itlar akillagani quloqqa chalinadi.

Tabibning ko'z yoshini shosha-pisha artganicha aytgan gapi qulog'imdand ketmasdi. «O'g'lim sizni yaxshi ko'rardi... To'yini ko'rmadim, aqalli vasiyatini bajo keltiray!...»

Nima bu? Xatmi? Bultur Rashid abzining mo'rchasidan qaytayotganimizda qo'limga tutqazgan xatning davomimi?

Kuchala chiqargan yong'oqlar orasidan xira oy mo'raladi. Yaydoqroq joyda to'xtab, daftarni ochib ko'rdim. Oyning o'limtik yog'dusida hech nimani o'qiy olmadim. Faqat bildimki, bu xat emas, she'r ekan! Tekis, chiroyli husnixat bilan yozilgan she'rlar! Birinchi varaqdagi yirik-yirik harflar bilan yozilgan sarlavha oyning xira yorug'ida ham aniq ko'rinib turardi: «Robiyaga».

Daftarni yopib yong'oqzor oralab sekin-sekin yurib ketdim. Yomg'ir ostida ko'zoynagini yiltiratgan-cha, «yaxshi ko'rish ayb emas-ku», deb ayanchli jilmayayotgan Ochil aka tag'in ko'z o'ngimga kelib turib oldi. To'g'ri, yaxshi ko'rish ayb emas. Ammo menda nima gunoh?! Men boshqa odamni yaxshi ko'raman-ku! Dunyo nimaga shunaqa? Birov senga zor, sen boshqasiga...

Xayol bilan ketayotgan ekanman, Alvasti ko'prik tomondan g'alati, yovvoyi tovush eshitildi. Hali – tabibnikiga ketayotganimda Alvasti ko'prikdan qilcha ham qo'rqmaganimga o'zim sevingan edim. Rost-da, nimasidan qo'rqay! Jin-ajina, balo-battarlar hammasi uydirma gap! O'zimni qo'lga olib, daftarni qattiqroq changallagancha uch-to'rt qadam yurgan edim, boyagi mudhish tovush yana qaytarildi. Bu safar aniq eshitdim. Ko'prik tagida birov ingrayapti! Turgan joyimda karaxt bo'lib qoldim. Gardanim qotib, tilim muzlab ketganday bo'ldi. Ko'prik tagiga kirib ketayotgan suvning muttasil shovullashi orasida allakimning qisqa, ammo qattiq ingragani yana bir marta qulog'imga kirdi.

Chinqirib yuborganimni butun dunyo eshitdi, deb o'ylagan edim. Yo'q, ovozim chiqmagan ekan. Tor so'qmoqdan orqaga – yong'oqzor tomonga qochmoqchi edim, oyog'im chalishib yiqilib tushdim. Ikki tirsagim zarang yerga qattiq urildi, lekin og'riq sezmadim. Bir oyog'im jarga tushib ketayotganini payqadim-u jonholatda so'qmoq chetidagi na'matakka yopishdim. Kaf-timga tikan kirib jizillatgani, biqinimda tag'in sanchiq paydo bo'lganini elas-elas his etib, so'qmoqqa chiqib oldim. Bilagimga chizimcha bilan ilib olgan dori xalta hamon qo'limda turar, Ochil akaning daftari esa ancha nariga – o'tlar ustiga otilib ketgan, varaqlari ochilib, xira oydinda oqarib ko'rinardi. Daftarni shosha-pisha yulqib olayotganimda boyagi ovoz yana takrorlandi. Biroq bu safar «dodlayotgan» narsa odam emas, ot ekanini tushundim. Ko'nglimga iliqlik yugurdi. Ot kishnayaptiku! Bundan chiqdi shu atrofda qandaydir ot o'tlab yuribdi. Vahimam qursin! Shunaqa-ku, tovushi nega ko'prik ostidan keladi? Ko'prik tagida ot nima qiladi?

Qaddimni rostlab, sinchiklab qaragan edim, tik sohildan pishqirib-pishqirib chiqib kelayotgan otning qulog'i, keyin boshi ko'rindi.

– Chu, harom o'lgur! – degan ovoz eshitildi.

Ovoz tanishdek edi. Zum o'tmay no'xtadan chaggallagan ko'yi jar bo'yidan so'qmoqqa chiqib kelayotgan odam g'ira-shira ko'rindi. Endi orqaga yugurmoqchi bo'lib turganimda chaqmoq telpagidan tanib qoldim. Umar zakunchi-ku! Qiziq, kun isib ketgan-ku, haliyam chaqmoq telpagini boshidan yechmaydi. Shuyam mansab bo'pti-yu! Mayli, nima bo'lgandayam begona emas-ku! Ot mening sharpamni uzoqdan sezib taqqa to'xtadi. Boshini silkitib, nolali kishnab yubordi.

– E, o'la! – Zakunchi jilovni siltab tortdi. Suvliq shiqirlab ketdi. O'sha zahoti menga ko'zi tushdi-da, tahdidli ohangda baqirdi:

– Kim u bemahalda yurgan?!

– Men, – dedim ovozimdagi titroqni bosishga urinib. – Tabibnikidan kelyapman.

Zakunchi ot jilovini tutgancha yaqin keldi. Ot hamon

bezovtalanib boshini silkitar, yer tepinar edi. Yo'lim to'silgani uchun ro'parada turib qoldim.

– Ha-a, sizmi? – Zakunchi qorong'ida yana bir marta sinchiklab ko'rib olmoqchiday, boshdan-oyoq qarab chiqdi. – Dalada ko'rinmay qoldingiz, o'rtoq traktorchi?

– Kasal edim, – dedim dori xaltani ko'rsatib. – Tabibnikidan dori olib kelyapman.

– Shundoq deng... Qani, yuring-chi, – otini yetaklagan cha ustimga bostirib kelayotgan Zakunchidan chetlanay desam yo'l tor, chap tomon jar, o'ng tomonda qalin na'mataklar chakalak bo'lib yotibdi. Beixtiyor orqaga tisarilar ekanman, qo'rqa-pisa so'radim:

– Qayoqqa?

– Tik oyoqda turib gaplashmaydi-ku, odam. Shundan boshqa joy qurib ketganmi? – U otning jilovini jahl bilan siltadi. – Yur-e, padaringga la'nat! Sug'orsa suv ichmaydi, yursa tixirlik qiladi. Nima jin tekkan bunga!

Oldinma-keyin ortga qaytib, do'nglikka yetdik. Do'nglik orqasidagi sayhon maydonchada hali o'zim ko'rgan qizg'aldoqlar oyning nimtatir nurida qorayib qolganga o'xshardi.

– Shoshmang, – dedi u ot jilovini na'matak shoxiga bog'lar ekan. Qo'liga tikan kirdi shekilli, «ih» deb barmog'ini og'ziga tiqdi. – Padaringga qusur... – Xuddi joni og'rigani uchun men aybdordek o'dag'ayladi. – O'tir-sangiz-chi! Nimaga qaqqayib turibsiz!

Qiziq, nimaga endi o'tirishim kerak ekan?

– Zakunni bilasizmi, o'rtoq traktorchi! – U qamchisini salanglatib yaqin keldi. – O'ttiz bir kundan beri dalaga chiqmayapsiz! Harbiy zamon qonuniga binoan ishga o'n bir minut kech qolgan odam qamalishini bilasizmi?

Yuragim shuvillab ketdi. Qamatsa qamatadiyam. Rais, zakunchi... Qo'lidan keladi!

– Nima qilay? – dedim esankirab. – Traktor tepib yubordi. Bugun... endi ko'chaga chiqdim, o'zim...

– Spravka qani? – U shunday shiddat bilan boshini silkidiki, o'tkir ko'zlari qorong'ida yonib ketganday bo'ldi. – Qog'oz bormi?!

– Qanaqa qog‘oz? Men tabibga ko‘rsatdim.

– Tabib emish... – U maysalar ustiga chordana qurib o‘tirdi. Qamchinni yerga tashladi. – Tabibingiz Komilmi? Do‘xtirmas, afirist u.

Battar dovdirab qoldim. Bir vaqtlar Oqsoqolning buvamga aytgan gapi esimga tushdi. «Shu... Komilboyning qo‘li dard ko‘rmasin-da... Naqd propisir Slonimning o‘zi tan bergan, qo‘liga hujjat berib qo‘yibdi...» Shuni aytgim keldi-yu, ensam qotdi.

– O‘tiring, – dedi u yonidan joy ko‘rsatib.

Gapingiz bo‘lsa aytavering, degandek ancha berida tik turaverdim.

– Zamon og‘ir, singlim, – to‘satdan ovozi mayinlashdi. Shimining cho‘ntagiga qo‘l suqib, oppoq, yaltiroq papiros qutisini oldi. Papirosni barmoqlari bilan ezg‘ilarkan, qutini qirs etib yopdi-da, o‘tlar ustiga tashladi. Gugurt chertgan edi, horg‘in yuzi, tartibli tarashlangan mo‘ylovi yarq etib ketdi.

– O‘tiring, gap bor, – dedi menga qaramay.

To‘rt-besh qadam beriga, o‘tlar ustiga omonat cho‘k-kaladim. O‘sha kuni Ra‘no kelinoyimnikida ko‘rganlarim lop etib xayolimga keldi-yu, birdan dadil tortdim. Qo‘rqqan oldin musht ko‘tarar qilyapti bu Zakunchi! Shoshma! Nimaga qo‘rqishim kerak undan?! Nimaga qaltirashim kerak?! Zakunchi bo‘lsa o‘ziga! Rais bo‘lsa o‘ziga! Avval o‘zini tiyib olsin!

– O‘sha kuni... – dedim ataylab ovozimni baland qo‘yib. – O‘sha kuni traktor tepganida yurolmay qolganim uchun tog‘amnikiga boruvdim. – «Tog‘amnikiga» degan so‘zniyam jo‘rttaga ta‘kidlab aytdim. – Tog‘amnikida yotib qolmoqchiydim. Siz borligingizni bilmabman. Bilsam kirmasdim.

Zakunchi hozir yarq etib qaraydi, qo‘rqib ketadi, deb o‘ylagan edim. Qaramadiyam, qo‘rqmadiyam.

– Zamon og‘ir... – dedi horg‘inlik bilan. Papiros tutunini puflab osmonga, xira oyga tikilib qoldi. – Qahramonlik faqat urushda bo‘lmaydi. Siz bilan menga o‘xshagan kolxozchilarning har kungi mehnatiyam qahramonlik. – U ko‘z qiri bilan men tomonga qarab qo‘ydi. – Shunchalik kasal bo‘psiz, bir og‘iz aytish kerak

edi. Toshkentdan doktor chaqirardik. Har kim o'zini quruqqa obqochaversa, g'alabaga qachon yetamiz!

Na'matakka boylangan ot yer tepinib pishqirdi. Zakunchi yarq etib o'sha tomonga qaradi-da, tag'in papirosni so'rdi. Yuzi, mo'ylovi yorishib ketdi.

Nimadir deb uzib olgim, Ra'no kelinoyimni eslatib, pisanda qilgim kelardi!

– Kecha tog'amdan xat oldik! – dedim yolg'on gapirib. – Ra'no yaxshi yuribdimi deb so'rabdilar. Kennoyim tog'amni judayam yaxshi ko'radi. Tog'am urushga ketayotganida oyog'iga osilib yig'lagan. O'zim ko'rganman.

Qiziq, bu gap ham ta'sir qilmadi. Bir zum jim o'tirdi-da, shoshilmay o'rnidan turib, ot oldiga bordi. «Tek, jonivor, tek», deb erkalab, yolini silab qo'ydi-da, qaytib keldi. Xotirjamlik bilan yonimga o'tirdi. Dik etib turib ketayotgan edim, bilagimdan tutdi. Sesanib ketdim.

– Qo'yvoring! – dedim qo'limni tortib.

– Qo'rqmang, yeb qo'ymayman. – U joyimga o'tqizdi-yu, o'sha zahoti qo'lini tortdi. Papirosni yutoqib so'rdi, o'ychan ko'zlari, chimirilgan qoshi, mo'ylovi yana yorishib ketdi.

– Gap bunday! – dedi bo'g'iq ovozda. – Siz menga hadeb o'sha yangangizni gapiravermang. Yangangiz menga hech kimmas. Ish bilan borgandim. – Uchida qip-qizil cho'g' ilinib turgan papiros qoldig'ini o't ustiga chertib yubordi, keskin o'girildi. – Senga uylanaman! – dedi to'satdan. – Ertaga sovchi yuboraman. Duma chol jon-jon deydi. Hamma gap senda qolgan! Tushundingmi?

«Nima? Nima deyapti bu alvasti?!»

Yuragim gursillab urgancha, o'rnimdan sapchib turganimni bilaman, o'sha ondayoq qo'limdan shunday kuch bilan siltab tortdiki, o'ng biqinimga nayza san-chilgandek ingragan ko'yi yonboshimga ag'darilib tushdim. Dimog'imga qo'lansa hid urildi. Papiros aralash aroq hidi. Negadir Ra'no kelinoyimning xontaxtasida turgan ichkilik shishasi, Zakunchining chaqmoq tel-pagi, bo'ynini silagancha ikki bukilib chirqillayotgan Olimjon ko'z o'ngimga keldi.

Tikandek mo'ylovi yuzimga sanchilishi bilan biqinimning og'rig'i ham, qo'rquv ham allaqayoqqa g'oyib bo'ldi.

– Qoch! – dedim chinqirib. – Yo'qol, iflos!

– Robiya! – U hansirab yuz-ko'zimdan o'pa boshladi. – Har qadamimda mingta qiz! Senga xaridor bo'lganimga suyunmaysanmi, tentak!

Jirkanib ketdim. Dimog'idan kelayotgan tamaki aralash ichkilik hidi ham, hansirashi ham, mo'ylovi ham g'azabimni keltirar, butun vujudim qaltirar edi. Daftar tutgan qo'lim bilan yuziga tarsakiladim. Boshidan chaqmoq telpagi uchib ketdi. Ammo u qo'yib yubormas, kuchli qo'llari bilan mahkam quchoqlab olgan edi.

– Voy ovsar! – dedi entikib. – Men seni zarga belab qo'yaman, bildingmi?! Kimsan, raisning erka xotini bo'lasan, go'ng changallab yurmaysan, tentak! Kerak bo'lsa medal olib beraman, poshshoning xotiniday malika bo'lib yurasan, tentak!

Ha! Ra'no kelinoyim bekorga tabelchi bo'lmagan ekan-da! Erining ko'ziga cho'p solish evaziga! O'zini sotish evaziga!

Vokzalda yuzimga termilganча: «Kutasan-a, menga kashta tikib qo'lasan-a», degan Kimsan akam yarq etib ko'z o'ngimga keldi-yu... shuncha kuch qayoqdan paydo bo'lganini bilmayman. Tizzamni bukib, duch kelgan joyiga tepdim. U birdan bo'shashib yonboshlab qoldi.

– Qanjiq! – dedi ingrab. – Padaringga la'nat! Namuncha osmondasan?

Yugurib borarkanman, hamon bilagimda dori xaltacha, bir qo'limda daftar borligini his etib turardim. Ot bog'langan na'matak yonidan so'qmoqqa otildim. Hansirab nafas olar, biqinim sanchar edi. Og'riq shu qadar kuchayib ketdiki, jar bo'yida cho'kkalaganча yonboshimni changallab qoldim. O'sha soniyada boshim ustida tag'in hansirash eshitildi.

– Yo meniki bo'lasan, yo jarga tepib yuboraman!

Tag'in dimog'imga qo'lansa hid urildi, yuzimga tikandek mo'ylovi qadaldi.

– Baxting ochilganiga xursand bo'lsang-chi! – dedi u harsillab.

Daftar aralash tarsakilamoqchi edim, u qo'limni qayirdi-da, daftarni yulqib, jarga uloqtirdi.

– Bo'ldimi, – dedi qorong'ida xunuk ishshayib. – Kelishdikmi, endi... Ovsar-ey!

Biqinimning og'rig'i yana g'oyib bo'ldi.

Qo'limni qo'yib yuborganidan foydalanib, sapchib turdim-da, Alvasti ko'prik tomonga chopdim. Endi Ra'no kelinoyim-u tog'amni ham, hatto Kimsan akamni ham o'ylamas, shu kasofatdan qutulsam bo'ldi, degan nafratli xayol oldinga – temir yo'l tomonga undar edi. Ko'priikka chiqib olsam bas. Juda bo'lmasa razyezdga qochib boraman. Chiroq bor. Odamlar bor... Biqinimning sanchishiga ham, nafasim qaytib ketayotganiga ham parvo qilmasdim.

Temir yo'lning shag'al ko'tarmasiga yetganda butunlay sillam quridi. Emaklab chiqib boryapman, shag'allar shovullab pastga to'kiladi. Xuddi tushida yurolmay qolgan odamga o'xshab, o'rnimdan siljishga qiy-nalaman.

Bir mahal yana o'sha ombirdek qo'llar ikkala oyog'imdan mahkam qisdi. O'girilib qarasam cho'kkalab olgancha oyog'imdan changallab hansirab turibdi. Xira, irkit oy nurida ko'zlari vahshat bilan yonar, tishlari g'ijirlar, mo'ylovi qiyshayib ketganga o'xshardi.

– Gap shu! – dedi xirillab. – Tarozi solma o'zingni! Yo menga xotin bo'lasan, yo o'lasan!

Qo'limga qayoqdan tosh ilinganini bilmayman. Piyo-ladek dumaloq tosh!

– Qoch! – dedim titrab. – Qo'yvor!

U qilt etmadi. Negadir hiqillab kuldi.

– Chertib ko'r-chi, dushmanning ilonvachchasi! Urug'-aymog'ing bilan quritib yuboraman!

Lop etib dadam ko'z o'ngimga keldi. Qo'y og'zi-dan cho'p olmagan, odamlarga ma'rifat tarqatishni o'ylagan, hamisha ozoda kiyinib yuradigan, mayiz-dekkina muloyim dadam... O'sha kechasi noma'lum kimsalar so'roqlab kelganida ham o'zini xotirjam tutgan, «o'zingni asra, qizim», degan dadam... Tuproqli ko'cha,

uzoqlab ketayotgan mashina chiroqlari, boshimga egi-lib yelkamni silagan Kimsan akam... Dadamni shular qamatdi! Shuning tog'asi qamatdi! Anavi so'galli ro'-dapolar qamatdi! Ovozim boricha chinqirdim:

– Qo'yvor! O'ldiraman!

– Avlod-ajdoding bilan turmada chiritaman, unsur-ning bolasi! – dedi u vishillab. – Men kimman-u sen kimsan?

Ko'z o'ngim qorong'ilashib ketdi. Keyin nima qilganimni bilmay qoldim. Shunisi esimdaki, qo'limdagi toshni kuchim boricha otdim. O'sha zahoti qulog'imga dahshatli chinqiriq kirdi:

– Yeding, ilon! Ohh!

Oyog'imni ombirdek qisgan qo'llar bir zumda bo'shashdi. Keyingi lahzada Zakunchinnig peshonasini changallagan ko'yi oh chekib yonboshiga yiqilganini ko'rdim-u dahshatdan dodlab yubordim.

Shag'al ustida o'tirgan ko'yi oyoq-qo'limni tipirlatib orqaga – yuqoriga talpinardim. Harchand urinmay o'rimdan siljiy olmasdim. Shag'allar shovullab pastga to'kilar, boshini changallagancha g'ujanak bo'lib to'lg'anib yotgan Zakunchi ustiga yog'ilar edi.

Oxiri emaklab ketdim. Nihoyat qo'llarim avval shpal-larga, keyin temir izlarga yopishdi. Qiziq, negadir temir yo'lning iliq izlari titrab turar edi. Bilmadim, balki o'zim titraganim uchun shunaqa tuyulgandir. Bir mahal ko'zimga yorqin chiroq urildi. Parovoz gupillagani, chinqiroq gudok eshitildi. Yaqinlashib qolgan poyezdni endi ko'rdim. Parovoz faryod solib yana gudok chaldi. Izlarni changallab olgan qo'limni tortib, o'zimni pastga tashlagan zahotim g'ildiraklar ko'priikka urilib qattiq guldiradi. Dimog'imga samovar dudining hidi urildi. Anchagacha quloqni qomatga keltiradigan taqa-tuq, taqa-tuq sadolari eshutilib turdi-da, nihoyat hammayoq tinchib qoldi. Bo'rijarning shovullashi aniqroq eshitila boshladi.

Qo'rqa-pisa ko'zimni ochib qarasam, Zakunchi hamon boshini changallab gujanak bo'lib yotibdi. Qimir etmaydi.

Odam o'ldirdim! Men odam o'ldirdim! Shu xayol miyamga mixday qoqildi-yu dod solgancha temir

yo'l izlaridan qoqilib-suqilib o'tib, berigi tomonga, xira oydinga shovullab turgan, qurbaqalar tinimsiz vaqillayotgan qamishzorga o'zimni urdim. Sho'rxok suv bilchillab yotgan to'qay ichidan yugurib borarkanman, chap oyog'im yerga muzday tegayotganini payqadim. Shundagina bir poy kalishim tushib qolgani xayolimga keldi. Ammo qachon, qayerda tushirib qoldirganimni bilmasdim. Biqinimning og'rig'i sezilmas, lekin negadir chap qo'lim borgan sayin og'irlashib ketayotgandek bo'lardi. Keyin bilsam, bog'ichi bilan bilagimga ilib qo'yilgan dori xalta haliyam osilib turgan ekan.

...Uyga qanday yetib kelganim esimda yo'q. Dera-zada xira chiroq yog'dusi ko'rinar, qiya eshikdan ay-vonga bir parcha sarg'ish nur sochilib turardi.

Kavshandozda bir poy kalishimni yechayotganimda munkib ketdim. Eski namat ustiga gursillab yiqildim. Ikki qo'llab yuzimni changallagancha o'krab yubordim. Negadir ko'nglim ag'darilar, hushim uchib borayotganini g'ira-shira sezardim.

Oyimning dahshat to'la ovozi uzoqdan eshitilgandek bo'ldi:

– Hoy, tezroq keling! Ko'zingni och, qizim.

Yuzimga muzday suv sachrab, saskandim. Obdasta tutib turgan bobom hovliqib so'radi:

– Nima bo'ldi? Gapirsang-chi!

– Odam... – dedim qaltirab, u yog'ini aytoilmadim.

– Nima? – Bobom bilan oyim baravar boshimga egi-lishdi.

– Odam o'ldirdim... – Hiqillab yig'lab yubordim. – Qo'rqib ketyapman... oyi! Men odam o'ldirdim! Alvasti ko'prikda!

– Kim? Qanaqa odam! – Bobom meni alahlayapti deb o'yladi chog'i, obdastadan kaftiga suv quyib yana yuzimga sepdi. – Qachon? Qanaqa odam? – Shunday dedi-yu, javobimni kutmay obdastani uloqtirgancha ko'chaga otildi.

– Nima deyapsan, jon bolam, kuygan onangni ko'r-qitib nima qilasan? – Oyim boshidan ro'molini yechib, ho'l bo'lib ketgan yuzimni artidi. Bag'riga bosdi. – Kim? Tanidingmi o'zi?

To'satdan hushim joyiga kelgandek bo'ldi, nima qilaman aytib? Nima keragi bor?

– Bilmadim, – dedim bosh chayqab. – Tanimayman.

– Ko'zingga ko'ringandir, bolam? – Oyim yengil tortib boshimni siladi. – Ins-jinlar dap qilgandir. Ajab qipsan, endi yopishmaydigan bo'ladi.

Mayli, peshonamda borini ko'rdim! Nima bo'lsa bo'lar! Shu xayolga borishim bilan boshini changallab g'ujanak bo'lib yotgan Zakunchi yana ko'z oldimga keldi. Ichimda titroq turdi. «Odam o'ldirdim! Men-a? Endi nima bo'ladi?»

...Bobom harsillab eshikdan kirib keldi. Rangi o'chib terlab ketgandi.

– Hech kim yo'q-ku, qizim! – dedi entikib. – Vahimang qursin, Ko'tarmagacha borib kepman-a? – U oyim tomonga qarab qo'ydi. – Shu Alvasti ko'prik xosiyatsiz-da o'zi!

– Bilarkansiz-ku! – Oyim jahl bilan shang'illadi. – Robiya kech qop ketdi, yo'l-yuzda bolaga alvasti daf qilib yurmasin, desam, o'tirdiz, yalpayib! Bora qolsangiz butingiz bichilib qolarmidi!

– Qo'y, qizim! – Bobom peshonamni siladi. – Yotib, damingni ol.

O'n to'qqizinchi bob

UMAR ZAKUNCHI HIKOYASI

Jar yoqasidagi gul

Menga nima bo'ldi? Qayerda yotibman o'zi? Nima hammayoq zimiston? Boshim sirqillayaptimi? Peshonamdan ter oqyaptimi? Havo salqin shekilli! Iye, qon hidi-ku! Qon! Boshim qonayapti-ku!

E-ha! Bo'ldi! Anavi ilonvachcha urdi. Tosh bilan urdi. Mana, mana shu yerimga! Ohh! Ana, qon oqyapti... Meni urdimi? Meni-ya?! Esini tanib o'z otasidan bir tarsaki yemagan odamni-ya! Kelib-kelib allaqanday jinqarchadan kaltak yedimmi? Men-a? Hamma ko'rsa bir chaqirim naridan qochadigan odamni urdimi?

Otining kishnashini eshitsa salom berib chiqadigan Umar Xo'jayevni-ya!

Shoshma, otim qani? Qorako'z qani?

– Qorako'z!

Obbo! Ancha yo'l-ku! Na'matakka bog'lovdim-a? Ana, yer tepinib kishnayapti.

Rahmat, birodar! Hozir, hozir boraman oldingga! Oyog'im muncha chalishadi. Shunaqa yomon urdimi-a? Voy megajin-ey! Shoshmay tur hali! Uy iching bilan yo'q qilib yubormasam, otamning bolasimasman!

Qancha yotdim o'zi! Birov ko'rmadimikin! Heh! Kimsan Umar Xo'jayev qonga belanib yotsa! Tag'in nimaga deng?... Do'stdan ko'p dushman. Hech kim ko'rmadimikin? Yo'q! Bu gadoytopmas joyda kim ham yurardi bemahalda? Hech qancha vaqt o'tmabdi-ku! Boya ham oy tepada edi. Muncha xunuk bu? Kuydirgan kalladek irshayishini qara! Xuddi masxara qilayotgandek. Oy ham shunaqa sovuq bo'ladimi?

– Bo'ldi, Qorako'z, tek, birodar, tek! Ha, qon hidi kelyaptimi? Ziyoni yo'q, og'ayni, hozir uyga boramiz. Hammasi yaxshi bo'ladi. Bir shunaqa bo'pqoldi-da, birodar...

E, ming la'nat! Muncha tikani ko'p buning! Ot bog'lashga boshqa daraxt qurib ketganmidi? Nimaga hovliqdim? Ana, narida yong'oq ham bor ekan-ku, o'shanga bog'lasam o'larmidim... Mana, bo'ldi, birodar, bo'ldi. Jim, birpas tinch turgin, Qorako'z! Hozir... yo'lni o'zing bilasan-ku, og'ayni. Shoshma! Qamchi qani? Iye, telpak ham yo'q-ku. E, bo'ldi. Boya anavi ilonvachcha tipirchilaganda tushib ketuvdi, chog'i. Hozir... Qani, ozgina yuraylik-chi! Tishsh, sekin, sekin, o'zingni bos, Qorako'z! Mana, yotgan ekan-ku, iye, ana, qamchiyam topildi. Ha, ish degan bundoq bo'pti! O! Qaniydi hozir yonimda bo'lsa, itday vangillatib qamchilardim! Qovurg'alarini majaqlab tashlardim. Qo'rqma, og'ayni, seni aytayotganim yo'q. Anavi unurni! Obbo, ham-mayoq payhon bo'p ketibdi-ku! Xuddi ikkita polvon bir kun erinmay kurash tushgandek! Voy iflos-ey! O'zi chittakday bo'lsayam xirsday kuchli ekanmi?

Hali nima dedim! «Uylanaman» dedimmi? Shungaya! Xalq dushmanining qiziga-ya! Biografiyamga dog' tushiradigan anoyi ekanman-da!

– Shoshma, Qorako'z, shoshma... Drr! Xop! Ana bo'ldi. Ketdik. Chu, birodar.

Xunuk ish bo'ldi. Hozir anavi jinqarcha uyiga borib dod ustiga dod soladi. Duma pakana Oqsoqolni boshlab uyimga keladi. Shu yetmay turuvdi o'zi!

– Chu, jonivor, tezroq!

Nimaga keldim o'zi? Nima palakat haydadi? Ne-gayam chiqib qoldi oyog'im ostidan? O'zim-ku, anavi, qo'ymijoz tabibning itvachchasini amallab tinchitgan edim. Bunisiga yopishib balo bormidi! Yuruvdi-ku, bir oydan beri dumini qisib! Nima qilay? Qo'ymadi-ku, anavi Ra'no? Kunora eshigimga keladi. «Uylaning», deydi, yig'laydi-siqtaydi. Oxiri, niyati amalga oshmasligiga aqli yetganidan keyin boshqacha ashula aytishga tushdi. Onasi o'lishidan uch kun avval ham o'sha gapni aytdi. «Nedurki, Robiyaxon og'ir yotganmish, o'sha kuni traktor tepib yuborgani uchun uyiga yetolmay unikiga borganmish. Endi men borib, holidan xabar olishim kerakmish». Kim bilsin, bu gapni pakana Duma o'rgatganmi, qora mo'ndi egachisimi? Nima deb boraman? Yalinamanmi? Birato'la tilini qisiq qilib qo'ysam Ra'noning mashmashasidan ham qutularman, devdim-da! Yo'q, bu gap avval xayolimda yo'q edi. O'zi oyog'im tagidan chiqib qolganidan keyin to'satdan... Bu ilonvachcha shunchalik zahar solishini tush ko'ribmanmi? Bo'lmasa, orqamda ergashib yurgan kelinchaklar qancha! Qizlar-chi? Soli so'poq ochiq aytmasa ham to'ng'ichini menga ataganini necha marta imo-ishora qildi. O'n olti yashar o'sha qizdan ham yaxshi bo'ptimi Dumaning asrandisi!

Hammasiga So'poq sababchi. Shunikiga kirmasam, ichmasdim. Ichmasam... Bugun yana o'sha gapni boshladi-ku! «Bu dunyoda odam o'ziniyam o'ylashi kerak, ulug' odamsiz, o'ynab-kulib qoling... Pas desangiz hammasi tovuqdek yotib beradi...» Padaringga qusur, So'poq! «Bo'rijarda suv ko'payib ketibdi», degan gapniyam shu aytdi. Suv ko'tarilsa, ish pachava!

To'qaydagi karamni yuvib ketadi. Osh dam yeguncha borib kela qolay degandim. Ro'paramdan chiqib qolganini ko'rmaysizmi! Negayam ichdim? Erkak kishi bunaqa paytda itmijoz bo'lib ketadi, o'zi. Qo'qondan ketayotganimda akam ham shunaqa degan edi. «Muchaling – it, o'zing ham itga o'xshaysan...» O'rgildim sendan! Siz odam bo'ldingiz-u, biz it bo'ldikmi endi! Nimaga shu topda esimga tushdi! Ming yil ko'rmasam ko'nglim birdek-ku!

Nima, it bo'lib, duch kelganga iliqdimmi? Shuncha imkoniyatimga qaramay jim yuruvdim-ku! Qaysi shayton yo'ldan urdi? Ahmoqman! G'irt ahmoqman! Tog'am donishmand deyman-ku. Aytardi-ya! «Odamning nafsi ikkita bo'ladi. U nafsga berilgan ham oxir-oqibat xor bo'ladi, bu nafsga berilgan ham...» Rost ekan. Menku, nafsga berilmadim. Nima, boshqalardan ortiq yebichyapmanmi? Rais nomim bor-u, turmushim it yotish, mirza turish. Tong otmasidan bir piyola choysiz dalaga yuguraman. Oilam bo'lmasa, qo'sha-qo'sha gilamim, atlas-adras ko'rpa-to'shagim bo'lmasa! Bitta uyimniyam kolxozchilar qurib bergan! Ertaga raislikdan tushsam, ketimga bittani tepib, uydanam haydashadi. Bu qanaqa turmush! Balki hali anavinga «uylanaman» deganimda o'zim ham bilmay, yuragimning bir burchida yotgan gapni aytib yuborgandirman. Balki men ham oilam, bola-chaqam bo'lishini xohlayotgandirman.

Yorug' dunyoga kelib, nima ro'shnolik ko'rdim o'zi? Ko'ngilsiz xotinning g'idi-bidilari-yu, o'zing yurist bo'la turib, qonunni buzyapsan, deb ayyuhannos solishimi! Sil akamning bema'ni nasihatlari-yu, yangamning insofga chaqirishlarimi? Qochoq odamdek poyezdda osilib kelganim-u, advokaturaning katalakdek hujrasida birovlarining jonga tegadigan yig'i-sig'isiga quloq solganimmi! Tog'amning yelib-yugurishlari-yu, rais bo'lganimdan keyin sutkasiga uch soat uxlab, jon-jahdim bilan ishga kirishganimmi?

Ha, aytmoqchi, Ra'no bor-ku! Shu bilan ozmi-ko'pmi xushnud damlarni boshimdan kechirdim-ku. Xushnud damlar emish! Tfu, padariga la'nat! Nimasi xushnud! Toshkentga – besh-olti marta restoranga borgandayam

o'g'ri hakkadek alang-jalang bo'lib o'tirganim, ishqilib tanish odam uchrab qolmasin, deb yuragim takapuka bo'lganimi? Shumi mening baxtiyor kunlarim? Raykom sezib qolmasin, tog'am bilib qolmasin, deb tezagini bekitgan mushukdek pusib yurganimmi? Shumi boshimdan kechirgan quvonchli soatlar?!

Asli hammasiga shu xotin sababchi! Yo'q, ayb o'zimda! Tog'am aytgan nafsning bittasini tiydim-u, ikkinchisini tiyolmadim.

Xo'sh, nima bo'пти? Menam erkakman, axir! Men faqat bittasini bilaman. Meni tergaydiganlar avval o'zini eplab olsin. Har birining o'ntadan o'ynashi bor. Qolaversa, g'unajin ko'zini suzmasa, buqacha ipini uzmaydi. Mana, ilonvachchami – balomi, o'zini saqlab qolish qo'lidan keldi-ku! Anavi kishi bo'lsa, yangi hunar chiqardilar! Boshlari aylanayotganmish. Ko'ngillari gilvata tusab qopti. Qusayotgan emishlar. Menga desa qon qusmaysanmi! Xamirturish ichasanmi, balo qilasani, nima bo'lgandayam o'zing epla! Judayam tixirlik qilaversa, Toshkentga – do'xtirga jo'nataman. Shundoq qilmoqchi bo'lib turganimda onasi o'lib qoldi. Kim bilsin, hali yana nima gap topib kelarkin! Bilaman, u qilib, bu qilib, tegib olmoqchi! Ahmog'ing hammomga ketgan! Senga uylanamanmi? Senga-ya! Birovning qo'y-nida yotgan juvonga-ya!

– Chu, Qorako'z, yaqin qoldik! Tezroq, birodar, tezroq!

Avval-ku, hammasi xamirdan qil sug'urgandek oson ko'chgan edi. Bu safar chatoq bo'ladi. Abdurahmonov tish qayrab yuribdi o'zi! Shu gap qulog'iga yetishi bilan shtrafnoy batalyonga jo'natadi. Yo'-o'q! Kechirasiz! Xotin deb o'lib ketadigan anoyi yo'q! Mendan yaxshi rais topolmaysiz! Planni oshirib bajarish o'z yo'liga. Sut solig'imi, go'sht, jun, don solig'imi – oshirib bajargan kim? Zayomni hammadan ko'p sotib olgan kolxoz qaysi? Yaqinda himoya fondiga yordam kerak, sizlar to'plagan mablag'ga zambarak yasaladi, degan gap chiqqanida hammadan ko'p tilla-yu kumush to'plab bergan xo'jalik raisi kim? Xo'jayev emasmi?

Bu nokaslar jonini bersa beradiki, molini ko'zi qiymaydi. Ergash selsovet bilan Ismoil melisani yonimga olib, uyma-uy yurganim bir pul bo'ldi. Bitta-yarimta vallomatdan boshqa hammasi «hech vaqomiz qolmadi», deb bezrayib turaverdi. O'shanda oraga Oqsoqol tushmasa raykom oldida rasvo bo'lardim. Oqsoqol odamlarni klubga to'plab, va'zxonlik qildi. Qiziq, chol qo'lini paxsa qilib, shunaqangi gaplar aytdiki, hammasi qulog'imga mixlanib qoldi.

«Bilaman, o'ldim deganda har biringda sandiq burchagiga bekitib qo'ygan bitta bilaguzuk, bir juft zirak bor. Yaxshi niyat bilan birini qizingga, birini kelingga atab qo'yibsan. Ammo o'ng quloq, chap qulog'ing bilan eshitib qo'y. Bugun o'sha savil qolgur tilla taqinchog'ingni olib chiqmasang, ertaga qizingni uzatolmaysan. Nega deganda qizingni unashib qo'ygan qaylig'i nemis tankining tagida qoladi. Kelin tushirolmaysan. Nega deganda o'g'ling dushmanning o'qiga uchadi. Ana, unda ko'rasan, tomoshani! Tanangga o'ylab ko'r, xaloyiq. Harna bitta ortiqcha zambarak yasab dushmanni qirganning foydamasmi... Jon omon bo'lsa mol topiladi. Bolang sog'-salomat kelsa to'yni taqinchoqsiz ham qilaverasan. Omadi gap shu: belimda belbog'im bor deganing obchiqaver lash-lushingni!»

Ajab, o'sha kuni kechqurun idoradagi chog'roq quti oltin-kumush taqinchoqlarga to'lib ketdi.

Bilaman, Oqsoqol bu ishni azbaroyi menga yordam berish uchun qilmaydi. Raykom oldida o'zini ko'rsatgisi keldi. Haliyam rais bo'lishdan umidini uzmagani. Ayniqsa, Abdurahmonov sekretar bo'lganidan beri g'imillab qoldi. Ajab qildim: oltin to'la qutini Domdehqonga o'z qo'lim bilan oborib topshirdim. Sanab, bitta-bittalab! Raislikni senga qo'shqo'llab topshirib qo'yadigan ahmoq bor ekan-da, sassiq chol! Amal – asov otdek gap. Qo'lingdan bir chiqardingmi, ikki dunyodayam yetolmaysan. Ot-ku, oxir-oqibat egasiga qaytib kelsa – kelar. Lekin amal qaytmaydi. Uni allaqachon boshqasi egarlab minib olgan bo'ladi. Mabodo seni amal otidan tushirganlar bir emas, ming marta nohaq bo'lganida ham qaytib o'sha otni minishingga

yo'l qo'ymaydi. O'zi otdan tushishini o'ylab qo'rqadi. Shunaqa, o'rtoq Oqsoqol! Chiranaver! Qaytaga rayon oldida mening obro'yimni yana bir qarich ko'tarding! Malades! Ammo bugungi ish... Ahmoqman! Borib turgan ahmoq! Tog'amning gapi rost. «Kosaga o'n hovuch suv solsang indamay turadi-yu, bir tomchi ortiq tomsa toshib ketadi!» To'g'ri aytgan ekan. Shu bugungi tomchi ortiqcha bo'lmasa edi. Boshim tag'in sirqillayapti. Yana qonadimi, nima balo? Yo'q, hammasi joyida.

– Chu, Qorako'z, ana, idoraga yetdik.

Kim u tol panasida arvohdek so'rrayib turgan?

– Kimsan, hoy?

Iye, otangni go'riga!.. Soqov-ku! Ikki bukilib ta'zim qilishiga o'laymi! Jilovga nega yopishadi?

– Qo'yvor! Otxonagamas! Qorako'zni uyga obketaman! Nima? Padaringga qusur, seniyam, So'poqniyam!

Osh yeyayotgandek qo'lini og'ziga olib borib imo qilishini qara!

– Yo'qol, osh-poshing bilan! Menga qara, hey! So'poqqa aytib qo'y. Tugun ko'tarib uyimga borsa, butini yirib tashlayman! Tushundingmi? Aytmasang gung tilingni sug'urib olaman.

Nimaga iljayadi bu soqov? Yo bir nimani sezdimi? Yuzim qonmikin! Qorong'i-ku! Ko'rib o'tiribdimi?

– Qoch-e, itdan tarqagan!

Ha, qo'rqmas ekanman-a! Bir qamchilik holing bor ekan-ku. Zipillab chopishini qara! Soqov bo'lsayam baloga aqli yetadi. Hozir boradi-da, hamma gapni tili bir qarich odamdan yaxshiroq tushuntiradi So'poqqa.

– Drr! Mana, keldik, Qorako'z! Shoshma, darvozani ochaylik. Bo'ldimi? Chanqadingmi? Qara, Qoplon ham chanqabdi. Hozir... Chiroqni yoqaylik.

O'-o'-o'! Ming la'nat! Yuzim qop-qora qon-ku! Ixx! Qanjiq! Yana qonayaptimi? Yuvmasam bo'lmasdida! Yo'q, yara chuqurmas. Aksiga olib dokayam yo'q. Mayli, qiyiqcha bilan bog'laymiz. Qaytaga yaxshi bo'ladi. Qon yuqi bilinmaydi. Mana, bo'ldi. Hammasi zakonniy!

Ming la'nat shunaqa turmushga! Bir burda qotgan non ham qolmabdi! O'zim och, ot och, it och! Qanaqa hayot bu! Kim aytadi seni rais deb? Har raislar borki, kunora bazmi jamshid qiladi. Zamon og'ir, urush ket-yapti, ammo maishatni o'rniga qo'yadi. Mushugini pisht deydigan odam yo'q. Ishniyam eplaydi, maishatniyam. Sen bo'lsang ichgan yuz gramm arog'ingga shuncha mashmasha orttirding! Yo'q, sen maishatni eplolmayсан. Ishdan boshing chiqmaydi. So'fi tahorat qilmasdan eshikma-eshik yugur, chopiqni tekshir, suvni tekshir, omborga chop... Battar bo'! Shunga tug'ilgansan o'zi!..

Darvoza taqillayaptimi? Ana, it akilladi! Otangni go'riga... Duma kelgan! Demak, anavi itvachcha sochini yulib, pakana Dumaga arzi dod qilgan! Bilaman, Duma bir o'zi kelishga haddi sig'maydi. Oqsoqolni boshlab kelgan. Yaxshi! Gaplashib qo'yamiz! Qaytaga yaxshi bo'ladi. Anavi ilonvachcha urush davri qonunini buzdi. Arzimagan narsani bahona qilib, traktorni dalaga tashlab ketdi. Ishga o'n bir minut kech qolganlar kesilib ketayotgan bir paytda roppa-rosa o'ttiz bir kun dalaga chiqmadi. Qo'lida hujjati yo'q. Demak, MTSni aldadi, kolxozni aldadi, davlatning ko'ziga cho'p soldi. Bugun yo'lda ko'rib qolib, nega ishga chiqmayapsan, desam, tosh otib, boshimni yordi! Xizmat burchini bajarayotgan raisning hayotiga suiqasd qildi. Tamom, Ismoil melisaga xabar qilaman, hoziroq oyog'ini yerga tegizmay rayon-ga olib ketadi. Juda soz-da! Bir yo'la Oqsoqol bilan Dumaniyam joyi rostoniga tiqib yuboraman! Rahbar shaxsga tuhmat qilgani uchun! Jinoyat kodeksida statya bor...

— Kim u?

Obbo? Sen yetmay turuvding o'zi! Kecha onasining yigirmasiga ketuvdi-ku. Kolxoz hisobidan bir qop un, bir pud guruch ajratib beruvdim-ku. Darrov qaytibdi-da.

— Yaxshi o'tkazib oldinglarmi, Ra'no? Qo'lingdagi nima? Osh? Ma'rakaning oshimi! Qornim tatalab ketayotgandi. Qayoqdan bilding? A? E, hech gap yo'q. Yiqilib tushdim.

Obbo ablah! Haliyam kelgan ekan-da! Birov ko'rgan bo'lsa...

Qizim boyaqish yomon qo'rqan ekan. Ko'ziga alvasti ko'rinadi-yu, qo'rqmaydimi! Labiga uchuq toshib ikki kun alahlab yotdi. Nuqul «qo'yvor» deydi, dod soladi. «Bobo» deydi, «oyijon» deydi. Zakunchining otini aytadimi-yey... Robiya bilan andarmon bo'lib, Komil tabibnikiga ham borolmadim. Bechoraning o'g'lidan «qoraxat» kelgan ekan. Ochil rahmatlik yaxshi bola edi. Robiyaga sovchi yuborgani esimga tushib, yuragim tuzdek achidi. Nima qilay, Kimsanim bilan Robiya bir-biriga ko'ngil qo'ygan ekan, ilojimiz qancha! Ishqilib, Kimsanim omon-eson kelsin...

O'sha kungacha shu niyatda o'zimni o'zim yupatib yurgan edim. Bir kunda hamma orzularim chippakka chiqdi-ketdi. Shamolga sovurilgan somondek...

Ertalab tong otmasidan sigirdan xabar oldim. «Tikilgan qozon qaynamas» deganlaridek, galanska sigirning dumiga termilaman, tug'ishidan darak yo'q. Yaxshiyamki, baxtimizga bahor seryomg'ir keldi: cholim tong qorong'isida turtinib tomorqada o't o'rayotgan edi.

Bir mahal eshik qarsillab qoldi. Yuragim shig' etdi: Zakunchi! Anchadan beri qadami uzilgandi. Oxiri baxayr bo'lsin, deb yuragimni hovuchlagancha darvozaga yugurdim. Zakunchi otini gijinglatib turibdi. Qo'lida qamchi. Kunlar isib ketgani uchun boshiga chaqmoq telpak o'rniga do'ppi kiyib, peshonasini qiyiqcha bilan tang'ib olibdi.

Salom berganimni bilaman, to'satdan dag'dag'a bilan so'radi:

– Qizing qani?

Qo'rqqanimdand tilim kalimaga kelmay qopti. Yaxshiyam ketimdan cholim chiqqan ekan.

– Robiya kasal, – dedi tushuntirib. – Chol-kampir ikkalamiz hozir yetib boramiz.

Endi o'zimga keldim.

– Qizimga jin-ajinalar daf qipti, o'rgilay! – dedim yalinib. – O'zining dardi yetmaganday, Alvasti ko'prikda ko'ziga ajina ko'rinibdi. Bir holatda yotibdi, aylanay!

– O'zlaring ajinasan! – Zakunchining yuzi qahrli qiyshayib ketdi. – Qizingga ayt! Shunaqa yalpayib

yotaversa sochidan sudrab chiqaman. Qamoqqa tushgisi kelmasa ishga chiqsin! Bugun, hozir!

– Xo‘p, – dedi cholim yerga qarab. – Chiqadi. Qo‘r-qitishning hojati yo‘q.

Hayronman, cholimning gapi Zakunchiga og‘ir botdi. Egar ustida o‘tirgan joyida ilon chaqqandek sapchib ketdi.

– Iye, hali hech nimadan qo‘rqmaydigan bo‘lib qoldingizmi, Duma! – dedi g‘azabdan mo‘ylovi uchib. – Hammangni qator qo‘yib, bittama-bitta peshonangdan otish kerak! Hammangni! Avlod-ajdoding bilan! Xoinlar!

Cholim yarq etib Zakunchining ko‘ziga qaradi. Qad-dini rostladi. Baqirib-chaqirmadi. Ammo ovozdagi boyagi mutelik yo‘qoldi.

– Haqorat qilmang, rais, – dedi sekin, dona-dona qilib. – Shukur, avlodimizdan xoin chiqqanmas. O‘g‘lim jon olib-jon berib yuribdi.

– Sening o‘g‘ling-a?! Jon olib-jon beryaptimi?– Zakunchi kinoya bilan shunday mazza qilib iljaydiki, mo‘ylovi qiyshayib ketdi. – Husanov Kimsan sening o‘g‘lingmi axir?! – dedi ijirg‘anib. Egarda o‘tirgancha bir tomonga yonboshlab, shimining cho‘ntagiga qo‘l suqdi-da, allaqanday qog‘oz chiqardi. – Haqiqiy jangchi so‘nggi tomchi qoni qolguncha urishadi! Oliy Bosh Qo‘mondonning 270-buyrug‘iga binoan bunaqalar xoin sanaladi! – Boyagi qog‘ozni nafrat bilan g‘ijimlab, cholimning yuziga uloqtirdi. Qog‘oz cholimning yelkasiga tegib, yerga tushdi.

«Qoraxat! Kimsanimdan qoraxat kepti!» Miyamga shu xayol urildi-yu, es-hushimni yo‘qotdim. Bir mahal ko‘zimni ochsam, qaro tuproqqa belanib o‘tiribman. Yig‘lay desam ovozim chiqmaydi. Turay desam mado-rim yo‘q. Ot ham, Zakunchi ham ko‘rinmaydi. Cholim ham yerga tizzalab qolgan. G‘ijimlanib ketgan qog‘ozning u yog‘ini aylantiradi, bu yog‘ini aylantiradi. Cho‘qqi soqoli, qoqshol qo‘llari titraydi. Boshidan tushib ketgan do‘ppisi tuproqda to‘nkarilib yotibdi.

– Robi-i! – dedi ingichkalanib ketgan ovozda chin-qirib. – Robi-i!

«Bo'ldi! Bolamdan ayrilib qoldim. Yolg'izimdan judo bo'ldim!»

– Bolam! Jonim bolam! – Tuproqqa muk tushib ingrab yubordim.

– Oyi! Bobojon? Nima bo'ldi?

Robiyaning xavotirli hayqirig'idan g'ira-shira hushimga keldim. Olazarak qarasam, cholim boyagi qog'ozni biqinini changallagan ko'yi tepasida turgan Robiyaga uzatyapti.

– O'qi! – dedi tutqanoq tutgan odamdek oyoq-qo'li baravar titrab.

Robiya xatga shosha-pisha ko'z yugurtirdi, rangi o'chib ketdi.

– Ovozingni chiqarib o'qi-i! – dedi cholim iltijo qilib.

Robiya lablari pirpiragancha, xatni qayta o'qidi:

– «Piyoda qo'shinlarining oddiy askari Kimsan Husanov Kaluga ostonalarida bo'lgan jangda bedarak yo'qoldi».

– Nega? – Cholim soqoli titragancha ilkis bosh ko'tarib Robiyaga chaqchaydi. – Qanaqasiga?! – Ich-ichiga tushib ketgan ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi. – Nega?! – dedi ingrab. – O'zidan-o'zi yo'qolaveradimi?

Karaxt bo'lib qolgandim. Qulog'im shang'illar, nima uchundir nafasim bo'g'ilib, tomog'im g'ijillar, ko'nglimda shamolda lipillab turgan shamdek ojiz bir ilinj uyg'ongan edi. «Xayriyat! «Qoraxat» emas ekan!»

– Bu qanaqa o'tirish, o'v!

Shundoq boshim tepasida guldiragan ovozdan cho'chib tushdim. Avval tag charmi ko'chib ketgan bir juft kattakon etik, tizzasiga yamoq tushgan shim, keyin Orif oqsoqolning barvasta gavdasini ko'rdim.

– Nima bo'ldi? – dedi u guldirab.

Cholim kalovlanib o'rmidan turdi.

– Kimsan... – dedi ovozi qaltirab.

Oqsoqol ham bir seskanib ketgandek bo'ldi. Goh cholimga, goh Robiyaga alang-jalang qaradi.

– Nima «Kimsan?»

Robiyaning qo'lidagi xatga ko'zi tushib, buyurdi:

– O'qi-chi, qani?

Robiya xatni yana bir marta o'qidi.

– Qanaqasiga? – Cholim entikib Oqsoqolga yaqin keldi. – Nimaga yo‘qoladi?

– E, o‘le! – Oqsoqol jerkib berdi. – Odamning kapalagini uchirib yubording, pakana! – dedi yengil tortib. – O‘zimam sezuvdim, qoraxat bunaqa bo‘lmaydi... Nosingdan ol.

Cholim orqaga tisarilib, boshini sarak-sarak qildi.

– Yo‘q! – dedi hansirab. – Zakunchi boshqa gap aytdi. O‘g‘ling xoin dedi, bildingmi? – Uning ko‘zlariga yana yosh to‘ldi. – Men... – dedi kichkina, chayir mush-tini tugib. – Men... xoinning otasimanmi? Shuncha yil xoinni boqdimmi?

– Sannama-e, xotinga o‘xshagan! – Oqsoqol shun-day g‘azab bilan hayqirdiki, cholim siyrak kipriklarini pirpiratib angrayib qoldi. Robiya najot kutib Oqsoqol-ning ko‘ziga termildi. Men ham oyog‘imga quvvat kirgandek amallab o‘rnimdan turdim. Lekin nafasim battar qisar, allakim tomog‘imni shoshilmasdan, hafsala bilan bo‘-g‘ayotgancha o‘xshardi.

– O‘sha Zakunching-chi... – Oqsoqol uyat gap aytib yubordi, cholimning ustiga bostirib bordi. – Eshitingmi? Kim aytadi, bedarak yo‘qolganlar xoin bo‘ladi deb? Balki partizanlarga qo‘shilib ketgandir! Shunaqasiyam bo‘ladi-ku, to‘g‘rimi? – Qiziq, u oxirgi gapni ancha shashtidan tushib, ikkilanibroq gapirgandek bo‘ldi. – Nosdan ol-sang-chi, – dedi qovog‘ini solib. – Ana, qa‘nilik Xolmat aravakashning o‘g‘lidan ham shunaqa xabar kelgan. Nima qipti? O‘g‘lingdan qoraxat kelmaganiga suyun-maysanmi, esi past!

Cholim ancha dadillandi. Biroq Zakunchining boyagi qilig‘i yana esiga tushdi shekilli, Oqsoqolga nosqovo-g‘ini uzatarkan, ovozida shubha bilan so‘radi:

– Nimaga bo‘lmasa anavi...

– Yana gapiradi-ya! – Oqsoqol «sdaqai odam ket» degandek quyuq qoshini chimirdi. – Kimsanni bilamanku! – dedi baqirib. – Belida belbog‘i bor bola! Partizanlarga qo‘shilib ketgan. Radio eshitasanmi o‘zi? Jalan degan joyda bizning partizanlar nemisning qan-cha poyezdini aspalasopilinga jo‘natganidan xabaring bormi? – U nosqovoqni cholimga qaytarib berarkan,

to'ng'illadi. – O'zi hech baloni bilmaydi-da, tag'in xotinga o'xshab chiyillaydi. Ko'rasan, erta-indin xat keladi.

Hushim endi o'zimga keldi. Qarasam, Robiya biqini-ni changallagan ko'yi ko'chaga yo'l olyapti.

– Hoy qizim? – degan edim, qo'l siltadi.

– Ketdim! Traktorga boraman!

– Yur, o'rtoq! – dedi Oqsoqol nosini tupurib. Yosh bolani yetaklagandek, cholimning qo'lidan tutib, yurib ketdi.

* * *

Piyoz o'toq qilish – xotinlarning ishi. Nima bo'pti! Ariqqa o'tirib olasiz-u pushtadagi piyozni bo'g'ib qo'y-gan o'tni yulib tashlayverasiz. Bahor seryomg'ir kel-gani mol-holga yaxshi bo'ldi-yu, ekinlarga jabr qildi. Piyozdan ko'p – o't!

Bo'rijar bo'yi – eski to'qayzor emasmi, bitta piyoz chetidan o'nta o't o'sib chiqadi. Qamishni-ku, turgan-bitgani azob. Bugun yulsangiz, ertaga salom berib bosh ko'taraveradi. G'umay bor, sariq pechak bor. Boshqa joyda bir marta o'toq qilsangiz bu erda besh marta qi-lish kerak. Yer zax. Bitta piyozning o'tini yulib olish uchun kam deganda bir piyola choy ichgulik vaqt ketadi. Cho'nqayib o'tiraverib oyoq jonivor uvishib qo-ladi. Allaqachon olma gullab, kunlar isib ketgan. Yel-kangiz qizi-ydi-yu, oyog'ingizdan muz o'tib, qaqshatib yuboradi.

Bir soat ishlamasimdan peshonamdan sovuq ter chi-qib ketdi. Badanim qizib boryapti-yu, o'zim qaltirayman. Zakunchining ertalab aytgan gapi qulog'imdan ketmaydi. «Xoinlar! Hammangni peshonangdan otish kerak!» Nahot mening o'g'lim, yakka-yu yolg'iz Kimsanim xoin bo'lsa! Ishonmayman! Mayli, peshonamdan ota qolsin. Ishonmayman, yuragim sezib turibdi. O'g'lim xoinmas, o'lgan ham emas. Oqsoqol rost aytadi, sog'-salomat. Anavi... oti nimaydi, partizanlarga qo'shilib ketgan... Unaqa bo'lsa Zakunchi nimaga bunaqa dedi? Uyam axir zakunni biladi, Oqsoqoldan yaxshiroq biladi. Xudo ko'rsatmasin, rostdan ham...

Tushlikka zang chalinganida bo'larimcha bo'lgan edim. O'rnimdan turaman deb yiqilib tushdim. Ikki qo'lim loyga botdi. Etaginga yig'ilgan o'tlar piyoz pushtasiga sochilib ketdi. Jonholatda loy aralash o'tlarni tag'in etaginga soldim-da, pushta chetiga bora turib, nafasim g'alati chiqayotganini yana sezdim. Hali Zakunchi Kimsandan kelgan xabarni uloqtirib ketganida ham nafasim qisgan edi. Lekin bunchalik bo'lmagandi. Tavba! Xuddi ichimga birov kirib olib, nuqul hushtak chalayotganga o'xshaydi. Nima balo! Qishda – Xolposh ovsinim Shokir-Zokir o'g'illariga qirq qilgan kuni shamollab qolganimda ham shunaqa bo'luvdi. Robiya orqamga yog' surkab, behini qo'rga ko'mib yedirib amallab tuzatgandi. Unda-ku, isitma chiqqan, yo'tal bor edi. Hozir tuppa-tuzukman. Yo'tal yo'q. Ammo nafasim muttasil g'ijillayapti. Shunaqa qilsam o'tib ketar, degan umidda ataylab, uch-to'rt marta yo'talib ham ko'rdim. Qayoqda! Battar bo'ldi. O'pkam temirchining bosqoniday vishillab, nafas ololmay qoldim. Tavba, nima bo'ldi menga?

Tushlikka har kungiday atala qilishgan ekan. Avval-lari bir kosa atalani ko'rdim demasdim. Ba'zan o'zimning vahmim kelardi. «Nima balo, qahatchilik odamni ochko'z qilib qo'yadi shekilli», deb o'zimdan-o'zim ichimda kulardim. Bu safar to'rt qoshiq atala ichishim bilan nafasim qaytib ketdi. Tomog'im yangi mahsiga o'xshab g'ijir-g'ijir qiladi. Yonimda o'tirgan xotinlardan uyalaman... Kosani yerga qo'ydim-da, oyog'im uvishib qolganidan cho'loqlana-cho'loqlana paykal boshiga – ariq bo'yiga ketdim. Muzday suvga yuzimni chaysam zora tuzalsa! Qizg'aldoqlar ochilib yotgan ariqdan endi suv hovuchlayotsam, oftob charaqlab turgan daladan to'ppa-to'g'ri shu tomonga kelayotgan juvonga ko'zim tushdi. Kim bo'ldi – bu! Voy, mengina o'lay! Ra'noxon-ku! O'zimning kelinim-ku. Unniqqanroq xol-xol ko'ylak kiyibdi, sochini chambarak qilib olgan. Qo'lida daftari. Urush ham o'lsin! Odamlarni bir-biriga shunchalik beqadr qilib qo'ydimi-a! Qudam bechoraning yigirmasi o'tganidan beri kelinimdan xabar ham ololmadim.

Ra'noxon ham aytsa kerak, jigar-jigar, digar-digar ekan-da! Nima qilgandayam erimning onasimas, opasisan-da, qaynonam bo'lsa, shundoq kunda yonimda turardi, deb. Nima qilay, erta-yu kech daladan beri kelmasam, bu yoqda qizim shuncha dard chekkan bo'lsa?

Nafasim qisganiga qaramay, yugurib borib, quchoqlab ko'rishdim. Guldek qiz edi, bechora! So'lib qopti. Qorayibdi, yuzini dog' bosibdi...

U yuzidan-bu yuzidan o'pib ko'rishdim.

– Shomuroddan xat bormi? – desam, negadir qizarganday bo'ldi. Baribir yosh-da! Uyaladi.

– Ha, – dedi iymajib. – Yaxshi ekanlar, sizlarga salom aytibdilar.

Xayriyat, ukam sog'-salomat ekan. Shuni o'ylashim bilan, bugungi hangoma yana esimga tushdi. Raisning «xoyinsanlar» degani tag'in qulog'im tagida eshitilganday bo'ldi-yu, ich-ichimdan zil ketib, tushuntirdim:

– Robiya kasal edi, kelinposhsha, sizniyam holingizdan xabar ololmadik.

Ra'noxon o'toqchi xotinlar g'uj bo'lib ovqatlanib o'tirgan tol tomonga qarab, yuzi yorishgandek bo'ldi.

– Umar aka keldilar... – dedi sekin.

Tol tagida jiyronni jilovidan tutib turgan Zakunchini ko'rib, yuragim zil ketdi.

– Yuring, opa! – Ra'noxon qoshini chimirdi. – Jahl-lari chiqib yurmasin!

Shunday dedi-da, o'qariq chetidan yugurgudek bo'lib ildam yurib ketdi. Kelinimga yetib yurolsam ekan! Nafasim qisib ketyapti. Oyog'im chalishadi. Yuragim gursillab uradi. Yana bir qadam bossam yiqilib tushadigandek gandiraklab boryapman...

Amallab yetib keldim-u ataladan bo'shagan kosalarini oldiga qo'yib, davra qurib o'tirgan xotinlar yonidan o'tgancha tolga suyanib cho'nqayib qoldim. Qulog'imga Umar zakunchining ovozi kirdi:

– Kolxozchi o'rtoqlar... Zamon og'ir. Ammo g'alaba yaqin. Dushman chekinyapti...

Qovog'imga tosh osilganmi? Ko'zimni ocholmayman.

Hadeb nafasim qaytadi. Peshonamga kaftimni bossam, o't bo'lib yonyapti! Nima balo, yana og'rib qoldim shekilli.

Zakunchining gapi qulog'imga elas-elas chalinadi:

– Dushman chekinyapti, – dedi u qaytarib. Mensimadi demasin degan o'yda amallab ko'zimni ochib qarasam, menga tikilib turibdi. Boshida o'sha do'ppi. Peshonasi qiyiqcha bilan tang'ilgan. Ko'zida ertalabdagiga o'xshagan zaharli kinoya. – Dushman chekinyapti-yu, ammo... – U menga bir qarab, hazar qilgandek yuzini chir o'girdi. – Bizning oramizda ham jang-siz, kurashsiz chekinayotganlar yo'q emas. Birining u yeri og'riydi, birining bu yeri... Birini «ajina chaladi»...

Atalaga to'ymagani uchun turshak chaynab o'tirgan Parcha ho'-ho'lab kuldi.

– O'sha ajinani ko'rsamiydi, obshi qozonga bosib, qaynatma sho'rva qilardim!

Xotinlar kulib yuborishdi.

Zakunchi ham mo'ylovini qiyshaytirib miyig'ida kuldi.

– Malades! Siz-ku, shunaqa deysiz. Lekin arpa unini bahona qiladiganlar ham bor-da! Nima dedingiz!

G'uvillab ketayotgan boshimni ko'tarib qarasam, Zakunchi menga tikandek qadalib turibdi. Ko'kish ko'zlaridan sovuq uchqun sachrab ketayotgandek.

– Bu urush – hayot-mamot jangi, – tishlarini g'ijirlatib ta'kidladi u. – Odam nina emaski, shudgorga tushib yo'qolib qolsa. Lekin ayrim jangchilar yo'qolib qolayotganmish. – Zakunchi kinoyali kuldi. – Qiziq, butun boshli jangchi yo'qolib qolsa! Vatan ishonib topshirgan qurol-yarog'i bilan. Balki hozir nemisning tovonini yalab yurgandir? A, labbay? – Zakunchi «javob ber!» degandek ko'zimga qattiq tikildi.

Xotin-xalaj hayron bo'lib qolgan, hamma bunaqa xunuk gapni birinchi marta eshitayotgani uchun sehr-lanib qolgandek undan ko'z uzmas, Ra'noxon boshini quyi solgancha, qo'lidagi daftarga qalam bilan allanimani chizib turardi.

Yuragim qinidan chiqib ketgudek ura boshladi. Nafasim bo'g'zimga tiqilib qolayotganini, ko'z o'ngim xiralashib ketayotganini sezib turardim.

Zakunchi cho'ntagini uzoq titkiladi. Oxiri papiros olib, tutatdi.

– Gaping! – dedi boshini malomat bilan chayqab. – Gapga ustasiz-ku, avlod-ajdodingiz bilan!

– Yolg'on! – dedim chinqirib... Umrin bino bo'lib bo'g'zimdan shunchalik dahshatli, alamli hayqiriq otilib chiqmagan bo'lsa kerak. – Yolg'on! Tuhmat qilgan tuhmat balosiga uchrasin! Uchramasa u dunyo-yu bu dunyo rozimasman!

– Tag'in shallaqilik qiladi! – Zakunchi papirosini g'azab bilan chertib yubordi.

– Bu qandoq bedodlik! – dedim ikki qo'lim bilan tizzamni mushtlab. – Bu qandoq tuhmat!

Odam esdan og'ishi hech gap emas ekan. Jinnilardek chinqirgancha Zakunchiga talpindim. Ammo ikki qadam yurmasimdan yer-u ko'k chirpirak bo'lib aylandi-yu, yuztuban yiqilib tushdim. Ko'zimni ochsam, atrofimni xotinlar o'rab turibdi. Parcha piyoz o'tayverib ko'karib ketgan kattakon, dag'al kafti bilan yuzimni silayapti.

– Qo'ying, opajon! – dedi do'rillab. – It akilladi qo'ydi-de!

– Ko'zingizni oching! – Ra'noxon peshonamni siladi. – Xafa bo'lmang. Bilasiz-ku. Umar akagayam osonmas...

Uyga qanday yetib kelganimni bilmayman. Shunisi esimdaki, Ra'noxon qo'ltig'imga kirib, ancha joygacha olib keldi. Yo'l-yo'lakay yupatdi. «Raisdan xafa bo'lmang, ungayam qiyin», dedi. Negadir hovliga kirgisi kelmadi. «Oltinchi brigadaga borishim kerak», deb ko'cha boshida xayrlashdi. Bu yog'iga mast odamdek gandaraklab keldim. Boshim yorilib ketgudek lorsillar, nafasim qisar, oyoqlarim chalishib-chalishib ketar edi. Ko'cha eshik oldida turgan eshak aravani ko'rib hayron bo'ldim. Hali kun botgani yo'q-ku! Cholim nimaga erta qaytibdi? Bu o'ylar xayolimdan lip o'tdi-yu, o'sha zahoti unutdim. Hech nimani o'ylagim kelmas, hech kimni ko'rishga toqatim yo'q edi.

Hovliga kirishim bilan behi tagida yoqa bo'g'ishib turgan Oqsoqol bilan cholimni ko'rib, arang hushimni to'pladim.

– Jinni! – Oqsoqol uzun kamzul kiygan cholimning yoqasidan changallab silkitardi. – O'shaning gapiga uhasanmi, pakana!

– Qo'yvor! – Cholim qo'shqo'llab Oqsoqolning o'g'ir dastasidek yo'g'on bilagiga yopishdi. – Oq qildim! – dedi chiyillab. – Bunaqa o'g'lim yo'q! Oq qildim!

– O'v ahmoq! – Oqsoqol kamzul yoqasidan g'ijimlab dast ko'targan edi, cholimning oyog'i yerdan uzilib tipirchilab qoldi. Nafas ololmay ko'zlari olayib ketdi. O'z dardimni unutib, dod solgancha Oqsoqolga yopishdim.

– Bu nimasi?.. Uyalmaysizlarmi?

– Ko'rmaysanmi pakanangni! – Oqsoqol harsillagan ko'yi cholimning yoqasini bo'shatgan edi, cholim shilq etib yerga o'tirib qoldi. Oqsoqol o'zining qilg'idan o'zi qo'rqib ketdi. Cho'kkalab o'tirgancha cholimning yuziga avaylab shapatiladi. – O'v! Jinnimisan, ko'zingni och, o'rtoq!

Cholim ola-kula bo'lib ketgan ko'zlari bilan atrofga alangladi.

– Aytdi-ku! – dedi ingrab. – Hammaga aytib chiqdi-ku! Dumaning o'g'li xoin dedi-ku! 270-buyruq...

– E, tuqqaningni! – Oqsoqol jahl bilan o'zining tizzasiga mushtladi. – Ishonma, dedim-ku. Ishonma, o'sha lo'ttivozning gapiga! Qaytib ol, ahmoq! Gapingni qaytib ol! Gunohga botasan, tentak! Xohlasang ertaga Toshkentga tushib voyenkomat bilan gaplashaman, ovsar!

Hamon garangsib turardim. Bundan chiqdi Zakunchi Kimsan bedarak yo'qolganini hammaga gapirib chiqqan. Xuddi boyagidek hammaning o'rtasida gapirgan. Cholim isnodga chidolmayapti. «Oq qildim!» dedimi?

Kalovlanib borib cholimning oyog'iga o'zimni tashladim.

– Dadasi! Qaytib oling gapingizni! Kimsan unaqamas!

Yosh to'la ko'zlarim bilan qarasam cholim kiprik-larini pipirratib hayron bo'lib turibdi.

– Unaqa bo'lsa meniyam taloq qo'ying! Menam haromman! – dedim tomog'imni qisib kelgan yig'idan bo'g'ilib.

– Ana! Eshitdingmi, eshshak! – Oqsoqol cholimga dag'dag'a qildi. – Qaytib ol gapingni!

– Bo'pti! – Cholim boshimga egilib, sochimni siladi. – Iloyo Xudoning o'zi kechirsin!

– Iloyo-piloyoingni qo'y! – Oqsoqol battar o'shqir-di. – Ayt! O'g'lim, adashdim, kechir meni, de!

Cholim titroq qo'llari bilan yuzini changalladi.

– O'g'lim! – dedi yig'lamsirab. – Kechir meni. Kimsanim! Bilaman, sen mard bolasan! Yo Xudo, do'st-dushman oldida yuzimni yorug' qil, Xudoyim!

– Mana bu boshqa gap! – Oqsoqol yengil tortib, cholimning ko'ziga tikildi. – Tur, o'rtoq! – U do'stini su-yab o'rnidan turg'azdi.

Men ham emaklagudek bo'lib, turdim.

Boshim battar g'uvillar, nafas olishga qiynalardim. Endi ayvon tomon yurgan edim, cholim to'satdan yana «aynib» qoldi.

– Obchiq! – dedi chiyillab. – Obchiq boyagini!

Qarasam, cholim Oqsoqolning qorniga kalla qo'yishni mo'ljallagan suzong'ich echkidek boshini quyi solgancha, ko'zini olaytirib turibdi.

– Bochkani nima qilasan, ahmoq? – Oqsoqol xunob bo'lib ikki qo'lini silkitdi. Madad kutgandek menga yuzlandi... – Buningni qara, kelin, boyadan beri bochka so'raydi. Niyati nima o'zi?

– Obchiqasanmi-yo'qmi? – Cholim alam bilan shunday chinqirdiki, Oqsoqol beixtiyor orqasiga tisarildi. – Obchiq! – dedi cholim hansirab. – Bilaman, uyingda to'rttasi turibdi.

Oqsoqol esdan og'ib qolgan do'stini insofga keltirmoqchi bo'ldi shekilli, sekin-sekin tisarilib, yupatdi.

– To'rttamas, uchta. Qishda, o'tin yo'g'ida bittasini sindirib yoqqanman.

– Uchta bo'lsa – uchta! Obchiq! – Cholim yana hezlanib kelgan edi, Oqsoqol ko'cha eshik tomonga lapanglab qochdi.

– Xo'p, dedim-ku!

Oqsoqol chiqib ketishi bilan cholim molxona yon-boshidagi hujraga yo'l oldi. Qorayib ketgan eski bochkani daqir-duqir qilib dumalatib hovli o'rtasiga olib keldi. Bochkani tik qilib qo'ydi-da, oshxonaga kirib, tesha topib chiqdi. Bochkani temir halqalarini daranglatib ura boshladi. Bir vaqtlar, urushdan oldin shu bochkaga bodring tuzlardik. (Kimsan qishda tuzlangan bodring eyishni yaxshi ko'rardi.)

Cholim bochkaga emas, mening boshimga urayotganga o'xshar, tesha har gal temir halqaga urilganida qulog'im shang'illar, ko'nglim behuzur bo'lib, nafasim qisilar, behi shoxini qo'yib yuborsam, yiqilib tushishimni sezib turardim. Robiya qayoqda qoldi? Nima qilmoqchi bu qaysar chol!

Amallab ayvonga chiqdim, u yog'iga yurishga madorim yetmadi. Ayvon peshiga o'tirib qoldim.

Oqsoqol aytganini qildi. Bitta bochkani dumalatib hovliga olib kirdi. «Ma, jinni, bilganingni qil», degandek bochkani jahl bilan tepib yubordi. Bochka dumalab supa oldiga borganida cholim chaqqonlik bilan tiklab, temir halqalarini daranglatib tesha bilan urishga tushdi.

Birpasdan keyin Oqsoqol ikkinchi bochkani ham dumalatib kirdi.

– Ko'ngling to'ldimi! – dedi harsillab. – Bo'ldimi! Ana, ikkalasiyam senga! Ichiga tushib yotaver!

– Ziqnalik qilma! – Cholim Oqsoqolga o'qraydi. – Obchiq unisiniyam!

– Obbo! – Oqsoqol to'ng'illab chiqib ketdi. Anchadan keyin u yana bitta bochkani yelkasiga ortmoqlab kirib keldi. Bunisi kichkinaroq edi.

– Bo'ldimi? – dedi jahl bilan bochkani cholimning oyog'i ostiga tashlab. – Qutuldimmi, bochka jinnisi!

Oqsoqol supaga chordana qurib o'tirgancha cholimning ishini kuzata boshladi.

Cholim bochkalarni tartibga solib bo'lgach, eng katasini dumalatib, hojatxona eshigiga bordi.

Oradan ancha o'tdi. Bir mahal supada o'tirgan Oqsoqol ildam turib ko'cha eshikka yo'naldi.

– E, qilig'ing qursin! – dedi eshikdan chiqib ketarkan, to'ng'illab. – Jinni, pakana!

Ammo g'ira-shira qorong'i tushganida yana qaytib keldi. Hamon hovli burchagida kuymanayotgan cholimning oldiga bordi.

– Nima zaril senga, Duma! Shundan boshqa ish qurib qoldimi? – degan edi, cholimning ovozi titrab, hayqirgani eshitildi.

– O'z holimga qo'yasanmi-yo'qmi?

O'sha zahoti yig'i aralash ingradi!

– Yuragim yonib ketyapti, o'rtoq! Mana bu yerim kuyib ketyapti, jon o'rtoq!

Ikkalasi g'o'ng'ir-g'o'ng'ir qilib allanimalarning maslahatini qilishdi.

Qorong'i uyga kirdim-u shaparak ko'rpachaga o'zimni tashladim. Shu ko'yi uch hafta yotdim...

Goh hud, goh behudman. Isitma aralash Kimsanim tushimga kiradi. Birovdan uyalgandek jilmayib turganini ko'raman. Hushim joyiga kelganida nafasim qisilib, ichimda birov hushtak chalayotgandek bo'laveradi. G'ashim keladi. Cholim ishda, Robiya ishda.

...Qizim ozib-to'zib ketdi. Allaqanday odamovi, kamgap bo'lib qoldi. Ko'pincha kechalari ham dalada qolib ketadi. So'rasam bir og'iz: «Traktorni bekor qo'y-gim kelmadi», deb qo'ya qoladi. Uyga kelganda ham indamay ayvon peshiga o'tiradi-yu, oydin kechalari qiyiqchaga gul bosadi. «Kimga?» desam, «Kimga bo'lardi, Kimsan akamga-da», deydi jilmayib. Jilmayadi-yu, labi titrab ketadi.

Yaxshiyam baxtimga Xolposh ovsinim bor ekan. Ikki haftagacha uzzukun boshimda o'tirdi. Komil tabibning «turkana» dorilaridan ichiradi. Og'zimga bir qoshiq issiq tutadi. Ikki gapning birida Robiyani duo qiladi.

– Robiyaxon umridan baraka topsin! Ajabam traktor haydashni o'rgatgan ekan. Zo'ram ancha ovunib qoldi, ovsinjon!

Bir kuni cholimniyam maqtab qoldi.

– Eringizni aqli toshni yoradi, ovsinjon! Lavlagiga «sharbat» oqizyapti. Ekinga ja quvvat bo'larkan-da, bu ordona qolgur!

2. Yomonning kuchi – yapaloqqa...

Kuz erta tushdi. Qovun palagi qurimasidan havoda mezon uchdi. Kechalari osmonda turnalarning horg'in nolasi eshitildi. Bu yil qish qattiq keladiganga o'xshaydi. Teraklar bargini erta to'kdi.

Lavlagi kavlashga tushganimizga bir haftadan oshdi. Cholim rostdan ham hammayoqni «sharbat»ga to'ldirib yuborgan ekan. Qaysi paykalga kirmang, o'qariq boshidagi «tillaxona»ga ko'zingiz tushadi. Uzunligi besh quloch, eni ikki quloch chuqurga cholim hovlima-hovli yurib, bochkaga ortib kelib «madaniy» to'ldirgan. Yoz bo'yi suvga qo'shib «sharbat» qilib oqizgan.

«Sharbat»ning o'zi yomon bo'lgani bilan «hikmat»i zo'r ekan. Lavlagi shunaqangi «quturib» ketganki, har bittasi samovardek keiadi.

Kecha Ra'noxon lavlagi qaziyotgan joyimizga kelib, ataylab odamlarni to'pladi. Gazetada Umar zakunchining kamida bir pud keladigan lavlagini ko'tarib turgan surati chiqqan ekan. Surat tagidagi yozuvni ham-maga eshittirib o'qidi:

«Staxanovchi Umar Xo'jayev raislik qilayotgan «Qizil dehqon» kolxozining azamatlari har gekardan oltin tonnadon lavlagi olishga ahd qilganlar. Bu – qahramon kolxozchilarning qahramon jangchilarga munosib sovg'asi bo'ladi...»

...Qiziq... Orif oqsoqol o'shanda to'g'ri aytgan ekan. Bedarak yo'qoldi, degani xoin degani emas ekan. No'g'ayqo'rg'onga yana ikki odamdan shunaqa xabar keldi. Bunaqa xat olganlar xafa bo'lish o'rniga qaytaga quvonishdi. Bundan chiqdi, o'g'li tirik. Kim bilsin, balki gospitalga tushgandir, balki partizanlarga qo'shilib ketgandir... Cholim ham o'lgudek hovliqma-da! Zakunchining bir og'iz sovuq gapiga achchiq qilib, erta-indin tug'ay deb turgan galanska sigirni sotib keldi. O'rniga o'rin tirraqi buzoq opkepti. Bu jonivor qachon sigir bo'ladi-yu qachon sutga kiradi... «Qolgan pulni nima qildiz», desam, «ishing bo'lmasin», deb jerkib berdi. Keyin Oqsoqoldan eshitdim. Cholim «O'zbekiston»

tank kolonnasiga hammadan ko'p pul topshirganmish. Zakunchi majlisda cholimni rosa maqtaganmish. Maqtamay tiling kesilgur! Nima qilarding tuhmat qilib! Nima qilarding el o'rtasida bizni malomatga qoldirib! Shuni aytsam, Oqsoqol so'kib berdi: «Yosh bola tushunadigan narsaga aqling yetmaydi-ya, kelin! Zakunchi sening pakanangni azbaroyi yaxshi ko'rganidan maqtabdimi? Choling obro' oberyapti Zakunchiga, tushundingmi! Hech kim qilmagan og'ir ishni zimmasiga olib «sharbat» tashiyapti. Raisga shundan boshqa narsa kerakmas!» Mening aqlim yetmagan narsani cholim juda yaxshi bilarkan. Bugun Zakunchi yoniga suykalib kelgan edi, janjal chiqarishiga bir bahya qoldi. Nachora, yomon gap odamning ko'nglidan ketmas ekan. Bugun g'alati kun bo'ldi o'zi. Kulishingniyam bilmaysan, xafa bo'lishingniyam...

... Cholim bilan Parcha lavlagi qazir, bizlar savat zambilga ortib, paykal boshida turgan ho'kiz aravaga tashiyotgan edik. Aytdim-ku, lavlagi jonivor shunaqangi bo'lib berganki, kattaroq ketmon bilan qazimasangiz, bo'lmaydi: kesilib, yarmi yerda qoladi. Cholim-ku, erkak. Parchani aytmaysizmi! Ketmoni barkashdek keladi. Har ketmon solganda yer zirillab ketadi. Bilaklarini shimarib olib, g'ayrat bilan ishlab yotibdi. Lazakat ikkalamizga bitta zambil tekkan. O'nta xotin cholim bilan Parcha qazib berayotgan lavlagini tashib yetkazolmaymiz. Savat zambil besh-oltita lavlagi bilan to'lib qoladi. Arava o'lgur bitta. Bultur kartoshka qaziganimizda cholimning eshak aravasi ham korimizga yarab turuvdi. Endi unga lavlagi ortib bo'lmaydi, hazar qilishadi. Ho'kiz arava omborga borib-kelguncha lavlagini xirmon qilib uyib tashlaymiz.

Ish ayni qiziganida Zakunchi kelib qoldi. Kayfi chog'. Salqin tushib qolgani uchun bo'lsa kerak, yana o'sha chaqmoq telpagini kiyib olgan, oyog'ida qaytarma qo'njli etik, qo'lida qamchi... U otdan chaqqon sakrab tushdi. Jilovdan tutgan ko'yi kulimsiradi.

– Hormanglar-ov! – dedi tetik ovozda. – Bir minut vaqtinglarni olaman.

Hamma birin-sirin yaqin keldi. Faqat Parcha o'qariq boshida, yarimlab qolgan, ustiga tuproq sepilgan «til-laxona» yonida ketmoniga suyangancha turaverdi. Zakunchi tog'dek uyulib yotgan, har bittasi do'ngdek keladigan qand lavlagi xirmoniga ko'z tashlab, qamchili qo'li bilan ingichka mo'ylovini siladi.

– O'rtoqlar! – dedi tantanali, jarangdor ohangda. – Bugundan boshlab Yangiyo'lda qand zavodining yangi sexi ishga tushdi. Bizning lavlagi bilan ishlaydigan sex! Bilasizlarmi, bu – nima degani! – U mamnun jilmayib, hammaga birma-bir qarab chiqdi. – Bu degani shuki, bizning lavlagi ertaga tonna-tonna qand bo'lib jangchilarga jo'natiladi. Bu zakonniy ishga siz ham hissa qo'shdingiz, Husan aka! – U ot jilovidan tutgancha cholimga yaqin bordi. – Malades, boboy! – dedi qamchili qo'li bilan cholimning yelkasiga qoqib. – Malades!

Qiziq! Cholimning rangi gezarib ketdi. Zakunchi-ning qo'lini yelkasidan siltab tashladi. Zakunchining avzoyi o'zgardi.

– Ha! – dedi mo'ylovi uchib. – Arpangizni xom o'rdikmi?

Cholim xo'mrayib turganini ko'rib, miyig'ida kuldi.

– Yaxshilik yoqmagan banda! Izzat qilsang to'rga chiqib... – U kitelining cho'ntagidan papiros oldi. Shunda cholim g'alati ish qildi. Shimining cho'ntagiga qo'l suqqan edi, yaltiroq papiros qutisi chiqdi. Esini yeganmi cholim! Papiros chekmasdi-ku, qayoqdan keldi bunaqa quti!

U indamasdan qutini Zakunchiga uzatdi. Zakunchi negadir esankirab qoldi. Goh cholimga, goh qo'lidagi yaltiroq papiros qutisiga qaragancha orqaga chekindi. Boshi ot tumshug'iga tegib, chaqmoq telpagi qiyshayib ketdi.

– Tek, padaringga la'nat! – dedi jiyronga qamchi o'qtalib. Ot qulog'ini chimirib, bosh silkidi. Suvliq shaqirladi. Cholim bir zum Zakunchiga tikilib turdi-da, papiros qutisini yerga uloqtirdi. Quti pushta ustiga tushib, dirillab sakrab ketdi. Ichidagi papiroslar har yoqqa sochildi. Cholim ketmonini yelkasiga tashlab, indamay ketaverdi. Oraga tarang sukunat cho'kdi.

Boyadan beri ketmon dastasidan ushlab turgan Parcha rais oldida o'zini ko'rsatib qo'ygisi keldi shekilli, ikki kaftiga mo'lgina tufladi-da, ketmonni boshi ustida baland ko'targancha «xax» deb lavlagi pushtasiga urdi. Mo'ljallagan lavlagisi «tillaxona» yaqinida o'sgani uchunmi, rosayam bitib ketgan ekan! Ketmonni har-chand chuqur solmasin, qoq yarmidan kesilib otilib ketdi. Silliqlik kesilgan lavlagining yerda qolgan pallasini lagan-dek oppoq ko'rinib qoldi. Birdan Zakunchining ko'zlari qisilib, ko'kimtir o't chaqnadi.

– Svovich! – dedi hayqirib. – Nima qilding, ablah! – Ot jilovidan tutgancha, qamchi o'ynatib Parchaning tepasiga bordi. – Mana shu lavlagi bir jangchining hayotini saqlab qolishini bilasanmi! – U pushta ustida yotgan lavlagi pallasini etigi bilan tepdi. Lavlagi yarimta bo'lsa ham o'rtacharoq paqirdek kelardi. Tepki zarbidan uchib ketmadi. Bir tomonga dumaladi, xolos.

Parchaning qalin labi osilib ketdi. Qo'rqib, kiprigini pipiriradi, ammo chekinmadi, angrayib turaverdi.

– Man bilmadim-de! – dedi do'rillab. – Kotta ekan!

– Bilmading?! – Zakunchining ovozi tahdidli jarangladi. – Sen ochofat hammasini bilasan! Lavlagining yarmisini yerda qoldirib, uyingga obketmoqchisan! Ajdaho nafsingga qaynatib yemoqchisan.

Parcha atrofdagi xotinlarga hayron alangladi.

– Manov kishini qarayla! Jinnimi bu?

– Mana jinni! – Havoda qamchi vizilladi. Parchaning chakkasidan iyagigacha ingichka ko'ndalang iz tushib qoldi. Iz avval qizg'ishtob bo'lib turdi-da, o'sha zahoti arqondek bo'rtib chiqdi. Burnidan tirqirab qon oqa boshladi.

– Qochsang-chi! – dedi Lazakat chirqillab. – Qoch!

Shu payt ketmonni boshi ustida baland ko'tarib yugurib kelayotgan cholimga ko'zim tushdi.

– Bormang! – Qo'shqo'llab ketmon dastasiga osildim. – Aralashmang, qamatadi!

– Nari tur! – Cholim ketmonni siltab tortdi. Kuchim boricha dastaga yopishib oldim. Ikkalamiz pushtaga cho'kkalab qoldik.

Orqa tomonda yana qamchi vizilladi. Qo'rquv ichida burilib qaradim. Parchaning yuzida arqondek ikkinchi chiziq bo'rtib chiqdi. Parcha bu gal ham qochmadi. Lekin ilondek to'lg'anayotgan qamchini mahkam changallab oldi. Cholimning qo'lidagi ketmon dastasiga hamon yopishgancha qarasam, Zakunchi qamchi dastasini siltab tortyapti.

– Qo'yvor! – dedi g'azabdan xirillab.

Burni qonayotgan Parcha qamchini bo'shatmadi. Cholim ketmonni tashlab, o'sha tomonga yugurayotgan edi, oyog'iga osilib oldim.

– Bormang!

– Qo'yvor, it emgan! – Zakunchi tishini g'ijirlatib, qamchi dastasini yana siltadi. Parcha qimir etmas, hurkib ketgan ot nuqul yer tepinib boshini silkitar edi.

Zakunchi ot jilovini qo'yib yubordi. Ot dumini gajak qilib shataloq otdi.

– Qo'y-vorr! – Zakunchi qamchi dastasini qo'sh-qo'llab changallagan ko'yi kuchi boricha orqaga siltagan edi, Parcha kaftini yozib yubordi. Zakunchi orqasiga tisarilib ketdi. Uch-to'rt qadam gandiraklab bordi-yu, o'qariq pushtasiga qoqilib «tillaxona»ga chalqancha yiqildi.

Bu – shunaqangi kutilmaganda bo'ldiki, hamma angrayib qoldi. Hatto boyadan beri o'sha tomonga talpinayotgan cholim ham pushtaga cho'kkalagancha og'ir-og'ir kiprik qoqdi.

Zakunchining qaytarma qo'njli etigi hadeb tipirchilar, ammo o'zi ko'rinmasdi. Nihoyat etiklar ham bir zum ko'zdan g'oyib bo'ldi-da, keyin «tillaxona» qirg'og'ida bir juft qo'l ko'rindi. U qirg'oqdagi kesaklarni tatalagancha emaklab yuqoriga chiqa boshladi. Boshidagi chaqmoq telpak tushib qolgan, ammo najasga belangan qamchisini haliyam qo'lidan qo'ymagan, yuz-ko'zini ko'rib bo'lmas, og'zini kappa-kappa ochib nafas olardi. Hammayoqni badbo'y is tutib ketdi. U yuzini artmoqchi bo'lgan edi, battar iflos qildi. Etigining qo'njidan sho'l-tillatib «sharbat» sachratgancha duch kelgan tomonga yugurib ketdi.

Yigirma birinchi bob

ROBIYA HIKOYASI

Orif oqsoqolning qarori

Urushning ikkinchi bahori ham qahrli keldi. Endi o'rik gullaganda qora sovuq bo'lib, hammayoqni qaqshatib ketdi. Umar zakunchi o'shanda xat olib kelganida Kimsan akamning dom-daraksiz ketishini judayam xohlagan ekanmi, bilmayman. Bir yildan beri na xat bor, na xabar. Oyimning aytishicha, odam uxlaganida joni tanidan chiqarmish-da, qanotli ot bo'lib osmonga uchib ketarmish. Uchib yurib, yaqin kishilarining joni bilan uchrasharmish. Shu gap rost bo'lsa, mening jonim Kimsan akamniki bilan tez-tez uchrashib turadi. Goh ikkovlashib ishkonda uzum uzamiz, goh allaqanday notanish ko'chalarda yurgan bo'lamiz. Bundan chiqdi, Kimsan akam tirik. Uning joni ham meni izlab yuribdi. Shunaqa paytlarda uyg'onib ketsam, ko'zimni qaytadan yumib olaman, tushimning davomini ko'rgim keladi. Kechalari sandal chetida o'tirib, qiyiqchaga Kimsan akamning nomini yozib, kashta tikaman...

Ko'klam surilib ketgani uchun traktorlarni kechasi ham ishlatadigan bo'ldik. Yaxshiyam Zuhra kelinini traktor haydashga o'rgatganimiz. Bashor opa ikkalamizning qo'limizdan nimayam kelardi. Zuhra kelin yordamchisi Olimjon bilan binoyidek ishlayapti. Kuzda ham ancha joyni shudgor qilgan edi. Avvaliga Olimjon: «Opa, siz bilan ishlayman», deb ko'p xarxasha qildi. Bolani aldab-suldab yo'lga soldim. Menga baloyam urmaydi. Yordamchi kerakmas. Suv tashish bo'lsa o'zimdanda ortmas. Hama Zuhra kelinga yordam bergani. Nima bo'lgandayam ko'ngli yarim.

Tongotar uyqusi qanchalik shirin bo'lishini kechasi bilan mijja qoqmagan odam biladi. Hammasiga chidaysiz-u, olisda – tog'lar ortida osmon bo'zara boshlaganda shunaqangi uyqu bosadiki, dunyodagi hamma narsani unutib, zaxkash tuproqqa tappa tashlab yotib olgizingiz keladi. Bilmagan odam traktorning tarillashi

uyquni buzadi, deb o'ylaydi. Unaqamas, aksincha, traktorning ovozi allalaydi: bulturdan qolgan marzalar ustidan silkina-silkina o'rmalayotgan traktor beshikdek tebranadi. O'tirgan joyingizda mudrab ketganingizni o'zingiz bilmay qolasiz.

Zuhra kelin uyquchiroq! Ko'pincha tong-saharda traktorni dala o'rtasida to'xtatadi-da, rul chambaragiga boshini qo'yganicha uxlab qoladi. Bu safar ham shunaqa bo'ldi. Marza etagiga borganda traktorni burayotsam narigi paykal o'rtasida bir ko'zli chirog'i yonib turgan traktorni ko'rdim. Zuhra kelin yana uxlab qopti. Traktor bir joyda qimirlamay turibdi.

Motorni o'chirib, tuproq kechgancha o'sha tomonga yurdim. Bilaman, Zuhra opamga qiyin. Oqsoqolnikiyam katta dargoh. Fotima opa bola-chaqadan ortmaydi. Uydagi ko'p yumushlar Zuhra kelinning zimmasida. Na uyda tinim bor, na dalada. Ammo traktor to'xtab turganini Bashor opa ko'rsa xafa bo'ladi. U kishiniyam joni o'ntamas, yuribdi-ku, kecha-kunduz tinim bilmay. Buyam mayli, Umar zakunchining tong otar-otmas dala aylanadigan odati bor. Shu ishning ustiga kelib qolsa, Zuhra kelinning dilini siyoh qiladi...

Qiziq, Olimjon qayoqqa ketdiykin? Uyam uxlab yotgandir-da. Bola-ku axir.

– Zuhrapa! – dedim yo'l-yo'lakay baqirib.

Yaqin kelsam Zuhra kelinning traktori tarillab turibdi.

– Zuhrapa! Turing! Tong otyapti.

Garang odam bo'lsayam eshitardi. Qattiq uxlab qolgan shekilli. Traktorning temir zinasiga oyoq qo'yib, ichkariga mo'raladim-u hayron bo'ldim. Traktor ishlab turibdi, chirog'i yoniq, ammo ustida hech kim yo'q.

Birdan yuragimga g'ulg'ula tushdi. Bultur traktor tepib, bir oy azob chekkanim yodimga keldi. Motor o'chib qolgan bo'lsa, yurgizaman deb uniyam tutqich tepkisi urib yuborgan bo'lsa-chi.

Yo'q, unaqa desam motor ishlab turibdi-ku! Xayolimga undan ham vahimali o'y keldi-yu, vujudim muzlab ketgandek bo'ldi. Traktor haydab ketayotib uxlab qolgan bo'lsa-chi! Uyqusirab yiqilib tushib, g'ildirak

tagida qolgan bo'lsa. Majaqlanib o'lib yotgan bo'lsa... Jonholatda orqaga, traktor qazib o'tgan qop-qora shud-gorga yugurdim.

– Zuhra-pa-a-a! – dedim vahima bilan chinqirib.

Olisda xira oydingda mudrab yotgan qirlar ortidan «a-a-a» degan sado keldi.

Olimjon-chi? Olimjon qayoqda? Hali pachoq chelakda suv ko'tarib, Zuhra kelinning traktori tomonga ketayotganiga ko'zim tushuvdi.

– Olimjon-on?! – dedim baqirib. – Olimjo-o-on!

Paykal etagida o'rimalab kelayotgan Bashor opaning traktori ham to'xtaganini ko'rdim.

– Olimjon! Zuhra! – Qo'rqqanimdan kaftimni karnay qilib ovozim boricha baqirdim. – Olimjo-on!

Paykalning yuqori tomonidan – tutzor orasidan bir qora ajralib chiqdi-da, shu tomonga yugurdi. Yaqinroq kelganda ilg'adim – Olimjon! Egnida eski chopon, boshida do'ppi. Qo'lida chelak.

– Zuhra opang qani? – dedim titrab.

Olimjon ro'paramga kelib chelakni yerga tashladi. Bo'sh chelak darangladi.

– Suv kerakmi? – dedi mushti bilan ko'zini ishqalab. – Uxlab qopman, opa!

– Zuhra opang qani, deyaqman! – Go'yo Zuhra kelinni Olimjon bir yerga yashirib qo'ygandek jahl bilan so'radim. – Qayoqqa ketdi?

Bola yerda ag'darilib yotgan chelakning bandidan ushlagancha orqasiga chekindi.

– Bilmadim, opa... Hali suv opkelganimda bor edilar.

Orqa tomonda etikning yumshoq yerga urilayotgani eshitildi. Bashor opa harsillab yaqin keldi.

– Nima gap? – dedi goh menga, goh Olimjonga qarab.

– Zuhra opa yo'q. Hali Olimjon ko'rgan ekan.

Bashor opa temir zinadan chiqib, Zuhra kelinning traktorini o'chirdi.

– Biron joyda uxlab yotgandir, – dedi yupatib. – Qaraylik-chi. Sen qayerdayding?

– Menmi? – Olimjon aybdor qiyofada burnini tortdi. – Tutzorda... Uxlab qopman.

– Bor, o'sha tutzorni qara.

Olimjon tuproqqa bota-bota paykal etagida qorayib turgan tutzorga yugurdi.

– Opa, – dedim vahimam oshib. – Traktor yurib ketayotganda uyqusirab yiqilib tushgan bo'lsa-ya.

– Yo'g'-e, yosh bolamas-ku... – Bashor opa shunaqa dedi-yu, o'zining ham yuragiga g'ulg'ula tushdi shekilli, orqa tomonga, Zuhra kelinning traktori o'tgan shudgorga chopdi. – Yur-chi...

Butun shudgorni, paykal chetlarini aylanib chiqdik. Olimjon ham halloslab kelib bir og'iz so'z aytdi:

– Yo'qlar!

Oy umidsiz, qizg'ish nur sochib botib borar, shudgor qilingan dala yanayam qorayib ko'rinar, atrofga sirli, vahimali sukunat cho'kkan edi. Hammamiz har yoqqa zir yugurib chaqira boshladik:

– Zo'ra-yu-yu?!

– Zuhra opa a-a!

– Kennoyi-i!

Holdan toyib, terlab ketdim.

Tong yorishib, tog' tomon qizarib kelar, kunbotar tomondan, qirlar ortidan o'zimizning hayqirig'imiz aks sado bo'lib qaytar edi: «Yu-yu-yu», «A-a-a», «I-i-i».

Oxiri tong otib ketdi. Bashor opa uyqusizlikdan qizargan ko'zlari bilan Olimjonga chaqchayib so'roq qila boshladi:

– Rostini ayt, bola! Qachon suv obkeluvding?

– Oy chiqqanda! – Olimjon goh menga, goh Bashor opaga olazarak qaradi. – Xudo ursin, kennoyimga suv obkeganim rost.

– Soat nechaydi o'shanda?

– Qayoqdan bilay! – Olimjon burnini tortib, yelkasini qisdi. – Oy endi chiqqandi.

Uchovimiz ham talmovsirab qolgandik. Orif oqsoqolga nima deymiz? Shu kelinini ayniqsa yaxshi ko'radi. Yerga qo'ysam chang, osmonga qo'ysam gard yuqadi, deydi. Farzand ko'rmagani uchun ko'ngli yarim deb avaylaydi. Sho'rimiz qursin! Baloga qoldik. Xudo ko'rsatmasin, Zuhra kelinga tirnoqcha ozor yetgan bo'lsa

Oqsoqol ayab o'tirmaydi. Bashor opaniyam, meniyan qiyima taxtaga tortib chuchvara qilib tugib tashlaydi!

Qiziq, ikkita kap-katta odamning xayoliga kelmagan gapni Olimjon aytdi:

– Nega qo'rqasiz, opa! Kennoyim charchagan bo'l-salar, uyga ketgandirlar.

Rost aytadi Olimjon. Bir haftadan beri uyqu yo'q. Zuhra kelin charchagan, uyqusi kelgan, bor-e deb uyiga ketgan. Shu...

Qishloqqa kirib borganimizda Bashor opa to'satdan to'xtab, menga o'girildi.

– Zuhra traktorni tashlab uyiga ketganiga ishonmayman. Bir gap bo'lgan.

Yuragingma yana vahima o'rmaladi. Unda qayoqqa ketadi?

Kungurador darvozadan kirishimiz bilan Xolposh xola peshvoz chiqdi. Nimcha kiyib olgan, bir qo'lida xurmacha: qatiq ivitmoqchi shekilli, xurmachani yuvib, suvini silqitish uchun to'ngarib ushlab turibdi.

– Voy aylanay sizdan, bormisiz? – deb Bashor opa-ning yelkasiga xurmacha bilan turtib ko'rishdi. – Ro-biya qizim, eson-omonmisan? Ishinglar bitdimi? Zo'ra qani?

Bashor opa yalt etib menga qaradi, men unga!

Xolposh xola hovli ichkarisiga, oshxonaga qarab qichqirdi:

– Potma-yu! Choyingni tezlat, bolam, mehmon keldi...

Choymish-a!

Bashor opa ming'illab, bir nima bahona qildi. Ik-kalamiz Oqsoqolning darvozasidan uzun-qisqa bo'lib chiqdigu kelgan yo'limizdan orqaga yugurdik. Qu-yosh ko'tarilib qolgan, haydalgan yer ustida nimtatir bug' taralar, tuproqning mayin, dilni orziqtiruvchi isi dimoqqa urar edi. Kechasi traktorlar o'tgan paykallarni yana aylanib chiqdik. Shunaqa qilsak, Zuhra kelin topiladigandek, dala o'rtasida to'xtab qolgan traktorning tagiga qayta-qayta mo'raladik.

Yo'q! Zuhra kelin yerdayam yo'q, ko'kdayam! Odam tugmacha emaski, shudgorga tushib yo'qolib qolsa! Bir

balo bo'lgan. Ikkalamizning ko'nglimizdan shu gap muttasil o'tib tursa ham, Bashor opa menga, men unga qarashga botinolmasdik. Go'yo ko'zimiz ko'zimizga tushsa shu andishani albatta bir-birimizga aytadigandek... Oxiri dala boshidagi tutzor tomonga ketdik.

Bultur pilla paytida kallaklangan tutlarning kuzda qaytadan o'sgan yalang'och navdalari nola qilib, osmonga qo'l cho'zib turganga o'xshar, ammo ko'klam kelganini his etib, ojiz, nozik tugunchalar chiqargan, «ko'rib qo'yinglar, men hali yoshman, yashashni xohlayman», deb xitob qilayotgandek edi.

Ikkalamiz ikki yoqdan tutzorga kirib, qurib qolgan ariq ichiga yozilgan eski po'stakda uxlab yotgan Olimjonning ustidan chiqib qoldik. Bola baribir bola-da! Olimjon mushukdek g'ujanak bo'lgan cha pishillab uxlar, boshidan do'ppisi tushib, peshonasi terlab ketgan, nariroqda pachoq chelak to'ng'arilib yotardi. U ora-chora tamshanib qo'yar, negadir jilmayardi. Xayolimga kelgan g'alati o'ndan o'zim seskanib ketdim. Tushida Ochil akasi bilan gaplashyapti. O'lgan akasi bilan...

Bashor opaning qahri qattiq ekan. Bolaning yelkasiga jahl bilan turtidi.

– Tur!

Olimjon sapchib turib cho'kkaladi. Iyagiga oqqan so'lagini kir kafti bilan sidirib atrofga alang-jalang qaradi.

– Suv obkelaymi? – dedi to'ng'arilib yotgan paqirga talpinib.

Bashor opa uning ko'ziga chaqchayib tikildi.

– Shoshma. Rostingni ayt: Zuhra qani?

Olimjon boshini yelkasining ichiga tortib qunishdi.

– Qattan bilaman? Kechasiyam aytdim-ku. Oy chiqqanda bor edilar...

...Bashor opa Olimjonga qanaqa dag'dag'a qilgan bo'lsa, peshindan keyin Orif oqsoqol ham Bashor opaga shunaqa zug'um qildi:

– Zo'rani kelinimmas, qizim deganman, bilasan-a? Traktor haydasin deganingda aytganman: qizimning boshidan bir tola soch haddorat uzilsa, seni so'yaman deganman! Top! Hozir topasan!

Shu gap chiqishi bilan Oqsoqolning yonidan jilmay qolgan bobom qo'lini paxsa qilib yupatdi:

– Ja, olasan-da, senam! Qudangnikiga ketgan, bil-dingmi! Onasini sog'ingan. Shu!

Oqsoqol kaftini to'ldirib nos otarkan, bobomga ijir-g'anib qarab qo'ydi:

– Borib keldim, u yoqda yo'q.

Bashor opa ikkalamiz ichimizdan qirindi o'tib, bir-birimizga qaradik.

– Hay ovsar! – Bobom jahl bilan chiyilladi. – Seni qadaming bilan Zuhrani qadami bir ekanmi! Sen halloslab borgansan. Zo'ra sekin-sekin borgan. Yur, yana xabar olamiz...

...Bobom yarim kechada uyga horib-charchab keldi. Oyim bilan men yarq etib qaragan edik, qovog'ini solib, bir og'iz «yo'q» deb qo'ydi.

Zuhra kelin bedarak yo'qoldi. Quduqqa tushgan toshdek, na o'ligining daragi bor, na tirigining.

Ikki orada Xolposh xola bilan Fotima kelinga jabr bo'ldi. Fotima kelin har kuni biznikiga chiqadi. «Yomon ko'p, singlim, yomon ko'p, birov o'ldirib ketgan», deydi yig'lab. Xolposh xola yig'lamaydi. «Bir emas, ikki bolamdan ayrilganim yetmasmidi, endi shu ko'rgilik bormidi», deb ingraydi. Oyim ovsinini yupatadi-yu, ke-chalari menga yoriladi: «Senga yopishgan jin-ajinalar Zo'ra bechorani xarob qilgan, ko'rasan, sho'rlikning o'ligini qirq kunda Bo'rijardan topishadi».

Umar zakunchi hammayoqni ostin-ustin qilib yubor-di. Yonida Ismoil melisa, Ra'no kelinoyim uch kishi bo'lib, har kuni tushlikda dalaga keladi. Avval Bashor opani, keyin meni so'roq qilishadi:

– Oxirgi marta qachon ko'ruvding? Kim bilan ko'-ruvding? Nimaga xabar qilmading?

Ra'no kelinoyim ham qiziq. Xuddi Zuhra kelinni men o'ldirgandek, Zakunchining so'rog'ini, mening javobimni so'zma-so'z yozib oladi... Bilaman, Ra'no kelinoyim meni yomon ko'radi. Bulturgi voqeadan keyin uyiga qadam bosmaganim alam qilsa kerak. Lekin oyim tog'amnikiga tez-tez borib turadi. Ra'no kelinoyim ham

biznikiga keladi, ko'p emas-ku, har qalay kelib turadi. Kelgandayam «yaxshimisiz» deb yelkamga qoqadi-yu, boshqa gapirmaydi.

Hamma harakatlar zoe ketdi. Rayonga xabar berishgani ham. Ismoil melisaning yelib yugurishi ham. Oxiri oyim aytgan gapga ishondim. Qirq kundan keyin bechoraning o'ligini Bo'rijardan topishadi...

Qirq kun emas-ku, oradan bir haftalar o'tganidan keyin traktorga suv ko'tarib kelgan Olimjon qiziq gap aytib qoldi.

– Kennoyim tirik bo'lsalar kerak, – dedi g'alati iljayib.

Ko'nglimda ilinj uyg'ondi. Bir nimani biladi bu shumtaka!

– Tirik bo'lsa daragi chiqmasmidi, – dedim ko'ziga tikilib. – Ko'rasan, o'ligi yaqinda Bo'rijardan chiqadi. Birov o'ldirib ketgan.

– O'ldirmagan, – Olimjon voshillab bug' ko'tarilib turgan traktorga suv quyarkan, yana iljaydi. – Kennoyimni yaxshi ko'radi.

– Kim? – Olimjonning paqir tutgan qo'lidan mahkam ushladim. – Kim o'ldirmaydi? Kimni aytyapsan?

Olimjon qo'rqib ketdi.

– Hech kim, – dedi o'zini orqaga tashlab. – Men bilmayman.

– Menga qara, Olimjon, – bolani quchoqlab oldim. – Oqsoqol buvangnikidagilar qon yig'lab o'tirishibdi. Rostingni ayt, Zuhra kelinoyingga nima bo'lgan? To'g'risini ayt, yaxshi bilasan-ku, o'zing!

– Aytib berasiz-da! – Olimjon hurkib ko'zini olib qochdi. – Men bilmayman. Ammo kennoyim tirik.

– Xo'p, – dedim yalinib. – Hech kimga gapirmayman. Faqat to'g'risini ayt. Kennoyingga nima bo'ldi?

– Ont ichsangiz aytaman!

Bildimki, Olimjon judayam gapirgisi kelib turibdi-yu qo'rqyapti.

– Hech kimga aytmayman, deb ont iching, – dedi zada bo'lgan qushchadek hurpayib.

– Birovga og'iz ochsam non ursin! – dedim shoshapisha. – Zuhra opa tirikmi?

– Tirik. Kozim aka o'ldirmaydi. Kennoyimni yaxshi ko'radi! Hech kimga aytmysiz-a?!

Nimanidir tushungandek bo'ldim. Bultur, kech kuzda, traktorlarni endi dalaga olib chiqqanimizda, shudgor qilinayotgan paykaldagi yurgan, harbiy kiyim kiygan shapkali odamga ko'zim tushgan edi. Bir marta Zuhra kelinning traktori yoniga borganini ham ko'rgandim. Zuhra kelindan so'rasam, «xolavachcham, urushdan yarador bo'lib otpuskaga kepti», degandi. Bu gap allaqachon esimdan chiqib ketgan, rostini aytsam, e'tibor ham bermagandim. O'sha gap nimaga shu paytgacha xayolimga kelmaganiga o'zim ham hayron qoldim.

– Kim deding? Anavi... Kozim akang ko'p kelganmi bu yerga? – dedim o'smoqchilab.

Olimjon:

– Kuzdayam keluvdilar... – dedi-yu tutilib qoldi. – Ont ichdingiz. Hech kimga aytmysiz... Yana suv obkelaymi? – U bo'sh chelakni daranglatib chopib borarkan, shudgorga botgancha to'xtab, o'girildi. – Aytmysiz-a, opa?!

* * *

Men-ku, hech kimga og'iz ochmadim. Gapirib nima qildim? Bundan chiqdi Zuhra kelin soppa-sog'. Shuning o'ziga shukur qilish kerakmasmi?

Aytsam-aytmasam bugun ora ochiq bo'ldi. Do'm-birobodda, Qonqus bo'yida yarim kechagacha yer haydab toliqqan edim. Bilmadim, uyga kelib uch soat uxladimmi, to'rt soatmi. Kun chiqmasdan uyg'onib ketdim.

Oyim sopol piyolada olmachoy uzatarkan, chamasi, boyadan beri ichida qizib yotgan gapni hovliqib aytib qoldi:

– Yetti nomus – bir o'lim, bolam! Sharmanda bo'ldik, qizim, sharmanda bo'ldik! Oqsoqol kelinini tutib kepti! O'ynashi bilan qochib ketgan ekan, yashshamagur! – Oyim ikki qo'llab yuzini yumdaladi. – Zo'ra o'lgur buzuq ekan! Do'rmon degan joyda o'ynashi bilan bekinib yotgan yeridan qaynotasi tutib kebd. Ikkalasiniam bo'yniga arqon solib obkebd. Yurt ustida yurgan Oq-

soqol bundoq diyonatsizlikka qandoq chidaydi! So'yadi! Tikka so'yadi! Sho'rimiz qursin!

O'tirgan joyimda taxta bo'lib qoldim. Oyim to'g'ri aytadi. Orif oqsoqol bunaqa sharmisorlikka chidamaydi. Ikkelasiniyam chavaqlab tashlaydi!

Sapchib o'mimdan turgan edim, oyim etagimga yopishdi.

– Kirma u yoqqa! Qiz bola narsa, nima zaril senga!

Bo'shashib, turib qoldim. Olimjon gapirganda Zuhra kelinning tirikligini eshitib xursand bo'lgan edim. Hozir uni yomon ko'rib ketdim. To'g'ri-da! Oqsoqol bunaqa isnodni qandoq ko'taradi? Xolposh xola-chi! Bir emas, ikki o'g'lidan baravar ayrilgan bo'lsa! Ustiga-ustak kelin bunaqa qiliq qilsa! Zuhra kelin Zokir akani yaxshi ko'rardi-ku! «Qoraxat» kelsa bo'ldi ekan-da! O'zimning yangam-chi? Ra'no kennoyim-chi? Shomurod tog'amdan «qoraxat» kelganiyam yo'q-ku. Tirik-ku! Eri tirik bo'la turib... Odamlar nimaga bunaqa yomon...

– Buvangga tayinladim... – Oyim bir burchakka ma'yus termulib o'tirarkan, kuymanib tushuntirdi. – Oqsoqolni insofga chaqiring, dedim. Zora rahm qilsa... Yaxshimi-yomonmi birovning bolasi... Ammo sen kirma...

Nimaga kirarkanman! Erining ko'ziga tuproq to'lmasidan turib, birovning etagiga osilib ketgan xotinni tomosha qilishgami? Zuhra kelin unaqa emasdi shekilli... Zokir aka o'lganida sochini yulib qandoq dodlagan edi. Odamni bilib bo'lmas ekan-da!..

Iloji boricha tezroq o'tib ketaman, desam ham Oqsoqolning darvozasi oldida to'planib turgan tumonat odamni ko'rib beixtiyor to'xtab qoldim. Bola-chaqa, erkak-xotin... Birovning yelkasida ketmon, birining qo'lida, urushdan oldin tug'ilgan, toyloqdek bo'lib qolgan bolasi... Birining yuzida hayrat, birinikida g'azab, yana biri labini burib munofiqona iljayib turibdi. Nima keragi bor? Ishlari yo'qmi? Tekin tomoshaga muncha ishqiboz bo'lishmasa bu odamlar... Birovning kulfatini tomosha qilish shunchalik rohatmi?

Ensam qotib burilib ketayotgan edim, birov bila-gimdan ushladi. Qarasam – Bashor opa! Rangi quv

o'chgan. Uyam kechasi bilan uxlamagan shekilli, ko'z-lari qovjirab turibdi. Boshiga dakana tang'igan, ro'mol ostidan yakkam-dukkam oqargan sochlari chiqib turibdi.

– Yur, Robiya! – dedi qo'limdan siltab. – Yur! Kir-masak bo'lmaydi!

– Men nima deyman, opa! – Bilagimni chiqarish uchun yulqindim. – Meni nima ishim bor?

– Zuhra o'lib ketsa maylimi? – Bashor opa ko'zimga iltijo bilan termildi. – Yur, Oqsoqolga yalinamiz. Be-choraning yosh joniga jabr qilmasin.

U gapirtirishga ham qo'ymay, qo'limdan sudrab ketdi.

Olomon orasini yorib hovliga kirdik. Eng avval Oqsoqolga ko'zim tushdi. Ayvon o'rtasida yelkasi ba-land kursida, ustiga dasturxon yopilmagan xontaxta oldida o'tiribdi. Egnida oq yaktak, oq ishton... Ayvon tokchasida yog'och bandli telefon turibdi. Keyin Zuhra kelinni ko'rdim. Ayvon peshida ikki bukchayib o'tirib olgan. Sochini qirq kokil qilib o'rgan ekan. Ikki qo'llab sochini changallab yuzini to'sgan. Qandaydir ingichka tortib ketganday, gavdasi mushtdek bo'lib qolgandek...

Bashor opa intilib, ayvon oldiga bordi. Shundayam bilagimni qo'yib yubormadi.

– Oqsoqol... – dedi iltijo bilan. – Zuhraxonni men bilaman. Unda gunoh yo'q! Balki bitta-yarimta xudo bexabar... Jon Oqsoqol!

Orif oqsoqol «kisht» deb tovuqni haydagandek kaf-tini teskari qilib silkitdi.

Bashor opaning dami ichiga tushib ketdi. Ikki qadam orqaga chekindi-yu «endi sen gapir», degandek bilagimni qattiq qisdi. Men nima dey? Nima haqqim bor?

Bobom ham shu yerda, ichkarida ekan. Pildirab ke-lib, Oqsoqolning yelkasiga qo'l tashladi.

– Yosh-da, – dedi yupatib. – Kichikdan xato, kattadan uzr, birodar. Xudo xayringni bersin, kechiraqol endi.

Zuhra kelinga razm soldim. U hamon yuzini to'sib o'tirar, qirq kokil sochi yelkasi bilan bitta bo'lib, yerga to'kilib turar, sochining uchi tuproqqa qorishgan edi.

Oqsoqol qaddini rostladi. Yuzi qahrli, soqoli titrab turardi.

– Hoy! – dedi hayqirib. – Baqqa ke!

Hovlini to'ldirgan olomon Oqsoqol hayqirgan to-monga – oshxonaga o'girildi. Oshxonaning pastak eshigi ochilib, ixcham gavdali, harbiy kiyim kiygan, boshyalang yigit chiqdi. Oyog'idagi etigi loyga belan-gan, siyrak soqoli tikandek o'sgan, sochi hurpayib ikki qulog'i ustiga qayrilib tushgan, harbiy kiyimda bo'li-shiga qaramay, yelkasida pogon yo'q edi.

Olomon junbushga kelib uv tortib yubordi.

– Haromi! – dedi kimdir hayqirib.

– Nahs-kasofat!

– Ur, ur, itvachchani!

Dahshat ichida Bashor opaning pinjiga kirdim. Yo'q, uni Oqsoqol so'ymaydi. Olomonning o'zi toshbo'ron qilib o'ldiradi! Urush boshiga solgan judoliklar haqqi, qon yutib yurgani haqqi, nomus haqqi, jangda jon fido qilgan askarlarning ruhi poki haqqi hozir toshbo'ron qiladi! Olomon orasidan allaqanday ayol quloqni teshib yuborgudek chinqirdi:

– Ur, olomon! O'zbekchilikka dog' tushirgan cho'ch-qani o'ldir!

Burchak tomondan Parcha opaning do'rillagani eshi-tildi:

– Qo'ysayla-chi. Nima keragi bor...

Ammo uning ovozi qiy-chuv orasida ko'milib ketdi.

Olomon birdan harakatga keldi. Ketmonlar, pan-shaxalar oftobda yaltiradi. Dahshatdan dag'-dag' titrab Bashor opaning bag'riga yuzimni yashirdim. Lekin o'sha zahoti yangragan yovvoyi chinqiriq qayrilib qarashga majbur qildi:

– Kozim aka! Kozim aka!

Zuhra kelin o'rnidan otilib turdi. Sochlari parishon yoyilgancha ko'zidan tirqirab yosh oqib, askar bola tomonga talpindi. Biroq ikkovining orasini olomon to'sib qo'ygan, ketmonlar, panshaxalar tahdidli yaraq-lardi.

– Bas! – Oqsoqolning ovozi shu qadar hokimona gumburladiki, Zuhra kelin ham, ketmon ko'targan olo-

mon ham, rangi bo'zarib ketgan askar yigit ham turgan joyida qotib qolishdi.

– O'tir! – Oqsoqol bu gapni Zuhra kelinga aytdi. Lekin boshqalar ham joy-joyida tek qotdi.

– Baqqa o'tir! – dedi u vujudi titrab. – Senam baqqa ke!

Askar yigit rangi bo'zday oqargancha odamlar orasidan o'ta boshladi. Olomon yeb qo'ygudek bo'lib tishini g'ijirlatar, munkillab qolgan chollar, asabiy qaltirayotgan xotinlar xuddi nopok, shilimshiq narsa badaniga tegib harom qiladigandek irganib yo'l bo'shatardi. Yigit garangsib ayvon oldiga keldi.

– O'tir! – dedi Oqsoqol past, tahdidli ohangda.

Yigit indamay kelib Zuhra kelinning yoniga cho'kdi. Olomon g'azabga minib, battar junbushga keldi.

Yana o'sha chinqiroq ayol ovozi quloqlarni teshdi:

– Harom qildi! Isnodga qoldik!

Kim? Kim bu shunchalik chinqirayotgan? Bilmadim. It egasini tanimaydigan olomonda kim bilib o'tiribdi?

Parcha opaning do'rillashi bu safar aniq eshitildi:

– Voy, nima qipti? Nima bo'pti o'zi?

Olomon orasida hushtak churilladi. Zum o'tmay Ismoil melisa bilan Umar zakunchi ayvonga chiqib kelishdi.

– Tarqal! – Ismoil melisa mo'ylovi tagiga hushtagini tiqib churullatdi. – Tarqal hammang! Ochib qo'yibdimi senlarga!

Olomon qilt etgisi kelmasdi.

– Jim! – Umar zakunchi o'ng qo'lini baland ko'tardi. – Tishe! Bizning ilg'or traktorchini, staxanovchi Zuhraxonni yo'ldan urgan dezertirni qanaqa jazolashni o'zimiz bilamiz. – U Zuhra kelinning yonida boshini quyi solib o'tirgan askar yigitga nafrat bilan burilib qaradi. – Tur o'rningdan, dezertir!

Askar yigit sapchib o'rmidan turdi. Bir hatlab ayvon- ga chiqdi.

Qiziq, uning yuzidagi aybdor, mute ifoda o'rmini g'azab egalladi. Mitti ko'zlari yonib ketdi.

– K-kim? K-kim dezertir? – dedi duduqlanib. Negadir boshi afsus-nadomat bilan muttasil chayqala boshladi. –

M-m-men Smolenskda q-qon k-kechib yurganimda s-sen qayoqda eding, h-h-hezalak! S-sendaqalarni o-osish k-k-kerak! O-o-yog'idan o-sish kerak!

Uning og'zidan ko'pik sachrab ketdi. Boshi boya-gidan battarroq chayqala boshladi. Shundagina bu yigit boshini ataylab chayqamayotganini, kasal ekanini angladim.

Zakunchining rangi gezarib ketdi.

– Ol buni! – dedi ayvon peshida serrayib turgan Ismoil melisaga qarab. – Oborib tiq joyrastoniga!

Ismoil melisa bir hatlab askarga ro'para bo'ldi. Yigit-ning qo'lini qayirmoqchi edi, Zuhra kelin uchib o'rnidan turdi.

– Qo'yvor! – dedi melisaning yuziga chang solib. – Tegma! Qo'yvor! Kozim akam senga o'xshab kavakka bekinib yotganmas!

– Jim! – Oqsoqol shu qadar qahr bilan hayqirdiki, Zakunchi ko'zlarini pirpiratib beixtiyor orqaga chekindi. Ismoil melisa goh askar yigitga, goh Oqsoqolga tal-movsirab qaradi. Yigit boshini muttasil likillatib Zuhra kelinning yelkasiga qo'l tashladi.

– Hoy, mo'ylov! – dedi Oqsoqol Ismoil melisaga chaqchayib. – Kim chaqirdi seni?

Melisa najot kutgandek Zakunchiga qaradi.

– Jamoat tartibi buzilgan, – dedi garangsib. – Bizning vazifamiz...

– Sen nonni ochiridini tekshir, xo'pmi?! – Oqsoqol Umar zakunchiga yuzlandi. – Sizga nima kerak, o'rtoq Xajayip?

Umar zakunchi jahl bilan qoshini chimirdi.

– Staxanovchi kolxozchimizni obqochgan dayusga...

– Istixonipchi kolxozchi meni kelinim, to'g'rimi?– Oqsoqol tishini g'ijirlatib ta'kidladi. – Zo'ra – mening kelinim, shundoqmi?

– Bunaqa sharmandalikka siz chidasangiz, biz chidolmaymiz! – Umar zakunchi istehzo bilan hovli to'la olomonga o'girildi. – O'rtoq kolxozchilar! Shu kungacha kolxozimizda bunaqa nezakonnii ish bo'lganmidi?

Ajab, bu safar olomon guvillamadi. Hatto boyagi chinqirayotgan ayolning ham ovozi o'chdi. Hamma

Oqsoqolning og'ziga qarab turardi. Hamon Bashor opaga suyangancha, sehrlanib qolgandek goh Orif oqsoqolga, goh talmovsirab qolgan Zakunchi bilan Ismoil melisaga, goh boshi muttasil chayqalgan ko'yi Zuhra kelinning yelkasiga qo'l tashlab turgan askar yigitga mo'ltayib qarardim. Oraga sovuq, ammo bitta uchqun tegsa portlab ketadigan tarang sukunat cho'kkan edi.

Jimlikni birinchi bo'lib, Zakunchi buzdi.

– Qiziq, – dedi labining bir burchi bilan kulimsirab. Shunaqa istehzoli kuldiki, ingichka mo'ylovi qiyshayib ketdi. – Belida belbog'i bor odam shundoq isnodga chidasa, mayli, biz nima derdik.

U Oqsoqol el-yurt o'rtasida doim aytadigan gapni yuziga solib, mo'ljalga bexato urgan edi. Oqsoqol o'q yegandek qalqib ketdi. Shaxt bilan egilgan edi, qo'lida bolta yaraqladi. Xontaxta ostida yotgan ekan. U boltani qahr bilan boshi ustida baland ko'tardi.

– O'zingni bos! – Bobom qo'shqo'llab Oqsoqolning bilagiga yopishdi. Oqsoqol boltani silkitgan sayin, bobom havoda muallaq osilib qolar edi. – Avval o'zingizni eplab oling, rais! – dedi bobom Zakunchiga ko'zini ola-kula qilib.

Shu payt uy ichkarisidan dod-faryod eshitildi. Ikki ayol ketma-ket otilib chiqishdi. Biri bobomni boltadan nari surishga urinayotgan Oqsoqolga yopishdi. Bu Xolposh xola edi.

– Dadasi! Gunohga botmang, dadasi! – dedi chir-qillab. – Mayli! Bilganini qilsin! O'g'limning uvoli tutsin! Bolam deb bag'rimga bosgandim. Iloyo kosasi oqarmasin!

Ikkinchisi – Fotima kelin ekan. Daf'atan taniyolmadim. Bir kechada qarib qolgan, qovoqlari shishib ketgan, ko'zida ma'no yo'q edi. U Zuhra kelinning boshiga quyundek yopirilib keldi.

– Juvonmarg! – dedi singlisining emas, o'zining sochini yulib. – Iloyo Zokir akaning arvohi ursin, xo'pmi? Sendek singlim yo'q, bildingmi! Otamning arvochiga soldim, benomus! Iloyo bu kuningdan battar bo'l, sharmanda!

Bobom Oqsoqolning qo'lidagi boltaga yana yopishdi.

– Bu yoqqa ber, jinni! – dedi chiyillab.

Oqsoqol boltali qo'lini bobomdan kuchi boricha siltab tortdi. Tizzasi bilan Xolposh xolaning qorniga tepdi.

– Yo'qol!

Bobom ayvon burchagiga uchib ketdi. Xolposh xola bechora namatga chalqancha yiqildi, og'zidan ko'pik chiqib ingray boshladi. Fotima kelin singlisi bu yoqda qolib qaynonasiga yopishdi.

– Oyi, turing, oyi, – dedi iltijo qilib. – Oyijon, men borman-ku! Nevaralaringiz bor-ku!

– Shunaqa degin! – Oqsoqol boltani salanglatib Zakunchi tomonga ikki qadam bosdi. Zakunchi chekinmadi. Ko'zlarini pirpiratib chirt etib tupurdi.

– Omadi gapni aytdim-da! – dedi rangi o'chib.

– Duma! – Oqsoqol to'satdan bobomga o'girildi. – Yugur! Afandi domlani obke!

Ayvon chetida yiqilib yotgan bobom kalovlanib o'rnidan turdi. Og'i keng ishtonining bo'shab ketgan bog'ichini shosha-pisha qaytadan bog'lashga urindi.

– Nima? – dedi ovozi ingichkalashib.

– Qulog'ing karmi?! – Oqsoqol bobomni chopib tashlaydigan vajohatda boltani ko'tardi. – Afandi domlani obke! Oyog'ini yerga tegizmay obke!

Bobom mahsili oyog'iga kalishini chapaqay kiyib hovliga otildi.

Yana sukunat cho'kdi. Ayvon o'rtasida hud-behud bo'lib yotgan Xolposh xolaning ingrashi, qaynonasining yuziga suv sepayotgan Fotima kelinning «oyijon» deb yolvorgani, oyimning (u qachon ayvonga chiqib borganini ko'rmay qolibman) «ovsinjon, ko'zingizni oching», deb shivirlashi aniq eshitila boshladi.

– O'v, itvachcha! – Oqsoqolning gulduragan ovo-zidan seskanib ketdim. Haykaldek qotib turgan Bashor opaning pinjiga battar tiqildim.

– Senga aytayapman! – Oqsoqol askar yigitning boshiga bordi. – O'tir! Senam! – dedi bolta dastasi bilan Zuhra kelinning gardaniga nuqib.

Askar yigit hamon Zuhra kelinning yelkasidan tutgancha ayvon peshiga o'tirdi. Ikkalasining rangi bo'zdek oqarib ketgan, ikkalasi ham muttasil titrar edi.

– Shu kerakmi senga? – dedi Oqsoqol qahr bilan.

– H-ha! – Askar yigit boshini sarak-sarak qildi. – Yax-x-xshi ko'raman... Av-valam...

– Sendan so'rayotganim yo'q! – Oqsoqol bolta tutgan qo'li qaltirab Zuhra kelinning boshiga egildi. – Kerakmi, senga shu?!

Zuhra kelin kaftlari bilan yuzini yashirib bir nima dedi. Yig'lab yubordi.

– Gapir, ming'illamasdan! – dedi Oqsoqol hayqirib. Ammo endi tovushida dag'dag'a emas, ingrashga o'xshash ohang bor edi...

– Otajon! – Zuhra kelinning bo'g'zidan yig'i aralash nido otilib chiqdi. Gapirolmay qoldi. U yuzini qo'shqo'llab yashirib olgan, lekin hamon askar yigitga suyanib o'tirardi...

Uzun yaktagi yerga tegib oyog'iga o'ralashayotgan, ko'zoynagining bir oynasi singan Afandi domlani bobom yoqasidan sudragudek bo'lib ayvonga olib chiqdi.

Domla tavoze bilan salom berayotgan edi, Oqsoqol jerkib berdi:

– Eri o'lgan xotin qanchadan keyin shar'iy nikohdan chiqqan sanaladi, domla?

Domla esankirab qoldi.

– Eri dorulbaqoga rixlat qilgan, – dedi ming'illab, – ya'ni masalan...

– Gapni ko'paytirma! – Oqsoqol dag'dag'a bilan boltani silkitdi. – Rixlat-pixlatingni yig'ishtir! Odamga o'xshab gapir. Eri o'lgan xotin qanchadan keyin boshqa nikohga kirishga haqli?

– Eri dorulbaqoga rixlat qilgan zaifa olti oydan keyin boshi ochiq sanaladi, – domla shunday dedi-yu, yengil tortgandek atrofga olazarak qarab oldi.

– Xo'p! – Oqsoqol hamon hud-behud bo'lib yotgan Xolposh xolaning boshida o'tirgan Fotima kelinga buyurdi. – Bor, bir kosa suv obke!

Fotima kelin, boya qaynonasiga suv sepgan kosani olib o'rnidan turdi. Garangsib, to'xtab qoldi. Ammo

qaynotasining soʻzini ikki qilmadi. Odamlar orasini yorib oshxonaga yugurdi. Toʻkib-sochib kosada suv olib keldi.

– Qoʻy, mundoq, – dedi Oqsoqol oppoq qoshini uchirib.

Fotima kelin suvni xontaxta ustiga qoʻydi-yu, tagʻin Xolposh xolaga yopishdi.

– Oyi, – dedi yalinib. – Koʻzingizni oching.

– Xaloyiq! – Orif oqsoqol olomonga yuzlandi. – Zoʻrani kelinimmas, qizim degandim. Afsus, xudo uni boladan siqdi. Agar aqalli bitta bolasi boʻlganida, Zokirimdan bitta zuryod qolganida, – uning ovozi titrab ketdi. – Zoʻra menga bitta nevara tugʻib berganida mana shu qilmishi uchun oʻz qoʻlim bilan chopib tashlardim. Nevaramni tirik yetim qilganidan koʻra, oʻlik yetim qilib oʻzim boqardim. Norasta bolani harom onaning qoʻliga berib qoʻymasdim... Shokirimga bergan tuyogʻini Zokirimdan ayadi. Davlat bilan farzandning erta-kechi yoʻq. Bolam tirik boʻlganida Zoʻra qoʻchqordek oʻgʻil tugʻib bersa ajabmasdi. Urush boʻlmaganda balki shu bugun nevara toʻyi qilarmidim... – Oqsoqol entikib qoldi. Yuzini chetga burdi. Koʻzi namlandi-yu, ammo yigʻlamadi. Havo yetmayotgandek besh-olti marta chuqur-chuqur nafas oldi-da, davom etdi...– Nima qilay, peshonamga sigʻmagan ekan. Zoʻrayam oʻzimning farzandim. Yoʻliga toʻgʻanoq boʻlsam, gunohga botaman. – U kutilmaganda ikki bukilib odamlarga taʼzim qildi. Qoʻlidagi bolta taraqlab yerga tushdi. – Meni malomat qilma, xaloyiq! – dedi iltijoli ohangda. – Hozir manavi aytdi, – dedi tirsagi bilan Zakunchiga imo qilib. – Belingda belbogʻing yoʻq, dedi. Mayli, har kimning gunoh-savobi oʻziga. Belimda belbogʻim bormi-yoʻqmi, unisini el-yurt biladi. Ammo-lokin boshqa ilojim yoʻq. – U soqoli titragancha domlaga buyurdi. – Boshla!

Boyadan beri ayvon oʻrtasida choʻzilib yotgan Xolposh xola yarq etib koʻzini ochdi.

– Dod! – dedi toʻlgʻanib – Zo-kir! Bolam! Qandoq chidayman. Iloyo arvohing ursin, jon bolam! – Amallab qaddini rosladi-da, koʻzi toʻla yosh bilan Zuhra kelinga

yuzlandi. – U dunyo-bu dunyo kosang oqarmasin, juvonmarg! Kun ko‘rib, kuni ro‘shnolik ko‘rmagin, imonsiz!

– Qarg‘amang, oyijon! – Fotima kelin qaynonasiga yopishdi. – Duoibad qilmang singlimni! Mayli, bir kunmas, bir kun o‘zi...

– Man sanga nima yomonlik qiluvdim, juvon o‘lgur! Bolamning ko‘ziga tuproq to‘lmasdan... – Xolposh xola peshonasiga shapatilab ura boshladi. – Bolam! Jonim bolam!

– Bas! – Oqsoqol xotinining ustiga bostirib bordi-yu birdan cho‘kkalab qoldi. – Qo‘y, xotin, yomon niyat qilma, – dedi Xolposh xolaning oppoq sochlari yoyilgan peshonasini silab. – Qo‘y, onasi, buyam bolang-da! Bu-niyam baxtini o‘ylashing kerak-da, xotin. Sen bilan men ertaga bormizmi-yo‘qmi... Ana, domla aytdi. Eri o‘lgan xotin olti oydan keyin boshi ochiq bo‘larkan. Zo‘ra bir yarim yildan beri beva-ku, onasi.

Xolposh xola battar uv soldi.

– Bolam, jon bolam, – dedi ko‘ksiga mushtlab. – Qandoq chidayman!

– Nimaga anqayasan, hov! – Oqsoqol og‘ir qo‘zg‘alib o‘rnidan turdi. – Bo‘lsang-chi! – dedi domlaga.

Bir zumda hamma rasm-rusum tugadi. Xolposh xola so‘nggi bor oh chekdi-yu, rangi dokaday oqarib, boshi shilq etib yoniga tushdi. Behush xolani bir qo‘ltig‘idan oyim, bir tomonidan Fotima kelin ko‘tarib, sudragudek uyga obkirib ketishdi.

Hovlidagi olomon, ayvonda turgan bobom, Umar zakunchi, Ismoil melisa – hammaning og‘zi ochilib qolgan edi.

Zuhra kelin kalovlanib o‘rnidan turdi. Yaqin kelib o‘zini Oqsoqolning oyog‘iga tashladi.

– Otajon! Otajon! – dedi iltijo bilan.

Oqsoqol oyog‘ini tortmadi, ammo Zuhra kelinga qaramadi ham. Shoshilmay o‘rnidan turdi-da, hozirgina Xolposh xolani sudrab obkirib ketishgan uyga yo‘l oldi. Zuhra kelin cho‘kkalagancha o‘sha tomonga qo‘l cho‘zdi.

– Ota... – dedi yalinchoq, umidsiz ohangda.

OLTINCHI QISM

Yigirma ikkinchi bob

BIRINCHI SINF O'QUVCHISI MUZAFFAR SHOMURODOV HIKOYASI

Bozordagi o'g'ri

Oyim yelkamga turtib uyg'otganida endi tong ota-yotgan edi. Derazadan g'ira-shira nur tushib turibdi. Yonimda ukam uxlab yotibdi. To'g'ri uxlasa mayli, nuqul ikkala oyog'ini mening qornimga ko'ndalang tashlab yotadi. To'g'risini aytsam, Omon yo'lga kirganidan beri mening ishim ko'paydi. Payt poylab turib, ko'chaga pildirab qoladi. Oyim chirqillaydi: «Ukangga qara, Muzaffar, arava bosib ketmasin!» Ko'chamizdan bir kunda uch marta arava o'tsa o'tadi, bo'lmasa yo'q. Shundayam oyim xavotir olaveradi. Omon ham sho'x-da o'zi. Duch kelgan eshikka boshini tiqadi. Xuddi daydi echkiga o'xshab! Tayyorlab o'tirgan darsimni tashlab, ketidan yuguraman. Tag'in sal urishsam, darrov oyimga chaqib beradi. «Aka bijiy», deydi. Kechasiyam tinchlik yo'q. Ishtonchan yugurib kelib yonimga yotib oladi. Hammasiyam mayli-ku, uyqusida menga qarab choptirib yuborishi yomon. Qilar ishni u kishi qiladilar-da, ertalab maktabga shoshib turganimda ishtonni men almashtiraman.

Yo'q, bugun unaqa «hunar» ko'rsatmabdi.

– Hali vaqtli-ku! – dedim g'ingshib. – Maktabga hammadan oldin boramanmi?

– Voy, dadang kecha nima devdilar? – Oyim yelkamga qoqdi. – Bo'laqol, o'g'lim, «passajir» ketib qoladi.

Ko'zim yarq etib ochilib ketdi. Kecha dadam: «Seni bozorga oboraman, bosh-oyoq kiyim oberaman», degan edi-ku. Uyqum darrov o'chdi. Dadam bozorga olib tushib yasantiradi-yu, men yo'q deymanmi. Hovlidan oqayotgan ariqchadagi loyqa suvda yuzimni shapir-shupir yuvib kelsam dadam allaqachon o'tlanib olibdi. Oyog'ida moylangan etik, nosrang shim, jujuncha kitel

kiyib olgan. Mo'ylovini tarashlab atir ham sepibdi. Uyni atir hidi tutib ketganidan bildim.

– Ketdikmi, o'g'lim? – deb qo'limdan tutayotgan edi, oyim urishib berdi.

– Ichiga bir piyola issiq kirsin. Och-nahor ketadimi bola?

Bir burda non bilan shosha-pisha choy ichishga tushdim. Oyim ro'paramda o'tirar, dadam ostonada papiros tutatib turar edi. Dadam endi tamaki chekmaydi, papirosga o'tgan. Papiros qutisidagi yozuvni bilaman: «Belomorkanal». Savod bor-da, bimalol o'qiymiz!

Oyim piyolaga choy quyarkan, dadamga yuzlanib, xo'rsindi.

– Dadasi, shu kecha yana otamni tush ko'rdim...

Dadam, betoqat bo'lib turganiga qaramay, xotirjam javob qildi:

– Ha, Husan pochcham yaxshi odam edilar...

– Bobomnimas! – Oyim zardaliroq ohangda tushuntirdi. – O'zimning otamni... Oq ot minib yurganmishlar...

– E... shunaqa demaysanmi, Robi, – dedi dadam o'ychan ohangda. Og'zidan pag'a-pag'a tutun chiqarib xo'rsindi. – Yaxshi tush ko'ribsan, onasi! Bundan chiqdi ma'lim erta-indin qaytib qolsa ajabmas... – U yarq etib menga qaradi. – Bo'laqol, o'g'lim... Bozor tarqab ketmasin.

Oyim quygan choyni hovliqib ichgancha dik etib o'rnimdan turdim. Dadam bilan oyimning hozirgi gapini o'ylab o'tirishga vaqtim yo'q edi. Rostini aytsam, bodom gullaganida qizamiq bo'lganimga hozir juda xursand edim.

... Yaxshiyam qizamiq bo'lganim. O'shanda dadam va'da qilgan edi-da. «Ko'chaga chiqmay yaxshi bola bo'lib yotsang, tuzalishing bilan bosh-oyoq yasantiraman, giroy», degan edi. Mana, so'zining ustidan chiqyapti. Qizamiq o'zi yomon narsamas-u chillasi chiqmaguncha yotishi chatoq ekan. Esimda, qish oxirlab, bostirmaning qamish tomidan sariq sumalak osilgan kuni maktabdan boshim og'rib qaytdim. Choy ham ichgim

kelmadi. Oyim peshonamni ushlab ko'rdi-yu qo'rqib ketdi.

– Voy, isitmang bor-ku, sumalak shimdingmi, roostingni ayt! – dedi.

O'lay agar sumalak shimganim yo'q edi.

– Shamollabsan shekilli, – dedi oyim chirqillab. – O'ralib yot, zora bosilib qolsa.

O'ralib yotib battar bo'ldim. Boshim sirqillab og'riydi, hammayog'im qizib ketyapti. Ko'zimni yum-sam ho'kizmi-yey, sigirmi-yey suzmoqchi bo'ladi. Yo'tal tutadi. Bir mahal ko'zimni ochsam tepamda «Qora ammam» turibdi. U negadir qulog'imni orqasini tekshirdi. Keyin ko'ylagimni ko'tarib, qornimni hidladi.

– Qo'rqma, qizim, – dedi oyimga qarab. – Gul hidi kelyapti. Gul toshadi.

«Qora ammam» qiziq, nima, men daraxtmanmi gullab?

Oyim negadir juda xafa bo'ldi.

– Peshonam qursin, – dedi xo'rsinib. – Shu yetmay turuvdi, bola bechoraga.

– Qizamiq – qutlug' dard, Robiya, – «Qora ammam» ustimni o'rarkan oyimni yupatdi. – Hammagayam toshadi-da. Qizil ipaging bormi?

Oyim shosha-pisha bir quloch qizil ipak olib keldi. Ammam bilagimga ipakni bog'ladi.

– Nasib etsa qirq kunda chopqillab ketasan, bolam, – dedi yupatib.

Qirq kun? Endi men qirq kun yotishim kerakmi? Hecham-da!

Taxmondan qizil, og'ir ko'rpani olayotgan oyim xo'rsindi:

– Endi Omongayam toshadi.

– Mijozi bir bo'lsa toshadi. Bo'lmasa – yo'q, – «Qora ammam» xotirjamlik bilan oyimga yuzlandi. Nafasi battar g'ijirlab ichidagi «odamchalar» bor ovozda hushtak chala boshladi. – Baribir toshishi kerak-da. Qaytaga shu yoshda qutulib olgani yaxshi. Qizamiq o'lgandayam toshadi, qizim.

Oyim solib bergan qizil ko'rpaga o'ralib yotar-kanman, battar isib ketdim. Boshimda o'tirgan «Qora

ammam»ning harsillab nafas olishidan o'zim ham bo'g'ilib ketayotgandek bo'lardim.

Rostdan ham uch kunda hamma-yog'imga qip-qizil, mayda «yara» toshib ketdi. A'zoyi badanim olovdek yonib ketayotganini his qilaman-u, o'rnimdan turolmayman. Kechalari uyg'onsam boshimda oyim muk tushib o'tirgan bo'ladi. Ko'zimni ochishim bilan u ham cho'chib uyg'onadi.

– Gultojxo'roz damladim, ozgina ichasanmi? – deydi kaftini peshonamga bosib.

Yaxshiyam Komil buva bor ekan. Uch-to'rt marta tepamda siyrak soqolini selkillatib kulimsirab o'tirgani, «qani buni ichib yuboring-chi, azamat yigit», deb tumshug'imga allaqanday achimsiq hid anqib turgan piyolani tutgani esimda. Qiziq, o'shandan keyin darrov yengil tortdim.

Judayam qirq kun emas-ku, yigirma kunlarda tuzalib qoldim. Lekin «Qora ammam» baribir o'rnimdan turg'izmadi.

– Endi kichik chillasi chiqdi, kattasi chiqmaguncha yotsin, – deb tayinladi oyimga. – Mayli, menam uyimga bora qolay endi.

«Qora ammam» rost aytgan ekan, Omonning mijozi boshqa bo'lgani uchun ukamga qizamiq yuqmadi.

– Pitillasdan tinch yotsang, – dedi dadam tayinlab, – boshdan-oyoq yasataman. Kuyovbola bo'p ketasan.

«Kuyovbola»si bilan ishim yo'q-ku, ammo dadam bugun meni bosh-oyoq yasantirmoqchi.

Ota-bola ko'chaga chiqqanimizda, tong yorishib ketgan edi. Yer hali yaxshi qurimagan, devorlarning kungay etaklari selgib qolgan bo'lsa ham, o'radagi arava izi pilchillab yotar, bultur kallaklangan tollarning silliq navdalari hushtak yasasa bo'ladigan darajada sarg'imtil rangga kirib suv yig'ib qolgan edi. Erta-indin Abduvali ikkalamiz toldan hushtak yasaymiz. Abduvali bunaqa ishlarga usta. Dadasining ustarasi o'tkir-da.

Choyxona ochiq ekan. So'riga yozilgan namatni cho'ltoq supurgi bilan supurayotgan Ilhom choyxonachi dadamni uzoqdan ko'rib salom berdi.

– Bahay? Ota-bola to'rg'ay uyg'onmasdan, poyma-poy kavushdek yo'lga tushib qopsizlar?

– Bozorga! – Dadam papirosini og'zidan olib tutun qaytardi. – Biron hovuch tariq olakelaymi?

Ilhom cho'tir qahqah urib kuldi.

– Yantoq deng, zo'r! Yantoq! – Sartaroshning do'koniga imo qildi. – Yozgacha yetib olsin bechora! Qishi bilan yantoqsirab qoldi.

«Passajir» endi ketaman deb turgan ekan. Dadam cho'loqlanib yugurdi. Ketidan men chopdim. «Passajir» degani tumshug'i cho'ziq avtobus. Atrofi faner bilan o'ralgan. Derazalari sinib ketgan. Bultur kech kuzdan boshlab, Ko'tarmaga «passajir» qatnaydigan bo'ldi. Darsda o'tirib o'zim sanaganman. Har kuni uch martadan keladi. Ertalab, peshinda, kechqurun...

Beshyog'ochga borib, avtobusdan tushganda, qutul-ganimga shukur qildim, xayriyat, havo ham bor ekan. «Passajir»da odamlar har tomondan qisib patir qilib tashladi-da!

Osmonni bulut qoplagan, temir panjara bilan o'ralgan ko'l tomondan muzika yangrar edi. Xuddi yig'la-ganga o'xshash og'ir muzika: kechadan beri radio shunaqa kuy chalyapti. Stalin kasal bo'lib qolganmish.

– Bo'laqol, o'g'lim. Xastimom uzoq, – dadam tag'in papiros tutatib, qo'limdan tutdi.

Avtobus tiqilinch bo'lsayam baribir yaxshi ekan. Piyoda yuraverib oyog'imda oyoq qolmadi. Dadam oqsoqlansayam tez yuradi. Bir mahal kungurador gumbazining ko'm-ko'm naqshlari yaraqlab turgan kattakon imorat oldiga keldik. Gumbaz ostida ko'kim-tir qanotli yovvoyi kaptarlar part-purt qilib uchib yuribdi.

Mahliyo bo'lib to'xtab qoldim.

– Bu qanaqa uy, dada?

– Uymas, madrasa! Ko'kaldosh madrasasi. – Dadam qo'limdan sudradi. – Bo'laqol!

Tor ko'chaga kirishimiz bilan yurish battar qiyin-lashdi. Muncha ko'p bu odamlar. Chumoliga o'xshaydi-ya! Paranj yopinib, boshiga tugun qo'yganча zipillab ketayotgan xotinlar (hayronman, ushlamasayam, tu-

guni tushib ketmaydi), qop orqalagan kishilar, ko'mir ortilgan ot-aravalar... «Po'sht, ot tepadi!» deb hayqirgan aravakashlar...

Bir mahal tor ko'cha yanayam tiqilinch bo'lib ketdi.

Sarg'ish mashina papillatib signal berdi. Mashina tumshug'idagi yaltiroq yozuvni hijjalab o'qidim: «Po-beda». Tor ko'chada mashina bilan ko'mir ortilgan arava bir-biriga ro'para kelib ikkalasi to'xtab qolibdi.

Mashina signal bergan sari ko'mir yuqi yopishaverib, yollari qorayib ketgan ot pishqiradi. Ammo aravakash aravani chetga olmaydi. Oxiri mashina eshigi ochildi. Boshiga ayvonli shapka kiygan haydovchi bir oyog'ini yerga tiragancha baqirdi:

– Hoy ko'mirchi! Qoch yo'ldan! Rayispolkomni olib ketyapman, savodsiz.

Aravakash pashsha qo'rigandek beparvo qo'l siltadi:

– Pattachiga bo'shatmagan yo'lni rayispolkomingga beramanmi, o'zing qoch!

Dadam qo'limdan jahl bilan siltadi.

– Anqayma! Adashib qolasan!

Tor darvozadan kirishimiz bilan battar tiqilinchga duch keldik. Nima bu? Hamma bozorga ko'chib kelganmi?

– Xo'sh... – dedi dadam salmoqlab. – Ishni do'ppidan boshlaymiz. Ukangayam olamiz, xo'pmi! Keyin oyingga tufli qidiramiz. Sakkizinchi mart kelyapti, o'g'lim.

Qo'limdan tutgan edi, indamay ergashdim. Do'ppi bozori chekkaroqda, g'ishtin devor yonida ekan. Undan nariroqda «aralash» bozor. Birov soatini maqtaydi, birov «atigi ikki marta» kiyilgan «ofitserskiy» etigiga xaridor chaqiradi. Dadam qo'limdan mahkam tutgancha do'ppifurushlar to'dasiga kirdi. Chachvonining tagidan chiqarib turgan qo'liga do'ppi qo'ndirgan xotinlar, boshiga ustma-ust besh-olti do'ppini kiyib olgan erkaklar atrofimizni o'rab oldi. Paranjili xotin dadamning boshidagi jiyagi titilib ketgan do'ppisini ildam yechib, bidilladi:

– Ushlang. Ushlab turing muni!

Dadamning javobini kutmay, boshiga yap-yangi qalampir nusxa do'ppi ildi.

– Ana! Buyurtirsangiz ham bunaqasini topolmay-siz, amaki! Pulingiz o'zingiz bilan ketadi!

Dadam jahl bilan xotinning qo'lidagi o'z do'ppisini yulqib oldi.

– Mengamas! – dedi baqirib. – Bolaga! Bolaga ola-man!

Qiziq, boyagi xotin hecham xafa bo'lmadi.

– Voy, shunaqa demaysizmi, amaki, – dedi-yu, mening boshimdagi do'ppini oldi. – Voy, shirintoy, voy to'yboladan aylanay. Mana-da, mana! – Chachvonining tagiga qo'l suqib, qati bukilgan besh-oltita do'ppi chiqardi. Birini olib birini qo'yib boshimga kiygiza boshladi.

– Uyalmaysizmi, kelinposhsha! – Boshiga mursak tashlagan, barkashdek yuzi bo'g'riqib ketgan semiz bir xotin boyagi paranjilini tirsagi bilan itardi. – Yosh bola mahalla qozondek do'ppi kiyadimi? Mana, mana buni kiyib ko'r-chi.

Semiz xotinning do'ppisi boshimga lop-loyiq keldi. O'ziyam qizil duxobadan!

– Quyib qo'ygandek yarashdi! – dedi semiz xotin yuzimni silab. – Buyursin! To'y'laringga kiygin, iloyim, boshing toshdan bo'lsin!

Chamasi, do'ppi dadamga ham yoqdi shekilli, da-g'alroq qilib so'radi:

– Narxini ayting.

– Voy aylanay, ot bilan tuya bo'larmidi! – Semiz xotin dadamga jilmayib qaradi: – Yuz so'm-da, inim. Ertamatdan beri yuz ellikdan sotayotgan edim. Sizga yuz so'm. Muni qarang. Jiyagini qarang, mayda tepki!

– Insof bormi sizda, opa! – dedi dadam qo'lini paxsa qilib. – Davlat har yili arzonchilik qilib turibdi. Yaqinda tag'in narx-navo tushadi. Gazeta o'qiysizmi o'zi!

– Mayli, bozoringizni bersin! – Xotin boshimdan do'ppini yechib oldi. – Erim urushda o'lgan. Menam biramas uchta yetimni boqib o'tiribman. Bitta do'ppini bir hafta tikaman, opovsi.

– Yetmish! – dedi dadam do'ppidan ajralib qolgisi kelmay.

– To‘qson! Undan kami bo‘lmaydi. Meniyam bolarim eshikka termilib o‘tiribdi.

– Sakson, – dedi dadam xunob bo‘lib. – Insof qilingda, sizam, opa!

– Mayli, – semiz xotin do‘ppini qaytadan boshimga kiygizdi. – Yaxshi kunlaringga kiygin, bolam, umring uzoq bo‘lsin.

Dadam shimining cho‘ntagidan oqarib ketgan charm hamyonini olib, pul chiqardi. Qo‘lini labiga tegizib ho‘lladi-da, hafsala bilan sanab, semiz xotingga uzatdi. Xotin ham pulni shoshilmay sanab, engashgancha mahsisining qo‘njiga tiqdi.

– Buyursin! – dedi qaddini rostlab. – Yaxshi kunlarga kiysin.

Boya atrofimizni halqadek o‘rab olgan erkak-ayol do‘ppifurushlar hafsalasi pir bo‘lib bir zumda nari ketgan, yangi xaridor izlashardi.

– Opa! – dedi dadam burilib ketayotgan semiz xotingga. – Kichkinaroq do‘ppingiz bormi?

Semiz xotin umid bilan o‘girildi.

– Bor! Necha yoshga?

Dadam bir zum o‘ylanib qoldi. Chamasi, Omonning necha oylik bo‘lganini ichida sanab chiqdi.

– Bir yosh-u yetti oylik! – dedi ishonch bilan. – Bunisiga oldim, unisiyam quruq qolmasin!

Semiz xotin bosh chayqadi.

– Unaqasi yo‘q. Yolg‘on gapirib nima qildim. Yetimlaringa harom yedirmayman, opovsi.

Boyagi paranjili xotin yana bizga yaqin keldi.

– Bunisini ko‘ring-chi! – dedi jajji, chamandagul do‘ppini dadamga uzatib. Dadam endi do‘ppiga qo‘l cho‘zgan edi, odamlar orasidan bir kishi sirg‘alib chiqdi. Egnida oq jujuncha kitel – xuddi dadamnikiga o‘xshagan, ammo sarg‘ishroq, qaymoqrang. Keng pochali shimiyam shunaqa, top-toza. Oyog‘ida amirkon tufli. Mo‘ylovi dadamnikiga o‘xshaganmas, chiroyli, ingichka.

– Soat olmaysizmi, aka? – dedi kulimsirab. – Asl mol. Shveytsarskiy. – U jujuncha kitelining ko‘krak cho‘ntagidan zanjirli soat chiqarib, chiq etib oppoq, yaltiroq qopqog‘ini ochdi. – Mana, ko‘ring. – Shunday

dedi-da, dadamning yuziga qarab, birdan rangi quv o'chdi. Ingichka, chiroyli mo'ylovi titrab ketgandek bo'ldi. Hayron bo'lib, dadamga qaradim-u qo'rqib ketdim. Dadamning ko'zlari g'azabdan qisilib ketgan, burun kataklari kerilib, entikib-entikib nafas olardi.

– Yaxshi! – dedi xirillab. – Olaman. Boshing bilan qo'shib...

Oxirgi gapini ayta turib, shaxt bilan pastga egildi. Etigining qo'njiga qo'l suqdi-da, suyak sopli pichog'ini sug'urdi. Bir vaqtlar qo'lim singanida «so'yaman!» deb bir urib patnisni teshib yuborgan pichog'ini!

Dahshat ichida chinqirib yubordim:

– Dada!

Xotinlarning qiy-chuvi eshitildi. Kimdir «dod, so'ya-di!» deb chinqirdi... Qarasam, pilchillab ketgan maydonda o'zimizdan boshqa hech kim qolmabdi. Do'ppifurushlar, etigini maqtab, xaridor chaqirayotganlar ancha nariga borib qolgan, olomon orasida boyagi ju-jun kitelli kishi ko'rinmasdi. Dadam bir qo'lida pichoq tutgan ko'yi ikkinchi qo'li bilan yelkamdan tutib turar, kafti muttasil titrayotganini sezardim.

Uzoqda hushtak churilladi. Dadam pichoqni qo'njiga tiqdi. Hamon labi titrab, pishqirib nafas olardi.

– Yur, o'g'lim! – dedi xirillab. – Ketdik.

Shosha-pisha qo'limdan sudragancha olomon orasiga o'zini urdi. Bozor darvozasidan chiqqandan keyingina qo'limni qo'yib yubordi. Papiros olib chekdi.

– Haligi kishi kim edi, dada? – dedim qo'rqa-pisa ko'ziga qarab.

Dadam tiqilinch ko'cha chetidan shoshilmay borarkan, savolimni eshitmadimi, javob bergisi kelmadimi, indamadi.

– O'g'rimi? – dedim odamlarga turtinib-surtinib borarkanman. – Soatni o'g'irlab olganmi?

Dadamning bir mo'ylovi qiyshayib ketganday bo'ldi.

– Ha, – dedi mo'ylovi titrab. Keyin negadir kulimsiradi. – O'g'ri! Qulog'ini kesib olmoqchiydim, qochib ketdi. Bo'laqol, «passajir»dan qolib ketmaylik.

Men-ku do'ppilik bo'ldim. Omonga hech nima olmaganimiz yomon bo'ldi-da. Yig'laydi. Oyimgayam

tufli ololmadik. Shuni aytgim keldi-yu dadamning vajohatidan qo'rqdim.

Mayli, yanagi bozorga tag'in kelamiz. Uyga borib, oyimga hammasini gapirib beraman. Dadam bozorda o'g'rini so'ymoqchi bo'lganini, o'g'ri qochib ketganini...

Beshyog'ochga yetib kelganimizda havo aynidi. Qorong'i tushib qolganday, hammayoq kulrang tusga kirdi. Osmonni bulut qoplagan, parkdagi karnaydan eshitilayotgan yig'loqi muzika yanayam kuchaygan edi.

...«Passajir» Ko'tarmaga yaqinlashganda yomg'ir yog'a boshladi. Avtobusning faner devoriga shatir-shutir tomchilar urildi. Yerga tushganimizda yomg'ir kuchayib ketgan edi. Xuddi chelaklab quygandek... Dadamning jujuncha kiteli birpasda jiqqa ho'l bo'lib badaniga yopishib qoldi. Hatto chap elkasidagi chuqurchasi piyoladek o'pirilib aniq ko'rinib ketdi...

Eshikdan baqirib kirdim:

– Oyi-i! Biz keldik!

Yomg'irdan tezroq qochish uchun ayvonga otilib chiqdim.

– Oyi! – dedim irg'ishlab. – Biz keldik!

Ayvon burchagida bukchayib o'tirgan oyimni ko'rdim-u nafasim ichimga tushib ketdi. Oyim ikki kafti bilan yuzini to'sib olgan, sochlari yoyilib ketgan edi. Ketma-ket yetib kelgan dadam ham ayvon peshida turib qoldi.

– Nima gap? – dedi harsillab.

Oyim yuzidan kaftini olib, yosh to'la ko'zlarini dadamga tikdi.

– Eshitmadingizmi? – dedi titrab. – Otamizdan ayrilib qoldik-ku?

– A? – Dadam hayron bo'lib peshonasiga oqib tushayotgan yomg'irni sidirdi. – Kim?

– Eshitmadingizmi? – Oyim o'tirgan joyida butun gavdasi bilan chayqaldi. – Radioni eshitmadingizmi? Hali aytdi-ku... Stalin vafot etdi deb. Endi nima bo'ladi?

Dadam talmovsirab ayvon peshiga cho'kdi. Ust-boshiga shamol bilan selpib urayotgan yomg'ir ostida uzoq o'tirdi.

Ichkarida beshik g'ijirladi. Omonning «oy-yi» deb chaqirgani eshitildi. Keyin yig'lab yubordi. Ammo oyim qimir etmadi. Dadam ham, oyim ham karaxt bo'lib qolishgan edi...

Bozorda o'g'ri ko'rganimiz, dadam uni so'yib tash-lamoqchi bo'lgani, ukamga do'ppi ololmay qolganimizni oyimga aytib berish ham esimdan chiqib ketdi. Dadam bilan oyim merovsirab o'tirishar, yomg'ir battar kuchayib ketgan, hovlidagi olmalarning suv yig'ib qolgan shoxlari shamolda ayanchli silkinar edi.

Anchadan keyin oyim ukamni beshikdan yechib oldi. Dadam ichkariga kirib ketdi. Yomg'ir tinar-tinmas ko'chaga yugurdim. Abduvali bilan toldan hushtak yasadik. Kechqurun havo charaqlab ketdi...

Yigirma uchinchi bob

ROBIYA HIKOYASI

1. Olimjonning «gunohi»

Agar o'n yil ilgari, qirq uchinchi yil bahorida bi-rov: «O'n yildan keyin Oliy Bosh qo'mondan vafot etadi» desa bormi, bunaqa odamning xoli bilmadim nima kechardi... Odamlar ulug' dohiyning qachondir o'lishini xayoliga keltirmasdi, g'alabaga bo'lgan ishonch odamlarni kecha-kunduz tinim bilmay ishlashga, hafta sayin yangi shaharlarni ozod qilayotgan jangchilarga ko'proq yordam berishga undar, mana shu katta yumush oldida oilalar boshiga tushgan kulfat ham unchalik sezilmas edi. Go'yo bahor kirganidan keyin yoqqan qor ertami-kechmi, baribir erib ketishi muqar-rarligini bilgan odam o'zini-o'zi yupatgandek. Kim bilsin, ehtimol har kim o'zining boshiga yoqqan qorni o'zi emas, ko'pchilik bo'lib kuragani uchun, birov yiqilsa ikkinchisi yoniga kirib suyagani uchun shunaqa bo'lgandir. Ehtimol Kimsan akamdan hamon xat-xabar yo'qligini, dadam esa begunohdan-begunoh zim-ziyo bo'lib ketganini o'ylab harchand ezilsam ham, o'sha katta tashvish bilan bo'lib, dardimni ozmi-ko'pmi unutgandirman.

Qirq to'rtinchi yil yoziga chiqqanimizda esa urush erta-indin bitishiga hamma ishonib qoldi. Eng quvonchlisi – Oqsoqolning bir gapi ko'nglimizda lipillab turgan umid chirog'ining piligini ko'tarib qo'ygandek bo'ldi.

– Eshitdingmi, Duma! Hujum qilib borgan askarlarimiz partizanlar bilan birlashibdi. Belorussiyaning o'rmoni partizanlarga to'lib ketgan ekan. Meni aytdi dersan: Kimsaning shularning orasida. Erta-indin daragi chiqadi. – Oqsoqol o'zining gapi o'ziga nash'a qildi shekilli, soqolini selkillatib kuldi. – Gitlarning holiga maymun yig'layapti, o'rtoq! Oldidan askarlarimiz savalasa, orqasidan partizanlar tepkilasa, u yoqda soyuzniklarimiz front ochgan bo'lsa... Qopqonga tushdi it emgan!..

Oqsoqol-ku, bizning umid chirog'imizni yoqdi. Ammo o'zining boshiga yana bitta tog'dek kulfat tushdi: Xolposh xola qazo qildi. Zuhra kelinning o'sha qilmishidan keyin o'nnglanmagan xola kalovlanib yurayura oxiri yiqildi... Qiziq, ikki o'g'lidan ayrilganda ham qaddini bukman Oqsoqol kampirini yerga qo'rganidan keyin munkillab qoldi. Bobom qo'lidan sudragudek bo'lib dalaga olib chiqadi. Oqsoqol esa hamma tushlik qilayotganida yo'qolib qoladi. Bobom go'ristondan topib keladi.

Fotima kelin ko'pincha yig'lab chiqib oyimga hasrat qiladi:

– Otam g'alati bo'lib qoldilar. Bugun kechasi yana oyimning mozoriga borib yotdilar.

Bobom ko'pincha do'stining yoniga chiqib yotadi. Xolaning yettisida xizmat qilib yursam, supada o'tirgan Oqsoqol bobomga aytgan gapini eshitib qoldim:

– Kampirimni tush ko'ribman, Duma. Aravada bir yoqqa ketayotgan emishmiz. Meni yoniga chaqiryapti, o'rtoq...

– Jinnimisan! – Bobom tajanglik bilan chiyilladi. Keyin do'stining yoniga o'tirdi. – Ma, chek! – dedi nosqovog'ini uzatib. Keyin ovozi pasaytirib yupatdi. – Unaqa gaplarni qo'y, do'stim. Shukr qilmaysanmi?

Shundoq keling bor. Baraka topgur Potmani qara, qizdan a'loku, keling. Bir emas, ikkita nevarang bor. Nasib etsa yaxshi to'ylar qilamiz. Popukni uzatamiz. Tohiringni uylantiramiz. – Bobom anchagacha jimib qoldi-da, Oqsoqolning yelkasiga qoqdi. – Bitta gap aytaymi, – dedi do'stining ko'ziga tikilib. – U quloq-bu qulog'ing bilan eshitib qo'y: birga keldik, birga ketamiz! Sensiz bir kun ham yurmayman bu dunyoda! Qo'y, bunaqa yurish senga yarashmaydi. El nazaridagi odamsan, o'rtoq! Yaxshisi dalaga chiq, ovunasan. Ertadan bug'doy o'rishga tushamiz.

Bug'doyning hosili yaxshi. Ayniqsa Xirmontepa tomonda... O'rim boshlanishi bilan Umar zakunchi yangi qoida o'ylab topdi. Odatda o'rimga hamma baravar tushadi. Ketmonchi ham, suvchi ham. MTS kolxozdan tashqarida. Ammo o'rim paytida traktorchilar ham boshqa ishini yig'ishtirib o'roqqa tushib ketadi. Bug'doyni xirmonda ho'kiz bilan yanchib, bittayam don qoldirmay omborga tashiymiz. Keyin mashoq boshlanadi. Dalada tushib qolgan bitta-yarimta boshloqlar qaytadan teriladi. Bu eski odat.

Zakunchi topgan usul yangicha. Mashoqdan keyin dalaga traktor solish oldidan bug'doypoyaga odamlar ikkinchi marta tushadi. Bu ishga bolalar jalb qilinadi. Xotin-xalajning yumushi o'ziga yetib ortadi. Kartoshka bor, lavlagi bor... Raisning o'ylagani to'g'ri. Bolalar bari-bir bekor ham yuradi-da! Bug'doy boshloq tortganida dalaga yopirilgan qurti tergan ham – bolalar edi. Endi harna bir hovuch bo'lsayam mashoq qilgani. Bir tomonda frontga yordam, ikkinchi tomonda o'ziga yaxshi.

Yangicha usulning oti – sheriklik! Har bir bola uyidan bittadan qop olib keladi. Tap-taqir bug'doyzorga kirishadi-da, unda-munda qolib ketgan boshloqlarni, to'g'rirog'i, chumoli tashiyotgan donalarni bittalab terishadi. Ertadan kechgacha uringan odam nari borsa yarim qop mashoq tersa-teradi, bo'lmasa yo'q. Hammasi qopini ko'tarib dala chekkasiga olib chiqadi. Keyin baravar bo'lashiladi. Yarmisi – kolxozga, yarmisi – o'ziga. Ishni Umar zakunchining o'zi nazorat qiladi!

Mashoq qilinadigan maydonga tong otmasdan allaqancha bola to'planadi. Ammo Umar zakunchi kelmaguncha hech biri tusholmaydi. Buyruq shu. Nihoyat Zakunchi ot minib keladi. Dalani taqsimlaydi.

– O'n kishi – bu yoqqa! Senlar – u yoqqa! Ellik metrda to'xtaysan. Bittayam don qolmasin!

Bolalar qopni sudragancha tap-taqir dalaga yopiriladi. O'n qadamda yarimta boshqoq, bir kaft don uchrasa uchraydi, uchramasa – yo'q. Bola – baribir bola-da! Kattaroq boshqoqni ko'rib qolsa, bir-biridan talashib yuguradi. Endi boshqoqqa chang solganida boshida qamchi vizillaydi.

– Ellik metr degandim-ku, haromi! Nega o'tding!

Bola qamchi zarbidan ko'ra raisning vajohatidan qo'rqib orqasiga qochadi. Bug'doyzorda paykal bo'l-masa, bolaning qo'lida metrlab o'lcaydigan gaz bo'l-masa, qayoqdan bilsin! Lekin rais tartibni yaxshi ko'radi, dalani yaxshilab tozalashni o'ylaydi.

Bugun Xirmontepadagi bug'doyzor ikkinchi mashoqdan chiqadi. Bashor opa qattiq tayinlagan: shudgorni boshlamasak bo'lmaydi. Harna ertaroq haydab qo'yganimiz.

Traktor haydab kelayotsam, olisda – bir tup qayrag'och tagida g'uj bo'lib turgan bolalarga ko'zim tushdi. Demak, hali Zakunchi yetib kelmagan. Dalaga tushishga qo'rqib, raisni poylab turishibdi. Yuz qadamcha qolganda bolalar, qizaloqlar to' dasidan bir bola ajralib chiqib, shu tomonga yugurdi. Darrov tanidim: Olimjon! Boshi ustida qopni pirpirak qilib, chopib kelyapti. Egnida oftobdan uniqib, sho'ralab ketgan ko'ylak, boshyalang. Sochi o'sib ikki chakkasiga tushgan, rangini qisib qo'ygan... U harsillab kelgancha, yurib ketayotgan traktorga – yonimga chiqib oldi.

– Olma yeysizmi, opa? – dedi traktor shovqinidan baland kelish uchun baqirib. Ishtonbog'iga qistirilgan ikkita xom olmani chiqarib, bittasini uzatdi, «yemayman» deb bosh chayqadim. U olmalardan birini ko'ylagining oldiga ishqab artidi-da, karsillatib chaynay boshladi. Og'zim suv ochib ketdi. Qandoq yeydi shundoq nordon olmani!

– Opa! – dedi iljaygancha olma chaynarkan. – Suv obkeb qo‘ydim! Ikki chelak! Traktorni dalaga obkirguncha sheriklik qilsam maylimi? Oyim aytdilar.

– Rahmat, Olimjon! – O‘nqir-cho‘nqir joydan traktorni haydab borarkanman, ko‘ylagi sho‘ralab ketgan yelkasiga qoqdim. – Baribir toza bo‘lmaguncha dalaga traktor kirmaydi.

Olimjon traktordan sakrab tushdi-da, bir qo‘li bilan hamon olma g‘ajigancha, ikkinchi qo‘lidagi qopini boshi ustida pirpirak qilib chopib ketdi. U oyoqyalang yugurib borar, tovonlari tosh bo‘lib ketganmi, yerdagi yantoqlarni bemalol bosib sakrab-sakrab chopar, irg‘ishlar edi.

Traktor qayrag‘och oldiga imillab borguncha narigi tomondan Zakunchining jiyroni ko‘rindi. Ot yelib kelib, daraxt soyasida to‘xtadi. Zakunchi egardan ildam sakrab tushib, ot jilovini qayrag‘ochning pastki shoxiga ildi. Turganlarga qarab bir nima dedi: traktor shovqinidan eshitmadim. Son-sanoqsiz bolalar, uzun etagi yerga tegay deb turgan qizaloqlar duv etib, dalaga yoyildi.

Traktorni yaqin olib borsam, Zakunchi dalada chumoliday o‘rmlab yurgan sherikchilik ishqibozlaridan ko‘z uzmay, qayrag‘ochga suyangancha papiros tutatib turibdi. Yo‘l-yo‘l ko‘ylagiga orden taqib olgan. (Bul-tur bobom «sharbat» solgan dalaning har gektaridan oltmish tonnadan qand lavlagi olingani uchun Zakunchi «Hurmat belgisi» ordeni bilan mukofotlangan. Ordenni qishda kostyumiga, yozda ko‘ylagiga taqib yuradi.) U shovqindan qulog‘i bitib, g‘ashi keldi shekilli, shaxdam burilib, «o‘chir» degandek qo‘l siltadi. Motorni o‘chirib, yerga tushdim.

– Avval yig‘ib olsin, keyin tushasiz! – dedi qovog‘ini solib.

Hov o‘shanda Alvasti ko‘prikda boshi yorilganidan beri u men bilan deyarli gaplashmas, mabodo zarurat yuzasidan majbur bo‘lgandayam «siz»lab gapirardi.

Ensam qotib, pluglarni tekshirgan bo‘ldim. Olimjon yaxshi bola-da! Ikkita pachoq chelakni allaqachon suvga to‘ldirib qo‘yibdi.

Yelib-yugurib mashoq qilayotgan bolalar tomon yurgan edim, Zakunchi kinoyali kuldi.

– MTSdan olayotgan naturangiz kamlik qildimi, o'rtoq traktorchi?

Burilib qaradim-u indamay dalaga kirdim. Birpasda kun qizib ketdi. Saraton oftobi yondiraman deydi. Yer – olov, osmon – olov, qirtishlab o'rib olingan bug'doyzordagi guvalalar – olov. Sochi olingan odamning boshidek taqir dalada yarim qarich dikkayib turgan bug'doy poyalari o'tli nina bo'lib oyoqqa sanchiladi. Teradigan boshogning o'zi yo'q. Bolalar, qizaloqlar oyoq ostida o'rmalayotgan chumolilar og'zidagi donni bittalab terib olguday. Darrov terlab ketdim. Voy, Olimjon tushmagur-ey! Birpasda yarim qopcha boshog teribdi. Qayoqdan topdi bu bolakay?! Razm solib qarasam, harqalay u yer-bu yerda yarimta-chorakta boshoglar to'kilib qolgan ekan. Men ham terib, Olimjonning qopiga sola boshladim. U bir qo'llab qopining og'zidan ushlab olgan, engashib buklanganicha shatir-shutir qilib oldinga intiladi-da, ikkinchi qo'li bilan boshog qoldig'ini terib, qopga tashlaydi. Qop **ikki** oyog'i o'rtasida sudralib boryapti. Qarasam, o'n qadamcha narida bir emas, uchta boshog yotibdi. O'sha tomonga yurgan edim. Olimjon baqirdi:

– I-i! U yoqqa o'tmang. Zakunchi o'ldiradi! Ellik metrdran o'tmaysanlar, degan. Qarang, opa, bu yoqdayam ko'p.

Beixtiyor to'xtab qoldim. Olimjon ko'p degan joyda yarim kaftcha bug'doy sochilib yotgan ekan. Hovuchimga olib, puflab tozaladim-da, qopiga soldim.

Olimjonning qopi yarmidan oshguncha peshin bo'lib ketdi. Peshonamdan duvillab ter oqar, ko'ylagimning orqasi gardanimga yopishib achishtirardi. Olimjon bo'lsa parvo qilmaydi. Guvalalarni, chaqir tikanaklarni yalangoyoq bosib, yerdan ko'z uzmay, boshog izlaydi. Topishi bilan shosha-pisha qopiga tiqadi.

– Yura qol, Olimjon, – dedim yalinib. – Qara, qoping to'lib qoldi. Hali yana terasan-ku.

U qopini orqalagancha istar-istamas orqamdan ergashdi.

– Mayli, yarmini uyga tashlab kelaman-da, yana teraman. Hali ko'p-ku, a!

U ikki bukilib qop ko'tarib borayotganda ham yerdan ko'z uzmadi. Yo'lida yarimta boshqo ko'rinsa, erinmay to'xtaydi. Qopi xalaqit berayotgani uchun yerga qo'yadi-da, boshqo uvog'ini ildam yulqib oladi, qopiga tashlaydi. Yuzidan ter oqib ketayotganiga parvo qilmaydi.

Qayrag'ochga yaqin kelishim bilan o'zimni soyaga urdim. Olimjon «uf» deb qopini Zakunchining oyog'i tagiga qo'ydi-da, yugurib borib, boya o'zi traktorga suv olib kelgan chelakka yopishdi. Chelakni ko'tarsa, suv to'kilib ketishidan qo'rqdi shekilli, yuzini paqirga botirib icha boshladi.

Zakunchi qopni tepib ko'rdi.

– Malades! – dedi kulimsirab. – Bo'ldimi! Boshqa termaysanmi?

– Teraman. – Olimjon chelakdan boshini ko'tarib iljaydi. Qop-qora yuzidan suv aralash kir ter oqib, ko'ylagining oldi ho'l bo'ldi. – Yana teraman.

– Malades! – Umar zakunchi qopni bir qo'llab ko'tardi-da, dumi bilan hadeb pashsha qo'riyotgan jiy-rondan nariroqqa, tekisroq joyga ag'dardi. Yarim-yorti boshqolar, yarim g'alvircha keladigan don tuproq aralash changib, yerga to'kildi. Zakunchi boshqo uyumini bir zum chamalab turdi-da, kafti bilan changallab ozgina boshqoni qopga qaytib soldi. Yana ikki marta qo'l solib, to'xtab qoldi. Keyin, insof qildi shekilli, tag'in bir changal boshqo olib, qopga tashladi.

– Oboraqol! – dedi Olimjonga qarab. – G'izillab, uyingga tashlagin-da, qaytib kel, xo'pmi?

Angrayib qoldim. Bu qandoq bedodlik? Bu qanaqa «sherikchilik» bo'ldi? Avvallari bir mashoqdan qolgan supurindini bolalar uyiga olib ketardi. Mayli, urush bo'lyapti, mayli, zamon shuni talab qilyapti. Ammo norasta bola tergan nasibani, aqalli yarmini bermaslik borib turgan noinsoflik-ku! Nima qilsin, ochidan o'lsinmi endi! Olimjon to'plagan boshqoning beshdan biriyam tushmadi-ku, qopga!

Olimjon ham hayratdan og'zini ochib qolgan, nuqul burnini tortar edi.

– Kam-ku! – dedi qo'rqa-pisa.

– Nima? – Umar zakunchi istehzo bilan labini burdi. – Mana! – Zarda bilan engashib, qopga tag'in bir siqim boshqoq tashladi. – Bo'ldimi? Bor endi, boshimni qotirma!

Olimjon ikkilanib turdi-da, sekin borib, bir qo'li bilan qopining og'zini ochdi. Ikkinchi qo'li bilan, xuddi birov tortib olayotgandek, uyum bo'lib yotgan boshqoqlarni changalladi.

– Aldamang! – dedi iljayib. Chamasi, rais hazil-lashyapti, deb xayol qildi. – Yarmini berasiz. O'zingiz aytgansiz! – U raisdan ko'z uzmay, boshqoqlarni changallab, qayta sola boshladi.

Zakunchining ko'zlari tahdidli qisilib ketdi.

– Tort qo'lingni! – dedi vishillab. Engashib, bolaning qo'lidagi qopga chang soldi.

Olimjon uning hazillashmayotganini endi tushundi. Yuzida qo'rquv aralash bolalarcha sodda qaysarlik paydo bo'ldi. Ikki qo'llab qopini changallab oldi.

– Berasiz, ha berasiz! – dedi rangi o'chib. – Yarmini berasiz! O'ziz aytgansiz!

– Yarmi kerakmi senga! – Rais etigining qo'njiga qo'l suqqan edi, pichoq yaltiradi. Yuragim orqaga tortib ketdi. Bolani pichoqlab qo'yadi, degan vahimada chopib yaqin bordim.

– Tegmang! – dedim yalinib. – Olimjon, qo'yvor! Tashla qopingni!

Ammo Olimjon qopiga mahkam yopishib olgan, qo'yib yuborgisi kelmas edi. Zakunchi qopning og'zidan ushlab, siltab tortdi. Olimjon qopini quchoqlab oldi. Zakunchi yana tortgan edi, Olimjon qopiga yopishgancha tuproqda sudralib uning oyog'i ostiga kelib qoldi. Jonholatda chinqirib, Zakunchining pichoq tutgan qo'lga yopishdim.

– Olimjon, qoch! – dedim chinqirib.

– Nari tur, megajin! – Zakunchi yelkasini bir silkitgan edi, ancha nariga – yantoqlar ustiga borib tushdim. Tirsagimga tikan kirib, lovullab achishdi.

– Yarmi kerakmi senga? Mana yarmisi! Mana! – Zakunchi pichog'ini uch-to'rt siltagan edi, qop shir-shir

yirtilib ketdi. Olimjonning qo'lida qopning bir tutami qoldi. Ikki-uch boshqoq shildirab yerga to'kildi.

Olimjon cho'kkalab o'tirgancha bir zum Zakunchiga hayratlanib qarab qoldi. O'sha zahoti alam bilan chinqirdi.

– Qopimni nima qilding?! – dedi yerga mushtlab. – Nima qilding! Dadamga nima deyman? Nima qilding?

Bolaning sansirashi alam qilib ketdi shekilli, Zakunchining ko'zida dahshatli o't chaqnadi. Qo'lidagi qop parchalarini nafrat bilan uloqtirib yubordi-da, mening tepamga keldi. Qo'limga tikan kira-kira talmovsirab o'rnimdan turarkanman, Zakunchi cho'nqayib o'tirgancha yantoqlarni tagidan pichoq bilan kesayotganini ko'rdim. Dahshat ichida shuni payqadimki, yantoqlarning nami qochmagan, ammo tikani sarg'ayib pishganlaridan tanlab-tanlab uch tupini kesdi. Olimjon esa hamon o'ksib yig'lab, nuqul bir gapni qaytarardi:– Qopimni nima qilding? O'zi bitta edi-ku...

Zakunchi yantoqlarni silkitib-silkitib Olimjonning ustiga borayotgandagina niyatini tushundim.

– Qoch, Olimjon! – dedim baqirib. – Qoch!

Olimjon qop parchasini yuziga bosib, hamon yig'lar edi. Zakunchi uch hatlab bolaning boshiga bordi. Bilagidan mahkam changallab oldi-da, siltab turg'azdi.

– Mana yarmisi! – dedi tishini g'ijirlatib. Yantoq shuvilladi. – Mana qop! Mana!

Olimjon og'riqdan dodlab yubordi. Siltanib Zakunchining qo'lidan chiqmoqchi bo'ldi-yu, kuchi yetmadi. Bolaning oftobdan uniqib ketgan ko'ylagi bir zumda qip-qizil qonga belandi. Zakunchi nima uchun suvi qochmagan yantoqlarni tanlaganiga endi aqlim etdi. Qu-ruq yantoq mo'rt bo'ladi, tez sinib ketadi.

– Mana! Mana! – Zakunchi vahshiylashib ketgan, ko'zlarida qahrli olov yonar, har baqirganida og'zidan ko'pik sachrar edi. – Mana senga qop!

Olimjon jonholatda chinqirdi:

– Qo'yvor, eshshak – zakunchi!

Zakunchi «eshak» degan so'zni eshitib battar quturib ketdi.

– Mana! – dedi kuchi boricha urib. – Mana!

Dod solib qo‘liga yopishdim.

– O‘ladi! Birovning bolasini o‘ldirib qo‘yasan, no-insof!

– Qoch, dushmanning itvachchasi! – U yantoqni qulochkashlab yuzimga tushirdi. Ko‘zimdan olov chiqib ketgandek bo‘ldi. Chalqancha yiqilib tushdim.

Ko‘zimni ochsam, Olimjon yer tishlab yotibdi. Kura-gi qop-qora qonga belangan. Ikki ko‘zi vahshiy hay-vonnikidek qizarib ketgan Zakunchi bolaning tepasida harsillab turibdi. U shoxlari nimta-nimta bo‘lib ketgan yantoqlarni nariga uloqtirdi. Yugurib kelayotgan bola-larning qiy-chuvi eshitildi. Qandaydir qizaloq chinqirib yubordi:

– O‘ldirdi! Olimjonni o‘ldirib qo‘ydi!

Zakunchi shoshilmay borib, bezovta tipirchilayotgan ot jilovini qayrag‘och shoxidan yechdi.

Chayqalib, o‘rnimdan turdim. Bo‘g‘zimdan alamli nido otilib chiqdi:

– Imonsiz! Sengayam boqqan balo bordir, vijdonsiz! Norasta nima gunoh qildi, uyatsiz? Bu kunlaram o‘tar-ketar, javobini beradigan kuning kelar, imonsiz!

Zakunchi chirt etib tupurdi-da, otini choptirib ket-di. Yuz-ko‘zim lovullab achishayotganini unutib, Olim-jonning tepasiga yugurib bordim. U hamon yuztuban yotar, dabdala bo‘lib ketgan ko‘ylagi ustidan badaniga sanchilib qolgan son-sanoqsiz tikanlar dikkayib chiqib turardi.

– Olimjo-on! – dedim yig‘lab. Bolaning boshini ko‘targan edim, labi, iyagi qop-qorayib ketganini ko‘rib, seskanib tushdim. Og‘zidan qon kepti! Dahshat ichida labiga kaftimni bossam, loy ekan. Chamasi, hali suv ichganida labida qolgan nam, tuproqqa qorishib loy bo‘lgan.

– Olimjon... – dedim sekin. Uning ko‘zi ochiq, lekin bir nuqtaga ma‘nosiz tikilib, qotib qolgan edi.

Bir qo‘lim bilan suyab o‘tqazgancha, ikkinchi qo‘lim bilan badanidagi tikanlarni tera boshladim.

Kimdir chelakdagi suvni olib kelib, Olimjonning boshidan quydi. U hushiga kelib ingradi.

– Qopim... Qopimni yirtidi...

– Jon ukam! O'rgilay sendan, Olimjon! – Bolaning muzday yuzlaridan o'pdim. – O'zim qop beraman senga, o'nta qop beraman. Ko'zingni och!

Arava shaldiradi. Bolalardan birontasi xabar bergan shekilli, Komil tabib ho'kiz aravadan sakrab tushib, halloslab keldi.

– O'g'lim! – dedi ingrab. – Olimjon!

...Bola poxol to'shalgan arava o'rtasida osmonga tikilib yotar, chehrasi katta odamlarnikidek osoyishta, o'ychan edi. Yuzimga termilib yotdi-yotdi-da, so'radi:

– Sizniyam urdimi, opa?

– Jim, jim, – dedim boshiga egilib. – Hech nima qilmaydi. Dadang tabiblar-ku, mo'miyo suradilar, tuzalib ketasan...

...Xolposh xola o'lganidan beri kalovlanib qolgan Oqsoqol shu voqeani eshitdi-yu, birdan qaddini rostladi. Xuddi o'sha qadimgi Orif oqsoqolga aylandi. Quyuq qoshlarini chimirib, hovonchadek mushtini xontaxtaga urdi.

– Qachongacha zulm qiladi bu? Sovet hokimiyati bormi-yo'qmi, o'zi?

– Selsovetga chiqish kerak! – dedi bobom. – Tano-bini tortib qo'ymasa quturib ketdi bu Zakunchi!

– Yoshing yetmishga kiryapti-yu tovuqcha aqling yo'q! – Oqsoqol battar xunob bo'ldi. – Qo'lidan nima kelardi o'sha xezimchalish Ergashni! Zakunchini ko'r-ganda eridan qo'rqan xotindek tipirchilab qoladi-ku! Yo'q, rayonga boraman! O'rtoq Abdurahmonovga yo'liqaman! Uyam quloq solmasa, kattasiga boraman! Robiya! Ol, davotqalamingni. Yoz, qizim!

Oqsoqol menga aytib turib, ariza yozdirdi. Ikkala o'rtoq qog'ozni olib Komil tabibnikiga ketishdi. Ammo yarim kechada ikkalasiyam qovoq-tumshug'i osilib qaytib kelishdi.

– E, mullavachchalarga o'xshamay o'l! – dedi Oqsoqol tabibni orqasidan so'kib. – Latta! Bola be-choraning badani ilma-teshik bo'p ketibdi-yu, qo'l qo'y desa ko'nmaydi. Bir joydagi odammish. Rais bir kunmas bir kun jazosini olarmish. Yomonlik javobsiz

qolmasmish. Arzabozlik qilib yurish o'zbekchilikka to'g'ri kelmasmish. O'rgildim, senga o'xshagan paytavaquloq o'zbekdan! Ketdik, Duma! Tabib da'vogar bo'lmasa, mana, men da'vogarman!

2. «Yaxshilik ham, yomonlik ham javobsiz qolmaydi»

Bu yig'inning otini nima deyishni o'zim bilmayman. Majlis desam, majlisga o'xshamaydi, sud desam, sudga... Umar zakunchi Olimjonni sulayib qolguncha yantoq bilan savalagan joyda – xuddi o'sha qayrag'och tagida tumonat odam to'plandi. O'rog'ining bandini qahrli changallagan xotinlar, mashoq qilayotgan qopini orqalab olgan bolalar, olisda Do'mbirobod tomonlarda kartoshka chopiq qilayotgan, lekin allaqayerdan xabar topib, ketmonini elkasiga tashlab, halloslab yetib kelgan qari-qartanglar...

Ertalab paykalda «sheriklik» mashoq yana davom etdi. Bolakaylar, qizaloqlar qop sudrab boshoq qoldiqlarini terib yurishar, ammo kechagi dahshatli voqeadan keyin qo'rqib qolishgani uchunmi, «sherikchilik»ka kelgan bolalar oz edi. Mening traktorim hamon bir chekkada turar, dala toza bo'lmaguncha paykalga kirolmasdim. Zakunchi otini qayrag'ochga bog'lab qo'yib, soyada cho'nqayib o'tirar, men tomonga qaramay papiros tutatar, daladagi bolalardan ko'z uzmas edi. Olimjonning gardaniga yantoq bilan savalayotgan Zakunchining vahshiy hayvondek xirillashi, og'zidan ko'pik sachratib «mana, mana!» deb hayqirishi hamon qulog'im ostida jaranglar, aravada chalqancha yotgan-cha katta odamlardek osmonga o'ychan ko'z tikib borayotgan bechora bola xayolimdan ketmas, Zakunchining basharasiga qaragim kelmas edi. Bir mahal olisda arava shaldiradi. Traktorni tekshirgan bo'lib razm solsam, Zakunchi sapchib o'rnidan turib ketdi. Qamchisini yerga tashlagancha yugurdi. Qarasam, tuproq yo'ldan chang ko'tarib, ho'kiz arava kelyapti. Xuddi o'sha – kecha chalajon bo'lib qolgan Olimjonni olib ketgan ho'kiz arava. Faqat bu safar ustida Komil

tabib emas, bobom bilan Oqsoqol o'tiribdi. Zakunchi nega tipirchilab qolganini avval tushunmadim. Biroq arava yaqinroq kelganda poxol shlyapasini bostirib olgan semiz odamni ilg'adim-u hammasini angladim. Oqsoqol bilan bobom kechasi chiqib ketgancha qaytishmagan edi. Demak, Abdurahmonovni boshlab kelishyapti.

Zakunchi chopib borib, Abdurahmonovga qo'sh-qo'llab qo'l uzatdi. Lekin raykom sekretari negadir yuzini o'girdi. Oqsoqolga bir nima dedi. Oqsoqol xipchin bilan ho'kizlarni savaladi. Zakunchi arava yonida pildirab kelarkan, yoyilib iljaygancha Abdurahmonovga yana allanimalarni gapirdi. Arava shovqinida nima deganini eshitmadim-u, raykom bu safar ham yuzini chir o'giranini ko'rdim.

Ko'p o'tmay, arava qayrag'och soyasiga kelib to'xtadi. Avval Oqsoqol, keyin bobom sakrab tushishdi. Zakunchi bir qo'llab arava yondorini changallagancha g'ildirakka oyoq qo'yayotgan Abdurahmonovning qo'l-tig'idan olayotgan edi, raykom qoshini chimirdi.

– Rahmat... O'zim.

U qiynalib aravadan tushdi. Bo'liq yuzi bo'g'riqib ketgan, ko'ylagi jiqqa ho'l bo'lib ikki yelkasiga yopishib qolgan, chakkasidagi oq oralagan sochlaridan duv-duv ter oqar edi.

– Bir piyola suvingiz bormi, qizim? – dedi hansirab.

– Hozir choy tashkil qilamiz, o'rtoq Abdurahmonov! – Zakunchi yonimga kelib, g'azab bilan vishil-ladi. – Ertalabdan beri traktor atrofida ivirsiysiz? Aqalli choy-poyga harakat qilsangiz qo'lingiz singanmidi, o'rtoq traktorchi!

– Choy kerakmas! – Abdurahmonov qayrag'ochga suyanib o'tirgancha somon shlyapasi bilan yuzini yel-pidi. – Bir piyola suv bo'lsa...

Kecha Olimjon traktor uchun olib kelgan suv esimga tushdi. Xayriyat, bir chelak suv haliyam soyada turgan ekan. Ammo pachoq chelakdagi kerosin hidi anqib turgan, ilib qolgan suvni olib borishga iymamar edim.

– Beravering, qizim! – Abdurahmonov shlyapasini yerga tashlab imo qildi. – Obkeling!

Soddaligim qursin! Chelakni olib borib Abdurahmonovning o'ng qo'liga tutqazmoqchi bo'pman. U tirsagidan uzilib ketgan, bir parcha go'shtdek qizarib turgan to'mtoq bilagini orqaga tortib, chap qo'lini chelak bandiga cho'zdi. Zakunchi chaqqonlik bilan paqirni qo'sh-qo'llab changallagan edi, hansirab, yana qoshini chimirdi:

– Kerakmas! – U chap qo'llab chelakni quchoqlagan ko'yi og'ziga olib bordi. Suv sharillab, ko'ylagining oldiga oqib tushdi.

– Rahmat, qizim! – dedi muloyim jilmayib. – Shirin suv ekan...

– O'rtoq Abdurahmonov... – Zakunchi nariroqda turgan Oqsoqol bilan bobomga adovatli qarash qildi-da, iljayib bidilladi. – Mana, ikkinchi marta mashoq qilyapmiz. Harna frontga yordam. Bittayam don qolmasin deb...

– Ko'rib turibman! – dedi Abdurahmonov uning gapini kesib. – Ishlaringiz juda zo'r!

Zakunchi uning ovozigagi yashirin g'azabni sezdi. Rangi quv o'chib atrofga alangladi. Men ham o'girilib qaradim-u, atrofimizni halqadek o'rab olgan odamlarni ko'rib hayron qoldim.

Ajab, bir zumda qayoqdan to'plandi. Qayoqdan keldi shuncha olomon? Bolalar, xotinlar, chollar?.. Halqa borgan sayin zichlashib, torayib borar, go'yo butun kolxoz shu yerga, qayrag'och tagiga ko'chib kelgandek edi!

Abdurahmonov chap qo'llab yerga tayangancha o'rnidan turdi. Odamlarga bir-bir qarab chiqdi.

– O'rtoqlar... – dedi osoyishta ohangda. Qiziq, endi u boyagi toliqqan, xasta kishiga o'xshamas, ovozi o'ktam, ishonchli edi. – Nima bo'lyapti o'zi «Qizil dehqon»da? Axir sizlarning xo'jalik rayondagi eng ilg'or kolxoz-ku!

– Mumkinmi? – Umar zakunchi lip etib o'rtaga chiqdi. – O'rtoq Abdurahmonov! – dedi jarangdor ovozda. – Ertangi kartoshkani yig'ib bo'ldik. Bug'doyniyam yuz yigirma protsent...

– Shoshmang! – Abdurahmonov yagona chap qo'lini silkitdi. – Hammasini bilamiz. Planlarni o'rinlayapsiz.

Shuning uchun ham «Qizil dehqon»ga vakil yuborish shart emas, deb o'ylardik. Endi bilsam, xato qilgan ekanmiz. To'g'ri, zamon og'ir. Hammagayam og'ir. Planni bajarish kerak. Ammo zulm hisobiga emas.

Zakunchining rangi gezarib ketdi.

– Qanaqa zulm? – dedi labi titrab. – Mana, odamlarning o'zi gapirsin.

– Raykomning niyatiam shu... – Abdurahmonov «sen jim tur» degandek imo qildi. – Qani, odamlardan eshitaylik.

Og'ir sukunat cho'kdi. Hech kimdan sado chiqmas, osmonda to'rg'ay faryod solar, allaqayerda chigirtka nola chekar edi. Zakunchi hammaga bir-bir qarab chiqar, «Bittang gapirsang tilingni sug'urib olaman», degandek tishini g'ijirlatar edi.

– Oqsoqol... – Abdurahmonov arava yondoriga suyangancha nos shishasini kaftida aylantirayotgan Orif oqsoqolga yuzlandi. – Ayting gapingizni.

– Gapim shuki... – Oqosoqol nosini jahl bilan tupurdi. – O'rtoq Xajayip ja oshirvordi! Amir Olimxon bo'lsayam joyini bilib o'tirsin! To'g'rimi, Duma!

– To'g'ri! – Bobom o'rtaqa chiqib, asabiylik bilan qo'lini paxsa qildi. – Mayli, planni so'rasin! Ishni so'rasin. Lokin...

– Ho'v, Oqqoshshoning dumasi! – Umar zakunchi istehzo bilan labini burdi. – Bizlar jang qilyapmiz! Front orqasida jang qilyapmiz. Nima endi, boshimda ko'tarib yurishim kerakmi hammangni!

– Menimas! – Bobom jazavasi tutib yana qo'lini paxsa qilayotgan edi, Abdurahmonovning bosiq ovozi eshitib jimib qoldi.

– Oqqoshshoning nima aloqasi bor? – Abdurahmonov Zakunchiga yuzlandi. – Nima, Husan aka mehnatdan bo'yin tovlayaptimi! Aldam-qaldam ish qilyaptimi?

Zakunchi esankirab qoldi. Lekin darrov o'zini qo'lga oldi.

– O'rtoq Abdurahmonov, – dedi labi burilib. – U yoqda planni talab qilasiz... Bu yoqda... O'zingiz bilasiz, bu yer ham front...

– Front deng! – Abdurahmonovning tovushi birdan o‘zgardi. Qahrli tus oldi. – Ona suti og‘zidan ketmagan bolalar bilan jang qilib yotibman deng! Tabibning o‘g‘lini nima qildingiz?

– Men... men... – Zakunchi birdan bo‘shashdi. – Tartib bo‘lsin deb... – U ingichka mo‘ylovi titragancha yana qaddini rostladi. – O‘rtoq Abdurahmonov! – dedi ovozi qat‘iylashib. – Men nima qilsam, jangchilarimizga madad bo‘lsin deb qilyapman! Dohiymiz aytgandek...

– Yaxshi! – Abdurahmonovning tovushi Zakunchinikidan ham qat‘iyroq jaranglab ketdi. – Lekin kim sizga ruxsat berdi, yosh bolani mayib qilishga!

Shunda kutilmagan ish bo‘ldi. O‘roqlar, panshaxalar, ketmonlar oftobda tahdidli yaraqlab ketdi. Hatto bolalar ham qopini boshi ustida baland ko‘tarib chuvillashdi:

– Jonimizdan to‘ydik!

– Kerakmas!

– Kolxozda yo Zakunchi tursin, yo biz!

Tinch oqqan suv to‘g‘onni buzsa yomon bo‘lar-kan. Odamlar guvillab oldinga tashlandi. Qo‘yib bersa hozirning o‘zida Zakunchini qiyma-qiyma qilib tashlagudek vajohatda edi. Shu payt uzun ko‘ylagining etagi yerga tegib turgan xotin otilib chiqib, Abdurahmonovning oyog‘i ostiga tiz cho‘kdi. Avvaliga tanimabman. Qarasam, Lazakat xola: sochlari yoyilgan, yuzi qahrli.

– Jon ukam! – dedi titrab. – O‘rgilay sizdan, ukam! Haqiqat qiling. Bir bolamdan ayrildim! Ochilimdan judo bo‘ldim. – U yig‘lab yubordi, boshidan oqarib ketgan garmdorinusxa ro‘molini yulqib olib, nariroqda ko‘zi olayib turgan Zakunchiga uloqtirdi. – Ro‘moling boshingda qolsin! Bitta bolamni nemis o‘ldirdi. Ikkinchisi manavi nemisning qo‘lida o‘lsinmi endi. Norasta bolani shunchalik urasanmi, diyonatsiz!

– Opa! – Abdurahmonov bir qo‘llab Lazakat xola-ning qaddini rostlamoqchi edi, kuchi yetmadi. – Xo‘jayev! – dedi g‘azab bilan. – Eshityapsizmi bu gaplarni! Fashistdan nima farqingiz bor!

O'roqlar, panshaxalar, ketmonlar battarroq tahdid bilan yaraqladi. Olomon uv solib yubordi:

– Yo'qol!

– Daf bo'l, Zakunchi!

– Kerakmas bizga bunaqa rais!

Umar zakunchi serryib turar, ammo endi boyagi-dek esankiramas, yuzi qahrli, qat'iy tusga kirgan edi.

– O'rtoq Abdurahmonov! – dedi chertib-chertib. – Men harbiy zamon talabi bo'yicha ish qildim. Bundan keyin ham zakonniy...

– Bas! – Abdurahmonovning bo'liq yuzi qizarib, osoyishta boquvchi ko'zlari g'azabdan qisilib ketdi. – Hech kim sizga xalqni davlatga qarshi qo'ygin degan emas!

Xaloyiq tag'in junbushga keldi. Yana o'sha hay-qiriqlar yangradi:

– Ketsin!

– Ketmonini olib ketsin, Zakunchi.

– To'rt tomoni katta ko'cha!

Oqsoqolning ovozi hammadan kuchli gumburladi:

– Siz nima deysiz, tabib? Ayting gapingizni.

Bobom Komil tabibning bilagidan changallab, Abdurahmonovga ro'para qildi.

– Gaping, tabib!

Tabib bir zum o'ylanib turdi-da, xo'rsindi.

– Men nima deyman? – dedi sekin. – Hamma gapni aytib bo'lishdi-ku. Bu dunyo qaytar dunyo. Yaxshilik ham, yomonlik ham javobsiz qolmaydi. O'zini bilgan odam uchun el nazaridan qolishdan ortiq jazo bormi?

U ingichka mo'ylovi titrab turgan Zakunchiga jirkanib bir qaradi-yu nari ketdi.

– Eshitdingiz-a, o'rtoq Xo'jayev? – Abdurahmonov yelkasi osha hamon g'o'ddayib turgan Zakunchiga yuzlandi. – Tushunarlimi endi?

– Yaxshi! – Zakunchi shaxt bilan qaddini rostladi. – Bundan chiqdi hamma yaxshi – men yomonman. Kolxozning qaddini ko'targanim – yolg'on. Yetti yil eshakdek ishlaganim – yolg'on!.. O'zim och yurib, topgan-tutganimni frontga jo'natganim – yolg'on! Gektardan oltmish tonnadan lavlagi olganim – yolg'on!

Mana bu ordenga, – u entikib ko‘ylagiga taqilgan, oftobda yaraqlab turgan ordenni changalladi, – mana shu ordenga siz qo‘l qo‘yganingiz ham yolg‘on.

– To‘g‘ri, men qo‘l qo‘yganman. – Abdurahmonov afsuslanib bosh chayqadi. – O‘sha ordenga... – dedi har so‘zini chertib, – «Hurmat belgisi» deb yozib qo‘yibdi. Biz sizni hurmat qilardik. Lekin eshitib qo‘ying: xalq hurmat qilmagan odamni biz ham hurmat qilmaymiz.

– Men... – Zakunchi nimadir demoqchi edi Oqsoqolning guldiragan ovozi uning gapini kesdi.

– Menga qara, Xajayip! Agar Duma yetti qishloqning hojatxonasini kavlab «sharbat» oqizmasa, ordenni tushingda ko‘rarding. U yog‘ini so‘rasang, orden Dumaniki bo‘lishi kerak edi.

– Ana! – Zakunchi asabiylik bilan qah-qah urib kuldi. – Mana endi asl maqsadga ko‘chding, Oqsoqol! Raislikdan tushibsanki, alaming ichingda edi. Olaqol mansabingni! – U raykomga o‘girilib iztirob bilan hayqirdi: – Olib bering shunga raislikni! O‘zim ham bunaqa it yotish, mirza turishdan charchadim. Yuboring! Peredovoyga yuboring meni!

Abdurahmonov yagona qo‘lini bepisand silkidi.

– Xotirjam bo‘ling, o‘rtoq Xo‘jayev! Qayoqqa yuborishni raykom byurosi hal qiladi. Ammo yangi rais saylashni xalqning o‘ziga qo‘yib beramiz.

O‘sha zahoti yana guvillagan sado saraton havosini titratdi:

– Oqsoqol!

– Oqsoqol rais bo‘lsin!

– Boshqasi kerakmas!

Orif oqsoqol to‘satdan esankirab qoldi.

– Men... men... – dedi dovdirab. Xuddi birov hoziroq raislik kursisiga o‘tqizib qo‘yayotgandek orqaga tisarildi. – O‘rtoq Abdurahmonov... – dedi yalinib. – Nahot men... rais bo‘laman deb. Iltimos... – U ikki qo‘lini baland ko‘tarib hayqirdi. – Xaloyiq! Qisqa o‘ylama! Erta-indin urush bitadi. Kolxozlar boshqacha bo‘lib ketadi. Men endi – o‘tdim. Moshinani biladigan... – Oqsoqol atrofga alang-jalang qaradi-da, birdan yuzi yorishdi. – Yaxshi rais kerakmi? Mana! Ma-

na! – U bobomning yonida turgan Bashor opaning qo‘lidan tutib, o‘rtaga olib chiqdi. – Mana haqiqiy rais! Halol, mehnatkash. Moshinani...

Endi Bashor opa dovdirab qoldi.

– Yo‘q! – dedi keskin bosh chayqab. Oqsoqolning kattakon kaftini qo‘shqo‘llab changallagancha iltijo qildi: – Oqsoqol, baraka toping. Yo‘q demang. Nima yumushingiz bo‘lsa...

Odamlar tag‘in baravariga guvilladi:

– To‘g‘ri!

– Bashoratxon rost aytyapti.

– Oqsoqol!

– Nega tarang qilasan! – Bobom Oqsoqolga ro‘para bo‘lib bo‘ynini cho‘zdi. – Qachondan boshlab el-yurtning so‘zini yerda qoldiradigan bo‘lding!

Oqsoqol nima deyishini bilmay qolgan, odamlar hamon guvillar, Abdurahmonov esa mamnun jilmayib turardi.

Umar zakunchi «tomoshang boshingda qolsin» degandek shaxt bilan davradan chiqdi-yu, qayrag‘och tanasiga bog‘langan jiyrinning jilovini titroq qo‘llari bilan yechdi. Qaytib kelib, yerda, Abdurahmonovning oyog‘i ostida yotgan qamchinni yulqib olib ot tomonga yugurdi. Boyloqdan bo‘shagan ot, egasi yaqin borishi bilan, qo‘rqdimi, begonasiradimi, to‘satdan shataloq otib, mashoq qilinayotgan bug‘doyzorga yugurdi.

– To‘xta! – Zakunchi ham iltijo, ham g‘azab bilan hayqirdi. – To‘xta, Qorako‘z!

Lekin jiyron qayrilib ham qaramadi. Qizg‘ish yollari, gajak bo‘lgan dumi yoz quyoshida tovlangancha yugurib ketdi. Zakunchi qamchisini boshi ustida baland ko‘tarib, jiyron ketidan chopib borarkan, alam bilan chinqirdi:

– Qorako‘z! To‘xta!

Qayrag‘ochga suyanib turgan Ra‘no kelinoyimga endi ko‘zim tushdi. Sochini boshiga chamberak qilib olgan, qo‘lida daftar bor edi.

U jiyron ketidan chopib borayotgan Zakunchidan ko‘z uzmas, daftar tutgan qo‘llari titrar edi. Nazarimda ko‘zi jiqqa yoshga to‘lgandek bo‘ldi.

3. Ustun yiqilsa, ustun zil ketadi

Odamlarning baxtiga kuz yaxshi keldi. Kartoshka, sabzilarni yig'ib olgunimizcha havo turib berdi. To'g'ri, oktabrning boshlarida bir-ikki da'fa yomg'ir yog'di-yu, havo yana jo'nashib ketdi. Faqat kech kuzga borib uch kun ezib yomg'ir yog'di. Ertalablari quyuq tuman tushadigan bo'ldi. Oftob ko'tarilishi bilan quyosh charaqlab ketadi. Ammo kun botmasidan tag'in yer-ko'kni tuman o'rab oladi.

Kolxoz hamma planni bajarib bo'lgan, yer muzlab qolmasidan shudgordan qutulib olishga urinardik. Qand lavlagi bu yil ham yaxshi bo'ldi. Oqsoqolning maslahati bilan razyezd yaqinida lavlagini qabul qilib oladigan yangi ombor qurildi. Yangiyo'ldagi zavod odamini jo'natadi-yu, lavlagini shundoq omborning o'zidan olib ketaveradi.

Xalq Oqosoqolning raisligini qo'msab qolgan ekan-mi, nima ish chiqsa chippa yopishadi. Zakunchi paytidagi urish-so'kishlar yo'q. Qiziq, hech kim Zakunchini eslamaydi ham. Go'yo bu dunyoda Umar zakunchi degan odam hech qachon bo'lmagandek. To'g'ri, avvaliga har xil mishmishlar tarqaldi. «Zakunchini raykomda moxovga oshna qilishibdi», «Zakunchi urushga ketmoqchi bo'lgan ekan, tog'asi o'rtaga tushib olib qolganmish...», «Zakunchi moliyaga ishga o'tganmish, nalugchi bo'lib olganmish...». Ammo u «Qizil dehqon» taraflarda qorasini ko'rsatmadi. Shu-shu odamlarning esidan chiqib ketdi. Oqsoqol uning dang'illama uyini Leningrad qamalidan chiqib kelgan oilalarga berdi. Nazarimda faqat bitta odam – Ra'no kelinoyim haliyam Zakunchini eslaydi. Shu uch-to'rt oy ichida ozib-to'zib ketdi...

Ko'tarmadagi oxirgi paykalni ham qazib bo'ldik. Kunbotar pallasi tuman quyuqlashib, odam odamni tanimaydigan bo'lib qolganida aravani to'ldirib omborga jo'natdik.

Oqsoqol g'ildiraklari ayanchli g'iyqillagancha loyga bota-bota imillab ketayotgan ho'kiz arava ortidan qichqirib qoldi:

– Ombordagilarga ayt, Olimjon! Tezroq tushirib olishsin. Keyin darrov izingga qayt, uqdingmi?

Tumanlik orasidan Olimjonning ingichka ovozi yangradi:

– Darrov kelaman. Chu, jonivor!

Qandoq yaxshi-ya, bu bola! O'shanda – Zakunchi qishloqdan badarg'a qilingan kuni holidan xabar olgani borganimda bolani ko'rib qo'rqib ketuvdim. Tikan kirgan joylar maddalab yara bo'lib ketgan ekan. Yo'q, haytovur Komil tabib dori-darmon qilib, oyoqqa turg'azdi. Olimjon yana ishga kirishib ketdi. Tag'in o'sha-o'sha: maktabdan qaytadi-yu, dalaga yuguradi. Hozir aravakashlik qilyapti. Ertadan yer haydashga tushsak, traktorga suv tashiydi.

Odamlar tumanlik orasidan sharpadek sirg'alib chiqib, aravaga sig'may qolgan besh-olti zambil lavlagi uyumi oldida turgan Oqsoqolning atrofiga to'planishdi. Tuman bilan qo'shilib, sovuq ham tushgan, kun bo'yi zambil ko'targanim uchun biqinimda yana og'riq turgan, bo'g'ilib ketayotganga o'xshardim.

Oqsoqol atrofini halqadek o'rab turgan odamlarga hayqirdi:

– Bolali xotinlarga juvob. Erkaklar qolsin, yana jinday ish bor.

– Biz-de, o'sha erkak, Oqsoqol! – Parcha opa tumanlik orasida do'rilladi. – Xizmat bo'lsa etivuring!

Oqsoqol mamnun kuldi:

– To'g'ri, sen o'nta erkakni qochirasan.

Tumanlikda ivirsigan sharpalar sekin-sekin g'oyib bo'ldi. Oqsoqol menga ko'zi tushib jerkib berdi:

– Sen nega angrayib turibsan, bor, onangga boqish!

Sovuqdan mushtdekkina bo'lib junjikib turgan bobom yaqin keldi.

– Qo'yavur, Robiya men bilan ketadi.

Oqsoqol ma'qul, degandek bosh irg'adi. Ketmon dastasidan ushlab diydirab turgan Komil tabibni ko'rib rahmi keldi shekilli, ovozi yumshadi.

– Sizam boraqoling, Komilboy.

– Yo‘g‘-e! – Tuman orasida tabibning yuzini aniq ko‘rmasam ham, xijolat chekib iljayganini payqadim. – Unaqa demang, Oqsoqol.

– Bo‘lmasa gap bundoq... – Oqsoqol yonida qolgan besh-olti odamga bir-bir qarab chiqdi. – Yana ozgina g‘ayrat qilamiz. Paykalni qadamlab aylanib chiqamiz. Yarimta-yurimta lavlagi qolib ketgan bo‘lsayam terib olaylik, baraka topgurlar. Zavod qarab turibdi. Hozir arava qaytadi. – O‘zi birinchi bo‘lib paykalga kirib ketarkan, ta‘kidladi: – Bir bo‘lak ham qolmasin. Ertaga traktor tushadi.

«Bir bo‘lak ham qolmasin» deb aytishga oson. Tuman bo‘lsa, qorong‘i tushib qolgan bo‘lsa! Lavlagi bo‘lagini guvaladan ajratib bo‘larmidi?

Yonimda pishillab kelayotgan Parcha opa yo‘lini o‘rgatdi:

– Qo‘liz bilan changallab nima qilasiz, Robi? Tepib ko‘ring, o‘zi bilinadi.

To‘g‘ri aytgan ekan! Kattaroq kesakni tepib ko‘rasiz: etik uchiga yumshoq unnasa yomg‘irda ivigan guvala bo‘ladi, qattiqroq tegsa – lavlagi! Ammo qattiqroq unnaydigan lavlagi qoldig‘ining o‘zi yo‘q. Chorak zambil lavlagi tergunimizcha ancha vaqt o‘tdi. Hammayoqni zulmat qoplagan, sovuq tushganiga qaramay, terlab ketgandim. Quyuyq tuman odamni bo‘g‘ishini endi bildim. Parcha opa bilan ikkovlashib zambilni xirmonga olib chiqqanimizda allamahol bo‘lgan edi. Osmonda, kunbotar tomonda ko‘r odamning ko‘zidek xira oy tumanlik orasida sarg‘ayib turar, ammo atrofni yoritish o‘rniga g‘ashga tegardi.

Bobom bilan Oqsoqol sirg‘ana-sirg‘ana zambil ko‘tarib yaqin kelishdi. Zambil tagida yotgan lavlagi bo‘laklarini xirmonga ag‘darishdi.

– Seniyam surobing to‘g‘ri bo‘ldi-a, o‘rtoq! – Oqsoqol bobomning yelkasiga shapatilab erkaladi. – Damingni ol... – Savat zambilni to‘nkarib o‘tirdi-da, yonidan joy ko‘rsatdi. – O‘tir, nosingdan ol.

– O‘zimam aytuvdim, nechuk bu mehribon bo‘ppoldi, deb! – Bobom to‘ng‘illadi. – Shu odating qachon qoladi-a? O‘zingnikini cheksang o‘lasanmi?

– Menikini ishqori ko‘p ekan. Og‘zimni o‘yib yubordi.

– Bo‘pti! – Bobom loyga belangan uzun kamzulining cho‘ntagidan nosqovog‘ini chiqardi. – Almashamiz.

Oqsoqol qorong‘ida he-helab kuldi.

– Qo‘y, o‘rtoq! Tiling o‘yilib, kampingdan baloga qolib yurmay.

«Xazonchinak» qilingan lavlagining cho‘g‘i ko‘p emas edi. Odamlar chekka-chekkadan chiqib kelib, tag‘in xirmon atrofida to‘planishdi.

– Tayib, siz ketvuying! – Oqsoqol og‘zida nos borligi uchun tili yaxshi aylanmay buyurdi. – Hammaylaga juvob.

– Lavlagini kim ortadi? – dedi Parcha opa do‘rillab.

– O‘zivuzzi qo‘livuz yo‘qmi? – Oqsoqol tilab olgan nosini rohat qilib chekolmaganiga jahli chiqdi shekilli, yerga tupurib, kaftining orqasi bilan mo‘ylovini artdi. – Bor degandan keyin boravermaysanmi!

Atrofni sharpadek o‘rab turgan odamlar bir zumda g‘oyib bo‘lishdi. Jimlik cho‘kdi. Quyuq tuman battar iskanjaga olib bo‘g‘ayotganga o‘xshar, biqinim simillab og‘rir edi.

– Menga qara! – dedi bobom xavotirli ohangda. – Olimjondan darak yo‘q-ku!

Oqsoqol ham boyadan beri shuni o‘ylab o‘tirgan ekan shekilli, o‘rnidan turib ketdi.

– Yur, o‘zimiz bora qolaylik.

Qatorlashib yo‘lga chiqdik. Oyoq ostida loy pilchilaydi. Oqsoqol qaddini g‘oz tutib boryapti. Bobom uning qadamiga yetolmay pildiraydi. Men ham tezroq yurishga harakat qilaman. Unga sayin biqinim sanchib-sanchib qo‘yadi... Xazonning achchiq hidi anqib turgan yong‘oqzorga kirganimizda zulmat yanayam quyuqlashib ketgandek bo‘ldi.

– Duma! – dedi Oqsoqol orzumandlik bilan. – Qor tushsa Tohirimni to‘y qilaman. Potma aytdi: ota, nevarangizni sunnat qilmaymizmi, dedi. To‘g‘ri aytadi... Bir to‘y qilayki. – U jimib qoldi-da, qo‘shib qo‘ydi: – Besh-olti yil o‘tsin, qarabsanki, Oypopukni uzatamiz. Chevara ko‘raman, a labbay?

– Mana bu – boshqa gap! – Bobom dadillanib shang‘illadi. – Aytmovmidim, hech kimdan ko‘rmaganingni mana shu Potmadan ko‘rasan deb. Qizdan afzalda, kelining.

Ikkovlari sukutga cho‘mishdi. Bildimki, Oqsoqol Fotima kelin haqida gap boshlanishi bilan Zuhra kelinni esladi... Old tomonda Alvasti ko‘prikning shovullashi eshitila boshladi. Oqsoqolning yuragi siqildi shekilli, yana shang‘illadi:

– Kimsandan xabar yo‘qmi?

Yuragim bir qalqib ketdi. Uch yil bo‘lyapti. Kimsan akamdan darak yo‘q. Bu qandoq azob?! Na tirik deb quvonolmasak, na... Yo‘q, bilaman, Kimsan akam tirik!

– Hayronman... – Bobom xo‘rsindi. – Tirik bo‘lsa shu kungacha daragi...

– E, o‘le! – Oqsoqol jahl bilan baqirib berdi. – Yoshing yetmishdan oshibdi-yu tovuqcha aqling yo‘q...

– Yetmish emas, oltmish to‘qqizda, – dedi bobom uning gapini kesib. – Qolaversa, sening yiling ham – tovuq!

– Xo‘sh, nima qipti tovuq bo‘lsa? – Oqsoqol eng muhim masalani talashgandek tajanglik bilan hayqirdi. – Bilaman, ikkalamizning muchalimiz bir. Ammo onangni qornida yotgan to‘qqiz oyniyam hisoblash kerakmi – kerak. Bundan tashqari, muchaling ikki marta aylanganida bir yosh qo‘shiladimi – qo‘shiladi! Bundan chiqdi, yetmish to‘rtga kirding-da, savodsiz!

– Bo‘lsa bordir... – Bobom yana uf tortdi. – Lekin Kimsanim...

– Yana gapiradi-ya! – Oqsoqol battar tajanglashib ketdi. – Hech radio eshitasanmi, pakana! Biznikilar Bulg‘oriyani ozod qildi. O‘shalarning ichidayam o‘zimizning partizan bolalar bor ekan. Meni aytdi, dersan. Kimsan bulg‘or partizanlariga qo‘shilib ketgan.

Ko‘nglim yorishdi. Oqsoqol rost aytyapti. Kimsan akam Bolgariya partizanlari orasida yuribdi. Shuning uchun xat yozmagan. Erta-indin daragi chiqadi. Bolgariya ozod bo‘ldi-ku.

Xayol surib ketayotgan ekanman, bir mahal Oqsoqolning xavotirli xitobidan cho‘chib tushdim:

– Anavi nima, Duma?

Oqsoqol qo‘li bilan ko‘rsatgan tomonga qaradim-u Alvasti ko‘prikdan ellik qadamcha narida, temir yo‘l ustida sharpadek qorayib turgan narsaga ko‘zim tushdi.

– Vagonmi? – dedi bobom dudmal qilib.

O‘sha tomondan, tumanlik orasidan asabiy, ingichka ovoz eshitildi:

– Chu! Chu!

– Iye, arava-ku! – Oqsoqol o‘sha tomonga yugurarkan, yo‘l-yo‘lakay koyindi. – Ha bola-ya! Katta yo‘ldan yurmasdan...

Loyda sirg‘angancha men ham chopib ketdim.

Oqsoqol to‘g‘ri aytadi, Olimjon bolalik qilgan. Katta ko‘chadan aylanib yurmaslik uchun, aravani eski yo‘ldan solgan. To‘g‘ri, bu yo‘l yaqin: ombor ro‘parasidan chiqadi. Ammo loyda arava botib qolgan bo‘lsa...

Tumanlik orasida Olimjonning yig‘lamsiragan ovozi yana yangradi:

– Chu! Chu!

Yaqin borishimiz bilan yuragim orqaga tortib ketdi: lavlagi to‘la arava temir yo‘lga ko‘ndalang turib qolgan, Olimjon nuqul ho‘kizlarni xipchin bilan savalar edi. Xayolimga kelgan o‘ydan o‘zim seskanib ketdim: «Poyezd kelib qolsa-chi!»

Oqsoqol yugurib borib ho‘kizning tasmasini changalladi.

– Katta yo‘l qurib qolganmidi, badbaxt!

Olimjon anchadan beri ho‘kizlarni tortqilayve-rib charchagan, qo‘rqib ketgan bo‘lsa kerak, yig‘lab yubordi:

– Man bilmadim... Peshindayam shu yerdan...

– E, shu yerdan o‘tmay... – Oqsoqol bobomga hayqirdi. – Orqaga o‘t, Duma. Hammang orqaga o‘t... – U tasma jilovini kuch bilan tortdi. – Chu jonivor!

Bobom, Olimjon, men – uchovlashib arava orqasidan itara boshladik. Arava qilt etmas, oldingi ikkita g‘ildirak temir yo‘lning narigi iziga, orqa g‘ildiraklar berigi iziga taqalib, mixlanib qolgan, ho‘kizlar harchand chirangani bilan arava joyidan jilmas edi.

– Yur-e, harom o'lgur! – Oqsoqol g'azab bilan ho'kizlardan birining qorniga tepdi. Ho'kizlar yana bir talpingan edi, arava tagida allanima qarsilladi.

– O'q sindimi, nima balo! – Oqsoqolning hayajonli xitobidan qo'rqib ketdim. Oqsoqol lip etib arava tagiga sho'ng'idi. Ko'p o'tmay emaklab chiqib, orqaga o'tdi. – Hammasi joyida! – dedi jonlanib. – Qani, ko'tardik! Kuch bormi o'zi!

To'rtovlashib arava orqasidan ko'tara boshladik.

– Chu, harom o'lgur! – dedi Oqsoqol chiranib.

Orqa g'ildiraklar iz ustiga chiqdi-yu, sirg'anib yana qaytib tushdi.

– Tort! – Oqsoqol qorong'ida ko'zini ola-kula qilib menga o'shqirdi. – Ho'kizni tort deyman!

Yugurib oldinga o'tdim. Qarasam, ho'kizlardan bittasi bemalol cho'kkalab, shag'al ustida yotibdi. Ham-mayoqni tumanli zulmat qoplagan bo'lsa ham ho'kiz-ning og'zidan tili chiqib ketganini, labidan so'lak oqayotganini ko'rdim. Chinqirib yubordim:

– Bobojon! Ho'kiz o'lyapti!

Oqsoqol bo'ralab so'kingancha chopib keldi.

– Menga desa harom o'lmaydimi! Poyezd kepqo-ladi hozir!

– Posirani kes! – arava orqasidan bobom baqirdi. – Kes deyman!

Oqsoqol etigining qo'njiga qo'l suqib, pichog'ini sug'urib oldi. Bo'yinchaga bog'langan tasmalarni shirtillatib kesib tashladi. Sherigi cho'kkalab qolganida bo'yni bir tomonga qiyshayib ketgan ola ho'kiz lapang-lab nari ketdi. Oqsoqol ikkinchi ho'kizning shoxidan ushlab torta boshladi.

– Tur, harom o'lgur! Tur!

– Poyezd! – Orqadan Olimjonning hayajonli hay-irig'i eshitildi. – Poyezd kelyapti!

Burilib qaradim-u, Alvasti ko'prik tomonda lovullab yaqinlashayotgan uchta chiroqni ko'rib qo'rqib ket-dim.

– Duma! – Oqsoqol harsillab ho'kizni yana tepdi.– Duma! Poyezdda askar bolalar bor. Bilaman! Yarador-lar bor.

Esankirab qolgan bobom arava orqasida turib ingichka ovozda chinqirdi:

– Nima qilay?

– Bu yoqqa kel, ahmoq! Chop!

Jonholatda ho‘kizning qulog‘iga yopishdim. Rostdan ham poyezd frontdan yarador yigitlarni olib kelayotgan bo‘lsa-chi! Vagonda Kimsan akam ham bo‘lsa-chi!

Oqsoqolga qo‘shilib baqirdim:

– Chu, harom o‘lgur, chu!

Orqa tomonda Olimjon yig‘lamsirab chinqirdi:

– Tezroq! Duma buva, tezroq boring!

Bobom yetib kelganida cho‘kkalab yotgan ho‘kiz turib ketgan edi.

– Olimjonning yoniga o‘t, Robi!

Yugurib arava orqasiga o‘tdim.

– Men nima qilay, opa? – dedi Olimjon titrab.

Narigi tomondan Oqsoqolning asabiy baqirgani qulog‘imga kirdi:

– Shotini ko‘tar, Duma! Shotini.

Tumanlik qo‘ynida yorib chiqqan nur samovar dud-buronidan otilayotgan olovdek lovullab, tezlik bilan bostirib kelardi. Bobom bilan Oqsoqol aravani laylak qilib ko‘tarishdi shekilli, ustimizga lavlagilar yog‘ila boshladi. Yaqin kelib qolgan parovoz suron solib gudok chaldi. Chiroq yorug‘ida laylak bo‘lib boshimdan bosib tushayotgan aravani ko‘rdim-u dahshat ichida chinqirib yubordim:

– Olimjon, qoch!

Ko‘zimni ochsam, qop-qora zulmat ichida yotibman. Atrof jimjit. Olisda – razyezd tomonda uzoqlab borayotgan poyezd g‘ildiraklarining bo‘g‘iq guldirashi eshitilardi. Pastda Alvasti ko‘prik shovullaydi. O‘rnimdan turmoqchi edim, biqinimga sanchiq turib, cho‘kkalab qoldim. Tizzam toshga urilgan shekilli, qattiq og‘rib, ko‘nglim behuzur bo‘ldi. Uch-to‘rt qadam narida yonboshlab yotgan aravani endi ko‘rdim. Aravaning osmonga qarab qolgan g‘ildiraklari hamon sekin-sekin aylanib turar, nolali g‘iyqillar edi.

Tepamda hansiragan nafas eshitildi.

– Opajon! – Olimjon qo‘limdan tortdi.

Og'riqni unutib, sapchib turdim. Oyoq ostida sochilib yotgan lavlagilarga qoqilib-surilib temir yo'l ustiga chiqdik. Yuz qadamcha narida ombor chiroqlari xira miltirab turar, beriroqda tumanlik orasida soyadek ikkita ho'kiz ko'rinar edi.

– Bobojon! – Oqsoqlangancha entikib, o'sha tomonga yugurdim. – Bobojon, qayoqdasilar?

Chopib borarkanman, yonbosh tomonda Olimjonning baqirgani qulog'imga kirdi.

– Opa! Bu yoqqa keling, opa! – dedi yig'lamsirab. – Turing, Oqsoqol buva!

Yetib borganimda Oqsoqol boshini changallangancha cho'kkalab o'tirar, hansirab nafas olardi.

– Meni qo'y... – dedi entikib. – Dumaga qara... – U kalovlanib o'rnidan turmoqchi bo'ldi-yu, yana cho'kkalab qoldi. – Borsang-chi, – dedi ingrab.

Es-hushimni yo'qotib, tag'in chopib ketdim.

Pastda, chap tomonda ojiz ingrash eshitildi. Loyga botib, allaqanday daraxt tagiga tushib bordim. Bobom ko'lmakda chalqancha yotar, ingrar edi.

– Bobojon! – Ko'ksimdan yig'i aralash nido otilib chiqdi. – Turing...

Avval Olimjon, keyin gandraklagudek bo'lib Oqsoqol etib keldi. Ko'lmakka o'tirgancha bobomning boshini tizzasiga oldi.

– Ko'zingni och, o'rtoq! – dedi bobomning yuzini silab. – Mana... Bo'ldi... hozir... Hammasi yaxshi bo'ladi.

Bobom entikdi.

– Men... o'laman...

– Unaqa dema, o'rtoq! – Oqsoqol ovozi titrab, yalindi. Nos chekasanmi? Mana hozir... – U bir qo'llab bobomning peshonasini silagancha, ikkinchi qo'li titrab shimining cho'ntagini titkilay boshladi.

– Kimsanimni ko'rolmadim... – Bobom gapirmoqchi edi, og'zidan qon oqib, xirillab qoldi.

– Jon o'rtoq... Unaqa qilma... – Oqsoqol egilib, bobomning yuziga yuzini qo'ydi. – O'zing aytgansan-ku, birga kelganmiz, birga ketamiz.

Bilmadim, tuman tarqaldimi, oy chiqdimi, bobomning yuzi yorishgandek bo'ldi. Seskanib ketdim. Hali qorong'ida ko'rmagan ekanman. Bobom boshyalang, yuzini tanib bo'lmas, kiyimlari pora-pora bo'lib ketgan, hammayog'i loy aralash qonga belangan edi.

– Chopsang-chi! – Oqsoqol titrab-qaqshab Olimjonga buyurdi. – Yugur, otangni chaqir!

Olimjon sapchib turib, temir yo'l tomonga chopib ketdi.

– O'g'limni ko'rolmadim... – dedi bobom shivirlab. – Kelsa... O'zing... Kimsan... – U yog'ini aytolmadi. To'satdan ko'kragi bosqondek qattiq-qattiq ko'tarilib tusha boshladi. Og'zidan qon otilib, Oqsoqolning yuziga sachradi.

– Bobojo-o-on! – Chinqirig'im tumanlikni tilka-pora qilib yuborganini, xira chiroq yonib turgan ombor tomondan shu yoqqa odamlar yugurib kelayotganini elas-elas his etdim-u hushimdan ketdim.

Yigirma to'rtinchi bob

**TO'RTINCHI SINF O'QUVCHISI MUZAFFAR
SHOMURODOV HIKOYASI**

G'alati xotin

Ukam bilan gaplashib yotibmiz. Ikkalamiz bir ko'rpaning tagiga kirib olganmiz: uy sovuq. Derazadan oy tushib turibdi. Devordagi Husan buvamning surati bizga qarab qovog'ini solyapti. Kichkina salla o'ragan cho'qqisoqol buvam menga qarab: «Nega ukangni urding, nega oyingni xafa qilding», deytoganga o'xshaydi. Bu – o'sha «Qora ammam»nikidagi suratning o'zi. Yaqinda oyim ataylabdan Toshkentga tushib kattalashtirib kelgan. Bilaman, oyimda Kimsan amakimning ham surati bor. Ammo uni devorga osmaydi. Kashta tikilgan qiyiqcha orasiga, qutiga yashirib qo'yadi. Hech kim yo'g'ida qarab-qarab tomosha qiladi-da, keyin qiyiqchaga o'rab, yana qutiga berkitadi.

– Aka! Husan buvam poyezdni to‘xtatganini aytib bering.

Omonning odati shu. Bir gapni eshitdimi, qayta-qayta so‘rayveradi. Avvallari Sichqonboy bilan Qo‘ng‘izvoyni aytib charchardim. Endi bu cho‘pchakka yopishib olgan. Oyim buvamning suratini kattalashtirib kelgan kuni buvam bilan Oqsoqol poyezdni qandoq qutqarishganini aytib bergandim. «Qora ammam»dan qandoq eshitgan bo‘lsam, xuddi o‘shandoq qilib. Har kuni shuni so‘raydi. Mana, tag‘in boshladi.

– Poyezdni to‘xtatganmas, qutqarib qolishgan! – dedim tushuntirib. – Shunaqa qilishmasa bo‘lmasdi. Poyezdda o‘zimizning askarlar bo‘lgan. Bidingmi?

– Qanaqa qilib?

– Nima «qanaqa qilib?»

– Qanaqa qilib qutqarib qolishgan?

– Aytdim-ku, senga! Ko‘prik tagidan alvasti chiqqan. Husan buvam bilan Oqsoqol buva zo‘r polvon bo‘lishgan, bidingmi?! Ikkovlari bir bo‘lib, alvastini Bo‘rijarga otib yuborishgan. Keyin o‘zlarini poyezd urib ketgan, tushundingmi! Oqsoqol buva beriroqda turgani uchun lat egan-u tirik qolgan. Husan buvam o‘lgan.

Omon shu bilan tinchisa ekan. So‘rayveradi.

– Aka, alvasti qanaqa bo‘ladi?

– Alvastimi? Sochi uzun, mo‘ylovi qalin bo‘ladi...

– Dadamnikiga o‘xshaganmi?

– Yo‘q, alvastining mo‘ylovi tizzasiga tushib turadi.

– Poyezd alvastidan qo‘rqadimi, aka?

Nima deyishimni bilmay qoldim. Rost-da. Shunaqangi katta poyezd alvastidan qo‘rqadimi? Bosib ketsaku bo‘ldi edi. Husan buvam tirik qolardi.

Asli, bu gaplarni Olimjon akamdan yaxshilab so‘rab olsam bo‘larkan. Hozir Olimjon akam yo‘q. O‘qishni bitirib, Farg‘onaga ishga ketgan. Oqsoqol buva bilan Husan buvam poyezdni saqlab qolishganini oyim ham ko‘rgan ekan. Ammo o‘sha gaplarni eslagisi kelmaydi. Men ammamdan eshitganimni aytaman. Omon bo‘lsa surishtiraveradi.

– Bo‘ldi! – dedim jerkib. – Uxla...

Ukamga gapiryapman-u ikki qulog'im narigi uyda. Bilaman, hozir dadam keladi. Oyim bugun bo'lgan voqeani chaqib beradi. Bugun oyim yomon yig'ladi. Uni men xafa qildim. Omonni yiqitmasam bo'larkan. Yo'q, gap bundayammas. Qorovul amakining yong'og'ini o'g'irlab chatoq qildik. Hammasini Abduvali boshladi-da.

Katta tanaffusda bolalar bilan quvlashmashoq o'ynab rosa terladim. Chanqab ketdim. O'rikzor etagida ariq oqadi. Kuzda ariq shunaqangi tiniq bo'ladiki, qirg'oqqa yotib olib, suv ichayotganingizda ariq tagida soch tolasiday silkinib yotgan suv o'tlarini, ilang-bilang qilib yurgan ipday ingichka «chuvalchang bolalari»ni aniq ko'rasiz. Suv shunaqangi shirin, shunaqangi muzdayki, ichsangiz tishingiz qamashib ketadi. Zax qirg'oqqa yotib olib, endi og'zimni suvga bosgan edim, birov elkamga turtdi. Sulaymon aka bo'lsa kerak deb qo'rqib ketdim. Sulaymon aka – direktorimiz. Ariqdan suv ichayotgan bolalarni ko'rsa jahli chiqib ketadi.

Qo'rqa-pisa boshimni ko'tarsam, tepamda Abduvali iljayib turibdi.

– Yong'oq! – dedi sirli shivirlab.

Hech baloga tushunmadim. Shosha-pisha suv shimirib, o'rnimdan turdim.

– Qanaqa yong'oq?

– Konini topdim. – Abduvali atrofga alang-jalang qarab oldi.

O'rikzor etagidan «tuku-tuku» degan qo'ng'iroq tovushi eshitildi. Abduvali qo'limdan sudrayotgan edi, oyog'im tortmay turib qoldim.

– E, darsga chaldi.

– Nemis tili-ku, urishmaydi! – Abduvali qo'limdan ushladi.

Nemis tili o'qituvchimiz Anna Ivanovna degan kampir. Darsda nuqul Leningradda ocharchilik bo'lganini, shahar ozod qilinganidan keyin Toshkentga kelishganini, Oqsoqol buva bir emas, yetti oilaga uy topib berganini aytadi. Bizlarni hech urishmaydi.

– Yursang-chi, konini topdim, deyapman-ku!

Abduvali qo'limdan sudrab sap-sariq xazon gilamdek to'kilib yotgan o'rikzor ichkarisiga boshlab ketdi. Ancha yurdik. Tog'dek do'mpayib yotgan tepalik etagiga yetganimizda, Abduvali qo'limni qo'yib yubordi-da, imo qildi.

– Ana! Zo'rmi?

Qarasam, tepalik panasida bir tup kattakon yong'oq bor ekan. Tanasida qop-qora qurbaqa sallalar bo'rtib chiqqan yong'oq. Bu yil o'zimizning yong'oq uncha ko'pa meva solmadi. Bu daraxtning shoxlarida g'uj-g'uj yong'oqlar, paqqa bo'lib, po'stidan ajralib turibdi. Bitta kesak tegsa duv to'kiladi. Engashib qo'limga kesak olayotgan edim, Abduvalining jahli chiqib ketdi.

– Jinnimisan? Sulaymon aka eshitib qoladi-ku! Ustiga chiqib silkitaman!

U yerga o'tirib olib, eski botinkasini chaqqonlik bilan yechdi. Maymundek tarmashib, daraxtning shoxiga minib oldi.

– Hoy, – dedi ovozi pasaytirib. – Tezroq tergin, xo'pmi. Qorovul amaki kepqolsa hushtak chalasan!

Yuragimga vahima tushdi. Bundan chiqdi, yong'oq qorovul amakiniki ekan-da! Bilib qolsa o'ldiradi-ku!

Hushimni yig'ib olmasimdan Abduvali minib o'tirgan shoxga tik turib oldi-da, yuqoriroqdagi shoxni ikki qo'llab changallagancha oyoq-qo'lini baravar silkita boshladi. Boshim, yelkalarim ustiga yong'oq duvillab to'kildi. Shoshib qoldim. Baqiroq qorovul amakini ham, nemis tili darsini ham unutib, yong'oq terishga tushib ketdim. Shimimning ikki cho'ntagi birpasda to'lib chiqdi. «Qora ammam» bu yil to'rtinchi sinfga borishimga atab, Fotima xolaga aytib, chiyduxoba kamzul tiktirib bergan edi. Kamzulning chuqur-chuqur cho'ntaklari ham yong'oqqa to'ldi.

– Bo'ldi! – dedim Abduvaliga imo qilib. – Tush!

Abduvali quloq solmadi. Teparoqdagi shoxga chiqib yana silkitdi. Tag'in ancha-muncha yong'oq to'kildi. Boshimdan do'ppimni yulqib olib, unga ham solayotgan edim, shundoq tepamda ayol kishining ovozi eshitildi:

– Hoy!

Bir qo'limda do'ppi, bir qo'limda to'rtta yong'oq bilan cho'kkalagan joyimda qotib qoldim. Bo'ldi! Qo'lga tushdik! Hushtak chalish ham esimga kelmay, ovozim boricha baqirib yubordim:

– Abduvali! Atasa!

– Qo'rqma... – Boyagi ovoz yana eshitildi. Yelkam osha orqaga qaradim-u tap etib o'tirib qoldim. Ma'suda opa! Tura qochishni mo'ljallab, yana bir qaragan edim, Ma'suda opa emasligini bildim. Bultur kuzda o'qituvchi opamiz ham xuddi shunaqa zangori makentosh plash kiyib yurardi. Yo'q, qarasam, boshqa: shohi ro'mol o'ragan, qo'lida sumka. Oyim do'konga chiqqanida ko'tarib yuradigan sumkaga o'xshaganmas, kichkina, chiroyli.

Bo'ldi! Bundan chiqdi qorovul amakining kelinimi, qizimi... Ishqilib qo'lga tushdik-da!

Do'ppimni changallab kalovlanib o'rnimdan turdim.

– Qoch! – dedim Abduvaliga qarab.

Abduvali hamon shoxga osilib turardi. Ikki ko'zi haligi xotinda, rangi o'chib ketgan.

– Qochsang-chi! – Do'ppimni yong'oq aralash qor-nimga bosgancha o'rikzor ichiga o'zimni urdim. Ammo ataylab sekinroq chopdim. Bilib turibman, qorovul amakining kelini (qizimi, kelinimi, bari birmasmi) meni quv-laydi. Ungacha Abduvali daraxtdan tushib oladi.

Yigirma qadamcha lo'killab borgan edim. Boyagi xotin yana chaqirdi:

– Qo'rqma, yong'oq aylansin sendan!

Ikkilanibroq to'xtab qoldim.

– Shoshma! – U qochib ketishimdan qo'rqdi shekilli, turgan joyida ikki qo'lini men tomonga cho'zdi. O'ng bilagiga ilib olgan chiroyli sumkasi lopillab ketdi.– Ketma...

Ko'z qirim bilan qarasam, Abduvali shoxdan-shoxga osilib, pastga tushyapti. Ko'nglim ancha tinchidi.

– Sen Muzaffarsan-a? – Boyagi xotin men tomonga bir qadam bosgan edi, men ham Abduvalidan ko'z uzmay, bir qadam chekindim. Tutqazib bo'pman! Abduvali omon-eson yerga tushib olsin, keyin o'zim

bilaman! Qorovul amakining kelini balki rostdan ham urmas. Ammo bu gap dadamning qulog'iga yetsa sog' qo'ymaydi. Bir marta Komil buvaning uyi yonidagi yong'oqzorda bolalar bilan qo'y boqib yurganimda bitta temir qoziq topib olib baloga qolgandim. Qoziqni uyga olib kelganimda dadam ko'rib qolib, rosa ta'zirimni bergan, yarim kechada qoziqni qayerdan topgan bo'l-sang, xuddi o'sha joyga tashlab kelasan deb majbur qilgan. Bir o'zim borishga qo'rqib, Abduvaliga rosa yalinganman...

– Bizlar bilmadik, xola! – dedim, shoxdan shoxga osilib tushayotgan Abduvalidan ko'z uzmay. – Mak-tabniki deb o'ylabmiz.

Xotin qochib ketishimdan xavotirlanib to'xtab qoldi.

– Sen Muzaffarsan-a? – dedi tovushi titrab. – O'r-toqlaring aytishdi. Darsga kirmabsan.

Indamadim. Ko'z qirim bilan qarasam, Abduvali yer-ga yetay deb qolibdi.

– Ha! – dedim Abduvalidan ko'z uzmay. – Nimaydi?

– O'g'lim! – Xotin ingrab yubordi, qo'lidan sumkasi tushib ketdi. Quchoq ochgancha men tomonga otildi. Qarab turibman: Abduvali yerga uch qulochcha qol-ganda, tap etib sakradi-yu tepalik orqasiga urib ketdi. Bo'ldi! Qutuldik! Men ham jonim boricha chopib o'rikzor oralab ketdim. Ancha nariga borib qolganimda orqa tomondan qulog'imni teshib yuborgudek nola eshi-tildi:

– Muzaffar! Ketma-a!

Nimaga unaqa bo'lganini o'zim bilmayman. Lekin oyog'im chalishib to'xtab qoldim. Burilib qarasam, boyagi xotin qalin xazon to'kilgan o'rik tagida muk tushib o'tiribdi. Iltijo bilan boshini ko'tardi-da, yana nola qildi:

– Ketma. Shoshma...

Yong'oq to'la do'ppini qornimga bosgancha turib qoldim.

– Muzaffar! – Boyagi xotin cho'kkalab o'rnidan tu-rarkan, yana qo'llarini oldinga cho'zdi. – To'xta! – Ro'moli sirg'alib yelkasiga tushdi. Negadir ko'zidan tirqirab yosh chiqib ketdi. Havorang plashining etaklari

xazon changiga belangancha kalovlanib shu yoqqa yurdi. Yelkasiga tushgan ro'molini yulqib oldi. Ro'moning bir uchi yerga tegib tuproqqa qorishganiga ham parvo qilmadi.

– Ketma! – dedi titrab. – Qo'rqma...

Qoqqan qoziqdek turib qoldim. Oldiga borishga qo'rqar, ammo qochgim ham kelmasdi. Nimaga yig'ladi bu xotin?

U mast odamdek gandraklab sekin-sekin yonimga kela boshladi.

Indamay turaverdim. Yaqin kelganda u birdan tiz-zalab qoldi.

– Bolam! – dedi-yu o'krab yubordi. Mahkam bag'riga bosib yuz-ko'zimdan o'pa boshladi. Ko'z yoshidan ho'l bo'lib ketgan yuzidan allaqanday begona hid kelar edi. Oyim hech qachon atir sepmagani uchunmi boshim aylanib ketdi. Qiziq, nimaga o'padi meni? Kim bu xotin!

– Bor ekansan-ku, o'g'lim! – U yosh to'la ko'zlari bilan ko'zimga uzoq termilib qoldi. Lablari titrab ketdi. Shunda iyagida xoli borligini payqadim. – Tirik ekansan-ku! Men seni... – U tag'in quchoqladi. Qulog'im tagida allanima jiringlab ketdi. Qo'lidagi bilaguzuklar bir-biriga urilib jiringlayotganini payqadim. Bir mahal qornimga allanima qattiq botayotganini sezdim. Keyin bilsam, yong'oq to'la do'ppini haliyam qornimga bosib turgan ekanman. U bag'riga bosgan sayin yong'oqlar botib qornimni og'ritardi.

– Qo'yvoring! – dedim o'zimni orqaga tashlab.

Qancha yulqinsam, u shuncha qattiq quchoqlardi.

– Qo'yvoring! – Damim qaytib tipirchiladim. Jinnimi bu? Nimaga menga yopishib oldi?!

– Bilasanmi, men kimman? – dedi u ingragudek bo'lib. Keyin og'ir-og'ir bosh chayqadi. – Bilmaysan, bolam, bilmaysan.

Qo'ng'iroq jarangladi. Tanaffus bo'ldi. Keyingi dars – zoologiya! Sulaymon aka o'ldiradi.

– Qo'yvoring! – Oyoq-qo'limni baravar silkitib, yulqindim. Do'ppim qo'limdan tushib, yong'oqlar har

tomonga dumalab ketdi. U qo'yib yuborish o'rniga battar quchoqlab oldi.

– Muzaffar! – dedi entikib. Negadir yosh to'la ko'zlari bilan jilmaydi. – Ketasanmi? Qo'qonga ketasanmi?

Iye, nima deyapti bu? Qayoqdan keldi o'zi?

– Qochi-i-ing! – dedim tipirchilab.

– Qo'qonda-chi, singling bor: Nasiba... Seni judayam yaxshi ko'radi. Ketamizmi-a, Muzaffar?

Qo'rqib ketdim. Bola o'g'irlaydigan lo'li bo'lmasin tag'in. Atrofga alanglab baqirdim:

– Abduvali-i!

Hech kim ko'rinmasdi. Hozir kichkina tanaffus. Bolalar bu yoqqa kelmaydi.

– Qo'yvor! – dedim yig'lab.

Xotinning rahmi keldimi, cho'chidimi, haytovur quchog'idan bo'shatdi. Ammo qochib ketishimga yo'l bermadi. Tiz cho'kib oyog'imga yopishgan edi, orqamga o'tirib qoldim.

– Muzaffar! – dedi titrab. – O'g'lim!..

Bir oyog'imni amallab bo'shatib, yelkasiga tepdim.

– Qo'yvor! Oyi-i-i!

U negadir seskanib ketdi. Qo'llari shalvirab oyog'imni bo'shatdi.

– Yolg'on! – Bo'g'zidan yig'i otilib chiqdi. – U sening oyingmas! O'gay! Bildingmi, o'gay! Ishonmasang, qo'shnilardan so'ra!

Endi o'rnimdan turganimda qo'limni ushladi. Ammo boyagidek qiynab quchoqlamadi. Atir hidi kelib turgan shoyi ro'moli bilan yuzimni artidi.

– Yig'lama, – dedi sekin. – Yig'lama, Muzaffar. – Shunday dedi-yu, o'zi yig'lab yubordi. – Kechir meni, o'g'lim, gunohkor onangni kechir. – U dodlab yubor-maslik uchun mushti bilan og'zini to'sdi. – Aldashibdi... Seniyam aldashibdi, meniyam... – Bir zum jimib qoldida, yosh to'la ko'zlari bilan ko'zimga termildi. – Bilasanmi, men kimman? – dedi lablari titrab. – Men sening onangman, tushundingmi! Eslab qol, o'g'lim! Qo'qonda turaman.

Yuragimni yana qo'rquv bosdi. Sapchib o'rnimdan turdim. Qo'limni siltab tortdim. Chinqirib yubordim.

Bu safar u yopishmadi.

– O'g'lim... – dedi titrab. – Men seni... – Yana ko'zidan yosh tirqirab ketdi. – Men kelaman, – dedi yig'lab. – Har kuni kelaman.

Yana qo'ng'iroq jarangladi.

– Shoshma, bitta o'pay! – dedi u cho'kkalab o'tirganicha yalinib. Orqamga qaramay yugurdim. Sinf tomonga chopib borarkanman, xotinning o'kirib yig'layotganini eshitib turardim. Kamzulimning cho'ntagi og'irlashib ketganini endi bildim. Cho'ntagimda yong'oqlar shiqir-shiqir qilar, chopishimga xalaqit berardi. Yo'l-yo'lakay yong'oqlarni qisimlab olib, uloqtirib yubordim.

* * *

Sulaymon akaning darsi qulog'imga kirmadi. Yerda cho'kkalab o'tirganicha «men sening onangman» deb yig'lagan xotin xayolimdan ketmas, «aldashibdi... o'gay...» degan hayqiriq qulog'imda qayta-qayta jaranglar edi. Bu ham yetmagandek yonimda o'tirgan Abduvali nuqul tizzasi bilan sonimga turtadi. «Yong'oqni cho'z» deb im qoqadi. Basharasiga musht tushirgim keldiyu Sulaymon akadan qo'rqdim. Shunda hov bir marta Abduvalining burnini qonatgan kunim Mavluda opasi ko'zini ola-kula qilib aytgan gap to'satdan esimga tushdi. «Ukamni nega uradi» desam, «shu ukangmi, o'gay-ku» degani... Boyagi xotin ham shuni gapirdi. «Ishonmasang, qo'shnilardan so'ra», dedi. Nimaga, nima uchun unaqa deydi?

Tanaffusga chiqishim bilan jildimni osiltirib, uyga jo'nadim.

... Agar eshikdan kirishim bilan oyim jahlimni chiqarmasa shunaqa bo'lmasdi. Nimaga hadeb urishadi? Jildimni yelkamga osamanmi, qo'limda ko'taramanmi, nima ishi bor? Oyim chelak to'la qovoq po'choq ko'tarib, molxonaga kirib ketayotgan ekan.

– Odamlarning govmish sigiri bor, sen bola ikkita qo'yniyam eplolmaysan, – dedi o'zidan o'zi ta'na qi-

lib. – Maktabingdan keyin shu harom o'lgurlarni o'tlatib kelsang, haqing ketmaydi-ku! Baribir kechgacha shataloq otib o'ynaysan! Ertalabdan beri ma'rab jonimdan to'yirdi. O'zimning tan-jonim sog' bo'lsayam mayliydi.

Oyim avvallariyam urishib turardi-yu, u qulog'imdan kirib, bunisidan chiqib ketardi. Negadir bu galgisi alam qildi. O'shshayib turgan edim, battar jahli chiqib ketdi.

– Jild jonvorni yelka ko'tarmaydimi, yerga sudrash shartmi, bolam?!

Tasmani bir siltab jildni bo'ynimga osib oldim.

– Bo'ldimi? – dedim alam qilganidan chiyillab. – Qutldimmi endi?!

– Tag'in burnidan ortiq gapirib bo'lmaydi bunga. Do'pping qani? Ahvolingni qara!

Boshimni ushlab ko'rsam, rostdan ham do'ppim yo'q! Boyagi xotin quchoqlaganida yong'oq to'la do'ppim yerga tushgani endi esimga keldi. O'sha zahoti uning yig'lab turib aytgan gapi qulog'im ostida jarangladi. «Aldashibdi, seniyam, meniham... U sening oyingmas, o'gay...»

– Bilmadim, – dedim to'ng'illab. – Yo'qotib qo'ydim.

Oyim ko'zimga qarab turdi-da, xo'rsindi.

– Kap-katta bola... Shu ketishing bo'lsa, yaqinda o'zingniyam yo'qotib qo'yasan. Bo'pti, bor! Qovoq somsa yopdim, yeb ol.

Shunday dedi-yu bir qo'li bilan biqinini changal-lagancha, bir qo'lida qovoq po'chog'i solingan chelakni ko'tarib, molxonaga kirib ketdi.

Endi ayvon tomon yurgan edim, olma shoxida ilingan arg'imchoqda oyog'ini osiltirib o'tirgan Omon chaqirib qoldi:

– Uchiring, aka! Bitta uchiring!

Endi sen qoluvding!

Arg'imchoqni o'zim yasaganman. Ikki quloch arqonni shoxga ilib, pastiga eski ko'rpacha o'ragan edim, tap-tayyor arg'imchoq bo'lgan. Omon ikkalamiz galma-

galdan uchamiz. Men o'tiraman, Omon silkitadi. Omon o'tiradi, men silkitaman... Bu gal uning erkaligi yoqmadi. Qiz boladek tantiqlik qilishini qarang!

Indamay ayvonga chiqib ketayotsam Omon arg'imchoqdan tushib kelib, yo'limni to'sdi.

– Uchirasiz! – dedi jildimning bandidan changallab. – Uchirasiz! Ha! Yigirmata sanab uchirasiz!

Jildimning latta bandidan ushlagancha arg'imchoq tomonga sudradi. Bo'ynim qiyilib ketdi. Xuddi bo'yniga arqon solingan qo'ydek ergashganim o'zimga alam qildi.

– Qo'yvor! – dedim jildni bo'ynimdan olib. Omon allaqachon arg'imchoq ko'rpachasiga o'tirib olgan edi. Ikki qo'llab jild bandini changalladi.

– Uchirasiz, ha! Uchirasiz, – dedi arg'imchoqqa osilib turgan oyog'ini tipirlatib.

– Qo'yvor! – Jildni ikki qo'llab o'zim tomonga tortdim.

– Oldin uchiring-de! – Omon erkalanib, boshini chayqadi.

Buncha tantiq bu? Nima, malaymanmi? Jahlim chiqib ketdi.

– Yigirmata sanab uchirasiz! – Omon tantiqlanib jild bandidan tortqiladi. – Uchirasiz!

– Bu yoqqa ber! – Jildni alam bilan siltadim.

– Bermayman, alam qilsin! Avval yigirma marta uchiring, keyin...

– Mana alam qilish, mana! – Jildni kuchim boricha siltagan edim, arg'imchoq Omon bilan qo'shilib baland ko'tarildi. Omonning oyog'i ko'kragimga urildi. Jild bandi qo'lidan chiqdi-yu, chalqanchasiga yiqilib, boshi bilan zarang yerga urildi. Jildimni ko'ksimga bosgancha, angrayib qoldim. Omon dodlab oyimni chaqiradi deb qo'rqib ketdim. Qiziq, u yig'lamadi, faqat oyoqlari tipir-tipir qilib, og'zidan ko'pik chiqa boshladi. Molxona tomondan chelakning daranglagani eshitildi. Oyim bo'shagan paqirni yerga uloqtirib shu tomonga yugurdi. Zarang yerda chilparchin bo'lib yotgan Omonning og'ziga barmog'ini tiqdi. Birpasdan keyin ukamning labidan qon sizib chiqdi. Ojiz ingradi. Keyin entikib-entikib yig'lab yubordi.

Oyim uni yerdan ko'targancha tepamga keldi. Qo'lini tarsaki qilib boshim ustida ko'tardi. Qochmadim. Serrayib turaverdim. Qiziq, oyim urmadi.

– Ukangni o'ldirmoqchimisan, yaramas! – dedi ovozi titrab. – Mana, o'ldirib qo'ya qol! – U labidan qon sizib chirillab yig'layotgan Omonni bag'riga bosgancha titrab, hayqirdi. – Uyalmaisanmi, o'z ukangni shu ahvolga solishga, eshshak!

– U meni ukammas, o'gay. Sizam o'gaysiz! – Yer tepinib yig'lab yubordim. Qo'limdagi jildni yerga uloqtirdim. Kitob-daftarlarim sochilib ketdi. – Ham-malaring meni yomon ko'rasizlar! – Nima deyayotganimga o'zim ham tushunmay baqirdim. – Hammalaring o'gaysizlar.

Oyim hayratdan ko'zlarini katta-katta ochib bir zum tikilib qoldi. Rangi o'chgan ko'yi lablari titrab, yuzimga qarab turdi-turdi-da, Omonni ko'tarib uyga kirib ketdi.

Nima qilishimni bilmay turaverdim. Ham yig'lagim kelar, ham Omon o'lib qolmadimikan, degan vahima ko'nglimga dahshat solardi. Anchadan keyin uy ichidan Omonning yig'i aralash «akam yomon, akam urdi» degani eshitildi.

– O'! – dedi oyim baqirib. Tarsaki tushirdi shekilli, Omon battar chirqilladi. – Akang maktabidan charchab keldi-ku! O'lasanmi, birpas sabr qilsang, juvonmarg!

Ko'chaga chiqib ketdim. Bilaman, bugun dadamdan kaltak yeyman... Urib ko'rsin-chi! «Qora ammam»nikiga qochib ketaman.

Uyg qorong'i tushganda keldim. Dadam ishdan kelmaganini darrov bildim. Ayvondagi kavshandozda etigi yo'q. Omon eshik oldida kutib turgan ekan.

– Yuring, aka, – dedi qo'limdan tutib. – Oyim yig'lavotilla!

Oyim sopol laganda moshkichiri olib keldi. Qornim rosa och edi. Omon ikkalamiz mazza qilib yedik. Ammo oyim bir-ikki qoshiq oldi-yu, choy damlashni bahona qilib turib ketdi. Sekin qarasam, yig'layverib yuzi shishib ketibdi.

– Uxla, ikkalang ham! – dedi qovog‘ini solib.

Omon ikkalamiz bir ko‘rpa tagida yotibmiz, uy salqin, derazadan oy tushib turibdi. Husan buvamning surati «ukangni nega yig‘latding, oyingni nega xafa qilding», deb xo‘mrayib turibdi. Omon allaqachon uxlab qolgan. Men bo‘lsam, narigi uyga quloq solib yotibman. O‘rtadagi qiya ochiq eshikdan nur tushib turibdi. Bilaman, oyim dadamni kutyapti. Hozir dadam keladi. Oyim bugungi gapni aytib beradi.

Ana, hovli tomondan dadamning yo‘talgani eshitildi. Oyim ayvondan o‘tib hovliga tushganini payqadim. Dadam hovlidagi ariqda ketmon chaydi shekilli, suv shapilladi. Keyin ayvonda gurs-gurs qadam tovushi eshitildi. Qoshiq shiqilladi. Dadamning ora-chora «olsangchi o‘zing ham» deganini eshitib yotdim. Negadir oyimdan sado chiqmasdi. Nihoyat dadam xo‘rillatib choy ichdi. Ketidan papiros tutatdi shekilli, biz yotgan uyga ham tamaki hidi kirdi. Bir mahal dadamning xotirjam ovozi eshitildi:

– Idorada maylis bo‘ldi, onasi...

Oyimdan sado chiqmadi.

– Oqsoqol aytdilar, keksayib qoldim, raislikni boshqaga topshiringlar desalar, odamlar to‘polon qilib yubordi. O‘rtoq Abdurahmonov yuborgan vakil ham Oqsoqolga yalindi: «Kolxozingiz yildan yilga o‘sib boryapti, xalqparvar odamsiz-ku, Oqsoqol, unaqa qilmang», dedi. – Dadam papirosini qattiqroq so‘rdi shekilli, biz yotgan uyga yanayam quyuqroq tutun kirdi. – Zo‘rg‘a ko‘ndirdik, – dedi tag‘in o‘sha ohangda. – Baribir shu yilcha ishlab beraman-u, yanagi yilga boshqasini topinglar deyaptilar, Oqsoqol... Hayronman, bunchalik ishning ko‘zini biladigan raisni qayoqdan topamiz...

Oyim yana javob bermadi. Jimlik cho‘kdi. Oxiri dadamning ham hadikli, ham tajang ovozi keldi:

– Nima bo‘ldi, tinchlikmi?

Zum o‘tmay oyimning yig‘lagani qulog‘imga kirdi.

Avvaliga nafasi qaytgandek hiqillab turdi-yu, oxiri ovozini baralla qo‘yib yubordi.

Tamom! Hozir dadam kirib meni savalaydi. Uxlab qolgan Omonning qo'lini bo'ynimdan olib tashlab cho'kkalab oldim. Dadam kirishi bilan derazadan tashlab qochaman. Boya halqasini chiqarib qo'rganman.

– Nima gap? – Dadam avvaliga jahl bilan hayqirdi, keyin yupatibroq so'radi. – O'zingni bos, Robi, nima bo'ldi?

– Xat keldi! – Oyim yig'i aralash entikdi. – Xat oldim!

– Qanaqa xat? – Dadam yana tajanglasha boshladi. – Nima deyapsan o'zi?

– Otam tuhmatga qolgan ekan! – Oyim madori qurigandek ingradi. – Xalq dushmani degan gap bo'hton ekan. Moskvaga xat yozgandim. Javob keldi. – «Sadridin Samadov umrining oxirigacha kommunist degan nomga sodiq qoldi, sidqidildan mehnat qildi, o'ttiz to'qqizinchi yilda vafot etgan» deb yozishibdi. Bechora otam! – Oyim yana o'krab yubordi. – Umid qilib yuruvdim. Haliyam umidimni uzmagandim. – Kecha... kechayam tushimga kirgan edi.

Narigi uydan dadamning gursillagan qadam tovushi keldi. Chamasi o'rnidan turib, oyimning tepasiga bordi.

– Qo'y, onasi! – dedi erkalab.

– Tushlarimda ko'rib chiqardim. Bundan chiqdi o'n yetti yildan beri otam bechoraning arvohi bilan gaplasharkanman. – Oyim bir zum jimib qoldi-da, ko'ksidan alamli xitob otildi. – Iloyo o'sha Xo'jaqulov ro'shnolik ko'rmasin! Uyi kuysin! Bolalari chirqillab qolsin!

– Haq joyida qaror topdi-ku, xotin! Muallimni dushman deganlarning o'zi jazosini oldi-ku! – Dadamning ovozi mayinlashdi. – Qo'y, qiynama o'zingni. Sen borsan, men borman. Muallim yodimizdan chiqmaydi.

Ikkovlari jimib qolishdi. Ora-chora oyimning xo'rsingani eshitilib turardi. Hech nimani tushunmasam ham, ko'nglim tinchidi. Bundan chiqdi, oyimni men yig'latganim yo'q. Allaqanday xat kelgan, shunga yig'layapti. Endi ko'zim ilingan ekan, o'zimning otimni eshitib, yana uyg'onib ketdim.

– Muzaffar qachon keldi maktabdan? – Bu dadamning ovozi edi.

– Qachon bo'lardi, peshinda, – dedi oyim ishonch bilan.

– Hech nima demadimi?

– Yo'q... – Oyim bir zum jimib qoldi-da, so'radi. – Nima bo'пти?

– Hech nima... – dadam xo'rsindi, – joyni sol, onasi, charchadim.

Butunlay xotirjam bo'ldim. Omonni quchoqlab uxlab qopman.

Yigirma beshinchi bob

RA'NO HIKOYASI

Eng baxtli odam – eng baxtsiz odam

Odam bir kunning o'zida dunyoda ham eng baxtli, ham eng badbaxt kimsaga aylanib qolishi mumkinligiga ishonasizmi?.. Bilmadim... Men ham avvallari ishonmasdim. Bugun o'zim shu ahvolga tushdim.

Bugun dunyoda mendan baxtli odam yo'q! O'g'limni topdim. Muzaffar tirik ekan! Bolam o'lmagan ekan! Bag'rimga bosganimda, yuz-ko'zlaridan o'payotganimda undan anqib turgan o'zimning hidimni tuydim. Bo'yi cho'zilib qopti. Ko'zlari, katta-katta, qop-qora ko'zlari o'zimniki! Qizlarnikiga o'xshagan qayrilma kipriklari xuddi o'zimga o'xshaydi. O'g'lim! O'zimning o'g'lim! O'n yil ko'rmagan Muzaffarim... Qiziq, u hamon tushimga kirib turardi. Negadir chaqaloqligini ko'rardim. Jajji qo'llari bilan ko'kragimga talpinayotganini. Bejiz emas ekan-a! Tirik ekan-da... Bugun uni ko'rdim. Bag'rimga bosdim. Mendan baxtli odam yo'q!

...Bugun dunyoda mendan badbaxt odam yo'q! O'z o'g'lim, yuragimdan bino bo'lgan o'z bolam, tipirchilab qochib ketdi. Ko'ksimdan itardi, tepkilab tashladi. Xuddi yettiyot begonadek! Xo'p, nima qilsin edi? Men kimman unga? Nima karomat ko'rsatdim?.. Yig'ladi. Bolam bechora chirqillab yig'ladi. Nega ozor berdim?

Nega o'ksitdim ko'nglini? Umrída ko'rmagan bo'lsa, ona bo'lib biron marta boshini silagan bo'lmasam, nima tilayman, undan! Chaqirsam chopqillab kelaversinmi? Pinjimga kiraversinmi?

Nimaga ishondim anavi imonsizning gapiga? Bolang nobud bo'пти desa, nega laqqa tushdim? O'n yil! O'shaning ketidan o'n yil itdek ergashib yuribman-u, buyoqda o'g'lim borligi, bolam tirikligi xayolimga kelmabdi. Nega ishondim? Nega kelmadim Toshkentga?

Nima deb kelardim? Kimning oldiga? Onam o'lib ketgan bo'lsa, qarindosh-urug'im bo'lmasa, suyanan odamim bo'lmasa? Dumimni qisib Ko'tarmaga kelishim kerakmidi! Qaysi yuz bilan? Anavi cho'loqning oldida bo'yin egishim kerakmidi! Yo tog'asiga xotin bo'lib olgan Robiyaning oldigami? Yo bo'lmasa qizini o'z ukasining qo'yniga solib qo'ygan qora egachimga yalinishim lozimmi? Hecham-da! O'sha mudhish voqeadan keyin Toshkentning suvi harom edi menga! Nima? Toshkentning suvi harom dedimmi? Balki mening o'zim haromdirman! Balki Toshkentning suvi hazar qilar mendan?!

Bilmadim. Ehtimol odamzod farishta bo'lib tug'ilsa-tug'ilar. Ammo bir umr farishta bo'lib yasholmaydi. Hech kim! Hech kim farishta emas. Faqat o'zini oppoq qilib ko'rsatgisi keladi. Ming uringani bilan farishta bo'lolmaydi. Yo'lidan shunaqangi shaytonlar kesib chiqadiki, gunohga botganini o'zi ham sezmay qoladi.

Meni yo'ldan urgan anavi iflos – uncha-muncha shayton emas. Shunga ishondimmi-a?! O'g'ling o'libdi, taqdirga tan ber desa ko'na qoldimmi-a? Mayli kelishga haddim sig'mas ekan, nega aqalli xat yozmadim! Hech bo'lmasa Marja opaga?! Nega so'ramadim, surishtirmadim?! Ha, aytmochi Marja opaning oldiga borishim kerak edi-ku?! Shuning uchun kelgandim-ku, Toshkentga! Uydan bir qadam jildirmaydigan Zakunchi Toshkentga borib kel, deb zo'rlaganida sir ochilib qolishidan nega cho'chimadi? Nimaga cho'chisin! Umu-man nimadan qo'rqadi u? Odamlardanmi? Andisha degan narsani bilsa qo'rqadi-da, odamlardan! Qonundanmi?

Qonunning nimasidan cho'chisin? O'zi zakunni pesh qilib, hammani qo'rqitishga o'rganib qolgan-ku?! Xudodanmi? Imon nima qiladi unda?! O'rtada pul masalasi turganda imonni boshiga uradimi?! O'n ming so'm! «Akam o'lim to'shagida yotibdi, ko'mishim kerak, qizing katta bo'lyapti, erta-indin orzu-havas ko'rasan. Marja opang ikki tug'ib, bir qolganing emas, otangdan qolgan saroydek uy-joyingni suvtekinga olganiga xursand bo'lsin!» Mana, uning gapi! Qonunni suv qilib ichib yuborgan. Yo'l-yo'riqni biladi. Qo'qondan Toshkentga bo'zchining mokisiday qatnab, rayispolkomga, BTiga, yana ming teshikka bosh suqib chiqqan! Hammasini qonuniy to'g'rilagan. Endi Marja opadan o'n ming olib borib qo'liga tutqazishim kerak. Shuning uchun yubordi. Pul emish! O'sha Marja opa onamga uch oy tuvak tutdi. Men qilmagan xizmatni qildi. Endi yuzimni shilib tashlab, pul so'rashim kerak undan. Yo'-o'q, uy-joy otamning nomidami, merosxo'r menmanmi, o'zim bilaman! Hammasini xatlab Marja opaga topshiraman! Qo'lidan kelganini qilsin. Aytaman! Umr bo'yi aldading meni! Umr bo'yi laqillatding. Tirik bolamni o'ldiga chiqarib, judo qilding, vijdonsiz! Bugun Parcha opani ko'rib qolmasam, yuraverarkanman-da, senga ishonib!

Hammasi o'sha – trolleybusdagi voqeadan boshlandi.

Toshkent o'zgarib ketibdi. Nega o'zgarmasin? O'n yilda odamlar ming turlanadi-yu, butun boshli shahar o'zgarmaydimi! Vokzal yonidagi maydon kengayib, yangi uylar qurilibdi. Eskijo'vaga trolleybus qatnay boshlabdi.

Trolleybus tiqilinch ekan. Amallab chiqib oldim. Ozroq yurgandan keyin shundoq yonimda do'rillagan ovoz eshitildi:

– Hoy, opovsi! Hammomga yaqin qoldimi?

Ovoz tanishdek edi. Odamlar orasida o'zini ko'rol-masam ham, negadir yuragim qalqib ketdi.

– Qanaqa hammom opa? – dedi shlyapa kiygan yigit.

– Voy, opovsi! Qanaqa hammom bo'lardi. Besh-yog'ochdagi hammom-de!

Yigit kulib yubordi.

– Qiziq ekansiz-ku, opa! Beshyog‘och tupkaning tagida! Siz vokzalda yuribsiz-ku!

– Voy man o‘liy! Qoching bo‘masa! – Do‘rillagan xotin odamlarni baquvvat tirsaklari bilan turtib-surtib, menga ro‘para bo‘ldi.

– Tushasizmi?

Qarasam, Parcha opa! Chit ko‘ylagi ustidan kir nimcha kiygan, boshidan ro‘moli tushib ketgan...

Qochib qolishni mo‘ljallab, yuzimni o‘girdim. Umuman, Ko‘tarma-yu No‘g‘ayqo‘rg‘on tomonlardan bironta odamga ko‘rinishni xohlamasdim! Qochib, qayoqqayam borardim? Odam tirband. Parcha opa tanimas deb o‘ylagan edim. Ko‘rishi bilan baqirib yubordi:

– Voy, Ra‘noxon! Xudoning o‘zi yetkizdi sizni! Ertamatdan beri adashib yuribman. – U qalin lablari bilan ikki yuzimdan cho‘lpillatib o‘pa boshladi. – Esonmisiz, omonmisiz! Eson-omon bormisiz! Na kemiysiz biz tomonlaga?! O‘g‘liz kotta yigit bo‘ppoldi! Xabar obtursayiz bo‘miydimi?!

Turgan joyimda kesak bo‘lib qoldim. Nima deyapti bu telba! Robiyaning o‘g‘lini aytyapti shekilli! Umar akam uch yilmi-to‘rt yil avval Toshkentga kelganida, «cho‘log‘ing Robiyadan o‘g‘il ko‘ribdi», deb «tabriklagan» edi.

Odamlar bizga hayron bo‘lib qarayotganini ko‘rib battar dovdirab qoldim.

– Adashmang-da, Parcha opa, – dedim esankirab. – Robiyaning o‘g‘li...

– Voy nimaga adashaman. Ra‘noxon! – U butun trolleybusni boshiga ko‘tarib do‘rilladi. – Robini o‘g‘li kichkina! Muzappar kotta bo‘ppoldi. Maktabga borvotti! O‘shani siz tuqqanmisiz axir!

Ko‘z o‘ngim qorong‘ilashib ketdi. Bir mahal o‘zimga kelsam, trolleybusning orqa devoriga suyanib turibman. Parcha opa hamon do‘rillayapti.

– Robi bechora Muzapparga shunaqa mehribon, shunaqa mehribon! Ohiga ozor bermiydi. Yemiy yediradi. Uzoq yili bir to‘y qildi, bir to‘y qildi. Eriyiz uch pud osh damladi!

...Ko'tarmaga qanday yetib kelganimni bilmayman. Faqat shunisi esimdaki, Parcha opa yo'l-yo'lakay Muzaffarning to'yida erim «dumbasini ko'tarolmaydigan qo'y so'yganini», Robiya unga bir kiyimlik qarg'ashoyi atlas qo'yganini, undan oldin Omonning beshik to'yida ham lozimlik berganini aytib maqtanib keldi.

– Yuring, chaqirib beraman, o'g'lizzi! – dedi maktabga sudrab. Sinfxona eshigiga borishga qo'rqib turgan edim, o'zi borib bilib keldi.

– O'rtoqlari etdi, darsga kirmabdi. Ja sho'x bo'gan-de, Muzappar tushmagur. O'ynab yurgan-de! Yuring, boqqa kirib ko'riylik-chi!

O'rikzor etagiga yetganda bir tup yong'oq tagida yurgan qora chiyduxoba kamzul kiygan bolani ko'rsatdi.

– Ana! Chaqiriyimi? – U kaftini karnay qilib endi chaqirmoqchi edi, qo'rqib ketdim. Darsga kirmaganim uchun qidirib kelishdi deb qochib ketsa-chi!

– Qo'ying! – dedim yalinib. – Parcha opa! Iltimos keting!

– Mayli, o'ziz bilasiz. – Parcha opa birpas ikkilanib turdi-da, nari ketdi.

Yerga to'kilgan yong'oqlarni shosha-pisha do'ppisiga solayotgan bolaga yaqin bordim... Odam o'z farzandidan o'zining qiyofasini izlar ekan. Ayniqsa, o'n yil ko'rmagan bo'lsa. O'ldi deb yurgan bo'lsa!

Bugun mendan baxtli odam yo'q. O'g'limni topdim. Ko'zlari, qiz bolalarnikiga o'xshash egik kipriklari xuddi o'zim. Allaqayeri Nasibaga ham o'xshab ketadi. Singlisiga! Bugun men eng baxtiyor odamman. Mana, o'g'limning do'ppisi! O'zimning hidim kelyapti.

Bugun men eng baxtiqaro odamman. O'z bolamga o'zim ozor berdim. Yig'latdim. O'z bolam o'zimni tepib yubordi. «Qo'yvor» deb chinqirdi... O'n yildan beri nimaga xabar olmadim o'g'limdan?! Nimaga ishondim o'sha vijdotsizga?! Borib yoqasidan olaman! Tirik bolamni nega o'ldiga chiqarding, benomus! O'g'limdan nega judo qilding, iflos! Javob ber! Insof bormi senda, vijdon bormi?! Muncha imillaydi bu poyezd. Qachon yetadi yer yutgur Qo'qonga!

Yigirma oltinchi bob

SHOMUROD AKA HIKOYASI

Xiyonat

Muallim oqlangani yaxshi bo'pti. Ertami-kechmi, baribir shunaqa bo'lishini bilardim. Haqiqat egiladi-yu, sinmaydi, deganlari rost. Shunaqa-ku, haqiqat egiladi, vaqti kelib tiklanadi. Ammo to tiklanguncha ancha-muncha qovurg'asi singani yomon... Muallimni ko'p ko'rgan emasman. U paytda Tekstilda ishlaganim uchun No'g'ayqo'rg'onga kam borardim. Ammo o'sha kezlari Orif oqsoqol, pochcham, muallim – hammasi bir bo'lib maktab qurishgani esimda. Robiya yosh edi unda...

Bugun xafa bo'lib o'tirganini ko'rib, to'g'risi, yura-gimga g'ulg'ula tushdi. Gap bu yoqda ekan-ku, men Muzaffardan xavotir olib o'tiribman. Mabodo anavi kelgan bo'lsa... Yo'q, uyga-ku, qadam bosolmaydi. Qaysi yuz bilan kelsin?! Ko'cha-ko'yda bolani tutib olib dilini og'ritdimi deb qo'rqqan edim.

Peshinda karam uzayotgan joyimizga Parcha borib qoldi.

– Voy o'rgiliy siladan! Ra'noxonni ko'rdim! Biram yasanibdi, biram yasanibdi! Egnida-chi, ming so'mli palta! Bilagida qo'sha-qo'sha bilaguzuk! Oyog'ida amirkon tupli... – U do'rillab maqtanayotgan edi, odamlar imo qilib meni ko'rsatishdi shekilli, dami ichiga tushib ketdi. – Voy man nima didim!.. – dedi bo'shashib. – Ko'rganimni ettim-de. Ammo rangi ketib qopti, Ra'noxonni...

Ketmonni olib nari ketdim-u ko'nglim g'ash tortdi. Nega kepti? O'n yil yo'q bo'lib ketgan odam, yura-vermaydimi, o'sha o'ynashining etagiga osilib. Uch yil avval Muzaffar bilan bozorga borib, duch kelib qolganimizda-ku, Zakunchi amallab qochib qolgan edi. Hadeb shunaqa qilaversa Qo'qonga borib bo'lsayam so'yib kelaman! Bir boshga – bir o'lim. Nima qiladi eski yaramni yangilab.

...Har qadamda o'lim kutib turgan janggohdan tirik qaytishimga ishonmagan edim. Lekin urush oyoqlagan

sayin umidim kuchaya boshladi. Nazarimda sog'-salomat uyga qaytsam, bu yog'i nuqul bayram bo'ladiganga o'xshardi. Uy-joyim, jondan shirin xotinim. Ertalab ishga boraman. Kechqurun uyga kelsam ovqat tayyor, issiq o'rnim tayyor. Bundan ortiq baxt bormi odamga?

Xom sut emgan banda! Bu yoqda shuncha savdolar boshimga tushishini bilmagan ekanman.

Bir xillar bor. Urush nuqul qahramonlikdan iborat deb o'ylaydi. Bekor gap! Urushni biz ko'rdik, boshqalar ko'rmasin. Muzaffar ko'rmasin, Omon ko'rmasin... Urush nima o'zi? Odamni ming bir azobga soladigan narsa. To'g'ri, dushman dzotiga ko'ksini qalqon qilganlar ham bo'lgan, yonib turgan samolyotini nemis poyezdiga oborib urganlar ham. Ammo jangga kirgan kunidan urush oxirigacha jamiki mashaqqatlarga chidab, o'zining vazifasini sidqidildan bajargan odamlar ham ozmuncha emasdi. Men hech qanaqa qahramonlik ko'rsatmadim. Lekin oltita medal berishdi. Nimaga?.. Balki imonim butligi uchundir. Tosh kelsa kemirib, suv kelsa simirib el qatori jang qilganim uchundir...

Sharqiy Prussiyaning poytaxti Kenisberg yaqinidagi janglar ayniqsa og'ir bo'ldi. Uchinchi Belorussiya frontining qo'mondoni Chernyaxovskiy Dayme daryosi bo'yida soldatlarning okopiga birma-bir kirib chiqqani hech esimdan chiqmaydi. Chernyaxovskiy eng yosh qo'mondon edi. Keyin... allaqayeri o'zbekka o'xshab ketardi. Qoraqosh, qorako'z... Qirq beshinchi yilning ayozli yanvarida u hammamiz bilan birma-bir ko'rishib chiqib, dalda berdi. Erta-indin urush g'alaba bilan bitishini aytdi. Keyin Dayme, Alle degan daryolarni kechib, hujum qildik. Yer-u ko'kni quyuq tuman qoplagan, buning ustiga fashistlar to'g'onlarni buzib tashlagan, hammayoq tizza bo'yi suv edi. Fevralning boshlarida Kenisbergga hujum boshladik. Biz – sapyorlarning ishimiz og'ir edi. Belgacha muzdek suvga tushib minani topib bo'ladimi! Jangchilar orasida sapyor umrida bir marta adashadi, degan gap bor. Minaga duch keldingmi, tamom. Parcha-parcha bo'lib ketasan. Men ham bir marta, atigi bir marta adashdim. To'g'rirog'i, men emas, besh qadam narida ketayotgan Murtazin degan tatar

o'rtog'im bexosdan minaga urilib ketdi. Suv aralash olov portlagani, Murtazin «ani-i» degancha ingrab, osmonga uchgani, o'sha dahshatli olov menga ham yopirilgani esimda...

Ko'zimni ochsam, pastak shiftli uyda, katalak deraza oldida yotibman. Derazadan nayzador tomi bulutli osmonga sanchilgan qizg'ish bino, pastda esa tor-tang'iz toshloq ko'cha ko'rinib turibdi. Hammayoq jimjit. Go'yo urush ham, minalarning portlashi-yu, o'layotgan odamlarning jon talvasasida qichqirishi, samolyotlarning guvillashi, zambaraklarning o'kirishi ham – hech nima yo'qdek. Ajab... Jang shovqinlariga o'rganib qolgan kishi bunaqa jimjitlikka ko'nikolmay yuragi uvisharkan. Xuddi telba odam o'zidan boshqa hammani jinni deb o'ylagandek...

Bora-bora osoyishtalikka ham, pastda – deraza tagidagi toshloq ko'chada onda-sonda eshitilib qoladigan garmon ovozigam ham ko'nikdim.

Bilsam, meni Vilnyusga olib kelishgan ekan. Bu yerda, harbiy gospitalda tag'in ikkita narsani bilib oldim. Birinchisi – o'zimizning o'zbekka o'xshagan qora-qosh, qorako'z, muloyim qo'mondonimiz Chernyaxovskiy Kenisberg yaqinida halok bo'libdi. Ikkinchisi – «amputatsiya» degan gapning ma'nosini angladim. Bu – kesib tashlash degani ekan. Yonimdagi koykada yotgan, ikki oyog'i kesilgan yigit tushuntirdi: «Amputatsiyaga rozi bo'lma!»

Oyog'imga tekkan mina parchasi to'pig'imni majalab yuborgan ekan. Kechalari o'zimning oyog'imdan chiqayotgan sassiq hidga o'zim chidolmay burnimni jiyirib, yuzimni o'girardim. Yonimdagi yigit esa doim bir gapni qaytarardi. «Suyaging chirimagan bo'lsa, amputatsiya qildirma! Bilib qo'y, cho'loq bo'lib borsang, xotining tashlab ketadi. Mana, mening yaxshi ko'rgan qizim xat yozmay qo'ydi». Qiziq, oyog'imdan ko'ra yelkam ko'proq azob berardi... Doktorlarning og'zidan «amputatsiya» degan so'z chiqishi bilan hammayoqni ostin-ustin qilib yubordim. «Yo'q-yo'q-yo'q! Yaxshisi o'ldir! Otib tashla! Rozimasman!»

Bilmadim, aravaga yotqizib, operatsiyaga olib kirib

ketishayotganida o'rischa so'kindimmi, o'zbekchami, xullas olamni buzib yubordim. Aravacha yonida bo-rayotgan sap-sariq sochli eston hamshira qiz negadir kuladi. Erkalab boshimni silaydi.

Ko'zimni ochsam, yonimdagi askar yigit kulib turibdi. «Vo! – dedi bosh barmog'ini mix qilib. – Oyog'ing butun!»

Xayriyat, doktorlar insof qipti! Bundan chiqdi Ra'no-ning oldiga «uch oyoqlab» bormayman!

Negadir Ra'noni o'ylasam, nuqul oshxona orqasiga o'tib, oyog'imga tiz cho'kkancha «meniyam obketing» deb yig'lagani xayolimga kelardi. O'shanda nega jerkidim? Axir yaxshi ko'rganidan, azbaroyi kuyib ketganidan shunaqa qildi-ku! Nega men ham tiz cho'kib uning oyog'idan o'pmadim!

Eson-omon boray, o'zim bilaman! Boshimda ko'tarib yuraman. Yonimdan bir qadam jildirmayman. Tekstilga ham bormayman. Kolxozda ishlayman. Mayli, aravakashlik qilsam ham, go'ng tashisam ham... Ra'no yonimda bo'lsa bas.

G'alabaning xushxabarini Saratovga kelganda eshitdim. O'sha kuni poyezdimiz bir sutka to'xtab qoldi. Avtomatlar-u pistoletlardan qarsillatib o'q uzilar, hamma bir-birini quchoqlar edi. Shu kuni esimni taniganimdan beri birinchi marta boshimni shineligga o'rab to'yib-to'yib yig'ladim. Eng yaqin do'stlarimning jasadini qorga ko'nganda, boshi bir tomonga qiyshayib, bo'yni cho'zilib dorga osilib yotgan begunoh xotinlarning o'ligini sirtmoqdan chiqarib olayotganda qilt etmagan odam shu kuni yig'ladim. Bilaman, yig'ini xotinlarga chiqargan. Ammo onda-sonda erkak kishi ham yig'lasa yomon bo'lmas ekan. Chin yurakdan yig'lagan odamning ko'nglida qahr o'rnini mehr egallarkan.

Dunyoda ayoldan mehribon zot yo'q. Ra'noni – suyukli xotinimni ko'rganimda shu gapga ming marta imon keltirdim. U mening oqsoqligimga ham, yelkamdagi o'radek chuqurcha xunuk yiltirab turishiga ham parvo qilmadi. Qaytaga xuddi o'sha yelkamdagi chuqurchani o'pib erkaladi.

Odam o'zini judayam baxtiyor his etsa, xudbin bo'lib qolarkan. O'zgalarning dardini sezmas ekan. Orif oqsoqol «ikkita nordek bolamdan judo bo'ldim, o'g'lim, u yoqda kampirimni yerga qo'ydim, bu yoqda eng ishongan suyanchig'im – Dumadan ayrilib qoldik», deganida unchalik hayron qolmadim. Nachora, urush o'z nomi bilan – urush. Faqat okopdagi askarni emas, ming chaqirim narida turgan odamning ham yostig'ini quritadi. Opam sho'rlik pochchang poyezdni saqlab qolaman, deb o'ldi, Kimsanimdan na xat bor, na xabar, deb chirqillaganida ham qo'shilishib yig'lamadim. To'g'ri, achindim, yupatdim. «Kimsan Yugoslaviya partizanlariga qo'shilib ketgan bo'lsa kerak, oxirgi janglar o'sha yerda bo'ldi, erta-indin daragi chiqib qolar», deb qo'ya qoldim. Negaki men o'z baxtimdan o'zim mast edim. Xuddi ko'zini quyosh qamashtirib qo'ygan odamga o'xshardim. Shunchalik ko'r ekanmanki, hamqishloqlarim nima uchun «muborak bo'lsin»ga kira solib, darrov qaytib chiqib ketishganiga ham, nima uchun ko'zimga qarashga botinolmayotganiga ham, nima uchun opam biznikiga kam kelishi, Robiya umuman qadam bosmasligiga ham e'tibor bermabman.

Shunchalik ko'r ekanmanki, opam: «Ra'noxon bechora sen yo'g'ingda ko'p aziyat chekdi, endi yoningdan jildirma», deb tayinlaganida, Oqsoqol, «Tekstildagi ishingni qo'y, kolxozga senga o'xshagan yigitlar kerak, harna kelinning yonida bo'lasan», deganida hech baloga aqlim yetmabdi. Nega hech kim Umar zakunchining otini atamaydi-yu, ammo Ra'no, «Umar aka baribir yaxshi tashkilotchi edi, qattiqqo'l bo'lsayam og'ir paytda katta xizmat qildi, odamlar ig'vo qilaveradi-da», deganiga ishonibman. Zakunchi bekordan-bekorga ishdan haydalibdi, deb o'ylabman. Bilmabmanki, Ra'no bugun mening mina o'pirib ketgan yelkamni o'pyapti-yu, kecha... Xayolimga kelmabdiki, bugun mening cho'loq oyog'imni uqalayapti-yu, kecha... Nimaga shunaqa! Men sig'ingan quyosh shumi! Ko'zimni qamashtirgan o'tob shumi!.. Qanaqasiga! Bugun qo'ynimga kirib meni isitsada, kecha...

Bilmadim... Avvalo bunaqa kulfat erkak zotining boshiga tushmasin. Tushgan odam biladi... Mabodo shu ishlar kecha, men yo'g'imda o'tib ketgan bo'lsa ko'rmanmi, basirmanmi, hech nimani sezmasam, boringki, befarosat, moldek hech nimani bilmay o'tib ketsam, boshqa gap edi. Lekin xotinim bag'rimda yotib, erkalab turib, yana o'sha nopok narsani yesa...

Shunchalik go'lmidim! Shunchalik qo'ymijozmidim! Undan ko'ra ochiq aytsa bo'lmasmidi! Sen menga yoqmaysan! To'rt tomoning qibla, desa-ku, olam guliston edi! Yo'q, qo'ynimda jilpangladi. Ko'ngli achchiq narsa tusaganida qo'shilishib qalampir chaynadim. Oy-kuni yaqinlashganida yalindim:

– Iltimos, Ra'no! O'g'il tug'ib ber, otini Muzaffar qo'yaman. Esingdami, urushga ketayotganimdayam shuni aytgandim...

Ra'no bu safar ham baxt hadya etdi. O'g'limni, qip-qizil go'sht chaqaloqni bag'rimga bosgan kunim mendan baxtli odam yo'q edi. Ra'no chillasi chiqmagan chaqaloqni ko'rsatib, «qarang, dadasi, qulog'i sizga o'xshaydi, labi sizga o'xshaydi», deganida sevinchimdan terimga sig'magan edim...

Ehtimol o'g'rilik qilgan odamning siri ochilmas. Ehtimol qotillik qilgan olchoqning ham siri bilinmas. Ammo xiyonat fosh bo'lmay qolmaydi. Negaki, xiyonatni bir odam qilmaydi. Albatta, sherigi bo'ladi. Faqat, yomon joyi shundaki, xiyonatdan ozor chekkan odam bu sirni hammadan keyin biladi. Shunisi alam qiladi.

Ba'zan o'ylab qolaman. Odam boshqalarni ayb-lashdan oldin o'zining gunohiniyam hisoblab ko'rishi kerakmi-yo'qmi! Balki ayb o'zimdadir? Xotin kishi yomon yo'lga kirsam – demak, er aybdor. Demak, xotinning ko'nglini ololmagan. Dilini og'ritgan. Ayol zoti – guldek gap. Sen xor qilsang, sen nohaq ezg'ilasang, albatta begona qo'l siypalaydi. Ammo menda nima gunoh? Yurtga kelgan to'y ekan, urushga bordim. Bir narsani bilar edim: halol jang qilsam, xotinimni asrayman. Ra'noni himoya qilaman. Bundan chiqdi – imonli askar bo'lishim kerak. Ra'no sevar edi-ku meni!

Yaxshi ko'rib turmush qurgan edi-ku! O'sha qor yog'ib turgan kecha xayrlashayotganimizda «meniyam olib keting» deb zor qaqshab yig'lagan edi-ku! Men u yoqda, xotinimning nomusini himoya qilib yursamda, u bu bu yoqda nomusini sotsa! Qaytib kelganimdan keyin ham anavi bilan qo'shilib, ko'zimga cho'p solsa! Ikkovlari bir bo'lib, maza qilib ustimdan kulishsa! Chidab bo'ladimi shunga!

* * *

Gospitalda yotganimda uyga borsam, nuqul rohatda yashayman, deganim xomxayol ekanini Ko'tarmaga qaytgan kunimoq tushundim. Qirq oltinchi yil og'ir keldi. Lalmi donlar yoz boshidayoq qovjirab ketdi. Urushdan yangi chiqilgan, odamlar ezilgan... Xayriyat, Bo'rijar bo'ylaridagi dalalarda, Ko'tarma tomonda bug'doy durust hosil berdi. Ammo har bitta boshqoq hisobli edi. Nachora, yurt och. Ukraina hali o'zini tiklab olmagan. Qozog'istonda ham donning mazasi yo'q. Butun mamlakat bizga ko'z tikib turibdi... Jang qilgan odam xohlasa-xohlamasa dunyo miqyosida o'ylaydigan bo'lib qolarkan. Bunaqa paytda o'z qorningni emas, mamlakat g'amini yeysan.

Saraton qahriga mindi. Quyosh shafqatsiz qizdiradi. Qushlar ochlik azobidan najot izlab, o'zini bug'doyzorga uradi. Kattadan-kichik hamma dalada. Oqsoqolning o'zi ham terlab-pishib bug'doy o'radi.

– Baraka topkurlar, yana jinday g'ayrat qilaylik, belida belbog'i bor odam shunaqa paytda o'zini ko'rsatmasa, qachon ko'rsatadi! – deb odamlarga bosh-qosh bo'ladi. Komil tabib o'g'li Olimjon bilan xirmonda don yanchadi...

Peshinga borib kun tandirdek qizib ketdi. Bo'rijardan ertalabdan beri esib turgan salqin shabada ham taqqa to'xtadi. Hammayoqqa qaynoq sukunat cho'kkan, jon-saraklik bilan bug'doyzorga yopirilayotgan qushlar ham o'zini soyaga urib ketgan, faqat o'roqning shirshir qilishi eshitiladi. Yarador oyog'im sirqillab og'riyotgani uchun cho'kka lab olib bug'doy o'rar, boshqa o'roqchilar oldinga o'tib ketganidan uyalar, o'zimni-

o'zim yomon ko'rib ketganimdan o'roqni iloji boricha qulochkashlab solishga, ko'proq maydondagi bug'doyni o'rishga harakat qilardim.

Oqsoqol, «yangi bo'shangan, oftobda yurib, bolasi ichketar bo'pqolmasin» deb Ra'noni vaqtincha tabelchilikdan ozod qilib qo'ygan edi. Ko'z tegmasin-u, Muzaffar kasal bo'ladigan bolamas. Uch oy ichida ko'zga ko'rinib qoldi: polvon bola! Uyga kirishim bilan otini aytib chaqirsam, beshikda yotgan joyida ko'zi bilan meni izlab qoladi.

Ra'no tuqqanidan keyin yanayam ochilib ketgan. Har kuni peshinda Muzaffarni ko'tarib, dalaga nonmi, bir kosa ovqatmi olib keladi. Bugun ertalab zog'ora yopayotganida ham peshinda boraman, degan edi. Shuni eslashim bilan qornim tatalab ketdi. To'g'ri, qoq peshinda xirmonda go'ja pishirishadi. Ammo tong qorong'isidan ishlagan odamga bir tovoq go'ja nima bo'lardi? Qiziq, Ra'nodan nega darak yo'q?..

Olisdan chaqirib qolarmikan, degan umidda, xirmon tomonga qarab, o'roq solayotsam, bir narsa qars etdi! Ming la'nat! Odamning ishi bir yurishmasa, shunaqa bo'ladi o'zi! Qarasam, o'roq qoq ikkiga bo'linib ketibdi. Bo'rijar bo'yi – zaxkash. Shuning uchun ham qurg'oqchilikka qaramay, bu yerlarda hosil durust bo'lgan. Lekin yer toshloq. Ehtiyot bo'lmasang... Ana, o'roqdan ham ayrildim.

Yarimta o'roqni siltagancha bug'doy poyalarini changallab tag'in o'rishga urindim. Yo'q! Kal boshga temir taroq degandek bu nimasi! Shu ketishim bo'lsa, Oqsoqolning oldida sharmanda bo'laman-ku! Ana, odamlar paykal etagiga yetib qolishdi. Yaxshisi uyga boraman! Boshqa o'roq bor. Ajdardek qilib charxlab qo'yganman. Boraman-u kelaman. Qaytaga yaxshi bo'ladi. Ra'no ham bolani oftobda urintirib yurmaydi.

Yarador oyog'im sirqillab ketayotganiga qaramay, Alvasti ko'prik tomonga yugurdim. Kun battar qizib ketgan, temir yo'ldan nafasni bo'g'uvchi hovur ko'tarilar edi. Bir tomonida Bo'rijar shovillab turgan, bir tomonida na'mataklar o'sib yotgan yolg'izoyoq yo'ldan o'tib, salqin yong'oqzorga kirganimdan keyingina ko'ksimga

shabada urildi. Xayriyat, salqin ham bor ekan-ku. Bilmadim, negadir ko'nglim g'ash edi. Yong'oqzor oralab o'tib borarkanman, olisda – o'ng tomonda bola yig'isi eshitildi. Avvaliga parvo qilmadim. Bola hamon big'illab yig'lar, entikib-entikib qolar edi. Qiziq. Chaqaloq nima qiladi bu yerda? Atrofda hech kim turmaydi. Komil tabibning yosh bolasi yo'q. Kattasi urushda halok bo'lgan. Kichkinasi – Olimjon hali yosh. Ustiga-ustak ota-bola xirmonda. Lazakat opa ham bug'doy o'ryapti...

To'xtab qoldim. Shoshma! Birdan miyamga vahimali o'y urildi. Muzaffarning yig'isiga o'xshaydi-ku! O'sha zahoti ko'nglim sezdi: aniq! O'zimning o'g'lim! Oyoq-qo'lim bo'shashib ketdi. Ra'no bolani ko'tarib menga non oborayotgan bo'lsa... Xayol bilan jar bo'yiga borib qolgan bo'lsa. Jonholatda bolani uloqtirib, o'zi...

Nafasim og'zimga tiqilgancha, yig'i ovozi kelayotgan tomonga chopdim. Yuragim sezgani bejiz emas ekan. Chindan ham yo'rgagi yechib qo'yilgan Muzaffar kattakon yong'oq tagida yotar, boshiga oftob kelib, terlab ketgan, oyoq-qo'lini baravar silkitib, chinqirib yig'lar edi. Sal nariroqda eski qiyiqchaga tugilgan kosa do'ppayib turardi. Qo'rqib ketdim. Bolani dast ko'tarib, sut hidi anqib turgan yuzidan o'pdim.

– Ra'no! – Bolani bag'rimga bosgancha jar tomonga yugurdim. – Ra'no!!!

Bo'rijar bo'yiga yetganimda orqa tomonda bir nima shatir-shutur qildi. Qayrilib qarasam, na'mataklar qalin o'sgan chakalakzor orasidan bir odam ajralib chiqdi. Egnida oppoq jujuncha xalat, oyog'ida etik... Galife shimining tasmasini yo'l-yo'lakay taqqancha so'qmoq tomon chopib ketdi. Avvaliga tanimadim. Orqaga – men tomonga bir qaragan edi, Umar zakunchi ekanini bil-dim-u vujudimga yomon shubha o'rimaladi. Birdan Ra'no: «Umar aka yaxshi odam edi, hech kim qadriga yetmadi», degani esimga tushdi. Lekin nima bo'layotganini haliyam bilmas, bolani ko'targancha, karaxt bo'lib turardim. O'sha zahoti chakalakzor orasidan Ra'no otilib chiqdi. Ko'ylagi g'ijimlanib ketgan, sochi alvas-tidek paxmayib, xas-xashaklar yopishib qolgan...

Bolaning yig'isi ta'sir qildi shekilli, shu tomonga yarq etib qaradi. Dahshatdan olayib ketgan ko'zlarini, bo'zdek oppoq yuzini ko'rib, to'satdan hammasini tushundim.

– To'xta! To'xta, qanjiq!

Qiziq, singan o'roq haliyam qo'limda ekanini endi bildim. Bir qo'limda bola, bir qo'limda o'roq bilan o'sha tomonga yugurdim. Zakunchi allaqachon Alvasti ko'priikka olib boradigan so'qmoqqa chiqib olgan, Ra'no sochlari yoyilgancha uning ketidan chopar, ammo ikkalasi bir-biriga qaramas, har qaysisi o'z jonini asrab qolish payida edi.

– To'xta-a!

Qo'limdagi o'roqni kuchim boricha otdim. Siniq o'roq shatir-shutur qilib, allaqaysi daraxt tagiga borib tushdi.

So'qmoqqa chiqib olganimda ular uzoqlab ketgan edi. Ko'prik yoniga borib qolgan Ra'no chaqirdi shekilli, allaqachon temir yo'l ustiga chiqib olgan Zakunchi to'xtab, orqasiga qaradi. Qo'lini paxsa qilib bir nima dedi. Ra'no jonholatda o'sha tomon yugurdi. Endi oyog'im og'rimas, ammo tez chopishning ham iloji yo'q edi. Daraxt ildizlariga qoqilib munkib-munkib ketar, o'zimning ojizligimdan o'zimning xo'rligim kelardi. «Yo'q! O'ldiraman! Ikkalasini qiyma-qiyma qilaman!»

Yana qancha yugurganimni bilmayman. Temir yo'l ustiga chiqdim-u, qo'limdagi bola butunlay holsizlanib qolganini daf'atan his etdim. Endi u avvalgidek chinqirib yig'lamas, ovozi susayib qolgan, bo'g'zidan yig'i o'rniga ingrashga o'xshash ojiz sado chiqar edi.

Shundagina bolaga ozor berayotganimni tushundim. Xayolimga yarq etib bir o'y urildi. Zakunchi shaharda – Domdehqon yonida turadi. Buniyam Ra'no aytgan. «Oqsoqol noinsoflik qildi. Umar akaga kolxozchilar hashar qilib qurib bergan uyni olib qo'ydi, shundoq odam Domdehqon yonidagi katalak hujrada turganmish» degan. Bundan chiqdi o'sha hujrachagayam borgan! O'ldiraman!

Temir yo'l ko'tarmasidan tushib borarkanman, terlab ketgan bola yana ingraganini payqadim. Yuzidan o'pib ovutdim:

– Bo'ldi, Muzaffar, bo'ldi! Sen o'g'il bolasan-ku! Erkaksan-ku! Hozir, o'g'lim, hozir... Ikkalamiz bitta erkakcha ish qilamiz! Hozir-chi, o'g'lim, hozir fashistni o'ldiramiz! Qo'njimda-chi, pichoq bor! Zo'r pichoq! Ana o'sha pichoq bilan... Xuddi frontda dushman qorniga nayza sanchgandek. Bitta fashist tirik qolgan ekan, o'g'lim. Bo'ldi, bolam, yig'lama. Birpas chidagin...

O'g'limni bag'ringa bosib hansirab yugurib borarkanman, o'zim bilan o'zim gaplashayotganimni sezmas edim.

– Iflos! «Ketsangiz meniyan olib keting», deb yig'lagan sen eding-ku! Oyog'imga tiz cho'kib yalingan sen eding-ku! Bolasini chirqillatib qo'yib, birovning qo'ynida... Bola ko'r qilgur naqs!!!

...Odamzodning fe'li shunaqa. Noxush narsani eslagisi kelmaydi. Ammo yomon xotira barmoqqa chiqqan yaraga o'xshaydi. Qo'lingni qimirlatishing bilan o'sha la'nati yara bexosdan bir joyga tegib ketadi-yu, azob beradi.

Shu yara tuzalib ketishini o'n yil kutdim. Har qanday dardning davosi vaqt deydilar. Bora-bora to'pig'imdagi og'riq ham, salqin tushishi bilan yelkamning achishib og'rishi ham qoldi. Ammo bu yara tuzalmasligini o'zim bilardim. Robiyaga uylangan kunlarim «Ra'no» deb yubormaslik uchun tilimni tishlab qolganimda, uni bag'ringa bosganimda o'shani – o'sha benomusni ko'z oldimga keltirganimda – har kecha, har kuni shu yara azob berardi menga! Men ahmoqmanmi? Ko'rmanmi? To'g'ri, avval ko'r edim. Ko'zim ochildi. Robiya haliyam Kimsanni kutayotganini, vaqt-vaqti bilan Kimsanning suratini sandiqdan olib termilishini bilmaymanmi! Aqlim yetmaydimi shunga!

Robiya! Yaxshiyam sen bor ekansan! Bilaman, meni yaxshi ko'rmaysan. Lekin er-xotin o'rtasida sevgi degandan ko'ra kattaroq, bama'niroq narsa bo'ladi. Bu narsaning oti nima? O'zim bilmayman. Balki mehrdir, balki sabr-qanoatdir... Muzaffarni bag'ringga bosding.

Toychoqdek Omonni tug'ib berding. Rahmat senga! Dunyoda borliging uchun rahmat. Nega cho'chib tushding? Uxla, uxlay qol... Jinday orom ol... Bilaman, qiyin, juda qiyin. Hammasini tushunaman. To'g'ri, men shirin so'zlar aytishni bilmayman. O'ldim-kuydim demayman. Ammo sen mening shunchaki seviklim emas, xotinimsan, bolalarimning onasisan, Robiya! Hali avzoingni ko'rib qo'rqib ketdim. Anavi alvasti kelib, dilingni og'ritdimi deb o'ylagandim. Xayriyat, tinchlik ekan... Dadang oqlangan bo'lsa, yaxshi-ku, onasi. Quvonmaysanmi? Asl aynamas, deb shuni aytadida! O'zingni ehtiyot qil, Robiya! Mening baxtinga, bolalaringni baxtiga sog'-salomat yursang bo'ldi, onasi...

Yigirma yettinchi bob

RA'NO HIKOYASI

Al-qasosu minal haq!

Muhabbat degani shu bo'lsa – uyiga o't tushsin! O'sha – saratonning sariq kuni – o'sha kasofat kun o'lsam ham esimdan chiqmaydi. Aslida-ku, bir qarab turganda yaxshi bo'ldi. O'zimning ham jonimga tekkan edi: bir tanada ikkita odam bo'lib yashashdan charchab ketdim. Qachondir baribir shunaqa bo'lishi kerak edi-da! Rostimni aytsam, Shomurod aka urushdan qaytganidan keyin undan allaqachon ko'nglim soviganini tushundim. Go'yo erimga atab yoqib o'tirgan chirog'imni Umar akam o'chirib qo'ygandek, bu chiroq endi faqat shu odamni yoritishi kerakdek. To'g'ri, Shomurod akaga ko'ngil qo'yib tekkanim rost. Urushga ketayotganida qon-qon yig'laganim ham rost. Lekin muhabbat abadiy bo'ladi, degan gap kitoblarda bo'larkan. Bu dunyoda hech nima abadiy emas. Bilmadim, balki menda shunaqa bo'lgandir... Agar Umar akam bu ishni shunchalik orqaga surmasa, vaqtda nikohiga olsa, shuncha gap yo'q edi. Rais paytida «rahbar odamman, bunday qilishga haqqim yo'q», deb qutuldi. Keyin-chi, moliyada nalugchilik qilayotganida-chi? Yana bahona qildi. «Bo'ynimga

shuncha ayb qo'yishgani yetmaydimi, bir yo'la o'ldirib qutulmoqchimisani», dedi. Shomurod aka kelganidan keyin uni butunlay unutishga harakat qildim... Endi unutdim deganimda nega tag'in yo'limdan chiqdi? Men ahmoq, men benomus, bolali xotin nega yana laqqa tushdim uning iljayib qarashiga?!

Nima qilay? Nima qilay axir, yaxshi ko'rardim shuni! Qachondir Shomurod aka bilan bog'lab turgan omonat ip uzilishini bilardim. Uzilishini xohlardim ham. Ana, uzildi o'sha ip! Uzildi-yu, tuguni qoldi! Bolam, emizikli bolam qolib ketdi Shomurod akaning qo'lida!..

Umar akam meni sudrab to'ppa-to'g'ri Toshkent vokzaliga olib keldi. Endi menga boshqa yo'l yo'q. Umar aka qayoqqa borsa men ham ketidan ergashishga majburman. Tamom, boshqa gap yo'q!

U meni vokzalning suyanchiqli silliq skameykasiga o'tqizdi-da, tayinladi.

– Qimirlamay o'tir! Men hozir kelaman.

Shu gapni aytdi-yu, chiqdi-ketdi. Vokzal tor, tiqilinch. Qopiga suyanganlar, chamadonini boshiga qo'yib mudraganlar, pogonsiz harbiy kiyim kiygan mayibmajruhlar, tamaki tutuni, parovozning asabiy chinqirishi, g'ildiraklarning quloqni qomatga keltiradigan shaqirshuquri... Chanqoq azobi... Hammasini ko'rib turibman, hamma narsani eshitib o'tiribman. Ammo hech nimani his qilmayman. Qulog'imdan o'g'limning chirqillab yig'lashi ketmaydi. Uch oylik chaqaloq Muzaffarning yig'isi. Negadir ko'kragim og'riydi. Bir mahal qarasam, ko'ylagim ho'l bo'lib ketibdi. Bundan chiqdi bolam yig'layapti, bolam och qoldi, emizishim kerak! Boya nimaga shuni Umar akamga aytmadim? Yerning tagidan bo'lsayam o'g'limni topib kelasiz, bo'lmasa hech qayoqqa ketmayman, desam o'larmidim!

Peshonamda borini ko'rdim deb, Ko'tarmaga jo'na-sammikan? Piyoda yurib bo'lsayam yetib olarman. Bolam yig'layapti: ko'kragim shishib ketdi, chidab bo'lmas azob beryapti. Bilaman, borgan zahotim o'laman. Shomurod aka tikka so'yadi! Men-ku mayli. Bir boshga bir o'lim. O'g'lim nima bo'ladi... Kimlarning qo'lida qoladi?

Umar akam kun botganda keldi. Qo'lida har bittasi sandiqdek keladigan ikkita chamadon, qora terga botib ketgan, jujuncha xalati suv bo'lib yelkasiga yopishib qolgan. Bir kunda, yo'q, yarim kunda butunlay o'zgarib ketibdi. Har doim o'tday yonib turadigan ko'zlari o'radek ich-ichiga botgan, burni so'rrayib, mo'ylovi osilib qolgan... Ikki qo'lida chamadon, og'ziga qog'oz tishlab kelyapti: patta ekanini keyin payqadim.

– Olsang-chi bittasini! – Yaqin kelganda ko'zlari g'azabdan yonib, baqirgan edi, tishlab olgan pattasi og'zidan otilib ketdi. Jahl bilan qo'lidagi chamadonlarni gursillatib yerga tashladi. – Qo'lim uzilib ketdi-ku!

– O'g'lim... – Ko'ziga iltijo bilan termilib, yig'lab yubordim. – Bolam nima bo'ladi? Och qoldi-ku!

U vajohat bilan ustimga yopirilib keldi. Xuddi qamchi solayotgandek qo'lini do'lg'adi. Ammo atrof-dagi odamlardan hayiqdi shekilli, tishini g'ijirlatgancha ovozini pasaytirdi.

– Bolangizga jonimgiz achiyaptimi, xonimcha, – dedi vishillab. – Marhamat, to'rt tomoningiz qibla! Borave-ring! Sizni deb qamoqqa tushishimga bir bahya qolgan-nyam yetadi. Mana bu yerimga keldi! – U kaftining qirrasi bilan tomog'ini arralagandek imo qildi. – O'lg-ingiz kelib turgan bo'lsa – ketavering.

Yuzini chir etib o'girdi-da, yerda yotgan pattalarni yulqib oldi:

– Ketasizmi, qolasizmi? – dedi ko'zimga sovuq chaqchayib.

– Bolam-chi, o'g'lim-chi? O'lib qoladi-ku!

– Xayr! Salomat bo'lsinlar.

Pattalarni jujuncha xalatining cho'ntagiga tiqdi. Ikkala chamadonni kuchanib ko'targancha qiy-chuv qilib perronga oqayotgan olomon orasiga sho'ng'idi. Jonholatda, ketidan yugurdim. Odamlarni turtib-surtib yetib oldim.

– Umar aka! – dedim yalinib. – Men-chi? Holim nima kechadi?

– Ko'tar muni! – U chap qo'lidagi chamadonni yerga qo'ydi. – Sen kasofat bo'lmasang, shu kunlar yo'q edi!

Paravoz asabiy chinqirdi. Olomon baqirib-chaqirib, tor eshik oldida tiqilib qoldi.

– Yursang-chi tezroq! Hozir poyezd jo‘naydi!

Umar aka shu qadar tajanglik bilan baqirdiki, olakula bo‘lib ketgan ko‘zlaridan qo‘rqib, ikki qo‘llab chamadonga yopishdim. Chamadon zil-zambil edi.

Vagonga chiqib olganimizdan keyin ikki ko‘ksim battar shishganini, ko‘ylagim sutdan jiqqa ho‘l bo‘lib ketganini yana sezdim. Qulog‘imga Muzaffarning chirqillab yig‘lashi eshitildi.

– O‘g‘lim, – dedim unsiz yig‘lab. – O‘lib qoladi...

– Itdan bo‘lgan qurbonlikka yaramaydi!

Yarq etib ko‘ziga qarasam, Umar aka vagon derazasidan tashqariga, g‘ira-shira qorong‘ilik cho‘kkan dalalarga xotirjam qarab turibdi. Noinsof! Vijdonsiz! Qani ilojim bo‘lsa-yu, bo‘g‘ib o‘ldirsam! Nega ketidan ergashib ketyapman? Nima ro‘shnolik ko‘raman shundan! Xo‘p, qoldim deylik. Keyin nima bo‘ladi?

Bir mahal qulog‘im ostida Umar akamning yupatuvchan ovozi eshitildi:

– Baribir shunaqa bo‘lishi kerak edi-da, Ra‘no! Qo‘y, jonim, o‘zingniyam, meniyan qiyname. Tushunsangchi... Mengayam osonmas...

Sochimni silayotganini sezib, seskanib ketdim. Ilon chaqqandek boshimni siltab orqaga tortdim.

– Bola... nima bo‘ladi? – dedim ingrab. – O‘lib qoladi-ku!

Kupeda ikkalamiz qolganimizni endi payqadam. Hali biri semiz, biri ozg‘in – ikki kishi o‘ralashib yurganiga ko‘zim tushgandi. Issiqdan qochib, vagon yo‘lagiga chiqib ketishganga o‘xshaydi.

– Ra‘no! – Umar akam yonimga o‘tirib, yelkamdan quchdi. – Qilib bo‘lmaydigan ish yo‘q. Xabaring bor: zakunni yaxshi bilaman. Sen – onasan! Zakun sen tomonda. Yosh bolani onadan tortib oladiganning boshi o‘nta! G‘ing deb ko‘rsin-chi, o‘sha cho‘loq! Umrini turmada chiritaman. Bo‘ldi, jonim, yig‘lama.

U cho‘g‘dek qizib ketgan boshini yelkamga qo‘ydi. Yelkam yonib ketgudek bo‘ldi.

– Padariga la'nat! – dedi zardasiz so'kinib. – Muhabbat shohni gado qiladi desa ishonmasdim. Shoh edim, gado bo'ldim! Sen uchun. – U jimib qoldi. Buriilib qarasam, derazaga xomush tikilib o'tiribdi. – Raislikdan haydaldim... nalugchi bo'ldim. Endi shu iprisqi amaldan ham ayrildim, – dedi ko'ziga g'ussa cho'kib. – Hammasi sen tufayli. Hali ancha g'alva bor boshimda. Abdurahmonov qiymataxtaga qo'yib maydalab tashlaydi. Mayli, nima bo'lsa – peshonadan ko'ramiz.

Umar akamning ko'zida mehr paydo bo'lganini sezdim.

– Ra'no, – dedi yana yelkamdan quchib. – Bilib qo'y, seni deb hamma narsamdan kechdim. Hammasini qurbon qildim. – U iztirobli jilmaydi. – Sen uchun... Esingdan chiqmasin...

– Oberasiz-a? – dedim yalinib. – Muzaffarni o'zimga oberasiz-a!

– Aytdim-ku: qonun sen tomonda. – Umar akam uf tortdi. Labini burib, g'alati iljaydi. – Tavba! Osmon-falakda uchib yurgan odam holi nima kechishini bilmas ekan.

– Ko'kragim og'rib ketyapti, – dedim rostini aytib.

– Sog'ib tashla! – U shoshilmay o'rnidan turdi. – Uyalma, hech kim kirmaydi, poylab turaman.

Umrimde birinchi marta o'g'limning nasibasini, ona sutini yerga sog'dim. Derazaga termilib turgancha... Poyezd yelib borar, deraza ortidan nimqorong'i zulmatda mudragan o'rikzorlar, yarim o'rilgan bug'doyzorlar lip-lip o'tar, ko'kragimni qisgan sayin yengil tortardim. Yengil tortardim-u, qulog'im ostida bolamning chirillab yig'lashi eshilib turardi.

– Bo'ldimi? – Umar akam qaytib kelib yonimda turgancha derazaga tikildi. – Bilib qo'y, Ra'no, avvaliga qiyin bo'ladi. Akam – fe'li tor odam. Lekin o'lmagan qul... Nasibamizni topib yermiz. Ko'rasan, hammasi yaxshi bo'ladi. Borgan zahoti ZAGSdan o'tamiz. Niyatingga yetadigan bo'lding...

G'ildiraklarning taraq-turug'i orasida yana Muzaffarning yig'isi qulog'imga kirgandek bo'ldi.

– Umar aka? – uning yuziga yuzimni bosib yig‘lab yubordim. – Bolamni ko‘rgim kelyapti.

– Bo‘ldi, jonim, bo‘ldi. To‘g‘irlaymiz. Bir haftadan keyin yana Toshkentga kelishim kerak. Raykomga kirmasam bo‘lmaydi. Nachora, yana tog‘amning oyog‘iga yiqilaman.

Bir hafta! Yetti kun kim boqadi emizikli bolani! O‘ladi-ku! Ochidan o‘ladi-ku! Tog‘asi bilan nima ishim bor! Menga o‘g‘lim kerak! Bolam kerak!

– Umar aka! – O‘rindiqlar orasidagi tor, tamaki qoldiqlari sochilib yotgan joyga cho‘kkalab o‘tirganimcha uning chang bosgan etigini siladim. – Jon Umar aka! Bir umr qulingiz bo‘lay! Mayli, to‘y qilmasangiz ham, ZAGSdan o‘tmasangiz ham... Hammasiga roziman. Qiynamang, bolani qiynamang!

– Xo‘p! – Umar akam qo‘ltig‘imdan ko‘tarib turg‘izdi. Titrab turgan kafti bilan ko‘z yoshimni artib jilmaydi. – Hammasi joyida bo‘ladi, dedim-ku, sanayverma-da, yurakni siqib! Qara, yo‘lakda odamlar turibdi...

* * *

G‘ishtko‘prik mahallasiga kirib kelganimizda kun qizib ketgan, tor ko‘chalar kimsasiz, ahyon-ahyonda otaravalar, bola yetaklagan, paranji yopingan xotinlar o‘tib qolardi. Kechasi poyezdda yaxshi uxlamaganim uchun boshim g‘uvillar, qulog‘imda g‘ildiraklarning taqa-tuq ovozigacha qo‘shilib, o‘g‘limning yig‘isi eshitilib turardi.

Hovonchadek tor, ammo yog‘ tushsa yalagudek qilib supurilgan top-toza hovliga kirdik. Hovli o‘rtasidagi bir tup shotut g‘arq pishgan, yerda siyohrang dog‘lar ko‘karib qolgan edi. Hovlining ikki tomonida pastak uylar, ustuniga naqsh solingan ayvon...

Ayvondan oppoq ko‘ylak, oyog‘iga kavush kiygan rangi zaxil odam tushib keldi. Ikki chakagi ich-ichiga kirib ketgan, aftiga qarab yoshini aniqlab bo‘lmaydi, faqat ko‘zlari, «Qani, dilingda nima bor?» degandek odamga sinchiklab tikiladigan ko‘zlari Umar akamnikiga o‘xshaydi. Qiziq, uni bir ko‘rishdayoq etim seskanib ketdi.

– Aka, biz keldik! – dedi Umar akam kinoyali kulimsirab. Chamadonlarni yerga qo'yib, qo'l cho'zgan edi, akasi ipday barmoqlarini istar-istamas uzatdi.

– Bu – kelingiz! – Umar akam menga imo qilib yana xijolatli iljaydi.

Shosha-pisha salom bergan edim, qaynog'am sovuqqina «valey» dedi-yu, qisqa-qisqa yo'talib, negadir hovli burchagiga yo'l oldi. Shotutdan nariga o'tganida uy tomonga qarab, ojiz ovoz berdi:

– Oysara, mehmonlarga qara!

Yo'tala-yo'tala burchakdagi bostirma tomonga ketaverdi. Uning butun qiyofasidan: «Ko'zim uchib turuvdi senlarga!» degan ta'nali ma'noni uqdim.

Uy ichidan bola ko'targan xotin chiqdi. «Ovsinim!» degan xayol ko'nglimdan lip etib o'tdi. To'la, oppoq-qina yuzli, yengi keng odmi ko'ylak kiyib olgan xotin bolasini bag'riga bosgancha ayvonda bir zum turib qoldi. Rangi o'chgandek bo'ldi. Keyin yalangoyoq yurib yaqin keldi.

– Qayoqdan kun chiqdi! – dedi yasamaroq iljayib. Yelkamga qoqib ko'rishayotganida, beixtiyor bolaga qaradim. Olti oylar chamasidagi so'lqildoq bolaning boshiga oppoq to'r do'ppi kiyg'izib qo'yilgan, bola ipga tizilgan ko'zmunchoq taqig'liq do'mboq qo'lchalarini silkitib nuqul guvranar edi. Dimog'imga go'dak isi urilishi bilan boshim aylanib ketdi. Qulog'im ostida yana Muzaffarning chinqirib yig'lagani eshitilgandek bo'ldi.

– Ko'tarishsang-chi, hoy!

Umar akamning zardali xitobidan o'zimga keldim. Chamadonlardan birini ko'tarib, derazasiga qalin parda tutilgan, nimqorong'i uyga kirdik.

Oysara opa yotgisi kelmay, hadeb g'ingshiyotgan bolani beshikka bog'lab, dasturxon yozdi. Non, bodom, shinni keltirib qo'ydi.

– Charchamay keldingizlarmi? – dedi choy uzatarikan. – Yo'l azobi go'r azobi. Mayli, ziyoni yo'q, o'tib ketadi.

– O'g'ilmi? – Birinchi savolim shu bo'ldi.

Oysara beshikka qarab jilmaydi.

– Qiz. Kattasi o'g'il.

«Mening ham o'g'lim bor». Og'zimdan shu gap chiqib ketishiga bir bahya qoldi. Ovsinim xuddi ichimdagi gapni bilib olayotganday, ko'zimga sinchiklab tikilib turganini payqadim-u, qo'rqa-pisa teskari qaradim.

– To'yinglarga aytmabsizlaram, borardik, topganimizni olib. – Zimdan qarasam, nazarimda istehzo bilan kulib turganday bo'ldi. Kuladiyam-da. Kuladiyam, ezadiyam. Singlisining kundoshi bo'laman-u, tinch qo'yarmidi! Ajalim shu xotinning qo'lida shekilli... Yuzimni o'girdim. Sezib o'tiribman, ikki ko'zi menda. «Qani, singlimdan nimang ortiq ekan, ko'z-ko'zga tusharkan-ku, itdek yalinib kelarkansan-ku», deyapti.

Beshik g'irchilladi. Qizaloq yig'ladi. Oysara shoshilmay borib, beshik yoniga cho'kkaladi. Bolaga ko'krak tutdi. Qizaloq tamshanib ema boshladi.

Ko'kragimga tag'in og'riq turdi. Bolam! Bolamning holi nima kechdi? Kechasi bilan nima qildi? Uch oylik go'dak onasiz nima bo'ladi? Dod solib, sochimni yulganча ko'chaga otilgim, Toshkentga piyoda jo'ngim kelardi.

Tashqaridan kelgan ovozlardan sergaklandim. Akauka gaplashyapti. Avvaliga past ovozda g'udranib turishdi-da, keyin ikkovi ham asabiylasha boshladi shekilli, ovozi ko'tarildi.

– Sen, harom-xarishning farqiga bormaydigan dayus, rosmana nikoh o'qitib, to'y qilganingga ishonmayman. – Qaynog'am qisqa-qisqa, ammo uzoq yo'taldi. Tufladi. – Nomahram xotinni uyga kirgizmayman.

– O'takangiz yorilmasin. – Bu Umar akamning ovozi edi. – Uyingizda ko'p turmaymiz. Narisi bilan kuzgacha. Keyin uy topaman. Yaxlit pul oladigan joyim bor. Avval ba'zi ishlarni to'g'irlab olay.

– Nima hunar ko'rsatdilar? – Akasi negadir Umar akamni sizlay boshladi. – Ochig'ini aytavering, ilmi to'kis.

– Tergovchilardan charchaganman! – Umar akam tajanglasha boshladi, ovozi yanayam balandlashdi. – Qo'qonni sog'indim. Bor gap shu. Advokaturada ishlamoqchiman.

Qaynog'am tag'in yo'taldi.

– Olsa ishlaydilar-da, ilimli to‘kis!

– Nima, men dushmanmidim? Rahbarlik lavozim-da ishlagan kadroviiy rabotnikman.

– Mayli, oxiri baxayr bo‘lsin... O‘rtada farzand yo‘q-mi, ishqilib? Qo‘rqmasinlar, rostini aytaversinlar.

Butun vujudim quloqqa aylandi. Bola emizib o‘tirgan Oysara ham, beshikdagi qizaloq ham – hammasini unutdim. Hatto qulog‘imda kechadan beri yang-rab turgan o‘g‘limning yig‘isiyam bir lahza tingandek bo‘ldi.

– Yo‘q!

Umar akam bu gapni shu qadar ishonch bilan aytdiki, chayon chaqqan odamday sapchib turib, bora solib yoqasiga yopishgim keldi. Beshikni quchoqlab o‘tirgan ovsinim bezovtalanib qolganimni sezdi.

– Yonboshlaydilar-mi, poshsha kelin? – dedi achitib. – Joy solib beray. Yoshsiz, charchagansiz.

Qanday kunlarga qoldim! Nima qilib qo‘ydim o‘zi!

Beixtiyor yana tashqariga quloq soldim.

– Bo‘lar ish bo‘pti. – Qaynog‘am ojiz, kuchanib yo‘taldi. – Mayli, hammasini taomildagidek qilamiz...

Qaynog‘am aytgandek hammasi taomildagidek bo‘ldi. Yurtga bo‘lmasayam mahallaga osh tortildi. Atlas ko‘ylak kiygizib chimildiqqa kirgizishdi. Qo‘ni-qo‘shnilar «Toshkentlik chiroyli kelin»ni ko‘rish uchun paydar-pay kirishdi. «Toshkentlik kelin» ikki bukilib salom qildi. Barmoq uchiga piyola qo‘ndirib, choy uzatdi. Xotin-xalaj «bir qoshiq suv bilan yutguli» kelinni «qo‘shaqaringlar, qo‘chqorday o‘g‘illar bersin» deb duo qildi. Bilmaydiki, «Toshkentlik kelin» «qo‘chqorday o‘g‘li»ni o‘lim changaliga tashlab kelgan! Bilmaydiki, «bir qoshiq suv bilan yutgudek» kelinposhsha salom qilyapti-yu, shishib ketgan ko‘kragingning og‘rig‘iga chidolmay to‘lg‘anyapti. Bilmaydiki, ovsinining qizchasi yig‘laganida o‘zining o‘g‘li chirqillagani esiga tushib, sochini yulgudek bo‘lyapti. Jilla qursa, shu qizchani bag‘riga bosib emizgisi, bir zum ko‘zini yumib, o‘z bolasini quchog‘iga olganday huzur qilgisi kelyapti. Bilmaydi! Hech kim bilmaydi! Ammo Umar akam biladi-ku, hammasini biladi-ku!

... O'sha kechasi ovsinim (lablari istehzo bilan mutasil qiyshayib turadigan ovsinim) solib bergan to'shakda yotarkanman, dod deb yubormaslik uchun labimni tishlab, Umar akamdan so'radim:

– Nimaga unaqa dedingiz!

– Qachon? Kimga? – dedi Umar akam charchoq ohangda.

– Kelgan kunimiz! Akangizga!

Umar akam kinoyali kulimsiradi.

– O'sha gapni haliyam ko'tarib yuribman, deng. Bo'lmasa eshitib qo'ying! – U papiros tutatib ko'zimga qattiq tikildi. – Birinchidan, «akangiz» demang! Mening akam – sizning dadangiz bo'ladi. Bugundan boshlab «dada» deysiz. Ikkinchidan, – u ancha o'ylanib qoldi. – Akam, – dedi tutun qaytarib, – insofli odam. Ko'rib turibsiz, ukam Toshkentdan kelin olib keldi, deb yurtga ma'lum qildi. O'zingizning niyatingiz ham shu edi. To'g'rimi axir!

Damim ichimga tushib ketdi. U hamisha haqli bo'lgani singari hozir ham to'g'ri gapirardi. Hammasi rost! Halollab oling, degan – men! Qonuniy xotiningiz bo'lay deb yalingan – men! Umar akani Ko'tarmadan olomon qilib haydashganidan keyin ham ko'ngil uzolmagan, rahmim kelganidan otchyot topshirish bahonasida Domdehqondagi hujrasiga borib yurgan – men! Hammasi – men! Men – o'sha ahmoq! Lekin bir hafta avval poyezdga chiqqanimda o'zi nima degandi? Qanaqa va'da bergandi?

– Nimaga aldadingiz? Nimaga-a-a? – Ovozim chiqmasin, deb lo'labolishni tishlagancha, butun vujudim to'lg'anib ingradim. – Nimaga unaqa qilasiz. Bir haftadan oshib ketdi-ku. Bolangni olib kelaman deb va'da beruvdingiz-ku!

– Ra'no! – Umar akam yonimga cho'kkaladi. – Bilasan, men so'zidan qaytadigan odam emasman. Raz va'da berdimmi, obkelaman. Aytdim-ku zakon sen tarafda! Akamgayam yotig'i bilan tushuntiraman! Albatta, birovdan bo'lgan deyo olmayman, o'zumniki deyman.

– Qachon? Qachon axir? – Tishimni tishimga qo'-

yaman deb harchand urinmay, ovozim tashqariga chiqib ketdi. – Qachon?

– Tishe! – Umar akam barmog‘ini labiga bosib tahdid qildi. – Juda bo‘lmasa kichik chillangiz chiqsin, kelinposhsha, – dedi asabiy kulib. Lekin o‘sha zahoti sochimni siladi. – Mayli, yana uch-to‘rt kun o‘tsin! Odamlar kuyovning mijozi sust ekan, hafta o‘tmay oydek kelinni tashlab qochib ketibdi, demasin.

– O‘ladi-ku! Bolam o‘ladi-ku! – Nima qilayotganimni o‘zim ham bilmay, Umar akamning tizzasidan quchoqlab yalina boshladim. – Tushunsangiz-chi, Umar aka! Shunchalik bag‘ritoshmisiz?! Rahmingiz kelmaydimi? Meni shunchalik yomon ko‘rasizmi?!

– Ra‘no! – Uning ovozi sekin, ammo qilich zarbidek keskin jarangladi. – Agar seni yomon ko‘rsam bu yoqlarga olib kelmasdim. Gap bitta! O‘n kun ichida bolangni obkeb beraman!

...Roppa-rosa o‘n kundan keyin Umar akam yo‘lga otlandi. Lekin oradan o‘tgan yana bir hafta-chi? Bolamni ko‘rmaganimga o‘n sakkiz kun bo‘ldi! Holi nima kechdiykin. Joni sog‘mikin o‘zi? Umar akam xayrlasha turib, yuzimdan o‘pib tayinladi:

– Ra‘no! Jonim! Yangamdan uzoqroq yur. Iljayib turgani bilan ichi to‘la alam. Singlisini qo‘yib yubor-ganimga chidolmaydi, bildingmi? Alohida ovqat suzsa – yema! Men narisi bilan uch kunda kelaman. Huj-jatlarimga dog‘ tushurmasdan olib kelishim kerak. Ammo o‘zingni ehtiyot qil, tushundingmi?

Nimaga tushunmay? Yosh bolamanmi? Oysara otish-ga o‘q topolmay yurganini bilmaymanmi? Har gapida nayza sanchib turishini, yetti yashar o‘g‘li «ayacha» deb oldimga kirsam, «Yo‘ldoshxon, ayachangni tinch qo‘y, baqqa ke» deb chaqirib olishini, talpinchoq qizchasiga termilib qarasam, bilagiga yana bir shoda ko‘zmunchoq osib qo‘yishi, «begonalar kirib-chiqyapti», deb har kuni uch martadan isiriq tutatishini payqamay esimni yebmanmi! Menam tirnoqqa zor tumsa xotin emasman. Meniyam bolam bor! Pahlavondek o‘g‘lim bor. Erta-indin keladi. Umar akam olib keladi! Shomurod aka bermayman, deb ko‘rsin-chi! Umar akam qonun kitobini

oldiga ochib qo'yadi. «Qani, cho'z bu yoqqa bolani!» deydi.

Umar akam uch kunda emas, besh kunda qaytdi. Qoq peshin edi. Hovlidagi shotut shoxida chirillayotgan chumchuqlar in-iniga kirib ketgan, hammayoqqa mudroq sokinlik cho'kkan, shamol ham issiqdan bezor bo'lib, allaqayoqqa berkinganday... Salqin uyda Oysara do'ppiga gul bosar, men jiyak tikar edim. Beshikda qizaloq uxlab yotibdi. Yo'ldoshxon shu issiqda ko'chaga chiqib ketgan.

Eshik tomondan gursillagan qadam tovushi keldi. Umar akam! Shaxdam odim tashlashidan bilaman! Ayvonga, undan hovliga otildim. Hozir, hozir o'g'limni ko'raman! Kechadan beri ko'kragim yorilib ketay deyapti. To'yib-to'yib emsin! Rohat qilib emizay!

Yelkasida qop, qo'lida chamadon ko'targan Umar akamni ko'rib to'xtab qoldim. Yuragim gursillab urar, ko'zlarim ko'cha eshik tomonga termilib, bir nuqtada qotib qolgandek edi. Bundan chiqdi yana birov bor. Muzaffarni boshqa bir odam ko'tarib kelyapti.

Umar akamning oldiga qanday uchib borganimni bilmayman.

– Qani?

Chamamda bu so'z bo'g'zimdan butun olamni titratib yuboradigan hayqiriq bo'lib otilib chiqdi. Ammo keyin bilsam, shivirlab so'ragan ekanman.

– Qani?

– Uyga kiraylik! – Umar aka negadir mengamas, ayvon tomonga qarab gapirdi. Behush bir alpozda burilib qaragam, ayvonda Oysara iljayib turibdi.

Umar akam shohi kitelining yengi bilan peshonasidan oqib tushayotgan terni artti-da, chamadonni yana ko'tardi. Uy tomonga (qaynog'am ajratib bergan o'zimizning uy tomonga) yurgan edi, esidan ayrilgan odamdek ketidan ergashdim.

Umar akam kavshandoz yaqinidagi hanikka qopni tashlab, uf tortdi. Chamadonni qo'yib, tag'in yengi bilan peshonasini artti.

– Ra'no! – dedi sekin. – Sen aqlli xotinsan...

– Qani? – Nafasim qaytib ketganini sezib turar, ko‘z o‘ngimni sarg‘ish tuman qoplay boshlagan edi. – Qani?

– Ra‘no, o‘zingni bos, jonim! – Umar aka terdan shilta bo‘lib ketgan kaftini yelkamga qo‘ydi. – Hammasi izga tushib ketadi. Ko‘rasan!

– Qani-i-i? – Bo‘g‘zimdan shu qadar yovvoyi chin-qiriq otilib chiqdiki, o‘zimning ham qulog‘im teshilib ketay dedi.

– Nobud bo‘pti... Menga qara, Ra‘no! Ra‘no!!!

– Yo‘qol! Yo‘qol!

Keyin nima bo‘lganini bilmayman. Ko‘zimni ochsam, ovsinimning barkashdek yuzi boshim ustida turibdi. Nimaga o‘z holimga qo‘ymaydi bu jodugar? Qanaqa joyga kelib qoldim o‘zi? Biri bolamni o‘ldirsa, birining yuzidan zahar tomsa, yana biri huzur qilib iljaysa! Endi o‘lgan o‘g‘limga yig‘lashga ham haqqim yo‘qmi? Qani, anavi! Sovuq xabar obkelishga obkelib o‘zi qayoqqa g‘oyib bo‘ldi?

Olazarak bo‘lib o‘rnimdan turayotgan edim, Oysara negadir yelkamdand quchoqladi. Yuzini yuzimga bosdi.

– Ra‘noxon, qo‘ying,– dedi shivirlab. – Xafa bo‘lmang. Menam ikkisini yerga qo‘yganman. Nasib etsa...

Nima? Nima deyapti? Qayoqdan bildi! Nima demoqchi! Endi bolamning o‘lganigayam sevinyaptimi?

– Singlim. Jon singlim... – Uning ovozi titrab ketdi. – Nimaga mendan qochasiz! Nimaga ishonmaysiz! Men ham xotin kishiman-ku, onaman-ku, singlim! Bilaman! – U ko‘ylagining keng yengini mijjasiga bosdi. Hammasini bilaman! Kelgan kuningizdayoq sezgandim. Qo‘ying, o‘zingizni bosing. Mening bolam, sizning bolangiz emasmi, Ra‘noxon! Ana, xohlang o‘g‘limni oling, xohlang qizimni!

Bunaqa paytda odam yosh bolaga aylanib qolarkan. Yosh bola yiqilsa-yu, hech kim yupatmasa, turib ketaveradi. Birov mehribonchilik qilsa o‘ksinib yig‘laydi.

O‘krab yubordim.

– Opajon! Qandoq kunlarga qoldim, opajon! Ayting, nima qilay, opajon!

– Bo‘ldi, jonim, bo‘ldi! – U og‘zimga bir piyola sovuq choy tutdi. Jilmaydi. Shuncha kundan beri mazax

qilib kuladi desam, yo'q, chin dildan, mehr bilan jilmayib qarar ekan. Hozir bildim.

– O'g'lim... bor edi, opajon, – dedim ingrab.

– Hali-chi, qo'sha-qo'sha o'g'illar ko'rasiz, jonim! – U yana jilmayib boshimni siladi. – Ko'rasiz, bir etak bolaga o'ralashib qolasiz. Hasan-Husan o'g'illaringizni o'zim ko'tarib katta qilaman.

– Muzaffar! O'g'lim... – Behush bir alpozda Oysarani quchoqlab oldim. – Opajon...

* * *

Bolaning uvoliga qoldim. O'z bolamning o'limiga sababchi bo'ldim. Men ham odammanmi? Men ham onamanmi! Yo'q, hammasiga Shomurod aka aybdor! Mayli, men-ku yomon ekanman, bolada nima gunoh! Kechagina dunyoga kelgan go'dakning aybi nima?! Xo'ja – do'st, buvi – dushman deb bolani olib qolib nima qilarding, go'dakning uvoli tutgur noinsof! Bu kuningdan battar bo'lgur cho'loq! Ne-ne navqiron yigitlarning jonini olgan o'qlardan bittaginasi senga tega qolsa bo'lasmidi?

Nima deyapman o'zi? Shomurod akaning gunohi nima?

Hammasini Umar aka qildi. Meni abgor qilgan shu. Sovugan oshmi – balomi, turmushim o'tib turuvdi-ku! Avvalgidek yaxshi ko'ramanmi-yo'qmi, erim bilan yashab ketardim-ku, baribir! O'sha kuni Shomurod akamga ovqat olib ketayotganimda qay palakat bosib oldimdan chiqdi. Ko'pdan beri qorasini ko'rsatmay ketgan edi-ku. «Aslida ering u emas, menman», deb yalinganida men uyatsiz nega basharasiga tarsaki tushurmadim. Axir endi ona edim-ku! Bolam bor edi-ku. Nima qilardim, o'chgan olovni titkilab! Biz yoqsak-da, alangasida begunoh go'dak kuyib, jizg'anak bo'lsa! Bu qandoq jazo! Yo'q, bolam tirik qolishi mumkin edi. Shu nomard Toshkentga borishni paysalga solmasa tirik qolardi.

Nima dedi? «Jonimni garovga qo'yib Ko'tarmaga bordim», dedimi? «Sen uchun, bola uchun bordim,

selsovetga kirib, hujjatlarni to'g'rilamoqchi edim. Nima qilay chaqaloq bir hafta bu'run nobud bo'lgan ekan», dedimi?

Oyog'iga yiqilib yig'ladim:

– «Umar aka, shu gap rostmi? Ishonmayman, ishonmayman!»

Shunda nima dedi?

– Nima qilay, jonim! Bordim, Bildim! Yolg'on gapir-sam, go'rda yotgan onam xotinim bo'lsin! Nima qilay axir! Bordim-ku! Mozoriniyam ko'rib keldim! Tag'in nima haqing qoldi?!» Xuddi shunaqa dedi. Kuyib-yonib aytdi.

To'g'ri-da, tag'in nima qilsin! Jonini tikib boribdi-ku axir? Qo'rqmabdi-ku! Bilaman, odamlar uni shu-siz ham yomon ko'rardi. Haliyam toshbo'ron qilib yubormabdi-da! Aslida Umar akaning aybi nima edi? Baribir, hammasi shu odamga yopishgani noto'g'ri bo'ldi. Urush edi, zamon og'ir edi. Birovni urdi, birovni so'kdi. Birovga yalindi. Hammasini o'z ko'zim bilan ko'rganman-ku! Nima qilsa yurt uchun qildi. Urush tezroq bita qolsin dedi.

Bundan chiqdi hamma gunoh o'zimda ekan-da! Nimaga? Aybim nima! Shu odamni sevganimmi! Agar yaxshi ko'rish ayb bo'lsa... bu dunyoda beayb odamning o'zi bormi? Mayli kim nima desa – desin! Qo'yniyam o'z oyog'idan osadi, echkiniyam. Faqat... nimaga endi birovlarining gunohi uchun yosh bola javob berishi kerak?! Nimaga?! Adolat bormi o'zi bu dunyoda?

Kechasi chiroq ko'tarib ketayotgan odam bir qadam narini ko'rolmaydi. Chiroq o'zidan boshqa hech kim-ni yoritmaydi. Ammo qo'lidagi chiroq har qalay dalda beradi. Mening qo'limdagi chiroq – Oysara opa edi. Men ashaddiy dushman deb o'ylagan, ertami-kechmi singlisining qasdini oladi deb qo'rqqan odamim eng mehribon kishimga aylanib qoldi. «Ayachang yolg'iz qolmasin», deb o'g'lini bag'rimga solib qo'ydi. Har kuni ming martalab bitta gapni qaytaradi: «Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa – o'n beshi yorug', singlim. Yanagi yil shu kunlarda qo'chqordek o'g'il ko'rasiz. Meni aytdi dersiz...»

Qiziq o'z-o'zidan sutim qochib ketdi. Lekin hamon o'g'limning yig'isi qulog'im ostida eshitilib qolar, qo'llarini silkitib ko'ksimga talpinayotgandek tushlarimga kirib chiqar edi.

Umar akamni advokaturaga ishga olishmadi. O'sha kuni kechqurun aka-uka dahanaki jang qilishdi.

Kechki ovqatdan keyin qaynog'am, odatdagidek yonboshidagi sopol tupdonga balg'am tashlab, sinchkov ko'zlarini Umar akamga qadagancha so'radi.

– Xo'sh, mulla, bag'i nima bo'ladi endi?

– Yuridik sohada ishlaman. – dedi Umar akam asabiylashgandan mo'ylovi titrab. – Charchadim.

– Ishlaman demang, mulla, ishlatishmaydi, deng. Avval o'zingizni orqangizni tozalab oling, deyishdi, deng.

Umar akamning rangi quv o'chib ketdi.

– Menga qarang, aka! – dedi dag'dag'a bilan. – Pisanda qilmang! Sizdaqalardan mingtasini yotqizib turg'izganman. Xohlasam haliyam qudratim yetadi.

– Albatta-da! Siz ilmi odamsiz. Zo'rsiz! Qonunni yaxshi bilasiz. – Qaynog'amni yo'tal tutdi. – Davr keldi sur begim, deb bosar-tusaringizni bilmay qoldingiz, tog'angizga suyanib begunoh odamlarni turmaga tiqdingiz, – dedi entikib. Zaharxanda bilan iljaydi. – Mana endi hech kim emassiz. Shunaqa, mulla, yemoqning qusmog'iyam bo'ladi.

– Men nima yebman?! – Umar akam sapchib o'rnidan turib ketdi. Xuddi qamchi tutgandek qo'lini baland ko'tardi. – Qani, nima demoqchisiz?

Jonholatda erimning qo'liga yopishdim.

– Qo'ying, – dedim yalinib, – dada, siz ham qo'ya qoling endi.

Oysara opa mung'ayib qolgan, na eriga, na Umar akamga bir og'iz gapirishga jur'at etolmay, nuqul kipriklarini pipiratar, burchakda beshik g'ichirlar, qizaloq g'ingshir edi. Qaynog'am qilt etmadi, o'tirgan joyida boshini ko'tarib, kimsan, nima deyapsan deb uka-siga qaramadiyam.

– Ta'na qilmang, xo'pmi? – Umar akam shiddat bilan qaynog'amning ustiga egildi. – Sizga gapni kim

qo'yibdi, – dedi pishqirib. – Siz urushdan qochib, kavakka tiqilib yotganingizda men qon yutib, butun bir kolxozni boshqardim!

– Qon yutgan senmi – menmi? Ana, ko'rib qo'y! – Qaynog'am ipday ingichka barmog'i bilan tupdonga imo qildi. – Sen odamlarning boshida ot o'ynatib karillab yurganingda men fabrikada bo'z to'qidim. Yarimta o'pkam bilan ikki ismenlab ishladim.

– Bilaman! Siz bo'z to'qigansiz. Xotiningiz do'ppi-furushlik qilgan. Tegishli joyga bir og'iz aytсам, oyo-g'ingiz osmondan bo'lib ketadi. Xususiyl mulkchilar! Burjuylar! Hamma qilmishlaring tirnog'imning yuzida!

– Haromi! – Qaynog'am kalovlanib o'rnidan tur-di. – Oqpadar! – dedi butun vujudi qaltirab. – Esingni tanibsanki, odamlarga yomonlik qilasan. Mana! Qamata qol! Ottirib yubor! – U yosh bolanikidek kichkina mushti bilan ko'kragiga mushtladi. – O'ldirib qo'ya qol!

Boyadan beri mung'ayib o'tirgan Oysara opa tura solib, erini quchoqlab oldi.

– Dadasi! – dedi yig'lab. – Uyat bo'ladi! Qo'ni-qo'sh-ni eshitsa nima deydi? Andisha qilinglar axir!

– Andisha? Shunda andisha bormi! – Qaynog'amni tag'in yo'tal tutdi. Bu safar bukilib-bukilib yo'tala boshladi. Holsizlanib cho'kkalab qoldi. Umar akam hamon uning boshida xezlanib turardi. – Yo'q, – dedi qaynog'am, afsus-nadomat bilan bosh chayqab, – bu andishadan keyin tug'ilgan. Achinaman! – U darmon-sizlik bilan boshini ko'tarib menga qaradi. Qovjiragan ko'zlarida mung bor edi. – Achinaman sizga, qizim. Yomonning tuzog'iga tushibsiz. Baribir baxtiqaro qiladi.

– O'v! – Umar akam ko'zidan o't chaqnaib oyog'ini ko'tardi. Bir tepib akasini pachaqlab tashlagudek bo'ldi-yu, tepmadi. – O'v sili-simyon! – dedi xirillab. – Endi mening oilamni buzmoqchimisani? Xotinimni jo'natib, bir yo'la mendan ham qutulmoqchimisani? Mana! – U xunuk qiliq qildi. – Ertagayoq sudga berib, hovlining yarmini bo'lib olaman! Bu joylar menga ota meros.

– Olaqol! Hammasini olaqol. Sen turgan hovli men-ga harom. Men ko'chib ketaman.

– Voy sho‘rim! – Oysara opa talmovsirab qoldi. – Ikki bola bilan qaysi eshikka bosh urib boramiz. – U najot kutgandek ko‘zimga shu qadar mung bilan qaradiki, Umar akamning yoqasiga yopishib, silkitdim.

– Uyat bormi sizda? Nima deyapsiz?

– E, tort-e! – U bir siltab qo‘limni yoqasidan olib tashladi. – Senam shularga hamtovoqsan!

– Ana, qizim! – Qaynog‘am og‘ir-og‘ir bosh chayqadi. – Xohlasi sizniyam qamatadi. Qonunni biladi-da!

– Gap shu! Ertadan zavodda ishlaysan. Senam sovunning sassig‘ini bir hidlagin.

– Men ishlamayman, dedimmi! – Gap boshqa yoqqa aylanganidan xiyol taskin topdim. – Qachondan buyon ishga kiraman deyapman-ku!

...O‘sha janjaldan keyin Umar akam qozonni alohida qildi. Ammo deyarli har kuni ovqatni Oysara opa tayyorlab qo‘yardi. Biz – er-xotin yog‘ zavodida ishlaymiz. Ish og‘irmas, havosi og‘ir. Kun bo‘yi kunjara hidi, yog‘ isi, sovun isi aralashib dimoqqa o‘tirib qoladi. Odamning ko‘ngli behuzur bo‘lib ketadi... Uch oycha o‘tgandan keyin ko‘nglimning behuzur bo‘lishi faqat zavoddagi islardan emasligini payqadim. Oysara opa rost aytgan ekan: oyning o‘n beshi qorong‘i bo‘lsa o‘n beshi yorug‘ ekan... Anor yegim kelardi...

G‘arq pishiqchilikda ko‘zim yoridi. Xudo Muzaffarimning o‘rniga o‘rin farzand ato qildi. Qizchamning allaqayeri Muzaffarga o‘xshab ketar edi.

Umar akam «haliyam davri kelishiga», ishlari gumbur bo‘lib ketishiga ishonar, hadeganda omadi yurishmaganidan asabiylashar edi... Toshkentga serqatnov bo‘lib qoldi. «U yoqda dushmanlaringiz ko‘p, nima qilasiz borib» desam, nuqul bitta gapni qaytarar edi. «Ahmoq ekanman! Shuncha yil yelib-yugurib, xemirigayam ega bo‘lmabman! Mana, endi hammasini zakonnij qilaman!»

...Esimda yo‘q, bundan uch yilmi-to‘rt yil oldin Umar akam Toshkentga yana borib gap topib keldi.

– Anavi cho‘log‘ing uylanibdi, Ra‘no.

Nima ishim bor! Menga desa yuz marta uylanmaydimi? Nega endi «mening cho‘log‘im» bo‘larkan!

Ensam qotib indamagan edim, Umar akam kuldi.

– Kimga deb so'ramaysan ham! Robiyaga uylanibdi! Anavi Husan dumaning asrandisi bor edi-ku, o'shanga. Darrov tug'ibam beribdi: o'g'il!

Umar akam «o'g'il» deyishi bilan Muzaffar esimga tushdi. Yuragim zil ketdi. Mayli, hech kimga yomonlik tilamayman. Ammo bolamdan judo qilgan, o'g'limning o'limiga sababchi bo'lgan anavi cho'loqni u dunyo-yu bu dunyo kechirmayman. Ungayam boqqan balo bordir.

Achchiqni achchiq kesadi, deyishardi. Ba'zan achchiqni shirin ham kesarkan. Nasiba Muzaffarning dog'ini yuvib tashladi. Qizalog'im katta bo'lgan sari o'g'limning xotirasi xayolimdan o'chib borardi. Taqdirga tan berish – dononing ishi. Bo'lar ish bo'ldi. O'g'lim nobud bo'ldi. Farzand dog'ini ko'rgan bitta menmi! Noshukurchilik qilishning nima keragi bor! Mana, o'rniga o'rin tole yana farzand ato qildi-ku. Tag'in nima kerak!

Shunday bo'lsayam ahyon-ahyonda o'g'lim tushimga kirib qolar, cho'chib uyg'onsam, chirqillab yig'layotgani anchagacha qulog'imda yangrab turardi.

Bundan chiqdi Muzaffar tushlarimga kirishi bejiz emas ekan-da! Bolam tirik ekan-da!

Qo'qonga ko'chib kelgan kunlarimiz erim qaynog'amga «unadigan yaxlit pul bor» deganida nimani nazarda tutganini, nima uchun keyingi paytlarda Toshkentga bo'zchini mokisidek qatnayotganini, mana endi tushundim. Men – sodda hech baloga aqlim yetmay yuraveribman.

Uch kun avval u Toshkentdan qovoq-tumshug'i osilib qaytdi. Qoshi chimirilgan. Chaqmoq telpagini qiyshiq qo'ndirib olgan. (Xayolimga g'alati o'y keldi. Chaqmoq telpakka muncha ishqiboz bo'lmasa! Ancha yil avval Ko'tarmada Parcha opa bilan yulishib, «madaniy»ga tushib ketganidan beri bunaqa telpak kiymasdi. Toshkentga borib, yana topib kepti-da!)

Kulimsirab, salom bergan edim, yuzini o'girdi. «Shoyi galstuk olib keldingizmi, dada», deb bo'yniga osilgan Nasibani ham zarda bilan nari surdi-da, menga buyurdi:

– Uyga kir!

Hayron bo‘lib, ro‘parasiga cho‘kkalagan edim, to‘satdan ko‘zimga tikilib so‘radi:

– Qachongacha yetimlarnikini yulamiz? Tom solamizmi-yo‘qmi?

– Qanaqa yetim? – dedim hayron bo‘lib. – Kim yetim?

U, «senga gapirdim nima-yu gapirmadim nima», degandek ensasi qotib, labini burdi.

– Akamning bolalarini aytaman, ahmoq! Toshkentdan akamga do‘xtir olib kelmoqchi edim. Maqsudov degan professorga uchrashdim. Akam – sil, o‘n besh yildan beri kasal, uch oy bo‘ldi, o‘rnidan turolmay qoldi, desam, shuncha yashaganiga shukur qilavering, endi o‘nglanmaydi, tayyorgarligingizni ko‘ring», dedi.

Erta kuzdan buyon o‘rnidan turolmay qolgan qaynog‘am ko‘z o‘ngimga keldi-yu, achinib ketdim.

– Iloji yo‘q ekanmi?

– Tag‘in gapiradi-ya! – Umar akam uh tortdi. – Uyingdan kavushdek o‘lik chiqsa, tog‘dek xarajatni yetaklab ketadi. Akam – jigarim-ku! Jiyanlaram mening zimmamda qoladi endi.

Bechora qaynog‘am! Nimaga bu dunyo shunaqa teskari! O‘n yil ilgari shu xonadonga qadam bosganimda qaynog‘amniyam, Oysara opamlarniyam yomon ko‘ruvdim. Bilsam, dunyoda eng yaxshi odamlar shular ekan.

– Endi nima qilamiz? – dedim bo‘shashib.

Umar akam papiros tutatdi.

– Shu-da xotin zoti! – dedi negadir jahli chiqib. – Qilg‘iliqni qilib qo‘yadi-da, «nima qilay» deb bezrayib turaveradi!

Qiziq! Men nima qipman! Ro‘zg‘oringni ajratib ol debmanmi!

– Ra‘no! – Umar akam ko‘zimga jiddiyat bilan tikildi. – Hovlini sotamiz. Umrbod sig‘indi bo‘lib turolmaymiz-ku! O‘zimizgayam uy-joy solish kerakmi? Akam o‘lgani bilan Yo‘ldoshxon erta-indin uylana-di-ku!

Hayron qoldim.

– Qanaqa hovlini aytasiz?

Umar akam jahl bilan papirosni xontaxta ustida turgan piyolaga ezg'iladi.

– Ho'kizning qulog'iga tanbur chertyapmanmi? – dedi tishini g'ijirlatib. – Toshkentdagi hovlini aytaman, qovoqbosh! Toshkentda otangdan qolgan hayhotday uy-joy bor-ku. O'shani aytaman!

Iye, ota hovlimizda Marja opa turadi-ku! Oyimga mendan ortiq xizmat qilgan xotin! Boshimga mushkul ish tushganida... erim urushda yurganida Umar akam qilar ishni qilib qo'yib, «bu yog'ini o'zing epla», deb bir chekkaga chiqib olganida bir emas, ikki marta meni sharmandalikdan saqlab qolgan, tug'uruqxonalarga yugurib do'xtir topgan Marja opa... Endi kelib-kelib...

– Qanaqa bo'larkin... – dedim bo'shashib. – Marja opa...

– Menga qara, o'v! – Umar aka g'azab bilan tishini g'ijirlatdi. – Adi-badi deydigan bo'lsang, o'sha Marjangni sudga berib uydan haydab chiqaraman-da, hovlini yuz mingga sotaman. Xaridor topib qo'ydim.

– Umar aka! – dedim yalinib. – Qanaqasiga! Axir...

U ko'zimga shu qadar g'azab bilan qaradiki, damim ichimga tushib ketdi.

– Gap shu! – dedi shiddat bilan. – Ertaga poyezdga minasan. O'sha joningdan aziz Marja opang bilan kelishib keldim. O'n ming tayyorlab qo'yadigan bo'ldi. Esiz, esiz! Uch uy, ikki ayvon, bir shiypon. O'n olti sotix hovli. Qancha daraxt! Yuz mingli joy edi. Mayli, avlod-ajdodlaring hurmati sudga bermadim. O'sha Marja opangni o'ziyam xazina topgan gadoydek quvonib qoldi. Yuz mingli hovlini nosvoy puliga oladi-yu, sevinmaydimi! Yaxshilab tushunib ol. Avval BTIga, keyin notariusga kirasani. Hammasini to'g'rilab kelganman. Ikkita hujjatga qo'l qo'ysang bo'ldi. Sening qo'ling o'tadi, merosxo'rsan. Lekin bilib qo'y, o'v! – U mix qoqqandek peshonamga barmog'i bilan nuqidi. – Oldin o'n mingni sanab olasan, keyin BTIning temir daftariga qo'l qo'ysan. Bildingmi? Notarius vzosini o'zi to'laydi, uqdingmi?

Rostini aytsam, hech nimani tushunmadim. Yo'q, tushunmadim emas, xayolimni notarius-potariusdan

ko'ra, boshqa narsa – Marja opaning ko'ziga qanday qarayman, degan andisha ko'proq band etgan edi.

– Umar aka... – dedim yalinib. – Mayli-ku, lekin.

– Nima «lekin», nima! – U ko'zini g'azab bilan olaytirdi. (Bir vaqtlar kolxozchilarning boshida qamchi o'ynatganida ko'zidan shunaqa sovuq olov sachrab ketardi.) – Marja opangizga yuragingiz achidimi, xonim! – dedi kinoya bilan. Mo'ylovi qiyshayib ketdi. – Yaxshi! Ana, eshik ochiq! Toshkentga boring-da, Marja opangizga yopishib yotavering! Ammo ikkita shartim bor. Birinchisi shuki, Nasibani tashlab ketasiz. Ikkinchisi... – U mo'ylovi battar qiyshayib asabiy kuldi. – Mayli, bunisi shart emas, maslahat: cho'log'ingizning oldiga bora ko'rmang. Qora mo'ndi egachingizni qizi sochingizni bittalab yulmasin tag'in. Tushundingizmi?

...Tushundim! Endi hammasini tushundim! Nimaga bu yoqqa yuborganingni ham, nimaga «cho'loqning uyiga qadam bosa ko'rma» deganingni ham... Oz emas-ko'p emas, o'n yil laqillatding meni! Yo'q, nega endi! Umrbod aldab kelding! O'shanda – qirq ikkinchi yil kiradigan kechasi, uyimga bostirib kirganing-dayoq aldagansan. Sen meni hech qachon yaxshi ko'rgan emassan! Yaxshi ko'rsang, oyog'ingga yiqilib, nikohingizga oling, deb yalinganimda uylangan bo'larding! Yo'q, men senga shunchaki o'ynash bo'lib keldim. Bir umr! Xohlasang o'ynaysan, xohlamasang uloqtirib yuborasan. «Seni deb shu kunlarga tushdim, hamma narsamdan ayrildim», deysan! Men-chi? Men ayrilmadimmi? Eng bebaho xazinamdan, bolamdan judo qilgan sen emasmisan?! Tirik o'g'limni o'ldi degan sen emasmisan?!

Aldashni mendan ko'r endi! Har hafta Toshkentga qatnayman! Notarius ishlamas ekan, BTI dam olayotgan ekan, Marja opani topolmadim, deyman-da, har safar kelib, o'g'limni ko'rib ketaman. Qasd olishni mendan o'rgan.

Yo'q! Avval borib yoqangdan olaman! Nimaga tirik bolani o'ldi deding, hezalak!

Aldading! Totuv turmushimni buzding. Shomurod akam qandoq yaxshi ko'rardi, qandoq avaylardi! O'zimchi! O'zim ham yaxshi ko'rardim-ku uni!... Qayoqdan paydo bo'lding! Peshonam qursin! Qayoqdan shu uying kuygur urush bo'ldi? Shomurod akam yonimda bo'lsa sen nojins ostona hatlab uyimga kirishga hadding sig'armidi! Voy noinsof! Voy benomus! Go'rda yotgan onam xotinim bo'lsin deb qasam ichdi-ya! O'z onasining arvohini harom qildi-ya! Qaynog'am rost aytgan ekan. Baxtiqaro qiladi degandi-ya! Baxtiqarolik bundan ortiq bo'ladimi! Tirik turib bolamdan judo bo'lsam. O'z bolam o'zimdan yuz o'girs! Qandoq chiday! Muzaffar endi ikki dunyodayam ona demaydi! Onasi bor: Robiya bor. Qandoq qilay? Nima qilay!

...Buncha imillaydi bu poyezd! Qachon yetaman! Qachon yuziga tufalayman o'sha vijdotsizni! Tong otyaptimi? Ana, Qo'qonga keldik shekilli...

* * *

Ezib yomg'ir yog'ayapti. Bilmadim, yurdimmi, yugurdimmi! Plashim jiqqa ho'l bo'lib ketdi. Bir qo'limda sumkacha, bir qo'lim bilan Muzaffarning do'ppisini bag'rimga bosib olganman. Do'ppi ho'l bo'lmasa bas! Chatoq qildim: Muzaffarning shundan boshqa do'ppisi bo'lmasa-chi? Toshkentda ham havo bulut edi. Boshyalang maktabga borib, shamollab qolsa-chi?

Uyga otilib kirsam, o'tiribdi. Ko'rpachaga yonboshlab, papiros tutatib tokchadagi «ARZ» radiosidan konsert eshityapti. Bilaman, ataylab ishga bormagan. Meni kutayotgani yo'q, pulni kutayapti.

– Qiynalmadingmi? – dedi o'rnidan qo'zg'alib. – Havo aynib qolganini ko'rmasanmi? Bittimi?

– Nima bitadi? – dedim hansirab.

– Iye, nimaga borgan eding o'zi?

Tushunarli! Oldi-sotdini aytyapti. Pulni so'rayapti!

– Pul kerakmi? – dedim entikib. – Yaxshi. Pul bo'ladi! Ammo oldin bolani obkelasiz, keyin pulni olasiz.

U hayron qolgandek ko'zini olaytirib, qaddini rostladi. Rangi o'chib ketdi.

– Qanaqa bola? – dedi yelkasini qisib.

– Mening bolam, imonsiz, mening o'g'lim! Muzaffar tirik ekan-ku!

U serrayib qoldi. Keyin negadir iljaydi. Mo'ylovi qiyshayib ketdi.

– Adashibsan, Ra'no! – dedi asabiy kulib. – Men aniq bilaman. O'lgan!

– Mana-ku! – yig'lamoqchi emasdim. Shu surbetning oldida yig'lamasligim kerakligini bilardim. Ammo qo'ltig'imdan Muzaffarning do'ppisini olayotganda chidab turolmadim. Dodlab yubordim. – Mana! – dedim o'g'limning do'ppisini ko'rsatib. – Tirik ekan-ku! O'z ko'zim bilan ko'rdim-ku!

– Ra'no... – U do'ppiga qo'l cho'zdi. – Men eshitganimni aytganman. Qayoqdan bilay?

– Tegma, naqs! Harom qilasan! – Do'ppini bag'rimga bosdim. – O'z onasining arvochini xotin qilgan imonsiz! Vijdonsiz! Aytuvding-ku, bolangni mozorini ko'rdim deb! Qani o'sha mozor. Yur! Obor! Ko'rsat!

Ustiga yopirilib borgan edim, yuzimga tushgan tarsaki zarbidan yiqilib tushdim. Lekin o'sha zahoti sakrab turib do'ppi aralash o'zining yuziga tarsakiladim.

– Ko'rsat! Hozir oborasan!

– O'chir, megajin! – U gurzidek mushtini boshim ustiga ko'tardi.

– Ur, o'ldir! Shu kunimdan o'lganim yaxshi! Yolg'oning bilan yorilib o'lgur hayvon! Ur! Ur, mard bo'lsang! – Alam bilan muk tushgancha oyoqlaridan changallab oldim. – Obkelasan! O'g'limni obkeb berasan!

Shu payt dahshat to'la chinqiriq qulog'imga kirdi.

– Urmang! Dadajon, urmang! Ayajon, turing!

Boshimni ko'tarsam, qizim chirqillab dadasining bo'yniga osilyapti.

– Ko'rmaysanmi, o'zini! – Umar aka oyog'ini tipir-latdi. – Qo'yvor, shallaql!

– Ayajon! – Qizim muk tushib, meni quchoqlab oldi. – Qo'yvoring, tegmang dadamga!

Beixtiyor qo'llarim bo'shashdi. U oyoqlarini siltab tortib nari ketdi.

– Eshitib qo‘y, Nasi! – dedi ta‘kidlab. – Ayang seni yetim qilmoqchi! Seni tashlab Toshkentdagi haromi o‘g‘lining oldiga ketmoqchi!

– O‘zing haromisan, vijdonsiz! – Butun vujudim bilan tebranib tizzamga mushtladim. – Iloyo yigit o‘l! U dunyo-yu bu dunyo xor bo‘l, bidingmi? Shu gapni aytgan tillaring kesilsin!

– Vaysama, o‘v! – U deraza tokchasida yotgan papirosini yulib olib, tutatdi. – Bilib qo‘y. Gapim gap. To‘rt tomoning qibla. Ketking kelsa ketaver. Ammo o‘ng quloq, chap qulog‘ing bilan eshitib ol: Nasibaning tirnog‘iniyam bermayman! Qiz meniki!

– Ayajon! – Nasiba tarsaki zarbidan sirqirab og‘riyotgan yuzimni siladi. – Urishmang, ayajon, urishmanglar.

Eshik qarsillab ochilganini ham, Yo‘ldoshxon otilib kirganini ham payqamadim. Faqat do‘rillab qolgan ovozda yig‘lab aytgan gapi qulog‘imga chalinardi:

– Amaki! Dadam og‘irlashib qoldilar! Yuringlar. Tezroq, ayajon! Tezroq!

Yigirma sakkizinchi bob

UMAR ZAKUNCHI HIKOYASI

Zamon yuki

Gapini qarang! Vijdonsiz deydi! Imonsiz deydi!

O‘zing kimsan? Shu kunlarga tushishimga sen sababchi emasmisan? Seni deb amalimdan ayrildim. Obro‘yimdan ayrildim! Manaman degan kazo-kazolar ko‘rsa tizzasi qaltiraydigan kimsan Umar zakunchi, kimsan ilg‘or kolxozning raisini Oqsoqol-u Duma boshliq chalasavodlar oldiga solib haydadi. Abdurahmonov demaganlar bir qo‘llab giribonimdan bo‘g‘ib, poredovoyga uloqtirishiga sal qoldi. Ochig‘ini aytsam, allaqanday tabibning o‘g‘li-yu sening cho‘loq ering qil-gan ishni men qilolmaymanmi, deb frontga ketishga ham rozi edim. Nima, o‘sha chillashirlardan kam yerim bormi? Avval urushdan qo‘rqsam ham endi

qo'rqmayman! Qo'shinlarimiz Berlinga yo'l oldi. Shuni bo'ynimga olib turganimda yana tog'am o'rtaga tushdi. «Mayli, strogiiy vigovor beraylik, o'rtoq Xo'jaevga o'xshagan aktiv tashkilotchilar front orqasida ham kerak, jangda olingan orden bilan tinch frontda olingan orden bir xil metallardan yasalgan-ku» deb turib oldi. Ko'tarma-yu No'g'ayqo'rg'on tomonlarga o'tsam, senga ko'zim tushadi, ko'zim tushsa, ko'nglim buziladi, deb qisib yurdim-ku! Nega o'zing jilpanglab yonimga boring! «Otchyotlar obkeldim, Soli akadan adresingizni bilib oldim», deb nega iljayding! Men sendan otchyot so'raganmidim?

Bir o'tirishda Soli-so'poq qiroat bilan bayt o'qigani esimda. «Ishq ma'shuq ko'ngli ichra avvalo paydo bo'lur, kuymasa gar sha'm, parvona qachon shaydo bo'lur...» Sen jilva qilib «yonmasang», men parvona bo'larmidim?!

Ering qaytganidan keyin biron marta izlab bormadim. O'sha kuni ro'paramdan chiqib qolmasang – olam guliston edi. Hamma bug'doy o'rib yurganini bilardim. Shuning uchun yo'lni yaqinlay deb razyezdda poyezddan tushib, Qa'niga nalog yig'ish uchun ketayotgandim. Nimagayam oldimdan chiqa qolding. To'g'ri, sog'ingandim. Erkakman. Xo'p, bir-ikkita shirin gap qildim. Qo'lingda bolang bo'lsa, yuzimga tuflab yubormaysanmi! Uch yarim yil qilar ishni qildik, endi yopig'liq qozon yopig'liq, yo'lingdan qolma demaysanmi!.. O'zim ham g'irt ahmoqman-da! Tavbasiga tayanmagan eshshak!..

Bitta xotin deb dezertirday Qo'qonga qochdim. Qochmasam bo'lmasdiyam. Yo cho'loq o'ldirardi, yo anavi Abdurahmonov qamoqqa tiqardi. O'shanda bor, bilganingni qil, deb tashlab ketsam qo'lingdan nima kelardi? Eringni pichog'ida qo'yday so'yilib ketarmiding! Insof qildim. Ustiga-ustak, yaxshi ko'rardim. Baribir yaxshi ko'rardim, sen alvastini! Kela solib ZAGSdan o'tganim yaxshi bo'ldi. Abdurahmonov ham indayolmay qoldi. Xotinim meni sevadi, avvalgi eriga onasi zo'rlab bergan ekan, eri feodal ekan, bir mushtipar ayolni baxtli qilsam, shu gunohmi, deb tu-

rib oldim. Shundayam avvalgi strogiy vigovorni pesh qilib partiyadan o'chirishdi. Chidadim! G'ing desam qamatardiyam! Hammasi – sen tufayli! Tog'am to'g'ri aytgan ekan! Bu dunyoning jannati ham xotin, do'zaxi ham. Dunyoning ishlarini qarangki, zamon o'zgarib, yurt so'rab yurgan, qanchadan-qancha odamlarni kesib yuborgan shundoq tog'amning o'zi kesilib ketdi. Bultur Toshkentga borganimda shu gapni eshitib, qulog'imga ishonmadim. Yo'q, rost ekan. Ko'p ishlarni noto'g'ri ko'rgan, begunoh odamlarni «xalq dushmani» deb qamatgan, degan ayb qo'yishibdi. Achindim, ammo qo'limdan nima kelardi.

Avvallari hayron bo'lardim. Kattadir-kichikdir amaldor zoti borki, yoshini yashab, oshini oshaganidan keyin tinchgina pensiyaga chiqib ketsa bo'lmaydimi, yo o'lishini yo o'tirgan kursisidan olib tashlashlarini kutishidan muddao nimaykin, derdim. Baloni bilarkan, o'shalar! Odam amaldan ketishi bilan obro'siyam bir pul bo'larkan. Amaldan tushdingmi – tamom – ikkinchi sort bo'lib qolarkansan! Kecha tovoningni yalaganlar bugun xuddi o'sha tovoningni yalagan og'zi bilan betingga tupurarkan.

Tog'amni ayblaganlar ham shunaqalar-da! Tog'am kim bo'pti! O'rtoq Stalinni ham kovlayapti, bular! O'zim-chi? Aqalli mol-mulk to'plasam o'larmidim! Ana, Soli so'poqqa baloyam urgani yo'q-ku! To'g'ri, Oqsoqol rais bo'lgan zahoti so'poqni buxgalterlikdan bo'shatdi. Lekin hech kim ost-ustini olib qo'ymadi-ku! Men-chi? Shuncha yil rais bo'lib nima orttirdim! Uyimdan haydab chiqarishdi. O'sha kuni eng ishonganim – Qorako'z ham dumini gajak qilib qochib ketdi. Boshingga ish tushganida asqotadigan narsa pul ekan. Mol-dunyo ekan. Endi men ham anoyi emasman. Ishimni bilib qilaman. Baribir qonunsiz yo'l bilan yulish qo'limdan kelmaydi. Hech bo'lmasa, qonuniy haqimni olay! Akamga sig'indi bo'lib o'tirmay!

Men nima g'amda-yu, bu bolasini ro'kach qiladi. Ahmoq ekanman-da, kolxozga borib. Alamzadalar toshbo'ron qilib yubormaydimi? Tush ko'ribmanmi itvachchasi tirik qolganini! O'libdi deb qo'ya qoldim-

da! Hayronman, joni itday savil ekanmi, tirik qopti. Hov o'shanda – bozorda yurganimda cho'loqqa ergashib kelgan bola o'sha ekan-da! Qayoqdan bilay! Ikkinchi xotinidan bo'lgan debman-da! Yaxshiyam, o'shanda jo'nab qolganim. Shuncha odam o'rtasida pichoq sug'urganini ko'rdim-ku, cho'loqning! So'ysa – so'yardiyam-da! Ahmoqqa zakon bormi!

Baribir jigar-jigar ekan-da. Qiyin paytda akam yonimga kirdi. Urishsayam, so'ksayam boshimni siladi. Seniyam bag'riga oldi-ku, ahmoq xotin! Yangam ham eski alamlarini unutib, odamgarchilik qildi-ku! Nasiba tug'ilganidan keyin senga butunlay bog'lanib qoldim. Bo'lmasa bir yo'la ikkita cho'mich tiqilgan qozondan ovqat yeydigan ahmoq emasdim. Bir yil-yarim yil o'tkazib, orqangga o'xshatibgina bir tepsam-u, onasi o'pmagan qizni olsam dodingni kimga aytarding. Bitta qizim hurmati taqdirga tan berdim. Yana nima deysan! Bir kamim o'sha cho'loqdan bo'lgan haromzadani o'g'il qilib olishim qoluvmidi?! Chuchvarani xom sanabsan! Xohlasang shu, xohlamasang katta ko'cha!

Asli Toshkentga bir o'zini yuborib xato qildim. Qiziq, kimdan bilib keldi, bu yangilikni? Ko'tarmaga borolmaydi. Cho'loq, anavi – Dumaning qiziga uylanganini ataylab aytib qo'yanman. Aytmaganimdayam borolmasdi: o'zining yuzi qora! Bo'lmasa, qayoqdan bildiykin? Ha, Marja opasi aytgan! Odamlargayam hayronsan. Tinchgina aravasini tortib yursa o'ladimi, nima qilardi gap kavlab. Hayronman, nimaga kelishdi ekan bular!.. Bir hafta oldin borganimda hammasini zakonniiy to'g'rilagandim. Marja o'n ming tayyorlab qo'yadigan bo'lgan edi. Bilaman, Marja pulni jon-jon deb bergan. Lekin qani o'sha pul? Qayoqqa tiqdi? Yo anavi haromzadasiga berib keldimi? Shuncha pulni qanday beradi mishiqli bolaga! Cho'loqning oldiga borolmaydi, qora mo'ndi egachisining uyiga borishga yuzi yo'q. Qayoqqa ketdi pul? Mayli, aniqlaymiz. Hammasini aniqlaymiz!

Akam o'lyapti. Yo'ldoshxon bekorga yig'lab kelgani yo'q. Raz jigar bo'lganimdan keyin ma'rakasi mening gardanimdami? Bir emas, ikki bola mening zimmamga

tushadimi! Bo'pti-da. Mayli, Yo'ldoshxon yigit bo'lib qoldi. Bu yil maktabni bitiradi. Anavi tovuqmiya yangam o'g'illarini azza-bazza vrach qilmoqchilar. Do'xtirlikni kim qo'yibdi unga! Vokzalga chiqib, yuk tashisin, pul topsin! Bunisi-ku, yo'lini topib ketadi. Muhabbat-chi? Yosh bola-ku hali! Shu tomonini nega o'ylamaydi, manavi ahmoq. Sandiqqa bosib qo'ygan pachka-pachka chervonim bormi!

Esiz shuncha uringanlarim! Xom sut emgan banda, yetti yil kolxozning obshi qozonidan sho'rva ichibman-a! Nima topsam front uchun debman! Hammaga yomon ko'rinibman. Nachora, u paytda zamon yuki og'ir edi. Hammasi mening zimmamda edi. Anavi shallaqi Robiya, jinni Parcha-ku, mayli. Qilmishiga yarasha tayoq egan. Lekin yosh bolani – tabibning o'g'lini yantoq bilan savalaganim chatoq bo'lgan ekan. Nima zaril edi!

Aslida bungayam mana shu sababchi. Shuning uyiga borganimda ko'rib qolgan o'sha bola. Hech kimga og'iz ochmagan bo'lsayam, alamim bor edi. Ustiga-ustak, mendek odamga qo'l ko'targan anavi pakananing qizi qarab turgandi. Uning ham alamini boladan oldim.

Hozir urarmidim? Yo'q, qo'limdan kelmasdi. O'zimning Nasibamni birov chertib ko'rsin-chi, nima qilarkinman! Xato qildim. Bolani bekor urdim...

Qarang-a! Qo'yib bersam, cho'loqdan bo'lgan bolasiniyam shilq etib bo'ynimga ilmoqchi! Ilasan-a, ilasan!

Yigirma to'qqizinchi bob

**YETTINCHI SINF O'QUVCHISI MUZAFFAR
SHOMURODOV HIKOYASI**

Qo'qonga ketaman!

Beshinchi dars adabiyot edi. O'qituvchimizning aytishiga qaraganda, imtihon yaqinlashgan sayin biz dangasa bo'lib ketayotgan emishmiz. Bu yil yettini bitirib No'g'ayqo'rg'ondagi «katta» maktabga borsak, holimizga maymun yig'larmish. Sakkizinchi sinfga

borgan kunimizda No'g'ayqo'rg'ondagi muallimlar hammamizga «ikki»ni yopishtirib tashlarmish.

...Bugun «dangasligim»ni ko'rsata olmadim. O'qituvchi darsga kirishi bilan buyurdi:

– Shomurodov! Direktorning xonasiga!

Bo'shashib o'rnimdan turdim.

– Nimaga?

– Borganda bilasan.

Mana, ketyapmiz, Sulaymon akaning oldiga. Maktabda bola ko'p. Ammo Sulaymon aka meni hammadan yaxshi taniydi. Birinchidan – bitiruvchi sinfmiz. Ikkinchidan – xonasiga ko'p kirganman. Chaqirtirgandan keyin kiraman-da! Mana, hozir yo'lak oxiridagi eshikni sekin taqillataman. Ichkaridan, «kiring» degan ruxsat bo'ladi. Eshikni ochib, mo'ralayman. Yuvoshgina qilib «mumkinmi» deyman. Sulaymon aka toshbosma bilan marmar siyohdon qo'yilgan stol orqasida o'tirgan bo'ladi.

«Kesinlar! – deydi o'rnidan turib. – Shaxsan o'rtoq Shomurodov tashrif buyuradilar-u, biz yo'q deymizmi?!»

Ana undan keyin boshlanadi. «Qachon odam bo'lasan, bo'yingni qara! Menga bir yarimta kelasan. Otang uylantirsa nevarali bo'ladi-ku, qachon aql kiradi senga, a?!»

Hayronman, bugun direktor chaqiradigan gunoh qilmadim shekilli! E, bo'ldi! Hali katta tanaffusda Abduvalining ukasini yig'latuvdim. Ikkinchi sinfda – Omon bilan o'qiydigan ukasini! Ayb o'zida! Nimaga maktabga velosiped minib keladi! «Bitta minay», desam qizg'andi. Sindirib qo'yarmishman. Hecham sinmaydi-da! Katta velosiped. Yigirma sakkiz! O'zi minolmaydi, oyog'i yetmaydi-yu, qizg'andi. Endi mingandim, qizg'anchiqlik qilib, orqa g'ildiragining qanotini changallab oldi. Velosiped qiyshayib ketib, zanjiri shimimning pochasinini qisib qoldi. O'zim shimimni zanjirdan chiqarolmay yiqilib yotibman-u «to'lab bering, rulini qiyshaytirib qo'ydz» deb yig'laydi. Boplab do'pposlamoqchi edim-u ayadim. Bundan chiqdi, rostdan ham dadasiga chaqqan. «Tuya» satarosh direktorga shikoyat qilgan.

Shimimning pochasiyam ilma-teshik bo'p ketibdi. Qayirib ola qolay. Direktor so'rasa loy bo'lgandi, qaytarib qo'ydim, deyman.

Eshikni odatdagidek sekin taqillatdim. Ichkaridan odatdagidek «kiring» degan ovoz keldi. Odatdagidek eshikni qiya ochib, boshimni suqdim.

– Mumkinmi? – dedim muloyimgina bo'lib.

Sulaymon aka har galgidek stol yonida o'tirgan bo'lsa kerak, deb o'ylagan edim. Yo'q, deraza oldida turgan ekan. Derazadan tushgan nur yo'l-yo'l shoyi ko'ylagini yoritib, ichidagi maykasining tasmasi ko'rinib turibdi. «Kesinlar, o'rtoq Shomurodov, kesinlar! Shundoq kishi tashrif buyuradilar-u...»

Yo'q, bu safar unaqa demadi.

– Kiraver Muzaffar! – dedi xotirjam, hatto mehribon ovozda. Qo'rqib ketdim. Nima balo, bu gal gunohim og'irroq shekilli...

Ikkilanib ichkari kirishim bilan atlas ko'ylak kiygan xotin yugurib yonimga keldi. Burchakda turganini ko'rmabman. Bu qaysi muallima bo'ldi? Atlas ko'ylak kiyadigan o'qituvchimiz yo'q edi shekilli. Xotin o'sha zahoti mahkam quchoqlab oldi. Cho'chib tushdim. Dimog'imga gunafsha hidi urildi. Xotinning iliq, nam lablari peshonamga, yuzlarimga, ko'zimga yopishdi. U meni tinimsiz o'par, unsiz yig'lar edi.

– Muzaffar! – dedi entikib. – O'g'lim!

Tanidim. Gunafsha isidan, iyagidagi xoldan... Qu-log'imga bilaguzuk jarangi eshitilgandek bo'ldi. Ammo bu safar qo'lida bilaguzuk yo'q edi.

– Vuy, bo'yingni qara! Katta yigit bo'p ketibsan-ku! – U yosh to'la ko'zlari bilan jilmayib, tag'in bag'riga bosdi. Negadir o'zimni olib qochmadim. O'shandan keyin uni unutib yuborgan edim. Ammo tushimga kirgandi. Yo'q, tushimda aniq ko'rmaganman-u, lekin... ko'rganman. Keyin yana esimdan chiqib ketgan. Bilmayman. Ishqilib keyin ham ko'rganman...

U meni bag'ridan chiqarmas, yig'lab turib kular edi. Nimagadir ko'nglimga g'ulg'ula tushdi. U esa mahkam quchoqlab olgan, nuqul «voy, bo'yingni qara!» deb takrorlardidi.

– Xo‘sh... – Sulaymon aka tomoq qirdi. – Tanaffus boshlanmasidan gaplashib ola qolinglar. – U eshik tomon yurgan edi, xotin meni qo‘yib yubormay o‘girildi.

– Ketmang! – dedi sekin, ammo jiddiy ohangda. – Shu yerda bo‘lganingiz yaxshi.

Direktor to‘xtab qoldi.

Xotin ixcham sumkachasini shiqillatib ochib, ro‘molcha chiqardi.

Ko‘z yoshlarini artidi. Keyin negadir mening ham yuzimni artib qo‘ydi.

– Muzaffar! – dedi ko‘zimga termilib. – Sen endi katta yigit bo‘lib qolding. Yaqinda yettini bitirasan. Meni bilasan-a?

Indamay, direktorga qaradim.

– Bilasan-ku axir! – Xotinning lablari titrab ketdi. – Esingdan chiqdimi, oldin ham kelgandim-ku! Keyin yana keldim, ko‘p keldim. – U entikdi. – Sen meni ko‘rmasang ham... Men seni... – U Sulaymon akaning betoqat bo‘layotganini sezdi, ovozi tetiklashdi. – O‘g‘lim, – dedi past, bo‘g‘iq ohangda, – quloq sol. Yettinchini bitirganingdan keyin Qo‘qonga borasan, xo‘pmi? Singling bor – Nasiba... Esingdami, oldingi safar ham aytgandim. Nasibachi, oltinchida o‘qiydi. Akam qachon keladilar, deyapti. Shuncha yil dadang bilan turding, endi men bilan turasan, maylimi? – U jilmaydi. – O‘sha yerda o‘ninchini bitirasan. Farg‘onada institut bor. Kirib o‘qiysan, bo‘ptimi?

Direktorning oldida uyali ketdim.

Sulaymon aka katta-katta qadam tashlab u yoqdan-bu yoqqa borib-kelar, negadir asabiylashar, yuzi qizarib ketgan edi.

– Kelishdikmi, Muzaffar! Domlangni oldida va‘da berasan-a?

Negadir yana yuragimga qo‘rquv tushdi. Yuzimni o‘girdim.

– Singlim, – Sulaymon aka ro‘paramizga kelib to‘xtab qoldi, – aytdim-ku, bunaqa ishni sud hal qiladi. Bolani qiynashning nima keragi bor?

– Bilaman! – Xotinning ko‘zlari chaqnab ketdi. Ovozi qat‘iyat bilan jarangladi. – Sudga qatnayverib,

qonun kodekslarini yod qilib yubordim. Yetar! Muzaffar endi yosh bolamas! O'z taqdirini o'zi hal qiladi. Bola nima desa shu!

Yuragimga battar vahima tushdi. «Obketib qolsa-ya! Nima qilaman Qo'qonda!»

Hov o'shanda kelganida Omonni yiqitganim, «o'gay» deb baqirganim, oyim yig'lagani esimga tushib yomon ko'rib ketdim uni.

– Shunaqa deysiz-ku, lekin... – Sulaymon aka negadir qizarib ketdi. – Har qalay bolani tarbiyalagan otasi bor, onasi bor...

– Tarbiyalagan?! – Xotin shaxt bilan direktorga o'girildi. – Ahvolini qarang! Bu ketishda g'irt bezori bo'ladi-ku, bu!

– Nimaga bezori bo'larkan! Ahvoliga nima qipti! Direktorning ham ovozi qat'iylashdi. – Nima qipti ahvoliga! E'tiboringiz uchun aytib qo'yay: Muzaffar sho'x bo'lsayam eng qobiliyatli o'quvchimiz! Xohlasa hamma fandan besh oladi. Teplitsada limon o'stiriyapti.

Alam qilib ketdi! Nimaga meni bezori deydi! Nimaga direktorning oldida uyaltiradi.

Xotinning qo'lidan yulqinib chiqdim-u, eshikni taraqlatib yopgancha yo'lakka otildim. Orqamdan yig'i aralash iltijoli xitob yangradi:

– Muzaffar! To'xta!

Yugurib hovliga chiqdim-da, oynalari oftob nurida yaxlit ko'zgudek yaraqlab yotgan teplitsa oldidan o'tib, o'rikzor tomonga chopdim. Bog' ichiga kirib ketayotganimda yana o'sha iltijo eshitildi:

– Muzaffar! O'g'lim!

Nima uchundir to'xtab qodim. Esladim! Uni tushimda ko'rganman. Hov o'shanda kelib ketganidan keyin uch-to'rt marta tushimga kirgan. Uyg'onib ketib, qo'rqqanman. Hozir ham qo'rqardim. Qochib ketgim kelardi-yu, bir nima to'xtashga majbur qilar edi. O'sha narsa nimaligini bilmasdim.

Orqamdan harsillagan ovoz, shoshqin qadam tovushlari eshitildi:

– Bolam!

Dimog'imga yana gunafsha hidi kirdi. Yig'lagim keldi. Bilmayman, balki gunafsha isi ko'zimni achishtirgandir. Balki uni tushimda ko'rganimdayam yig'lagim kelgani endi esimga tushgandir.

– Bormayman! – dedim yer tepinib. – O'z holimga qo'yasizmi-yo'qmi! Hech qayoqqa bormayman! Tinch qo'yasizmi yo'qmi!

U yuzimga birpas hayratlanib qarab turdi-da, ikki yelkamdan tutgan qo'lini tortib oldi.

– Tushundim! – dedi sekin. – Bo'ldi, Muzaffar, hammasini tushundim. Kechir meni, o'g'lim... – U o'kinch bilan xo'rsindi. Ko'zlariga jiddiyat cho'kib, uzoq qarab qoldi. Ikki ko'zi menda bo'lsa ham chamasi hech nimani ko'rmas, xayoli boshqa yoqda edi. – Muzaffar, – dedi sekin, – sen yosh bolamassan, yaxshi o'qi, xo'pmi! Erta-indin katta bo'lasan. – U negadir jilmaydi. – Maktabniyam bitirasan, – dedi ovozi titrab. – Keyin hammasini tushunasan. O'shanda Qo'qonda onam bor edi, deb so'roqlab borsang, boshim osmonga yetadi. G'ishtko'prik mahallasida turamiz, vokzaldan uzoqmas. Ra'no opaning uyi qaysi desang... Shoshma... – Kiprigiga ilinib qolgan yoshni sidirib tashlab, tag'in sumkasiga qo'l suqdi.

– Bugun qanaqa kunligini bilasanmi?

– Bilmayman! – dedim qo'rslik bilan.

– O'n ikkinchi may. – U yana jilmaydi. – Jinnivoy! – dedi erkalab. – Bugun sening tug'ilgan kuning. O'n to'rt yoshga chiqding, jonim!

Hayron bo'lib, boshimni ko'tardim. To'g'risi, bugun tug'ilgan kunimligini bilmasdim. U yog'ini aytсам, shu paytgacha uyimizda hech kimning tug'ilgan kuni bayram qilingan emas.

U qo'llari qaltirab, sumkachadan to'rt buklog'liq do'ppi chiqardi, yap-yangi! Garmdori gulli!

– Qani, kiyib ko'raylik-chi! – Do'ppini boshimga kiygizdi-da, bir qadam orqaga chekindi. Yuzimga termilib uzoq tomosha qildi. – Qara, lop-loyiq keldi, – dedi kulimsirab.

– Kerakmas! – Qo'lim bilan ushlasam do'ppi kir

bo'lishidan qo'rqib ikki bilagim bilan yecha boshladim. – O'zimga bor.

– Muzaffar! Xafa bo'laman. – U kafti bilan shoshapisha do'ppini qaytadan boshimga bostirdi. – Esingdami, hov anavi gal kelganimda do'pping menda qolib ketgan edi. O'rimga o'rin olib keldim. Boshingdan yechma, xo'pmi?

U do'ppini yana yechib tashlashimdan qo'rqqanday yelkamga qoqdi.

– Boraqol endi...

Nariroqqa borib burilib qarasam, haliyam tikilib turibdi. Shimarilgan pocham oyog'imga urilib g'ashimni keltira boshladi. Pochamni qaytarib tushirayotsam yana chopib tepamga keldi.

– Shiming yirtilib ketibdi-ku! – dedi bosh chayqab. – Ma! Yangi shim ol! – sumkasidan bir changal pul chiqardi. Ancha pul! Cho'ntagimga suqayotganida qo'rqib ketdim.

– Kerakmas. Dadam urishadi, – dedim tipirchilab.

– Dadangga aytmaysan-da! – Shunday dedi-yu, ikkilanib qoldi. Lekin o'sha zahoti pulni cho'ntagimga chuqurroq suqdi. – Shim ol... Men yana kelaman.

Ancha nariga borganda tag'in burilib qaradim. Qaramoqchi emasdim-u o'zimdanda o'zim... qaragim keldi. U jilmayib qo'l siltar, ammo yig'lab yuborgudek lablari titrar edi. Rahmim kelib ketdi. Yana birpas to'xtab turdim-da, sinfxona tomonga yugurdim.

* * *

Yangi do'ppimni qayoqqa qo'yishni bilmasdim. Sinfga kirishdan oldin qaytadan buklab, cho'ntagimga solib oldim. Ikkala cho'ntagim do'ppayib ketdi. Bit-tasida do'ppi, bittasida pul. Adabiyot o'qituvchisi G'afur G'ulomning «Sen yetim emassan» she'rini tushuntirayotgan ekan.

– Tezroq o'tir! – dedi-yu, darsni tushuntirishda davom etdi.

– Shunday qilib, she'rda sovet xalqlarining do'stligi...

– Maza qildingmi? – dedi Abduvali iljayib. – Eshitadiganingni eshitdingmi?

Direktordan so'kish eshitdi, deb suyunyapti. Bekorlarning beshtasini aytibsan! Sulaymon aka urishgani yo'q, qaytaga maqtadi. Faqat shimimning pochasi teshilgani chatoq bo'ldi-da. Hammasiga sening qizg'anchiq ukang aybdor! Yeb qo'ymasdim velosipedini! Mayli, buniyam iloji topildi-ku! Qo'qonda turadigan oyim («oyim» degan so'z xayolimga birinchi marta keldi, o'zim ham hayron bo'ldim) pul tashlab ketdi. Ancha pul! Kerak bo'lsa o'nta shim olaman. Pulni eslashim bilan yig'lab yubormaslik uchun ataylab jilmayib turgan qo'qonlik oyim ko'z oldimga keldi. Yuragim siqildi.

Yangi do'ppini cho'ntagimdan olib, sekin papkaga tiqayotsam, Abduvali ko'rib qoldi.

– Vuy! Qayoqdan olding?! – dedi pichirlab.

– Topib oldim!

– Qaniy? Bitta ko'riy?

– Shomurodov! – O'qituvchi xunob bo'lib baqirdi. – Sen yo'g'ingda sinf suv quygandek edi. Muncha yomonsan-a!

Ana, yana men aybdor bo'ldim! Alam bilan Abduvalining biqiniga tushirib qoldim.

– Shomurodov!.. She'rda urush tufayli yetim qolgan minglab bolalarni o'zbek xalqi bag'riga bosgani...

Do'ppini sekingina papkaga tiqdim.

– Narigi cho'ntagingdagi nima?

O'zi yomon-da, sariqmashak! Kaltak yesayam jim o'tirmaydi. Alam qilsin! Bir ko'rib qo'ysin! Kerak bo'lsa o'zim ham velosiped sotib olaman. «Dinamo» magazinidan! Yozda dadam bilan shaharga tushganimizda ko'rganman! To'ppa-to'g'ri! Shimni nima qilaman. Uyda boshqasi bor! Yaxshisi, velosiped olaman.

Sekin pulni chiqardim.

– Vuy! – Abduvalining ko'zi olayib ketdi. – Qayoqdan olding?

– Nima ishing bor?

– Shomurodov! Hozir sinfdan chiqarib yuboraman!

– Qaniy! – Abduvali o'n so'mlik, besh so'mlik, uch so'mlik pullarni olib pichirlab sanay boshladi. – Uch yuz o'ttiz ikki so'm! – dedi shivirlab. – Nima olmoqchisan?

- Velosiped.
- E, yetmaydi. Velosiped to'rt yuz ellik so'm turadi.
- Unda shim olaman.
- Shomurodov. Chiqib ket sinfdan!

Shuncha pulni Abduvaliga tashlab ketib jinnimanmi! Endi pulga chang solgan edim, baxtinga qo'ng'iroq jiringlab qoldi...

Dars tugashi bilan Abduvali yelimday yopishib oldi. Qayoqqa borsam ketimdan ergashadi. Papkamni ko'tarib, o'rikzorga kirganimizda yana so'radi:

- Qayoqdan olding shuncha pulni?
- Jahlim chiqib ketdi. Nima ishi bor?
- Topib oldim, bo'ldimi!

Abduvali g'alati iljaydi.

- Balki o'g'irlab olgandirsan?

– Nima?! – Jon-ponim chiqib ketdi.

Papkam bilan boshiga solmoqchi edim, sap-sariq kipriklarini pipiratib yalindi.

- Hazillashdim-ku, Muzap?

– Yana shunaqa hazillashsang, bilib qo'y, vey!..

– Rostdan ham velosiped olmoqchimisan? – U gapni boshqa yoqqa burdi.

– O'zing yetmaydi, deyapsan-ku! – dedim xafsalam pir bo'lib.

- Yetmaydi. Yana kamida yuz so'm kerak.

– Unda shim olaman.

– Dadangga nima deysan? Shimniyam topib oldim deysanmi! Do'ppi topib olsang, shim topib olsang... Menga-ku baribir... Dadang o'ldirsa o'zingga qiyin bo'ladi.

Rostdan ham. Bu yog'ini o'ylamabman. Dadam o'ldirib qo'yar xuddi!

- Bo'lmasa nima qilamiz? – dedim ikkilanib.

Abduvali ham nima qilishni bilmas ekan. Ancha o'ylanib qoldi.

– Bo'ldi! – dedi birdan baqirib. – Papiros olamiz. «Belomor!»

- Men chekmayman.

– Haliyam-a? – Abduvali xuddi har kuni papiros chekib yurgan odamdek hayron bo'lib ko'zimga qara-

di. – Maza bo'ladi. Uch yuz o'ttiz ikki so'mga bilasanmi, qancha papiros beradi. Bir pachkasi ikki yarim so'm tursa... Xo'-o'p... – U o'rik soyasiga o'tirib oldi-da, yerga cho'p bilan chizib hisobladi. – Yuz so'mga qirqta, uch yuzga bir yuz yigirmata. Yana o'ntasi yigirma besh so'm... Xo'-o'p... Bir yuz o'ttiz uch pachka bo'larkan. Gugurti bilan!

– Voy-bo'! Shuncha papirosni qayoqqa qo'yamiz!

– Birdaniga olmaymiz-da! – Abduvali jon kuydirib tushuntira ketdi. – Har kuni ikki pachkadan! Bitta senga, bitta menga. Qolgan pulni bekitib qo'lasan. Qani, cho'z besh so'mni!

...O'rikzor orasida Abduvalining kelishini poylab turdim. Ko'nglim g'ash edi. Shunaqa-ku, papiros maza bo'lsa kerak. Dadam har kuni bir pachkadan chekadi-ku!

Abduvali ikki cho'ntagini do'ppaytirib keldi.

– Yur! Gugurt ham oldim, – dedi katta odamlarday ko'z qisib.

O'rikzordan o'tib, avtobus yo'liga chiqdik. Ko'tarma keyingi paytlarda ancha obod bo'lib qolgan. Ko'cha chetida ikki qavatli yangi magazin qurila boshlagan. Yo'lga asfalt yotqizilgan, simyog'ochlar qo'yilgan. Dadamning aytishicha, Oqsoqol buva ariza bera-bera oxiri raislikdan bo'shagandan keyin kolxozdan putur ketganmish. Hatto Ko'tarmaning bir qismi shaharga o'tib ketibdi. Mana bunaqa imoratlar qurilayotgani shundan ekan. Agar shahar shunaqa kengayib ketaversa, bog'rog'lar yo'q bo'lib ketarmish... Bir qavatli bitib, ikkinchisi chala qolgan, ichida yarimta-yurimta pishiq g'ishtlar uyulib yotgan, eshiksiz binoga kirdik. Abduvali papkasini ohak yuqi yopishib yotgan yerga qo'ydi. Ikki cho'ntagidan ikki pachka papiros, gugurt chiqarib, papkasini yoniga tashladi. G'isht uyumlari orasidan butunlarini tanlab, uchtasini taxladi-da, ustiga o'tirdi.

– O'tirmaysanmi! – dedi qovog'ini solib. – Ko'chadan o'tganlar ko'rib qolsa, bilasanmi, nima bo'ladi?

Men ham uchta g'isht topib, ustiga o'tirdim. U papiros qutildan bittasini oldi-da, tirnog'i bilan burchagidan chimchilab ochdi. Qutining tagiga bir chertgan edi, papiros otilib chiqdi.

– Ol, o‘zingnikini! – deb buyurdi.

Men ham papiros qutisini ochdim. Negadir qo‘lim titrab, qutining yelimlab yopishtirilgan qog‘ozi yirtilib ketdi.

– Ko‘rib qo‘y, o‘v! – U papirosni barmog‘i bilan ezg‘iladi. (Dadam ham doim shunaqa qiladi). Keyin bandini chimchilab og‘ziga tiqdi-da, gugurt chizdi. O‘sha zahoti sariq yuzi qizarib ketdi. – Vo! – dedi og‘zidan tutun chiqarib.

Havasim keldi. Gugurt chizib papirosni tutatishim bilan og‘zimga sassiq tutun kirib, o‘xchib yubordim. Ko‘zim achishib yosh chiqib ketdi. Qiziq, dadamdan anqib turadigan tamaki isi bunaqa ko‘nglimni aynitmasdi.

– Jinni! – Abduvali yo‘tala-yo‘tala kula boshladi. – Ichingga tortmaysanmi! O‘shanda maza qilasan-da!

Papirosni nafasim yetganча so‘rgan edim, butun vujudim tarang tortilib, ko‘z o‘ngim jimirlashib ketdi. Qiziq, endi ko‘nglim aynimadi. Boshim g‘uvillab, negadir kulgim kelardi.

– Ana, bo‘ldi! Zo‘rmi!

Papirosni yarim-yorti chekmasimdanoq boshim gir-gir aylana boshladi. Ko‘cha tomondan g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir ovoz kelayotganini eshitib o‘rnimdan turmoqchi bo‘ldim-u yiqilib tushdim. Tagimdagi g‘ishtlar taraq-turuq qilib yerga ag‘darildi.

– Jim! – Abduvali shosha-pisha tepamga keldi. Qutida qolgan papirosni cho‘ntagiga soldi-da, qo‘ltig‘imdan ko‘tardi. – Yur! Odamlar kelyapti.

Havoda suzib borayotganga o‘xshardim. Qadamim engil ko‘chadi-yu, oyog‘im mo‘ljalga tushmaydi. Xuddi tush ko‘rayotgan odamday... Unga sari kulgim qistadi...

Abduvali meni eshigimizdan kirgizib yubordi-yu, o‘zi qochib qoldi. Ayvonda xontaxtaga muk tushib dars tayyorlab o‘tirgan Omon, burnini tortib yalindi:

– Aka! Ona tilimni yozishvoring!

– E, bor-e! – dedim qo‘l siltab. O‘zimning boshim aylanib ketyapti-yu, bu ona tilini gapiradi. Uyda boshqa hech kim yo‘q edi. Bilaman, dadam, oyim ishda... Ikki-uch yil avval MTSlar yopilganida oyim ishdan bo‘sha-

gan edi. Keyin kolxozlarning o'zi traktorli bo'lgan. Oyim har kuni erta ketib, kech qaytadi. Dadam undanam kech keladi...

Papkani ayvonga tashladim-da, uyga kirib, o'zimning sim karavotimga yotib oldim. Ko'zim o'zidan-o'zi yumilib ketar, uyqum kelardi. Negadir isib ketdim. Shimimni yechib, yerga tashladim-da, qaytadan karavotga yotdim. Qusgim keldi. Ko'z oldimda avval papirosning ko'kish tutuni, keyin qo'qonlik oyim paydo bo'ldi. Uxlab qopman.

...Allakim yelkamdan changallab siltadi.

– Tur, badbaxt!

Ko'zimni ochishga ulgurmay karavotdan uchib ketdim. Uy ichi qorong'i edi. Avvaliga hech nimaga tushunolmay garangsib turdim-da, keyin qorong'ida dadamning g'azabdan yonib turgan ko'zlarini ko'rdim.

– Nima bu! Qayoqdan olding?!

Dadamning qo'lida bir nima oqarib ko'rinaradi. Qarasam, boyagi papiros pachkasi. Vahimaga tushib yuragim sirqirab ketdi. O'zimni eshikka urmoqchi edim, dadam bilagimdan ombirdek qisib oldi.

– Nima gap? – Ostonada oyimning sharpasi ko'rindi. U shiq etib chiroqni yoqdi. Qo'li xamir yuqi ekanini payqadim. Chamasi ishdan kelib, xamir qorayotganida shovqinni eshitib uyga kirgan edi.

– Qayoqdan olding? – Dadam g'azab bilan pishqirdi. «Belomor» qutisini burnim tagiga tiqishtirdi. – Rostingni ayt!

– Voy, dadasi, o'zingizniki-yu! – Oyim xamir yuqi qo'li bilan dadamning bilagiga yopishdi. – Nima qilasiz, bolani qo'rqitib? O'zingizniki! Qarang! O'zingiz chekadigan popiris-ku!

Eshikdan Omon mo'raladi.

– O'zimniki? – Dadam bir qo'llab hamon bilagimdan changallagancha ikkinchi qo'lidagi pachkani karavotga tashladi-da, cho'ntagini kavlati. Yarim pachka ezg'ilangan papiros qo'lga ilashib chiqdi. – O'zimniki – mana! – dedi qo'lidagi pachkani zarda bilan yerga uloqtirib. O'sha zahoti karavot ustida yotgan pachkani

yulqib oldi-da, papiros aralash qulochkashlab yuzimga urdi. – Mana senga chekish!

Oyim dod solib dadamga osildi.

– Tuhmat qilmang! – dedi chinqirib. – O‘zingizniki. Ertalab men olib keluvdim. Urmang bolani!

– Nima? – Dadam derazalarni zirillatib hayqirdi. – Sen obkelgan bo‘lsang, buning cho‘ntagida nima qilib yuribdi?! – U bilagimni yanayam qattiqroq qisib, yerga engashdi. – Manavi shuning shimimi axir! Mana shuniki? – U g‘azab bilan shimimni yulqib ko‘tardi. Bir silkitgan edi, shimimning cho‘ntagidan o‘n so‘mlik, besh so‘mlik pullar tushib, namatga sochilib ketdi. Dadam, uxlab yotganimda faqat papirosli cho‘ntagimni kavlagan, pulni ko‘rmagan ekan. Turgan joyida serrayib qotib qoldi.

Oyimning rangi quv o‘chib ketdi. Goh yerda sochilib yotgan pulga, goh dadamga, goh menga qarab lablari titray boshladi. Omon hayron bo‘lib burnini tortib qo‘ydi.

– Qayoqdan olding? – Dadamning mo‘ylovi titray boshladi. – Qayoqdan olding shuncha pulni? – dedi qo‘rquvli past ohangda. Bilagimdan bir siltab o‘ziga yopishtirib qo‘ydi. Dimog‘imga tanish tamaki hidi urildi. Qiziq, negadir yana chekkim keldi.

– Qayoqdan ol-ding? – U shunday baqirdiki, qulog‘im yorilib ketay dedi.

– Qo‘ying, jon dadasi! – Oyim titrab-qaqshab oramizga suqilayotgan edi, dadam tirsagi bilan turti:

– Nari tur! Qayoqdan olding?

– Topib oldim, – dedim yerga qarab.

– Shuncha pulni-ya! Qachon! Soat nechada? Qayerda?

Yana yerga qaradim. Qaysarligim tutib ketdi.

– Aytmayman! – dedim baqirib. – Aytmayman!

– Shunaqami hali! – Dadam yana tarsaki tushirdi. – Mana! – dedi og‘zidan tupuk sachrab. Bir qo‘llab shiminining enli kamarini yecha boshladi.

– Dadasi! – Oyim chumchuqdek chirqillab, dadamning kamar yechayotgan qo‘liga yopishdi. – Urmang! Ikkinchi qilmaydi!

Ostonada mo'ralab turgan Omon yig'lab yubordi.

– Qoch! – Dadam yelkasi bilan oyimni turti. Shirt etib kamarini sug'urib oldi-da, ikki buklab boshim ustida ko'tardi.

– Ayt! – dedi xirillab. – Ichagingni sug'urib olaman, itvachcha!

Ajab, negadir iltijo bilan yig'lab turgan qo'qonlik oyim ko'z oldimga keldi.

– O'g'irladingmi?! – Dadam kamar bilan qarsillatib gardanimga tushirdi.

– Ha! – dedim chinqirib. – O'g'irlab oldim! O'g'irladim!

– A! – Dadamning qisqa, tahdidli hayqirig'i aralash yelkamga yana kamar tushdi. Bu gal shunaqangi zarb bilan urdiki, o'pkam og'zimga tiqilib qolay dedi. – Mana o'g'irlash! Mana!

Oyim chinqirgancha dadamga yopishdi. Omon turgan joyida qichqirib yig'ladi:

– Urmang, dada, urmang!

– Yo'qol! – Dadam qo'lini siltab yuborgan edi, qayishning temir so'qasi oyimning chakkasiga tegdi. Oyim oh chekkancha cho'kkalab qoldi. Ammo o'sha zahoti gandarablab turib, meni quchoqladi. Chakkasidan qon sizib yuziga oqdi.

– Qo'yvoring! – dedi chinqirib. – O'ldirib qo'yasizku, bolani, qo'yvoring!

– O'lsin! Isnod keltiradigan bola kerakmas menga! – Dadamning og'zidan oppoq ko'pik chiqa boshladi. – Ketsin! – dedi ovozi ingichkalashib. – Yo'qolsin! Yo'qol. Qadam bosma uyga!

U qo'limni qo'yib yubordi. Tutqanoq tutgan odamdek ikki qo'li silkina boshladi. Qayish yerga tushdi.

Burnim qonayotganini endi payqadim. Hali yuzimga urganida qonagan ekan-u bilmabman.

– Ketaman! – dedim kaftim bilan burnimni chagallab. – Ketaman! – Qo'qondagi oyimning oldiga ketaman.

Qochmadim. Sekin-sekin kavshandozga bordim-da, eski tuflimni oyog'imga ildim.

– Muzaffar! – Oyim dahshatdan ko‘zi olayib men tomonga otildi. Dadam holsizlanib, yerga o‘tirib qolgan, oyoq-qo‘li baravar qaltirar edi.

Oyim qo‘l cho‘zishi bilan ayvonga, undan hovliga otildim.

– Muzaffar! – Oyimning chinqiroq ovozigiga Omonning yig‘isi qo‘shildi. – Oyi! Dadam yiqilib tushdila, oyi!

Ko‘chaga yugurib chiqdim. Duch kelgan tomonga chopib ketdim. Hali oy chiqmagan, ko‘chalar qorong‘i, jimjit edi. Yolkamning achishib og‘riyotgani, oyog‘im sovqotayotganini payqadim. Mayka-trusida ekanimni endi bildim.

Orqada, ko‘cha boshida oyimning chaqirgani eshitildi:

– Muzaffar-u-u!

Xuddi oyim quvib yetadigandek chopib ketdim. Tuf-
limning ipi tovonimga botib g‘ashimni keltirar, ammo to‘xtagim kelmas, yuragim ko‘kragimdan otilib ketgudek gursillar, chanqagan edim.

«Ketaman! Qo‘qondagi oyimning oldiga ketaman. Oyim urmaydi meni!» Shu gap xayolimga kelishi bilan qo‘qonlik oyimni ham yomon ko‘rib ketdim. Hammasi shuni deb bo‘ldi! Pul bermasa shuncha gap yo‘q edi. Hali dadam do‘ppini ko‘rib qolsa nima qilarkin! Papkada, «Zoologiya» kitobining ichida turibdi. Qo‘qonlik oyim avval kelganida ham janjal bo‘lgandi. Baribir, dadamniyam yomon ko‘raman. Nega uradi? O‘g‘irlab olganim yo‘q-ku!

Bir mahal vahimali shovillashni eshitib to‘xtab qoldim. Alvasti ko‘prikka kep qopman! Qo‘rqqanimdan jonholatda temir yo‘l tomonga yugurib ketdim. Uzoqdan uchta chiroq ko‘rindi. Yaqinlashib kelayotgan poezdning taraqa-turuq ovozi eshitildi. Poyezd tomonga jonim boricha chopdim. Ketaman! Poyezdga osilib bo‘lsayam Qo‘qonga ketaman!

Tor so‘qmoqdan yugurib borarkanman, gullagan na‘matakalar yuz-ko‘zimga tikan sanchar, ammo og‘riq sezmasdim... Tezroq chopsam poyezdga yetib oladigandek edim. Baribir yetolmadim. Temir yo‘lga yaqin

borganimda poyezd allaqachon uzoqlashib ketgan edi. Yana Bo'rijarning vahimali guvullashi eshitildi. Sha-g'al ko'tarmadan chiqib borayotib, ikki marta munkib ketdim.

Temir yo'l ustiga chiqqanimda «Qora ammam» esimga tushdi. «Ammamnikiga boraman! «Qora ammam» yaxshi!»

Shovillab turgan qamishzordan o'tayotganimda battar qo'rqdim. Xuddi qamishlar orasidan birov pusib chiqib kelayotganday... Aksiga olib nuqul botinkam sassiq balchiqqa botadi. Qurbaqalar tinimsiz vaqillaydi. Allaqayerda boyqush «huv-huv» qiladi. Nihoyat No'g'ayqo'rg'on chiroqlari ko'rindi.

Pastak eshikni taqillataverib, qo'lim og'rib ketdi. Nihoyat ichkaridan «Qora ammam»ning harsillab nafas olishi eshitildi.

– Kimdi? – dedi yaqin kelib.

– Oching, Qora – amma, menman, – dedim hovliqib.

Ammam, shosha-pisha zanjirni tushirdi. Qorong'i bo'lsayam qo'rqib ketganini, nuqul yoqasini ochib ko'ksiga tuflayotganini ko'rdim. Ichidagi «odamchalar» bor ovozda hushtak chala boshladi.

– Voy, voy o'lmasam! – dedi hansirab. – Voy sho'rim! Gapirsang-chi, nima bo'ldi?

– O'zim! – dedim iljayib. – Qo'rqmang, amma!

Ichkariga olib kirganidan keyin battar vahimaga tushdi.

– Nima bo'ldi? – dedi yana chirqillab. – Kim o'ldi?

Qarasam, ammam o'zini tashlab yuboradigan. Darrov o'zimni bosib oldim. To'g'ri-da, yigit bo'lib qolganmiz biz ham!

– O'zim... – dedim yupatib. – Sizni ko'rgani keldim.

– Yo'q, bir gap bo'lgan. Aytaqolsang-chi, bolam! Shuncha ko'rgiligim yetmasmidi... – U yig'lamoqchi bo'ldi-yu, ko'ziga yosh kelmadi. Nafasi qaytib jimib qoldi.

– O'zim, Qora amma, o'zim, – dedim baqirib. – Hammalari yaxshi.

Ammam sal-pal hushiga keldi. Lekin baribir ishonmadi. Ko'rinishim ham haligidaqa bo'lsa kerak-da. Maykachan, trusichan... Oyog'im loy.

U shosha-pisha obdastada suv olib keldi. O'zim yuvaman desam ham ko'nmasdan, suv quyib turdi.

– Muzlab ketibsan-ku, – dedi nafasi g'ijillab. – Tinchlikmi?

Yana iljaydim.

– Tinchlik dedim-ku, amma, qo'rqmang.

U anchadan keyin biroz o'ziga keldi.

– Vahimang qurmasin, ko'paygur! – dedi ko'rpaga o'rab boshimga yostiq qo'yarkan. – O'takamni o'n bo'lding-ku! – Shunday deb kosa ko'targanicha mun-killab oshxonaga ketdi.

Iliqqina ko'rpaga o'ralib yotarkanman, uyni tomosha qildim. Hammasi o'sha-o'sha. Shiftda qaldirg'och ini. Ikkita qaldirg'och boshini chiqarib mo'ralayapti. Hali tuxum qo'ymagan, tuxumi bo'lsa bezovtalanib qolardi. Pashsha o'tirib dog' bo'lib ketgan olmadek lampochka atrofida chivinlar g'ujg'on uradi. Devordagi mixlarga behilar ilib qo'yilgan. Qishda kelganimda ko'p edi. Endi sakkizta qopti. Devorda ikkita surat. Salla o'ragan bobom bilan do'ppi kiygan Kimsan akam. Qiziq, hozir Kimsan akamdek yigitlar soch qo'yadi. Kimsan akamda yo'q... Katta bo'lsam menam soch qo'yaman, polboks! Ammam inqillab yarim kosa moshkichiri isitib kirdi. Ustida ko'kpiyoziyam bor.

Qornim och edi. Moshkichiri shirin ekan.

– Yuragimni yording-a, bolam – dedi ammam, ich-ichiga tushib ketgan chakaklarini arang qimirlatib. – Bugun bormoqchi edim, quvvatim yetmadi. Cholim bilan Kimsanim tushimga kiribdi. Ikkoviyam bezovta bo'lib yuribdi, qizimga bir gap bo'ldi, devdim. Rostini ayt. Nima bo'ldi o'zi?

Negadir qo'qonlik oyim yana ko'z oldimga keldi. Yig'lab turgani, yalingani... Keyin... dadamdan kaltak yeganim...

– Amma! Bir narsa so'rasam rostini aytasizmi?

Xuddi katta odamlardek salmoqlab gapirdim shekilli, ammam hayron bo'lib ko'zimga qaradi.

– So‘ra, bolam, so‘ray qol, – dedi shosha-pisha. – Qachon seni aldabman.

– Mening oyim kim?

Ammam og‘zini ochib angrayib qoldi. Ichidagi «odamchalar» g‘ijirlab hushtak chala boshladi.

– Kim? – dedim ko‘ziga tikilib.

– Nimaydi?

– Qo‘qonga ketaman. Menga pul bering.

Ammam, javob berish o‘rniga, negadir yuzini burdi. Boshidan ro‘molini sidirib oldi-da, tizzasiga tashlab, qing‘ir-qiyshiq barmoqlari bilan g‘ijimlay boshladi. Yuzi yanayam qorayib ketgandek bo‘ldi. Qiziq, bultur kech kuzda dadam bilan kolxoz poliziga borganimiz esimga tushdi. O‘shanda, ustiga qirov tushgan qora tarvuzlarni ko‘rgan edim. Ammamning boshi xuddi o‘shanaqa – qirov tushgan tarvuzga o‘xshab ketdi: sochi oppoq, yuzi qop-qora...

Chuqur jimlik cho‘kdi. Shiftdagi lampochka atrofida parvonalar unsiz aylanadi. Inidan mo‘ralagan ikkita qaldirg‘och «viyt-viyt» deb bir-birini nari-beri suradi. Hovli tomonda mushuk beozor miyovladi. Behi isi aralash isiriq hidi anqiydi. Devordan Kimsan akamning surati kulimsirab qarab turibdi. Husan buvam qovog‘ini solayotganga o‘xshaydi. Ammam gapirmaydi. Faqat tomog‘i hushtak chalib, entikib-entikib nafas oladi.

Bir mahal u qaddini rosladi. Nursiz ko‘zlarini ko‘zimga qadadi.

– Ovqatingni yemading-ku! – dedi bo‘sh kosaga imo qilib. Keyin negadir jilmaydi.

– Kimsanim keladi! – dedi to‘satdan. – Agar bu dunyoda insof degan narsa bor bo‘lsa – keladi! Cholim rahmatli o‘g‘lini ko‘rmadi. Urush bitganiga qancha bo‘ldi... – U xol-xol dog‘ bosgan barmoqlarini titrab sanadi. Uzoq sanadi. – Boshlanganiga o‘n to‘qqiz yil bo‘pti. Bitganiga o‘n besh yil... – U xo‘rsindi. – Kimsanim o‘n to‘qqizga qadam qo‘ygan edi. Hali qirqbeshgayam kirmabdi. – U yana jilmaydi. Chakaklari tirishib, ko‘zida nur paydo bo‘ldi. – Kimsan akang kelishi bilan to‘y qilamiz. Kelinnikiga to‘yni sen oborasan,

xo'pmi! Qo'y etaklab borasan. Senga to'n kiygizishadi. Quda tomon to'n kiygizib, belingga qiyiqcha bog'laydi...

Ammam qiziq. Men nimani so'rayapman-u u nima deyapti? Ammamning harsillab nafas olgancha bir ohangda gapirishi ta'sir qildimi, charchagan ekanmanmi, lampochka atrofida muttasil aylanayotgan parvonalariga tikilib yotib uxlab qopman...

Ko'zimni ochsam, xontaxta oldida «Qora ammam» bilan oyim sekin-sekin gaplashib, choy ichib o'tirishibdi. Oyim peshanabog'ini pastroq tang'ib olibdi. Chakkasiga paxta qo'yib bog'lagan shekilli, o'sha joyi do'ppayib turibdi. Qimirlagan edim, yelkam achishib og'ridi. Kecha dadamdan kaltak yeganim, Qo'qonga qochib ketishim kerakligi esimga tushib, qovog'imni solib oldim.

– Maktabingga kech qolding-ku, Muzaffar, – dedi oyim hech nima bo'lmagandek xotirjam ohangda. – Kechasi bilan qidirmagan joyim qolmadi. Odamni bunaqa qo'rqitmagin-da, o'g'lim...

– Kesa buvisinikiga kepti, sanga nima! – «Qora ammam» oyimni jerkib berdi. – Eringga aytib qo'y, xohlasa har kuni keladi. Turaqol, bolam, shirchoying sovib qoladi.

Qovog'-tumshug'im osilib hovliga tushib ketayotganimda «qora ammam»ning gapini eshitib qoldim.

– Shomurodga aytib qo'y: shu bolaga yana bir marta qo'l ko'tarsa, u dunyo-yu bu dunyo norozi bo'laman. Cholim tushimga kirib yuribdi. «Bir kun yo'g'imga ahvoling shu-da», deb chirqillayapti. Buvangni arvohidan qo'rqmaysanlarmi!

Oyim ovozini pasaytirib, bir nima dedi, eshitmadim.

O'ttizinchi bob

RA'NO HIKOYASI

Shirin yolg'ondan achchiq haqiqat afzal

Bo'ldi! Hammasi tamom bo'ldi! Yetar axir! Odam bironi aldashi mumkin. Ammo o'zingni o'zing alday olmaysan. Osmondagi yulduzni uzib olib bo'lmaydi!

...Meni shu kunlarga anavi benomus Zakunchi soldi. Nachora! Yaxshilikning ham, yomonlikning ham poyoni bo'ladi. O'sha – uch yil oldingi g'alvadan keyin u ham aldovga chek qo'ydi. «O'ng quloq, chap qulog'ing bilan eshitib qo'y, bolangni olib kelmayman, xohlasang Nasibani tashlagin-da, ketaver», dedi. Ishi ko'pmish, akasining yillik ma'rakasini o'tkazishi kerakmish. Nimayam derdim? Rost, hammasi to'g'ri. Qaynog'am otalik qildi. Unga emas, menga! Shu odam bo'lmasa, Oysara opam bo'lmasa, bu imonsiz meni yerdan chiqqan zamburug'dek bir bosib, pachaqlab tashlardi. Tiriklarni hurmatlagan odam, marhumlarni izzat qiladi. Azboroyi qaynog'am haqqi, azbaroyi Oysara opam hurmati hamma ma'rakalarda turib berdim. Oysara, bechora Oysara opam, o'z g'ami o'ziga yetmagandek, mening qo'ltig'imga kirdi.

«Xursand bo'ling, jon singlim! O'g'lingiz tirik ekan, shunga shukr qiling. Ot aylanib, qozig'ini topadi. Bir kuni sizni o'zi topib keladi...» Doim shunaqa deydi.

Anavi murtadga qolsa, Yo'ldoshxonni vokzalda hammol qilib ishlatib, pulini kissaga urmoqchi edi. Qo'ymadim. Oysara opaga yalinib-yolvordim. «Institutga kirsin, men yordam beraman», dedim. Yo'q. Yo'ldoshxonni men o'qishga olib kirmadim, o'z kuchi bilan o'qiyapti. Biroq men ham aldovga aldov bilan javob qildim. Bor bud-shudim – uzugim, bilaguzugim, ziraklarim – hammasini sotdim! Hammasini! Topgan pulimni Oysara opaga berdim.

Bu bo'lsa, haliyam Marja opadan unadigan o'n mingni kutib yuribdi. To'g'ri, menga ishonmay, Toshkentga necha marta qatnadi. Qo'ldan nima kelardi?.. U bilgan qonunlarni men ham suv qilib ichib yubordim. Qonun shunaqa ekanki, bir odam ikkinchi bir odamning uyida besh yil yashasa-yu, yer solig'i, straxovanie solig'i, yana qator-qator soliqlarni to'lasa, uy o'shaning nomiga o'tarkan.

Marja opaga tayinladim. «Da'vogardan boshqa hech kim bilan gaplashmaysiz», dedim. Zakunchi – odamgarchilik qonunidan bo'lak jamiki kodekslarni biladigan Umar aka endi menga yalinishga tushdi. Yalin! Yali-

naver! Hammasi allaqachon hal bo'lgan. Hamma hujjatlarga qo'l qo'yib bo'lganman!

Na ilojki, qo'l qo'yib bo'lmaydigan qonunlar ham bor ekan! Kirmagan ko'cham qoldimi o'zi? Bosh suqmagan eshigim-chi? Hamma joyda, hamma advokatura-yu sudda bir xil gap aytishdi.

«Bola sal katta bo'lsin, o'zi hal qiladi».

Men go'l emasman. Ovsar emasman. Qaysi eshikka kirmay, erkakdir-xotindir bir xil savol beradi:

«Ketib qolganingizda bola necha yoshda edi?»

Yosh nima qiladi! Uch oylik edi-ku, to'qson kunlik! Tutilib-tutilib shuni aytishim bilan yelkasini qisadi. «Xo'sh, nima deysiz? Bolada nima haqiz bor?»

Ajab dunyo ekan! Eng bebaho narsangizni yo'qotib qo'ysangiz-u, uni birovning qo'lida ko'rib, shu meniki deb da'vo qilsangiz, hukmni ajrim qiladiganlar esa, «o'n to'rt yildan beri qayoqda edingiz», desa nima qilasiz? Axir men o'shandan keyin ham keldim! Ko'p keldim! Mol poylagan o'g'ridek o'z bolamni chekka-chekkadan ko'rib, yig'lab-yig'lab ketdim.

Bugun-chi! Bugun hamma umidim puchga chiqdi. Avval boshi anavi zahar-zaqqum direktor, «bu ishni sud hal qiladi», deb jerkib berdi. Ustiga-ustak «ota-onasi bor» deb Shomurod bilan anavi Robiyani eslatdi. Nazarimda Muzaffar direktor oldida uyalib ketgandek bo'ldi. O'z bolam, mendan – onasidan nomus qildi. Keyin... «tinch qo'ying», deb yer tepindi. Qiziq, bolamning ko'zlarida g'azab emas, nafrat emas, allaqanday begona bir tuyg'uni ko'rdim. Yo'q! Muzaffar hech qachon menga o'g'il bo'lmaydi! Qo'qonga obqochib ketadi, deb qo'rqdi. Xo'p, aldab-suldab obordim ham deylik, anavi otalik qiladimi bolamga! Bag'riga bosadimi! Yo'q! Ikki dunyoda ham! Shuni bilarkanman, nega yolg'on gapirdim? Nasiba seni sog'inyapti, akam qachon keladi, deb kutyapti, dedim-mi? Nima keragi bor edi shu gapning. Axir qizim uni ko'rarga ko'zi yo'q-ku! Umar aka Nasibani allaqachon Muzaffarga qirpichoq qilib qayrab qo'ygan-ku! Nima qilaman ikkala bolani baravar qiynab!

...Bolam... Muzaffarim yigit bo'p qopti. Mo'ylovi sabza uribdi. Ovozi do'rillab qolibdi... Vijdonsiz cho'loq! Aqalli shu kuni yasantirib qo'ysa o'ladimi! Anavi shallaqi Robiya jillaqursa tug'ilgan kunida bolaga yirtiq shim kiygizishga uyalmaydimi? Zolimmi, ablahmi, otasi Nasibaga har yili tug'ilgan kuni bosh-oyoq sarpo qiladi-ku! O'g'lim bo'lsa pochasi ilma-teshik shim kiyib yuribdi. Tug'ilgan kunni qayoqdan biladi qishloqi Robiya! Bolaning ko'nglini olish xayoliga keladimi to'pori cho'loqning! Yaxshiyam cho'ntagiga pul solib qo'yganim. Bilib qo'ylaring! Bolaning ko'nglini senlar lolmasang, xursand qiladigan onasi bor!

Qayerga kelib qoldim! Ajab, o'zimizning ko'cha-ku! Yangi mahalla. Tor ko'cha. Paxsadevorlar orqasidan dovuchcha tukkan o'riklar mo'ralab turibdi.

Qiziq, inson umri shunaqa tez o'tarkanmi? Kechagina emasmidi, shu ko'chada qo'shni qizaloqlar bilan sopalak o'ynaganimiz! Kechagina emasmidi shu ko'chadan Beshbolaboyning hovlisida ochilgan maktabga yugurganimiz! Devorga osilib dovuchcha o'g'irlaganimiz, kechagina emasmidi?

Keyin Tekstilga borganim... Shomurod aka bilan tanishganim... O'shandayam birovdan uyalgandek yerga qarab turardi. Mana shu sada tagigacha kuzatib kelardida, «Ra'noxon, boraqoling, qo'ni-qo'shnilar gap qilib yurmasin», deb xayrlashardi. Hatto qo'limdan ham ush-lamasdi.

Keyin karnay-surnay bilan tor ko'chani to'latib kelishdi. Qirq birinchi yilning Birinchi may bayramiga mening bayramim qo'shilib ketdi. Urush... Qor tushgan kuni oyog'iga osilib yig'laganim... Undan keyin Umar aka... To'shakka yopishgan onam...

Oyoq-qo'li shishib ketgan onam o'layotganida qiziq gap aytdi. Negadir menga emas, o'zbekchani binoyidek tushunib qolgan Marja opaga qarab gapirdi.

«Marja, qizim! Taomilda qaynonani kuyov yerga qo'yadi. Shomurodim urushda. Vasiyatim shuki, kafaningma nomahram erkakning qo'li tegmasin!»

Umar aka o'shandayam xiyonat qildi. Onamning ruhini oyoqosti qilib, xuddi kuyovdek, yo'q, xo'jalikning

otasidek onamni o'z oyog'i bilan tepkilab ko'mdi. Ota emish! O'z «qizi»ni yo'ldan urgan «ota»!

Tamom bo'ldi! Bugun hammasi tamom bo'ldi! Nima qilay? Osmondagi yulduzdek uzoqlab ketgan o'g'lim deb qizimdan – Nasibadan ayrilishim kerakmi? Bugun Muzaffar ochiq-oydan aytdi-ku! «Tinch qo'ying», dedi-ku! Javobimni oldim, bo'ldi-da! Mingta shirin yolg'ondan bitta achchiq haqiqat afzal! Oysara opam to'g'ri aytadi: Muzaffar erta-indin esini tanib oladi. Ot aylanib qozig'ini topadi. Endi kelmayman. Bo'ldi! Nima qilaman bolani qiynab? Ammo xat yozib turaman. Kerak bo'lsa Shomurod akaga, Robiyaga yozaman. Insofi bordir axir! Odam-ku, ular ham. Tushunar ahvolimga...

O'ttiz birinchi bob

O'NINCHI SINF O'QUVCHISI MUZAFFAR SHOMURODOV HIKOYASI

«Minavar, Minavar – cho'ntagingda nima bor?»

Ertaga yo Sherzod o'ladi, yo men. Bo'lar ish bo'ldi! O'lsam o'laman, ammo yo'l berish yo'q. Bilaman Sherzod suzishga usta. Nima qilgandayam No'g'ay-qo'rg'onda katta bo'lgan. Bo'rijarda ko'p cho'milgan. Men suzishni bilmayman. Garovning sharti yomon: Alvasti ko'prikdan Bo'rijarga kalla tashlab, suzib chiqish! Kalla tashlash u yoqda tursin, ko'prikka yaqin borgan odamning vahmi keladi. Suv ko'prik tagiga kirib ketayotganida ayniqsa quturib oqadi. Narigi tomoni esa – sayoz. Qamishzor chetida to'nkalar, allaqayoqdan keltirib tashlangan beton plitalar, temir armaturalar qalashib yotadi. Ko'prik tagiga kirib ketdingmi – tamom. Tirik qolmaysan. Suv kuch bilan oborib uradi-yu parcha-parcha qilib tashlaydi. Uch yildirki, shu yo'ldan No'g'ayqo'rg'ondagi «katta maktab»ga qatnayman. Bultur bahorda suv o'rtasida armaturaga sanchilib, shishib o'lib yotgan qo'yni ko'rganman. Xuddi sixga tortilgandek qornidan armaturaga ilinib, sasib ketgan.

O'zim kichkinaligimdan Alvasti ko'prikni yomon ko'rardim. Dadam bilan «Qora ammam»nikiga kelganimda ham, keyin ham shu yerdan o'tishga yuragim bezillardi. Mana, oxiri...

E, nima bo'lsa-bo'ldi! Sherzodga yutqazgandan ko'ra o'lganim yaxshi! Shu bolani sakkizinchi sinfga kelganimdayoq yomon ko'rib qolganman. Olifta, soat taqadi. Dadam rayonoda ishlaydi, deb maqtanadi-da! Balki Minavar bo'lmaganida Sherzod bilan urishib qolmasmidik... Yo'q, Sherzod oraga suqilmasa Minavar meniki bo'lardi. Hammasiga shu aybdor. Ahmoq ekanman-da, Minavarni shu oliftaga berib qo'yib! Olishaman, oxirigacha olishaman.

Aslida, boshqa sinfdoshlarim bilan Chilonzordagi maktabga o'tsam bo'larkan. Yettini bitirganimizda Sulaymon aka aytdi: «Ko'tarmaning bir qismi shaharga o'tdi. Chilonzordagi maktabga borib, o'nni o'sha yerda bitiringlar», dedi-yu, dadam bilan oyim ko'nishmadi. «Har kuni avtobusga osilib yurasanmi, No'g'ayqo'rg'on o'zimizniki, vaqt-bevaqt maktabingga kirib turamiz», deyishdi. O'ttizta boladan faqat ikki kishi – men bilan Abduvali No'g'ayqo'rg'onga qatnaydigan bo'ldik. Yo'l yaqin. Faqat qish kunlari maktabdan qaytayotganda kech bo'lib ketadi. Abduvali ikkalamiz kelamiz. Kelamizda, Alvasti ko'prikka yaqinlashganda jimib qolamiz. Ammam aytib bergan vahimali gaplar esimga tushadi. Ko'prik tagidan alvasti chiqib kelayotganga o'xshayveradi. Bilaman, Abduvaliyam o'sha tomonga qarab-qarab qo'yadi. Lekin ikkalamiz ham qo'r-qayotganimizni sezdirmaymiz. Yong'oqzor ichiga kirgandan keyin hech nima bo'lmaganday, yana gaplashib ketaveramiz: u yog'i o'zimizniki! Yo'q, keyinchalik ko'nikib ketdik. Qorong'idayam Alvasti ko'prikdan bemaol o'tadigan bo'ldik.

Yangi maktabga kelganimizda sakkizinchi sinfdagi bolalar ham, qizlar ham bizga ola qarab yurishdi. Nima qilsayam ular ko'pchilik, yetti yil birga o'qigan. Bizlar ikki kishi. Orqadagi partaga o'tirib olganmiz. Hech kim biz bilan gaplashmaydijam, o'ynamaydijam.

O'shanda «Qora ammam»nikida ko'rgan bir voqea esimga tushgan edi. Bir kuni ammamnikiga borsam, katakdagi o'ntacha tovuq bitta chipor tovuqni o'rtaga olib cho'qilayapti. «Kisht-kisht» deb haydasam ham parvo qilmaydi. Ammamdand nimaga bunaqa deb so'rasam, tushuntirgan edi. «Bitta minorka tovuq obkeluvdim, bu o'lat tekkurlar begonasirab chiqishtirmayapti».

Yangi maktabda Abduvali ikkalamiz o'sha chipor tovuqning ahvoliga tushib qoldik. O'zimning maktabimda bo'lsam-ku, kuzir bo'lib yurardim! Bu yerda g'ing desam, hammasi birgalashib talaydi. Tag'in ko'pchiligi – bolalar. Faqat sakkizta qiz bor. Hammasi qora-qura qizlar. Undan ko'ra o'zimizning ko'tarmalik qizlar chiroyli edi. Bular tappiga o'xshaydimi-yey... Faqat Minavar boshqacha. Yuzi oppoqqina, kipriklari uzun-uzun, ko'zlari odamga «bir nima demoqchimisan» deganday qarab turadi. Hamma qizlar sochini maydalab o'rib, uchiga pilik taqib yursa, Minavar chiroyli qilib turmaklab oladi. Birinchi partada o'tiradi. O'qituvchilar qaysi fandand so'ramasin, sekin qo'lini ko'tarib, doskaga chiqadi. Nima qilsayam shaharlik-da!

Qo'zivoy degan bola bor. O'zi mushtdek, kallasi xumdek. Doim Sherzodga ergashib yuradi: har narsadand xabardor, o'lgudek mahmadana. O'sha Qo'zivoyning aytishiga qaraganda Minavar avval shaharlik emas ekan. No'g'ayqo'rg'ondand turisharkan. Uchinchi sinfdand o'qiyotganidand uy ichi bilan Tekstil tomonga ko'chib ketishgan ekan. Minavar maktabni o'zgartirgisi kelmay o'sha yerdand qatnab o'qirkan. O'ziyam boshqa qizlarga o'xshamaydi. Kam gapiradi. Tanaffus paytidand sinfdand chiqmay kitob o'qiydi. O'zi eng chiroyli qiz-ku, oti xunuk: Minavar! Shuyam ot bo'ldi-yu!

Yangi maktabdand eski qiliqlarimni tashlashga majbur bo'ldim. Lekin bir umr mum tishlab yurolmayman-ku! Bultur, to'qqizinchisinf dand o'qiyotganimdand xuddi o'sha Minavargand tegajog'liq qilgim keldi. Katta tanaffusdand qarasam, birinchi partadand o'tirib olib, kitob o'qiyapti.

– Nima qilyapsand, o'v? – dedim nima qilayotganini bilib tursam ham ataylab.

Minavar hayron bo'lgandek, uzun kipriklarini pirpiratdi.

– Kitob o'qiyapman, – dedi sekin.

– Qanaqa kitob?

– Fizika...

– E, boshingga urasanmi, fizikani!

– Eng kerakli fan-ku! Kosmosga «Layka»ni uchirgan olimlar – fizik-da!

Gapini qarang. «Layka» uchirilganini men bilmaydigandek! Ensam qotdi.

– Nima, olim bo'lmoqchimisan, senam?

Minavar yelkasini qisdi.

– Olim bo'lish shartmi?

– Sendan ikki dunyodayam olim chiqmaydi! – dedim jig'iga tegish uchun. – Bilasanmi, sen kimsan: Minavarsan! Minavar, Minavar, cho'ntagingda nima bor? Sichqonning ini bor, kalamushning dumi bor! Dumingni bitta ko'rsat!

Minavarning oppoq yuzi qizarib ketdi. Yig'lab yuborishini kutib turgan edim, yig'lamadi.

– Birinchidan Minavarmas, Munavvar, – dedi uzun kipriklarini pirpiratib, Munavvar – nurli degani. Ikkinchidan... – U bir zum ko'zimga qarab turdi-da, negadir alamliroq kuldi. – Yosh bolaga o'xshaysan-a, Muzaffar! Undan ko'ra yaxshiroq o'qisang-chi!

Agar u yig'lab yuborganida yoki o'zimizning maktabdagi qizlarga o'xshab, «E, basharang qursin!» deb qarg'aganida maza qilgan bo'lardim. Xuddi kattalardek dashnom berishidan esankirab qoldim.

– Xo'v, kelgindi. Nima deb birovning boshini aylantiryapsan!

Qulog'im tagida do'rillagan ovozdan cho'chib tushdim. Qarasam, shundoq yonimda Sherzod turibdi. Sochi silliq taralgan, qo'lida soat. Nazarimda Minavar kulib qo'ygandek bo'ldi. Cho'chib ketganim o'zimga alam qildi.

– Xo'jayinmisan! – dedim bo'ynimni cho'zib.

O'zimni o'nlaguncha bo'lmay tumshug'imga musht tushdi. «Voy olifta-yey, hali shundan kaltak yeymanmi? Urish mana bunaqa bo'ladi», dedim-da, tasir-tusur qilib

solib ketdim. Sherzodning silliq taralgan sochi yuziga yoyilib tushib, ko'zini to'sib qo'ydi. Qorniga tushgan musht zarbidan obkashdek ikki bukilib qoldi. O'sha zahoti sinfga o'ntacha bola yopirilib kirdi. Qo'li yetgani urdi, qo'li yetmagani tepdi.

Minavarning partasiga suyanib olgancha duch kelganini musht bilan «siylab» turgan edim, oradan Qo'zivoy otilib chiqdi.

– Qoch hammang! – dedi bolalarni nari-beri itarib. Partaga suyangancha nafasimni rostlab oldim. Sherzod doska oldida kafti bilan yuzini changallagancha cho'n-qayib o'tirar, to'xtovsiz ixrar edi.

Qo'zivoy hammani har yoqqa surib, uch-to'rt qadam orqaga – Sherzod cho'nqayib o'tirgan doska tomonga tisarildi. Nima qilmoqchi bu gurji-pakana! Qo'lidani nima kelardi?

– Qo'yinglar, bo'ldi! – Minavar rangi quv o'chgancha o'rnidan turib ketdi. – Bor joyingga! Borgin senam, – dedi menga iltimos qilib. Ko'zimga shunday ma'noli qaradiki, o'zimning «xo'rozligim»dan o'zim uyalib ketdim. Endi burilib ketmoqchi edim, eshik oldida turgan Abduvali baqirib qoldi.

– Muzaffar!

Yarq etib o'girilib qaraganimni bilaman, Qo'zivoy suzong'ich qo'chqorday boshini ichiga tortib uchib keldi-da, ikki qadam qolganida qaddini rostlab, to'satdan sapchidi. Yuzim jiq etganini sal-pal eshitdim-u, ko'zim qorong'ilashib Minavarning ustiga chalqanchasiga yiqildim. Sinfga qahqaha portladi. Minavarning tizzasiga o'tirib qolgan, oyog'im osmondan bo'lib, parta ustida tipirlar, Minavar «tursang-chi», deb yelkamga turtar, burnim achishar, bolalar bo'lsa maza qilib kuli-shar edi. Abduvali yugurib kelib qo'limdan tortdi. Parta ustidan oshib yerga tushdim. Boshim aylanar, yuzim achishar edi.

– Burning qonayapti. – Abduvali cho'ntagidan ro'molcha olib uzatdi. Qo'zivoyga tashlangan edim, bolalar orasiga o'zini urdi.

Qo'ng'iroq jiringladi. Bolalar pildirpis bo'lib, joy-joyiga o'tirishdi. Sherzod ham qornini changallagancha

o'z partasiga ketdi. Abduvali qo'ltig'imdan olib orqa partaga sudrarkan, Minavarga qaradim. U tirsaklarini partaga tiragancha, kafti bilan yuzini to'sib o'tirardi.

O'sha kuni darsdan chiqsam, Abduvali ikkalamizni maktab darvozasi oldida yigirmatacha bola kutib turibdi.

Sherzod yonimga kelayotgan edi, papkamni Abduvaliga uzatdim.

– Bitta-bitta! – dedim musht tugib. Yaxshi bo'ldi! Sulayib qolgunimcha olishaman. Boshqalari mayli-ku, ayniqsa yuzimga kalla urib, burnimni qonatgan anavi Qo'zivoyni xumdek boshini yormaguncha tinchimayman.

Abduvali ikki qo'lida ikkita papka bilan Sherzodning yo'lini to'sdi.

– Qo'yinglar, nima keragi bor?

Sherzod qo'li bilan Abduvalini nari surdi.

– Qo'rqma, – dedi do'rillab. – Urmayman. – U kafti bilan sochini tekislab menga yuzma-yuz keldi. – Seniyam urmaymiz. Ammo bitta gapni aytib qo'yay. Ikkinchi Minavarga gapirsang poyezd tagiga tiqib yuboraman. Minavar meniki. Tushundingmi! – U birpas ko'zini olaytirib turdi-da, yerga tupurib, tuflisini uchi bilan tupugini ezg'iladi. – Senga o'xshagan savodsizni boshiga uradimi, teng-tengi bilan-da!

Bolalar, biri iljayib, biri so'kinib tarqalishdi. Darvoza oldida Abduvali ikkalamiz qoldik.

– Yur, ketdik! – Abduvali papkamni qo'limga tutqazdi. – Olishma shular bilan, o'rtoq.

Mushtlashsak yengil tortardim. Sherzodning «savodsiz» degani ayniqsa alam qilardi.

...Men savodsizmi! Ko'ramiz kim savodli bo'lishini. Sendan yaxshiroq o'qimasam odammasman!

To'g'ri, birinchi yarim yillikni uch aralash bitirdim. Lekin uchinchi chorakdan nuqul besh ola boshladim. O'qituvchilar u yoqda tursin, dadam bilan oyim ham mendek ahmoqqa qayoqdan insof kirganini bilisholmas, quyilgani rost bo'lsin, deb quvonishar edi. Ammam bo'lsa «sho'x bola tez quyiladi demabmidim, Robi, ko'rasan hali o'g'ling yurt so'raydigan ministr bo'ladi», deb karomat qilardi.

Bir kuni qiziq bo'ldi. Gagarin kosmosga uchganidan keyin bir haftalar o'tganida Minavar sochiga olma guli-ning shoxchasini qistirib keldi. Fizika darsida doskaga chiqib javob berdi. Javob beryapti-yu, ikki ko'zi menda! To'g'risi, men doskaga chiqsam, Minavardan, u doskaga chiqsa mendan ko'z uzmay javob beradigan bo'lib qolganmiz. Negadir Minavarga qarab gapirsam, aqlim yaxshi ishlayotganga o'xshaydi. Bundan chiqdi unikiyam shunaqa ekan-da! Uyam mendan ko'z uzmaydi-ku!

Minavar darslikdagi gaplarni aytib bo'ldi-da, negadir «o'tlab ketdi».

– Inson kosmosga chiqdi! – dedi hamon mendan ko'z uzmay. – Endi urush bo'lmaydi. Otalar o'lmaydi, onalar kasal bo'lmaydi.

Shu yildan darsga kirgan yosh o'qituvchi qiz avvaliga hayron bo'lib qoldi. Keyin tez-tez bosh silkib tasdiqladi.

– To'g'ri aytasan. Rahmat. Besh...

Oltinchi dars bitganidan keyin qarasam hamma turib ketyapti-yu, Minavar joyidan qimirlamayapti. Boshqa kunlari avtobusdan qolib ketmaslik uchun hammadan oldin ko'chaga yugurardi. Men ham ataylab papkamni imillab yig'ishtira boshladim.

– Ketdikmi? – dedi Abduvali tirsagi bilan turtib.

– Bor, ishingni qil! – Bir jerkingan edim, Abduvali hayron bo'lib, kitob-daftarini papkasiga tiqdi-da, o'rni-dan turdi.

– Poylab turaymi?!

– Yo'lni o'zim bilaman! – dedim to'ng'illab. – Ketaver!

Sinfda ikki-uchta qora qiz qolgan, hamma bolalar, Sherzod bilan Qo'zivoy ham chiqib ketishgan edi. Bilaman, baribir Sherzod poylab turadi. Minavarning chiqishini kutadi. Shu qilganiga Minavar bilan chiqaman. Bir ko'rib qo'ysin!

Ana, Minavar kitoblarini bitta-bitta papkasiga so-l-yapti. Qora qizlar ham bir-birlari bilan ma'nodor ko'z urishtirib olishdi-da, chiqib ketishdi. Sekin-sekin yurib Minavarning oldiga bordim. Gapiray desam, hech nima

esimga kelmaydi, tepasida serrayib turdim-turdim-da, so'radim.

– Sen... kosmonavt bo'lmoqchimisani, Minavar?

Negadir ovozim titrab chiqdi. Minavar kuldi. Uzun kipriklari piri-pirab ketdi.

– Mendan kosmonavt chiqmaydi, – dedi sekin.

Kulganidan ancha dadil tortdim.

– Nega chiqmas ekan? Fizikani yaxshi bilasan-ku!

– O'tir, bir narsa ko'rsataman! – Minavar parta chetiga surilib, joy berdi.

Beixtiyor papkamni parta ustiga qo'yib, yoniga o'tirdim. Dimog'imga olma gulining hidi urildi.

– Mana. – U papkasini ochib, muqovasiga gazeta o'ralgan allaqanday ruscha kitobni oldi-da, o'rtasini ochdi. – O'qi!

Yaqin surilgan edim... Tirsagim uning ko'ksiga tegib ketdi. Tok urgandek seskanib tushdim. Qo'limni tortib oldim. Ko'zlarim kitobda-yu, hech baloni o'qiy olmasdim. Negadir vujudim tarang tortilib ketgan, tirsagimni yana ko'targim kelardi.

– Eynshteyn aytgan ekan, – dedi u kulimsirab. – Mabodo uchinchi jahon urushi bo'lsa, qanaqa qurol ishlatilishini bilmayman-u, ammo to'rtinchi jahon urushida kamon bilan toshbolta ishlatiladi! Bilasanmi, bu nima degani?

Hech baloga tushunmadim. Negadir tomog'im qurib ketgan, vujudimdan o't chiqib ketayotganga o'xshar edi. Sekin qarasam, ko'zimga tikilib turibdi. Birdan uning ham yuziga qon yugurganini, qisqa-qisqa nafas olayotganini sezdim.

– Uxlamadingmi? – dedim boshqa gap topolmay.

– Nimaga?

– Ko'zingni tagi ko'karibdi...

– Dadamning yetti yilligini o'tkazdik, – dedi sekin. – To'rtinchida o'qiyotganimda o'lganlar... Gap bundamas. – U negadir jilmaydi. Yana yuzi qizardi. – O'zim... kasalman. Porogim bor. Shuning uchun mendan kosmonavt chiqmaydi.

– Nima u? – dedim qo'rqib.

– Tug‘ma porok. Dilim o‘ynaydi... – U kipriklarini pirpiratib kulimsiradi. – Shuning uchun mendan kosmonavt chiqmaydi. Men... Do‘xtir bo‘lmoqchiman. Juda bo‘lmasa farmatsevt. Yurak porogini tuzatadigan dori topaman... O‘qimading-ku! – U yana yonimga yaqin surildi. – Mana! Eynshteyn aytganki...

Tirsagim tag‘in ko‘kragiga tegdi. Ko‘z o‘ngim qorong‘ilashib, badanim jimirlab ketdi. Nima qilayotganimni o‘zim ham bilmay, shart etib, yelkasiga qo‘l tashladim.

– Minavar... Munavvar!

U sapchib o‘rnidan turib ketdi.

– Voy jinni!

Kitobni shosha-pisha papkasiga tiqdi-yu, chopib chiqib ketdi.

Anchagacha o‘tirgan joyimdan turolmadim. Yuragim gursillab urar, Munavvarning «voy jinni» degani qu-log‘im ostida jaranglar, tizzalarim qaltirar edi. Nima, xafa bo‘lib aytdimi, erkalanibmi!

Hovliga chiqqanimdan keyingina Sherzod o‘rtoqlari bilan yo‘limni poylab turgan bo‘lishi kerak, degan xayol miyamga keldi. Poylasa poylayversin! Menga desa ming kishi bo‘lmaydimi? Qo‘rqmayman! Munavvarni hech kimga bermayman.

Qiziq, yo‘limni to‘shimadi...

...O‘sha kuni g‘alati tush ko‘rdim. Umrin bino bo‘lib, birinchi marta rangli tush ko‘rdim! Kattakon shaftolizormish. Shaftolilar pushtirang gullab yotgan-mish. «Shaftoli gullab bo‘lgandi-ku», deb o‘ylarmishman. Bir mahal shaftolizor orasidan Munavvar chiqib kepti. Sochiga olma guli taqib olganmish. Egnida shaftoli guliga o‘shash pushtirang ko‘ylak. «Kechayam olma guli taqib kelgandi», dermishman. Oldiga yugurib boribmand, yelkasiga qo‘l tashlabman. Munavvar hayron bo‘lib ko‘zimga qarabdi. Uzun, chiroyli kipriklari pirpirab ketibdi. «Men seni yaxshi ko‘raman, Munavvar!» debman, baqirib. U negadir yig‘lab yuboribdi. «Keting, siz yomon-siz», debdi. «Voy, jinni. Meni nega sizlaysan», desam... g‘oyib bo‘lib qopti.

Uyg‘onib ketdim. Vujudimda huzurbaxsh bir hor-g‘inlik sezardim.

...O'shandan keyin anchagacha undan uyalib yurdim. Xuddi tushimda ko'rgan voqeani uyam sezib qoladigandek. Faqat... bitta baxt bor men uchun! Har kuni qo'l berishib ko'rishaman. Qo'lini siqayotganimda tag'in tok urgandek a'zoyi badanim jimirlab ketadi. To'g'ri, bir marta yurak yutib, anchadan beri o'ylab yurgan gapimni aytdim.

– Munavvar, uylaring tekstilga yaqin-a?

– Ha! – dedi u kulimsirab. – Nimaydi?

– O'sha yerda kino ham bor-a?

Munavvar indamay bosh silkidi.

– Kinoga tushamizmi? – Shunday dedim-u o'zim qo'rqib ketdim. Urishib beradi, arazlaydi, deb o'ylagan edim. Yo'q, urishmadi. Lekin qat'iy bosh chayqadi.

– Muzaffar, – dedi sekin, – yana shunaqa desang xafa bo'laman.

Shu yil qishda bir hafta yomon qiynaldim. Qishki kanikuldan keyin Sherzod maqtanib qoldi.

– Indiyaskiy kino ko'rdim. Zo'r ekan!

– Bitta o'zing tushib nima qilarding, – dedi Qo'zi-voy, mitti ko'zlarini yiltirab, – aysang bizam tushardik. Sherzod kuldi.

– Seni boshimga uramanmi, Minavar bilan tushdim. – Sherzod ko'zimga tikilib turib iljaydi. – Rosa yig'ladi. Qizlar shunaqa-da, kino ko'rsayam yig'laydi.

O'tirgan joyimga mixlanib qoldim. Rangim devor bo'lib ketganini o'zim ham sezib turardim.

Shunaqa ekan-da, Munavvar! Menga bunaqa deydi-da, u bilan... kinoma-kino yuradi... Ertasidan ko'rishmay qo'ydim. Uning hayron bo'lib qarab turganini ko'rsam, g'ashim kelar, kechalari uxlo olmay chiqardim. Bir haftadan keyin yo'lakda o'zi oldimga keldi.

– Nima bo'ldi, kasalmisan? – dedi sekin. Uzun kipriklari titrab ketdi.

– Kino yaxshi ekanmi? – dedim g'azab bilan. – Yana tushdilaringmi?

Munavvar ko'zimga tikilib turdi-turdi-da, lablari pipirab pichirladi.

– Qizlar aytsa ishonmovdim, rost ekan-da! – Shunday dedi-yu, sinf tomonga yugurdi. Beixtiyor men

ham ergashdim. U sinfga otilib kirdi-da, doska oldida Qo'zivoy bilan gaplashib turgan Sherzodning yoniga bordi. Qulochkashlab yuziga tarsaki tushirdi.

Sherzodning rangi quv o'chib ketdi.

– Ha! – dedi do'rillab. – Nima qildim senga!

– Agar yana shunaqa tuhmat qilsang... – Munavvar, partaga o'tirdi-yu, yuzini kafti bilan yashirib, unsiz yig'lab yubordi. Sherzod nima qilishini bilmay serrayib turib qolgan, Qo'zivoy goh menga, goh Munavvarga alang-jalang qarar, men nima qilishimni bilmay tal-movsirab turardim.

Munavvarning boshini silab yupatgim kelar, ammo uyalardim.

...Bugun Sherzod bilan yana urishdik. Yo'q, urishmadigu, lekin... Baribir shunaqa bo'lishi kerak edi. Bir haftadan keyin imtihonlar boshlanadi. Bir oydan keyin hammamiz har yoqqa tarqalib ketamiz. Bilaman, Munavvar bilan Sherzod medal olishadi. Mening to'rtlarim bor. Mayli, menga medal kerakmas. Munavvardan ayrilib qolishdan qo'rqaman. Qaniydi. Munavvar ham, men ham o'qishni bitirolmay qolsagu yanagi yil tag'in birga o'qisak. Iloji yo'q-da.

Shunday qilib janjalni Sherzodning o'zi boshladi. Adabiyotdan konsultatsiya bo'lishi kerak edi.

Sinfga kirishim bilan eng avval Munavvarni qidir-dim. Yo'q, kelmabdi. Orqaroqda Sherzod, Qo'zivoy, yana besh-oltita bola, maktab formasi o'rniga atlas ko'ylak kiyib olgan uch-to'rtta qiz o'tiribdi. Bilaman, Munavvar konsultatsiyaga ko'pincha kelmaydi. Kelmasayam darsni yaxshi biladi. Lekin gap bundamas, kun qizigan sayin yuragi bezovta bo'ladi. O'zi aytgan, «yozda dilim yomon o'ynaydi», degan. Shuni o'ylab ko'nglim g'ash tortdi.

Kutib o'tiribmiz-o'tiribmiz, muallima opadan darak yo'q. Oxiri Sherzod o'qituvchilar xonasiga borib, gap topib keldi.

– Konsultatsiya bo'lmas ekan: Aziza opaning bolasi sariq bo'pqopti. Mustaqil shug'ullanamiz.

Maktabda o'tirib mustaqil shug'ullanish kimga yoqadi! Birovning qulupnayi bor, birovning pillasi... Besh-olti

bola bilan ikkita qiz qoldi: doim Munavvarga ergashib yuradigan qora qizlar.

Sherzod o'qituvchi o'tiradigan stulga cho'kdi-da, soatiga qaradi.

– O'n ikki bo'lyapti. Xo'sh, nima qilamiz?

Hech kim churq etmadi.

– Bo'lmasa bir narsani aniqlab olaylik! – U katalardek salmoqlab gap boshladi. – Maqsadsiz yashash – hayvonlik! Kim qaysi kasbni tanlaganini bilib olsak. Sen – u o'rtaroqdagi partada iljayib o'tirgan Qo'zivoydan so'radi, – kim bo'lmoqchisan?

– Shofyor! – Qo'zivoy partani nog'ora qilib chilib qo'ydi. – Taksi haydayman. Keyin, pul yig'ib sobstvenniy «Moskvich» olaman! Taksichining puli ko'p bo'ladi!

– Sen-chi, Hojiya?

Qora qizlardan biri ikkilanibroq javob qildi:

– Bog'cha mudiri!

– To'g'ri! – Sherzod iljaydi. – O'zingam qahramon ona bo'lmaguncha qo'ymaysan! Senga bog'cha durust.

– E, o'le!

– Sen-chi, Shoyi?

Yana bir qora qiz – Shoiri bijillab tashladi:

– Xo'jayinmisan? Necha pullik ishing bor?! O'zing kim bo'lmoqchisan?

– Menmi? – Sherzod o'ychan qiyofada boshini quyi soldi. – Harbiy akademiyada o'qib, kosmonavt bo'lmoqchi edim. – U negadir menga qarab iljaydi. – Aynadim! – dedi afsus-nadomat bilan bosh chayqab. – Endi farmaga kiranman.

– Uzumga bo'ying yetmagandan keyin puf sassiq ekan-da. – Shoiri tag'in bijir-bijir qildi. – Hali sizni kosmonavtlikka olamiz dedi-yu, noz qildingiz. Ko'nglingizni ko'chasidan o'rgildim!

– Gap bo'yim yetish-yetmasligida emas! – Sherzod qovog'ini soldi. – Xohlasam bemaol kosmonavt bo'lar-dim. Minavar farmaga kirmoqchi. Demak, menam aptekachi bo'lishim kerak.

Qora qizlar bir-biriga ma'noli qarab olishdi. O'zaro shivir-shivir qilib chiqib ketishdi.

Sherzod ularning ketidan labini buribroq kulimsiragan ko'yi qarab qoldi. Sinfxonaga sukunat cho'kdi. Ochiq derazalardan tinkani quritadigan issiq shamol kirib turar, hovlidagi qiyoq gullar isi bo'r hidiga aralashib dimoqqa urilardi.

– Xo'sh, o'rtoq Shomurodov, siz kim bo'lmoqchisiz? – Sherzod kinoya bilan menga qaradi.

Hamon partani chertib o'tirgan Qo'zivoy hirlingladi:

– Kosmonavt bo'ladi. O'zi aytgan.

Shoshilmay o'rnimdan turdim. Yonimda o'tirgan Abduvali bilagimdan ushlagan edi, siltab tashladim.

– Xo'sh, o'rtoq Rustamov! – dedim Sherzodning ko'ziga chaqchayib. – Agar rayonoda ishlaydigan dadangiz ruxsat bersalar apteka mudiri bo'laman. Munavvar bilan birga ishlaymiz. Manavi malayingni, – qo'limni bigiz qilib Qo'zivoyini ko'rsatdim, – o'zinga shofyor qilib olaman. Ishdan keyin Munavvar bilan meni uyimga oborib qo'yadi.

Sherzod bilan Qo'zivoy ham, boshqa bolalar ham angrayib qolishdi. Oraga tarang sukunat cho'kdi.

– Minavar ko'nmasa-chi! – Sherzod sekin-sekin yurib yaqin kela boshadi.

– Birinchidan, Minavar emas, Munavvar! – dedim unga ro'para bo'lib. – Ikkinchidan, ko'nadi. Ko'nmasa ko'ndiramiz.

– Shunaqami? – Sherzod qo'l ko'tarishga ulgurmadi. Qo'zivoy uchib kelib uni qornidan quchoqlab oldi. Qarasam, bu yoqdan Abduvali mening qo'limga yopish-yapti.

– Yigitcha gap bo'lsin! Yigitcha ish qilaylik! – Qo'zivoy goh Sherzodga, goh menga qarab bidilladi. – Biron narsadan bas boylashiylar. Nima keragi bor janjalni. Minavar bitta – senlar ikkita! Garovda kim yutsa, Minavar o'shaniki bo'ladi, tamom! – U to'g'rimi, degandek atrofga olazarak qaradi. Janjalga aralashmay joyida o'tirgan bolalar ma'qullab, bosh silkishdi.

Sherzod qo'lini siltab tortib, Qo'zivoyga o'dag'ayladi:

– Qanaqa garov?

– Menga baribir! – Qo‘zivoyni mitti ko‘zlari quvlik bilan yondi. – Senam o‘rtog‘imsan, Muzaffar ham... Qachongacha bitta qiz deb dushman bo‘lib yurasanlar. Orani ochiq qilish kerak-da!

– Gapingni ayt! – Ikki qo‘llab bilagimdan ushlab olgan Abduvalini siltab, Qo‘zivoyni o‘dag‘ayladim. – Nima demoqchisan?

– Nima derdim? Ish halol bo‘lsin, deyman-da! – Qo‘zivoyni bir zum o‘ylanib turdi-da, yuzi yorishdi. – Bitta yo‘li bor! Alvasti ko‘prikdan kalla tashlash! Kim qoyil qilsa – Minavar o‘shaniki! Ana, yigitcha gap!

– O‘v, yerkana! – Abduvalining sap-sariq yuzi jahldan qizarib ketdi. Qo‘zivoyni yoqasiga yopishdi. – O‘ldirmoqchimisani?! Muzaffar suzishni bilmasligini bilib ataylab qilyapsan.

– E, qoch-e. – Qo‘zivoyni orqaga chekindi. – Menga baribir dedim-ku! Sherzod ham o‘rtog‘im, Muzaffar ham. Nima, yigit kishiyam suzishni bilmaydimi! Bo‘l-masa, «viyt» etib qochsin-da yo‘lni bo‘shatsin!

Qani endi bir ursam-u xumday boshini ikki palla qilib tashlasam!

– Bo‘pti! – dedim g‘azabdan titrab. – Qachon?

– Mana bu – yigitcha gap bo‘ldi! – Qo‘zivoyni Abduvaliga o‘shqirdi: – Nima qilasan erkaklarning ishiga aralashib! Qo‘lingdan kelsa ana, Muzaffarga sekundlik qil. Men Sherzod tomonidaman. Sen nima deysan, og‘ayni! – Qo‘zivoyni Sherzodga sadoqat bilan termildi. – Rozimisani?

– Bo‘pti. Gap bitta! – Sherzod qo‘lini cho‘zdi. – Yigit bo‘lsang, tashla qo‘lni!

– Mana! – Men ham qo‘limni cho‘zdim. – Qachon?

– Ertaga soat o‘n bir-u nol-nolda! Kelmagan – xotin! Abduvali qo‘limga yopishdi.

– Ko‘nma! Bular kelishib olgan! – dedi baqirib.

– Ana! – Qo‘zivoyni iljaydi. – Shunaqa-da! Erkakchasiga gaplashishga kelganda kurk tovuqday pusib qolasanlar-u tag‘in...

– Qoch! – Abduvalini siltab tashlab, Sherzodning kaftiga urdim. – Gap bitta!

– Ahmoq! Eshshak! – Abduvali alam bilan chiyilladi. – Bular hammasi bir bo‘lib seni o‘ldirmoqchi, tushundingmi!

Tushundim nima-yu tushunmadim nima?.. Munavvarni mana shu olib berib qo‘ygandan ko‘ra...

Kutilmaganda sinf eshigi taraqlab ochildi. Shoiri ostonada turib bijir-bijir qildi:

– O‘llaring-a! Shu gapni Minavar eshitsa, ikkalangniyam rosa mazax qiladi.

– E, bor! – Qo‘zivoy mitti ko‘zini olaytirdi. – Nega shpiyonlik qilasan?

– Senga gapni kim qo‘yibdi, kallaxum! – Shoiri burini qiyshaytirib, eshikni yopdi.

Hammamiz «yaxshilik bilan» uy-uyga tarqaldik.

Ana, uch qadam oldinda Abduvali ketyapti. Boshini yerdan ko‘tarmaydi, xafa... Yong‘oqzorga kirganimizda to‘xtab qoldi.

– O‘v, jinni! – dedi to‘satdan jazavasi tutib. – Sherzod suzishga usta. Sen o‘lib ketasan. Bitta qiz deb o‘lib ketasan, ahmoq!

«Bitta qiz?» Munavvar shunchaki «bitta qiz»mi?

– Menga qara, Abduvali! – dedim sovuq ishonch bilan. – Ertaga sen bormay qo‘ya qol. O‘zim boraman!

– Tfu, hayvon! – U papkasini salanglatganicha tez-tez yurib yong‘oqzor orasiga kirib ketdi.

...Uyga yaqin kelib qolganimda velosiped ruliga qora xo‘jalik sumkasi ilib olgan Omon uchradi. Indamay, o‘tib ketmoqchi edim, ro‘paramga kelib to‘xtadi.

– Shakarga ketyapman, aka. Oyim qulupnay murabbo qilarkanlar. Dadam sizni so‘radilar.

Endi shunisi yetmay turuvdi! Dadam ishdan bunaqa erta kelmasdi-ku!

Hayhaylashimga qaramay, ukam velosipedini g‘irillatgancha jo‘nadi. Hovliga kirishim bilan dadamga ko‘zim tushdi. U ayvon peshida oyog‘ini uzatib o‘tirar, oldida ikkita tog‘ora bor edi. Ikkalasidayam qulupnay. Bittasidagi qulupnaylarni donalab oladi-da, dumini yulib, ikkinchi tog‘oraga tashlaydi.

– Keldingmi? – dedi o‘rnidan turib. Qizarib ketgan barmoqlari bilan yonida yotgan papirosni oldi. Che-

kayotganida g'ashim keldi. O'shanda «maza qilib» kaltak yeganimdan beri papirosni ko'rsam ko'nglim ag'dariladi.

– Bu yoqqa yur, o'g'lim! – U oqsoqlanib uyga kirib ketdi.

Dadam mehribonchilik qila boshladimi, demak bir gap bor. Nima balo bo'ldi tag'in!

Ayvonga yetgunimcha dadam oqsoqlanib uydan chiqib keldi. Qo'lida allaqanday qog'oz.

– O'tir, qorning ochgandir, – dedi yanayam mehribonroq alpozda.

Hayron bo'lib ayvondagi xontaxta yoniga cho'kkaladim.

– Qulupnay yeysanmi? – Dadam oqsoq oyog'ini cho'zib sholchaga o'tirdi. Hamon bir qo'lida qog'oz tutgancha, ikkinchi qo'li bilan bandi yulingan qulupnaylardan yirik-yirigini saralab, xontaxta ustidagi likopchaga soldi. – Ol, o'g'lim! Hozir oying keladi. Osh qilamiz. Biir, qo'lbola palov qilib beray senga!

Boshimni ko'tarib qarasam kulib turibdi.

– Bugun sening bayraming ekan, o'g'lim. Bilmabmizam. Birpasda o'n yettini urib qo'yibsan, giroy! – Dadam qo'lidagi qog'ozni uzatdi. – O'qib ko'r-chi.

Qog'oz tepasida, «telegramma» degan bosma harflarni o'qidim. Keyin mashinkada yozilgan ruscha so'zlarga ko'zim tushdi. «Muzaffar, o'g'lim! O'n yetti yoshing muborak bo'lsin! Baxtli bo'l. Onang, singling...» Oxirida yana bir iltimos bor edi. «Maktabni bitirganingdan keyin vaqt topsang, Qo'qonga bir kelib ket. Iltimos...» «Qo'qon» degan so'zni o'qiganimdan keyingina telegrammani oyim yuborganini tushundim. Bundan chiqdi bugun o'n ikkinchi may ekan-da! Qiziq, dadam bilan oyimning esiga kelmagan narsani qo'qonlik oyim unutmabdi. Shuni o'ylashim bilan uch yil ilgari yettinchini bitirayotganimda ham qo'qonlik oyim tug'ilgan kunim bilan tabriklagani, pul bergani, dadamdan kaltak yeb Qo'qonga qochib ketmoqchi bo'lganim esimga tushdi. Qiziq, o'sha janjaldan keyin dadam bilan oyim hech nima bo'lmagandek indamay qo'ya qolishgan, o'zim ham Qo'qonga qochib ketish

niyatidan qaytgan edim. Qo‘qonlik oyim o‘sha kuni aytgan va‘dasini bajardi. «Endi bezovta qilmayman», degan edi, rostdan ham boshqa kelmadi. Mana, uch yil o‘tib, telegramma yuboribdi. Bundan chiqdi dadam hammasidan xabardor ekan-da! Hayron bo‘lib qaragam, dadam hamon qulupnay saralayapti. Jahli chiqayotgani yo‘q.

– Qaysi institutga kirmoqchisan? – dedi to‘satdan. Shu paytgacha so‘ramagan dadam nega birdan qiziqib qoldi?

– Farmaga! – dedim hamon qog‘ozni ushlagancha.

– Nima u, uchuvchilikka o‘rgatadigan o‘qishmi?

Dadam to‘g‘ri aytyapti. Oyim, «o‘nni bitirib kim bo‘lmoqchisan», deb so‘raganida: «Ukraina tomonda uchuvchilikka o‘qitadigan institut bor, o‘shanga ketaman», degan edim.

– Yo‘q, – dedim telegrammani xontaxtaga qo‘yib. – Aptekachi bo‘lmoqchiman.

– Aptekachi? – Dadam hayratlanib yuzimga qaradi. – Dori sotasanmi?

Rostini aytсам, farma degani nimaligini o‘zim ham tuzuk-quruq bilmayman. Ammo rostki, Munavvar o‘sha institutga kiradimi, demak menam kiranman. Ayniqsa bugungi garovdan keyin...

– Shunaqa shekilli, – dedim dudmal qilib. – Dori tayyorlashgayam o‘rgatarkan. Buyrak og‘rig‘iga, yurak o‘ynog‘iga...

– Yaxshi! – dadam ma‘qullab bosh silkidi. – Shoyad onang bechoraniyam buyragi tuzalib ketsa. – U birdan jiddiy tortdi. Xontaxta ustida yotgan, qizarib ketgan sochiqqa qo‘lini artdi-da, tag‘in papiros chekdi.

– Muzaffar! – dedi quyuq mo‘ylovi ostidan tutun burqsitib. – Endi sen yosh bolamassan. Yaqinda student bo‘lasan... Nimaydi? «Farmami?» O‘shanga kirasan. Endi sendan bekitadigan joyi yo‘q... Shu... Qo‘qondayam onang bor...

Indamay yerga qarab o‘tiraverdim.

– Mayli, o‘tgan ishga salavot. – Dadam qo‘l siltdi. – Ona – baribir ona-da! Ko‘rgisi keladi. Diyoringga to‘ygisi keladi... Mabodo nasibang qo‘shilib, institutga

kirib olsang, bir borib ko'rib kelgin, xo'pmi? U bechorayam bir g'arib...

Ajab! Jahli chiqsa hech kimni tanimaydigan dadam shumi! Nimaga birdan muloyim bo'lib qoldi?

Umuman, dadam bugun juda «ochilib» ketdi.

– Xafa bo'lmaysan, o'g'lim, – dedi meni yosh boladek erkalab. – O'n yetti yoshga kirib, yigit bo'pqop-san-u bir martayam tug'ilgan kuningni o'tkazmabmiz. Bunaqa narsalarga bizning aqlimiz yetmasa... Qo'yaver, endi har yili bayram qilamiz.

Chindan ham dadam o'z qo'li bilan osh damladi. Haqiqiy qovurma palov! Hatto osh oldidan bir piyola aroq ham ichib oldi. Darrov kayf bo'lib qoldi.

– Gap shu, Robi! – dedi shang'illab. – Bugundan boshlab Muzaffarning tug'ilgan kunini har yili bayram qilamiz. Omonnikiniyam. To'g'rimi? – U ukamga qaragan edi, osh yeb o'tirgan Omon iljaydi.

– O'rtoqlarimniyam chaqiraman!

– Ana, o'rtoqlariniyam chaqiradi. – Dadam mo'ylovini silab oyimga yuzlandi. – Robi! – dedi to'satdan. – O'g'ling institutga kirib olganidan keyin Qo'qonga borib keladi. U bechorayam ona-da!

Oyim bilan Omon yarq etib goh menga, goh dadamga qarab qolishdi. Omon hayron, oyimning qovog'i tushib ketgan edi. Dadamning kayfi bo'lsa ham, oyimdagi o'zgarishni sezdi.

– Etni tirnoqdan ayirmoqchimisan! – dedi battar shang'illab. – Boradi! Men aytdimmi, boradi!

«Bayramim» o'zimga tatimadi. Chiroqni o'chirdim-u, anchagacha uxlo olmay yotdim. Ayvondan dadamning xo'rillatib choy ichgani, oyim tovoq-qoshiqlarni sharaqlatib yig'ishtirayotgani eshilib turdi.

– Opam salom aytdilar, – dedi dadam bir mahal.

– Voy, yaxshi yurgan ekanlarmi? – Oyimning ovozsiz afsusga o'xshash ohang bor edi. – Ancha bo'lib qoldi, borolmadim ham.

– Yaxshi... – Dadam bir zum sukut saqlab turdi-da, qo'shib qo'ydi. – Oqsoqoldan ham bir xabar olay deb kirsam, Abzidan xat kepti. Toyirjon o'qib berdi.

Oyim hech nimani tushunmadi shekilli, so'radi.

– Kim?

– Abzi! – dedi dadam qandaydir tantanavor ohangda. – Rashid abzi bor edi-ku! Qozondan xat yozibdi. Hammaga salom aytibdi.

– Voy bechora! – Oyim shodon xitob qildi. – Tirik ekanmi?

– Yurganmish. Butun No'g'ayqo'rg'onga salom aytibdi.

– O'ziyam topilmas odam edi-da! – dedi oyim mamnun bo'lib. – Ishqilib sog' bo'lsin...

Dadam ikkovining gapi ham, telegramma-yu qo'qonlik oyim ham qiziqtirmas, ko'z o'ngimda yana Munavvar paydo bo'lgan edi. Sochlari turmaklangan, oppoq yuzi, uzun-uzun kipriklari, «nima deysan axir?» degandek iltijo bilan tikilib turgan ma'yus ko'zlari... Bir yildan beri haliyam tirsagimni yondirib turgan ko'ksi-ning qaynoq tafti...

Shu kecha Munavvarni tush ko'rishni judayam xohlagandim. Yo'q, tushimga allanima balolar kirib chiqdi. Shovullagan loyqa suvmi-yey, iljayib turgan bitko'z Qo'zivoymi-yey...

* * *

Ertalab boshim qizib uyg'ondim. Ko'zimni ochsam, ustimga oftob kelib, peshonam, bo'ynim terlab ketibdi: yostig'im ho'l. So'lagim oqqanmi, nima balo! Turishga erinib o'tirsam, tashqaridan Abduvalining otimni aytib chaqirgani eshitildi.

– Kelaver, – dedim yostiqlarning orqasini ag'darib, – eshik ochiq-ku!

Abduvali birovdan qo'rqqandek eshikdan mo'raladi.

– Ketib qolgansan deb o'ylovdim. Soat o'n bo'ldi. – U sekin-sekin tepamga keldi. – Bormaysan-a? – dedi. – Yaxshisi yong'oqzorga kirib dars qilamiz. Yozmaga tayyorlanamiz.

Lop etib kechagi garov, Alvasti ko'prik esimga tushdi. Avvalroq suzishni o'rgansam bo'larkan... Keyin, negadir kechasi ko'rgan tushimni eslamoqchi bo'ldim-u, hech nimani xotirlay olmadim.

Tag'in Munavvar xayolimga keldi. Qishda Sherzod tuhmat qilgani, Munavvar uni tarsakilab urib yuborganini esladim.

– Abduvali! – dedim ishonch bilan. – Menga sekundant kerakmas. Qolaver. Ammo hech kimga gapirma, xo'pmi?

Bu gapni shunaqangi sovuqqonlik bilan aytdimki, o'zim ham hayron qoldim.

– Ajalingdan besh kun oldin o'lmoqchimisan, ahmoq! – Abduvali ming to'ng'illagani bilan baribir ketimdan ergashdi. Nuqul meniham, Sherzodniham, kallaxum Qo'zivoyniham bo'ralab so'kardi. Yong'oqzordan chiqishimiz bilan to'satdan to'xtab qoldi.

– Kelmabdi, – dedi yengil tortib. – Kelmaydiham-da! Ungayam jon kerak! Alvasti ko'priktan kalla tashlash oson ekanmi!

Qarasam, ko'prik oldida hech kim yo'q. Rostini ayt-sam o'zim ham sevinib ketdim. Abduvali rost aytyapti. Sherzodgayam jon kerak. Suzishga ming usta bo'lgani bilan Alvasti ko'priktan kalla tashlashga qo'rqadi. Ko'prik tagiga kirib ketsa – tamom!

Oldinma-ketin yurib yaqin bordik. Kun qizib ketgan, pastda terak bo'yi chuqurlikda Bo'rijar shovullab oqar, kechasi tog'da yomg'ir yoqqan shekilli, suv bo'tana bo'lib ketgan, allaqanday daraxt shoxlari suv yuzidan chirpirak bo'lib aylanganicha ko'prik tagidagi beton devorga urilar, shiddat bilan pastga– temir yo'lning narigi tomoniga suron solib otilar edi.

– Ketdikmi? – Abduvali suv shovqinidan ovozi eshitmay qolishimdan qo'rqqandek, bilagimdan tortib imo qildi. – Kelmadi-ku! Bo'ldi-da!

Ikkilanibroq ergashdim. Sekin-sekin temir yo'l ko'tarmasiga chiqdik. Yo'l chetidagi o'tlarga dori sepilgan shekilli, sarg'ayib, qovjirab qolgan, shpallarning erib ketgan moyi botinka poshnasiga chip-chip yopishar, bir juft iz oftobda tasmadek yaltirab yotar, qaynoq havodan mazut hidi kelardi. Beixtiyor narigi tomonga qaradim-u yuragim seskanib ketdi. Ko'prik tagidan otilib chiqqan loyqa suv ko'piklanib osmonga sapchir,

sayozlikda qing'ir-qiyshiq to'nkalar, temir qovurg'adek armaturalar «tish qayrab» turar, «kela qol, sixga qadab tashlayman», deb chaqirayotganga o'xshardi.

– Muzaffar!

Burilib qaradim-u Abduvalining rangi quv o'chib ketganini ko'rdim. U indamay, razyezd tomonga imo qil-di. Temir yo'l chetida, shpallar ustida katta-katta qadam tashlab Sherzod kelardi. Xuddi bayramga otlangan-dek yasanib olgan. Yo'l-yo'l shoyi ko'ylagi oftobda yaltiraydi. Shimi tekis dazmollangan. Ketidan kelayot-gan Qo'zivoyni avvaliga payqamadim. Pakana bo'lgani uchun Sherzodning orqasida ko'rinmayotgan ekan. Lip etib, temir yo'l o'rtasiga tushib oldi-da, shu tomonga pildiradi.

Yuragim shuv etib ketdi. Qo'rqayotganimni sez-dirmaslik uchun teskari qarab oldim.

Ikkovlari yetib kelishdi. Sherzod xotirjam alpozda avval men bilan, keyin Abduvali bilan qo'l olishib ko'rishdi. Qo'zivoy bilan ko'rishgim kelmadi. Qo'l cho'zgan edi, teskari qarab, hushtak chalib turaverdim.

– Xo'sh, beshta kam o'n bir! – Sherzod oftobda yaltirayotgan soatini burnimga tiqishtirdi. – Pastga tushaylik.

Shag'al ko'tarmadan sirg'anib, pastga – Alvasti ko'p-rikning berigi tomoniga o'tdik.

– Menga qara, Sherzod! – Abduvalining sariq yuzi qizarib ketdi. – Qo'yinglar shu ishni! – Ovozi shu qadar yalinchoq eshitildiki, g'ashim keldi.

Sherzod kinoyali iljayib qo'ydi. Shu turishida «se-nam odammisan» degan ma'no bor edi.

– Kalla tashlash joyi – ko'prik markazi! – U qo'lini cho'zib Alvasti ko'prikning o'rtasini ko'rsatdi. – Qaysi qirg'oqqa suzib chiqish, har kimni o'ziga tan. Xohlasa u yoqqa chiqadi, xohlasa bu yoqqa.

– Suv tortib ketsa, unda... – Qo'zivoy mitti ko'zlarini quvlik bilan yiltiratdi. – Lekin hammasi qoidali bo'lishi kerak. Chek tashlaymiz. Kimning chekiga tushsa, o'sha avval kalla tashlaydi. To'g'rimi gapim? Halolmi?

U shimining cho'ntagiga qo'l suqib, yigirma tiyinlik tanga chiqardi.

– Kim qayog‘ini tanlaydi? – dedi tangani ko‘z-ko‘z qilib.

– Menga baribir! – Sherzod chirt etib tupurdi-da, yuzini o‘girdi.

– Mengayam.

– Yo‘q, garov halol bo‘lsin. – Qo‘zivoy tangani tumshug‘imga tiqishtirdi.

– Qayog‘i seniki?

– Gerbli tomoni! – dedim beixtiyor. Chuv tushgim kelmasdi.

– Bo‘pti. Gerbli tomoni osmonga qarab tushsa, birinchi bo‘lib Sherzod kalla tashlaydi. Yigirma tiyinlik tomoni tushsa, sen tashlaysan. Gaping gap, qaytish yo‘g‘-a?

Boyadan beri rangi gezarib turgan Abduvali Qo‘zivoyning yoqasiga yopishdi.

– Muzaffar suzishni bilmaydi, kallaxum! – dedi baqirib. – O‘ldirmoqchimisani birovni!

– E nari tur, hezalak! – Qo‘zivoy yelkasi bilan bir turtgan edi, Abduvali g‘azabdan battar qizarib ketdi. Engashib yerdan choynakdek tosh oldi.

– O‘ldiraman! – dedi ko‘zini olaytirib. – Avval sen o‘lasan, keyin garov bo‘ladi!

Sherzod shu qadar kinoya bilan menga qaradiki, yugurib borib Abduvalining qo‘liga yopishdim.

– Aralashma.

Qo‘zivoy har ehtimolga qarshi Abduvalidan nariroqqa bordi. Ko‘zlarini yiltiratib tangani bosh barmog‘ining tirnog‘iga qo‘ndirdi. Endi osmonga otmoqchi edi, ko‘prik usti guldirab ketdi. Ko‘kimtir teplovoz qator-qator vagonlarni tortib Alvasti ko‘prik ustidan o‘ta boshladi. Po‘lat izlar zirillar, g‘ildiraklar quloqni qomatga keltirib taraqlar, yo‘l chetidagi qovjiragan o‘tlar shiddat bilan silkinar edi.

Sherzod «shoshma» deb imo qilgandi, Qo‘zivoy poyezd o‘tishini kutib turdi. Nihoyat taraq-turuq sadolar pasaya-pasaya tinib qoldi.

– Bir, ikki, uch! – Qo‘zivoy tangani osmonga chirillatib otdi. Tanga pirpirab yerga tushdi.

– Ana! Senam qara, o'v! – Qo'zivoy quvonib xitob qildi. – Chuv tushdi! Birinchi bo'lib Muzaffar kalla tashlaydi. – U Abduvalining qo'lidan sudragudek bo'lib tanga ustiga olib bordi. – Ko'rib qo'y. Baribir Sherzod ham tashlaydi. Ammo Muzaffarning gali – birinchi.

Abduvali engashib, tangani uzoq tomosha qildi-da, qaddini rostladi. Rangida rang qolmagan, lablari titrar edi. Yana egildi-da, boyagidan ham kattaroq toshni oldi.

– Eshitib qo'y, – dedi titrab. – Muzaffarga bir gap bo'lsa, senam tirik qolmayсан!

– Iye, alam ekan-da! – Qo'zivoy madad kutgandek avval Sherzodga, keyin menga qaradi. – Garovni o'z-laring o'ynading-ku, Muzaffar!

Do'ngroq joy topib o'tirdim-da, tuflimning bog'i-chini yecha boshladim. Yo'q, endi qo'rqmasdim. Faqat Munavvarni ko'rgim kelardi. Bir marta, oxirgi marta! Shu lahzada bir narsani tushundim: Munavvarni yaxshi ko'raman! Judayam yaxshi ko'raman. Judayam! Agar tirik qolsam...

Boshimga soya tushdi. Abduvali! Hozir yana san-naydi. Yalinmoqchimi? Shularga-ya! Munavvarni mana shu oliftaga berib qo'ygandan ko'ra...

– Nari tur! – Jerkib, boshimni ko'tardim. Ko'tardim-u hayratdan qotib qoldim. Nima bu?

Bog'ich yechayotgan qo'lim bilan qo'rqa-pisa ko'-zimni ishqaladim. Yo'q. Tush ko'rayotganim yo'q edi. Tepamda Munavvar turardi. Eski, unniqib ketgan chit ko'ylakda. Sochi turmaklanmagan, ikkita qilib o'rib, orqasiga tashlab olibdi. Ko'zlarining tagi yanayam ko'-karib ketgan. Yuzida qon yo'q:

– Hormanglar! – dedi labi pirpirab.

Ahmoqona iljayib, atrofga alangladim. Nariroqda Sherzod qaqqayib turar, Qo'zivoy cho'zilib uning qulog'iga bir nima deb shivirlardi. Abduvali qo'lida tosh bilan hezlanib turibdi.

– Cho'milmoqchiydik, – dedim boshqa gap topol-may.

– Yaxshi joy topibsizlar cho'milishga! – U ko'zim-ga ta'na bilan tikilib turdi-da, «satqai odam ket!»

degandek afsus bilan bosh chayqadi. – Nima, men ko'chada tushib yotgan chaqamanmi? – dedi ko'zi g'azabdan yonib. – Orqamdan garov o'ynaysan!

Dovdirab qoldim.

– Garovmas, o'zimiz... – dedim duduqlanb.

U yuzini chir o'girdi-da, Sherzodning oldiga bordi.

– Yutqazding! – dedi qat'iyat bilan. – Men Muzaffar-ni yaxshi ko'raman! Shuni bilmoqchimiding? Ko'ngling joyiga tushdimi?

Sherzod rangi quv o'chib orqaga tisarildi. Qo'zi-voyning ko'zi olayib ketdi. Abduvali qo'lidagi toshni Bo'rijarga uloqtirib yubordi-da, gandiraklagudek bo'lib, na'mataklar o'sib yotgan so'qmoqdan yong'oqzor tomonga yurdi.

Munavvar shart o'girilib tepamga keldi. Ikki yuzi olov bo'lib ketgan, doim o'ychan boqadigan ko'zlari yonib turardi.

– Seniyam yomon ko'raman! – dedi baqirib. – Odam-masan!

Shag'al yotqizilgan ko'tarmaga chiqdi-da, temir yo'l ustida bir zum to'xtadi. Men tomonga bir qaradi. Shunda ko'zlaridan yosh sizib chiqqanini ko'rdim-u sapchib turib, yugurdim. Yalang oyog'imga shag'allar botar, sirg'anib ketardim. Qizib yotgan temir izlar tovonimni jazillatib kuydirardi. Moyi erib ketgan shpallar undan ham issiq, oyog'imga chippa yopishar edi. Lekin og'riqni uncha sezmasdim.

Qiziq, Munavvar razyezdi tomonga – maktabga ketmadi. Ikki qo'li bilan yuzini changallab oldi-yu, Alvasti ko'prikdan tushib, qamishzorga qarab yugurdi. Jonim boricha baqirib yubordim:

– Munavvar!

Shag'allardan sirg'anib tushib borarkanman, munkib, dumalab ketdim. Biroq o'sha zahoti sapchib turib, qamishzorga o'zimni urdim.

Qamishzor orasidagi so'qmoq ho'l edi. Kuygan tovonlarim biroz orom topgandek bo'ldi. Yugurib borarkanman, ko'ksimdan nido otilib chiqdi.

– Munavvar, to'xta!

Shovillab turgan qamishzor orasida unga yetib ol-
dim. Qo‘lidan tutib jonholatda tortgan edim, zax yerga
o‘tirib qoldi. Yosh to‘la ko‘zlarida g‘azab bilan baqirdi:

– Ket! Yo‘qol!

– Munavvar! Meni kechir, Munavvar! Sensiz o‘lib
qolaman, Munavvar! O‘lib qolaman!

Keyin nima bo‘lganini o‘zim ham bilmayman.
O‘zidan-o‘zi cho‘kkalab qoldim. Lablarim uning ko‘z
yoshidan sho‘rtang bo‘lib ketgan labiga yopishdi.
Qo‘rqib ketdim. Gunoh ish qilib qo‘ygandek seskanib
boshimni orqaga tashladim. U entikar, ko‘zlari yumuq,
ikki tomchi yosh oppoq yuzidan dumalab tushardi.
Yuragimni battar qo‘rquv bosdi.

– Munavvar! Yaxshi ko‘raman! – dedim yig‘lagudek
bo‘lib. – Menam farmaga kiraman, xo‘pmi, yig‘lamagin,
iltimos, urishmagin meni...

U hamon ko‘zini ochmay, boshimni ohista siladi.

– Jinni!

Y E T T I N C H I Q I S M

O‘ttiz ikkinchi bob

**TOSHKENT DAVLAT FARMATSEVTIKA
INSTITUTINING BIRINCHI KURS STUDENTI
MUZAFFAR SHOMURODOV HIKOYASI**

Begona

Qo‘qonga birinchi borishim. Shuning uchunmi, oyim
juda tipirchilab qoldi.

«Bitta o‘zini qandoq yuboraman. Omonni ham qo‘sha
qolaylik, aka-uka hamroh bo‘ladi», degan edi, dadam
jerkib berdi.

«Ehtiyot bo‘l, o‘g‘lingni birov yeb qo‘yadi! Bu tengi
yigitlar urushda sarkarda bo‘lgan. Bolangni oyog‘ini
oyog‘ingga bog‘lab o‘tira qol! Xo‘pmi?!»

Dadam to‘g‘ri aytadi. Oyim haliyam meni yosh bola
deb o‘ylaydi. Maktabni men bilan bitirganlar armiyada
xizmat qilyapti. Abduvalidan tez-tez xat kelib turadi:
Kamchatkada ekan. Qizig‘i shundaki, kallaxum Qo‘zivoy

bilan bitta qismga tushibdi. Qo'zivoy haliyam o'sha o'sha shum emish. Abduvali har xatida «Minavarga salom ayt» deydi. Aytaman. Ko'pincha xatini o'qib beraman.

Munavvar bilan bitta gruppada o'qiymiz. O'sha hangomadan keyin Sherzod senlar dorishunos bo'lsang, men xirurg bo'laman, deb ToshMI ga kirdi... Kuzda – paxtaga borganimizdayam nuqul Munavvarning yonidagi egatga tushib paxta terdim. Avvaliga uning atrofida uchinchi kursda o'qiydigan ikkitasi o'ralashib yurdi-yu, Munavvar «yigiti» borligini yaxshilab tushuntirib qo'ydi shekilli, hech kim yaqiniga yo'lamaydigan bo'ldi... Hozir ham har kuni ertalab institut eshigida bir-birimizni kutib turamiz. Kutubxonada birga dars tayyorlaymiz. Haftada bir marta kinoga tushamiz. Iloji boricha orqa qatordan joy olaman-da, chiroq o'chgandan keyin... xullas baxtliman. Faqat bitta masalada Munavvar bilan kelishmaymiz: uyigacha kuzatib borishimga yo'l qo'ymaydi.

Yo'q, judayam unchalikmas. Tramvayda Tekstilgacha birga kelamiz. Uyog'igayam yonma-yon boramiz. Lekin tor ko'cha boshiga yetishimiz bilan to'xtab qolaman.

Munavvar u yog'iga borishimga ruxsat bermaydi: oyisidan hayiqadi. Aytishiga qaraganda, oyisining jahli yomon emish. Tutgan joyidan kesadigan xotinmish. Munavvarning dadasini shunaqangi yaxshi ko'rarkanki, urushdan yarador bo'lib kelgan dadasi yotiqli kasal bo'lib qolganida No'g'ayqo'rg'ondagi uy-joyini tashlab eri yotgan – Tekstil yaqinidagi balnisaning yonidan eski bir uy sotib olgan ekan. O'rnidan turolmay qolgan erini ikki yil boqibdi. Eri o'lgandan keyin asabiy bo'lib qolganmish. Dori ichmasa, uxlay olasmish... Mening kuzatib borganimni ko'rib qolsa, Munavvarni ko'chaga chiqarmay qo'yarmish.

Ko'cha boshiga yetishimiz bilan Munavvar xayrlashib, «bo'ldi, marraga yetdingiz, – deydi jilmayib, – oyimlar xafa bo'ladilar». Shunday deydi-da, chopqillab ichkariga kirib ketadi. Aytmoqchi, u meni oldingidek «sen» demaydi. «Siz»laydi! Avvaliga ko'nikolmay yurdim-u, keyin o'zimgayam yoqib qoldi. To'g'rida, avvalo men undan roppa-rosa bir yarim oylik kattaman.

Qolaversa, baribir uylanaman-ku. Sen desa yarashmaydi-da...

...Poyezd guldirab ketyapti. Chiroqlar xira. Vagon sovuq. Bilet topilmagani uchun umumiy vagonga chiqqan edim. Yotib uxlash u yoqda tursin, o'tirishga joy yo'q. Hammayoq shovqin-suron. Odam ko'p. Qishki ta'til boshlangan, studentlar uyiga borib kelgisi keladida. Ana, olti yigit ro'parama-ro'para o'tirib olib, vino ichishyapti. Deraza oldidagi stolchada kesilgan ikkita anor. Qirrador stakanda vino ichishadi-da, anor bilan gazak qilishadi. Surnay pocha shim kiygan, mo'ylovli yigit menga ham uzatdi.

— Ol, ukam, senam o'zimizdanga o'xshaysan!

Talaba xalqi darrov til topishadi. Birpasda apoqchapoq bo'lib ketdik. Oltitalovi ham Nizomiyda o'qirkan. Biri olib, biri qo'yib yodaki she'r o'qishdi. Navoiydan tortib allaqanday Xemingueygacha gapirishdi... Kichkina chamadonimni yonimga qo'yib, qisilib o'tiribman. Chamadonda qo'qonlik oyimga ko'ylakli, singlimga jemper... Oyim magazinma-magazin yurib olgan narsalar. Adabiyotchilar oldida o'zimni ko'rsatib qo'ymoqchi edim-ku, bittayam she'r yodimga kelmadi. Hamxonalarimning vinosi ta'sir qildimi, ular she'r o'qigan sayin Munavvar yodimga tushaverdi.

O'zimga qolsa-ku, Qo'qonga bormoqchi emasdim. Juma kuni Munavvar bilan Chimyonga chiqmoqchi edik. Tog'da institutning dam olish zonasi bor. Uzog'i bilan indin kechasi poyezdga chiqib Toshkentga qaytmasam bo'lmaydi. Munavvarga va'da qilganman. Yetib kelmasam, kutadi.

Kecha Munavvar bilan «Iskra» kinosiga tushdik. «Oddiy fashizm» degan kino ekan. Har galgidek orqa qatordan bilet oldim. Munavvarni quchoqlab o'tirmoqchi edim. Bo'lmadi! Kino shunaqa zo'r ekanki, yonimda o'tirgan Munavvar ham esimdan chiqib ketdi. Bir mahal qarasam, u yelkamga boshini qo'yib, hiqillab yig'layapti. Yelkasidan quchib boshini siladim.

— Yig'lama, — dedim shivirlab.

— Dadam esimga tushib ketdi. — Munavvar yuzini ko'ksimga bosdi.

...Uyga kelsam dadam qo'limga xat tutqazdi. Xatni qo'qonlik oyim yozibdi. Ahvolimni so'rabdi. Institutga kirganim bilan tabriklabdi. (Qayoqdan eshitdi ekan?) Xatining oxirida gina qipti. «Bahorda telegramma yuborganimda ham bir og'iz javob qilmading. Bilaman, senda ayb yo'q. Telegrammani ko'rsatishmagan. Mazam yo'q, yuragim sanchadi, ishdan bo'shadim. Ko'zim tirikligida diydoringga to'yib qolgim keladi, bolam. Axir men ham onaman-ku, nahotki ko'rib ketishga aqalli bir kun vaqt topolmasang...» debdi.

Qiyinalib yurmasin deb, adresini aniq-taniq yozib yuboribdi. Vokzalga tushgan zahoti G'ishtko'prik mahallasini so'rasam, «ikki qadam» emish. Paxtakor ko'chasi, o'n to'qqizinchi uy...

Xatni o'qib yuragim siqildi. Negadir Qo'qonga borishga oyog'im tortmas edi. Dadam urishib berdi:

– Bormasang bo'lmaydi! – dedi qovog'ini solib. – Erta-indin o'qishing boshlansa, tag'in vaqt topolmaysan.

Bir jihatdan dadam to'g'ri aytadi: qishki sessiyani endi tugatdik. Dushanbadan yana lektsiyalar boshlanadi.

Oyim «shoshib nima qiladi, yozda borar», deb aralashgan edi, dadamning jahli chiqib ketdi.

– Esing joyidami, Robi! Umrbod kelsin demabdi-ku! Insof qilgin-da! Sen kasal bo'lib yotsangu bolang xabar olmasa, nima bo'lardi? Qo'qon qochib ketgani yo'q. Boradi-yu keladi.

Dadamning gapi oyim uchun qonun! Tipirchilab, yo'l tadorigini ko'rdi. «Qo'qonning shamoli yomon bo'ladi deb eshitganman, shamollab qolasan», deb bo'ynimga sharf o'radi, zo'rlab oyog'imga jun paypoq kiygizdi... Oyim ham qiziq-da...

Rostini aytsam, yo'lga chiqishimga boshqa narsa ham sabab bo'ldi. Komil buva bilan Lazakat xola shu gapni eshitib uyimizga chiqishibdi, Komil buva «Olimjon akangiz Qo'qonda ishlayapti, ijrokomda, akangizni birrov ko'rib kela qoling», degandan keyin o'zim ham qiziqib qoldim. Olimjon akam Farg'ona tomonga ishga ketganiga yetti yilmi-sakkiz yil bo'ldi. Ahyon-ahyonda keladi. Toshkentdan ataylab ko'rgani borsam, Olim-

jon aka xursand bo'ladi. Boraman! Avval oyimni ko'ramanda, keyin gorispolkomga kiraman.

Lazakat xolaning aytishiga qaraganda Olimjon aka «katta odam» bo'lib ketib, uylanishni ham unutib qo'y-ganmish. «Albatta uyiga boring, – deb tayinladi Komil buva, – kim biladi, akangiz bu yoqda bizlarni umidvor qilib qo'yib, u yoqda bitta-yarimtasiga uylanib oldilarmi?»

Mayli, boraman! Kerak bo'lsa uyigayam kiraman! Olimjon akam meni yaxshi ko'radi-ku, o'zimning akam-ku!

G'ildiraklar taraqa-turuq qiladi. Kupedagi yigitlar shovqin solib, she'r o'qishadi... Mudrab ketibman. Bir mahal kimdir yelkanga turtidi. Ko'zimni ochsam, tepamda mo'ylovli yigit turibdi. Yo'q, mudramabman. Bemalol uxlab qolgan ekanman. Chamadonimni yostiqlik chetiga joylab polkaga yotqizib qo'yishgan ekan. Narigi o'rindiqda kechagi she'rxonlik qilgan talabalardan uch-tasi mudrab o'tirar, tepadagi polkada yana ikkitasi uxlab yotardi.

– Tur, – dedi mo'ylovli yigit xira chiroqda iljayib, – keb qolding, bizlaram biroz mizg'iylik, ukam!

... Pastga tushishim bilan sovuq shamol yuzimga urildi. Tong otib qolgan, ammo hali osmon yorishmagan, shamol guvillar, vokzal tomidagi qorlarni supurib, yerga uloqtirar, yo'l chetidagi projektorlar nurida qor uch-qunlari shoshqin yaltirar, osmonda charx urar edi.

G'ishtko'prik mahallasi rostdan ham yaqin ekan. Faqat qattiq shamol ko'z ochirgani qo'ymasdi. Toshkentda bunaqa shamol bo'lmaydi. Paxtakor ko'chasini arang topdim. Eshik zanjir ekan. Muzdek halqani chagallab uzoq taqillatdim.

Nihoyat kimdir g'arch-g'urch qor bosib eshikka yaqin keldi. Zanjir shiqirladi. Ostonada egniga zangori palto (Munavvarnikiga o'xshagan palto) kiygan, qordan pana qilish uchun boshiga nimcha tashlagan qiz ko'rindi. Uyalib o'zini orqaga tashladi.

– Kim kerak edi?

Nima deb so'rayman? Negadir «oyim» deyishga tilim bormadi. (O'zim ham hayron qoldim).

– Ra'no xolaning uylari shumi?

– Shu! – Qiz hayron bo'lib ko'zimga qaradi. – Keling...

«Keling», dedi-yu, ammo bu so'zida «nima ishingiz bor edi?» degan ma'noni uqdim. Sababini o'zim bilmay iljaydim.

«Singlim-ku! Nasiba-ku!» Nima uchundir uning yuzidan o'zimga o'xshash belgilarni qidirib topolmadim. Lekin oyimga o'xshab ketishini sezdim. Uning ham xoli bor ekan. Faqat iyagida emas, yuzida. Chap yuzida.

– Siz... sen Nasibamisan? – dedim kulib. – Men Muzaffarman!

U bir zum meni tomosha qilib turdi-da, hovli ichkarisiga qarab qichqirdi:

– Aya, o'g'lingiz keldi.

Qiziq, nega akam keldi demaydi? Xayolimdan shu o'y lip etib o'tdi-yu, ayvondan tushib kelayotgan oyimni ko'rib o'sha tomonga yurdim.

– Bolam! O'g'lim! – Oyim sarpoychan edi. Yerga tushishi bilan kalishi qorga botdi. Ammo parvo qilmadi. Uchib kelib, mahkam quchoqlab oldi. Dimog'imga gunafsha hidi urilishini kutgan edim. Yo'q, valerianka isi anqidi. Bundan chiqdi yuragi kasalligi rost... Munavvar ham ko'pincha valerianka ichadi.

– Oyog'ingiz... – dedim achinib. – Sovuq-ku...

Oyim hamon meni qo'yib yubormas, yig'idan entikib, yuz-ko'zimdan o'par, ancha cho'kib qolgan, sochiga oq oralagan, hansirab nafas olardi. Faqat iyagidagi xoli, ko'zlari – yig'lab turib kuladigan qop-qora ko'zlari – o'sha-o'sha!

– Olsang-chi, akangni qo'li muzlab ketgandir! – U nariroqda ikkilanib turgan singlimni koyidi. Nasiba shoshilmay kelib, qo'limdan chamadonimni oldi.

– Yur, bolam! Sovqotib ketdingmi? – Oyim ko'z yoshi aralash jilmayib hovli etagidan uyga boshladi.

Hovli tor, o'rtasidagi tarvaqaylab o'sgan bir tup kattakon tut daraxti qor zalvoridan shoxini egib turar, qor kuralib, daraxt tagiga to'plangan, uyumiga kurak sanchib

qo'yilgan edi. Qor kechasi kuralgan shekilli, kurak bandining uchiga ham bir enlikcha qor qo'nibdi.

Cho'yan pechka gurillab yotgan issiq uyga kirdik. Taxmonda ko'rpachalar, o'rtada – xontaxta. Nimasidir o'zimizning uyga o'xshaydi. Faqat bu yerda valerianka hidi anqib turibdi. Devorda chaqmoq telpak kiygan, mo'ylovi chiroyli tarashlangan kishining surati zarhal ramkaga solib qo'yilibdi. Kitelining chap cho'ntagiga nishon qadalgan. Qoshini chimirib turibdi. Xayolimdan «dadam» degan fikr lip etib o'tdi. O'sha zahoti boshimga boshqa o'y keldi. «Yo'g'-e, Nasibaning dadasi». Undan pastroqda Nasibaning surati. Yettinchi sinfni bitirayotganda venetkaga tushgan bo'lsa kerak, tagiga «Umarova N...» deb yozilgan. Negadir oyimning surati yo'q.

– O'tir, bolam, o'tir! – Oyim shosha-pisha xontaxta yoniga qavat-qavat ko'rpacha solib, lo'labolish tashladi. – Hoy Nasibaxon! – dedi hovli tomonga baqirib. – Chop, qizim, katta ayangni chaqirmaysanmi? Ayt, akam keldi, degin.

Oyim zum o'tmay xontaxtaga dasturxon yozib to'ldirib tashladi.

– Olsang-chi, – dedi qistab. – Bodomlardan olgin! Toshkentda bodom yo'q-ku... hammalaring yaxshimisizlar? Ukang katta bo'lib qoldimi?

Qiziq, oyim harchand mehribonlik qilgani bilan o'rtamizda allaqanday to'siq turganga o'xshardi. U oyim bilan dadamning holini so'ramagani uchun men ham «dadam tuzukmi» demadim. (Qanaqasiga dadam bo'lsin?)

– Yaxshi! – dedim o'zim o'ylagandan ko'ra sovuq-roq ohangda. – Ukam bu yil beshinchida o'qiyapti... – O'ylab-o'ylab kerakli gapni topdim. – Nasiba katta bo'pqopti...

Oyimning yuzi yorishib ketdi.

– Voy, singling seni shunaqa sog'indi, shunaqa sog'indi! U ham bu yil o'nni bitiradi. Xudo xohlasa o'zing o'qitasan! Toshkentga bormoqchi. Do'xtir bo'laman, deydi.

Hovlida qor g'ijirladi. Eshik ochilib, boshiga dasturxonbop mato tashlagan semiz xotin kirib keldi. Dasturxon ro'molini echib, oyimga uzatdi-yu, quchoq ochib yaqin keldi.

– Voy, o'zimning qochqoq bolamdan aylanay! Voy, o'zimning shirin o'g'limdan o'rgilay. – U lopillab kelib meni bag'riga bosdi. Allaqayerini «Qora ammam»ning qo'shnisi – chevar Fotima xolaga o'xshatdim. Ikki yuzimdan o'pib ko'risharkan, dashnom berdi. – Ayang bechoraning ko'zi teshildi-ku kutaverib, Muzaffarjon!

– Yo'ldoshxon qanilar, opa? – dedi oyim jilmayib.

– Keladi! Hozir keladi. Muhabbatni g'irillatdim. Hozir topib keladi.

Semiz xotin xontaxta oldiga o'tirib, uzundan-uzoq duo qildi.

– Anqara bolam! Kelganing qandoq yarashib turibdi! – dedi mamnun bo'lib. – Derazadan bir ko'zim tushganday bo'luvdi. Nasibaxon bilan boshlashib baqqa kirib ketayotganingni ko'rib Yo'ldoshxon ayachasiga dori obketdi-da, deb o'ylabman, bolam.

Semiz xotin menga yoqa boshladi. Sensirab gapirgani ham, kulishi ham samimiy edi.

Oyim deraza oldidan o'tgan sharpaga qarab tayinladi:

– Nasibaxon, qizim, choy damlay qol, akang sovgotib keldi-ku.

Birozdan keyin Nasiba eshikdan tuya choynak ko'tarib kirdi. Oyim shosha-pisha choynakni qo'lidan oldi.

– Hoy, Nasibaxon! Akang bilan quchoqlashib ko'rishmaysanmi? – Semiz xotin hayajonlanib boshini chayqadi. – Bir qorindan talashib tushgan akang-a!

Endi o'rnimdan turayotgan edim, Nasiba chir etib burilib eshik tomon yo'naldi. Ko'zida qandaydir begona, sovuq ifodani sezib, joyimga o'tirib qoldim. Oyim rangi o'chibroq singlimning ketidan ergashdi.

Semiz xotin xijolatli jilmaydi.

– Uyalyapti, tentak. – Bir zum jimib qoldi-da, so'radi: – Institutga kiribsan, bolam. Eshitib biram su-

yundim, biram suyundim. Akangga o'xshagan do'xtir bo'larkansan-da.

Qaysi akamni aytyapti?

Eshik yana ochildi. Sovuq bo'lsayam sochi qirtishlangan boshiga do'ppi ilgan, to'ning yelkasiga qor qo'ngan gavdali yigit ostonada turib, qulochini yoydi.

– Kesinlar! Akasining ukasi, kesinlar, – dedi dilkashlik bilan shang'illab. Hali o'rnimdan turmasimdan yugurib kelib quchoqlab oldi-yu, baquvvat qo'llari bilan belimdan siqib uch marta aylantirib yerga qo'ydi. – Sizniyam ko'radigan kun bor ekan-ku, Muzaffarxon, akasi!

Semiz xotin qaytadan fotiha o'qidi.

– Yo'ldoshxon akang ham senga o'xshagan do'xtir! – dedi tushuntirib. – Bilmaganingni o'rgatadi!

Gap orasida oyim jimgina kelib, narigi tomonga cho'kdi. Negadir ranjiganroq ko'rinardi.

Suhbat bir zum uzilib qoldi. Razm solsam, bir menmas, ular ham oyimga qarab o'tirishibdi. Oyim barmog'i bilan dasturxon popugini o'ynaydi. Birdan hushi joyiga kelgandek shosha-pisha choynakni oldiga surdi.

– Olinglar! – dedi choy qaytararkan, dasturxonga qistab. – Muzaffar olsang-chi, bolam.

O'zimni zo'rlab iljaydim.

– ToshMida o'qiganmisiz? – dedim yonimda cho'kkalab o'tirgan Yo'ldoshxon akaga qarab.

– Yo'q, Anjanda! – Yo'ldoshxon aka oyimga yuzlandi. – Xursand bo'pqoldingizmi endi, aya? – dedi shang'illab. Keyin yelkamga qoqdi. – Ayamdi yuragida dard yo'q. Hammasi funksionalniy! Siqiladilar-da! Necha marta aytaman, «hoy aya, ko'ngilni keng qiling», desam quloq solmaydilar. Mana, siz keldingiz. Endi ayam otdek bo'p ketadilar. Men sizni Shoyimardonga oboraman. Qishdayam antiqa bo'ladi. Bir aylanamiz!

– Aka-uka bir yayranglar, – oyim kulishga urindi-yu, labi burilib ketdi, – ukangizni o'ynating...

...Bilmayman, negadir Munavvar xayolimga keldi. Uniki funksionalniy emas, porok. Tug'ma porok. Uch

kundan keyin Chimyonga chiqishimiz esimga tushdi. Hali Olimjon akamniyam ko'rishim kerak.

– Ko'rarmiz, – dedim dudmal qilib. – Sizniyam ishingiz ko'pdir...

– Ashnaqa demang-da, uka! – Yo'ldoshxon aka tag'in shang'illadi. – Qo'qondi bilmas ekansiz. Qo'qondi tuprog'i og'ir. Kelgan odam ketolmay qoladi. Toshkandan ukam keladi-yu, men ishni o'ylaymanmi! Poliklinika qochib ketmaydi. Shoyimardonga boramiz. Tolzorga tushib ulfatchilik qilamiz. Lechfakdamisiz?

– Yo'q, – dedim bosh chayqab. – Farmatsevtika...

– Baribir hamkasaba ekanmiz-da! – Yo'ldoshxon aka samimiyat bilan kuldi. – Farmatsevt bo'lmasa do'xtirlarning uringani bir pul...

Kechasi yaxshi uxlamaganim uchunmi, issiq elitdimi boshim g'uvillardi. Yo'ldoshxon aka Toshkentni, eshik-ellarni, o'qishimni surishtirar, savollariga «yaxshi, durust» deb javob qilardim-u, ko'zim yumilib ketayotganini o'zim sezib o'tirardim.

Holimni birinchi bo'lib oyim his etdi.

– Yo'ldoshxon, – dedi sekin. – Ukangiz jichcha mizg'ib olsamikin... Poyezdda kepti.

– Juda soz-da! – Yo'ldoshxon aka ildam o'rnidan turdi. – Hali ko'p otamlashamiz! Ertaga peshinga Soybo'yiga osh buyurib qo'yaman. Keyin Shoyimardon buvaga ketamiz. Qor yoqqan-u ziyoni yo'q. Yo'l ochiq!

Oyim solib bergan joyga tappa tashlabman-u, qotib qopman. Chamasi ancha uxladim. Uyg'onsam, uy ichi g'ira-shira qorong'i bo'lib qolibdi. Bir zum qayerdaligimni bilolmay garangsib yotdim-u, burchakda gurillab yonayotgan pechka, xontaxta ustidagi bodom to'la likopchalarni ko'rib tushundim. Qor tingan shekilli, derazalardan xira nur tushib turardi.

Hovliga tushdim. Rostdan ham qor tingan, ammo sovuq shamol guvillar, oqshom tushib qolgan, kunbotar tomon bilinar-bilinmas qizargan edi. Kimdir (Yo'ldoshxon aka bo'lsa kerak) yana qor kurabdi. Hovlining narigi tomonidagi ustunlari sirlangan ayvonda

chiroq yonib turar, ammo ichkarida hech qanday sharpa sezilmasdi. Chamasi boyagi semiz xotin ham, Yo'ldoshxon aka ham meni bezovta qilmaslik uchun uy ichida jimgina o'tirgandek edi.

Hovli o'rtasidagi tut tagiga uyub qo'yilgan qordan kaftimni to'ldirib qo'limni yuvayotgan edim, oshxonadan oyim mo'raladi.

– Voy turdingmi? Nasibaxon! Chop!

Qo'lida obdasta, yelkasida sochiq bilan singlim osh-xonadan chiqdi. Kalishli oyog'i qorda sirg'anib-sirg'anib keldi-da, qo'limga suv quydi. Suv iliq edi.

– Nechanchida o'qiyapsan? – dedim boshqa gap topolmaganim uchun.

– O'ninchi! – singlim yotsirabroq ko'zimga tezgina qarab oldi.

– Do'xtir bo'lmoqchi singling! – Oyim oshxona eshigida turgancha jilmaydi. – Toshkentga boradi. O'zing bosh bo'lasan.

– Bormayman! – Nasiba rangi quv o'chib shaxt bilan obdastani qor ustiga qo'ydi. Kerak bo'lsa ola qol, degandek popukli sochiqni yelkasidan siltab olib, qo'limga tutqazdi. – Bormayman Toshkanga! – Shunday dedi-yu, g'arch-g'urch qor bosgancha uy tomon chopib ketdi. Sochiqqa qo'l artishimniyam, artmasligimniyam bilmay serryayib qoldim.

Oyim oshxonadan quyundek otilib chiqdi. Qo'lida kapgir bor edi.

– Shoshma! – dedi kapgirini siltab. – To'xta, juvonmarg!

Xuddi shu payt ko'cha eshik g'iyqillab ochildi. Qunduz yoqali palto, boshiga chaqmoq telpak, oyog'iga piyma kiygan kishi kirib keldi. Uy oldiga borib qolgan Nasiba eshik g'iyqillaganini eshitib, burilib qaradi. O'sha tomonga otili. To'satdan yig'lab yubordi.

– Dada! Dadajon!

Qunduz yoqali kishi Nasibani bag'riga bosdi. Oyim qo'lida kapgir bilan yarim yo'lida to'xtab qoldi.

«Dadam», to'g'rirog'i, Nasibaning dadasi shu odam ekanligini tushundim. Negadir xayolimga g'alati o'y

keldi. «Ko'rganman! Bu odamni allaqayerda ko'rganman!» Yo'q, eslay olmadim. Balki ko'rgandirman. Balki boyagi pechka lovullab turgan uydagi surati bilan solishtirgandirman. Bilmadim! Hozir buni o'ylashdan ko'ra Nasibaning yig'lab otasiga yopishgani ko'proq hayron qoldirardi meni.

– Ha, qizim? – «Dadasi» charm qo'لقopli qo'li bilan Nasibaning boshini silarkan, oyimga ta'naomuz qaradi. – Nima bo'ldi, tinchlikmi?!

Sezib turibman. Oyim o'lganining kunidan iljaydi.

– O'g'lingiz keldi, dadasi, – dedi ovozi titrab. – Muzaffar keldi!

«Dadasi» men tomonga yarq etib qaradi. Chiroyli tarashlangan mo'ylovi uchib qo'ydi. Ko'kish ko'zlarida sovuq ifoda bor edi. O'sha zahoti mendan ko'z uzdi-da, Nasibaning boshini ko'tarib, yuziga termildi.

– Nima bo'ldi, qizim?

– Ayam... Ayam...– Nasiba o'pkasi to'lib o'krab yubordi.

– Nima? – «Dadasi»ning ko'zida sovuq o't chaqnadi.– Yanami?

Kafti bilan singlimni nari surdi-da, oyim tomonga yurdi.

– Tinch qo'lasanmi-yo'qmi? Bolaga kun berasanmi-yo'qmi? – dedi asabiy hayqirib.

Uch-to'rt hatlab oyimga ro'para bo'ldi.

– O'z holiga qo'lasanmi-yo'qmi?

U bir qadam orqaga chekinib, musht ko'tardi. Chamasi oyimni urmoqchi bo'ldi-yu, to'xtab qoldi.

Yerga mixlangandek qotib qolgan, nima qilishimni bilmasdim. Qiziq, oyim chekinmadi.

– Urmoqchimisan? – dedi titrab. – Ur, nomard!

«Dadasi» aftini qahrli qiyshaytirib so'kindi. O'sha zahoti tarsaki zarbidan oyimning qo'lidan kapgir uchib ketdi. Boshidagi jun ro'moli yelkasiga tushib qorga cho'kkalab qoldi.

Tut tagiga uyub qo'yilgan qordan sakrab o'tdim-u, uchib borib «dadasi»ning qunduz yoqasidan bo'g'ib oldim.

– Nega? – dedim hansirab. – Nega urasiz?

«Dadasi» ko‘zida sovuq olov yonib siltandi.

– Nari tur, cho‘loqning haromisi! – Piymani oyog‘ini oyim ustida ko‘tardi. Oyimning boshiga tepmoqchi edi, nima qilganimni o‘zim bilmay qoldim. Yo‘q, urmadim. Chamasi, uloqtirib yubordim shekilli. Qarasam, «dadasi» tut tagidagi qor uyumiga ko‘milib yotibdi. Boshidan uchib ketgan chaqmoq telpagi qori kuralgan yo‘lkada to‘nkarilib yotardi. Qorda yotgan telpagini ko‘rib to‘satdan shovqin-suronli bozor ko‘z o‘ngimga keldi, do‘ppi bozori. Dadam etigining qo‘njidan pichoq sug‘urganida odamlar orasiga o‘zini urgan kishi... Tanidim! Shu odam edi, xuddi o‘zi!

Ijirg‘anib yuzimni o‘girdim. Oyimning qo‘ltig‘idan ko‘tarayotgan edim, dod solgan chinqiriq ovoz qulog‘imni teshib yuboray dedi:

– Dadamni nega urding!

O‘zimni o‘nglab olgunimcha Nasiba yuz-ko‘zimni timdalab tashladi.

– Nasiba! – Oyim kalovlanib singlimga yopishdi. – Uyat bo‘ladi! Voy sho‘rim!

Hovli yuqorisidagi ayvondan to‘n kiygan Yo‘ldoshxon aka sakrab tushib qorga ko‘milib yotgan kishiga yopishdi.

– Amaki! – dedi jerkib. – Uyat bormi sizda!

– Haromi! – «Dadasi» yuz-ko‘ziga yopishgan qorni kafti bilan sidirib tashlagancha, Yo‘ldoshxon akaning qo‘lidan chiqishga urinib yulqindi. – Otaman! Peshonasidan otaman...

Oyimning quchog‘ida tipirchilayotgan Nasiba, ko‘zida xuddi otasinikiga o‘xshash sovuq o‘t chaqnab, bijirladi.

– Qayoqdan kelding? Kim chaqirdi seni?

Semiz xotin qorda sirg‘ana-sirg‘ana chopib borib, Nasibaga yuzlandi.

– Uyalmaysanmi? Nomus qilmaysanmi?

– Qo‘yvor! – «Dadasi» Yo‘ldoshxon akaning zardast qo‘llaridan chiqib ketolmay, og‘zidan ko‘pik sachratib xirilladi. – Qoch!

Uchib uyga kirdim-u taxmonda turgan paltomni, telpagimni kiydim. U yoq-bu yoqqa alanglasam, chamanoncham yo'q! Kerakmas! Hech nima kerakmas!

Ko'cha eshik oldiga yetganimda oyimning yer-u ko'kni titratib yuborgudek faryodi yangradi:

– Muzaffar! O'g'lim!

Qorda sirg'ana-sirg'ana chopib ketdim. Sovuq shamol guvillar, ko'chalar kimsasiz edi. «Harom» dedimi! Hech kimdan bunaqa gap eshitmagandim. Nega keldim? Nima keragi bor edi?!

...Vokzalda odam siyrak ekan. Baxtimga Toshkentga bilek topildi... Skameykada o'tiribman-u o'zimga nash'a qiladi. Nega keldim-a? Nimaga? Dadam nega majbur qildi... Namangan poyezdi kelishiga yarim soatcha qolganida vokzal eshigidan kirib kelayotgan oyimni ko'rdim-u yuzimni o'girdim. Oyim bitta o'zi emasdi. Kattakon tugun quchoqlagan boyagi semiz xotin, chamadonchamni ko'tarib olgan Yo'ldoshxon aka, eskiroq palto kiygan yana bir qiz bor edi. Nasiba deb o'ylab tishlarim g'ijirlab ketdi. «Nega kelding» dedimi? «Kim chaqirdi seni» dedimi? Oyim har borganida maqtagan, xatida «seni sog'inib qoldi», degan singlim shumi? Ajab, shu topda negadir Munavvarni ko'rgim keldi.

To'rttovlashib shu tomonga yurishganini ko'rib lip etib o'rnimdan turdim. Kerakmas! Ko'rgani ko'zim yo'q! Onamniyam, boshqasiniyam! Men ularga begonaman. Ular ham! Perron tomonga endi yurgan edim, oyimning yig'lagan xitobi eshitildi.

– O'g'lim! – Harsillab kelib bilagimga osildi. Qaytarib, skameykaga o'tqizdi. – O'tir, bolam, o'tir!– dedi yalinib.

– Muhabbat, oshni ol, singlim! – Yo'ldoshxon aka dilkashlik bilan shang'illadi. Qovog'imni solib, boshimni ko'tarsam, Nasiba emas, boshqa qiz ekan. U dasturxon-ga o'ralgan tog'orani ocharkan, eski qadrdonlardek salom berdi.

– Muzaffar aka, arang topdik sizni, – dedi jilmayib.

Bundan chiqdi, bu qiz – Yo‘ldoshxon akaning singlisi... Qiziq, hali nimaga ko‘rmadim uni! Yana Munavvarni qo‘msadim. Yonimda bo‘lsa... Gaplashib o‘tirsak... Yo‘q, bu hangomalarni aytmayman. Nima qilaman, yuragini siqib? O‘zining kasali yetmaydimi!

Tugundan ustiga qazi bosilgan bir tog‘ora osh, patirlar chiqdi.

– Ol, o‘g‘lim, ye! – Oyim oshga undadi-yu, o‘zi hiqillab yig‘lab yubordi. – Kechir meni, bolam! Mendan rozi bo‘l!

– E, aya! Qiziqmisiz? – Yo‘ldoshxon aka chamonni chaqqonlik bilan ochib, bir shisha aroq, piyola chiqardi. – Muzaffarni nima deb yuribsiz hali! Yigit-ku! Siz ukam, ko‘nglingizga olmang. Amakim ahmoq o‘zi! Baribir, siz – mening ukamsiz! Toshkentda shundoq ukam bor, deb kerilib yuraman. – U piyolaga qulqillatib aroq quyarkan, boyagi qizni jerkidi. – Olmaysanmi, bundoq onar-ponardan, Muhabbat!

Muhabbat samimiy jilmaygan ko‘yi tugun tagidan besh-oltita anor chiqardi.

– Kesting-da, aka! – dedi kulimsirab.

– Ma! – Yo‘ldoshxon aka paltosining cho‘ntagidan pakki oldi. – O‘zing kes! – Keyin mening yelkamga qoqdi. – Muzaffar! – dedi goh menga, goh hamon lablari titrab unsiz yig‘layotgan oyimga qarab. – Men yangamni aya deganman. Demak, siz meni ukamsiz.

– Albatta-da! – Gapga semiz xotin aralashdi. – Hammanglar jigarsanlar. Yo‘ldoshxon Muzaffarning akasi... Muhabbatxon... – u bir zum o‘ylanib turdi-da, qiziga qarab jilmaydi, – Muzaffardan sal kattaroqsan-u, bari bir singilsan! Muzaffar yigit kishi. Aka degin, xo‘pmi?

– Qani, oldik! – Yo‘ldoshxon aka aroq to‘la piyolani uzatdi. – Oppoq qilib olasiz...

...Vagonga suyak olib chiqishgani, oyim yig‘lagani, Yo‘ldoshxon aka bilan o‘pishib xayrlashganimiz, oyimga qo‘l siltab iljayganim... esimda... Ertalabgacha qusib chiqdim.

Qizim malades: o'zimga tortdi!

Qayoqdan keldi Shomurod cho'loqning itvachchasi? Hammasiga manavi jodugar aybdor! Shu chaqirgan! Toshkentga bormay qo'yuvdi-ku. Xat yozganmi, telegramma jo'natganmi, ishqilib chaqirgan. Bo'lmasa o'zidan o'zi kirib kelmasdi. Qayoqdan bilay nima xayollar bilan kelgan ekan! Nasiba o'nda o'qiyapti. Bundan chiqdi anavi itvachchasi maktabni bitirgan. Kim bilsin, bir azmoyish olib ko'ray-chi, kel, desa butunlay ko'chib kelaman deb o'ylaganmi? Ona-bola maslahatni pishitmoqchi bo'lganmi! Menga yopishdi-ya! Voy, haromi-yey! Yo'ldoshxon qo'limdan tutib qolmaganda otardim! Tikka otardim!

Bugun kunbo'yi ishim yurishmadi o'zi! Ertalabdan sex boshlig'i bilan g'ijillashib qoldim. Yog' toza chiqmayapganmish. Chigitning o'zi yomon bo'lsa, toza yog'ni katta xolamnikidan olamanmi?! Bu xotinni kim sexga nachalnik qilib qo'ygan o'zi? Kattalarga ko'zini suzganda... Nuqul menga tirg'aladi. Qo'l uchida ishlaysiz deydi, mas'uliyatsiz odamsiz deydi. Avval men qilgan xizmatning o'ndan birini qil! Gapni kim qo'yibdi senga! Pochchalar acha bo'ldi, achalar pochcha bo'ldi deb senga bo'yin egib yuribman-a, endi. U yoqda qachondan beri telefon tushirolmayman. Menam odamlarga o'xshab yashagim keladi. Uyimda o'tirib, u yoq-bu yoqqa telefon qilgim keladi! Nega endi kechagina institutni bitirgan mishiqi Yo'ldoshxonda telefon bo'lishi keragu menda bo'lmasligi kerak? Telefon tarmog'ining boshlig'iga shuni aytsam, tochka yo'qligini pesh qiladi. Rayispolkomga arz qilishim kerakmish! Sochi uzun, aqli qisqa sex boshlig'i bilan g'ijillashganim yetmaganidek, ijrokom raisi bilan ham san-manga borib qoldim. Qo'yib bersam, yosh bola fahmlab nasihat qilmoqchi! «Yo'ldosh Usmonovich zam. glavvrach, poliklinikada biron kor-hol bo'lsa, chaqirib olishadi. Doktorlarga bi-

rinchi navbatda telefon beriladi, balo-battar!» Bilamiz, qanaqa qilib zam. glavvrach bo'lganini! Ko'richakni ichburug'dan ajratolmaydi-yu, doktor emish! «Jiyaningiz bilan bir hovlida turarkansiz-ku, bo'ldi-da, bitta telefon yetmaydimi?» deydi. Yo'ldoshxon bilan nima ishim bor! Telefon qilaman deb yangamning uyiga yalinib kirishim kerakmi? «Juda bo'lmasa parallel apparat o'rnatib bera qolaylik», emish. Endi tomog'i og'rib qolgan allaqanday ko'ksovning yarim kechada jiring-jiring qilishi yetmay turuvdi. Yo'q! Menga lichniy telefon kerak. O'zinga! Alohida! Sobstvenniy nomer! Tag'in ko'zini go'laytirib, «ishonmasangiz gorispolkomning aloqa bo'limiga murojaat qiling», deydi. Nasihatini otangga qil! Hech narsani bilmaydi deb o'ylaysanmi? Yuz so'm chiqarib, stolingni tortmasiga solib qo'ysam-ku, boshqacha sayrab qolasan! Aloqa bo'limingdagilar ham o'zingga o'xshagan poraxo'r-da! Yo'q, bo'lim-po'limingni bilmayman. To'ppa-to'g'ri gorispolkomingni raisi bilan gaplashib qo'ya qolaman. G'ing desin-chi! Giribonidan bo'g'ib, derazadan uloqtirib yuboraman. Men urush yillari front orqasini mustahkamlash uchun qon to'kib yurganimda senlarni onang orqangni tugib qo'yardi!

O'zim qonimga tashna bo'lib kelsam, ahvol bu! Qachon qarasa, yolg'iz qizni turtkilaydi, azob beradi! Endi o'g'illari kelib, tillari uzun bo'p qopti-da! Yaxshiyam Nasiba o'zimga tortgani: bir so'zli, prinsipial. Baribir qiz bola – qiz bola-da! Anovi haromini ketidan quvmoqchi edim, dod solib qoldi.

– Dadajon! Ayam o'lyapti!

Qayoqda o'ladi! Yolg'ondan qiladi. Qachon qarasa, yuragini changallaydi. Dori ichadi. Yuragi kasalligini bahona qilib, ishdan ham bo'shab oldi. Boqim bo'lib o'tiribdi, tekinxo'r!

Rostdanga o'xshaydi-ku! Og'zidan ko'pik chiqib, qorda cho'zilib yotibdi. Kelib, yuziga qarasam tishlari girix, oyoq-qo'li changak bo'p qopti. Muzlab ketyapti. Chatoq qildim. O'lib qolsa... Xotin-ku topilmas matoh emas. Zavodda ko'zini suzib yurgan juvonlar son-mingta. Ammo... Qizim yetim qolsa... Undan keyin... o'lik

ko'mish osonmi? Tuzatsin, anavi Yo'ldoshxon! Doktor nomi bor-ku! Shuni vrach qilguncha oyog'i olti, qo'li yetti bo'lib yugurdi-ku, «ayachasi!» Topganini shunga tiqdi-ku! Ustiga ustak meni aldadi. Boplab laqillatdi. Toshkentdagi hovli hayf ketdi! Esiz-esiz shunday uy-joylar! Bu yoqda meni aldab yurib, u yoqda hamma hujjatlarni rasmiylashtirib bo'lgan ekan.

Aytmadimmi, yolg'ondan qiladi deb. Yo'ldoshxon ikkita ukol qilishi bilan hushiga keldi. Ko'zini ochishi bilan: «Muzaffar!» deydi.

Tag'in o'shani gapiradi-ya! Yo'ldoshxonni ayt-maysizmi! Ra'noning tomirini ushlab turib, menga o'dag'aylaydi:

– Kechirasiz-ku, amaki, odammassiz!

Endi siz odam bo'ldingiz-u biz odammasmiz? To'y-dirganning qorniga... deb shuni aytarkan-da! Men bo'l-masam do'ppifurush onangu singling bilan ko'chaga chiqib tilanchilik qilarding! Seni men o'qitdim, men odam qildim. Singlingni men zavodga opkirib qo'y-dim. Anavi itdan tarqagan kim bo'ladi senga? Ikki tug'ib, bir qolganingmi? Nari borsa Soybo'yiga obtushib choyxonada bitta osh qilib berarsan! Keyin nima bo'ladi? Bu yog'i menga tanmi? Uch kunda bir likillab kelaversa dumingni tutqizmay qochib qolarsan. Aravangni tort, so'tak! Aralashma birovning ishiga.

Ra'no o'zi o'laman deydi-yu, alang-jalang qilib nu-qul o'g'lini surishtiradi. Ensam qotib tursayam yupatdim:

– Shuni oldinroq aytmaysanmi. O'g'ling ekanini tush ko'ribmanmi?

Darrov yuziga qon yugurdi. G'imirlab qoldi! Yo'ldoshxon qimirlamay yoting, o'zim topib kelaman, desayam ko'nmadi. Ovsini bilan yo'lga tushib qoldi. O'ladigan odam shundoq sovuqda ko'chaga chiqa-dimi?

Nasiba baribir prinsipiiallik qildi. Yangam, Yo'ldoshxon, Muhabbat tugun-tersakni poliklinikaning eski «Moskvich»iga ortib chiqishganida qizim ochiq-oydin aytdi:

– Men bormayman!

Sezib turibman, onasiga achinyapti-yu, ammo bir so'zli ekanini ko'rsatdi. Malades! Otasining qizi-da! Padaringga qusur! Mashinaga o'tirayotib Nasibani duoyibad qildi-ya. O'z qizini qarg'adi-ya!

«Iloyo juvonmarg bo'l. Iloyo baxti qaro bo'!»
Shunaqa dedi-ya, iflos!

Nasiba xafa bo'lganicha bor ekan-da! Bu kishim qizimni Toshkentga yuboradigan bo'ptilar. O'g'illari o'qitadigan bo'pti! Nasibaning shu o'gayvachchaga ko'zi uchib turgan ekan-da! Qizimni Toshkentga, o'sha cho'loq bilan Robiyaning oldiga yuborarkanmanmi? Men-a? Nasibani-ya! O'zingni orqangga supurgi bog'-lab Toshkentga badarg'a qilib yubormay tag'in!

– Nasi! Qizim, tahoratga suv isit. Joynamozim qani?

O'ttiz to'rtinchi bob

RA'NO HIKOYASI

Esiz umr!

Bilardim! Ko'nglim sezgan edi. Umar aka o'g'limni sig'ishtirmasligini bilardim. Ammo bunchalik bo'lishiga aqlim yetmagan edi. Har qanday bag'ritosh odamda ham aqalli jinday mehr bo'ladi. Har qanday uyatsiz odamda ham aqalli zig'ircha andisha bo'ladi. Bunda yo'q ekan! Na unisi, na bunisi! Shuncha yildan beri ko'zlarim teshilib kutgan bolamni bir kunga sig'dirmadi-ya! Muzaffar ko'ch-ko'ronini ko'tarib kelgani yo'q edi-ku! Uyingni egallab olmasdi-ku, benomus! Otasiga, o'gay onasiga ne bahonalar qilib kelganikin? Endi nima deydi? O'gay otam uyidan haydadi, deydimi! Judo bo'ldim! Bir umrga judo bo'ldim bolamdan! Nimaga bu odam shunchalik yomon! Nimaga o'zidan boshqa hammani, hammani yomon ko'radi? Nimaga hech kimga o'xshamaydi?! O'g'limni umrida birinchi marta ko'rib turgan Oysara opam, Yo'ldoshxon, Muhabbat ko'rsatgan mehrning o'ndan biriyam yo'qmi unda! Bu razil hech bo'lmasa mendan andisha qilsa bo'lmaydimi!

Yaxshimi-yomonmi, shuncha yil bir yostiqqa bosh qo'ydik! Aqalli bir vaqtlardagi muhabbatimizning yuz-xotiri yo'qmidi!

Muhabbat? Nima u muhabbat? Muhabbatning ko'chasi o'tganmi o'zi bu! Qo'yib bersangiz «Muhabbatni nimaga qo'shib yeydi?» deyishdan toymaydi-ku! Bunaqalarga nima kerak o'zi? Foyda, mansab, manfaat. Mana, nima uchun yashaydi! O'ziga manfaat tegmagan yerda hamma narsa bir pul!

Bir zamonlar raisligida bunchalik emasdi. O'zgardi. Yomon tomonga o'zgarib ketdi. Bilmadim, balki o'shanda ham shunaqa bo'lgandir, men sezmagandir-man.

Yo tavba! Xalq ming yil o'ylab bitta gap aytarkan. «O'g'ri qarisa – so'fi bo'ladi» deyishsa ishonmasdim. To'ppa-to'g'ri ekan. Bu kishim endi «xudojo'y» bo'lib qoldilar. Besh vaqt bekitiqcha namoz o'qiydilar. Nima? Qilgan gunohlaringni yuvmoqchimisani? Yo'q, ayb qilgan odam gunohini odamlar oldida yuvadi; aqalli es-hushini yig'ib, boshqa ayb qilmaslikka urinadi! Sen-chi? O'shanda, bug'doyzor chetidagi sada tagida hamma sening yuzingga tuflaganida, men achingandim! Hamma, hatto ko'zingni yog'ini yegan Soli so'poq ham yuz o'girganida men yo'qlab borgandim seni! Nachora, senga ishonardim. El-yurt xizmatida yurgan, o'zining huzur-halovatidan kechgan odam deb o'ylardim. Ming taassuf! Bilmabman. Odam el nazaridan qolsa, tavbasiga tayanadi. Sen, sen nomard esa yaxshi bo'lish o'rniga battar aynading! Ozmi-ko'pmi odamgarchiligingni ham yo'qotding. Bitta-yu bitta darding – pul topishu huzur-xalovat bo'lib qoldi. Chidadim! O'rtamizdagi bola hurmati – Nasiba hurmati hammasiga chidadim. Bilmabmanki, o'z qizimni allaqachon o'zimga dushman qilib qo'ygan ekansan! Bilmabmanki, uyam senga tortibdi. Faqat o'zini yaxshi ko'radi. O'zidan boshqa hech kimni qurbaqachalik ham, toshbaqachalik ham ko'rmaydi. Hammadan jirkanadi! Hammadan! Men uyatsiz, men yolg'onchi Muzaffarni har ko'rganda aldadim. Har xatimda yolg'on gaplarni yozdim. «Sing-

ling seni yaxshi ko'radi, seni sog'inib ketdi», dedim. Yetti yil avval borganimda ham, keyingi safarda ham, telegramma-yu xatlarda ham... Ajab, xuddi yosh boladek o'zim to'qigan yolg'onga o'zim ishongan ekanman. Ana, «Yaxshi ko'radigan», «sog'inadigan» singilning holi! Qiz bola ham shunchalik bag'ritosh bo'ladimi? «Akan Toshkentga oborib o'qitadi», deganimga shuncha sapchiysanmi, juvonmarg! Singlim deb ataylab poyezdga osilib kepti-ku, qiz o'lgur! Qo'lingdan sudrab ketayotgani yo'q edi-ku, seni. O'gay onaning qo'liga topshirib esini yegan jinni emasman-ku! Nima? Kim o'gay! Robiyami? Hecham-da! Men o'gayman! Muzaffarga men o'gayman! Robiya mendan ko'ra ming marta yaxshi! O'g'limni o'n yetti yil boqdi. Birovning bolasini! Mening o'g'limni. O'z onasining uyiga kelganda esa bir kunga sig'madi. Hammasini sen boshlading. Qiz bo'lmay bo'ying lahadda chirisin!

Haliyam qarg'adim-a! Baxti qaro bo'l, dedim-a! Yo'q, xato qildim! Nima keragi bor! Qaysi ona o'z bolasining baxti qaro bo'lishini xohlaydi?! Qaytib oldim, so'zimni qaytib oldim. Ammo o'g'limdan judo bo'ldim.

...Hali nima dedi anavi! «O'g'ling ekanini tush ko'ribmanmi, tushuntiribroq gapirsang bo'lmaydimi», dedimi! Voy, munofiq! Voy, razil! Voy, razil! Seni bilmasam ekan. Bo'lgan-turganing tirnog'imning yuzida-ku! Bilding! Bilib turib qilding! Muncha yomon bu odam-a! Nimaga yer yutmaydi! Qandoq qilib shuning tuzog'iga ilindim! Yigirma ikki yil... Yigirma ikki yillik umrim xazon bo'ldi. Yoshim ellikka yetmasidan invalid bo'ldim... Esiz umr... Esiz odam... Esiz umidlarim! Hammasi qaro yerga ko'mildi. Kimman o'zi? Men ham odammanmi? Men ham onamanmi?

Ana, poyezd ketyapti. O'g'limni olib ketyapti. Bir umrga, butunlay... Endi ko'rolmayman. Bolamni hech qachon ko'rolmayman. Ana, vagon eshigidan qarab kulib turibdi. Yolg'on-ku! Kulishi ham, qo'l siltashi ham yolg'on-ku! O'lganining kunidan kulyapti-ku!

– Muzaffar! Rozi bo'li! Endi ko'rishmaymiz, bolam!

O'ttiz beshinchi bob

IKKINCHI KURS STUDENTI MUZAFFAR SHOMURODOV HIKOYASI

Ammam Kimsan akamni tanidi

Munavvarni Tekstilgacha kuzatib qo'yaman-da, trolleybusda qaytaman. Har kuni shu yo'ldan yuraman. Ko'cha chetidagi eski mozor o'rnida qurilayotgan xiyobonni har kuni ko'raman. Avval maydon tekislandi. Keyin qator-qator kumushrang archalar ekildi. Zinalarga marmar koshinlar yopishtirildi. Undan keyin tepalikni taxta devor bilan o'rab qo'yishdi. Shu joyda «Noma'lum askar bilan G'amguzor ona»ga haykal ochilishi qulog'imga chalindi.

Avvallari bu yerda trolleybus to'xtamas edi. Bugun negadir to'xtadi. Oynaband eshiklar taraqlab ochildi.

– «G'amguzor ona» bekati!– dedi haydovchi xotin mikrofondan e'lon qilib.– Ertaga ertalab, G'alabaning yigirma yilligi munosabati bilan haykal ochiladi.

Trolleybusdagilar beixtiyor o'ng tomonga o'grildi... Yaxlit oynadan qarasam, taxta devor olib tashlanibdi. Lekin tepalikdagi ro'parama-ro'para ikkita haykal ustiga mato yopib qo'yilibdi. Xiyobon yashnab ketgan edi. Kumushrang archalar tekis saf tortib turibdi. «Prezident» gullari, lolalar, gulsafsarlar kechki shafaqda lovullaydi. Yerga sariq qum sepilgan. Xiyobonning ikki tomoniga terilgan marmar plitalarda oltin yulduz tasviri, tagiga Qahramon shaharlarning nomi yozib qo'yilgan. «Moskva», «Leningrad», «Odessa...» U yog'ini o'qiy olmadim. Oynaband eshiklar taraqlab yopildi. Trolleybus g'izillab ketdi.

«Ertalab albatta kelaman! Haykal ochilishini tomosha qilaman!»

Shu xayolni ko'nglimga tugib uyga kelsam, ayvonda «Qora ammam» o'tirgan ekan. Ammam kelgan kuni uyimiz to'lib ketganday bo'ladi. Hammamizning ko'nglimizga allaqanday nurli osoyishtalik cho'kkanga o'xshaydi. Hozir ham shunaqa bo'ldi: sevinib ketdim.

Oyim ayvondagi xontaxta qirrasiga qistirilgan qiy-malagichdan go'sht chiqarar, ko'rpachada o'tirgan ammam qiymani guruchga aralashtirib, lagandagi tok bargiga o'rar edi. Chopib yoniga borib, cho'kkaladim. Ammam qiyma yuqi qo'li bilan ko'yilagimni iflos qilmaslik uchun avaylab yelkamga qoqarkan, gina qildi:

– Senam amma – eshigingga tamba deydigan bola chiqding, – dedi nafasi qisilib. – O'zim kelmasam, buvimning holi nima kechdi, deb bormaysanam.

Rost aytadi. Bultur qishda – Qo'qonga borib kelganimdan keyin ikki-uch marta bordim-u keyin vaqt bo'lmadi. Qishda o'qish, yozda studentlar otryadi bilan Qozog'istonga – qo'riqqa hasharga borganmiz. Ammamning o'zi bizdan xabar olib turadi.

– Vaqti yo'q-da, ammajonisi! – Oyim mening yonimni olishdan ham ko'ra ammamni yupatish uchun tushuntirdi. – O'qishi og'ir.

– Mayli... – ammam xo'rsindi. – Qayerda bo'lsangam tinch bo'l, bolam. O'z qo'lim bilan tok oshi qilib beray deb barg obkeldim. Tok oshini yaxshi ko'rasan-ku!..

Ichkaridan Omon bir kosa qulupnay ko'tarib chiqdi.

– Ammam olib keldilar, aka! – dedi iljayib.

Ammam zo'r-da! Munkillab qolganu hovlisidagi besh-olti ariq qulupnayni haliyam o'zi parvarishlaydi. Tomorqasidagi toklarga o'zi qaraydi.

– Yegin, seniyam og'zing tegsin! – dedi harsillab.

Qulupnay yeb o'tirib, ammamga razm soldim. Yesh bolanikidek kichkina, xol-xol dog' bosgan qo'llari tit-raydi, ichidagi «odamchalar» muttasil hushtak chaladi... Shu holiga bir zum tinim bilmaydi. Mana, hozir ham oyimga qarashyapti. Odatini bilaman, qo'lidan ishini olsangiz jahli chiqadi. «Tirik ekanman, qimirlayman, ishlamasam kasal bo'lib qolaman», deydi.

– Ertaga oddixingmi? – Oyim qiymalagich bandini aylantirar ekan, menga qaramay so'radi. – Ertalab Omon bilan past bozorga tushib kelsang. Sabzi o'lgur qolmabdi.

Gapga ammam aralashdi.

– Ko'p olmagin, bolam. Qurbaqa qurilladimi, sabzi po'ng bo'ldi, deyaver. Erta-indin yangisi chiqadi.

– Peshindan keyin tushaman, – dedim. – Ertalab bir joyga bormoqchiydim. Haykal ochilarkan.

– A? – Ammamning qulog‘i og‘ir bo‘lgani uchun gapimni yaxshi eshitmadimi, suvga tushgan toshdek xira ko‘zlarini pirlirib ko‘zimga tikildi. – Qanaqa haykal?

– Yangi xiyobon, – dedim ovozimni ko‘taribroq. – Haykal ochilarkan, amma. «Noma‘lum askar» haykali.

– Qatta? – Ammamning xira ko‘zlari yaraqlab ketgandek bo‘ldi.

– Shaharda, – dedim og‘rinibroq.

– Menam boraman! – To‘satdan ammamning qaysarligi tutdi. – Oborasan!

Ikkilanib qoldim. Nimagayam aytdim-a? Miting bo‘ladi. Yuzlab odam yig‘iladi. Kampir odamni qiynab nima qilaman, o‘zi zo‘rg‘a yuribdi. Ammam xohlamay turganimni sezdi.

– Boraman! – dedi nafasi qattiq g‘ijirlab. – Ayt, Robiya, oborsin!

Oyim menga qarab labini tishladi. «Nima qilarding, shu gapni ochib» degandek qovog‘ini soldi. Ammam sezgir-da! Yarq etib oyimga yuzlandi.

– Ha! Xohlamayapsanmi? Qattaligini ayt, o‘zim topib boraman. – Qo‘lidagi tugilgan tokni laganga tashlab, ko‘zimga termildi. Ichidagi «odamchalar» baralla hush-tak chala boshladi. Qarasam, xafa bo‘lyapti.

– Oboraman, amma, oboraman! – dedim yupatib.

– Shoyad Kimsanimning kamandirini topsam... – ammam bu gapni shunchalik sodda umid bilan aytdiki, oyimning qiymalagich bandidan tutgan qo‘li titrab ketganini sezdim.

– Hammamiz boramiz, oyi! – dedi yerga qarab. – Ukangizam boradilar.

* * *

Yetib kelganimizda tumonat odam to‘plangan edi. Harbiy kiyimdagi kishilar, orden taqqan erkak-ayollar, guldasta ko‘targan pionerlar archalar soyasida turishardi. Muzika tantanali marsh chaladi. Oftob nurida yashnab yotgan gulzorda atir gullarning o‘tkir hidi anqiydi.

Gulsafsarlar binafsharang olovdek tovlanadi. Dadam ham kostyumining ko'kragiga nishonlarini taqib olganiga xursand bo'ldim. Ammamning bir qo'ltig'idan oyim, bittasidan men olib, kumushrang archa soyasiga o'tib turdik.

– Qani? – ammam hansirab, atrofga alangladi. – Qani haykal!

– Hozir ochishadi, – ustiga oq mato yopilgan haykalga imo qilib tushuntirdim, – kattalar kelsin, ochishadi!

Chorak soatchadan keyin muzika to'satdan tindi. Qo'lida avtomat tutgan elliktacha soldat haykalning ikki tomonida saf tortdi. Ko'cha tomonda mashina guvillagani eshitildi. Ikkita qora «Chayka» g'izillab kelib taqqa to'xtadi. Shimining pochasiga enli qizil lenta taqilgan general, ketidan ofitserlar tushdi. Odamlar chetlab yo'l berishdi. Alp qomatli, qoraqosh general shahdam qadamlar bilan ustiga mato yopilgan haykal tomon yurdi. Ofitserlar unga ergashishdi.

General haykal oldidagi taxta supachaga chiqdi-da, mikrofonga yaqin keldi.

– O'rtoqlar! – dedi bosiq ovozda. Xiyobon atrofidagi simyog'ochlarga karnaylar ilinganini endi bildim. Besholti karnaydan baravar «o'rtoqlar» degan sado ketma-ket jarangladi.

– Bugun biz Ulug' G'alabani yigirma yilligini nishonlayapmiz, – dedi general bosiq, ammo hayajon sezilib turgan ohangda. – Jahon urushida biz yigirma million kishidan judo bo'ldik.

Kimdir xo'rsindi. Nazarimda ammam yig'layotganday bo'ldi. Yuragim siqilib sekin qarasam, yo'q, ammam yig'lamayapti. Faqat nafasi qisib, chuqur-chuqur entikyapti. Dadam qaddini g'oz tutib, generalning gapini eshityapti. Oyim ammamni qo'ltiqlaganicha rangi o'chibroq turibdi.

– Kamandiri o'shami, Shomurod? – Ammam dadamning yengidan tortdi. – Shumi?

– Nimaydi? – dedi dadam generalning gapini eshitmay qolishdan cho'chigandek shivirlab.

– So‘rayman! – Ammam tomog‘i g‘ijirlab, qat‘iyat bilan minbar tomonga imo qildi. – Katta kamandir bo‘lsa aytsin, Kimsanim qayoqda?

– Sekin... – Dadam barmog‘ini labiga bosib, yanayam pastroq ovozda shivirladi. – Keyin... opa... Hozir oldiga borib bo‘lmaydi. Ko‘rib turibsiz, ma‘ruza bo‘lyapti.

Ammamni hech narsa qiziqtirmas, tomog‘i g‘ijirlar, xira ko‘zlari umidli mo‘ltillar edi. Lekin dadamning gapi ta‘sir qildi shekilli, jim bo‘ldi.

General hamon vazmin, yo‘g‘on ovozda gapirar, bog‘dagi karnaylar uning ovozini guldiratib, atrofga taratar edi. U bugun Noma‘lum askarga haykal ochilayotganini, sovet xalqi dunyoni fashizm zulmidan saqlab qolgan jangchilarimizni hech qachon unutmashligini aytib, so‘zini tugatdi. Jimlik cho‘kdi. Dadam birdan hayratli xitob qildi.

– Iye, Oqsoqol-ku!

Qarasam Komil buva Orif oqsoqolni yonboshiga kirib, taxta supachaga olib chiqyapti. Oqsoqol buva boshdan-oyoq oppoq kiyingan. Egnida oq yaktak, oq shim. Delvagay ochilgan yoqasini to‘ldirgan oppoq soqoli shabadada hilpirab turgan oq bayroqqa o‘xshaydi.

– Bolalarim!

Munkillab qolgandek ko‘rinayotgan cholning ovozi karnaylardan shunday o‘ktam jaranglab eshitildiki, shivir-shivir qilayotgan odamlar taqa-taq jimib qolishdi.

– Dunyoda hamma narsa unutiladi, – dedi u yangroq ovozda. – Ammo-lokin farzand dog‘ini unutib bo‘lmay-di. «Noma‘lum askar» qatori «Motamsaro ona» haykalini ochayotganimiz bejiz emas. Men bilaman, bolalarim: bu yog‘i No‘g‘ayqo‘rg‘on, u yog‘i Ko‘tarma tomonlarda belida belbog‘i bor ne-ne yigitlar shahid ketdi. Qanchadan-qancha onalar haliyam bolasining yo‘liga ko‘z tikib o‘tiribdi.

Bir mahal yonboshimda kimdir entikayotgani qu-log‘imga kirdi. Qarasam, «Qora ammam» yig‘layapti. Yo‘q, ko‘zidan yosh chiqmayapti-yu, titrab-titrab yig‘layapti. Yelkasidan quchoqlab oldim.

– Bolalarim! – dedi Oqsoqol yana guldirab. – Es-hushi joyida odam o‘zi yotgan beshikni o‘zi tepib

sindirmaydi. Es-hushi joyida odam o'z uyiga o't qo'y-maydi. Es-hushi joyida odam o'z onasiga qo'l ko'-tarmaydi. Ammo yer yuzida haliyam yangi urush ochishni xayol qilayotgan nomardlar bor. Endi urush bo'lmasin desalaring mana shu qo'shaloq haykalni tavof qilinglar. Bu... – Shu yerga kelganda Oqsoqol-ning ovozi titrab ketdi. – Bu... tabarruk haykal.

Muzika yangradi. Qarsaklar guvilladi. Oqsoqol qo'ltig'iga kirmoqchi bo'lgan tabib buvani beozor nari surdi-da, qaddini g'oz tutib taxta supachadan tushdi.

General haykallardan birining bog'ichidan tortgan edi, boshiga ro'mol tashlagancha uzoq-uzoqlarga ma'yus termilib o'tirgan Ona paydo bo'ldi. U katta-katta, sertomir qo'llarini tizzasiga qo'yib, boshini quyi solib o'tirar, ko'zlarida cheksiz mung... umid bor edi. Negadir vujudim seskanib ketdi. Axir bu... ammam-ku. «Qora ammam»ning o'zi-ku! No'g'ayqo'rg'onga, uyiga borganimda xuddi shu alpozda o'tirganini ko'rganman, ko'p ko'rganman.

Ajab, qulog'im ostida «Qora ammam»ning g'ij-g'ij nafas olgancha aytgan ashulasi yana eshtilib ketgandek bo'ldi.

*«Jon bolam, jonim bolam,
Olloga topshirdim sani.
Ohimga ollo yetmadi,
Tuproqqa topshirdim sani...»*

Muzika bir zum tindi. Lekin o'sha zahoti tillarang karnaylar yana tantanali marsh chaldi. General ikkinchi haykalning ham ipini tortdi. Bu haykal past-roq ekan, oldimni odamlar to'sib turgani uchun ko'rolmadim. Yana qarsak guvilladi. General kimdir yoqib uzatgan mash'alani qo'lida baland ko'tarib, ikki haykal o'rtasidagi Mangu olovni yoqdi shekilli, muzika avjiga chiqdi. Saf tortib turgan askarlar avtomatini osmonga qaratib, baravar o'q uzdi.

Odamlar o'zanini buzgan daryodek shovullab o'sha tomonga oqdi. Kimdir yig'lar, kimdir qo'lidagi guldastasi ezilishidan qo'rqib, boshi ustida baland ko'targancha haykal tomonga talpinar edi.

Nihoyat odamlar siyraklashdi.

– Yuring, opa! – Dadam ammamning qo‘lidan tutdi. Cho‘loqlanib yo‘l boshladi. Ammam marmar zinalardan turtinib-surtinib haykal tomonga talpindi.

Ammamga o‘xshagan G‘amguzor ona kaftlarini tizzasiga qo‘ygancha boshini quyi solib o‘tirar, haykal poyi gullarga ko‘milib ketgan, kimdir guldastasini yerga tashlashga ko‘ngli bo‘lmay Onaning tizzasiga ko‘ndalang qo‘ndirib qo‘ygan edi.

G‘amguzor onadan o‘n qadamcha beridagi Noma’lum askarni endi ko‘rdim. Bunisi ancha kichkina haykal edi. U xuddi onasini himoya qilishga shaylangandek, transheyadan chiqib kelar, boshiga kaska kiyib olgan, o‘ng qo‘lida granata, chap qo‘lida avtomat bor edi. Ikkala haykal o‘rtasida bronza yulduz, yulduzning qoq markazida mangu olov lovullab yonyapti. Yigit haykali ham gullarga ko‘milib ketgan, atirgullar, lolalar, chuchmomalar rango-rang tovlanardi. Hozir osmonga avtomatdan o‘q uzgan askarlardan ikkitasi Ona haykali yonida, yana ikkitasi Noma’lum askar yonboshida qurolini ko‘ksiga bosgancha, g‘oz turibdi.

– Bole-em! – Qulog‘imning tagida yangragan far-yoddan seskanib ketdim. – Onasining go‘riga tushgan bole-e-em! – Ammam dadamning qo‘lidan yulqinib chiqdi-yu kalovlanib, yigit haykaliga talpindi. Yugurib borib, haykalni quchoqladi. – Onasini dog‘da qoldirib ketgan Kimsani-i-im! Jon bolam. Jonim bolam! – U haykalning kaskali boshidan quchoqlab o‘pa boshladi. Ro‘moli sirg‘alib tushib, haykalning avtomatiga ilinib qoldi. Oppoq sochlari to‘zg‘ib ketdi.

Oyim yugurib borib ammamni bag‘riga bosdi.

– Oyi! Unaqa qilmang, oyijon!

Haykal oldida postda avtomat tutib turgan askar yigitlar qilt etmadi. Ammo ikkalasining ham lablari titrab ketganini ko‘rdim.

Dadam ikkalamiz chopib bordik.

– Opa! – Dadam ro‘molni ilinib qolgan joyidan olib ammamning oppoq sochli boshiga tashladi. – Opa! Turing!

Oyim ham lablarini tishlagancha yig'lab yubordi.

– Oyijon! – dedi yalinib. – Bo'ldi, oyi! – U ammamning qo'ltig'idan ko'targan edi, «Qora ammam» talmovsirab atrofga qaradi. Ko'zlarida bolalarcha hayrat bor edi.

– Robiya, qizim! – dedi tishsiz og'zini hayron ochib. – Tanimadingmi? Kimsan akang-ku!

Qiziq, oyim ham «Qora ammam»ni quchoqlagancha haykalning yuziga yuzini bosib, titroq kafti bilan «Noma'lum askar»ning kaskali boshini siladi.

– Oyijon! – dedi yig'lab. – Qo'ying, unaqa qilmang!

– Amma, – dedim men ham yalinib. – Yuring...

Nihoyat ammamni amallab o'rnidan turg'izdik. Haykal chetida faxriy qorovulda turgan askar yigitlar avtomatni ko'ksiga bosgancha qilt etmas, faqat chap tomondagi men tengi yigitning ko'zlarida yosh sizib chiqqan, nuqul pastki labini tishlar edi.

O'ttiz oltinchi bob

NOMA'LUM ASKAR KIMSAN HUSANOV HIKOYASI

Odamlar, hushyor bo'ling!

Marhumlar hech nimani ko'rmaydi, deb o'ylaysizmi? Marhumlar hech nimani eshitmaydi, deb o'ylaysizmi? Marhumlar hech nimani bilmaydi, deb kim aytdi sizga! Biz hammangizni ko'rib turamiz, hamma gapingizni eshitamiz. Faqat siz – tiriklar bizning gapimizni eshitmaysiz. Bizning sizdan farqimiz shuki, oldingizga yurib borolmaymiz. Shuning uchun ora-chora tushingizga kirib turamiz. Siz bilan tushingizda gaplashamiz.

Ana, oyim! O'n qadam narida, kaftini tizzasiga qo'yib, ma'yus ko'zlarini olislarga tikib o'tiribdi. Xuddi eshik oldiga chiqib, botib borayotgan quyoshga termilgan ko'yi yo'l poylayotgandek. O'rtamizda yonib turgan gulxan tafti ikkalamizga baravar uryapti. Nariroqda gulsafsarlar ochilib yotibdi. Xuddi hovlimizdagiga o'xshagan gulsafsarlar. Rostimni aytsam, shu gulni judayam sog'ingandim...

Bilaman, bu – oyimning haykali. Ammo bugun onamning o'zini ham ko'rdim. Tirik diydorini! Yo'q, avval Oqsoqolni ko'rdim. Munkillab qopti. Ammo ovozi, gap-so'zi hamon o'sha-o'sha... Keyin yonimga oyim keldi. Qarib, bir hovuch suyak bo'lib qolibdi. Sochlari oppoq... O'shanda – vokzalga kuzatib chiqqanida bunchalik emasdi. Faqat ko'zlari o'sha... Boshimni silagan qo'llari o'sha... Uyam meni tanidi. Darrov tanidi! Onamning ko'zyoshi yuzimga tomganida yupatdim.

«Oyijon! Nega yig'laysiz? Mana, diydor ko'rishdik-ku!»

Afsus, oyim gapimni eshitmadi. Nachora, siz – tiriklar bizning ovozimizni eshitmaysiz.

Robiya oyimning qo'llarini bo'ynimdan ajratib olayotganda vujudim titrab ketdi. Sog'ingandim, juda sog'ingandim.

«Robiya! Meni tanimading-a! Sog'inib ketdim-ku!»

Robiya ham eshitmadi. Ammo onam bu safar gapimni tushundi.

«Tanimadingmi, qizim! Kimsan akang-ku!»

Sezdim. Robiya ham meni tanidi. Tanigani uchun yuzini-yuzimga qo'yib yig'ladi. Uyam o'zgaribdi. Sochlari qandoq uzun edi! Boshini yuvsa, kechgacha sochini qurit olmay oftobga solib o'tirardi... o'shanda Rashid abzining mo'rchasidan Oqsoqolning kelinlari bilan qaytayotganida ham sochlari nam edi. Mayin is taratib turardi. Sochiga oq oralabdi... Ko'zlari qandoq yonib, qandoq kulib qarardi menga! Tog'am uylangan kuni – qirq birinchi yilning Birinchi May bayramida shaharga teatrga tushganimizda, oydin kechada ikkovlashib qaytayotganimizda juda chiroyli, juda boshqacha kulgan edi. Hozir qandaydir charchoq, ma'yus ifoda ko'rdim ko'zlarida. Qiziq, Robiya qarib ketibdimi? Axir men qariganim yo'q-ku! O'n to'qqizdaman. Bundan chiqdi Robiya endi o'n sakkizga kiryapti. Nimaga unaqa! Nimaga sochiga oq tushadi!

Anavi kim? Shomurod tog'amga o'xshaydi-ku! Xuddi o'zi! Faqat mo'ylov qo'yib yuboribdi. Nega oqsoqlanadi? E, bo'ldi! Demak yarador bo'lgan.

Tog'am urushga ketganini Robiya yozgan edi. Ko'ksida nishonlar. Bundan chiqdi yaxshi jang qilgan. Tog'am ham qarib qopti. Sochining qorasidan oqi ko'p...

Faqat anavi yigitchani tanimadim. Yasanib olgan novcha yigit kim? «Amma» deb oyimga yopishdimi? Bundan chiqdi Shomurod tog'amning o'g'li. Mening jiyanim!.. Unaqa bo'lsa, nega Robiyani oyi deb gapirdi. Robiya nega tog'am bilan keldi? Balki... Nachora! Bo'lsa-bordir! Men... endi marhumman-ku.

Baribir, baxtliman! Ana, yonimda oyim o'tiribdi. Endi bizni bir-birimizdan hech kim judo qilolmaydi. Abadiy yonma-yon turamiz. Dunyoda baxtli tasodiflar bo'lmaydi, deb kim aytadi? Ugri daryosining qirg'og'idan xuddi mening xokimni olishgani baxtli tasodif emasmi! Tag'in xuddi shu yerga – o'z yurtimga olib kelishgani baxt emasmi?

Marhumlar hech nimani eslamaydi, desangiz xato qilasiz. Marhumlarning xotirasi siz – tiriklarnikidan yaxshiroq bo'ladi. Negaki, siz tiriklikning ming xil tashvishi bilan elib-yugurasiz. Bizning esa xotiralarni eslashdan boshqa yumushimiz yo'q.

* * *

Kaluga shahrining shundoq etagidan Ugri daryosi o'tadi. Kozyolsk degan shaharcha bor. Biz marhumlarku, yurolmaymiz. Ammo siz yo'lingiz tushsa o'sha tomonlarga boring. Qirq ikkinchi yilning fevralida O'zbekistonda bodom gullasa gullagandir, ammo u erlarda hali qahraton qish edi. Nomsiz tepalik degan ashulani ko'p eshitgansiz. Rossiyaning beaded tekisliklarida nima ko'p, nomsiz tepaliklar ko'p. Ammo o'sha qo'shiq xuddi shu yerdagi tepaliklarga bag'ishlangan. Biz piyodalar rotasi o'shanaqa nomsiz tepaliklardan bittasiga joylashib olgandik. Rotamiz nomigagina qolgan. Hammasi bo'lib ikki kishi edik. Men bilan Tengiz degan gruzin bola! Men hazillashib uni Dengiz deb chaqirardim. Tepalikdan qor bosgan Kozyolsk shaharchasi kaftdek ko'rinib turardi. Ko'p uylar yonib kulga aylangan, faqat mo'risi so'ppayib qolgan... Yakka-yolg'iz cherkov g'arib shumshayib turibdi.

O'sha kuni fashistlar tong-sahardan hujum boshladi. Avvaliga zambarakdan o'q uzib tepalikni tit-pit qilib yubordi. Kamida butun bir batalon joylashib olgan deb o'ylasa kerak. Keyin qor bosgan qiyalikdan tanklar o'rmalab chiqa boshladi. Ajab, ikki kishiga uchta tank!

Zanjirli g'ildiragidan qor sachratib kelayotgan birinchi tank yaqinlashishi bilan brustverga tarmashib chiqib, shisha butilkani uloqtirdim-u o'zimni okopga tashladim. Old tomonda shishaning jaranglab singani eshitildi. Lop etib olov ko'tarildi. Quvonib ketdim. Okopdan sekin mo'ralasam, tank to'ppa-to'g'ri shu tomonga kelyapti. Shisha tank ostiga tushganini angladim. Bo'ldi! Tamom bo'ldim! Yonilg'i shishasi granata emaski, tank zanjirini uzsa! Tilimgacha muzlab ketgandek bo'ldi, ajal sharpasini sezganda qo'rqmaydigan odam yo'q.

Tengiz sakrab okopdan chiqdi-da, yigirma qadamcha kelib qolgan tankka shisha uloqtirdi. Shisha to'ppa-to'g'ri tank benzobaki ustiga borib tushdi. O'sha zahoti avval quyuq tutun, keyin lop etgan alanga ko'tarildi.

— Urra! — Tengiz ovozi boricha hayqirdi. Tank taqqa to'xtadi, o'sha zahoti pulemyot tarilladi. Tengiz xuddi birov peshonasiga zarb bilan musht tushirgandek chalqanchasiga ag'darilib, ustimga yiqildi. Yelkasidan quchoqlab, yuziga qarasam ko'zlari ochiq, mo'ylovi orasidan qon sizib chiqyapti.

Miltig'imni olib, brustverga tarmashdim. Shlem kiygan ikki nemis yonib turgan tankdan tushib qochayotganini ko'rdim-u bittasini mo'ljallab o'q uzdim. Tegmadi. Ikki bukilib, tank orqasiga o'tib ketdi. Shunda tanklar panasida mo'r-malaxday yoprilib kelayotgan dushmanlarga ko'zim tushdi.

Yaqinlashib qolganlaridan birini qoralab, tepkini bosdim. Munkib yiqildi. Ana! Bittasi ketdi asfalosofilinga! Ajab, qo'rquvni unutib yuborgan edim. Yana birini mo'ljallab o'q uzdim. Miltiq chiq etdi-yu, otilmadi. Qiziq ustida hamma o'qimni otib bo'lganimni endi tushundim. Og'zidan qon oqib yotgan Tengizning nayzali miltig'ini olib endi qaddimni rostlagan edim, dushman tepalik bo'shab qolganini sezdi shekilli, hayqiriq bilan okopga yopildi.

Hali Tengiz yondirgan tank hamon lovullar, qolgan ikkitasi orqadan yorib o'tish uchun ikki tomonga burilib ketgan edi. Kaska kiygan, ko'rinishidan hammasi bir-biriga o'xshaydigan piyodalar vahshiyona qiyqiriq bilan to'ppa-to'g'ri ustimga bostirib kelardi. Yo'q, qo'rqmadim. To'g'rirog'i qo'rqishga ulgurmadim! Xayolimdan o'qdek vizillab bir fikr o'tdi. Mayli, o'lamam! Ammo hech bo'lmasa bittangni o'ldirib, keyin o'zim ham... Qor bosgan brustverga sakrab chiqdim. Nima bo'lganini o'zim bilmay qoldim. Shiddat bilan yugurib kelayotgan fashist miltig'imning nayzasiga ro'para bo'ldi. Nayzani sanchdimmi, o'zi urildimi, esimda yo'q.

Nayzaning uchi yumshoq bir narsaga g'irch etib kirgani, fashistning qo'lidagi avtomat shilq etib qorga tushgani, nemis qoq to'shiga sanchilgan miltiq nayzasini qo'shqo'llab changallagancha, «O, mayn mutter!»¹ deb oh chekkani g'ira-shira yodimda bor. U jon talvasasida yonboshiga ag'darilarkan, boshidan kaskasi uchib, qo'ng'ir sochlari yoyilib ketdi. Moviy ko'zlari dahshatdan olayib, bir nima deb ingradi. Yana shuni sezdimki, u nari borsa o'zim tengi yosh yigit ekan. Dahshat to'la ko'zlarida «meni nima qilib qo'yding» degan ma'no bor edi. Bularning hammasi bir soniyada bo'lib o'tdi. O'zim qo'rqib ketdim. Nayzani sug'urib olish uchun kuchim boricha miltiqni tortdim. Ammo u qo'llari bilan nayzani shunday qattiq changallab olgandiki, tortib chiqarishga kuchim yetmadi. Esankirab qolganimdan nuqul miltiq qo'ndog'ini siltar edim. Uch qadamcha orqaroqda kelayotgan boshqa nemis g'azabdan afti qiyshaygancha bir nima deb baqirdi. Avtomat milidan chiqayotgan tutunga bir lahza ko'zim tushdi-yu... Keyin...

... Avval qulog'imga muttasil guvillagan sado eshitildi (samolyot hujumida shunaqa bo'ladi), keyin ko'zimni ochib g'ira-shira yorug'likni ko'rdim. Zehn solib qarasam, derazaga o'xshash to'rtburchak tuynukdan bir parcha nur tushib turibdi. Gardishi yupqa

¹ Oh, onajon! (*nem.*).

ko'zoynak taqqan, yoqasida leytenantlik rombigi ko'rinib turgan ziyolinamo kishi boshimda o'tiribdi.

– O'rtoq leytenant! – o'rnimdan turmoqchi edim, chap oyog'im shunday sanchib ketdiki, ko'z o'ngimni yana tuman qoplab, ingrab yubordim.

– Tshsh! – dedi leytenant qulog'imga egilib. – Qo'rqma, soldat, tiriksan!

Sekin-sekin hushimga keldim. Dimog'imga achimsiq go'ng hidi urildi. (Odam betob bo'lganda, yaralanganida hidni yaxshi sezadigan bo'lib qolarkan.) G'o'ng'ir-g'o'ng'ir gaplar qulog'imga chalindi. Demak, dala gospitaliga olib kelishibdi. Qiziq, kim obkeldi ekan. Tengiz halok bo'lgandi-ku! Bundan chiqdi, yordam yetib boribdi-da! Unaqa bo'lsa, nimaga bittayam xalatli odam ko'rinmaydi? Leytenant bilan mendan bo'lak harbiylar ham yo'q-ku!

Hammasi chollar, kampirlar, nimqorong'ida ko'zi qo'rquvdan olayib ketgan yosh bolalar... Kim o'zi bular! Yo'q, bu dala gospitali emas. Ana, o'rtadagi ustun tagiga go'ng to'dalab qo'yilibdi. Cho'chqa go'ngi! Gospitalda cho'chqa go'ngi nima qiladi!

Ro'paradagi eshik og'ir g'iyqillab ochildi. Avval yop-yorug' nur, ketidan g'urillagan sovuq kirdi. Nur tushib turgan eshik oldida nemis kaskasini kiygan soldat ko'rindi.

– Shnel! – deb o'shqirdi avtomat o'qtalib.

Asirga tushganimni bilib, vujudim muzlab ketdi.

– Turaqol, soldat! – Ko'zoynakli leytenant «shunaqa gaplar, yigit!» degandek og'ir-og'ir bosh chayqadi. Qo'l-tig'imdan ko'tardi. Oyog'im sirqillab og'rir, tomog'im achishar, suv ichgim kelardi. Qarasam, kimdir etigimni yechib olib, chap oyog'imning boldiriga qalin qilib doka o'rab qo'yibdi. Hali bilmagan ekanman. Leytenant ham o'ng qo'li tirsagidan yelkasigacha doka bilan tang'ilgan, shinelining chap yengini kiygan, o'ng yengi esa osilib yotardi. Chamasi u o'zining sanitar paketini men bilan bo'lashgan shekilli, qo'lga tang'ilgan dokadan qon sizib chiqib, qorayib turardi.

Tag'in uchta nemis soldati avtomat o'qtalib cho'chqaxonaga kirdi. Odamlarning yelkasiga qo'ndoq bilan

urib, tashqariga hayday boshladi. Qiziq, hech kimdan sado chiqmas, faqat bolalar, qizaloqlar ko'zlari javdirab, onasining etagiga osilishar, ammo ular ham dod-faryod solishmas, hammasi sehrlanib qolgandek indamay tashqariga chiqardi.

Havo ochilib ketgan, quyosh charaqlab turar, oyoq ostidagi qor ko'zni qamashtirar, sovuq edi. Doka bog'lagan yarador tovonim qorga tegishi bilan jazillab achishib ketdi.

– O'zingni, tut, soldat! – leytenant bilagimdan qattiq qisdi. – Yiqilsang otib tashlashadi!

Uning ahvoli menikidan yaxshi emasdi. Ko'p qon ketgan shekilli, rangida rang qolmagan, meni suyagancha hansirab nafas olardi.

Muzlab yotgan so'qmoqdan yurib ketdik. Oldinda nemis ofitseri, ikki tomonimizda ikki soqchi, orqada yana bittasi. Har qadamni ming mashaqqat bilan bosardim. Yalang oyog'imni qorga tegizmaslikka urinar, boshim aylanardi. Birpasda ikki qulog'im muzlab qoldi. Shundagina boshyalang ekanimni sezdim. Ko'zoynakli leytenant sirg'anib ketdi. Ammo yiqilmadi. Meniyam suyab qoldi. Qarasam peshonasidan sovuq ter oqyapti. Nima qilyapman o'zi? Axir uyam yarador-ku, o'ligimni tashlab nima qildim?! Iloji boricha og'irligimni tushirmaslik uchun yarador oyog'imni ham ishga solib, dadilroq qadam bosdim. Birozdan keyin oyog'imga sovuq ta'sir qilmay qo'ydi. Qaytaga isib ketgandek bo'ldi.

Negadir qishloqqa emas, teskari tomonga ketardik. Orqada kelayotgan soqchi og'iz-garmonda allaqanday sho'x nemischa kuy chala boshladi. Chap tomonda – ellik qadamcha narida qor bosgan o'rmon qorayib ko'rindi. Archalar qor zalvoridan shoxini egib turar, pastroqda esa archalarning tanasi ko'kimtir bo'lib ko'rinardi.

– Qoching, o'rtoq leytenant! – dedim shivirlab. – O'rmonga...

U bir zum ikkilanib qoldi. O'sha zahoti «foydasiz» degandek bosh chayqadi. Qorning usti muzlagani bilan qadam bossangiz oyoq tizzagacha botib ketadi. O'n

qadam yurmasdan otib tashlashadi... Yurib-yurib, daryo bo'yidan chiqib qoldik. Sohilda qora mundir kiygan, shapkasining ikki chetidagi ixcham qora quloqchini bilan qulog'ini sovuqdan pana qilgan uch nemis ofitseri turar, sovuqda deysinib, qo'lqopli qo'llarini ishqalab shodonlik bilan shang'illab gaplashishardi. Bizni boshlab kelgan nemis ofitseri hammamizni saf torttirib, daryoga ro'para qildi. Bu – Ugri daryosi ekanini tushundim. O'n besh kun ilgari Ugri ikki marta qo'ldan-qo'lga o'tgan edi. Avval biz narigi sohilga bostirib bordik. Keyin chekinib, Kozyolsk oldidagi tepalikka qaytdik. Muzlagan daryo ustida haliyam son-sanoqsiz izlar tushib yotibdi. Narigi sohilda pachaqlangan nemis pulemyotini qor yarim ko'mgan, so'ppayib turibdi. Sovuq shamol muzlagan daryo ustida uvillab, qor supuradi.

Nemis ofitserlari o'zaro bir nimalarni gaplashdi. Boshim aylanib, ko'nglim gum-gum ketar, ko'z o'ngimni tuman qoplab olgan, yiqilib tushmaslik uchun ko'z-oyinakli leytenantga suyanib turar, ammo sovuqni endi sezmasdim... Chollar, xotinlar orasida turgan bolalar sovuq qotib ketdi shekilli, hiqillab yig'lay boshlashdi.

Quloqchinli shapka kiygan ofitserlardan biri allanima deb shang'illagan edi, ikki soqchi bizdan nariroqda turgan, boshiga quloqchin, egniga paxtalik kiygan sersoqol cholning qo'lini orqasiga qayirdi-da, ofitserlar tomonga sudrab ketdi. Sohilga olib borib, qorga o'tqizishdi, oyog'idan eski piymasini yechishdi. Keyin telpagini, paxtaligini... Shimini... oxiri qip-yalang'och qilishdi-da, daryo tomon sudrashdi. Qirg'oqdan o'n qadamcha naridagi muzi teshib qo'yilgan joyga avval e'tibor bermagan ekanman, odatda rus qishloqlarida suv olish uchun muzni teshib qo'yishadi. Ammo bu bitta chelak sig'adigan jo'n teshik emasdi. Har tomoni bir metr chadan, tekis qilib kesilgan, to'rtburchak teshik! Xuddi quduqning og'ziga o'xshaydi. Teshik yonida suyanchiqsiz kursi turibdi. Kursi ustida qora portfel.

Ikki soldat boyagi odamni zo'rlab teshikka tiqdi. Nemis ofitserlaridan biri hadeb tipirchilayotgan cholning bilagidan ushlab soatiga qaragancha tomir urishini sanay boshladi. Muzdan boshi chiqib turgan kishi avvaliga

«uvv» deb yubordi. Tipirchiladi. Rangi bir qizardi-yu, keyin bo'zdek oqarib ketdi.

– Zayt tseen minuten ertreyxt er alles, – dedi ofitser uning bilagini qo'yib yubormay. – Bitte ayne shpritse, shneller¹.

Boshqa bir ofitser kursi ustida turgan portfelni ochib, shprints chiqardi. Yugurib olib bordi. Narigisi, ikki askar yordamida hushidan ketgan cholni muz orasidan sug'urib oldi. Cholning badani go'shtdek qizarib ketgan edi. Ikki kishilashib bilagiga ukol qilishdi. Chol avval titradi, keyin ko'zini ochdi.

– Hayvonlar! – dedi xirillab. Qalashtirib so'kdi.

– Gut!² – Ukol qilgan ofitser soldatlarga bir imo qilgan edi, endi hushiga kelgan cholni tag'in suvga tiqishdi.

Biz – daryo sohilida turganlar ajdahoga duch kelgan quyondek sehrlanib qolgan edik. Hech kim qilt etmas, ofitser hamon suvdagi cholning tomirini o'lchab, soatiga qarab turar edi.

– Nima qilishyapti? – dedim xuddi suvga o'zim tushgandek vujudim muzlab.

Qo'ltiqlab turgan leytenantga qarasam, rangi qordek oqarib, tishlari g'ijirayapti.

– Ablahlar – dedi titrab. – Tajriba o'tkazyapti, Reyxning sovuq urgan askarlarini qaysi dori bilan qutqarib qolishni sinayapti.

– Shon toot, – suvdagi cholning tomirini o'lchayotgan doktor-ofitser mamnun jilmaydi, – in tsvantsig minuten toot³.

Ikki soldat yalang'och cholni suvdan sug'urib oldi. Sudrab olib borib, daryoning o'rtasiga, muz ustiga uloqtirishdi.

Safda turgan xotinlar, bolalar qiy-chuv solib yubordi. Nemis avtomatchilaridan biri odamlar boshidan oshirib tarillatib o'q uzgan edi, yana jimlik cho'kdi.

¹ O'n minutdan beri chidayapti. Marhamat, shprisni uzating, tez-roq. (nem.).

² Yaxshi! (nem.).

³ O'ldi. Yigirma minutda o'ldi. (nem.).

Tajriba o'tkazayotgan ofitser muz ustida depsinib, oyoqlarini isitib oldi. Qo'lqop kiygan qo'llarini ishqalab iljaydi. Tag'in bir imo qilgan edi, ikki avtomatchi safda turgan xotinlardan biriga yopishdi. Yelkasiga chang so-lib, sudragan edi, yetti yoshlardagi qizaloq xotinning etagiga osilib oldi.

– Mama! – dedi chinqirib. – Mama!

Soldatlar xotinni teshik tomonga sudrar, qizaloq esa onasining etagiga mahkam yopishib olgan edi.

Avtomatchilardan biri nemischa so'kinib qizchaning qulog'idan cho'zgancha safga qayta tiqdi. Xotirjamlik bilan xotinni yechintira boshladilar. Avval boshidan ro'molini yulqib olishdi. Keyin paltosini, jun paypog'ini, ko'ylagini...

– O! – Sinovchi doktor ofitser ayolning oppoq ko'kraklariga suqlanib qarab, tomoq taqillatdi.

Beixtiyor yuzimni o'girdim. Yalang'och ayolni umrimda ko'rmagan edim. O'sha tomonda hayajonli shovqin qo'pganini eshitib, yana burilib qaradim. Nemis avtomatchilaridan biri xotinning qo'ltig'idan olmoqchi bo'lgan edi, ayol basharasiga tarsaki tortib yubordi. Lekin o'sha zahoti yelkasiga tushgan qo'ndiq zarbidan qorga mukkasidan yiqildi. U qip-yalang'och edi.

Ayolni qorda sudrab oborib muz orasiga tiqishdi.

Doktor-ofitser nihoyatda ishbilarmonlik bilan soatiga qarab uning tomirini sanay boshladi. Ayolning oppoq ko'kraklari muz qirrasiga tiralib turar, hansirab nafas olar, ikki ko'zi biz tomonda edi.

Saf orasida turgan qizaloq jonholatda chinqirdi:

– Mama!

Avtomatchilardan biri shu tomonga yugurdi. Qizaloqni urdi shekilli, bolaning bo'g'ilib yig'lagani eshiltildi. Biroq zum o'tmay yana o'sha iltijoli faryod yangradi.

– Ma-ma!

Oradan ancha vaqt o'tdi. Muncha hisob-kitobga o'ch bo'lmasa bu fashist, muncha xotirjam bo'lmasa! U haliyam ayolning tomir urishini o'lchar, soatidan ko'z uzmas, ayol esa hadeganda hushidan ketmas, ikki ko'zi qizchasiga tikilgancha hansirab nafas olardi.

Doktor ofitserning silliq yuzida avval hayrat, keyin dahshat paydo bo'ldi.

– Fier und tsvantsig minuten! – dedi bidirlab. – Shtirbt nixt. Vie ayn xund tselebix!'

O'zi sovqotib ketdi shekilli, soldatlarga allanima deb buyruq berdi. Avtomatchilar ayolni suvdan sug'urib olishdi.

– Docha! – Qip-yalang'och xotin tirik qolganiga ishondi. Sovuqdan tishlari takillagancha yalang oyoqlari sirpanib-sirpanib qizchasi tomonga gandiraklab kela boshladi. Qizaloq saf orasidan otilib chiqib, onasiga yugurdi. Lekin ona-bola bir-biriga yetolmadi. Avtomatchilardan biri onani, biri qizaloqni yelkasidan chagallab, ikki tomonga tortdi.

Chinqirib yig'layotgan qizchanning ko'z o'ngida qip-yalang'och onani qorga o'tqizib bilagiga ukol qilishdi. Oborib, yana muz orasiga tiqishdi.

Bilagimdan tutib turgan leytenant nuqul ingrar, «ablahlar, vahshiylar», deb tishlarini g'ijirlatar, ammo u ham, men ham bir nima qilishga ojiz edik.

Doktor-ofitser o'z kasbini xo'p puxta egallagan ekan! Ayolning tomirini sekundigacha aniqlik bilan o'lchab sanar, har besh minutda qancha vaqt o'tganini aytib turar, yana bittasi esa daftarga yozib borardi.

Xotin yana o'ttiz besh minut chidadi. Ofitserlar quvonib ketishdi. Mamnun g'ujillashib qolishdi. Chamas, bu dorining ta'siri zo'rroq ekanini bir-biriga ma'qullab tushuntirar edi. Boyagi kap-katta erkak ukoldan keyin o'n minut o'tmay jon berdi. Manavi ayol esa xotin kishi bo'laturib, yarim soatdan oshdiki, o'lmayapti. Demak, bu galgi dorining foydasi ko'proq ekan!

Hisob-kitobga usta nemislar, «madaniyatli», «bilimdon» fashistlar bir narsani o'ylamasdi. Ayolni shuncha azobga bardosh berishga majbur qilgan kuch ukol emas! Onaning ko'z o'ngida qizchasi turibdi. U bolasidan umid uzolmayapti. O'lolmayapti. «Dono» fashistlarning aqli qandoq yetsin bunga!

¹ Yigirma to'rt minut. Joni itdan ham savil ekan. (nem.).

– Kaput! – Doktor-ofitser nihoyat ko‘ngli tinchib soat changallagan qo‘lini baland ko‘tardi.

Avtomatchilar ayolning ikki qo‘lidan tortib suvdan chiqarishdi. Endi uning butun badani ko‘kimtir-qizg‘ish tusga kirgan, lablarini g‘archcha tishlagancha qotib qolgan edi.

– Ma-a-a-ma-a-a!

Avtomatchilar xotinni sochidan sudrab boyagi chol tomonga olib ketishayotganida qizaloqning osmonni teshib yuborgudek chinqirig‘i olamni tutdi.

– Ma-a-mochka-a!

Doktor-ofitser yana depsidi. Qulog‘idan sovuq o‘tdi shekilli, shapkasi tagidagi kaftdek quloqchinlarini ikki qo‘llab ishqaladi. Avtomatchilar biz tomonga kelayotganini ko‘rib, beixtiyor orqaga chekindim.

– Bardam bo‘l! – Ko‘zoynakli leytenant bo‘g‘iq ovozda dalda berdi. – Alvido, soldat. Tirik qolsang, qasos ol!

Nemis avtomatchilari bir zum to‘xtab qoldi. Ikkalasi kulrang ko‘zlarida istehzo bilan goh leytenantga, goh menga qarar, molxonaga kirib, semizroq qo‘yni so‘yishni mo‘ljallagan qassobdek, ikkalamizdan birimizni tanlar edi.

Doktor-ofitser bir nima deb buyurgan edi, «qassoblar» meni tanladi. Ikkalasi ikki qo‘ltig‘imga yopishdi.

– Alvido, o‘rtoq leytenant! – dedim pichirlab. – Tirik qolsangiz...

Peshonamga tushgan musht zarbidan bir lahza hushimni yo‘qotdim. Lekin zum o‘tmay o‘zimga keldim. Oyog‘im sirqirab og‘rir, ammo avtomatchilar qadam bosishga qo‘ymay, muz ustida sudrab ketishardi.

– O‘rtoq leytenant! – Oxirgi kuchimni to‘plab hayqirdim. – Husanovman, Toshkentdan! Tirik qolsangiz, xabar qiling!

Esimni taniganimdan beri begona u yoqda tursin, ota-onamga ham yalang‘och ko‘rinmagan edim. Uyat bo‘ldi. Begona xotinlar turibdi. Begona qizlar... Bolaligimda Bo‘rijarda cho‘milganimda ham ishtonimni siqish uchun qamishzor ichkarisiga kirib ketardim. Shuni o‘ylashim bilan lop etib dadam, oyim, Robiya xayolimga

keldi. Ko'zimda yosh aylanyaptimi! Yo'q! Nega endi! Mana shu vahshiy fashistlar oldida-ya!

...Avvaliga butun vujudim muzlab ketdi. Muz ostidagi oqim uncha tez emas edi. Oyog'imni tipirlatib ko'rsam, tagiga yetmadi. Demak daryo chuqur. Avtomatchilardan biri qo'ltig'imdan ushlab, tomirimni tekshira boshladi. Negadir eng avval yarador oyog'im, keyin belim, oxiri boshim qiziy boshladi. Avtomatchi tepamda turaverib zerikdimi, hushdan keta boshlaganimni bildimi, qo'ltig'imni qo'yib yuborib nari ketdi. Ammo men hali es-hushimni yo'qotmagan edim. Ofitserning bilagimni tutgan charm qo'lqopi sovuq edi. Lekin zum o'tmay, qo'lqopi isib ketgandek bo'ldi. Entikib nafas olgancha uning yuziga qaradim. Sarg'ish qoshlari chimirilgan, soqoli qirtishlab olingan, yuzi sip-silliq. Atir hidi anqib turibdi. Yuqa lablari qimtilgan. Ko'kish ko'zlari tabassum bilan soatiga qarab, tomir urishimni sanayapti. Xuddi itni, maymunni tekshirayotgan olimdek. Hatto ora-chora mamnun iljayib ham qo'yadi.

«Shoshma, ablah! Tajriba qanaqa bo'lishini ko'rsatib qo'yaman! Muzlab o'lish qanaqa bo'lishini senam bir ko'rib qo'y!» Bu fikr xayolimga qayoqdan kelganini bilmayman. To'satdan vujudimga kuch yog'ilib kirgandek bo'ldi. «Amallab qo'lidan ushlab olsam bo'ldi!» Suv ostidagi qo'limni qimirlatib ko'rsam hali jon bor. Yaxshi! Suvning ustki qismi yaxlab – ko'kragim atrofini darrov yupqa muz qoplabdi. Bo'sh qo'limni sekin yuqori ko'tardim. Silliq yuzli doktor-ofitser muz shildiraganini eshitib, yarq etib qaradi-yu, parvo qilmay yana soatiga tikildi. Xotirjamlik bilan tomirimni o'lchashda davom etdi. Bo'sh qo'limni muz qatlamidan sekin chiqardim. Bilagimdan tutib turgan qo'lga chang solib, jonim boricha yopishib oldim. U seskanib ketdi. Ko'zlari ola-kula bo'lib, soatni qor ustiga otib yubordida, ikkinchi qo'li bilan bilagimga mushtlay boshladi. Dahshat ichida allanima deb chinqirdi. Avtomatchilar shu tomonga yugurdi. Lekin otmadi. Xo'jayinini otib qo'yishdan qo'rqqar edi. So'nggi kuchimni to'plab bir siltagan edim, ofitser sirg'anib muzga o'tirib qoldi. Yonboshiga ag'darilib, boshidan shapkasi uchib ketdi.

Boshi shundoqqina yonimga kelib qoldi. Jon holatda sariq sochlariga yopishdim. Soldatlar avtomat bilan bilagimga ura ketdi. Ammo sovuqdan tarashaga aylangan qo'limga og'riq ta'sir qilmas, akashak bo'lib qolgan barmoqlarim doktor-ofitserning sochiga changakday yopishib qolgan edi. Ofitser shunday dahshat bilan dodlab yubordiki, ovozi xotinlarnikidek ingichkalashib ketdi. O'sha zahoti boshi bilan suvga sho'ng'iganini, og'ziga muzday suv kirib, ovozi o'chgani, «bulq-bulq» qilib qolganini idrok etdim. Yana bir marta hushimga keldim. Boshim qandaydir qirrali narsaga urilganini his etdim. Oqim suv tagidagi muzga oborib urgan ekan. Qiziq, muz qatlami bilan suv o'rtasida bir-ikki enlik ochiq joy bo'larkan. Yutoqib nafas olgan edim, o'pkamga suv aralash havo kirdi. Pastda, suv tagida, butimning orasida qora gavda jon talvasasida tipirchilar, qo'lim changak bo'lib, hamon sochiga yopishib qolgan, qo'yib yubormas edim. Olisda yorug' tuynukdan ko'kimtir nur tushib turar, o'sha tomonda avtomatning tarillagani, bo'g'iq qiy-chuv elas-elas eshitilar edi. Shularni bir soniya his etdim-u keyin.... hammasi tamom bo'ldi.

* * *

...Bilaman, siz – tiriklar o'limdan qo'rqasiz. Tirikligimda men ham qo'rqar edim. Yo'q, o'lim unchalik dahshatli emas. Ertami-kechmi hammayam o'ladi-da! Hayot nima o'zi?.. Xudo hadya etgan in'om. Ammo odamlar har xil. Birov shu in'omni boshqalar bilan baham ko'radi. Birov boshqalarnikiniyam qo'shib olgisi keladi. Shu bilan umri uzayib qoladigandek. Gap qachon o'lishdami? Qanday o'lishda emasmi!

...Yarim kechadan oshdi. Hammayoq jimjit. Xiyo-bondagi gulsafsarlar sekin-sekin tebranyapti. O'n qadam narida oyim o'tiribdi. Ikkalamizning o'rtamizda olov lovullab yonyapti. Bilaman, endi u abadiy yonadi.

Onamning haykali bilan-ku, har doim suhbatlashaman: yonimda. O'zi bilan ham gaplashay.

Oyi! Robiya! Xabarim bor, bugun ikkalangiz ham hadeganda uxlay olmadinglar. Men bo'lsam, sizlarning

tezroq uyquga ketishingizni kutayotgan edim. Nima qilay, uygʻoq paytingizda yoningizga borolmayman... Mana endi, yaxshi boʻldi. Tushingizga kiranman. Siz – tiriklar bunaqa qilolmaydiz. Men esa ikkalangizning tushingizga baravar kira olaman.

– Oyi, meni tanidingiz-a?

– Tanidim, oʻgʻlim. Oʻlganmiding? Men boʻlsam...

– Yigʻlamang, oyi, men tirikman. Bugun oʻzingiz koʻrdingiz-ku!

– Dadang yoʻlingga koʻz tika-tika olamdan oʻtdi.

– Siz yashashingiz kerak, oyi. Men uchun...

– Yigirma toʻrt yil kutdim. Kimsan... Bu yogʻiga kuchim yetarmikin?

– Siz yashashingiz kerak.

– Xoʻp, jon bolam, xoʻp. Sen shunaqa desang...

– Yigʻlama, Robiya! Qara, yostigʻing hoʻl boʻlib ketibdi.

– Kimsan aka, sizni tanidim.

– Men ham...

– Kimsan aka, gunohimdan oʻting. Sizni kutdim. Koʻp kutdim. Keyin togʻamga...

– Boʻldi, Robiya....

– Kimsan aka! Boyagi yigitcha... Muzaffar.... mening oʻgʻlim. Yana bitta oʻgʻlim bor: Omon. Bilasizmi, Omon... Sizning oʻgʻlingiz boʻlishi mumkin edi...

– Nachora, Robiya! Urushni men oʻylab topganim yoʻq. Sen ham...

– Men-chi, sizga qiyiqcha tikdim. Koʻp qiyiqcha tikdim. Otingizni yozib tagiga gullar chizdim.

– Yigʻlama, Robiya.... Yoshingni art, jonim! Quloq sol. Eshitdingmi, hali Oqsoqol nima dedi? Yer yuzida yangi urush ochishni xayol qilgan nomardlar haliyam bor ekan. Eshityapsanmi, Robiya! Gapim qulogʻingda boʻlsin! Ayt. Muzaffarga, Omonga, hammaga ayt! Odamlar esini yigʻsin! Oʻshanaqa nomardlarning qoʻliga kishan solinglar. Toʻgʻri, oʻlish qiyin emas, oʻlim dahshatli emas, ammo inson yashash uchun tugʻiladi, Robiya! Eshitdingmi! Boʻldi, Robiya! Yigʻlama, ertaga yana kelaman...

**UCHINCHI KURS STUDENTI MUZAFFAR
SHOMURODOV HIKOYASI**

Muhabbatning shirin sharobi

Bugun bayram. Hosil bayrami. Biz hasharga chiqqan kolxoz ham, Bo'ka rayoni ham paxta planini allaqachon bajargan edi. Respublika planni to'ldirishini kutib turuvdik. O'zbekiston bugun raport berdi! Umuman, bu yil omadli keldi. Paxta mo'l, havo turib berdi, yomg'ir hadeb yog'ib g'ashga tegmadi. Sovuq tushmadi. To'g'ri, kechalari qirov tushib sovuq turadi. Ammo oftob chiqishi bilan paxtazordan yengil hovur ko'tarilib, g'o'zapoyaning spirtga o'xshash o'tkir hidi anqiydi. Birinchi etakni to'ldirish qiyinroq ko'chadi. Ariqqa to'kilgan «podbor» kechasi tushgan qirov salqinida yerga yopishib qoladi. Bitta-bittalab qirtishlab olish kerak. Ammo ikki soatlardan keyin havo isib ketadi. Egningizdagi paxtalik chopon og'irlik qilib qoladi. Etak to'lgan sayin vazminlashib, tizzangizning ikki ko'ziga urilaveradi. Yurishga qiynalasiz. Shunda paxta to'la etakni tagingizga qo'yib, birpas dam olsangiz maza qilasiz. Osmon tip-tiniq. Shunaqangi chuqur, shunaqangi tubsizki, tikilib qarasangiz boshingiz aylanib ketadi. Atrof jimjit. Faqat ship-shiydam bo'lib qolgan g'o'zapoyalar eshitilareshitilmas shitirlaydi. Hasharchi-studentlar onda-sonda bir-biriga gap tashlagani eshilib qoladi.

Ba'zan boshingiz ustida – tiniq osmonda «qurey-qurey» degan sado eshitiladi. Sinchiklab kuzatsangiz, arg'amchi solib ketayotgan turnalarni ko'rasiz. Har gal turnalarga ko'zim tushsa g'alati, sog'inch tuyg'ular mayin azob bergandek bo'ladi yuragimga. Nimaga shunaqa bo'layotganini o'zim bilmayman. Negadir «Qora ammam»ning bir vaqtlar aytgan gapi esimga tushadi. Turnalar past uchsa zamon arzonchilik bo'larmish. Ammamning gapini Munavvarga aytsam, yelkasini qisib kuldi. «Bo'lsa bordir. Buvinglar hamma narsani biladilar...» «Qora ammam»ni uyam tanirkan. No'g'ayqo'rg'onda turishganida ko'rgan ekan...

Bugun tushlikdan keyin «ertaga avtobus kelarkan» degan darak bo'ldi. Yana bir etak-yarim etakdan podbor terdik-da, hammamiz uyga qaytdik. Uyimiz shuki – yigitlar qishloqdagi maktabning devor suvoqlari ko'chib ketgan sport zaliga joylashganmiz. Polga poxol to'shab, qator joy solib yotamiz. Qizlar qishloqdagi xonadonlarga ikkita-uchtadan bo'linib ko'chib kirishgan, Munavvar bizning yotog'imizdan yuz qadamcha naridagi kampirnikiga tushgan.

Quvish aka degan brigadir bor. Doim qovog'ini solib yuradigan, kamgap Quvish aka bugun juda ochilib ketdi. Daladan qaytsak, maktab hovlisidagi baqaterakning pastki shoxiga ilingan qo'yning terisini shilyapti. O'zimiz saylagan oshpaz Ergash do'mpayib olib katta-kon doshqozon tagiga g'o'zapoya tiqyapti.

Ergash – yaxshi yigit. Rubob chaladi, ashula aytadi. Nima ovqat qilsa – moshxo'rdami, makaron sho'rva-mi – sayratib yuboradi. Faqat bitta aybi bor: sal befarq-roq. O'n besh kuncha ilgari qiziq bo'ldi. Munavvar ikkalamiz yonma-yon egatda paxta terib kelib, paykal chetiga chiqib qoldik. Dalaning u yog'i kanalga tutashib ketgan edi.

– Isib ketdim, – dedi Munavvar paxta to'la etagining bog'ichini echib. – Chanqadim.

Ikkalamiz etaklarni paykal chetiga qo'yib, kanal ko'tarmasiga chiqdik. Sho'ralab ketgan sohildan oshib, suv bo'yiga tushdim. Kanal sayozlashib qolgan, ammo suv tip-tiniq, osmonda suzib yurgan bulutlarning aksi suv ostida muallaq turar, atrof jimjit edi.

– Tushaver! – dedim qo'limni cho'zib.

Munavvar hozir yugurib kelib ko'ksimga urilishini, tutib qolish bahonasida belidan mahkam quchoqlab o'pishimni o'ylab, yuragim gursillab ketdi. U ko'tarmaning sho'ralab ketgan yumshoq tuprog'iga botib qolmaslik uchun yonlamasi sekin-sekin tushib kela boshladi. Keyin muvozanatini saqlolmay tezlab ketdi. Yaqin kelishi bilan mahkam quchoqlab dast ko'tarib oldim.

– Qo'ying, uyat bo'ladi! – Munavvar yosh boladek oyoqlarini tipirlatib, yelkamga beozor mushtladi. Suv

bo'yiga tushganda ham qo'yib yubormadim. — Chanqab ketdim axir! — dedi jilmaygan ko'yi ozorlanib. — Qo'y-voring!

Xuddi shu payt naq boshimizning ustida eshak hangrab qoldi. Shunaqangi g'ayrat bilan, zavqlanib hangradiki, Munavvar cho'chib ketdi. «Voy» dedi-yu, yelkamdan itardi.

— Qo'ying.

To'g'risi, o'zim ham cho'chib tushdim. Beixtiyor qo'limni bo'shatdim. Munavvar loy bosgan sohilga tushib, tuflisi botib ketdi. Qarasam, kanalning narigi betida, yo'l ustida eshak arava to'xtab turibdi. Arava ustida flyaga, non to'la qop. Ergash alyumin chelakdan eshakni sug'oryapti. Sug'oryapti-yu ikki ko'zi bizda. Iljayib turibdi. Munavvar yuzini to'sganicha loyga botabota oqim bo'ylab yugurib ketdi. Nariroqqa borib, cho'kkalab o'tirdi, yuzini yuva boshladi. Ergashga «ket» deb imo qildim. U yoyilib iljaydi. Chelakni eshakning tumshug'iga tiqishtirdi.

Eshak hali xumoridan chiqmagan ekan. Ko'kimtir kulrang lablarini cho'chchaytirib havoni birpas iskadi-da, qaytadan hangray boshlaydi. Quloqlari dikkayib, dumi xoda bo'lib ketdi. Har hangraganda ikki biqini kirib chiqib turar, bo'ynini cho'zib, tumshug'ini naqd Ergashning qulog'iga tirab o'kirar, Ergash bo'lsa parvo qilmas, nuqul iljayar edi. Nihoyat eshakning ovozi hazinlashib qoldi. Pishqirib qo'ydi. Tag'in bir hangragisi keldi shekilli, burun kataklari kerilib, boshqatdan hirqillashga tushdi. Lekin o'ylab turib shashtidan qaytdi. Ergash tutgan chelakka tumshug'ini tiqdi. Xohlamaygina ichdi. Ichgandayam qandoq deng! «Akkuratniy!» Bir martayam pishqirmadi. Faqat chelakdan boshini ko'targanida ko'kimtir-kulrang lablariga ilingan tomchilar oftobda yaltirab ketdi. Bir-ikki tomchi paqirga qaytib tushdi.

«Jo'nab qol» degandek, mushtimni do'laytirgan edim, Ergash yana iljaydi. Suvning qolganini eshak ustiga sepdi. Chelakni aravaga — ovqat bug'i chiqib turgan flyaga yoniga qo'ydi-da, eshakni niqtadi.

– Xix! – uch-to‘rt qadam yurib, shu tomonga qaradi. – Tezroq boringlar! – dedi quvlik bilan baqirib. – Makaron sho‘rva sovib qoladi.

Zax bosgan sohildan yurib yuzini yuvayotgan Munavarning tepasiga bordim. Kulgim qistadi. Shum-ey! Eshagini kelib-kelib shu yerda sug‘oradimi! Mayli, Ergash birovga gapiradigan yigit emas. O‘zining Gulyasi ham uch kunda bir «kasal» bo‘lib, oshpazga «pomoshniklik» qiladi-ku.

– Yur! – dedim Munavvarni qistab. – Makaron sho‘rvadan quruq qolmaylik!

– Ichmayman! – Munavvar to‘satdan o‘qchiy boshladi. – Makaron sho‘rvasi boshida qolsin!

– Nimaga?

– Ko‘rmadingizmi! – Munavvar jahl bilan qo‘l sil-tadi. – Eshagini sug‘ordi-ku! O‘sha chelakda suv olib, choy qaynatadi, ovqatga suv soladi! Ichmayman! Qizlargayam aytaman... Hayronman, Gulya shuni nimasini yaxshi ko‘radi! Mol!

– Qayoqdan ko‘rding, desa nima deysan? – Yana kulgan edim, Munavvarning battar jahli chiqib ketdi. Labi pirpirab qarg‘adi.

– Bir oydan beri shuning ovqatini yeb yuribmizmi? Tfu!

Elkasiga kaftimni qo‘yib, yupatdim.

– Qo‘ysang-chi, Munavvar, eshak ham beozor bir maxluq-da!

– E, boring! – Munavvar hammasiga men aybdor-dek jahl bilan nari ketdi... O‘sha kuni tushlik yemadi. Kechki ovqatga ham kelmadi. Ertasigayam... Kechqurun qishloq markazidagi do‘konga borib, Munavvarga kolbasa, Ergashga bir emas ikkita alyumin paqir olib keldim.

– Jon do‘stim, – dedim yalinib. – O‘sha chelak esha-gingga siylov, bunisida sug‘ormagin, xo‘pmi?

... Ana o‘sha «qo‘li shirin» oshpazimiz hozir lunjini shishirib o‘choq puflayapti. Nariroqda, eski gazetalar ustida bir uyum piyoz, allaqancha sabzi yotibdi.

– Hormang, birgad! – Bizga rahbar bo‘lib chiqqan

keksa domlamiz Sadir Fuzaylovich uzoqdan Quvish aka bilan omonlashdi. – Nima harakat?

Qo'yni nimtalayotgan Quvish aka yoyilib iljaygan edi, siyrak, sarg'ish mo'ylovi tagida yirik-yirik tishlari ko'rinib ketdi.

– To'y qibjatibbiz, domulda! Maqtani o'rinladiq!

– Barakalla, ukam, – domla qizlarga yuzlandi, – qani, opoq qizlarim, sabzi to'g'rashga kim usta?

Birpasda hamma ishga kirishib ketdi. Allaqayoqdan pichoqlar topildi. Xonadonlardan sabzi taxtalar chiqdi. Voy, Munavvar tushmagur-ey! Cho'kkalab o'tirib, shunaqangi shatillatib sabzi to'g'rayaptiki, ko'z ilg'amaydi. Uyda shunday xizmat qilib, oyimni, dadamni xursand qilishini ko'z o'ngimga keltirdim-u yuragim shirin orziqib ketdi. «Voy kelinposhsha-ey!»

– Qaramang, ko'zingiz tegadi! – Munavvarning yonida sabzi artib o'tirgan Gulya qo'lidagi pichoq bilan po'pisa qildi.

Munavvar yarq etib, menga qaradi. Jilmaydi.

– Undan ko'ra o'tin yoring! – dedi Gulya nozlanibroq. – Ergash akamga qarashing.

Burilib ketayotgan edim, Munavvar to'xtatdi.

– Avval qozonni yuvinglar... O'zingiz yuving. Eshitdingizmi?

Kulib yuboray dedim. Gulyaning oldida ochiq ayt-madi-yu Ergashning qozonni tozalab yuvishiga ishonmayapti.

Borsam, Ergash allaqachon qozonga yog' solib qo'yibdi. O'choqda olov gurillayapti. Sirli tog'orada Quvish aka nimtalagan qo'y go'shti...

– Kelganing yaxshi bo'ldi, kachegar kerak edi o'zi! – Ergash qorakuya yuqqan kaftining orqasi bilan terlab ketgan peshonasini artdi. – Sabzini tezlatiqlar-ey, qizlar! Yog'im yonib ketadi... – dedi Gulyalar o'tirgan tomonga qichqirib. Keyin menga yuzlandi. – Jizza yeysanmi?

Osh dam yeguncha yigitlardan uch kishi qishloq markazidagi do'konga «g'izillab» borib keldik. Kecha navbatdagi «besh kunlik»ning haqi tekkan edi. Birovga

besh so'm, birovga o'n so'm... qizlarga shampan olmoqchi edik, yo'q ekan. «Hosilot» xarid qildik. Kelsak qizlar allaqachon maktab hovlisiga – yerga brezent tashlab joy qilishibdi. Quvish aka o'g'irdek kattakon chirpit shishani quchoqlab kelib qoldi.

– Musallas! – dedi shishani o'rtaga qo'yib. – To'y, bo'lib jatir. Ishmasak, bo'lmas!

Voy Quvish aka-ey! Bugun judayam ochilib ketdi-ku. Uyiga tag'in besh-olti marta qatnadi. Har bor-ganida ikki qo'ltig'ida do'ngdek-do'ngdek qora tarvuzlarni qistirib keladi.

Rostini aytсам, oshni sog'ingandim. Ergash ham palovni «o'rmatib» yuboribdi. Jinday-jinday ichdik. Mazza qilib osh yedik. Quvish aka araqqa musallasni aralashtirib urgan shekilli, kayfi oshib qoldi.

– Shalsang' endi, do'mbirang'ni mang'layi qara! – dedi qiyqirib.

Ergash rubobini bir zum sozladi-da, chala ketdi. Hovli o'rtasida gulxan lovulladi. Ergashning ovozi uncha yaxshimas. Bo'g'ilib, do'rillab chiqadi. Ammo ashulani yurakdan aytadi.

*Aylama-aylama, aylaganim bor,
Qizlarning ichida tanlaganim bor...*

Eng oldin Quvish aka davraga chiqdi. Lapanglab o'ynab ketdi. Tag'in ko'rsatkich barmog'i bilan qoshiga nuqib, muqom qiladi. Qiyqiriq, qarsak.

O'rtaga qizlar tushdi. Avval Gulya, keyin Shohida... Ana, Munavvar! Olov taftidanmi, jinday vino ichgani uchunmi, chiroyli, tiniq yuzi lovillab ketyapti. Yo'q, u ortiqcha qilpanglamaydi. Ammo ingichka, uzun qo'llari shu qadar mutanosib harakat qiladi, ko'zlari shu qadar ma'noli suziladiki, beixtiyor mahliyo bo'lib qolasiz... Uning imolari, ko'zlarining ma'noli, nimtabassumi hech qaysi qiznikiga o'xshamaydi. Iboli, uyatchan, ayni paytda muhabbatga chanqoq yuragi shundoq ko'rinib turganday. Qalbimda hayajon, g'urur, muhabbat – hammasi junbushga kirdi. Bilaman, bu imolar, bu «adresli» tabassum, sadoqat hammasi meniki – hammasi menga tegishli!

Qarsak avjiga mindi. Munavvar o'ynayotgan qizlar orasidan sekin sirg'alib, chetga chiqdi. Yuragim gursillab urgancha yoniga bordim.

– Charchadim, – dedi u sezilar-sezilmas harsillab. – Isib ketdim.

Xiralik qilib, uni yana o'yinga tortishlarini xohlamasdim.

– Aylanib kelamizmi? – dedim sekin.

U indamay qo'limdan tutdi. Qishloq ko'chasidan asta-asta yurib ketdik. Pastak uylar derazasida chiroq ko'rinadi. Itlar tumov bo'lgandek bo'g'iq akillaydi. Havoda tezak hidi aralash g'o'zapoya isi anqiydi. Yurib-yurib, kanal bo'yiga kelib qoldik. Uzoqda, qishloq tomonda qarsak ovozlari eshitiladi. Gulxan shafag'i elas-elas ko'zga chalinadi. Osmonda chodir tutgan oy junjikib mo'ralaydi. Yupqa, qat-qat bulutlar muallaq qotib qolgan. Xuddi kelinni boshiga ro'mol yopmoqchi bo'lgan yangalardek oy yuzini to'sishga behuda urinadi.

Munavvar qunishib boshini yelkasi orasiga oldi.

– Endi sovqotib ketyapman.

– Sovuq emas-ku!

Yelkasidan quchishim bilan ohista burilib, qucho-g'imga kirdi. Qaynoq, titroq lablari labimni kuydirdi.

– O'tiramizmi? – dedim entikib.

U indamay bosh silkidi. Keyingi kunlarda havo ochilib ketgan bo'lsa ham, bir hafta ilgari yoqqan yomg'irning zahri hali ketmagan, yer zax edi.

– Hozir! – yugurib borib kanal qirg'og'idagi qurib qolgan, ammo yomg'irdan keyin yumshoq tortib, mayinlashgan burganlardan yulib keldim. Kalta paxtaligimni echib, burgan ustiga tashladim.

Yonma-yon o'tirdik. Butun vujudim tarang tortilib, mahkam bag'ringa bosdim. U o'zini olib qochmas, ojiz entikar, ko'ksi titrar edi.

– Meni yaxshi ko'rasiz-a? Judayam yaxshi ko'rasiz-a?.. – dedi erkalanib.

– Munavvar! O'zimning Munavvarim!

Bir lahza esimni yo'qotib qo'ydim...

U ojiz talpindi.

– Nima qilyapsiz? Qoching, yaxshimas... Qoching!

Hiqillab yig'lay boshlaganidan keyingina o'zimga keldim. Qilib qo'ygan ishimdan o'zim qo'rqib ketdim. Nima qildim? Negadir unga yalingim, kechirim so'ragim kelardi. Nazarimda u hozir dod solib yig'lashi, o'kinib ta'na qilishi kerakdek edi. Yo'q, kafti bilan yuzini to'sgancha yig'i aralash iltijo qildi:

– Yaxshi ko'rasiz-a? Judayam-a?

– So'rab nima qilasan, Munavvar!! – dedim titrab. Kaftini ohista silab, yuzidan oldim. – O'zing bilasan-ku!

U yig'i aralash jilmaydi. Oy nurida yuzi yanayam oqarib ketgandek edi.

– Menikisiz-a? – U g'ira-shira oy nurida ko'zimdagi ma'noni uqib olmoqchidek yuzimga sinchiklab qaradi. Keyin sekin o'rnidan turdi-da, chayqalib-chayqalib suv tomonga yurib ketdi. Sakrab o'rnimdan turgan edim, yarq etib burilib qaradi.

– Kelmang, – dedi ham iltimos, ham buyruq ohangida.

Beixtiyor yerga o'tirib qoldim. Dimog'imga namiqqan burgan hidi, keyin Munavvarning qadrdon isi urildi. Yuragim qinidan chiqib ketgudek gursillar, osmondagi oyni ham, yupqa, pokiza bulutlarni ham, qoramtir tusga kirib qolgan paxtazorni, kanalni, Munavvarni – hammasini baravar quchoqlab olgim, butun dunyoga eshittirib baqirgim kelardi.

– Odamlar! Men baxtiyorman! Mening Munavvarim bor, odamlar!

O'ttiz sakkizinchi bob

**SHAHAR IJROQO'MINING RAISI OLIMJON
KOMILOV HIKOYASI**

Qon to'kkan «qahramon»

Hamma narsaning qadri yo'qotganingdan keyin bilinarkan. Injenerlik qilib yurganimdayam ishim ko'p deb noligan ekanman-da, men nodon! To'g'ri, ish ko'p edi. Lekin faqat o'zimizning boshqarmaga javob berardim. Rost, qishda loy botib, yozda tuproq kechib

qurilishlarda yurardim, lekin minglab odamning dardi hasratini o'ylab boshimni qotirmasdim. Institutni bitirganimdan beri o'tgan o'n yil ham bir bo'ldi, gorispolkom raisligiga saylashganidan buyon o'tgan uch yil ham. Davlat komissiyasi Farg'onaga jo'natayotganida bunaqa bo'lishini bilmagan edim. Ikki yil ishlayman, Farg'onada uy-joy quraman-u Toshkentga – ota-onamning bag'riga qaytaman, deb ishongandim. Qayoqda? Ikki yillik «muddatim» bitmasidanoq «ishning ko'zini biladigan» yosh kadr deb rayon kengashiga deputatlikka saylashdi. Deputatlik vakolatim bitmasidan ketishga haqqim yo'q ekan. Ikki yil emas, to'rt yil qoldim. Keyin shahar sovetiga deputat qilishdi. Kelajakda quriladigan Qirguli massivining loyihasiga o'zim ham qiziqib ketdim. Kunduzi ishlayman, kechqurunlari shikoyatchilarni qabul qilaman... Hash-pash deguncha oradan yana to'rt yil o'tib ketdi. Nihoyat, Toshkentga qaytishga qat'iy jazm qilib turganimda Qo'qon shahar Sovetiga rais qilib saylashdi: butunlay qo'qonlik bo'lib qoldim. Bultur gorkomga kirib, rostini aytdim. «Ota-onam keksayib qoldi. Ikkalasiyam kasalmand, qolaversa yoshim o'ttizdan oshdi, uylanishim kerak. Toshkentga qaytay», desam, kotib koyib berdi. «Barakalla, yigit, kim aytadi sizni talantli tashkilotchi, ilimli injener deb! Ota-onangizni ko'chirib keling, uy topib beramiz. Nima, Qo'qonning qizlari Toshkentnikidan yomonmi?» Dadam bilan oyimning fe'lini bilmasam ekan. «Kindik qoni to'kilgan» joydan bir qadam ham jilmaydi. Buning ustiga dadam har xatida noliydi. «Tanangizga o'ylang, o'g'lim, siz tengilar uch-to'rtta bolali bo'ldi, qovunning ham oldini oldin, keyini keyin, oyog'ingizni to'rtta qilib qo'yaylik», deydi.

O'zimga qolsa-ku, judayam boshim tuynukdan chiqib ketayotgani yo'q. Ahvolim bu bo'lsa: it yotish – mirza turish. Ammo ota-onam keksayib qoldi. Ular ham kelin ko'rgisi keladi, nevarasini o'ynatib yurgisi keladi... U yog'ini so'rasangiz (odam aytishgayam uyaladi) gorkom sekretari ta'rifiqlagan mendek «zamonaviy» tashkilotchi yigit yoshim o'ttizdan oshib, bironta qizning bilagidan ushlamabman. Qo'ltiqlab teatrlarga olib tushmabman.

Avval o'qish bitsin, keyin bir gap bo'lar dedim, bu yoqqa kelib ishga sho'ng'ib ketdim...

Sobiq gorispolkom raisi rosa «hunar ko'rsatgan» ekan. Savdo boshqarmasining boshlig'i – jiyani. Kvartira bo'limning mudiri – qaynisi. Obshepit mudiri– qayinsinglisi... Qo'sha-qo'sha uchastkalar, oftobda qatiq yalashgan urug'ining urug'iga navbatsiz kvartiralar, mashinalar. Qizig'i shundaki, hech kim mushugini pisht demagan. Bundan chiqdi, o'zidan kattalarning og'zini moylagan. Ammo bu yog'ini kavlashtirsang, baloga qolasan.... Qilar ishni qilgan ular, axlatini tozalaydigan – men.... Balki chindan ham mendan rahbar chiqmas. Ishning ko'zini bilmasman. Nima qilay? Hammasi bilan yoqa bo'g'ishib, prokurorga topshirolmayman-ku!

Avvallari amaldorlarni jinim suymasdi. Amaldor deganda negadir Umar zakunchi ko'z oldimga kelaverardi. Qo'pol, zolim, do'kay. Boshimga tushganidan keyin aqlim yetdi. Ko'pchilikka rahbar bo'lish og'ir ekan. Yuqoridan beriladigan buyruqlar hammasi to'g'ri. Transport – chatoq. Suv ta'minoti – chatoq. Isitish sistemasi – rasvo. Qurilish – sust. Savdoda – chayqovchi o'g'rilar... Hammasini chaqirib siquvga olasan. Hammasi boshini egib jimgina eshitadi. Bitta-yarimtasi «obyektiv» sabablarni aytadi. Zapchast yo'q, bug' qozoni buzilgan, bazada mol yo'q... «Sening o'rningga bug' qozonini men tuzataymi», desang, xo'p deydi-yu, chiqib ketadi. Ammo hafta o'tmay, yana o'sha masalaga qaytasan. Gorkom byurosida seni tippa-tik qilib qo'yib shunaqa gaplar aytishadiki, ilon po'st tashlaydi. Go'yo sen borib turgan laqmasan!

Shunaqa kunlari uyga tongotarda kelaman. Kata-lakdek xonamga kirib och-nahor yotib qolaman. Oilam bo'lsaki, oldimga bir kosa issiq qo'ysa! Ota-onam yonimda bo'lsaki, holimdan xabar olsa. O'zlari yordamga muhtoj. O'g'lim qachon keladi, qachon uylantiramiz deb qiz qidirish bilan ovora. Uch soatdan keyin uyg'onmasam bo'lmaydi. Ertalab soat to'qqizda shikoyatchilarni qabul qilishim kerak. Yozda, otpuskamdan atigi uch kungina ruxsat olib uyga – Toshkentga borganimda dadam qattiq tayinlagan edi.

«Amal tegdi deb kerilmang. Odamlarning diliga ozor bermang! Kim nimani so'rasa xo'p, deng! Yordam bering».

Qanaqasiga hammaga xo'p deyman? Nohaq talab bilan kelsa-chi! Uyi isimayotgan qahramon onaning shikoyati to'g'ri. Besh yildan beri «Zaporojets» ololmay sarson bo'lib yurgan urush nogironining shikoyati to'g'ri. (Savdoda shunaqa ablahlar borki, «shapkasi»ni bermasang qishda qorni ham ravo ko'rmaydi.) Lekin bezorilik qilib birovga pichoq urgan arzandasini qutqarib qolish uchun militsiya boshlig'iga telefon qilishni so'ragan cholg'a nima deyman? Bir bechora biqinidan pichoq yeb kasalxonada yotsin-da, buning o'g'liga «berahmlik» qilayotgan tergovchiga men zug'um qilishim kerak! Nega axir!

Eng yomoni – bora-bora shikoyatchini ko'rsa odamning yuragi bezillaydigan bo'lib qolarkan. Xotin piyonista eridan ajramoqchi. Ikki xonali uyda turadi. Eri chiqib ketolmaydi, o'ziyam. Ikkalamizga alohida uy topib berasan, deb turib oladi. Yana biri keladi. Da'vosi bitta: «Erim yaxshi-yu qaynonam yomon, qaynonamni tuzatib bering». Joningdan to'yib ketasan. Qaynonasi yetmishga chiqqan bo'lsa – biron joyda ishlasaki, boshlig'iga aytib tartibga chaqirsang. Yetmish yoshli kampirni so'kib bo'lmasa, hayfsan berib bo'lmasa.... Nima qilish kerak! Tag'in bittasi xotinidan shikoyat qilib keladi: buzuqmish. Qo'shnisi bilan tutib olibdi. «Qo'yvor yigit bo'lsang! Choponni yelkaga tashlab chiq – ket!» «Ketaman, lekin ikkita bolam bor. Xotinim ketsin. Sud xotinni himoya qilyapti. Bola tarbiyasini buzuq xotinga ishonmayman!»

Har xil odamlarni ko'ravergandan keyin psixolog bo'lib ketarkansan. Bir toifa shikoyatchilar bor: uyalib, qimtinib, hatto qo'rqib kiradi. Arzimagan narsaniyam ovozi titrab gapiradi. Bular – ko'pincha haq bo'ladi. Ijtimoiy ta'minot bo'limidami, rayonoda yoki boqchadami yalpayib o'tirgan byurokrat yoki poraxo'r amaldordan aziyat cheka-cheka, oxiri najot izlab kelgani sezilib turadi. Bunaqalarga yordam bermaslik– borib turgan gumrohlik.

Bir xillar bor: o'zi kelishdan oldin «vertushka» zarda bilan jiringlaydi. Yuqoridan.

«Olimjon Komilovich! Huzuringizga falonchi pistonchiyev boradi. Iltimos yordam bersangiz». Keladi, o'sha falonchi pistonchiyev, dimog'idan eshak qurt yog'ib. Iltimosi shuki, qilsang ham aybdor bo'lasan, qilmasang ham. Qilsang vijdoning oldida aybdor bo'lasan, qilmasang, qo'ng'iroq tugmasini bosgan «katta»ning oldida. Dod deb yuborging keladi.

Yana bir toifa bor. Eski qadrdonlardek bemalol omonlashadi. Ovozini pasaytirib gapiradi. «Bilamiz, sizdayam bola-chaqa bor, shu ish to'g'ri bo'lsa qarzdor bo'lib qolmaymiz», degandek imo-ishoralar qiladi. Bola-chaqa u yoqda tursin, xotinim ham yo'qligini bilmaydi. Ammo pinjimga kirib ketgudek bo'ladi. To'g'ri, pora beraman demaydi-yu, dudmalroq qilib gapiradi. Bunaqalar bilan muomala qilishni boplayman. Trubkani ko'tarib, ataylab ikkita raqam teraman. «Militsiyami?» deyishim bilan yo qochib qoladi, yo bidir-bidir qilib boshqacha sayrab ketadi.

Tag'in bir xillar bor: eshikdan yig'lab kiradi. Qo'yib bersa hammayoqni otbozor qilib yuboradi. To maqsadiga tushunguncha yo valokardin ichasan, yo validol shimiysan.

Nihoyat yana bir guruhi bor. Eshikdan do'q urib kiradi. Iloji bo'lsa kostyumiga GTO znachogini ham taqib oladi. Gapni «biz yoshlarning baxti uchun» qon to'kkanidan boshlaydi. (Qizig'i shundaki, haqiqiy jangchilar do'q urmaydi. Niyatini to'g'ri tushuntiradi. Negaki ular o'zining qonuniy huquqini ham, ma'naviy haqqini ham yaxshi biladi.) Mana bunaqalarni surishtirsangiz yo urushdan qochib yurganlar, yo mast bo'lib avtobus urib ketganda «invalid» bo'lganlar ekani aniqlanadi. Lekin bular «yozishga» usta. Ishi bitmasa o'zining nohaqligini o'ylab o'tirmaydi. Qo'yib bersangiz Birlashgan Millatlar tashkilotigacha ariza yozadi.

Bugun xuddi shunaqalardan bittasi kirdi. Qabul kuni emas edi. O'n minutdan keyin meditsina bo'yicha kengash chaqirib qo'ygan edim. (Kasalxonadan bir vrach

pora olib operatsiya qilayotgani haqida shikoyat tushgan edi.)

Kotiba ayol yig'lamoqdan beri bo'lib, eshikdan kirdi.

– Bir odam hech qo'ymayapti, Olimjon Komilovich! Bugun qabul yo'q desam, ko'nmayapti.

Kotiba gapini tugatmasdan eshik zardali taraqlab ochildi. Qunduz yoqali palto, chaqmoq telpak kiygan kishi shahdam qadamlar bilan kirib keldi.

– Berlingacha borgan, sening xo'jayiningga kirolmaymanmi! – dedi kotibaga chaqchayib.

Tanidim! Chaqmoq telpagidan, qamchi solgandek kesib-kesib gapirishidan tanidim: «Umar zakunchi! Momaqaldiraq gumburlab turgan bahor kechasi. Ra'no kelinoyimning pastak devori yodimga keldi. Biqinini changallab ikki bukilib qolgan Robiya opamning, «hech kimga aytmay qo'ya qol, aqlli bolasan-ku», deb yalingani esimga tushdi.

Yo'q. Zakunchi o'zgarmabdi. To'g'ri, ancha qarib qopti. Chiroyli taroshlangan mo'yloviga oq oralabdi. Ammo ovozi o'sha, sovuq, ko'kimtir olov sachrab turgan ko'zlari o'sha....

– Siz Berlingacha borganmisiz? – dedim ko'ziga qattiq tikilib.

U javob bermadi. Kotibaning chiqib ketishini kutdi.

– O'tiring, – dedim ro'paradagi kursiga imo qilib.

U aytmasang ham o'tiraman, degandek kresloga cho'kdi. Chaqmoq telpagini yechib, avaylab stolga qo'ydi. Ko'zimga sinovchan tikildi. Aniq bilib turibman, tanimadi.

– Borganmisiz? – dedim yana.

U kinoya bilan labini burdi. Mo'ylovi qiyshayib ketdi. Paltosining ich cho'ntagidan besh-olti varaq qog'oz chiqardi.

– Kechirasiz, o'rtoq rais! – dedi har so'zini chertib-chertib. – Savolni men beraman! Gapning po'skallasini ayting! Bu dunyoda haqiqat bormi-yo'qmi? Qanaqa jamiyatda yashayapmiz o'zi?

Shunday dedi-yu, ko'zlari g'azabdan qisilib ketdi. O'sha – saraton oftobida yongan bug'doyzor chekkasida, pichog'i bilan uch tup yantoqni kesib olayotganda ham

ko'zi shunaqa qisilib ketgan edi. Yuragim sirqillab ketdi. Yelkamga chidab bo'lmas og'riq kirgandek bo'ldi.

O'shanda – yantoq bilan savalaganda dadam badanimdan ikki yuzta tikan sanab olgani, har bitta tikanning o'rni patos boylab, bir oy yotolmaganim, chalqancha tushsam, orqam, yerga qarab yotsam qornim lovullab achishgani, salkam bir oy o'tirgan joyimda uxlaganim.... Robiya opam sengayam boqqan balo bordir, deb chirqillagani, oyim kechasi bilan yer titrab qarg'ab chiqqani, dadam ingrab yig'lashimga qaramay, paxtani cho'pga o'rab, yaramga dori surgani... Ertasiga oyim, «zolimdan qutuldik», deb eshikdan yig'lab kirgani.... Hammasi ko'z oldimga keldi. O'sha zahoti boshqa xotiralar ham quyundek yoprilib boshim guvillab ketdi. Shomurod amakining chaqaloq Muzaffarni ko'tarib tuproq ko'chada cho'loqlanib yugurgani, «Zakunchi Ra'noxonni obqochib ketibdi», degan mish-mishlar, Robiya opamning Shomurod amakimnikiga kelin bo'lib tushgani, aravada yor-yor aytib No'g'ayqo'rg'ondan kelinni olib borganim... Keyin shu bola o'ksimasin deb iloji boricha Muzaffarning yonida bo'lishga uringanim.... Nihoyat bultur otpuskamda Toshkentga uch kungina borib-kelganimda dadam «anavi Zakunchi o'sha tomonlarda turarmish», degani... Demak, rostdan ham Qo'qonda ekan-da.

Uzoq jimib qoldim shekilli. Zakunchi ko'zlari yonib tag'in so'radi:

– Bormi-yo'qmi?

O'zgarmabdi. Mutlaqo o'zgarmabdi! Dag'dag'asi o'sha, vajohati – o'sha! Qo'yib bersa haliyam odamlarni qamchilashdan toymaydi.

– Sizga qanaqa haqiqat kerak? – Ovozim o'zim kutgandan keskinroq, nafratliroq chiqdi. – Haqiqat deganda nimani tushunasiz?

– Haqiqat bitta bo'ladi, – dedi u chertib-chertib. – Zakunni bizam bilamiz, o'rtoq rais!

Nima desa bo'ladi bu odamga! Nima qilsa bo'ladi buni! Xayolimga ahmoqona fikr keldi. Qaniydi, bu ko'ppak bilan to'ydami, ko'cha-ko'ydami uchrashib qolsam-u, chalajon qilguncha do'pposlasam! Nachora,

men rasmiy odamman. U ham rasmiy shaxs: shikoyat-chi.

– E’tiboringiz uchun, – dedim iloji boricha xotirjam gapirishga urinib. – Absolyut haqiqat kamdan-kam bo’ladi. Ko’pincha odam o’zini haq deb biladi-yu, aslida nohaq bo’ladi.

– Anqarang-a! – U labini shu qadar kinoya bilan burdiki, mo’ylovi yana qiyshayib ketdi. – Gapni aylantirib nima qilasiz, o’rtoq rais, haqiqat yo‘q deng– qo‘ying!

O! Endi haqiqat izlab qoldingmi? Haqiqat kuchda, degan shiorni qonun qilib olgan sen emasmiding! Qancha zolimlik qilsam, shuncha haq bo’laman, degan sen emasmiding! To’g’ri, sen bu gapni ovoz chiqarib aytmading. Ammo amalda shundoq qilding. Endi haq talab bo’lib qoldingmi? Rost, hozir ham haqiqatni yer bilan bitta qilib, o’zining rohatini o’ylaydiganlar bor. To’g’ri, ular senga o’xshab birovni urmaydi, so’kmaydi. Lekin yumshoqlik bilan ish qiladi. O’tirgan kursisidan foydalanib, cho’ntagini qappaytiradi. Avval atrofga tanish-bilish to’playdi, keyin mol-mulk yig’adi. To’g’ri, hozirgi ablahlarning sen ablahdan farqi yo‘q. Ammo ertami-kechmi hamma narsaning hisob-kitobi bo’ladi. Haqiqat degani – aslida mana shu! Absolyut haqiqat degani shu!

– Bor! – dedim ishonch bilan. – Ertami-kechmi, hammasi joyiga tushadi.

U qilt etmadi. Yuzi kinoyali qiyshayib, bosh irg’adi.

– Bilamiz. Yosh bola emasmiz, o’rtoq rais!

«Rais emish! Rais sen eding! Umar zakunchi! Qamchinidan qon tomgan rais!»

– Qayerda turasiz? – dedim gap cho’zilib ketganidan g’ijinib.

– Ana, o’sha yerda yozilgan. – U «savod bormi o’zi» degandek yuzini o’girdi.

O’qidim. Qo’qon shahar. Paxtakor ko’chasi, 19-uy.

– Bo’pti. Maqsadga o’taylik! – dedim xatdan ko’z uzib.

– Talabim bitta! Telefon tushirib berasiz!

Aniq bilaman. G’ishtko’prik atrofida bo’sh nuqta yo‘q. Yo’qni yo’ndirib bo’lmaydi.

– Menga qarang, – dedim sovuq ohangda. – Siz yashaydigan zonada bo'sh nomer yo'q.

– Nimaga bo'lmas ekan! – U sapchib o'rnidan turib ketdi. Ko'zida ko'kish olov yonib, mo'ylovi ucha boshladi. – Nimaga vrach Usmonov Yo'ldoshga telefon bor-u menga yo'q?

O'zim xohlamagan holda istehzoli kuldim.

– Nima, siz ham vrachmisiz?

– Yo'q. Men veteranman! – U paltosining yon cho'ntagiga qo'l suqib, allaqanday daftarchani oldida, ko'rib qo'y, so'tak, degandek g'azab bilan stolga uloqtirdi. – Orden olganman!

Esimda, lavlagi masalasida orden olgan. Aslida bu orden Oqsoqolniki, Bashor xolaniki, qolaversa Husan buvaniki bo'lishi kerak edi.

Daftarchani ochib ham qaramadim. Bu Zakunchiga og'ir botdi shekilli, rangi gezarib ketdi.

– Bilsak bo'ladimi, o'rtoq rais! – dedi lablari titrab. – O'zlarining uylarida nechta telefon bor? Uchtami-to'rttami? Yo'q, men dachangizdagini sanayotganim yo'q. Uyingizdagini aytyapman. O'shandan bittasini bering!

– Alishamizmi?

U hayron bo'lib, kipriklarini pipiratdi.

– Nima?

– Uyimizni alishamizmi? – dedim kulimsirab. – Keling, alishamiz! Rostdan ham telefoni bor. Faqat dachamni berolmayman. Nega deganda... dachaning o'zi yo'q. Lekin uyim bor. Xafa bo'lmaysiz, bir xonalik. Mikrorayonda. To'rtinchi qavat, yozda suv chiqmaydi. Qishda yaxshi isimaydi.

U butunlay dovdirab qoldi. Chamasi hazillashyapti yo kalaka qilyapti, deb o'ylar edi.

– Men behazil aytyapman! – dedi jiddiyat bilan.

– Bilib qo'ying, o'rtoq rais! – dedi boshini tahdidli chayqab. – Men anavi Usmonovlarga o'xshab pora bermayman. Telefonni zakonniy olaman!

– Usmonov pora berganmi? – dedim ko'ziga qattiq tikilib, stol ustidagi ruchkani oldim. – Ayting, kimga?

U yuzini o'girdi. Bepisand qo'l siltadi.

– Chalg‘itman, o‘rtoq rais. Pora bergan odam birovga gapirib yurmaydi.

Xayolimga yarq etib bir o‘y keldi. Ke, qonunga xilof bo‘lsayam, shu iblisga bitta yaxshilik qilay!

Trubkani ko‘tarib, aloqa uzeli boshlig‘ining nomerini terayotganimda Orif oqsoqolning uyimizga akt ko‘tarib kelgani, gardanimga dori surayotgan dadam, «qo‘ya qoling, Oqsoqol, bir joydagi odammiz», degani esimga tushdi. O‘zimdan o‘zim nafratlanib labimni tishladim. Nima qilsayam otamning qoni bor-da tomirimda. Genetika – sehrli fan!

– Vladimir Vasilevich! G‘ishtko‘prik zonasida yashaydigan Usmonov kim?

Uzel boshlig‘i bir lahza jimib qoldi. Chamasi qo‘lidagi abonent daftarini varaqladi shekilli, aniq-ravshan javob berdi.

– Usmonov Yo‘ldoshxon! Rayon poliklinikasining zam glavvrachi. Terapevt. Kvartira telefoni 24–19. Qoidaga binoan uch yarim yil ilgari uyiga telefon tushirilgan. Vrachning uyida telefon bo‘lishi shart. Ekstren holatlar uchun.

– Uzelda bo‘sh para yo‘qmi?

– Olimjon Komilovich! – uzel boshlig‘ining ovozida ranjish ohanglari sezildi. – Bilasiz-ku, bittayam yo‘q! Rayon militsiyasi boshlig‘i bilan o‘n bir frontoviknikidan boshqa hammasi blokirovka qilingan.

– Vladimir Vasilevich!– dedim Zakunchining yuzidan ko‘z uzmay. – Hozir oldingizga... – bilib tursam ham Zakunchidan so‘radim. – Familiyangiz nima edi?

– Xo‘jaev! – dedi Zakunchi hozirjavoblik bilan. – Xo‘jayev Umar Xo‘jayevich!

– Hozir huzuringizga Xajayip degan (Orif oqsoqolning iborasini beixtiyor ishlatganim uchun kulib yuborishdan o‘zimni zo‘rg‘a tiyib oldim) Xajayip degan grajdanin boradi.

– Ming la‘nat o‘sha Xajayippingizga! Axir u Usmonov bilan bitta hovlida turadi-ku! Parallel apparat qo‘yib beraylik desak, ko‘nmasa. – Uzel boshlig‘i alam bilan chinqirdi. – Oldimga million marta kelgan! Hech

qanaqa veteran emas, avantyurist! Boshni qotirmasin! Podstantsiya quriladi, keyin...

– Yo‘ldoshxon Usmonov bilan bir joyda turarkansizku, o‘rtoq Xajayip! – dedim trubkani qo‘ymay. – Usmonov kimingiz bo‘ladi?

– Hech kimim! – Zakunchi ijirg‘anib, yuzini o‘girdi. – Mening o‘zimga telefon kerak! Lichna o‘zimga! Zakoniy telefon!

– Vladimir Vasilevich! – dedim iltimos qilib. 24–19 ga blokirovka qila qoling.

– O‘rtoq Komilov! Axir bosh vrachning nomeriga... Men bilaman-ku. Yo‘ldosh Usmonovich shtatda zamglavrach bo‘lgani bilan bosh vrach vazifasini...

– Iltimos, Vladimir Vasilevich, yangi podstantsiya qurilguncha shunday qilib turasiz. Xayr.

Zakunchi orden daftarchasini shoshilmay olib, cho‘ntagiga tiqdi.

– Podstantsiya qachon qurilarkan? – dedi o‘rnidan turib.

– Kechirasiz, – dedim iloji boricha o‘zimni bosib. – Boya siz qon to‘kkanman, dedingiz-a?

– To‘kkanman! – U ijirg‘anib yuzimga qaradi. – Nimaydi?

– Qaysi frontda?

– Tinch frontda! Bildingizmi? Urush orqasidagi frontda!

– Kimnikini?

– Nima?

– Kimning qonini to‘kkansiz?!

U bir zum serrayib qoldi. Chamasi yana dag‘-dag‘a qilgisi keldi-yu, rangi quv o‘chib, gapirolmay qoldi. Iyagi, mo‘ylovi titrab, yuzi qiyshayib ketdi.

– Boring! – dedim jerkib. – Uchinchi qavat, sakkinchi xonaga kiring! Vladimir Vasilevich Fyodorovga uchrashasiz!

Eshikka yaqin borganida yana chaqirdim.

– O‘rtoq Xajayip!

Zakunchi to‘xtadi. «Nima deysan?» degandek chaqchaydi.

Ammo-lekin bopladim! Nima qilib bo'lsayam ishimni to'g'riladim-ku! Xumpar-ey! Yosh bo'lsayam, kallasi ishlarkan! Yo'q, desa Moskvagayam yozardim-da!

Xo'sh, nega endi kuni-kecha ishtonining orqasini tugib yurgan Yo'ldoshxonda telefon bo'lishi keragu menda bo'lmasligi kerak? Uch yildan beri yuguraman-a! Jilla qursa, mazam qochganida «skoriy» chaqiraman. Taksi zakaz qilaman! Ra'no bo'lsa-ku, kun ora kasal. Bilaman, ba'zan rost aytadi, ba'zan yolg'ondan inqillaydi... Ikki yildan beri tinchlik yo'q. Nuqul, «bitta-yu bitta bolamdan judo qilding, ozib-yozib bir kelganda haydab yubording», deb yuzimga soladi. «E, o'sha haromzoda o'g'ling bilan qo'shmozor bo'l, sendan nima ro'shnoqlik ko'rdim-u, cho'loqning itvachchasi nima karomat ko'rsatardi», deb pattasini qo'lga tutqazgim keladi-yu, Nasibani o'ylayman-da!

Anavi jipiriq rais nima deydi? «Usmonov kimga pora berganini isbotlang», deydimi! Meni kim deb o'ylayapsan, nodon! Nima, yosh bolamanmi! Hech nimani bilmaymanmi? Pora bergan odam berdim deydimi. G'iq etsa olgan bilan qo'shilib o'ziyam qiya bo'lib ketar! Boringki, Yo'ldoshxon bermasa bermagandir. Lekin porasiz ish bitadimi! O'zing ham olarsan jaraq-jaraq sanab! Yog'liq joyda o'tiribsan-ku! Kvartira – pul, mashina – pul, telefon – pul, uyga gaz tushirish – pul!

O'zim ko'rdim-ku. Nasibaning attestatdagi baholari to'rt-besh edi. Qizim bechora esini tanibdiki, do'xtir bo'laman, deb yurardi. Medinstitutga olib borsam, beshta imtihondan qatorasiga uch oldi. Mandatdan yig'lab chiqdi. O'sha yerda zipillab yurgan yugurdaklardan bittasini to'xtatib gapga solsam, ochig'ini aytdi-qo'ydi. «E, nima deyapsiz tog'a, hozir ekzamenni bola topshirmaydi, ota-ona topshiradi, sodda odam, studentlik kursisiga o'tiradiganlarning ro'yxati imtihondan bir oy oldin tuzib qo'yiladi», dedi. Rost aytdi. Bizda shunaqa desam, boshqa joylarda besh battar ekan. Yozda pommasterimiz

ikki ming qarz so'radi. «To'y qilasizmi», desam, «Be, to'ygamas, o'rtancha o'g'ilni institutga joylamoqchimiz. Besh ming yig'ib qo'ygan edim, bu yil yuridicheskiyning narxi yetti mingga chiqib ketibdi», deydi! «O'g'ling prokuror bo'lib sarflagan yetti mingingni qaytarguncha soqoli oqarib ketadi-ku», degan edim, tizzasiga urib kuldi. «Bizam suvni ko'rmay ishton yechadigan xilidan emasmiz, tog'a. Yurist bo'lib olsin, yetti mingni bir yilda yigirma ming qilib qaytaradi», deydi. Oqni oqqa, qorani qoraga ajratadigan huquqshunos shumi endi! Rostki o'qishga pora berib kirdimi, bir umr o'sha pulni o'n hissa, yuz hissa qilib qaytarib olmaguncha tinchimaydi. Adolatni himoya qiladigan yurist qonun kitobiga emas, qo'lingga qaraydi. Xohlasa oqlaydi, xohlasa yo'q. Xohlasa «ot»ni beradi, xohlamasa «do»ni! Ana senga «adolat». Biz ham yurist bo'lganmiz. Pora degan narsaning ko'chasidan o'tmaganmiz. Haqiqat uchun qayishganmiz.

E! Haqiqat emish! Haqiqat osmonda, kaliti ham-momda! Boshqa gap yo'q. Turib-turib o'zimga nash'a qiladi. Eng jipiriy amaldor ham pul yig'adi, mashina oladi. Hovli-joy soladi. Amal kursisida besh yil o'tirsa, yetti pushtiga yetadiganini yig'ib oladi. Men ham amaldor edim-ku! Rayondagi eng baquvvat kolxozning raisi edim-ku. Nimaga to'plamadim? «Qora kunim»ga yarab qolar deb nimaga yig'madim! Stalin zamoni boshqacha edi. Pora olganni peshonasidan otardi. Hozir – hamma poraxo'r.

Ammo-lekin ishni zakonniy qildim. Blokirovka qildirib olganim yanayam yaxshi bo'ldi. Yo'ldoshxon deganlar alamidan yorilib o'lsin! Ja mashhur bo'lib ketuvdilar, el-yurt o'rtasida! Xohlasam, telefon trubkasini kun bo'yi ko'tarib qo'yaman. Menga desa hech kim bilan gaplashmasin. Menga desa kasallari ajalidan besh kun burun harom o'lsin! O'zimki, hech nimaga ega bo'lolmadimmi, senlarga ham yo'l qo'ymayman. Chidasalaring – shu! Chidasasang – katta ko'cha!

**FARMATSEVTIKA INSTITUTINING UCHINCHI
KURS STUDENTI MUNAVVAR ALIEVA HIKOYASI**

Menga sovchi yuboring

Umrim bino bo'lib, bugungichalik vahimaga tushmagandim. Umrim bino bo'lib, o'zimdanda shunchalik jirkanmagan edim. O'lganim yaxshi! Bunaqa sharmandalikdan ko'ra o'lib qo'ya qolganim yaxshi! Kimman o'zim? Qanaqa noinsof, qanaqa yomon qizman?! Onam sho'rlik bir ko'z bilan o'stirdi. Yemay yediradi. Kiymay kiygazdi! Bir qo'li bilan yarimta otamning xizmatini qilib, bir qo'li bilan mening boshimni siladi. Rost, boshqa onalarga o'xshab ortiqcha erkalamadi, bolambo'tam deb ustimda parvona bo'lmadi.

Nima qilsin? Ertadan-kechgacha ish bilan ovora edi.

Es-es bilaman. No'g'ayqo'rg'onda oyimni tanimagan odam yo'q edi. Chamamda, undan ko'pchilik hayiqar ham edi... Ayniqsa – dadam. Boshqa kishilarga o'xshab, dadam urushdan unchalik og'ir yaralanib kelgan emasdi. O'zining aytishicha, Berlinga yaqin qolganda gardanini «arzimagan o'q yalab» o'tgan ekan. Lekin sal og'irroq ish qilsa, darrov charchab qolar, ko'pincha kun botmay daladan qaytib, oyim kelguncha ovqat pishirib o'tirar edi.

Bir kun (unda juda kichkina edim) oyim ayniqsa kech qolib ketdi. Dadam menga sho'rva ichirdi. O'rnimga yotqizmoqchi edi, oyimni qo'msab xarxasha qildim! Dadam, quchoqlab o'tirib «Yoriltosh»ni aytib berdi. Oyim tongotarga yaqin keldi. Uyqusirab yotganimga qaramay, chopib borib, etagiga osildim. Oyimning kirib ketgan paxtaligidan kerosin aralash loy hidi kelardi.

– Unaqamas-da, Bashor! – dedi dadam do'q qilibmas, yalinib. – Birgadir bo'ldim deb tongotar yuraverasanmi! Minovar yig'layverib shishib ketdi-ku!

To'g'risi, men yig'lamagandim. Ammo dadamga rahmim keldi.

Shunda oyim meni shaxt bilan siltab tashladi. Dadamning ro'parasiga borib, qo'lini paxsa qilgancha o'dag'ayladi.

– Hoy pochcha! Erkakni ishini eplolmagandan keyin, ja bo'lmasa bola boqishni uddalang, xo'pmi! Qo'lingizdan kelsa, dalaga chiqib traktor haydang!

Dadam sho'rlik darrov mung'ayib qoldi.

– Bolaniyam o'ylagin-da, Bashorxon! – dedi ming'illab.

Oyim uf tortib ko'rpachaga cho'kkaladi.

– Brigadasiyam boshida qolsin! – dedi nolib. – Pravleniyeda po'stagimni qoqishdi.

Dadam sho'rlik nimqorong'i oshxonaga borib sho'rva isitib keldi.

Umuman, dadam yaxshi pazanda edi. Bir gal uyimizda allaqanday yig'in bo'lganida dadam o'z qo'li bilan cho'zma lag'mon qilgani esimda. Xotinlar lag'monni maqtab-maqtab yeyishdi. Hatto bittasi mening burnimdan chimchilab hazillashdi ham:

– Aslida oyingni dada, dadangni oyi deyishing kerak, qizim. Pochcha Bashoratga emas, Bashoratxon pochchaga uylangan.

Keyinchalik ham shu gap qulog'imga ikki-uch chalandi. Odatda kuyov kelinni olib kelarkan. Mening oyim esa dadamni shahardan obqochib kelganmish...

Bora-bora musichadek beozor dadam chindan ham oyimdan qo'rqishiga ishondim. Nazarimda oyim uni mensimas, hatto yomon ko'rar edi. Ammo uchinchi sinfda o'qiyotganimda bir voqea bo'ldi-yu, oyim dadamni jonidan ortiq ko'rishini tushundim. Erta kuzda dadam uch-to'rt kun «qo'lim uvishyapti» deb yurdi-yu bir kuni maktabdan kelsam, azza-bazza ko'rpa-to'shak qilib yotibdi. Boshida oyim o'tiribdi. Dadam-ning o'ng qo'l-o'ng oyog'i to'satdan ishlamay qopti.

Oyim kechasi allaqayoqqa chiqib ketdi. Tepasiga qo'shuv alomati tushirilgan «Pobeda» mashinasini boshlab keldi. Qo'rqaman deb yig'lashimga qaramay meni yolg'iz qoldirib, dadamni mashinaga soldi-da, ketdi-qoldi. Ertasiga kun botganida keldi.

– Dadangni ahvoli og'ir, – dedi xo'rsinib. – Gardaniga tekkan o'q orqa miyasini shikastlantirgan ekan, falaj bo'pqopti.

U har kuni ikki martadan shaharga qatnab yurdi-yurdi-da, bir safar yuk mashinasini boshlab keldi.

– Ko‘chamiz! – dedi qovog‘ini solib. – Ming la‘nat, traktorigayam, brigadirligigayam. Shundoq otang falaj bo‘lib yotadi-yu, traktor haydashga balo bormi?..

Ko‘chib kelgan uyimiz menga yoqmadi. Qafasdek tor, to‘rt tomoni baland devorlar bilan o‘ralgan hovli, go‘rga o‘xshagan qorong‘i uy. G‘ishtin devor ortida uzun cho‘yan quvurdan qop-qora tutun burqsiydi. Shamol tutunni bizning hovliga olib kelib uradi. (Keyin bilsam, bu – bannisaning kirxonasidan chiqayotgan tutun ekan.) No‘g‘ayqo‘rg‘ondagi daraxtlarga ko‘milgan hovlimiz, tomi somon suvoq bo‘lsa ham, qaddi baland uyimizni eslab g‘ingshigan edim, oyim o‘shqirib berdi:

– O‘chir! Uy kerakmi senga, otami?!

Keyin tushunsam, oyim katta hovlimizning yarim pulini beliga tugib, dadamni davolatish uchun yelib-yugurib yurgan ekan. Tekstil «bannisa»siga – dadam yotgan kasalxonaga enaga bo‘lib ishga kiribdi. «O‘zimning maktabimga boraman», deb yig‘lagan edim, ko‘ndi. Ertalab meni razyezdga qatnaydigan «passajir»ga chiqarib yuboradi-da, o‘zi kasalxonaga yuguradi. Peshinda dadamning og‘ziga yoqadigan ovqat pishirish uchun uyga kelganida meni g‘izillatadi. «Bor, dadangning oldida o‘tirib tur».

Kasalxona yaqin. Devori devorimizga tutashib ketgan. Dadam olti kishilik palatada osmonga qarab yotadi. Men kirishim bilan qaddini ko‘tarolmaydi-yu, boshini burib qaraydi. Chap qo‘llab peshonamni silaydi.

Oxiri bo‘lmadi. Bahorda dadamni uyga olib keldik. Endi oyim uydin kasalxonaga emas, kasalxonadan uyga tezroq kelishga shoshiladi. Deraza tagida, sim karavotda yotgan dadamning boshiga boradi.

– Ko‘nglingiz nima tusaydi? – deydi jilmayib. Dadamning choyshabini yangilayotganida men tashqari chiqib turaman...

...Kuzga borib dadam cho‘p bo‘lib ozib ketdi. Sovuq tushgan, hali ko‘mir kelmagan edi. Burchakdagi xon-taxta oldida dars tayyorlab o‘tirardim. Oyim chuchvara tugar edi.

– Bashor, – dedi dadam qandaydir xotirjam ovozda. – Sizlarniyam qiynab qo'ydim. Yozda o'lsam yaxshi bo'lardi.

– Agar... – Oyim supra burchagiga qo'lini artib ildam o'rnidan turdi. Dadamning tepasiga bordi. – Agar, – dedi titrab, – yana shu gapni og'zingizga olsangiz.. – U yog'ini aytmadi. Dadamning falaj qo'lini kaftlari orasiga olib siladi, uzoq siladi...

Indiniga oyim bir arava ko'mir toptirib keldi. Oyimga ko'maklashib, paqirlab ko'mir tashiyotganimda o'zimdan-o'zim g'alati bo'lib ketaverdim. Avval ham tengdosh qizaloqlar bilan yugurib o'ynasam, og'irroq yuk ko'tarsam, dilim o'ynar, havo yetishmay qolar edi. O'sha safar yomon bo'ldi. Uch-to'rt chelak ko'mir tashigandan keyin eshik oldiga yetganda to'satdan o'zimni tashlab yubordim.

Oq xalat kiygan doktordan «tug'ma porok» degan gapni birinchi marta eshitdim.

O'sha kuni oyim anchagacha boshimga egilib o'tirdi. Dadam eshitib qolishidan cho'chibmi, qulog'imga ohista shivirladi.

– Xafa bo'lma, qizim... Senga yaxshi qarolmadim. Kichkinaligingda og'zingga yoqqanini tutolmadim. bag'rimga bosib erkalolmadim... Nima qilay, turmush og'ir edi, yelmasam, yugurmasam bo'lmasdi.

Oradan ko'p o'tmay, dadam uzildi. Xuddi moyi ado bo'lgan chiroqdek sekingina, unsizgina so'ndi... Oyim dod-faryod solmadi. Sochini yulmadi. Bannisada enagalik qilib yuraverdi. Lekin g'alatiroq bo'lib qoldi. Kechqurunlari ishdan keladi-yu, deraza oldiga borib. hovli devori ortidagi tutun burqib turgan baland quvurga tikilgancha o'tiraveradi.

...Erta bahor kunlaridan birida to'satdan ko'chko'ronini yig'ishtirib qoldi.

– Turolmayman! – dedi rangi o'chib. – Bu uyda endi turolmayman.

...Yangi uyimiz shu mahallaning o'zida edi. Faqat tramvay bekatiga yaqinroq, tor ko'chaning eng ichkarisida. Ko'cha boshida magazin, bir tup baqaterak bor.

Bu hovli ham avvalgisidan katta emas. Faqat deraza oldida bir tup archa bor. Qishin-yozin o'tovdek qorayib turadi.

Oyim hamon kasalxonada ishlar, men bo'lsam hamon No'g'ayqo'rg'ondagi maktabga qatnar edim.

Qiziq, Sherzod (mening ustimdan garov o'ynab Muzaffarni cho'ktirib o'ldirmoqchi bo'lgan o'sha olifta) oltin medal olgani uchun otasi katta ziyofat qilib berganda oyim mening kumush medalimga unchalik quvonmadi ham. (Bilaman, quvondi-yu sezdirgisi kelmadi.) Farmatsevt bo'lmoqchiligimni eshitganida bir og'iz gap aytdi:

– Yaxshi o'ylabsan, qizim. Ammo aytib qo'yay. Men ketingdan yugurib yurolmayman. Eplasang kir. Eplolmasang xafa bo'lma, ochingdan o'lmaysan.

Institutga kirganimda quvondi. Dadamni esladi shekilli, yuzini yuzimga bosib uzoq o'tirdi.

– Rahmat, Munavvar! Shunaqa bo'lishini biluvdim. Yaxshi hunar tanlagansan.

Tushundim. O'zining ham sog'lig'i puturdan ketgan. Har kecha dori ichmasa uxlolmaydi. Avvallari tugmachadek dorini ikkiga bo'lib yarmini ichar edi. Keyin bitta, bir yarimta, bora-bora ikkitadan yutadigan bo'lib qoldi... Buning ustiga mendan tashvishlanadi. Sal kech qolsam ko'cha boshiga chiqib o'tiradi. Shuning uchun xuddi aytilgan soatda uyga qaytishga harakat qilaman. Muzaffar kuzatib kelganida ham ancha narida, baqaterak tagida xayrlasha qolaman.

Bir kuni (birinchi kursda o'qir edik) Muzaffar odatdagidek baqaterak tagida xayrlashib ketdi. Men shoshapisha uyga kirdim. Qarasam, oyim cho'yan pechka yonida ma'yus o'tiribdi.

– Kim bilan kelding! – dedi yuzimga qaramay.

Qo'rqib ketdim.

– O'zim! – dedim yolg'on gapirib.

U o'rnidan turib, oldinga keldi. Yelkamga kattakon kaftini qo'ydi.

– Munavvar! – dedi yuzimga tikilib. – Bilaman, ko'zga yaqinsan. Orqangdan yigitlar ergashadi. O'ng quloq, chap qulog'ing bilan eshitib qo'y. Har ko'ringan

yigitga ko'zingni suzib, xomtalash bo'lsang, mendan yaxshilik kutma! Undan ko'ra bittasini tanla: o'zingga munosib bo'lsin! «Oyi, shu odamga ko'nglim bor» degin, g'ing desam, odammasman. Ammo ketingdan itdek ergashib yurmasin. Sovchi yuborsin. Tushunding-a?

Oyim shuni aytishi bilan ko'z o'ngimga lop etib Muzaffar keldi. Kulgim qistadi. «Voy, sodda oyim-a! Bor, o'sha tanlaganim bor! Muzaffarni yaxshi ko'raman! Maktabda, o'ninchi sinfda o'qiyotganimdayoq yaxshi ko'rib qolganman. U ham meni sevadi. Bo'lmasa, ataylabdan men kirgan institutga kirarmidi!»

Tilimga shu gaplar keldi-yu aytolmadim, uyaldim.

– Yuzingizni yerga qaratmayman, oyijon, – dedim komil ishonch bilan.

O'shanda – uch yil oldin shu gapimga oyimni ham ishontirgan, o'zim ham ishongan edim.

«...Yerga qaratmayman» emish. Yerga qaratish bundan ortiq bo'ladimi! Yuzqarolik bundan ortiq bo'ladimi? Qilar ishni qilib qo'ydim-ku!

Yo'q, Muzaffarda gunoh yo'q. Hamma ayb o'zimda... Tag'in domlalar meni maqtaganiga o'laymi! Gruppada eng odobli, eng hayoli qiz emishman... Tinch oqqan suvning tubi g'alvali bo'lmay o'lsin... Kursdosh dugonalarim «yigiti»ni gapirib pichirlashsa, oh-voh qilsa kulgim qistaydi. Gulya parkka kirib Ergash bilan o'pishganini gapiradi, Dilya Marat bilan restoranga borganini... Menga bo'lsa bunaqa narsalar yosh bolaning o'yiniga o'xshaydi. Muzaffar ikkalamiz boshqachamiz. Bular bilmaydi, tushunmaydi... Muzaffar meni jonidan ortiq ko'radi. Men uning shunchaki «qizi» emasman!

Shu kungacha osmonda uchib yurgan edim... Bugun o'q yegan kaptardek chilparchin bo'lib yerga tushdim. Yo'q, chilparchin bo'lganim yo'q. Lekin... oyim sezsa o'ldiradi! Avval meni qiyma-qiyma qiladi, keyin o'ziniyam bir yoqlik qilib qo'ya qoladi...

Muzaffar erta bahordan beri lola sayliga chiqaylik, deb yurgan edi. To'g'risi, shahar ko'chalarida lola ko'tarib ketayotgan qizlarni ko'rsam o'zimning ham havasim kelardi.

Kecha Muzaffar tag'in qistadi.

– Ertaga – yakshanba. Judayam uzoqqa bormasak ham Zog‘ariq tomonlarga o‘taylik, balki lola qolgandir. Uch-to‘rt kunda tamom bo‘ladi! – deb turib oldi.

Bugun ertalab soat o‘nda Eski jo‘vadagi avtostan-siyada ko‘rishadigan bo‘lgan edik.

Ammo bugun... Kechasi yaxshi uxlay olmadim. Shamol bo‘ldimi-yey, deraza tagidagi archa tun bo‘yi tebranib ingrab chiqdimi-yey. Sezdim: oyim ham ikki marta turib, uyqu dori ichdi. Meni uyg‘otib yuborishdan cho‘chib, chiroq yoqmadi. Lekin piyolaga sho‘l-diratib choy quyishidan, o‘qtin-o‘qtin xo‘rsinib qo‘yishidan hammasini bilib yotdim. Oyim dorini ko‘proq ichib yubordi shekilli, qattiq xurрак ota boshladi. Tong otishiga yaqin o‘zim ham uxlab qopman. Ko‘zimni ochsam, soat to‘qqizdan oshibdi. Shosha-pisha kiyinayotgan edim, oyim kirib qoldi.

– Yo‘l bo‘lsin, bugun oddix-ku! – dedi ko‘zimga sinovchan tikilib.

Sessiya yaqinlashib qolganini, kutubxonada «qizlar bilan» dars tayyorlamoqchiligimni aytib, chiqib ketayotgan edim, jerkib berdi.

– Och-nahor yuravergin, xo‘pmi? Rangingni qara, bir yil yerga yopishib yotgan kasalga o‘xshaysan. Bor, tuxum qovur!

Soat to‘qqiz yarim bo‘lyapti. Muzaffar kutib qoladigan bo‘ldi-da! Kecha shu gap chiqqanida bugun oyimning smenasi emasligi esimga kelmabdi. Qo‘ymaydi! Odatini bilaman-ku, quymoq yeysan, dedimi, yediradi. Bo‘lmasa, uydan chiqarmaydi.

Shosha-pisha oshxonaga kirib, tovaga yog‘ soldim. Yog‘ qizib, oqish tutun chiqayotganida bitta tuxumni chaqib solganimni bilaman... Birdan boshim aylanib ketdi. Ich-ichimdan o‘qchiq kelib, ko‘nglim ag‘darildi, kaftim bilan og‘zimni to‘sgancha hovliga chopdim.

Archa orqasiga o‘tib o‘qchidim. Qayt qilyapman-u ko‘zim alang-jalang, «ishqilib oyim ko‘rmasin, ko‘rsa o‘ldiradi!»

Ikki oychadan beri o‘zimni noxush sezib yurardim. O‘qtin-o‘qtin boshim aylanadi. Qurutmi, sho‘r bodringmi

ko'rsam ko'nglim sust ketayotgandek bo'ladi. Shu kungacha hech nima qilmaydi, o'tib ketadi deb o'zimni-o'zim yupatib yurgandim. Bugun, hozir aniq sezdim. Men... yomon qizman. Ablahman! Noinsofman. Oyim bilsa sog' qo'ymaydi!

Aksiga olib, oyim chopib tepamga keldi.

– Nima qildi? – dedi qo'rquvdan ko'zi olayib.

Dimog'imga boyagi yog' isi urilib, battar ko'nglim ag'darildi. Yana o'qchidim.

Oyimning rangi quv o'chib ketdi.

– Nima bo'ldi, – dedi titrab. – Nima yeganding?

– Keting, – tomog'im achishganidan bo'g'ilib imo qildim, – tuxum palag'da ekan.

– Voy imonsiz! – Oyim jahl bilan oshxonaga yugurdi. – Klaraning do'konidan oluvdim-ku! Ishongan tog'da kiyik yotmas deb shuni aytadi-da.

«Ishongan tog'da kiyik yotmasmish». Ishongan tog' kim? Menmi?

U qo'lida yog'log'i to'la suv ko'tarib alpang-talpang tepamga keldi.

– Ich! – dedi yog'log'ini tiqishtirib. – G'arg'ara qil!

Muzday suv tahamni ancha yengillashtirdi. Oshxonada tuxum kuyib ketdi shekilli, qo'lansa hid anqidi. Oyim shosha-pisha tag'in o'sha tomonga chopdi.

Archaning tikandek dikkaygan yaproqlarini chaggallab turarkanman, xayolimga yarq etib najotkor fikr urildi. «Muzaffarga aytaman! Sovchi yuboradi. Ertaga, yo'q, bugun yuborsin! Oyisi kelsin! Oyimning o'zi aytgan: ko'nglingga yoqqan odam orqangdan ergashib yurmasin-da, sovchi yuborsin», degan.

Bilaman, ikki yildan beri har xil sovchi keladi. Ba'zan o'zim borimda, ko'pincha o'qishga ketganimda.

...Yana ko'nglim ag'darildi. Yuragim o'ynab ketdi. Shunda birdan miyamga xavotirlik o'y urilib, oyoq-qo'lim bo'shashib ketdi. Axir men... tug'ma porokman... Meditsina ensiklopediyasidan o'qiganman. Tug'ma porok qizlar farzand ko'rishi xavfli. Yo tavba! Hali buni-siyam bormi!

Oshxona tomondan oyimning ham keskin, ham yupatuvchi ovozi keldi.

– Tuxumlari boshida qolsin. Sut qaynatdim, qizim, ichib ola qol!

O‘zimni majbur qilib, iliq, bemaza sutni icharkanman, boyagi dahshatli o‘y hamon xayolimda charx urardi. Xavfli.... Yo‘q, bo‘lmagan gap! Tug‘ma poroklarning hammasi o‘lib ketaversa dunyoda odam qolarmidi?! Qaytaga yaxshi yuribman-ku. Qiziq, o‘shandan keyin yuragim bir martayam xuruj bermadi. Avvallari sal shamollasam yuragim sanchar, nafas yetmay qolayotganday bo‘lar, bir kunda shiliniib tushardim. Bu qishda shamollamadim ham... Bundan chiqdi... Muzaffarning borligi yaxshi ekan-da! Axir endi u mening yarmim-ku! Nimadan qo‘rqaman? Muzaffar bor! Aytaman! Bugunoq onasini yuboradi. Bir og‘iz so‘zim – uning uchun qonun!

Oyim sinchkov xavotir bilan ko‘zimga tikilib turganini bilib, yarim piyola sutni amallab ichdim. «Qizlar kutib qolishini» bahona qilib, ko‘chaga chiqqanimdan keyingina xiyla yengil tortdim. Kechasi ancha qattiq shamol bo‘lgan ekan. Ko‘cha o‘rtasidagi loyqa halqob suvga sochilgan olma gullari titrab turibdi. Bir vaqtlar No‘g‘ayqo‘rg‘onda – qishloqda turganimizda oyim boshimni qatiq bilan yuvib, qirqkokil qilib o‘rib qo‘yar, o‘shandayam ishga shoshib, «uchiga o‘zing pilik taqib ol», deb chiqib ketardi. Dadam ko‘cha chetidagi kurtak chiqargan toldan azza-bazza novda yulib kelar, sochimga tolpopuk taqib qo‘yar edi. Hov o‘shanda – Muzaffar Alvasti ko‘prikka kalla tashlamoqchi bo‘lib, keyin ketimdan yugurganida, qamishzor ichida yetib olganida negadir mening to‘yim bahorda bo‘ladi, albatta gullagan o‘rik tagida o‘tiranman, boshimga gullar yog‘ilib turadi, deb o‘ylagan edim. Qiziq, keyin ham shu o‘y xayolimga ko‘p keldi... Odam bir narsani judayam xohlasa niyati ro‘yobga chiqadi shekilli. Shoshma, Muzaffarlarnikida o‘rik bormikin? Yo‘q, hovlimizda olma bor, degan edi. Bundan chiqdi olma tagida o‘tiramiz. Hozir olmalar gulga kirdi.

Avtobus bekatiga yaqinlashgan sayin o‘zimdan-o‘zim jilmayayotganimni sezib qoldim. Nima bu jinniga o‘xshab! Ana, odamlar qarayapti!

Avtobus tiqilinch, issiq edi. Dimog'imga benzin hidi urilib, yana ko'nglim ag'darila boshladi.

Avtobus derazasidan sershovqin ko'chaga qarab borarkanman, boyadan beri xayolimga kelmagan savol lop etib esimga tushdi. Nimalarni xomxayol qilyapman o'zim! Xuddi Muzaffarning oyisi bugun keladi-yu, ertagayoq to'y bo'ladigandek, gullagan olma tagida o'tirarmishman. Boshimga gul yog'ilib turarmish. Muzaffarning ota-onasi ko'nmasa-chi? Mabodo ko'ngan taqdirda ham to'yni yanagi yil qilamiz, desa-chi? Desa deydiyam! Ular ham orzu-havas ko'rgisi keladi. Muzaffar – birinchi bolasi. Qolaversa, hali besh tiyin topib ro'zg'orga qarashgan emas. Stipendiyasi o'zidan ortmaydi. Bu yoqda oyim aytsa-chi: Munavvar ro'zg'orga o'ralashib qolsa o'qishi qolib ketadi, bir-ikki yil sabr qilaylik, desa-chi?

Xayolimga ketma-ket urilayotgan vahimali o'ylardan vujudim bo'shashib ketdi. Yarim yildan beri «unutib yuborgan» yuragimga qattiq sanchiq turdi. Rangim quv o'chib ketgan bo'lsa kerak, tizzasiga xo'jalik sumkasi qo'yib o'tirgan semiz xotin o'rnidan qo'zg'oldi.

– Mazang qochdimi, qizim? O'tiraqol.

Rad etib, keskin bosh chayqadim. Iljayishga urindim.

– Bo'lmasa papkangni ber. Xah, hozirgi yoshlar-a! Ish deydi, o'qish deydi, ovqat yeyishgayam vaqt topolmaydi. – U papkamni sumkasining ustiga qo'ydi-da, yonidagi jikkak cholga hasrat qila ketdi. – Meniyam, o'g'lim shunaqa: institutlarni kattasida o'qiydi. Kechasi bilan shig'ir yozib chiqadi. Shig'iring senga osh-non beradimi, uxlasang-chi, desam parvo qilmaydi.

Muncha shang'illaydi bu xotin? Manavi qizlar-chi! Muncha hirlinglaydi? Ha, oldinroqda ikkita yigit turgan ekan-da. O'l, mov mushukka o'xshamay! Bir kun yetisharsanam, joningayam tegar...

Nima deyapman o'zi? Bularda nima gunoh? Qiziq, odam o'zi baxtli paytida hammani baxtiyor deb o'ylaydi. Boshiga kulfat tushganida esa hamma baxtiyor-u bir o'zi baxtiqarodek tuyuladi. Nimaga unaqa deyman? Nima, shunchalik baxtiqaro bo'lib qoldimmi! Paxtadan

qaytganimizdan keyin Muzaffarning o'zi aytdi-ku, «oyim to'yingni tezlashtira qolaylik, dadang to'y ko'rgisi kelyapti deyaptilar», dedi-ku! O'shandayam maynavozchilikka olgandim. «Chuchvarani xom sanabsiz, men oyimning boshiga yostiq bo'laman», degan edim. Mana endi o'zim yalinishim kerak... Muncha shovqin! Muncha shang'illab gaplashadi bu odamlar. Hammasi garangmi, nima balo?!

Avtobusdan tushishim bilan odam tirband bekatda turgan Muzaffarni ko'rdim. Egnida dalabop shim, vodolazka. Qo'ltig'iga badminton raketkalarini qistirib olib, ikki qo'lida ikkita to'rxalta ko'tarib turibdi. To'rxaltalardagi qog'oz qopchiqlardan ko'kpiyoz, rediska bargi, Toshkent suvi shishalari ko'rinib turibdi. Bittasida kabob bor shekilli, yog'i chiqib, paketni yaltiratib yuboribdi.

– E, seni qara-yu! – U qo'ltig'idagi raketkalarni tushirib yubormaslik uchun ikkala to'rxaltani ko'tarib kulgilioq zipillab yonimga keldi. – Bir soatdan beri kutaman. Shashlik sovib qoladi-ku.

Qog'oz paketga tepchib chiqqan yog'ga ko'zim tushishi bilan yana o'qchidim. Bekat ro'parasidagi muzeyning devor panasiga yugurdim. Bir tup qayrag'ochni quchoqlagan ko'yi qayt qila boshladim. U qo'rqib ketdi. Paketlarni yerga qo'ygan edi, qo'ltig'idagi raketkalar taraqslab asfaltga tushdi.

– Nima gap? – dedi rangi o'chib.

Yuzimni o'girdim.

– Qoching... Suv...

U to'rxaltalardan birining bandini yecha boshladi. Tugun tushib qolgan ekan, yechilmadi. U tishi bilan shosha-pisha bandni echdi. Ikkita shishaning temir qopqog'ini bir-biriga tirab, tagiga urgan edi, bittasi paqillab ochildi.

Vishillab turgan suv tomog'imni battar achitdi. Lekin ko'nglimning aynashi bosildi.

– Nima bo'ldi? – U suv sachrab, ho'l bo'lib ketgan kaftini peshonamga bosdi. – Oftob urdimi?

– Iltimos, – dedim ko'zimni yashirib. U yog'ini aytishga ham uyalar, ham qo'rqar edim.

– Aytsang-chi axir, – u hamon qo‘lida ushlab turgan ikkinchi shishani yerga qo‘ydi, – gapirsang-chi!

– Sekin... – birov eshitib qolishidan cho‘chib shivirladim. – Iltimos, oyingiz biznikiga kelsinlar...

U hech nimaga tushunmadi.

– Qachon? Nimaga?

– Kelsinlar... Tezroq...

– A?! – u endi tushundi shekilli, birdan yosh boladek irg‘ishlab ketdi.

– Rostmi, Munavvar!

Keyingi savolni shunaqangi baqirib aytdiki, bekatdagi odamlardan uch-to‘rttasi shu tomonga qaraganini sezdim.

– Sekin! – dedim ham uyalib, ham quvonib.

U bo‘lsa, he yo‘q, be yo‘q mahkam quchoqlab oldi. Ovsar-ey! Tentak-ey!

– Ertaga! – dedi yosh boladek iljayib. – Yo‘q, bugun, hozir! Uyga ketamiz! Senam, menam! Oyimga aytaman...

Odamlar hayratlanib bizga qarab turishar, u bo‘lsa ming yulqinganim bilan qo‘yib yubormas, rostini ayt-sam, o‘zim ham uning bag‘ridan chiqqim kelmas edi.

Qirq birinchi bob

UCHINCHI KURS STUDENTI MUZAFFAR SHOMURODOV HIKOYASI

Xoldastor olma

Hovlimizdagi ikki tup olma qarib qolgan bo‘lsa ham har yili hosil beradi. To‘g‘risi, ularning allanimasini ammamga o‘xshataman. Qarib-churib ketgan bo‘lsayam tinch turmaydi. Aprelning o‘rtalariga borib xuddi nokka o‘xshab to‘p-to‘p bo‘lib gullaydi. Bunaqa paytda hovlimiz shunaqa fayzli bo‘lib ketadiki, oftob botganidan keyin ham nafarmon gullar atrofga qizg‘ish nur taratib turganga o‘xshaydi. Yozga borib, qizg‘ish xol bilan qoplangan olmalar zalvoridan daraxtlarning shoxi egi-lib qoladi. Tishlashingiz bilan xuddi shaftolidek shirin

suvi duv oqib ketadi. Munavvar ham bizning olmani yaxshi ko'radi. Aytishiga qaraganda No'g'ayqo'rg'onda turishganida ularning hovlisida ham shunaqa olma bor ekan. Shahar hovlisida bir tup archadan bo'lak daraxt yo'qmish.

Gullagan olma tagidagi temir karavotda «Provizerlik kursi tarixi»ni o'qib yotibman. Ohista shamol esadi. Nafarmon gullar shivirlab ustimga yog'iladi... Dimog'imga gul hidi uriladi. Etakdagi bostirmada qo'y ma'raydi. Aytmoqchi, bultur yozgi ta'tilda molxona bilan eski bostirmani buzganmiz. Dadam yaxshi niyat bilan bir uy, bir ayvon solgan. Omon ikkalamiz darvoza oldidagi yong'oq tagidan loyxona ochib, rosa g'isht quyganmiz. Kuzgacha tomni amallab yopib oldik. Qo'ylarga ham bostirma soldik. Lekin «uchastka» baribir chala qoldi. Derazalari o'rniga xom g'isht taxlab qo'yilgan. Poli, shifti yo'q. Hali xomsuvoq, alebastr suvoq, chiylampa degan ishlar turibdi. Nima qipti, kunlar isib ketdi. Hammamiz baravar yopishsak, o'n kunda bitirib qo'yamiz. Zo'r kelsa, kursdoshlarimni hasharga chaqiraman. Kelinni yanga uyga tushirish kerak-ku!

Bostirmada yana qo'y ma'radi. Bultur shu paytlarda dadam «yaxshi to'ylarga atab» ikkita qo'zichoq olib kelgan edi. Ikkalasiyam semirib, qo'chqor bo'lib qoldi. Bittasini kelinnikiga yuboramiz, bittasini oshga so'yamiz.

– Omon, qo'ylarga qaramaysanmi? – dedim kitobdan ko'z uzmay. – Sug'ordingmi?

Ayvonda peshonasini tirishtirib dars tayyorlab o'tirgan ukam xohlamayroq javob qildi:

– Suv berdim!

Ovozining do'rillashini qarang! Yigitcha bo'lib qoldi ukam. Sakkizinchida o'qiyapti.

– Omon, oyim qachon kelishlarini aytmadilarmi?

– Yo'q! – U kitobidan bosh ko'tarmay darsini qilaverdi. – Tugun ko'tarib ketdilar.

Sovchilikka ketgan! Munavvarnikiga!

Kecha Munavvarni kuzatib, hovliqib kelsam, oyim uyda ekan. Gapni nimadan boshlashimni bilmay turgan edim, o'zi so'z ochib qoldi:

– O'g'lim, to'yingni shu yil qila qolaylik. Ko'rding-ku, o'rtog'ingni to'yi qandoq fayzli o'tdi. Bir havasim keldi, bir havasim keldi!

Tushundim. Oyim, Abduvalining to'yini aytyapti. Abduvali balo-da! Armiyaga ketishdan oldin o'zimizning Ko'tarmadagi maktabda kutubxonachi bo'lib ishlaydigan qiz bilan tanishgan ekan. Xizmat qilib yurganida menga shuncha xat yozsa ham sirini aytmagan edi. Armiyadan keldiyam, «Tuya» amaki uylantirdi-qo'ydi.

– Menam kelin ko'rsam deyman, o'g'lim. Ana, uy ham bitib qoldi. – Oyim g'alati iljaydi. – Tanlaganing borga o'xshaydi.

– Qanaqa «tanlaganim?» – dedim o'zimni go'llikka solib.

– Parcha xolang aytdi-ku. Bir qoshiq suv bilan yutguli qizni qo'ltiqlab yurganmishsan!

Obbo, Parcha xola tushmagur-ey! Baloga aqli etadi! Bir hafta avval Munavvar ikkalamizni tramvay bekatida ko'rgan edi. Shappa bilagimdan ushlab, «hoy bola, kelinning qo'lidan qachon osh yeymiz», deb do'rillagandi, Munavvar qo'rqib, qochib ketgandi. Esidan chiqmagan ekan-da!

– Qo'ltiqlab yurganim yo'q! – dedim uyalgan kishi bo'lib. – Ammo sovchi bo'laman desangiz, mayli...

Oyim sevinib ketdi. Eski dostonini qaytadan boshladi. Dadam kasalmandligi, o'zining ham buyrak og'rig'i o'qtin-o'qtin qo'zg'ab, madori qolmagani, to'y ko'rgisi kelayotgani, boriga baraka qilib, tezroq oyo-g'imni to'rtta qilmoqchiligi... Keyin kelin bo'lmishning tag-zotini surishtirib ketdi. Kimning qizi? Oilasi qanaqa? Katta oxurdan yem yeb o'rgangan, «ministr»ning qizi bo'lsa, uyalib qolmaymizmi?

U yog'ini ataylab aytmadim. Oyim borsin! Bashor xolani ko'rib, o'ziyam hayron qoladi! Munavvar aytgan-ku! Onasi bir vaqlar No'g'ayqo'rg'onda ishlagan. «Qora ammam»ni taniydi. Ikkala quda birpasda apoq-chapoq bo'lib ketishadi.

– Siz boravering! – dedim iljayib. – Tekstildagi tramvay bekatida oziq-ovqat magazini bor. Shunga kirib,

To'qimachi ko'cha, to'rtinchi tupik desangiz hamma ko'rsatadi. Sakkizinchi uy. Munavvar!

– Kim u, Munavvar? – dedi oyim hayajonli jilmayib.

– O'sha-da! – dedim, «keliningiz» deyishga uyalib. – Birga o'qiymiz.

– Ota-onasi kim?

Yana so'raydi-ya!

– E, siz boravering! Munavvar desangiz bo'ldi.

Nazarimda Munavvarni hamma tanishi, hamma yaxshi ko'rishi kerakdek edi. Otasi yo'q, o'lgan, degim kelmadi. Birdan dadamning qaysarligi tutib, «men erkaksiz oilaga quda bo'lmayman», deb qolishidan qo'rqdim.

– Boravering, peshinda borsangiz oyisi uyda bo'ladi.

Oyim «ha, shumtaka, senam pishiqsan», degandek jilmayib qo'ydi. Rost-da, Munavvar uyida yo'qligida borgani yaxshi! Munavvar oyimni ko'rsa uyaladi.

Oyim, chamamda bu gapni dadamga aytmadi. Taomilda avval ayol quda sovchi bo'lib boradi. So'raydi, surishtiradi, keyin ishga erkaklar aralashadi. Oyim sovcilikka chandon kirishganini bildim. Kechasi non yopdi. Ertalab, darsga ketayotganimda sandiq titkilayotganini ko'rib qoldim.

– Sakkizinchi uy dedingmi, Muzaffar? – dedi sandiq oldida o'tirgan joyida yelkasi osha qarab.

– To'rtinchi tupik, sakkizinchi uy. Magazindan kirib so'rasangiz, bo'ldi.

...Munavvarni tezroq xursand qilgim kelardi. Auditoriyaga hammadan oldin keldim, deb o'ylagan edim. Yo'q. Munavvar mendan ilgariroq kelib, deraza ro'parasida Gulya bilan gaplashib turgan ekan! Gulya esli qiz. Meni ko'rib darrov chiqib ketdi. Voy-bo', Munavvarning ham juda yuragi tor-da! Arzimagan narsaga siqilaveradi. Rangi battar siniqibdi. Ko'zlarining tagi ko'karib, yuzida sezilar-sezilmas dog' paydo bo'pti. Dog'-ku, mayli... Ko'zining ko'kargani... Yana uxlamay chiqqan-da, tentak!

– Oyinglar uydamlar? – dedim pichirlab. – Ikki soatdan keyin «elchi» boradi.

Uning yuzi birdan yorishdi, uzun kipriklari pir-pirab chiroyli ko'zlari yonib ketdi. Yuziga qon yugurib, dog'i ham sezilmay qoldi.

Oxirgi paradan qochib, Telman parkiga bordik, suv bo'yidagi ovloq skameykaga o'tirib, yelkasidan quchdim.

– Munavvar! – dedim kulib. – Hozir «elchilar» sulh tuzishyapti. Ikkala quda bir-birini ko'rib, sevinib ketishsa kerak. Men oyimlarga qudangizni taniysiz, deb aytmadim. Bir syurpriz bo'lsin!

Munavvar shirin jilmayib qo'ydi.

– To'g'ri qipmanmi? – Oyimning kechagi gapi esimga tushib, kulib yubordim. – Oyim-chi, seni ministrning qizi deb o'yladilar! Ko'rasan hali ikkoviyam hayron qolishadi.

Munavvar «nima qilsangiz ixtiyor sizda» degandek, erkananib, boshini yelkamga qo'ydi.

– Chiroyli-a! – dedi imo qilib. – Kichkinaligimda tolbargak taqishni yaxshi ko'rardim.

Harrakdan o'n qadamcha narida, soy bo'yida bir tup majnuntol bosh egib turar, shoda-shoda top-toza yaproqlar qiz bolaning qirq kokil sochidek tolim-tolim taralib, oqim zalvorida ohista tebrantar edi.

– Taqasanmi? – O'rnimdan turayotgan edim, u bilagimdan ohista tutib, joyimga o'tqizdi. Erkananib bosh chayqadi.

– Kerakmas, birpas, shundoq o'tiraylik.

Atrof jimjit, olisda – bog' ichkarisida oto'yin uchayotgan bolalarning qiy-chuvi quloqqa chalinar, soy ustida pastlab uchayotgan qaldirg'ochlar ora-chora tumshug'ini suvga urib, vijirlagancha yana osmon-u falakka parvoz qilardi. Munavvarning sochi yuzimni qitiqlar, yuragining gursillab urayotganini his etib turardim.

– Valokardin ichdingmi?

U kipriklarini pipirratib tasdiqladi.

– Anchadan buyon yuragim bezovta qilmasdi, bilmasam, kechadan beri...

– Qo'ysang-chi! – Kaftlarim bilan ikki yuzidan tutib ko'ziga qaradim. – To'yni-chi, to'qqizinchi mayda

qilamiz! – dedim ishonch bilan. – Tushundingmi?– Bu gapni «oyingga shipshitib qo'y» degan ma'noda aytganimni sezdi. Yuzi qizarinqirab, boshini quyi soldi. – Yaxshi-da, Munavvar! – dedim dadillanib. – Qo'shaloq bayram bo'ladi. – Kuch bilan tortib bag'rim-ga bosdim. U ohista ingradi.

– Yovvoyi! – dedi erkalanib. Qo'lidagi mitti soatiga tezgina qarab oldi-da, tipirchiladi.

– To'rt bo'pti. Boraylik! Oyim xavotir oladilar.

Rostini aytsam, o'zim ham uyga shoshilar, «sulh» natijasini bilгим kelardi.

...Provizerlik tarixini o'qiyapman-u «Abu Ali ibn Sino», «Muravyov usuli», «Pavlov», «Beruniy», «Assaydana» degan so'zlardan bo'lak narsa kallamga kirmaydi. Qiziq, oyim nimaga kechikib ketdi? Kun botay deb qoldi-ku! Yo quda xola noz qildimikin? Boshqa mo'ljali bormi? Yo'q! Munavvar meniki! Qolaversa, Munavvar bir gapni ming marta aytgan: onasi – mard xotin. Yo'liga to'g'anoq bo'lmaydi. Ustiga-ustak oyimni ko'rganidan keyin Bashor xola ham...

Darvoza tomonda mashinaning g'iyqillab tormoz bergani eshitildi.

Kitobimni qo'yib, endi o'rnimdan qo'zg'algan edim, ko'cha tomondan dadamning tajanglashib chaqirgani qulog'imga kirdi:

– Hoy, kim bor?

Aka-uka oldinma-keyin yugurib darvozadan chiqdik. Yong'oq tagidagi loyxonaga oldingi g'ildiraklari tushib ketgudek bo'lib yuk mashinasi to'xtab turar, kirlab ketgan oq kepkasini bostirib olgan pakana shofyor oyoq uchida cho'zilib orqa bortning ilgagini ko'tarar, yelkasi terlab, ko'ylagi kuragiga yopishib qolgan dadam bortni tutgancha unga ko'maklashardi. Yetib borgunimcha shofyor bortni taraqlatib ochdi. Ilgakka oyog'ini tirab kuzovga chiqayotganida dadam cho'loqlanib yoniga bordi. Shimining cho'ntagini kavlab besh so'mlik cho'zdi.

– Rahmat, inim, – dedi. – Yaxshi to'ylaringizda xizmat qilaylik.

Shofyor «qo'yvuring, oka» dedi-yu qarshilik qilmadi. Pulga qaramay, cho'ntagiga tiqib, mashina ustiga sakrab chiqdi.

Voy dadam-ey! To'ygacha «uchastkani» bitirib olgisi kepti-da! Kuzovda bitta qo'shqavat eshik, uchta kattakon «italyanskiy» rom, besh-oltita qog'oz qop (alebastr bo'lsa kerak, bog'langan bo'g'zi oqarib turibdi) dumalab yotar, yonbosh tomonga allaqancha qamish bosib qo'yilgandi.

Ko'plashib ishga kirishib ketdik. Avval alebastr qoplarini tashidik. Keyin chiylampaga mo'ljallangan qamishni, eshikni.. Omon ikkalamiz «italyanskiy» romni mashinadan tushirayotganimizda ko'cha boshida tugun ko'tarib kelayotgan oyimga ko'zim tushdi. Yuragim gursillab urib ketdi. Oyim bashang kiyinib olgan, tugunini yonboshga olib shoshilmay qadam tashlaydi, tayyor qaynonaning o'zi bo'pti-qopti!

Zum o'tmay eshikdan kirib keldi. Qo'lida tugun, egnida krepsatin guldor ko'ylak, oyog'ida... Iye, nimaga unaqa! Rangi o'chgan! Meni ko'rib yerga qaradimi?

– Qayoqda yuribsan tugun-tersak ko'tarib? – Dadam, mo'ylovi tagidan tutun burqsitib beozor koyidi. – Sillam qurib ketdi-ku! Ovqatga unnamaysanmi?

Oyim biz tomonga qayrilib ham qaramadi. Bitta-bitta yurib borib ayvon peshiga o'tirdi-da, tugunni yoniga qo'ydi.

Uning ahvolini dadam ham payqadi. Alebastr yuqi qo'lini chayib yaqin bordi. Ayvon labiga omonat o'tirdi. – Nima gap, Robi? – dedi oyimning ko'ziga qarab. – Qayoqda eding?

Oyim dadamga javob berish o'rniga mening ko'zimga ta'nali bir qarash qildi-da, yuzini o'girdi. Xo'rsindi.

Dadamning jahli chiqib ketdi.

– Ha! – Hayron bo'lib, ayvon peshida turgan tugunga imo qildi. – Bu nimasi?

Oyim yana g'iq etmadi. Lablari titrab, kaftining orqasi bilan tugunni turtdi. Mung'ayib o'tirishi g'ashiga tegdi shekilli, dadam tutaqa boshladi.

– Tiling bormi? – dedi baqirib. – Gapirsangchi!

Oyim dadam qolib, menga yarq etib qaradi.

– Muzaffar! – dedi sekin, iltijoli alpozda. – Qo'y, bolam, pishmaydigan savdo...

– Ichimda bir nima uzilib ketgandek bo'ldi. Nima? Nimaga endi «pishmaydigan savdo» bo'larkan! U yaxshi ko'rsa, men yaxshi ko'rsam...

O'z dardim o'zimga etmagandek, dadam dag'dag'aga o'tdi:

– Nima gap? Ochiqroq aytсалaring-chi!

Bu savol menga ham, oyimga ham baravar taalluqli edi. «Siz gapiring», degandek oyimga yuzlandim.

– Baqirmang... – dedi oyim osoyishta ohangda. Keyin menga yana yolborib mo'ltiradi. – Qo'y, o'g'lim, hammani baravar qiynama... Nima keragi bor! Shundan boshqasi...

Dadam sapchib turib ketdi:

– Hov! Mendan yashiradigan nima siring bor? – U o'dag'aylab oyimning tepasiga bordi. Ammo oyim qo'rqmadi. Xuddi boshida qilich o'ynab turganida burni atrofida aylanayotgan chivinga parvo qilmagan odamdek, kiprik qoqmadi. Dadam battar junbushga keldi.

– Gapirsang-chi!

– Sekin! – Oyim boshini quyi soldi. – O'g'lingiz... – dedi ohista – Muzaffar... meni sovchilikka yubordi.

Ajab, dadam yengil tortib, qaddini rostladi. Nazarimda, «voy, ahmoq xotin-ey, shunga shunchalikmi», degandek bo'ldi.

– Xo'sh? – dedi ovozi yumshab.

– Pishmaydigan savdo! – Oyim yana o'sha gapini takrorlab yuzini o'girdi.

– Nimaga pishmas ekan? – Dadam yarq etib menga qaradi. – Kim o'zi, o'sha? Ko'ngling bormi?

Indamay bosh irg'adim.

– U-chi? Rozimi? Ahd-paymon qilganmisanlar?

Dadamning shu fe'lini yaxshi ko'raman-da! Masalani ko'ndalang qo'yadi.

– Ha! – dedim dangaliga ko'chib. – Uniyam niyati shu!

– Xo'sh? – Dadam «masala hal» degandek, oyimning yoniga qayta cho'kdi. – Tag'in nima kerak? Xo-

tinlar aralashgan ish shunaqa bo'ladi o'zi. Osmondagi oy emasmi? Kim o'sha quda buva? O'zim gaplashaman!

Oyim, bir zum indamay o'tirdi-da, to'satdan hiqillab yig'lab yubordi.

– Bo'lmaydi, dadasi, bo'lmaydi! Zo'rg'a qochib keldim.

Dadamning jahli chiqib ketdi.

– E, ar-te! Bitmaydigan ish bor ekanmi?

Oyim o'tirgan joyida talpinib, yelkamdan quchdi.

– Muzaffar! Jon bolam, bo'lmaydi! – dedi yalinib. – Aytolmadim. Sovchilikka keldim deymadim.

– Gapir! – Dadam bir siltab, oyimni joyiga o'tqizib qo'ydi. – Nega aytolmaysan! Kim ekan o'sha oliftalar!

– Bordim! – Oyim titrab ketayotgan lablariga mush-tini bosib entikdi. – Magazinga kirib, Munavvar degan qizni so'radim. Do'konchi maqtadi. Yaxshi, odobli qiz dedi. Kelin qilsangiz sizdan baxtli qaynona bo'lmaydi, dedi. Uyini ko'rsatdi. Kirsam... – oyim, ko'zi olazarak bo'lib entikib qoldi. – Kirsam... Bashor opa o'tiribdi! Yer yorilmadi-yu kirib ketmadim, dadasi! Munavvar deganda tushunmagan ekanman. Minovar ekan, dadasi! – Oyim dahshatli narsani aytayotgandek uv solib yubordi. – Bilmasdan kirib qolibman. Avvalgi uyi boshqa edi. Bannisaning orqasida. Esingizdami, pochcha o'lganda ma'arakaga boruvdik. Hozir boshqa joyga...

– A?! – Dadam bir lahza og'zini lang ochib, ko'z-larini pirpiratgancha angrayib qoldi. O'sha zahoti rangi quv o'chib mo'ylovi titray boshladi. – Nima?– dedi quloqni teshib yuborgudek hayqirib. Gandiraklab o'r-nidan turdi. He yo'q, be yo'q ustimga bostirib kela bosh-ladi. Nafsi xirillab, og'zidan ko'pik chiqib ketdi.

Nima qilishimni bilmay serrayib qolgan edim. Dadamni bunaqa ayanchli ahvolda ikkinchi marta ko'ri-shim edi. Bir vaqtlar kichkinaligimda chumchuq olaman deb qo'lim sinib qolganida Komil tabibnikidan qaytib kelganimizdan keyin pichoq bilan bir urib, xontaxtani teshib yuborganda ham shunaqa bo'lgan edi. U bir-ikki qadam bosdi-yu, to'satdan qalqib ketdi. Ko'zlari olaygancha yonboshiga yiqila boshladi.

Oyim bilan Omonning dardli hayqirig'i baravar yangradi:

– Dadasi!

– Dada!

Ikkovlari sapchib turib, dadamning ikki qo'ltig'iga yopishdi. Men o'zimni o'nglashga ulgurmadim. Dadam, birov oyog'idan chalib yuborgandek cho'kkalab qoldi. Ko'kragi bosqondek ko'tarilib tushib, entika boshladi.

– Aka! – dedi Omon rasta bo'lgan ovozda do'rillab. – Suv! Suv opkeling!

Beixtiyor ariqdagi loyqa suvdan hovuchimga to'ldirib kelib, dadamning bo'zdek oqarib ketgan yuziga sepdim. Oyim uning peshonasini, gardanini silay boshladi. Anchadan keyin dadamning yuziga sal-pal qon yugurdi. Ko'zlarini yarim ochib xirilladi.

– Yo'qol... – dedi entikib, – kelib-kelib shu qizga...

Nimaga! Aybim nima? Munavvarni yaxshi ko'rishimmi! Munavvar-chi! Unda nima gunoh?! Nimaga bunchalik yomon ko'rishadi uni!

Sapchib turib, ko'chaga otildim. Pastak eshikni taraqlatib ochib yong'oq tagiga yetganimda hovli tomondan oyimning hayqirig'i qulog'imga kirdi:

– Muzaffar! Shoshma!

«Shoshma» emish! Xo'sh, shoshmaganimda nima bo'lardi! Oldiga o'tqizib qo'yib nasihat qiladimi? Ishni buzgan o'zi-ku! Bundan chiqdi, sovchi bo'lib borganini Munavvarning onasiga aytmagani. Ko'cha-ko'ydan gap terib, qaytib kelgan. Ishni bitirish o'rniga dadamniyam yo'ldan urdi. Qiziq: dadam nega bunchalik sapchib ketdi? Kelib-kelib shu qizni... dedimi? Nimaga endi Munavvarni yaxshi ko'rmasligim kerak! Munavvarniya? Nega? Chuchvarani xom sanabsizlar! Juda yaxshi! To'y qilmay qo'ya qolsin! Kerakmas! To'yi ham, o'qishi ham... Undan ko'ra Munavvarning qo'lidan yetaklayman-da, Mirzacho'lga ketaman. Bitta vagon uy berishar. Qaytaga yaxshi bo'ldi. Bilaman, oyim qaytib sovcilikka bormaydi. Dadamniyam aynitdi. Mayli, bormay qo'ya qolsin! Hali hech nima tamom bo'lgani yo'q! Munavvarning onasi oyimni oldiga solib haydamabdi,

qizimni bermayman, demabdi! Xo'sh, tag'in nima kerak? Munavvarning o'zi aytgan-ku! Oyim mard xotin degan-ku! Bo'pti-da! O'zim boraman! To'g'risini aytaman, shundoq-shundoq. Biz bir-birimizga ko'ngil qo'yganmiz. Munavvar ham jim turmaydi. To'y biznikida bo'lmasa, kelinnikida bo'lar! Shungayam ota go'ri – qozixonami! Ammo o'zimning uyimga endi qaytmayman! Bo'ldi! Yetar!

Qirq ikkinchi bob

RA'NO HIKOYASI

Tush

Allaqanday keng dala emish... o'tloqmi-yey, bug'-doyzormi-yey... Muzaffar qip-yalang'och bo'lib, dala o'rtasida chopib ketayotganmish. Kap-katta yigit qip-yalang'och. O'g'lim bir nimadan qo'rqib, qochib ketayotganini bilarmishman-u oldiga borishga uyalarmishman. Keyin, allaqayerdan ot paydo bo'pti. Gijinglab kelib Muzaffarni tishlabdi. Muzaffar chaqaloqqa aylanib qolibdi. O'zi chaqaloqmish-u gapirarmish, «Otni haydang, o'ldirib qo'yadi, quturgan ot», dermish...

Qiziq, nimaga bunaqa tush ko'rdim? Muzaffar nimaga yalang'och yuribdi? Tushga yalang'och kirsayomon: falokat bo'ladi. Shoshma... Anavi ot Umar akaning jiyrani-ku! Muzaffarga bir gap bo'ldimi? Nimaga yalang'och yuribdi? Bugun nechanchi o'zi? Yigirma to'rtinchi aprelmi? Ikki haftadan keyin Muzaffarning tug'ilgan kuni. Yigirmaga to'ladi. Avvalgi telegrammalarimni olganmikin? Olgan. Tabriklab yozgan xatlarimni ham... Javob yozmadi. To'g'ri-da! Nega javob qilsin. Uch yil avval qishda kelganida manavi imon-sizning ko'rsatgan karomati uchunmi?

Muncha achishadi bu yurak o'lgur! Validol qayoqda edi? Shimsam, sal qo'yib yuborarmidi? Chiroq yoqsam, hozir to'ng'illaydi. «Erkalik qilib, uyqumni buzding», deydi, Nasibani uyg'otsammi? Uyam bobillaydi. «Biram erkasiz-ey», deb jerkib beradi.

Kerakmas! Ichmayman. Validoliyam, valokardiniyam jonga tegdi. Umuman, hammasi, hammasi jonimga tegib ketdi. Muzaffar sog'mikin ishqilib? Nimaga yalang'och yuribdi. Tag'in nima kulfat tushdiykin boshiga?

Yozaman, hoziroq xat yozaman. Sog'man, bu dunyoda borman deb bir enlik javob yuborsa bas. Nimaga bunaqa tush ko'rdim? Yomon tush, xosiyatsiz tush... Palakatim o'zimga ursin. O'g'lim tinch bo'lsa bas...

Qirq uchinchi bob

UCHINCHI KURS STUDENTI MUNAVVAR ALIYEVA HIKOYASI

Haqorat

Darsga kechikdim. Ataylab emas, holim yo'q. Kechasi bilan yuragim yomon bo'lib chiqdi. Ustiga-ustak ko'nglim ayniydi. Tramvayda kela-kelguncha ro'molim bilan og'zimni to'sib o'tirdim. Birinchi para Sadir Fuzaylovichning darsi. Bilaman, urishmaydi.

Eshikni ochib, mo'ralashim bilan yarq etib qaradi-yu, shosha-pisha imo qildi.

– Kiraqol, opoq qizim, tezroq...

Darsga kirgan studentlar ham majlisga to'plangan odamlarga o'xshaydi. Hammasi orqaroqqa o'tirishga harakat qiladi. Faqat birinchi qator bo'sh qolibdi. O'sha tomonga yurayotgan edim Muzaffarga ko'zim tushdi. O'rta qatorda o'tirgan ekan. To'g'rirog'i uning o'zi men kirishim bilan sapchib o'rnidan turib ketdi. Rangi o'chgan, ko'zlari qizarib turibdi. Bundan chiqdi, kechasi bilan uxlamagan. Bir zum garangsib turdi-da, qaytib joyiga cho'qdi.

Birinchi qatorga o'tirib, leksiya daftarimni ochib qo'ydim. Sadir Fuzaylovich u yoqdan-bu yoqqa vazmin borib kelib, leksiyasini davom ettirdi.

– Uxlatadigan moddalar neyronlardagi qo'zg'alish seanslarini susaytiradi, retikulyar formatsiyaning bosh miya po'stlog'iga ko'rsatadigan stimullashtiruvchi ta'sirini pasaytiradi va shu tariqa uyquni vujudga keltiradi.

Sekin burilib qaradim. Muzaffar ham mendan ko'z uzmay o'tirgan ekan. Soqoli o'sib ketibdi. Sochi taralmagan, ko'ylagi g'ijim... Hech qachon bunaqa yurmas edi. Bir gap bo'lgan.

– Uxlatuvchi preparatlar orasida eng ta'sirli dori-lar, – Sadir Fuzaylovich ovozi balandroq ko'tardi, – barbituratlar hisoblanadi. Bular orasida hozirgi kunda eng kuchlisi fenobarbital hisoblanadi. Bu preparat uxlatuvchi, shuningdek, talvasani, epilepsiya – tutqanoqni tinchlanturuvchi dori sifatida poroshok yoki tabletkada 0,1–0,2 grammdan ichiladi.

Oyim kecha ham fenobarbital ichdi. Ikkita tabletkada. 0,2 gramm! Keyin qotib uxlab qoldi. Men esa mijja qoqmadim. Shu kecha oyimni birinchi marta yomon ko'rib ketdim.

Yelkam osha tag'in orqaga qaradim. Muzaffar daf-tarini oldiga qo'ygancha, bir nuqtaga tikilib o'tiribdi. Xuddi butun sir-asror o'sha nuqtaga yashirib qo'yil-gan-u, yaxshilab qarasa, hamma narsani bilib oladigan-dek. Bundan chiqdi kecha ularning uyida ham bir gap bo'lgan. Biznikida ham bo'ldi. Yomon bo'ldi. Oyim to'satdan to'nini teskari kiyib oldi.

Kecha Muzaffar bilan xayrlashgan zahoti tramvayga yugurdim. Kuzatib qo'yishiga ko'nmadim. Baqaterakka yaqinlashganimda tor ko'chamizdan chiqib kelayotgan tugun ko'targan xotinni ko'rdim. Yuragim sezdi: Mu-zaffarning oyisi! Boshida shoyi ro'mol, egnida guldor ko'ylak. Yuzim lovullab yonib ketganini sezib, o'zimni chetga oldim. Ko'rganman, bu ayolni qachondir, qayerdadir ko'rganman. Ehtimol, No'g'ayqo'rg'ondagi hovlimizga kelgandir. Bilmadim, eslay olmadim. Ammo aniq sezdim: Muzaffarning oyisi, to'g'rirog'i... Mening ham bo'lajak «oyim»... O'zimning oyim kuzatib chiqqan bo'lsa, ko'ziga ko'rinmay qo'ya qolay deb, baqaterak panasiga o'tdim. Ko'cha ichiga mo'ralasam, hech kim yo'q.

Qandaydir kuch o'sha tomonga itargandek bo'ldi-yu, Muzaffarning onasiga qarab yurdim. Balki oyim uyda yo'qdir. Qaytarib olib kiraman. «Mehmon»ga choy-poy

– Bor, ovqatga qara.

Qozon tepasiga borsam, yana ko'nglim aynishini his qilib qo'rqib ketdim.

– Hozir, uchinay avval.

Uyga kirdim-u oyimning ko'ziga ko'rinishdan hayiqib, shosha-pisha kiyimimni almashtirim. Xomush bosh egib ketayotgan Muzaffarning onasi, uydan otilib chiqqan Klara opa yana xayolimda jonlandi.

– Birov keldimi? – dedim ataylab beparvo ohangda.

– Ha, keldi! – ayvonda tag'in kosa sharaqladi.

Qiziq, buncha jahli chiqmasa? Odatini bilaman. Bunaqa paytda «oyijon, o'zingiz yaxshisiz-ku», deb suykalsam darrov hovuridan tushadi. Kichkinaligimda yangi kiyim oldirmoqchi bo'lsam, biron «gunoh» qilib qo'ysam shunaqa qilib iydirdim...

Eshikdan sekin mo'ralab, iljaydim.

– Kim keldi-i, oyijon?

– Nimaydi?! – Oyim ko'zimga shu qadar sovuq qahr bilan qaradiki, iljayib turishim o'zimga nihoyatda xunuk, ayanchli tuyulib ketdi.

– O'zim... – dedim kulib. Biroq labim qiyshayib ketganini sezib battar g'ashim keldi.

– E, padariga la'nat! – Oyim navbatdagi kosani shosha-pisha artib, xontaxtaga qo'ydi. – Anavi do'konchi o'zicha har balolarni to'qib yuribdi.

Uning ovozi yumshagandek bo'ldi. Sekin yoniga keldim. O'zimni majbur qilib yana iljaydim.

– Oyijo-on! – dedim sirli qilib. – Boshqa hech kim kelmadimi?

U yarq etib yuzimga qaradi.

– Ko'zing uchib turuvdimi?

Yana o'sha sovuq nafrat! Nimaga? Endi meniki ham tuta boshladi.

– Nega aldaysiz? – dedim achitib. – Ular keldilar-ku!

– Kim «ular?» – oyim ko'zimga tikandek qadalib qaradi.

Yo'q, endi ayanchli jilmayish ham, yolborish ham yo'q! Qaysarlik bilan men ham ko'ziga tik qaradim.

– O'sha odam! – dedim ta'kidlab.

Oyimning rangi battar o'chib ketdi.

– Bundan chiqdi rost ekan-da! – dedi titrab.

Indamay yerga qaradim.

– Menga qara, hoy! – U har so‘zini chertib-chertib ta’kidladi. – Agar Robiya shu niyatda kelganini bilsam oldimga solib haydardim. Ikkinchi qadam bosmasin! – U dastadan yana bir kosani yulqib oldi. Artmoqchi edi, kosa tizzasiga tushib, to‘nkarilib qoldi.

– E, palakating o‘zingga yopishsin! – U kosani changallab hovliga otdi. Kosa zarang yerga tushib, chil-chil bo‘ldi. Bir bo‘lagi sakrab-sakrab archa tagiga kirib ketdi. – Gap shu! – dedi chaqchayib. – Aytib qo‘y. Onasi yana kelsa, oyog‘ini urib sindiraman! Kelsa, to‘g‘rilikcha, mehmon bo‘p kelsin!

Angrayib qoldim. Demak, ko‘cha boshida ko‘rganim chindan ham Muzaffarning oyisi. Demak, Klara opa qochib chiqqanida gap bor. Bundan chiqdi oyim «erkakshodalik» qilgan. Sovchini haydagan. Klara opa «suyunchi olish» uchun kirganida uniyam oldiga solib quvgan. Nima uchun! Bo‘ldi. Yetar! Dadamga o‘xshab qo‘ydek yuvosh bo‘lsam, boshimda yong‘oq chaqadi. «Lo‘lilik»ni mendan ko‘rsin! O‘zi aytgan: «Mingtasi bilan yurmagin-da, ko‘nglingga yoqqanini ayt, sovchi yuborsin», degan. Mana: aytgani bo‘ldi. Tag‘in nima kerak!

– Nimaga? – Yer tepinib yig‘lab yubordim. – Nimaga? Nimasi yomon?

– Bo‘l-may-di! – U shu bitta so‘zni aytguncha xontaxtani kattakon mushti bilan uch marta urdi. Taxloqlik kosalar nolali zirillab ketdi. – Bo‘l-may-di! Itdan tarqagan ahmoq qiz, bo‘l-maydi. Kimga tortgansan o‘zing!

Endi yig‘lamay qo‘ydim.

– Sizga! – Bu gapni shunaqa osoyishta ishonch bilan aytdimki, o‘zim ham hayron qoldim. – Sizga tortganman! Siz ham dadamni boshlab...

– O‘chir! – Oyim sakrab o‘rnidan turdi-yu, quyundek yopirilib ustimga keldi.

– Bo‘l-maydi! Bo‘l-maydi! – U qo‘llarini musht qilganicha ikki yelkamga turti. – Men bilaman-ku, bo‘l-maydi!

Birpas hansirab turdi-da, oshxona tomon ketdi. Anchadan keyin ikki kosa moshxo'rd a suzib keldi.

– Ich, – dedi qovog'ini solib. – Yalpiz soldim.

– Rahmat, to'ydim, – dedim-u uyga kirib ketdim. Derazadan tashqariga qarab ancha o'tirdim.

Quyosh botib ketdi. Hovlidagi archa uchidagi shafaq shamday lovullab o'chdi.

Qorong'i tushdi. Ko'rpaga burkanib yotib oldim. Muzaffar nima qilayotgan ekan? Oyim «bo'lmaydi», dedimi? Robiya sovchilikka kelganini bilsam, quvib yuborardim, dedimi. Qiziq, nimaga u ataylab keladi-yu, aytmay ketadi. Oyim nega bunchalik «shaytonlab» qoldi. nima gap o'zi? Aybim nima? Muzaffarni yaxshi ko'rishimmi! U-chi, unda nima gunoh?

Bir mahal oyim ingradi.

– Dori ber, qizim, boshim yorilib ketay deyapti.

Istar-istamas turib chiroqni yoqdim. Har kuni o'zi ichadigan odam... Tokchadagi fenobarbital qutisini titkiladim.

– Nechta? – dedim qayrilib qaramay.

– Ikkita beraqol, zora uxlasam...

Dori ichib bo'lib, piyolani uzatarkan, yelkamdan tortib, yoniga o'tqizdi. Peshonamni siladi.

– Qo'y, qizim, siqilma! Unut o'shani! Boshqa xohlagan odamingni ayt! Shu zahoti to'y qilmasam yuzimga tupur! Senga atalgan qaymoqning yuzi buzilmagan, Munavvar!

«Qaymoq» emish! Yuzi allaqachon buzilgan bo'lsa-chi! Uning «qaymog'i» meniki, meniki – uniki bo'lsa-chi?!

Fenobarbital – kuchli preparat! Chorak soat o'tmasdan oyim xurрак torta boshladi. Men bo'lsam...

– O'tkir zaharlanishda avvalo oshqozonni yuvish kerak! – Sadir Fuzaylovich hamon nari borib, beri kelib leksiyasini davom ettirar edi. – Yurak faoliyatini yaxshilash uchun massaj qilish, sun'iy nafas ol-dirish...

Yana orqaga qaradim. Muzaffar hamon o'sha nuqtaga tikilib o'tiribdi. Xuddi g'amgin, o'ychan haykal singari.

– Munavvar! Aslida mana shu terakni kesib tashlash kerak! Qurib qopti-ku! Qurigan daraxtning xosiyati bo'lmaydi, – Muzaffar ovozi baralla qo'yib shang'illadi. – Mayli, zarari yo'q. Ertaga Ergash bilan Maratni boshlab kelaman! Terakni kesamiz!

– Sekin! – Yolgudek bo'lib ko'ziga termildim. Nazarimda hamma bizga qarayotgandek. Kattayu kichik – butun mahalla tor ko'cha eshiklaridan mo'ralab, barmog'ini bigiz qilib munofiqona shivirlashayotganday. «Ana Bashoratning qizi yigitini boshlab kepti», deyayotgandek.

– Iltimos, sekin!

– Ko'cha tor ekan, mashina sig'maydi. Mayli, kuvov jo'ralarning mashinasi ko'cha boshida qoladi. Bu yog'iga piyoda kiraveramiz! – Muzaffar battar shang'illadi.

Astoydil yalindim.

– Orqaroqda yuring, iltimos...

– Nega endi! – U o'chakishgandek avjiga chiqdi. – Oshing halol bo'lsa ko'chada ich!

Sezib turibman: Muzaffar bu gaplarni azbaroyi menga o'chakishib aytayotgani yo'q. Rangi o'chib, asabiy iljayib gapiryapti. O'zidan kuchli odamdan kaltak yegan bola «urishasanmi-urishasanmi...» deb chiranganida qanaqa ahvolga tushsa Muzaffar ham hozir shunaqa holatda kelyapti. Ataylab men bilan yonma-yon qadam tashlayapti. Ataylab qattiq-qattiq gapiryapti. Sezdim: kecha ularnikida ham dilsiyohlik bo'lgan. So'rasam aytmadi. «Oyim bilan o'zim gaplashaman», deb (mening onamni «oyim» dedi) kelyapti.

«Mehr ko'zda» deyishadi. Ajabmas, oyim Muzaffarni ko'rib ko'ngli iyisa. Nima qipti! Esli-hushli bo'lsa, birovdan kam joyi bo'lmasa... Onam deb tursa...

– Siz kirmay turing. – Muzaffarning ko'ziga termilib, shu qadar nosamimiy, shu qadar sun'iy iljaydimki, o'zimdanda o'zim nafratlanib ketdim. – Men hozir.

Ko'cha eshigini ochishim bilan pachoq chelakda axlat ko'tarib chiqib kelayotgan oyimga ro'para bo'ldim. U etagini lippasiga qistirib olgan, hozir hovli supurgan

shekilli, chelakda archaning sarg'ish ignachalari xunuk dikkayib turardi.

– Keldingmi? – dedi oyim ko'ngli joyiga tushib.– Hayronman, archa o'lgur qaribdimi, nuqul shoxini to'kadi. Kiraqol, qizim, ovqat suzaman.

U ko'cha boshiga yo'nalganini ko'rib, esankirab qoldim. Oyim o'n qadamcha narida papkasini salanglatib turgan Muzaffarga ko'zi tushdi-yu, to'xtadi. Yarq etib menga qaradi. Ko'zidan: «Kim bu?» degan savolni uqib, battar talmovsiradim.

Muzaffar sholg'omdek qizarib ketdi... Qo'lidagi papkasini qayerga yashirishni bilmagandek esankirab salom berdi. Keyin o'zini bir qadar o'nglab oldi shekilli, zipillab oyimning oldiga keldi.

– Menga bera qoling! – dedi g'o'ldirab. Axlat chelakka qo'l cho'zgan edi, oyim xazinasini birov tortib olayotganday chelakni orqasiga yashirdi. Qiyofasi avval shubhali, keyin qahrli tus oldi. Ko'zlarida: «Kim bu, gapir!» degan unsiz hayqiriq yangradi.

– Oyi... – Ovozim titrab ketganidan g'ashim kelib iljaydim. – Tanishlinglar. Muzaffar...

Ahmoqona rasmiyat. Xuddi studentlar balida yigit qizni bir-biriga tanishtirgandek.

Oyim chelakni qars etib yerga qo'ydi.

– Nima deysiz, yigitcha?! – dedi Muzaffarga keskin o'girilib.

Muzaffar butunlay dovdirab qoldi. Kaltak yegan odamdek boshini kiftiga tiqdi. Yerdan ko'z uzmay qaytadan salom berdi.

– Xola... – dedi duduqlanib. – Oyi... Iltimos... Munavvarxon...

– Nima, «Munavvar!» Nima?! – Oyimning ovozi shiddatli, alamli jarangladi. – Tinch qo'yanmi-yo'qmi? O'z holimizga qo'yanmi-yo'qmi? Qanaqa suvyuqmas bolasan?!

Muzaffar ko'zlariga hayrat to'lib, oyimga emas, menga qaradi.

Qiyofasi shu qadar ayanchli: go'daklarcha sodda, alamli ediki, baqirib yubordim.

– Oyi!

Qiziq, oyim menga qayrilib qaramadi.

– Niyatingiz nima, yigit? – dedi Muzaffarga taqalib borib.

Muzaffar chekinmadi. Negadir qaddini rostlab oyimning ko'ziga tik qaradi. Yuzidagi ayanchli ifoda yo'qolib, qat'iyat paydo bo'ldi.

– Oyi... – deb gap boshlagan edi, onam shart kesdi...

– Oyi dema meni! Birovga yaxshilik qilganning uyiga o't tushsin! – shunday dedi-yu to'satdan yig'lab yubordi. – Qayoqdan kelding! – dedi ikki bukchaygan-cha tizzasiga mushtlab. – Qay go'rdan paydo bo'lding?!

Muzaffarning rangi quv o'chib ketdi.

– Nima keragi bor? – dedi titrab. – Bir-birimizni...

– Yo'qol! – Oyim esdan og'gandek uning yoqasiga yopishdi. Bir siltagan edi, Muzaffarning qo'lidan papkasi uchib ketdi. – Daf bo'li! Qadam bosma ostonamga! O'z g'amim o'zimga yetmasmidi?!

Ko'cha boshida tomoshabinlar to'plana boshlaganini endi ko'rdim. Ammo gap-so'zlar-u mayda-chuyda ig'volarni o'ylab o'tirishga vaqtim ham, toqatim ham yo'q edi. Ko'nglimda onamga nisbatan alam, qahr qo'zg'aldi-yu, yugurib borib, qo'lga yopishdim.

– Tegmang! – dedim chinqirib. – Qo'yvoring!

Oyim hamon uning yoqasidan bo'g'ib, baquvvat qo'llari bilan silkitar, Muzaffar taqdirga tan bergandek, indamay turar, entikib nafas olardi.

– Qo'yvoring! – Oyimning bilagiga tarmashdim. – Tegmang.

Oyim g'azabdan olayib ketgan ko'zlari bilan menga bir qaradi-yu, Muzaffarga hayqirdi:

– Ikkinchi qadam bosma ostonamga, eshitdingmi?

Muzaffar oyimni siltamadi, turtmadi.

– Agar... – dedi sekin. – Yo'q desangiz Munavvarni obqochib ketaman...

– Nima? – Oyim chap qo'li bilan uning yoqasini changallagan ko'yi o'ng qo'lini bo'shatdi-da, bir qadam orqasiga tisarildi. – Nima? – dedi tahdid bilan.

Muzaffar kiprik qoqmadi.

– Xafa bo'lmang, – dedi sekin, ammo ishonch bilan. – Biz... ketamiz. Munavvar bilan...

Gapining oxirini aytolmadi.

Tarsaki shu qadar qattiq jarangladiki, qulog'im shang'illab ketdi. Muzaffar, ko'zlari hayratdan olay-gancha beixtiyor chap yuzini kafti bilan bекitdi. Ko'z-larini yumib, garangsigan qiyofada kaftini tushirgan edi, yuzi avval oqardi, keyin barmoq izi qizarib, bo'rtib chiqdi.

Oyim o'zi qilib qo'ygan ishidan o'zi qo'rqib, Mu-zaffarning yoqasini bo'shatdi. Rangi quv o'chib, qalin lablari osilgancha, orqaga chekinib bordi-da, axlat che-lakka urildi. Chelak dumalab, tuproq aralash archa shoxlari yerga to'kildi.

– Peshonam qursin! – dedi boshiga mushtlab. – Peshonam qursin! Endi shu ko'rgilik bormidi?

Muzaffar yerda yotgan portfelini shaxd bilan yulqib oldi. Oyinga emas, menga qarab so'radi:

– Nimaga, Munavvar?..

Yuzini silagancha boshini quyi solib keta boshladi.

Atrofimizni o'ragan tomoshabin olomondan jirka-nib o'sha tomonga – Muzaffar talmovsirab yurib ketayot-gan ko'cha boshiga yugurdim. Menga desa yer yutmay-dimi! Ig'vogar olomonni ham, begona xotinni – mening onamni oyi deb yolvorib turgan, shu mehri evaziga kaltak yegan, yigitlik g'ururi haqoratlangan Muzaffarni, jonimdan aziz kishini oyoqosti qilgan onamni yer yut-maydimi! Menga desa hammasi jahannam olovida ku-yib kul bo'lmaydimi?

– Muzaffar! To'xtang!

Hayqirig'im oqshom shafag'ida qonsiragan ko'cha-ni titratib yuborgandek bo'ldi.

– Muzaffar!

U ko'cha boshida, qurib qolgan terak tagida to'x-tadi. Endi menga hammasi baribir edi! Eshikdan mo'-ralayotgan, har kuni «yigitini» yangilab kinoga tu-shib, o'pishib o'tiradigan, ammo ota-onasi «qog'ozga o'rog'lik qantday» deb maqtaydigan uy qizlari, bir vaqtlar o'zi xohlamagan odamga turmushga chiqqani uchun alami ichida qolgan, endi o'zini g'iybat bilan yupatadigan kelinchaklar, bir zamonlar qaynonasidan zulm ko'rgani evaziga endi o'ziyam sababini tushunmay

kelini boshida yong'oq chaqayotgan qaynonalar – hammasi bir pul edi. Tupurdim hammasiga! Tu-purdim! Oyim... el-yurt o'rtasida erkakshoda deb nom qozongan, aslida dadam bechorani chimildiqqa majburan sudragan, dadam sho'rlikka xotin emas, er bo'lib olgan beshafqat onam ham bir tiyin! Endi tushundim. Kechayam hafsalam pir bo'lgan edi-yu, bunchalik bo'lishiga aqlim yetmagan edi. Endi aniq tushundim. Erkakshodalik boshqa, mardlik boshqa ekan! Hezalakchalish erkak qanaqa xunuk ko'rinsa, erkaknamo xotin ham shunaqa, bedavo bo'larkan! Bildim! Onam – mening oyim emas! Umuman, ayol emas! O'z bolasini, «oyi» deb iltijo qilib turgan yigitni urishga qandoq qo'li bordi. Tag'inam Muzaffar odam ekan! Boshqa yigit bo'lsa...

– Muzaffar! – Baqaterak tagiga borganda yetib oldim. – Muzaffar, – bo'g'zimdan yig'i otildi. – Kechiring! – Chang bo'lib ketgan shimining pochalarini silab cho'kkaladim.

Bilmadim, shamol keldimi, terakning skeletdek qoqshol shoxlari nolali ingrab ketdi. To'zon ko'tarilib yuzimga pista po'choqlarini urdi. Bekat tomonda tramvay g'il-diraklari faryod solib uzoq g'iyqilladi. Oqshom quyo-shida Muzaffarning to'zg'ib ketgan sochlarini, titrab turgan lablarini ko'rdim. Chap yuzida onamning besh barmog'idan tushib qolgan ko'kimtir izlar bo'rtib chiqqan edi.

U yig'layotganimni ko'rib qo'rqib ketdi. Chang-to'zon quyuncha bo'lib aylanayotgan yo'lkaga tappa o'tirib, boshimni kafti orasiga olib, yuzimga qaradi.

– Munavvar, – dedi yalinib. – Unaqa qilmang! Oyingizga qarang!

Nima? Endi sizlashga o'tib qoldimi! Endi begona bo'lib qoldimmi?

– Obketing! – dedim hayqirib. – Kerakmas! Oyim ham, boshqasiyam! Ketaman! Obketing! – alam bilan erni mushtladim. – Obketing!

– Munavvar... – U jilmayishga urindi-yu eplay olmadi. Yuzi alamli qiyshayib ketdi. – Munavvar, – dedi titroq qo'llari bilan boshimdan quchib. – Ertaga paspor-tingni olib chiq, tushundingmi?

Qirq to'rtinchi bob

UCHINCHI KURS STUDENTI MUZAFFAR SHOMURODOV HIKOYASI

Ikki eshik orasi

Shovullayotgan nima? Bo'rijarmi? Qayoqqa kelib qoldim o'zi? Alvasti ko'prik-ku! Ana, Bo'rijar suron solib, ko'prik tagiga kirib ketyapti, muncha hayqiradi? Yo'lida to'g'onlar borligidan xabari yo'q-da! Avval bittasi to'sadi, keyin ikkinchisi, uchinchisi... har qadamda yo'lini to'sa-to'sa oxiri yerga singdirib yuborishadi. Nimaga shunaqa? Nimaga o'z yo'lingni o'zing tanlashingga qo'yishmaydi. Nega endi doim birovlarining izmida yurishing kerak!

Quyosh yig'layaptimi? Ajab, shu yoshga kirib, oftobning yig'lab botishini ko'rmagan ekanman. Ana, olisda, yong'oqzor ortida osmon qontalash bo'lib ketdi. Shoshma, Bo'rijar ham hayqirayotgani yo'q. Nola qilyapti. Ana, eshityapsanmi, qirg'oqqa bosh urib faryod solyapti.

...Aslida o'shanda – Sherzod bilan garov o'ynaganda ko'prikdan kalla tashlasam bo'larkan. Qutulib ketardim. Munavvargayam shuncha azob yo'q edi. Hali ham kech emas. Suzishni bilmayman. U yoqda ota-onang ayyuhannos solsa, bu yoqda eng yaqin odamingning onasi kuppa-kunduz kuni, ko'chaning o'rtasida ursa... Haliyam kech emas... Bo'rijar qonsirab turibdi... Alvasti ko'prik o'z nomi bilan Alvasti ko'prik! Hech kim bilmaydi ham... Ahmoq! Hezalak! Qilg'iliqni qilib qo'yib, do'ppi tor kelganda qochish ekan-da! Munavvarning holi nima kechadi! Senga shunchalik dajjollik qilgan xotin uni ne ko'ylarga solmas ekan?! Qiziq, ona degan ham shunaqa beshafqat bo'ladimi? Hali Munavvarning... bunaqaligini bilmaydi. Sezib qolsa... Yo'-o'q! Osonlikcha jon beradigan anoyi yo'q! Kelishdik-ku axir. Ertaga Munavvar pasportini olib chiqadi. Ertagayoq ZAGSga ariza beramiz. Mayli, to'yi ham, karnay-surnaylari ham kerak emas...

Poyezd o'tyaptimi? O'shanda ham poyezd o'tib qolgan edi. Keyin Munavvar kelgandi. Kelib, jonimni saqlab qolgan edi... Endi mening navbatim. Endi men uni asrab qolishim kerak!

...Poyezdda ketamiz. Sirdaryoga borib, obkom kom-somolga uchrashamiz. Bizni eng olis sovxozga yuborishsin... Aptekaning zax yerto'lasiga kirib, dori tayyorlagandan ko'ra...

Anavi nima? Na'matak guli-ku! Loyqa suvda qalqib kelyapti. Na'matak gullabdi-da! Bugun qaysi kun o'zi? Yigirma beshinchi aprelmi? Qiziq, anavi ninachimi? Gunafsharang qanotini pirpiratib, quturgan to'lqin ustida bermalol uchishini qara! Chivindek joni bor-ku, qo'rqmaydi. Bir qarich pastlasa-ku, tamom: piyoz po'stidek qanotlari ho'l bo'ladi-yu, alamini kimdan olishini bilmay o'shqirayotgan to'lqinlar vahshat komiga tortib, chirpirak qilib ketadi. Yo'q, qo'rqmaydi. Ana, sohildagi qoqigulga borib qo'ndi. Bir zum dam oldi-da, tag'in pastga sho'ng'idi. Xuddi o'chakishgandek bermalol parvoz qilib, ko'pirib yotgan loyqa to'lqinlar ustida muallaq turib qoldi.

Voy azamat-ey! Bir kun umr ko'radimi, bir soatmi, baribir. Kurashadi, olishadi, yashaydi. Balki hayotning ma'nisiyam shudir o'zi! Tirikmisan, kurashasan. Yo yengasan, yo yengilasan. Qiziq, nega endi yengilish uchun kurashish kerak! Cho'qqiga chiqayotgan odam yiqilishni niyat qilmaydi-ku! Kurashdingmi, yengishing shart!

«Qora ammam» nima deydi doim? «Tirikmanmi – qimirlayman!» Yoshi saksondan oshibdi-ku, hamon qimirlaydi. Bultur Kimsan akamning haykalini quchoqlab yig'laganida endi tamom bo'ldi, deb qo'rqqan edim. Yo'q, haliyam yashayapti. Kurashyapti. Munkillab qolgan kampirchalik yo'qmisan? Shoshma! Ammang bor-ku, axir! Voy ovsar-ey! Nimaga shu gap avvalroq esingga kelmadi? Munavvar aytgan-ku, «oyim u kishini taniydilar, yaxshi ko'radilar», degan-ku. No'g'ayqo'rg'onda yonma-yon ko'chada turishgan ekan. Nega shuni o'y-lamading! Sovchilikka ammangni yuborsang, shun-

cha gap yo'q edi. Ammangni o'zi hammasini pishitardi. Hamma ishni yaxshilik bilan bitirishning yo'li bor ekan-ku!

...Ammamning behisi gullabdi. Qiziq, behi gullabdi-yu, bulturgi mevadan haliyam qolgan ekan, oshga bosibdi.

– Ol, bolam, yeyqol! – U g'ij-g'ij nafas olib, bir kosa oshni oldimga surdi. Ishtaham bo'lmasa ham o'zimni majbur qilib yeya boshladim: kechadan beri tuz totmaganim endi esimga tushdi.

– Osh damlayotganimda chap qovog'im uchuvdi, – dedi u harsillab. – Qara, sen kelib, sevinib qolarkanman. Behisi ezilmabdimi? Hali ukang kelib ketuvdi, kecha uyga bormabsan-ku, dalovsha!

Bundan chiqdi oyim xavotir olib, Omonni yuborgan. Battar bo'lmaydimi!

Ishtaham bo'g'ildi. Jimlik cho'kdi.

Olmadek lampochka atrofida parvonalar aylanyapti. Bir juft qaldirg'och inidan mo'ralab yuvoshgina «viyt-viyt» qiladi. Hammasi o'sha. Qaldirg'och ini ham, tokchadagi barkashlar, devordagi Husan buvam bilan Kimsan akamning surati ham. Ammamning g'ij-g'ij nafas olganча xirgoyi qilishi ham.

*Jon bolam, jonim bolam,
Olloga topshirdim sani,
Ohimga ollo yetmadi,
Tuproqqa topshirdim sani...*

Bilaman, hozir Kimsan akamni gapiradi. Ana, aytmadimmi!

– Kecha Kimsan akangni ko'rib keldim... Ancha gaplashib o'tirdim...

Bundan chiqdi haykal oldiga yana borgan. Yo'lni bilib olgan.

– Zangiotada-chi, bir yigit yigirma besh yil deganda eshikdan kirib kepti. Onasi bechora ko'r bo'lib qolgan ekan. O'g'lining ovozi eshitib, ko'zi ochilib ketibdi. – Ammam o'z gapiga o'zi ishonib, jilmaydi. G'ij-g'ij nafas olishi tezlashib ketdi. – Akang kelishi bilan to'y qilamiz... Choy ich, bolam...

Boyadan beri gapni nimadan boshlashni bilmay o'tirgan edim. Ammamning o'zi to'ydan gap ochgani yaxshi bo'ldi.

– Bizning to'y ham aniq bo'lib qoldi, amma, – dedim iloji boricha beparvo gapirishga urinib.

U yarq etib boshini ko'tardi. Sochining uchidagi tanga popuklari jaranglab ketdi.

– Voy! Voy o'zim o'rgilay, shuni oldinoq ayt-maysanmi! – u qurushqoq lablari bilan peshonamdan o'pdi. – Moro bo'lsin! – Ammo o'sha zahoti arazlagan yosh boladek mung'ayib qoldi. – Xafaman!– dedi to'satdan. – Dadang bilan oying meni odam qatoriga qo'shmay qo'yishdi. Robiya bir og'iz aytsa bo'lmaydimi!

– Amma! – dedim yupatib. – Haliyam sizdan maslahat so'ragani keldim. O'zingiz bosh bo'lmasangiz ish chatoq. Oyim borsalar nevara kelingizning onasi ko'nmabdi.

– Xo-o! Kim ekan o'sha Husan dumaning nevarasi og'iz solsa noz qiladigan kenas! – U birdan jonlandi. Nafasining g'ijillashi ham tinib qolgandek bo'ldi. Ko'zlari yorqinlashib, ovozi qat'iylashdi. – Osmondagi oy bo'ptimi? Bitta borganda oq o'rab kelmasam yurgan ekanman. O'zingga yoqadimi axir! Ahd-paymonlaring bormi?

– Borlikka-ku bor. Ammo bu yoqda dadam ham...

– Nima dadang! – Ammam ko'zlarini chaqchaytirdi. – San xohlasang, kelin xohlasa kim qo'yibdi u kishiga oyoq tirashni!

Ko'nglim yorishib ketdi.

– Hayronman, kelin dadamning ko'ngliga o'tirishmayroq turibdi.

– Voy, ko'ngillarining ko'chasidan o'rgildim! – Ammam qo'lini mushtlab tizzasiga botirgan edi, qoqshol barmoqlari sinib ketgudek shiqirladi. – Nima qiladi, ikki yoshga monelik qilib! Kelinning tag-zoti durustmi axir?

– Durust, amma, durust, – beixtiyor iljaydim. – O'ziyam sinashta oila. Taniysiz. Bashor xolaning qizi-da, Munavvar...

Qiziq, ammam bir lahzada bo'shashib qoldi. Negadir tag'in nafasi qisib, «g'ij-g'ij»i ko'payib ketdi. Hozirgina charaqlab turgan ko'zlari suvga tushgan toshdek xira tortdi.

Hovlida allakim yo'taldi. Dadam! Hoynahoy shu yerda bo'lsa kerak, deb meni izlab kelgan. Sakrab turib ketdim. Ostonaga yetmasimdan eshik ochilib oppoq yak-tak kiygan Oqsoqol buva kirib keldi. Salom berib, beixtiyor orqaga tislandim. Bolaligimda, dadamga ergashib yurganimda uni ko'p ko'rganman. Momaqalldiroqdek gumbirlab gapirishini yeshitganman. Yetti yashardan etmish yashargacha hamma uning soyasiga salom berishini bilaman. Bultur G'amguzor ona haykali ochilayotganida aytgan gaplari ham esimda... Ammo bunchalik yuzma-yuz kelmagan edim. Uning butun turish-turmushida odamni daf'atan esankiratib qo'yadigan salobat bor ekan. Xuddi a'zoyi badanidan g'alati nur taralyapti-yu, yaqiniga borsang, ko'zing qamashadigandek.

– Vaalaykum assalom, umringdan baraka top, bolam, – dedi u vazmin ohangda.

Ammam ham kalovlanib o'rnidan turdi. Sakson yoshli kampir qo'lini ko'ksiga qo'yib salom bersa, qiziq ko'rinarkan. Biroq men bunisiga ham hayron qolmadim. Ammam hansirab nafas olganicha taxmondan yangi ko'rpacha olib, xontaxta to'riga yozdi.

– Xush kelibsiz.

– Yaxshi o'tiribsanmi, kelin? – Oqsoqol og'ir-og'ir qadam tashlab yuqoriga o'tdi, bo'g'inlarini shiqirlatib ko'rpachaga cho'kdi. Oppoq, quyuq qoshlari tagidan menga sinchkov qarab qo'ydi.

– Nevaram! – dedi ammam tanishtirib. – Robiyaning o'g'li... Bilasiz-ku, dadasi opichlab yurardi.

Oqsoqolning yuzi yorishdi.

– E, o'sha bolamisan? – dedi kulimsirab. – Barakalla! O'tir, bolam! Onang tuzukmi? Dadang yaxshi yuribdimi?

Nega shunaqa bo'lganini o'zim bilmayman. Kechadan beri ko'nglimni xijil qilayotgan tashvishlarni bir zum unutgandek bo'ldim. Oqsoqol buvaga yaqin o'tirishga

qo'rqqandek ancha berida cho'kkaladim.

– Potma qizim yaxshimi? Nevara-chevaralar yuri-shibdimi? – Ammam piyolani chayib choy uzatdi.

– Aloq-chaloq tush ko'rib yuribman. Dumani... Bashoratni... – Oqsoqol piyolani aylantirib-aylan-tirib choy ho'plarkan, ammamga yuzlandi. – Zamon to'kin-chilik bo'lgan sayin odamlardan oqibat ko'tariyaptimi, nima balo? Bashorat qandoq juvon edi! Xotin kishi bo'lsayam belida belbog'i bor edi! Potmamga tayinla-dim. Tekstil qochib ketgani yo'q, Toyirjon bilan borib holidan xabar ollaring, dedim. – U boshini vazmin burib menga qaradi. – Senam, oyingga ayt, bolam. Oqsoqol buvam tayinladilar. Bashorat opangizdan xabar olarkansiz degin, uqdingmi?

Birdan ichimda lop etib chiroq yonib ketgandek bo'ldi. Axir... Axir Oqsoqol buva Munavvarning oyisini gapiryapti-ku! Oti Bashorat bo'lsa, tekstilda tursa... O'sha-da! Mayli! Kecha Bashor xola jahl ustida shuna-qa qildi. Lekin Oqsoqol buva maqtayaptimi, bundan chiqdi...

«Taniyman! Bashor xolani ham, qizini ham... Mu-navvarni... Men uni...»

Bir zum jim o'tirsak, shu gaplar og'zimdan chiqib ketishi aniq edi. Bilmadim. Oqsoqol buvaning salobati bosdimi... tilim aylanmadi. Ammamga javdirab qara-dim...

– Xavotir olmang, Oqsoqol... – Ammamning yuzi yorishdi. – Bashorxon tinch yurganga o'xshaydi... Endi, bilasiz-ku, yoshlarni... – U menga zimdan tezgina qarab oldi. Nafasining «g'ij-g'ij»i kuchayib ketdi. – Nevaram tushmagur bilmasdan Bashoraxonning dilini og'ritib qo'yishiga bir bahya qopti... Shunga...

– Kim? – Oqsoqol avval ammamga, keyin menga oppoq qoshi tagidan o'tkir qarash qildi.

– Bashoraxonning qiziga sovchi qo'ymoqchi bo'p-ti. Minovarga. – Ammam shosha-pisha ko'zini yashirdi.

Nazarimda Oqsoqol sezilar-sezilmas seskanib ket-gandek bo'ldi. Kattakon kafti bilan qalin, oppoq soqo-lini tutamlab turdi-da, og'ir bosh chayqadi.

– Yoshlik qilma, bolam, – dedi sekin, ammo qat’iy ohangda. Belbog’ini timirskilab nos shishasini topdi. Nos otib, shisha og’zini shoshilmay yopdi. Uzoq jimib qoldi. Ammam hamon g’ij-g’ij nafas olar, Oqsoqol bir nuqtadan ko’z uzmay o’tirar edi. Nima balo, kelishib olganmi hammasi! Munavvarning onasi dod-faryod soladi! Dadam og’zidan ko’pik sachratadi. Ammam mum tishlaydi, Oqsoqol dashnom beradi! Nima bo’lgan o’zi? Nimaga aytishmaydi.

Nihoyat Oqsoqol yonboshlab, ochiq derazadan nosini tupurdi. Labini, soqolini artib, menga yuzlandi.

– Bolam, – dedi ko’zimga tikilib. – Odamzod yuz yil umr ko’radimi, ming yilmi – baribir o’lgisi kelmaydi. Ming yil yashagan bir sahoba «Esiz-esiz, u eshikdan kirdim-u bu eshikdan chiqib ketyapman», degan ekan. Shunaqa, bolam... Hech kim o’lishni o’ylamaydi. Ammo Xudo odamzodga umrni o’lchab beradi. Shunaqalikka shunaqa-ku, odamning umri necha yil yashagani bilan sanalmaydi... – u xo’rsindi. – Bir xil odamlar bor: u eshikdan kirib, bu eshikdan chiqib ketayotganda qo’lidan kelgancha savobli ish qiladi. Hayot degan imoratga aqalli bitta g’isht qo’yib ketadi. Yana bir xillari bor: o’sha imoratdan aqalli bitta g’ishtni o’g’irlab ketgisi keladi. O’g’irlab-ku, hech qayoqqa borolmaydi, narigi eshikka borganda bari bir tashlab ketadi. Ikki orada imoratni buzgani qoladi...

– Yosh-da, yosh, – gapga ammam aralashdi, – bil-magan...

Nimani bilishim kerak axir? Munavvar ikkalamiz bir-birimizni yaxshi ko’rishimiznimi? Nima bo’lgan o’zi? Nega hammasi gapni buradi? Munavvar ikkalamizning aybimiz nima?

Oqsoqol buvaning salobati bosib tursa ham chidab turolmadim.

– Amma... Rostini ayting! Nima bo’lgan o’zi?.. – ke-yingi gapni aytmoqchi emasdim. Og’zimdan chiqib ketdi, – Munavvar ikkalamiz...

Ammam yarq etib Oqsoqolga qaradi. Ajab, Oqsoqol buva ham yuzini o’girdi.

– Qo'y, bolam! – dedi vazmin, lekin qat'iy ohangda. – O'zingniyam, birovniyam qiynama.

Nazarimda uning boyagi salobati susayib qolgandek, to'satdan qaddi bukilgandek tuyuldi. Negadir kattakon kaftining orqasi bilan oppoq, quyuq qoshlarini silab qo'ydi. Bilmadim, qoshini siladimi, ko'zini artdimi?..

– Kelin... – dedi ammamga zimdan qarab, ovozi titrab ketdi. – Nimagayam padarla'nat urush bo'ldi-a?! Mendayam ayb ko'p-a, nima deysan, kelin?

...Hech nimaga tushunmadim. «Uyga borishim kerak»ligini bahona qilib chiqib ketdim. Oqsoqol qilt etmay o'tiraverdi. Ajab, har safar ko'cha boshigacha kuzatib chiqadigan ammam ham joyidan jilmadi.

...Yana kelib qoldimmi, shu baqaterak tagiga? Qiziq, No'g'ayqo'rg'ondan shu yergacha piyoda keldimmi-a? Soat necha bo'ldiykin? Yarim kechadan oshgandir. Muncha xunuk bu daraxt? Qoq suyak qo'llarini osmonga cho'zib nola qilib turganga o'xshaydi. Oy muncha xira? Munavvar hali xuddi shu yerda oyog'imdan quchoqlab yig'ladi. Tentak, nega yig'laysan? Adashmasam shu eshik Munavvarlarniki! Mana o'sha shifer tomli pastak uy. Hovlida archaning nayzasi osmonga sanchilib turibdi. Mana o'sha deraza. Chiroq o'chgan. Qiziq, Munavvar uyg'oqmikin? Nima keragi bor! Oyisi yana shovqin soladi. Munavvarni xafa qiladi.

Shoshma! Kim u ingrayotgan?! Meni chaqirdimi? Yo'g'-e, jimjit-ku. Ha, it uvillayapti. Munavvarlarning iti yo'q edi shekilli. Qo'shninikida. Namuncha uvillaydi! Odamga o'xshab yig'laydi-ya. Iye, yana birov ingradimi! Munavvar shekilli. Yo'q, menga shunaqa tuyuldi. Ketish kerak. Oyisi uyg'oq yotgan bo'lsa, Munavvar baloga qoladi. Ertalab pasportini olib chiqadigan bo'ldi-ku. Kecha yotoqda Ergashning xonasida tunaganman. Uyga borib hujjatlarimni olmasam bo'lmaydi! Qiziq, boshqa itlar ham uv tortyaptimi? Nima balo bo'ldi o'zi? Nimaga hammayoq bunchalik vahimali? Nega yuragim o'ynayapti? Xuddi gursillashini butun olam eshitayotgandek.

Charchadim... Umrimde shu bugungidek azobli kun bo'lmagan edi. Mayli, tong otsin... Munavvar institutga

boradi. Ko'rishamiz... Bilaman, oyisining boyagi qilmishidan uyaladi. Yana kechirim so'raydi. «Tentagim, jonim! Shunga shunchami? Nima bo'пти? Sening onang – mening onam emasmi? Yaxshi ko'rganida boshimni silaydi. Jahli chiqsa koyiydi. Nima qipti!»

Shunaqa-ku, nega hammasi bir tomonga o'tib olishdi? Oyim, dadam, Bashor xola?! Shoshma: hali Oqsoqol buva nima dedi? Bashorat belida belbog'i bor juvon dedimi? Bo'lmasa nega sovchilikka o'zim boraman deb turgan ammam birdan aynib qoldi? Nega Munavvarning otini eshitishi bilan Oqsoqol buva ham seskanib tushdi?! Nimaga? Nima bo'lgan o'zi?! Qiziq, Oqsoqol buva hayot imoratidan g'isht o'g'iraydigan odamlarni gapirganda kimni nazarda tutdi? Menimi? Men kimning imoratini buzibman. Yo dadamni aytmoqchi bo'ldimi? Oyimnimi? Bashor xolanimi?! Unaqa bo'lsa, nega o'zi maqtaydi Munavvarning oyisini?! Yana nima dedi? «Nimaga bo'ldi o'sha urush?» deb o'kindimi?! Urush bitganiga yigirma yildan oshdi-ku! Munavvar bilan mening nima daxlim bor urushga. Axir biz urushdan keyin tug'ilganmiz-ku! Ajab, nima uchun Oqsoqol buva, «mendayam ayb ko'p-a» dedi?

Yo'q, bunaqada jinni bo'lib qolish hech gapmas! Hozir... Hozir uyga boraman, pasportimni olib chiqaman. Ertalab Munavvar ham hujjatlarini obkeladi. Bo'ldi! Tamom!

Qirq beshinchi bob

UCHINCHI KURS STUDENTI MUNAVVAR ALIYEVA HIKOYASI

Dahshat

Axlat chelak hamon ag'darilib yotar, tuproq aralash archa shoxlari yerga to'kilib, bir qismi loyqa ariqchaga tushgan, qolgani sochilib ketgan edi. Oyim boyagi vajohatidan sal tushgan, yig'lamsirab, hasrat qilardi.

– Ne umidlar bilan katta qiluvdim. Otga teptirmadim, itga qoptirmadim...

Uch-to'rt xotin uning atrofini o'rab olgan, biri olib-biri qo'yib yupatishardi.

– Qo'ying, Bashorxon! Qarg'amang. Yosh-da...

– Ona qarg'ishi o'q bo'ladi, aylanay. Munavvarxon esli qiz.

– Shuni ayting, ovsinposhsha! Birov bilan qochib ketmabdi. Allakimlarga o'xshab yomon ish qilmabdi. Nihoyat, ko'ngliga yoqqan yigit kuzatib kepti. Shunga – shunchalikmi?

– E, ko'ngliga qiron kelsin!

Oyim meni ko'rib, battar tutaqdi.

– Uyga kir! – dedi o'shqirib. – Betginang qurgur, betsiz!

– Ovsinjon, qiz bolani qarg'ab bo'lmaydi... – qo'shni xotinlar tag'in yupata boshlagan edi, oyim shoshqinch siltanib, oradan chiqdi. Men bilan ketma-ket hovliga kirdi. Boyagi xotinlar ham ergashdi shekilli, oyim ko'cha eshigini taraqlatib yopib, sharaq-shuruq qilib, zanjirni tushirdi.

Indamay uyga kirib ketdim. Betsiz menmi, o'zimi! Begunoh odamni, onam deb etagidan tutmoqchi bo'lgan yigitni urib o'tiribdi. Pasport qayoqdaydi? Ha, burchakdagi qutida! Hamma hujjatlar o'sha yerda turadi.

Kun botib borar, havo dim, uy ichi nimqorong'i edi. Hovli tomondan onamning hamon jahl bilan to'ng'illayotgani eshilib turardi. Hamma narsaning ham chegarasi bo'ladi. Chidamniyam, andishaniyam. Endi o'zidan ko'rsin!

Mana o'sha qog'oz papka. Attestat, nalog qog'ozlari... Maktabda olgan medalim... Mana pasport. Ertaga institutga borib yurmayman, tong otmasdan Muzaffarlarnikiga boraman. Bir kun darsdan qolsak qopmiz. Mayli, bizga to'yi kerakmas. Boshida qolsin!

Shiq etib chiroq yondi... Cho'kkallab o'tirgan joyimda burilib qaradim. Ostona oyim turibdi. Sochlari yoyilib ketgan, bir oyog'ida kalish bor, bittasida yo'q. Yig'idan qizargan ko'zlari chiroq nurida qonsiragandek yaltirab turibdi. Qiziq, yuragimni qo'rquv emas, g'azab egalladi. Mayli, ursin, o'ldirsin! Qaytaga yaxshi bo'ladi.

U anchagacha merovsirab qarab turdi-da, kalishini yechishni unutilib, sekin-sekin yonimga keldi. Eski sholchada bir poy kalishining oqimtir izlari muhrlanib qoldi. Kiprik qoqmay qarab turaverdim. U holdan toygandek ro'paramga cho'kkaladi. Ko'zimga tikilib turdi-turdi-da, to'satdan bo'ynimdan quchdi.

— Bolam... — dedi unsiz yig'lab. — Jon qi-zim...— titroq lablari bilan peshonamdan o'pdi. Boshidan ter aralash qatiq isi anqib ketdi. Erta oqargan sochi yuzimga tegib g'ashimni keltirdi. — Jonim bolam! Nahot senga yomonlikni ravo ko'rsam, qizim! — Muk tushib, boshini tizzamga qo'ydi-da, qop-qora baquvvat qo'llari bilan belimdan quchoqlab oldi. Keyin oyoqlarimni tez-tez o'pa boshladi. — Kechir meni, qizim!

O'zining qilmishidan o'zi uyalyapti. Tizzalab o'tir-gancha oyimning paxmayib ketgan sochlarini siladim.

— Oyi... — dedim yalinib. — Unaqa qilmang, oyi!

U hamon qo'yib yubormas, oyoqlarimga issiq nafasi, lablarining tafti, qaynoq ko'z yoshi tegayotganini sezib turardim.

— Oyi, qo'ying.

U oyog'imni quchoqlaganicha boshini ko'tardi. Yig'idan entikib, og'ir yutindi.

— Jon bolam, — dedi yolvorib. — Gunohkor onangni kechir, qizim. Ayt, kechirdim, de!

Tomog'imni yig'i bo'g'di.

— Oyi, qo'ying! Unaqa demang! — Uning ter aralash qatiq hidi anqib turgan boshini quchoqlab, ko'ksimga bosdim. — Nimaga unaqa qildingiz? Nimaga urdingiz bechorani?

Oyim javob bermadi.

Anchagacha shu alpozdada o'tirdik. Tashqarida qo-rong'i quyuqlashdi. Deraza ro'parasidagi nayzador archa qora o'tovday qilt etmay turar, negadir qo'shnining iti tinmay uvlar, ko'ngilga g'ashlik solar edi.

— Va'da berasan-a, qizim? — U xuddi kapalakni avaylab hovuchlagandek, yuzimni dag'al kaftlari orasiga oldi. Sekin boshimni ko'tardim. Endi u yig'lamas, ko'zlarida ma'yus iltijo bor edi.

– Va'da berasan-a, Munavvar? – dedi yana. – O'shaning nomini tilga olmay-san-a?

Seskanib o'zimni orqaga tashladim. Endi mehr uyg'ona boshlagan ko'nglim yana g'ashlandi.

– Oyi! – dedim shaxt bilan. Shu bir og'iz so'zda o'tinch ham, alam ham, nihoyat g'azab ham aralashib ketganiga o'zim hayron qoldim. – Oyi! Men uni yaxshi ko'raman, bildingizmi! Men usiz turolmayman! O'lib qolaman! Tushunsangiz-chi! – dedim yerni mushtlab.

Boyadan beri qo'limda pasportni ushlab o'tirganimni endi bildim. Yerga mushtlaganimda pasport qo'limdan otilib ketdi. Muqovasi ochilib, deraza oldiga borib tushdi.

Oyimning rangi quv o'chib ketdi. Ko'zida boyagi mehribon ifodadan urvoq ham qolmadi. Yuzi tahlikali qiyshayib, ko'zlarida o't yondi.

– Turolmay-sanmi? – dedi tishlarini g'ijirlatib.

Ko'ziga tik qarab alam bilan bosh chayqadim:

– Turolmayman!

– O'lib qolasanmi, o'shasiz!

– Ha! – ovozim boricha chinqirdim. – O'lib qolaman!

Sakrab o'rnimdan turdim. Yugurib borib, deraza oldida sahifalari ochilib yotgan pasportni yulqib ko'tardim.

– Mana! – dedim baqirib. – Mana! Ertaga ZAGSga boramiz! Kerakmas to'yingiz ham! Sarpolaringiz ham.

Gapimni tugatolmadim.

– Ur! – Oyim tizzalagan ko'yi surilib, ro'paramga keldi. – O'ldir! – dedi telbalardek hayqirib. – Hovonchadek qo'llari bilan ko'ylagining yoqasiga chang solib bir siltagan edi, ko'ylagi sharillab yirtildi. Qora badanidagi ko'kraklari yalang'ochlanib lopillab ketdi. – Ur! – dedi chinqirib. – Ur! O'ldira qol! O'z akangni er qilgandan ko'ra o'ldir onangni! Mana shu ko'kraklarimni ikkalang emgansan, juvonmarg! – u esdan og'ib qolgandek qop-qora qo'llari bilan ikkala ko'kragiga chang soldi. – Mana bunisini, mana bunisini talashib emgansan o'sha xushtoring bilan, qiz o'lgur!

U telbalanib qolgandek, og'zidan ko'pik sachrab nuqul «ur», «o'ldir» deb ko'ksiga mushtlar edi.

Ehtimol Muzaffar ikkovimizning soddaligimizdandir! Ehtimol Muzaffarni tashlab ketgan onasi-yu, allaqanday Zakunchining iflosligidandir! Kim bilsin, balki bitganiga yigirma bir yil to'lganidan keyin ham odamlarni o'ldirayotgan urushdan kulgandirman...

«O'ldirayotgan» dedimmi? Nima qipti? Dadam sog'ingan meni. Boraman. Oldiga boraman... Sodda, muloyim dadamning oldiga. Mehribon dadamning oldiga.

– Xafa bo'lmang, oyijon... Hammasi yaxshi bo'ladi...– Hayronman. Bu gapni ham juda sokin, juda xotirjam aytdim. Nega hayron bo'lay, axir men yo'qman-ku endi.

– Jon bolam, – u peshonamdan o'pdi. – Arzimagan narsa deb seniyam dilingni og'ritdim. Nima qilay, qo'rqib ketdim-da, qizim...

«Arzimagan narsa?» Ha, to'g'ri aytadi. Bu dunyoda arziydigan narsaning o'zi bormi?

– Qaniydi, shu ishlar bo'lmasa-yu sen Muzaffarni tanlasang, – dedi o'kinch bilan. – Qo'shqo'llab ko'tarib oborib berardim, qizim. Bilaman, yaxshi bola... O'z bolamni o'zim urdim-a... Ko'rsang ayt, mendan xafa bo'lmasin... Otasiyam, Robiyaxonam topilmaydigan odamlar. Ilojim qancha qizim? Nochorman...

Kim xafa bo'ladi? Muzaffarmi?! Yo'g'-e! Shu «arzimagan» narsaga-ya.

– Meni bilasan-ku, Munavvar! – Oyim yana boshimni siladi. – Ertaga ko'ngling tusagan yigitni obke! Shu menga yoqdi, degin, bir haftada to'y qilmasam, yuzimga tupur, qizim!

– Bilaman, oyi, bilaman, dam olaylik...

– Uyqu keladimi shu topda, qizim. Mayli, sen dam ol... Qurib ketsin, it muncha uvillaydi? Balosi o'ziga ursin...

– Qo'rqmang, oyi... Dam oling. Uxlaylik. Hozir doringizni topaman...

Fenobarbital uchta qoptimi? Shoshma. Yana bo'lishi kerak. Ha, mana tag'in bir qutisi bor ekan. O'nta! Ikkitasi oyimga... Qolgani...

...Yaxshi! Oyimning asabi menikidan yaxshiroq ekan. Ana, xurрак torta boshladi... Charchagan... Uy muncha isib ketdi! Ajab, qilt etgan shamol yo'q. Shunday qilib... Muzaffar bilan... Oyimning ko'ragini talashib... Bundan chiqdi... Hozir! Hozir hammasi tamom bo'ladi! «Arzimagan» narsalar... Hammasi arzimagan... Muzaffarni sevib qolganim ham... Sovchilarning haydalihi. Muzaffarning «qaynonasi»dan kaltak yeyishi... Yo'g'-e, nega qaynonasi bo'larkan. Onasi-ku axir... Dadasi urushda yurganida onasining begona kishi bilan... qochib ketishiyam... Muzaffarni dadasi «tuqqaniyam». Hammasi arzimas... Kim bilsin, balki urush bo'lmasa, dadasi ketmasa... Oyim «yaxshi bola» – dedimi? O'zim oborib berardim, dedimi! Mabodo oyim rozi bo'lgan taqdirdayam... Men-a? O'z akamga-ya! Qiziq, nega qo'rqmayapman? Qo'lim titramaydiyam-a! Nima qipti, buyam arzimas narsa!

Mendaqa yuragi poroklarga to'rttasiyam yetadi. Fenobarbital kuchli preparat. Mana, oltita, sakkizta... Mana, bo'ldi... O'ntasi yetadimi? Yetadi emish! Ortib qolar! Yaxshi. Hammasi joyida! Nima balo, ta'sir qilmayapti-ku! Ko'ramiz! Mana, o'rnimga eson-omon yetib oldim. Endi ko'zimni yumib yotsam... Ko'p emas, chorak soat. Bilaman... Hozir oshqozonda eriydi, qonga o'tadi. Avval miyani karaxt qiladi. Keyin...

Yana ko'nglim ag'darilyaptimi?

Oh! Bo'lmayapti! Kerakmas! Qusaman! O'rimdan turib olsam bas. Iye, qo'lim nega qimirlamaydi? Oyo-g'im ham karaxt-ku! Bundan chiqdi... Yo'q, turishim kerak. Xato qildim. Adashdim... Turishim kerak! Qo'r-qib ketyapman. Havo yetishmayapti.

– Oyi! Oyijon!

Nimaga eshitmaydi? Qandoq eshitsin! Ovozim chiqmayapti-ku? Shoshma, tashqarida birov yuribdi shekilli! Ana! Muzaffar!

– Oyi! Dada! Oyijon! Oh! Nima qilib qo'ydim? Oyi-i!

Nima bu? Osmon yaraqlab ketdimi? Nima u gum-burlagan? Oyijo-on!

Qirq oltinchi bob

SHOMUROD AKA HIKOYASI

Aybsiz aybdor

Muzaffar bugun ham kelmadi. Onasi adoyi-tamom bo'ldi. Ertalab Omonni buvisinikiga g'irillatdi. Yo'q, u yergayam bormabdi. Bundan chiqdi... Bilmadim... Xullas xunuk ish bo'ldi. Kecha o'zim ham yomon gap aytdim. «Yo'qol-po'qol» degan gaplarga balo bormidi? Ikkalasiyam yosh. Bir-biriga ko'ngil qo'ygan bo'lsa... Tush ko'ribdimi, Minovar... Shunaqaligini?! O'zim qo'rqib ketdim-da... Tag'in yoshlik qilib qiz bechorani... O'rtada shayton bor... Oldinroq shuni aytsam o'larmidim!

Xo'p, nima qilishim kerak edi? Oldimga o'tqizib qo'yib, Bashorat degan xotin seni emizgan, Minovar degan qiz sening singling bo'ladi, mabodo ko'ngil qo'yib-netib yurma deyishim kerakmidi? Seni tuqqan onang shunaqa – buzuq bo'lgan, o'zim emizay desam, ko'kragim bo'lmasa, nima qilay, o'lib qolmagin, deb majbur bo'ldim, shu ishni qilishga, desam durust bo'larmidi?! Nima qilaman bolani o'ksitib! Qolaversa: o'shanda Oqsoqol nima dedi? «Bolani ranjitmalaring, sir-sirligicha qolsin» demadimi? Ustiga-ustak pochcha falaj bo'lib qolganidan keyin Bashoratlar Tekstil tomonga ko'chib ketdi. Unda Muzaffar esini tanib-tanimagan bola edi. Tush ko'ribmanmi ikkala yosh birga o'qishini.

Bechora Bashorat! Shuncha yaxshiliklari evaziga aqalli oyda, yilda bir xabar olish o'rniga, holing nima kechdi deyish o'rniga... U-ku, o'zi bilan o'zi ovora edi. Biz-chi? Nimaga bormadik? Nimaga Muzaffarni yetaklab borib: «Mana shu odam sening onang bo'ladi. Minovar singling bo'ladi, demadik! Yaxshiyam Robiya eslilik qipti! Vaqtida qochib qopti. «Qizingizga sovchi bo'lib keldim, o'g'lim Minovarni yaxshi ko'rib qopti», desa holi nima kechardi?! Muzaffarni o'limdan olib qolgan, shu-ku! Bir kun emas, bir hafta emas, yetti oy!

Yetti oy ko'krak tutdi... Hammasiga Ra'no aybdor! Yo'q, anavi naqs-kasofat Zakunchi aybdor! O'zim-chi? O'zimda gunoh yo'qmi? Xo'sh, nima qilishim kerak edi? Sulayib qolgan bolani uloqtirib qutulsam yaxshimidi? Dunyo nimaga bunaqa teskari? Nima uchun qilar ishni birov qiladi-yu kasofatiga boshqalar qoladi?!

...O'sha kuni shilqillab qolgan bolani ko'tarib qamishzordan o'tib, qishloq ko'chasiga kirib qolibman. Nimaga shunaqa qilganimni bilmayman. Ehtimol biron-ta arava topib, shaharga bormoqchi bo'lgandirman? Boraman, baribir boraman! Zakunchini so'ymasam odammasman! Shuncha fashistga nayza sanchgan odamga yana bitta fashistni chavaqlash nima bo'пти!

Chanqab ketdim. Men-ku mayli, o'g'lim suvsamadimi? Uxlab qoldi shekilli. Shunaqa uzoq uxlaydimi?

– Muzaffar?

Silkitib ko'rsam, ko'zi ochiq. Ko'zi ochig'u yig'lamaydi. Boshi shilqillab, u yoqqa tushadi, bu yoqqa tushadi.

Qo'rqib ketdim. Xonumonim kuyishga kuydi, oilam barbod bo'ldi. Endi o'g'limdan ham ayrildimmi! Ingrab yubordim.

– Muzaffar, bolam...

Bolani bag'rimga bosgancha duch kelgan tomonga yugurdim. Nima qilay? Qayoqqa oboraman! Boqolmasam, emizolmasam! Xayolimga opam keldi. Nima qilsayam xotin kishi. Doka-pokaga yog'mi, bodommi o'rab og'ziga solar! Yo'lini qilar... Rutubatli salqin tushgan ko'chadan yelib borarkanman, bir mahal allakim bilagimdan tortdi. Munkib ketdim. O'g'limni bag'rimga qattiq bosgancha qayrilib qarasam, Oqsoqol bilagimni changallab turibdi.

– Bu nima yurish? – dedi guldirab.

Nima dey?! Erkak kishi bunaqa paytda nima deyishi mumkin?

Nazarimda Oqsoqol hammasini tushundi. Shimining cho'ntagidan shishasini olib nos otdi.

– Ber bu yoqqa! – dedi kattakon qo'llarini cho'zib.

Xuddi obqochib ketadigandek, o'g'limni bag'rimga qattiqroq bosdim.

– Ber! – Oqsoqol bolani qo'limdan avaylab oldi. Soqoli asabiy silkinib, chaqaloqning yuzidan o'pdi. – Hali shunaqangi azamat yigit bo'lsinki...

Tuprog'i o'ynab yotgan ko'chadan ketma-ket yurib ketdik. Qiziq, Muzaffar yig'lash u yoqda tursin, hatto g'ingshimas, nazarimda o'lib qolgandek edi. Oqsoqol esa bolani avaylab ko'tarib borar, «obbo azamat-ey, obbo giroy bola-yey!» deb erkalar edi. Ancha yurdik. Bir mahal qulog'imga bola yig'isi kirgandek bo'ldi. Qarasam, unniqib ketgan pastak darvoza oldiga kelib qolibmiz. Kimning uyi edi bu? Ha, Pochchaniki-ku! Uyam bultur men bilan ketma-ket urushdan qaytgan. Bundan chiqdi... Oqsoqol ataylab shu yerga kelgan. Bashorat yaqinda tuqqanini biladi.

– Hoy, kim bor?! – Oqsoqol ichkari kirdi. Beixtiyor men ham ergashdim. Qarasam hovli o'rtasidagi gulzor pushtasida Pochcha cho'kkalab o'tiribdi. Tesha bilan namozshomgullarning tagini yumshatyapti. Uy ichidan bola yig'isi eshitilyapti.

Pochcha Oqsoqolni ko'rib ildam o'rnidan turdi. Avval Oqsoqol bilan, keyin men bilan ko'rishdi.

– Xotiningni chaqir! – dedi Oqsoqol lo'nda qilib.

Pochcha esankirab qoldi.

– Tinchlikmi?

– Chaqir deyman! – Oqsoqol bir qo'llab bolani quchoqlagan ko'yi ikkinchi qo'lini paxsa qildi. – Bo'l tez!

Men Bashoratning bola emizib o'tirganiga ishonardim. Yo'q, molxonada ekan. Tert qorilgan tog'orani ko'tarib chiqib keldi. Uzoqdan Oqsoqolga salom berdi.

Pochcha bir nimani tushundi shekilli, alang-jalang bo'lib, goh bizga, goh xotiniga termildi. Ko'zlarida yalinch ifoda bor edi.

– Bashoratxon, – dedi ovozi ingichkalashib. – Shu... Oqsoqol kelgan ekanlar.

– Omon-esonmisiz, Oqsoqol! – dedi Bashorat shaddot o'ktamlik bilan. Keyin menga yuzlandi. – Ra'noxon yaxshimi?

– Ra'no... yo'q! – Alam bilan yuzimni o'girdim.

– Menga qara! – Oqsoqol katta-katta qadam bosib, Bashorat tomon yurdi. – Tezroq qo'l-po'lingni yuvging-da, shu bolani emiz! Gapni ko'paytirma!

Bashorat bir zum hayratlanib turdi-da, tog'orani uloqtirib, ariqda shosha-pisha qo'lini yuvdi. Oqsoqolning qo'lidan Muzaffarni olarkan, yarq etib menga qaradi.

– Iltimos... – Esimni taniganimdan beri bir marta yig'lagan edim. Saratovda. G'alabani eshitgan kuni... Bu safar...

– Yig'ishtir obi-diydani! – Oqsoqol yelkamga shunday zarb bilan shapatiladiki, qalqib ketdim. – Kim aytadi seni frontovik deb! – Keyin Pochchaga o'girildi. – Ko'rdingmi, Pochcha, bitta o'g'ling ikkita bo'ldi!

– Bizniki o'g'ilmas, holva! – Pochcha goh menga, goh Oqsoqolga qarab, xijolatli iljaydi. Bashorat Muzaffarni bag'riga bosib erkakcha shaxdam qadamlar bilan uy tomon ketdi.

– Undoq bo'lsa yana yaxshi! – dedi Oqsoqol guldirab. – O'g'lim yo'q deb yurmaysan. Shu bola sening ham o'g'ling bo'ladi. Seni qizing Shomurodniyam qizi, uqdingmi?

Bashorat ayvonga chiqib borarkan, Muzaffarni o'pdi.

– Voy, qorningni qorachig'idan aylanay! Voy, o'zim o'rgilay polvon boladan.

Bola ayol hidini sezdimi, sut nafasini payqadimi, ojiz ingrab qo'ydi.

– O'llaring, ikkalang ham! – Bashorat eshik oldida to'xtab aftimga nafrat bilan chaqchaydi. – Bolaning o'lishiga bir bahya qopti-ku!

Pochcha «ana, bizning xotin shunaqa – o'g'il bola» degandek. Oqsoqolga qarab jilmayib qo'ydi.

Zum o'tmay ichkaridan ikki bolaning baravar yig'lashi eshitildi. Pochcha «ana» degandek tantana bilan bosh silkidi. Lekin «nima bo'ldi, onasi qani?» deb so'ramadi. Bir qarashda – mehribonlik, bir qarashda – haqorat. Bundan chiqdi Ra'no bilan Zakunchining «don olishib» yurishini hamma biladi. Faqat men... befahm mol bexabarman!

Oradan ancha o'tdi. Nihoyat ikkala bola ham tinchib qoldi. Pochcha hamon qo'lida tesha tutgancha angrayib turar, Oqsoqol hovlini, molxonani tomosha qilgan bo'lib, atrofga alanglar, men serrayib qolgandim. Qiziq, hech qaysimiz bir-birimizning ko'zimizga qaramasdik. Uy eshigi g'iyqillab ochildi. Bashorat chiqib keldi.

– Minovaringiz tushmagur rosa g'ashlik qildi! – dedi eriga qarab. – Bittasigayam to'yadi-ku, baxillik qilyapti. Bittasini emib, ikkinchisini changallaydi, qizg'anchiq.

– Bashoratxon! – Yerdan ko'z uzolmay qoldim. Bunaqa paytda nima deyish kerakligini bilmasdim. – Aqalli bir-ikki oy... – dedim tutilib. – Keyin bir gap bo'lar. Ammasi bor... Amallab... Mayli, haqi qancha bo'lsa...

– Nima? – Kulib turgan Bashorat birdan jiddiy tortib, qovog'ini soldi. Nazarimda yuzimga nafrat bilan qaragandek bo'ldi. – Uyalmaysizmi? – dedi ijirg'anib. Ahvolimni tushundi shekilli, yupatdi. – Xafa bo'lmang, – dedi bag'ridagi Muzaffarga qarab. – Turmush o'lsin... Qo'ying... Ra'noxonni... xafa qilmang... Yaxshimi-yomonmi, ona-ku.

Tishlarim g'ijirlab ketdi.

– Rahmat... – Bolaga qo'l cho'zdim. – Uzr, – dedim kinoyali iljayib. – Bo'ldi... Sizni boshqa bezovta qilmayman. – Ammo... bolaga o'shaning harom sutini emizmayman!

Bolani ko'tarib, endi eshik tomon yurgan edim, Oqsoqol chaqirdi.

– Shoshma, o'v! Baqqa ke!

To'xtab qoldim.

– Gap bunday! – dedi Oqsoqol vazmin ovozda. – Sen – Bashorxon, esli juvonsan. Potmamning yosh bolasi yo'q, bilasan, bo'lmasa, bola o'zimizdan ham ortmasdi. To'g'ri, kolxozda emiziklik xotinlar ozmas. «Tuya» sartaroshning xotini o'g'il tuqqan. Xirmontepalik Melivoyniyam Hasan-Husani bor. Lokin bu, – Oqsoqol qoshi bilan menga imo qildi. – Eshikma-eshik yursa...

– Voy, Oqsoqol, men bir nima deyapmanmi? – Bashorat xafa bo'lib uning gapini kesdi.

– Shoshma, berdisini eshit! – dedi Oqsoqol ovozini pasaytirib. – Dumaniki yaqin. Bolaga ammasi qaraydi. Emizish – sendan. Uqdingmi?

– Albatta-da! – Pochcha bolani xuddi o‘zi emizadigandek muloyimlik bilan qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi.

– Gap shu! – dedi Oqsoqol keskinlik bilan. – Bugundan boshlab shu ikki norasta aka-singil bo‘ldi. Lokin zinhor-bazinhor og‘zingdan gullab yurma. Sen ham. – Oqsoqol Pochchaga tayinladi. – Begunoh go‘dakni malomatga qoldirsalaring xapa bo‘laman!

...Bilmadim. Qishloq joyda gap yotmaydi. Ehtimol Bashorat Muzaffarni ko‘krakdan ajraguncha emizganini uncha-muncha odam eshitsa-eshitgandir. Ammo hech kim hech qachon bu sirni oshkor qilganini eshitmadim.

...Shuncha yaxshilik qilgan, joningni asrab qolgan xotinga, o‘z onangga azob berasanmi, nobakor bola?! Kelib-kelib o‘z singlingga ko‘ngil qo‘yasanmi, ahmoq! Nachora, senda nima gunoh? Balki hammasiga men aybdordirman?.. Kecha yotig‘i bilan tushuntirsam bo‘lar-di-ku! Mayli, haliyam kechmas. Hammasini tushunasan. Qaytaga yaxshi bo‘ladi. Minovar – singling ekanini bilsang, boshini silaysan! Umrbod madadkor bo‘lasan... Hali Robiyaga shuni gapirsam, «o‘zingiz tushuntiring, erkak odamsiz», dedi. To‘g‘ri! Hammasini aytaman. Faqat mendan ranjima, o‘g‘lim! Hammasini tushuntiraman.

Ana, keldi! Xayriyat, tirik ekan. Men bo‘lsam, ne xayollarga borib yuribman. Bilaman, Robiya ham, Omon ham uxlamagan, poylab o‘tirishibdi. Uyda chiroq o‘chgan. Lekin ikkalasiyam uyg‘oq. Ana, Muzaffar ayvonga chiqdi. Mastmi, nima balo? Nega gandraklaydi? Tentak bola! Qo‘rqma! Odamzodning boshida bunaqa gaplar bo‘lib turadi. O‘zim ham onangdan ajralsam o‘lib qolaman, degandim. Baloyam urmadi. Seniki nima bo‘pti hali! Soat necha bo‘ldi o‘zi? Eh-he, to‘rtidan oshibdi-ku! Halizamon kun yorishadi. Nima balo? Muncha tipirchilaydi bu harom o‘lgur qo‘ylar. Uvillayotgan it kimniki? Sartaroshning iti-ku! Ovozi muncha xunuk...

Zilzila

Toqatim yo'q! Ko'rarga ko'zim yo'q! Dadamniyam, oyimniyam! Balki bo'yin egib keldi deb o'ylarsizlar! Chuchvarani xom sanabsiz! Pasportimni olaman-u tong otmasdan chiqib ketaman! Bo'ldi, yetar! Yosh bola emasman! Odamman. Erkakman! Uch kun oldin Munavvar nima dedi? Bekatda, muzey devori tagida! Men ham... mening ham bolam bo'ladi. Yaqinda! Kerakmas, to'ylaringu karnay-surnaylaring!

Hali Munavvarning derazasi tagida turganimda ingradimi? Meni chaqirdimi? Nega kirmadim? Nega qo'rqqoqlik qildim? Yo'g'-e, qulog'imga shunaqa eshitildi. Xo'p, kirganimda nima bo'lardi? Shallaqi onasi yana g'avg'o boshlarmidi! Shumi?

Obbo! Oyim uxlamagan ekan-ku!

Avvallari bir soat kechiksam, «qayoqda qolding», deb tergar edi. Bugun yuvosh tortib qopti. Aybdor odamdek, qorong'ida ko'zimga termilishini qarang!

– Qorning ochib ketgandir! Hozir ovqat isitaman.

Ovqat! Nima keragi bor? Qarasam, zipillab borib devordagi chiroq tugmasini bosmoqchi.

– Kerakmas! To'qman!

O'zimni to'shakka tashlashim bilan yana tepamga keldi... Doim shunaqa qiladi. Bir vaqtlar, kichkinaligimda kasal bo'lsam, birov bilan mushtlashib, ko'chadan yig'lab kelsam, yotqizib qo'yardi-da, boshimga egilib indamay turar edi. Men beixtiyor nari surilib, yonimdan joy berardim. Oyim yonboshimga o'tirib, iliq kafti bilan boshimni silar, men bo'lsam, hamma narsani – og'riqni ham, alamni ham unutib, uxlab qolardim. Uyquga ketarkanman, oyim, boshim ustiga egilardi-da, ohista shivirlar edi: «Jinnivoy!»

Ha, unda bola edim. Telba edim! Ammo endi yosh bolamasman. Yigitman! Erkak kishiman. Bari bir tepamda turibdi. G'ira-shira qorong'ida yuzini aniq ko'rmasam ham, ko'zlarida yalinch ifoda borligini sezib

turibman. U sharpadek unsiz harakat bilan boshimga egildi. Peshonamni silayotganida ijirg'anib, yuzimni o'girdim.

– Jinnivoy! – dedi pichirlab. Yengil titrayotgan barmoqlari avval peshonamni, keyin sochlarimni siypalab boshlagan edi, boshimni siltab tortdim. O'shqirib berdim:

– Qoching! Uxlayman!

Oyim chuqur xo'rsindi. Qo'lini tortdi.

– Xafa bo'lma... Bu kunlaram o'tib ketadi.

«O'tib ketarmish!» Yuragingni sug'urib oladi-da, «o'tib ketadi» deb yupatadi!

– Qoching! Men uxlayman!

Oyim sharpadek sirg'alib nari ketdi. Eshik oldiga borganida to'xtab, burildi. Negadir yana xo'rsindi. Eshikni ohista yopib chiqib ketdi.

Boyagi voqealar yarq etib ko'z o'ngimga keldi. Hech gapdan hech gap yo'q, bobillab yoqamdan olgan Bashor xola... Axlat chelak... Na onasini, na meni yupatishni bilmay, zirillab yugurgan Munavvar... Mening dardim bu yoqda qolib, u eshikdan kirib, bu eshikdan chiqib ketgan allaqanday sahobani gapirgan Oqsoqol buva...

Bekor aytibsizlar: hammang, hammang bekor aytibsan! Dadam-u oyim ham, Bashor xola ham... Ertaga, ertaga hammasi hal bo'ladi! Ko'ramiz kim qaysarroq ekan!

...Dadam uxlamagan dedim-ku... Ana, kirib keldi, papiros tutatib. O'zimni uxlaganga solib yuzimni o'girdim. Ana, kursiga o'tirdi. Papiros cho'g'idan qalin mo'ylovi, ozg'in yuzi yorishib ketdi. Yo'taldi.

– Muzaffar... Bilaman, uyg'oqsan...

Nima qipti, uyg'oq bo'lsam? O'rnimdan turib, shakarguftorlik qilishim kerakmi?

– O'g'lim! – U papirosni chuqur tortib, tutun qaytardi. – Bilasan, men silab-siypab gapirishni eplolmayman. Mendan xafa bo'lma, Muzaffar... Xullas, gap shuki, Bashorat bechoraning dilini og'ritma. O'sha qiz – Minovar – sening singling bo'ladi. Bashorat – sening onang. Qo'qonlik oying tashlab ketganidan keyin Bashorat seni emizgan. Yoshingga to'lguningcha...

Nima? Nima deyapti? Bir zum karaxt bo'lib yotdim-u sapchib o'rnimdan turib ketdim.

– Ni-mma?!

O'sha zahoti kimdir chiroqni yoqdi. Devorga suyanib unsiz yig'layotgan oyim, eshik oldida trusikchan qunishib turgan Omonni ko'rdim. Dadam aytgan gapning dahshatini endi idrok etdim.

– Yolg'on! Tuhmat! – Ko'rpani uloqtirib hayqirdim! – Yolg'on!

– Kechir meni, o'g'lim. Boshqa ilojim yo'q edi. – Dadam mo'ylovi alamli titragancha cho'loqlanib chiqib ketdi.

Telbalardek yostiqni mushtladim.

– Nega? Nega?!

Oyim chirqillab kelib bo'ynimga osildi.

– O'g'lim! Jon bolam!

Omon qo'limga yopishdi.

– Aka!

– Yo'qol! Yo'qol hammang!

Nafasim qisar, havo yetishmayotganga o'xshar edi. Bir tomonga og'ib ketayotganimni sal-pal sezdim-u gursillab karavotga yiqildim.

– Suv! Suv obke, Omon! – dedi oyim chinqirib.

Suvni nima qilaman! Men kimman o'zi? Agar shu gap rost bo'lsa... O'z singlisiga... O'z singlisini... Munavvar! Bechora Munavvar! Bir-biridan dahshatli savollar yuragimga pichoqdek sanchila ketdi. Shuning uchun ekan-da, oyim sovchilikka borib, qochib kelingani?! Shuning uchun ekan-da, dadam talvasaga tushib qolgani! Munavvarning onasi shuning uchun ko'cha o'rtasida dod solgan ekan-da! Ammam shuning uchun bo'shashib qolgan ekan-da! Oqsoqol buva shuning uchun Bashoratning dilini og'ritma debdi-da! Nima qilib qo'ydim Munavvarni?! Men ham odammanmi! Shu kunimdan ko'ra o'lganim yaxshimasmi! Munavvar! Nima qilib qo'ydim!

– Kerakmas! Chiqib ketinglar!

Nega yig'laydi oyim?! Men yig'lashim kerak-ku! Men vijdotsiz! Ablah! Men – nopok yig'lashim kerak-ku!

– Chiqib ketinglar! O‘z holimga qo‘yasanlarmi-yo‘qmi?!

Xayriyat, daf bo‘lishdi. Ayvon tomonda dadamning xo‘rsinib, g‘o‘ldiragani eshitildi:

– Menga qara, Robi... Balki Bashoratga yotig‘i bilan tushuntirarmiz. Bir-biriga shunchalik ko‘ngil qo‘y-gan bo‘lsa... Turmushda nimalar bo‘lmaydi...

Oyim bir nima deb ming‘illadi, eshitmadim.

– Mayli, tong otsin-chi... – Dadam yo‘taldi. – Basho-ratga...

Yana Bashorat deydi-ya! Munavvar-chi, Munavvar?! Agar shu gapni eshitsa... Bilaman-ku! Munavvarni bilaman-ku! Hammasiga men aybdorman! O‘zim!

...Tag‘in nima bo‘ldi? Kim u meni to‘shakdan uloq-tirib yuborgan? Nimaga deraza shaqillaydi? Yuzim achishyaptimi? Qon-ku! Kitob shkafi ag‘darildimi! Oynasi sindimi? Osmon yorishib ketdi shekilli? Nega o‘rnimdan turolmayman? Axir uxlaganim yo‘q-ku! Es-hushim joyida-ku. Nimaga yer silkinyapti?! Ana, bir nima gumburladi. Yer tagida allanima guvillayapti.

Urush! Urush boshlandi!

Yuragim gursillagancha o‘rnimdan turishga urin-dim. Ming la‘nat! Simkaravatning suyanchig‘i ilgagi-dan chiqib, oyog‘imni qisib qopti. Mana, bo‘ldi! Chiroq ham yonmayapti. Demak, bomba tushgan!

Osmondagi shafaq o‘chib, zulmat cho‘kdi.

Ayvon tomondan Omonning dahshat to‘la nolasi keldi.

– Oyi-i!

Ayvonga otildim. Eshikka yetganimda yer yana sil-kind. Ohak hidi, itlarning uvillashi, allaqayerda oynan-ing qarsillab singani eshitildi. Eshik kesakisiga suyan-gancha bir zum turib qoldim. Yer hamon beshikdek lopillar, uy muttasil nari-beri borib kelar, shiftan ohak ko‘chib yerga to‘kilar, hammayoq g‘ijir-g‘ijir qilar edi.

Oyim hali uxlamagan ekan. Bo‘yi o‘zi bilan teng bo‘lib qolgan Omonni quchoqlab ayvon o‘rtasida o‘tirar, tokchadan ag‘darilib tushgan samovar Omonning to‘-shagi yonida tumshug‘i bilan namatga sanchilib yotar edi. Oyim meni ko‘rib, ko‘zlari ola-kula bo‘lib ketdi.

– O‘tir, – dedi ovozi titrab. – O‘tir! Shol bo‘lib qolasan! – O‘sha zahoti ayvon zinasidan cho‘loqlanib dadam chiqib keldi.

– O‘tirsang-chi! – dedi o‘dag‘aylab. O‘zi ham ayvon zinasiga cho‘kkalab oldi-da, hayajonli titroq ovoza pichirlab duo o‘qiy boshladi.

Dimog‘imga tuproq hidi urildi. Yerning silkinishi sekin-sekin pasaydi. Ammo tokchalardagi choynak-piyolalar hamon shaqirlar, itlar to‘xtovsiz uvillar edi.

– Qo‘rqmanglar! – dedi dadam bizgami, o‘zigami dalda berib. – Yer qimirladi... Bo‘ldi... o‘tdi...

Chindan ham shaqir-shuqurlar, itlarning uvillashi pasaydi.

Hovliga tushayotgan edim, oyim baqirib berdi.

– O‘tir, hozir yana qaytalaydi!

Sakrab hovliga tushdim. Etakdagi uyning romi o‘r-niga omonat terib qo‘yilgan xom g‘ishtlar hovliga otilib, parokanda sochilib yotar, bostirma eshigidan arqonni uzib chiqqan ikkala qo‘chqor hovlida tipirchilab, u burchakdan bu burchakka jonsarak yugurar edi.

Bir zum dahshat to‘la sukunat cho‘kdi. Itlar g‘ing-shimay qo‘ydi. Qo‘ylar ham tinchib qoldi. Atrofga nimqorong‘i zulmat aralash tarang osudalik qo‘ndi. Ufq sekin-asta yorisha boshladi.

– Yomon qimirladi! – Ayvondan oq ishtonining bo-g‘ichini osiltirgan dadam tushib kela boshladi. – Ash-xaboddayam bunchalik bo‘lmagandir.

– Do-od! Jon bola-am!

Yuragim seskanib ketdi. Negadir bu ovoz Bashor xolanikiga o‘xshab ketdi. Boya dadam aytgan mud-hish xabar zilzila vahimasi bilan bir zum xayolimdan ko‘tarilgan ekan. Yana hammasi qaytadan yodimga tushdi-yu, ko‘cha eshikka yugurdim. To‘g‘ri, tekstilda baqirgan odamning ovozi bu yerga kelmaydi. Ammo yuragim sezib turibdi. Bir gap bo‘lgan! Munavvarga bir nima bo‘lgan!

Eshikka yetganimda oyimning hayqirig‘i qulog‘imga kirdi.

– Qayoqqa? Hozir yana qimirlaydi!

Menga desa ming marta qimirlamaydimi?! Boshimga tushgan ko'rgulik oldida zilzila nima bo'пти?! Yo'q, men emas, Munavvarning boshiga tushdi bu kulfat! Endi nima bo'ladi? Yuragimni sug'urib tashlasam qutulamanmi shu azobdan! Terimni shilib tashlasam qutulamanmi? Munavvar! Nima qilib qo'ydim!

Tong yorishgan, ammo ko'chalar kimsasiz, ham-mayoqqa vahimali, o'lik sukunat cho'kkan edi. Bir xil uylarning paxsasi qoq ajrab ketgan, ba'zi uylarning derazasi otilib tashqariga tushgan, chekkaroqdagi hovlining g'ishtin devori qulab tushgan, devor ostidan hamon to'zon ko'tarilib turardi.

Harsillab yugurib borarkanman, odamlarning ovozi quloqqa chalina boshladi.

– Tinchlikmi, qo'shni?

– Bezalar. Oyna sindi. O'zingiz-chi?

– Paxsa yiqildi. Asli sinch qilsam bo'larkan.

...Bo'rijar yaqinida qurilayotgan kasalxonaning chala bitgan binosida ham pishiq g'ishtdan tiklangan devorlar qulab tushgan, ko'tarma kranning «qo'li» fil xartumiga o'xshab yerga og'ib qolgan edi.

Hali avtobus qatnay boshlamagan ekan. Yugurib ketdim. Shundagina oyog'im yerga muzdek urilayotganini sezdim. Qarasam, yalang oyoqman. Kechasi shudring tushibdi. Yer sovuq, ko'cha chetidagi qoqigullar, may-salar, go'yo hech gap bo'lmagandek tong shabadasida ohista chayqalib turar, chiqib kelayotgan oftobga salom berib mayin jilmayar edi. Qulog'imga tag'in o'sha – dahshat to'la nido chalingandek bo'ldi.

– Bola-a-m!

Yuragim qinidan chiqqudek bo'lib yugurib ketdim.

Tor ko'cha boshiga kelganimda nafasim qisilib qolgan, tizzalarim qaltirar edi. Qarasam, ko'cha ichi jimjit. Xayriyat! Yiqilib yotgan allaqanday daraxtga o'tirib, nafasimni rostdim. Daraxtning qurt yeb mo'rt bo'lib qolgan tanasini siladim. O'sha zahoti sapchib o'rnimdan turib ketdim. Axir bu... o'sha baqaterak-ku! Har safar Munavvarni kuzatib kelganimda panasiga o'tib, xayrlashadigan «o'zimiz»ning terak! Kecha Mu-

navvarga Ergash bilan kelib arralab tashlaymiz degan daraxtim.

Terak bo'y-basti bilan yiqilgan, tor ko'chani to'sib qo'ygan edi. Shundagina ichkarida, Munavvarlarning eshigi oldida to'dalashib turgan erkak-xotin aralash odamlarga ko'zim tushdi. Yuragim taka-puka bo'lib o'sha tomonga otildim. Odamlar to'dasini yorib o'tarkanman, xotinlarning shivir-shiviri qulog'imga chalindi.

– Oyog'idan devor bosib qopti!

– Voy-y? O'libdimi?

– O'zi yuragi kasal edi...

– Voy bechora-a!

– Ko'zi ochiq ketdi...

Uchib hovliga kirdim. Archa tagida nimcha kiygan, sochlari paxmaygan Bashor xola turar, atrofini o'rab olgan xotinlarga negadir iljayib qarar edi.

– Kirmang, ovsinjon, kirmang. Qizim uxlayapti. – Chamasi u meni tanimadi. – Unaqa demanglar, – dedi yalinib. – Munavvar o'lgani yo'q. Uxlayapti. – Qiziq, u negadir yana kuldi. – Uyqusi qattiq-da...

Otilib uyga kirdim. O'pirilib ketgan devordan nur tushib turar, burchakdagi karavot pachaqlanib mayishib qolgan, uy o'rtasida g'ishtlar sochilib yotar edi.

Berigi devor tagida yotgan Munavvarga endi ko'zim tushdi. Boshida yostiq yo'q, ustiga adyol yopib qo'yilgan. Tepasida ikkita xotin rangi o'chib turibdi.

– Munavvar! – Yoniga tiz cho'kib, boshiga egildim.

Uning ko'zlari ochiq edi. Yirik-yirik, qop-qora ko'zlarini ochgancha bir nuqtaga tikilib yotar, uzun, qayrilma kipriklari qilt etmasdi.

– Munavvar! – Yelkasidan ushlab silkitdim. Nazarimda u mayin jilmayishi, uyalib, oppoq, tiniq yuzini o'girishi kerakdek edi. Yo'q, u qilt etmadi. Bir nuqtaga qadalgan ko'zlarida, chiroyli, aqlli ko'zlarida, «nega unaqa qilding, men senga nima yomonlik qiluvdim», degan ma'no bor edi.

– Munavva-a-ar! – Dod solgancha yuz-ko'zlaridan o'pa boshladim. Uning uzun-uzun kipriklari pipirab

ketgandek bo'ldi. Ammo qimir etmadi. Negadir yuzi ham, lablari ham muzdek edi...

– Munavvar! – dedim jinnilardek quchoqlab. – Unaqa qilma, Munavvar!

Birov yelkamdan ushladi. Allaqanday begona xotin sovuq vazminlik bilan nasihat qildi.

– O'likning ustiga gul tushsa tosh tekkandek aziyat chekadi, bolam! Nima qilasiz qiynab?

Nima? O'lik? Munavvar o'likmi? Nimaga? Nima uchun? Nega endi men bu yoqda qolib, sen o'lishing kerak? Nima gunohing uchun, Munavvar!

Kimdir yuzimga suv sepdi. Kimdir qo'ltig'imdan oldi. Uyga brezent zambil ko'targan, oq xalat kiygan xotin bilan erkak kirib keldi. O'sha zahoti Bashor xola quyundek uchib, o'zini Munavvarning ustiga otdi.

– Bolam! Jon qizim! – U telbalanib oq xalatlilarga qaradi. – Ket! Yo'qol!

– Oyijon! – Qo'ltig'imdan tutib turgan odamlarni siltab tashlab Munavvarga yopishdim. – Munavvar!

– Ayrilib qoldim, o'g'lim! – Bashor xola hamon Munavvarni quchoqlagan ko'yi yosh to'la ko'zlari bilan menga qaradi. – Singlingdan ayrilib qoldik-ku, o'g'lim!

Munavvarning qo'llarini, kecha oyog'imga yopishib, shimimning pochasini silagan, erkalab sochimni taragan qo'llarini adyol tagidan tortib chiqardim-u yuzimga bosgancha muk tushdim.

– Obket, Munavvar! Meniyam obket! Ob-ke-e-et!

Xotima yoki eng oxirgi bob

QURILISH-MONTAJ BRIGADASINING BOSHLOG'I MUZAFFAR SHOMURODOV HIKOYASI

Quloq soling: quyosh so'zlayapti!

Avtobus hamon guvillaydi. Motordan chiqqan hovur benzin isiga aralashib tomog'imdan xippa bo'g'gudek bo'ladi. Kim bilsin, balki o'zim bo'g'ilib ketayotgandirman. Ana, Qo'qonga kirib keldik. Tor ko'chalardan o'tib boryapmiz. Yo'lovchilar birin-sirin

uyg'onib, g'imirlab qolishdi. Bola yig'ladi. Kimdir sigaret chekdi...

Tog' ortida quyosh ko'rindi. Qip-qizil saraton quyoshi. Muloyim jilmayib saxovat bilan nur socha boshladi. Har kuni shunaqa bo'ladi. Oftob har kuni kulimsirab uyg'onadi-yu odamlarga nur ulashadi. «Men borman-ku, bir kiprik qoqgulik qisqagina umringda tinch-totuv yashasalaring bo'lmaydimi?» deyotganga o'xshaydi. Quyosh har kuni uyg'ongan zahoti shunaqa deydi. Odamlar uning gapiga tushunmaydi. Urush qiladi, bir-birini o'ldiradi. Go'yo o'sha urush ammamni Kimsan akamdan judo qilmagandek. Go'yo to'qsonga chiqqan ammam, yuz yoshga kirgan Oqsoqol buva haliyam farzand dog'ida kuymayotgandek. Go'yo o'sha urush ellik million odamning yostig'ini quritganiga qanoat qilmay, o'zi tamom bo'lganidan keyin dunyoga kelgan Munavvarning, begunoh Munavvarning ham joniga chang solmagandek. Go'yo men Munavvarning «senga nima yomonlik qildim» degan hayratli xitob qotib qolgan ko'zlarini, qop-qora ma'sum ko'zlarini unutishim mumkindek... O'n ikki yildan beri azobdan qutula olmaganim, bundan keyin ham qutula olmasligim uchun men aybdordek.

Quyosh har kuni uyg'ongan zahoti jilmayib boqadi-yu unsiz xitob qiladi: «Bir kiprik qoqgulik qisqagina umringizda tinch-totuv yashasalaring bo'lmaydimi? Goh non talashasizlar, goh shon! Goh makon talashasizlar, goh imon? Axir hammangiz insonsiz-ku. Hammangiz mening bolalarimsiz-ku, men sizlarning otangizman-ku. Bir-birlaring bilan qirpichoq bo'laverishlaringni ko'rib charchab ketdim-ku! Yetar axir, yetar, bolajonlarim! O'z onangizni – Yer kurrasini adoyi tamom qilib tinchimoqchimisiz?! Onangiz shu umidda tuqqanmidi sizni?! Shu niyatda ko'tarib yuribdimi ko'k-sida!»

Quyosh har kuni shunday deb iltijo qiladi. Ammo odamlar uning hayqirig'ini eshitmaydi. Bir-biriga choh qaziydi. Bir-birining ko'ziga cho'p soladi, xiyonat qiladi.

Dunyo nega bunaqa? Oqsoqol buva aytgan – hayot imoratidan g'isht qo'porib olishga urinadigan kimsalar nega haliyam bor?!

Avtobus bir zumda bo'shab qoldi.

...Ozg'in shofyor zinalardan pildirib chiqib, salonga kirdi.

– Ie, haliyam o'tiribsizmi, mehmon? Chaqqon qimir-lamasangiz kech qolasiz. Marhumani chiqarishmasidan yetib boring-da... Taksi to'xtatib beraymi?

Tizzamda yotgan tugunni ko'tarib sekin o'rnim-dan turdim. Shimimning cho'ntagiga qo'l suqsam, telegramma ilashib chiqdi. Ko'k hoshiyali, «Molniya» telegramma. Qiziq, vokzal uzoqmikin? U yog'i G'isht-ko'prikkacha bir qadam... Shuni o'ylashim bilan qor bosgan katalakdek hovli, chaqmoq telpakli kishi ko'z oldimga keldi. Hayot imoratini buzadiganlardan bittasi... O'sha zahoti xayolimda Munavvar jonlandi. «Nega unaqa qilding meni, gunohim nima?» degandek bir nuqtaga tikilib yotgan Munavvar...

...Avtobusdan tushishga oyog'im tortmas, Tosh-kentga, brigadamga qaytgim, Ikrom akaning «tudavoy-sudavoy» deb shang'illab gapirishini eshitgim kelardi.

1982–1985,
Toshkent – Pitsunda – Toshkent.

12600

Asr oshgan asarlar

O‘TKIR HOSHIMOV

IKKI ESHIK ORASI

Roman

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent – 2013

Muharrir *G. Xaitova*
Badiiy muharrir *U. Sulaymonov*
Texnik muharrir *R. Boboxonova*
Sahifalovchi *L. Soy*
Musahhih *M. Ziyamuhamedova*

Nashr litsenziyasi AI № 201, 28.08.2011-y.

Tayyor diapozitivdan bosishga ruxsat etildi 25.07.2013.
Bichimi 84x108^{1/32}. «Times New Roman» garniturası. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 32,76. Nashriyot-hisob tabog‘i 30,19.
Adadi 10000 nusxa. 3069-son buyurtma. Bahosi kelishilgan narxda.

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,
100000, Toshkent shahri, «Buyuk Turon», 41.